

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**“Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi”  
kafedrasi**

**“ETNOMADANIYAT”**

**MODULI PPKASI**

60112100 - Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi  
yo’nalishi 2-bosqich talabalari uchun

**Namangan – 2023**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan fan dasturi 2020-yil 18-avgustda BD-60112100-2.06 raqami bilan ro'yxatga olingan va tasdiqlangan.

Modul papka Oliy va o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi vazirligi tomonidan 2020-yil 18-avgustda BD-60112100-2.06 raqami bilan ro'yxatga olingan va tasdiqlangan "Etnomadaniyat" fani dasturi va Namangan davlat universiteti Kengashi tomonidan 2023-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_\_ dagi 1-sonli kengash qarori bilan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

**E. G'apparov** Namangan davlat universiteti "Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi" kafedrasida dotsenti v.b.

**Taqrizchilar:**

**B. Tillayev** Namangan davlat universiteti "Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi" kafedrasida katta o'qituvchisi.

**NamDU Yuridik fakulteti dekani:**

2023 yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ **f.f.d., dots. B. Talapov**

**«Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi» kafedrasida mudiri:**

2023 yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ **f.f.b.f.d. dots. E. G'apparov**

Modul papka Namangan davlat universiteti Kengashining 2023-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_\_ dagi 1-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

<b>№</b>	<b>MUNDARIJA</b>
1.	Titul varog'i
2.	Mundarija
3.	Ma'ruza matnlari
4.	Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi
5.	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari
6.	Glossariy
7.	Ilovalar: - Sillabus; - Tarqatma materiallar; - Testlar; - Baholash mezonlari;



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**


**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**«Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi» kafedrası**

**60112100 - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi  
2-kurs talabalari uchun**

**«Etnomadaniyat»  
fani bo'yicha**

***MA'RUZALAR MATNI***



**NAMANGAN - 2023**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi**  
***Namangan Davlat universiteti***

60112100 - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi  
2-kurs talabalari uchun "Etnomadaniyat" fani bo'yicha ma'ruzalar matni

**Tuzuvchi: dotsent v.b. E.O.G'apparov**

**Taqrizchilar: f.f.n. dots. O. Mamatov**  
**katta o'qituvchi B.Tillayev**

Ma'ruzalar matni «Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi» kafedrasida ko'rib  
chiqilgan va tavsiya etilgan

Bayonnoma № 1 «      » avgust 2023 yil

“Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi” kafedrasi mudiri: **PhD E. G'apparov**

**Ma'ruza mavzulari va ular bo'yicha ajratilgan soatlarning taqsimoti.**

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Soati</b>
<b>1</b>	Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari	2
<b>2</b>	Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, etnografiyasi muammolari	2
<b>3</b>	O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar	2
<b>4</b>	Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni.	2
<b>5</b>	Qadimgi davr o'zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba (кўшиш керак)	2
<b>6</b>	O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlari (кўшиш керак)	2
<b>7</b>	Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rni	2
<b>8</b>	Etnopedagogika va milliy ma'naviyat	4
<b>9</b>	An'anaviy oila – turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni	2
<b>10</b>	O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari	2
<b>11</b>	Milliylik falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida	2
<b>12</b>	Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash	2
<b>13</b>	Ekologik ong va etnomadaniyat	2
<b>14</b>	Milliy o'zlikni anglash jarayonida etnomadaniyatning o'rni	2
<b>15</b>	Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi.	4
<b>16</b>	Etnomadaniyat va etnopsixologiya.	2
<b>17</b>	Etnik va ijtimoiy xotira.	2
<b>18</b>	Toponimika - etnos ongning tarkibiy qismi.	2
	Jami	40

## **1-Mavzu: Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari**

### **Reja:**

1. Fanning maqsad va vazifalari.
2. Etnomadaniyat fanining boshqa gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.
3. Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati va uning tub negizlari.

Hozirgi murakkab ziddiyatlarga to'la bizning zamonamiz har xil dramatik hodisalarga boy bo'lib barcha elat va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati va ma'naviyatiga ulkan ta'sir o'tkazmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ayrim etnoslar hayotiga, ularning o'zaro munosabatlari va aloqalariga ham jiddiy o'zgarishlar kiritmoqda.

Jahon aholisi XXI asrga kelib yetti milliardga ko'paydi. So'nggi bir asr davomida yer kurrasidagi xalqlar son jihatdan ko'payibgina qolmay, ularning etnik tuzilishi, turmush tarzi va ma'naviy dunyosi ham tubdan o'zgarishga yuz tutdi. Ona tabiat naqadar rang-barang va xilma-xil bo'lsa, yer yuzida yashovchi aholining etnik qiyofasi ham shu qadar rang-barang, turli-tumandir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan asr oxirlarida jahonda ikki mingdan ortiq xalqlar va elatlar yashagan. Ba'zi manbalarda esa yer yuzida yashovchi katta-kichik etnoslarning soni uch-to'rt mingga yaqin, deb ko'rsatiladi. Shularning 260 tasi bir milliondan ortiq kishiga ega xalqlardan iborat bo'lib, jahon aholisining 96 foizini, dunyoda eng kam sonli aholiga ega bir yarim mingga yaqin elatlar esa bir foizini tashkil qiladi. Tili jihatidan bir-biridan ajralib turadigan etnik birliklarning soni uch mingdan ortiq.

Etnolog olimlarning juda ko'p ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, insoniyat tarixining ibtidoiy davrlardan hozirgi kunlargacha bosib o'tilgan barcha pog'onalarida kishilar o'zligini anglashga, an'anaviy turmush tarzi, urf-odat va ma'naviyatini tushunib olishga, ayniqsa, qo'shni elatlarning etnik xususiyatlari va hayotini bilishga doimo ehtiyoj sezib kelganlar. Bunday ehtiyoj tufayli ming yillar davomida to'plangan turli elatlar to'g'risidagi boy ma'lumotlar davlatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishga, tinchlik sari yo'nalishga yordam berib kelmoqda. Hatto qadim zamonlarda ayrim mualliflar juda ko'p empirik xarakterdagi ma'lumotlarni muayyan tizimga solishga, xalqlarni xo'jalik va madaniy jihatdan klassifikatsiyalashga intilganlar. Ammo bunday o'y-fikrlar ilmiy asoslanmagan, mavhum xarakterda bo'lgan.

«Etnologiya» atamasi, yuqorida qayd qilinganidek, qadimgi yunoncha «etnos» (xalq, elat) va «logos» (so'z, ma'no) so'zlaridan tashkil topgan. Uning asl ma'nosi «xalqshunoslik» deb tarjima qilinadi. Qadimgi davrlarda greklar «etnos» so'zini boshqa g'ayri xalq (elatlar)ga nisbatan ishlatganlar. Ayrim mamlakatlarda hozirgacha «Etnologiya» atamasi bilan birga etnografiya, madaniy yoki sotsial antropologiya, xalqshunoslik nomlari ishlatiladi. Ba'zi Yevropalik olimlar «Etnologiya»ni nazariy fan, etnografiyani esa ta'riflovchi fan sohasi deb aytadilar. Aslida ikkala atama ham mazmunan sinonim, ya'ni bir ma'noni anglatuvchi tarix fani sohasi desa bo'ladi. Hatto qadimgi yunon mualliflari dastlabki etnografik ma'lumotlarni xalqlarai



ta'riflash bilan cheklab qo'ymasdan, balki ularni muayyan guruhlarga bo'lib, ya'ni ilk bora tasniflashga intilib nazariy fikrlarni bayon qilganlar.

Darvoqe, shu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, «Etnologiya» termini fanga ilk marotaba 1784 yil A.Shavann tomonidan olib kirilgan.

XIX asrlargacha «Etnologiya» atamasi fanda ba'zan ayrim etnografik jarayonlarni tasvirlashda ishlatilib kelingan. Mazkur atamani xalqlarni va madaniyatlarni o'rganishdagi yangi fan sohasi sifatida birinchi marta fransuz olimi Jan Jak Amper ishlatgan. U 1830-yilda «antropologik», ya'ni gumanitar fanlar umumiy klassifikatsiyasini ishlab chiqqan va shu tizimga «“Etnologiya» so'zini kiritgan. Bu atama qisqa muddatda keng tarqalib mustaqil fan sifatida tanilgan.

Rasmiy ravishda “Etnologiya” mustaqil fan sifatida 1839-yili Parij “Etnologiya” jamiyatiga asos solingan davrdan boshlab tan olingan. Albatta, bunday holat yyengil, murosasiz o'tmagan, yangi fanning predmeti, maqsad va fan olamida tutgan o'rni tevaragida jiddiy ilmiy-nazariy kurashlar bo'lib, ayrim yo'nalish va maktablarni yuzaga keltirgan. Bunday munozara va tortishuvlar hozirgacha davom etib kelmoqda, ayniqsa, mazkur fan atamasi, uning mohiyati va predmeti doirasida turli tushunchalar va mulohazalar mavjud bo'lib, “Etnologiya” atamasini turlicha talqin qilish va izohlash keng ko'lamda shu kungacha saqlangan.

Yozuv kashf etilgan dastlabki davrdan boshlab o'qishni hamda uzoq xalq va elatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qadimgi Misr, Mesopatamiya va Eronda yaxshi bilganlar, qo'shni elatlar to'g'risida faqat yozma manbalardagina emas, balki xalq og'zaki ijodida ham to'qilgan turli rivoyatlar, hikoyalar va afsonalardan bilib olganlar. Mil. av. XX asrlarda Misrda yaratilgan «Sinuxeta sarguzashtlari», keyinroq tosh va qablarga bitilgan zafaraomalar, Tell-Amarneda topilgan arxiv hujjatlari, qadimgi Shumer va Ossuriya obidalaridagi yozuvlar, eron-ahmoniy podsholari bittirgan jangovar solnomalar tevarak-atrofdagi mamlakatlar aholisi to'g'risida nodir ma'lumotlarni bizgacha yetkazganlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi xuzurida "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi Qarorida o'tmish milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirish, buyuk ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan bebaho madaniy-ma'rifiy merosini ko'z qorachig'iday asrab-avvaylash, kelgusi avlodlarga yodgorlik qilib qoldirish, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga qo'shgan ulkan xissasini butun dunyoga qayta tanitish, uni keng targ'ib etish, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga milliy g'urur, milliy iftixor, Vatanga muhabbat va istiqloq g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini singdirib borish kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar beriladi. Shunday ekan hozirgi hajamiyatimiz hayotida sodir bo'layotgan jadal o'zgarishlar har birimizdan davr bilan hamnafas bo'lib faoliyat ko'rsatishga, O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga, istiqloq yo'lida buyuk davlat barpo etish ishida safarbarlikni qo'ldan bermaslikka da'vat etadi.

**Fanning maqsad va vazifalari.** Oliy o'quv yurtlarida o'tildigan “*Etnomodaniyat*” fani yuqorida dasturulamal sifatida qo'yilgan ulkan vazifalarni bajarishga qaratilgan. Bu fan asoslarini insonshunoslik fanlariga tayangan holda

o'rganamiz. Yoshlarning umuminsoniy dunyoqarshlarini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarini yuzaga chiqarish kabi omillarni ilmiy jihatdan tadbiq etib, yoshlarni Istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash vazifasi yotadi.

Demak, "Etnomadaniyat" fani asoslariga kirish uchun biz xalqimizning uzoq o'tmish tarixiga e'tibor berishimiz zaruratdir. "**Etnomadaniyat**" atamasi ikki iboradan tashkil bo'lib: "etno" va "madaniyat" so'zlari qo'shilmasidir "**Etno**" - yunon so'zi - elat, xalq demakdir va shu bilan birga, ma'lum bir elat yoki xalqqa bo'lgan ishora, ko'rsatuv. Bu ibora biror xalqning kelib chiqishi (etnogenezi)ni ifodalaydi. Bunday tarzda biz o'zbek xalqining kelib chiqishi, uning etnogenezi (urug'chilik, nasl)ni tushunishimiz kerak. Shu bilan bir vaqtda "**etno**" iborasi ko'pchilik ilmiy -nazariy manbaalarda: "**Etnografiya**" -xalqlarning kelib chiqishi, turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganadigan fan sifatida bo'lib biror xalqning turmushi, madaniyati va urf-odatlariga xos bo'lgan xususiyatlarini ham ko'rsatadi. "**Etnonim**" tushunchasi ham mavjud, bu xalq nomi yoki xalq nomini ifodalovchi so'z sifatidagi atamadir. Bu so'zni yanada mukammallashtirish maqsadida "**Etnonimka**" iborasi ham ishlatilib leksikologiyaning xalq, qabila hamda urug'chilik nomlarini o'rganishga qaratilgan bo'limiga aytiladi. "**Etnograf**" iborasini ham biz kundalik o'quv jarayonida qo'llaymiz va bu iborada biz etnografiya fani bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan mutaxassisni tushunamiz. E'tiboringizni "**etnografiya**" va "**folklor**" faniga qaratib u:

1. Xalqlarning kelib chiqishi, turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyatini;
2. Og'zaki, yozma hamda musiqiy ijodini o'rganadigan fan ekanligini tushunamiz.

Shunday qilib, biz yuqoridagi ta'riflarga qaritilgan barcha ilmiy-tarixiy asoslarga tayangan holda "**Etnomadaniyat**" fani asoslarini quyidagicha izohlaymiz:

**Etnomadaniyat** biror xalqning kelib chiqishi (bu borada o'zbek xalqi), uning madaniyati, turmush tarzi, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarini tarixiy jarayon (davr)larda ravnaq topib hozirgi kunimizgacha rivojlanib kelayotgan ma'naviy hamda madaniy merosini o'rganadigan fandır. (Hurmatli talaba bu tarifni Siz yodlab oling)



nuqtai

Binobarin, fanni to'raligicha o'zlashtirish, uning nazariy va tarixiy-ilmiy asoslarini izohlash uchun bu fanni bilim tizimi ekanligini o'rganib chiqishni taqozo etadi. Vaxolanki, bu fanni o'rganib unga izoh berilganda uning madaniy tarixiy jarayon mazmuni, tarixiy takomili va ashyoyudalillari, nazariy hamda amaliy (hayotiyligi nazaridan) qonuniyati va uslublari asosida taraqqiy etishi, ijtimoiy-moddiy, ma'naviy-ma'rifiy salohiyati, milliy etnik /genezi/ munosabatlaridagi o'rni, madaniy aloqalar hamda umumbashariy va

umuminsoniy qadriyatlardagi xususiyati, ijtimoiy taraqqiyotdagi o'zni kabi serqirra tomonlariga asosiy e'tibor qaratiladi.

***Etnomadaniyat fanining boshqa gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.***  
Etnomadaniyat fani bilimlar tizimi ekanligini har tomonlama isbotlash uchun quyidagi masalalarni yoritishni taqozo etadi:

- Etnomadaniyat fani gumanitar fanlar bilan uzviy aloqadadir.

U falsafa, etika, estetika, sotsiologiya, tarix, psixologiya, etnografiya, folklor, musiqa, tasviriy san'at, arxitektura, dinshunoslik, pedagogika hamda adabiyotshunoslik kabi fan asoslari bilan hamkorlikda olib boriladi.

Etnomadaniyat quyidagi tamoyil va sifatlarni yoritishni o'zida aks ettiradi:

- etnomadaniyat tarixiy jarayon sifatida tarkib topib davrlar mobaynida ma'lum bir yutuq va kamchiliklarni o'zida namoyon bo'lganligini;

- etnomologik sifat masalasida jamiyat ma'anaviy-madaniy hayotini avlodlardan-avlodga etkazib, uning kelajagi uchun zamin yarata olganligini;

- o'tmish madaniyatni ongli ravishda o'rganish, uni o'rganib olmasdan turib madaniy merosni yangi jamiyat farovonligi yo'lida qo'llashga asos bo'lmasligini;

- diniy, Islomiy merosni chuqur o'rganish, uning milliy ma'naviyat va madaniyatning oliy sifati ekanligini;

- Markaziy Osiyo hududi moddiy-ma'naviy madaniyatning shakllanish va taraqqiyot markazi ekanligini;

- Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining tarixiy taraqqiyoti va uning mohiyatini to'g'ri tushunishni;

- Sharqiy xalqlari ma'naviy madaniyatining asosiy tub negizlarini to'laligicha (tadqiqotlar asosida) o'rganish kabilarga e'tibor qaratadi.

Albatta yuqoridagi sifat va tamoillarni har tomonlama o'rganish va kundalik faoliyatga tadbiq etish maqsadida, ***birinchidan***, ajdodlarimizning tarixiy evolutsiya davrlarida qo'lga kiritgan yutuqlarini; ***ikkinchidan***, xalqimizning madaniy-ma'rifiy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlarini, rasm-rusumlarini; ***uchinchidan***, xalqimizning axloq-odob saboqlaridan namunalarni mukammal o'zlashtirishdir.

Har bir xalqning madaniyati uning milliy ma'naviyati hamda ma'rifati bilan uzviy bog'langan. Mustaqil davlatimizning bugungi kundagi ma'naviy-madaniy taraqqiyoti islohotlar davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarimizning garovidir. Vaholanki, biz bu tarixiy ma'naviy va madaniy yutuqlarni har tomonlama tadqiq va tashviq etish uchun etarlicha shart-sharoit va imkoniyatlarga egamiz.

Madaniyat iborasi arabcha "*Madina*" (shahar, kent) so'zidan kelib chiqqan ekan. (Vatan tuyg'usi. Toshkent, "O'zbekiston" 1996 y. 114-115b) Shahar ma'nosida kelgan madaniyat so'zining talqini kishilar hayotini ikki turdagi ko'rinishi, ya'ni ***ko'chmanchidashtu-sahrolarda*** yashovchi xalqlar hamda ***shaharda yashab, shaharga xos turmush tarzida*** yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatilib kelingan.



***Madaniyat tushunchasi*** keng ma'noni anglatib, ***jamiyat va inson tarixiy tarqiyotining muayyan bir darajasi, kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi.***

“Madaniyat” tushunchasi muayyan tarixiy davrlar, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, masalan, ***antik madaniyat, sotsialistik madaniyat,*** shuningdek inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari, masalan ***mehnat madaniyati,*** diniy madaniyat, san'at madaniyati, turmush madaniyatini izohlash uchun qo'llanib kelinadi. Agarda bu so'zni tor ma'noda ishlatadigan bo'lsak bu atamani kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan mansubligini ko'ramiz.

O'rta asr madaniyatining buyuk namoyondalari Abu Nasr Muhammad ibn Uslug' Tarxon Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar ***shahar turmush tarzini yetuklik shakli sifatida*** ekanligini ochib berganlar. ***(Buyuk allomaning quyidagi fikrlarini yodlashga harakat qiling)***

*Har bir inson o'z tabiatiga ko'ra oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi. Bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb hunarda ozod, hamma barobardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb hunar bilan shug'ullanadi va odamlar chin ma'nosi bilan yashaydilar.*

***Forobiy***

**Albatta bunday tamoyillar faqat demokratik jamiyatdagina o'z ifodasini topishiga biz mustaqillik yillarida tushunib yetdik.**

**Hazrat Navoiy yetuk axloq va obro'da, odob va insoniy fazilatlarga xoslikni, ma'rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini olg'a surish bilan birga, ma'naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezonini deb gumanistik ideallarga muvofiqlikni tushungan va o'z asarlarida bu ta'limotni namoyish etib kelganlar.**

Ma'lumki, sho'ro tuzumi sharoitida Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyatini o'rganishning dasturul amaliy usullari g'ayri ilmiy g'oyalarga qurbon bo'ldi...**"Boy zamindorlarga, hokim sinf tabaqalarga xizmat qilgan o'tmish**

**madaniyatining bizga keragi yo'q, yangi proletar (yo'qsil) madaniyatini yaratamiz"** - degan shiorlar ostida sobiq sovetlar ko'pmillatli xalqlarning, jumladan o'zbek xalqining, moddiy va ma'naviy madaniyatiga qiron keltirdi. Buni ham yetmasdan tarixiy madaniyatni har tomonlama o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan arab alifbosini ta'qiqlanishi, asosiy yozuv imlolaridan xalqning mahrum etilishi sal kam etmishbesh yil davomida siyosiy maqsadlarga bo'ysundirilib kelindi.

Bunday siyosiy totalitar-klerikal munosabatning negizida xalqning milliy o'zligini bilishga bo'lgan intilishlarini ongli ravishda yo'qqa chiqarish asosiy maqsad edi. Bunday urinishlar hamda taqiqlanishlar o'tmish tarixdan biror misol keltirish kerak bo'lib qolsa, sho'ro mafkurachilari iloji boricha G'arbga borib taqardi... (Vatan tuyg'usi, Toshkent, "O'zbekiston" 1998y) Go'yoki, barcha xalqlar madaniyati Ovrupo (yevromarkaz)dan andoza olgan deb baralla hayqirishgan.

Ular Turkiston xalqlarining milliy g'ururi uyg'onishidan, o'tmishdagi boy madaniyatidan iftixor tuyg'ulari kuchayishidan qo'rqiishar edi. Sho'ro mafkurachilari madaniyatni sinfiy hodisa deb takidlab kelganlar.

*Madaniyat - umuminsoniy hodisa bo'lib, barchaga teng va barobardir. Allomalarimiz, olimu - fuzalolarimiz, shoiru – san'atkorlarimiz yaratgan barcha durdonalar xalqnikidir.*

Quyidagi tasvirda jonlangan Kalta minor tarixiy obidamiz xalqimizning durdonasi hisoblanmish Xiva shahrining ko'rki va salobatidir.



Har bir jamiyat va davr o'z madaniyatiga ega bo'ladi. Jamiyat o'zgarishi bilan uning madaniyati, tili ham o'zgaradi. Shu bilan birga

*Madaniy taraqqiyot uzulib O'tmish davrlardan insoniyatga qolmaydi, ilgari madaniyat yo'q qolgan moddiy va ma'naviy bo'lib qiytmaydi, madaniy meros madaniyat boyliklari majmuiga va an'analar saqlanadi madaniy meros deyiladi.*



Har bir yangi avlod moddiy va ma'naviy madaniyat negizini har gal yangitdan yaratmasligi mumkin. Shu bilan birga ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni o'z ehtiyojimiz va sharoitimizga qarab dunyoqarashimiz, jamiyatimiz va xalqimiz manfaatlariga mos keladigan, bugun va kelajak uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan qismini qabul qilamiz. Sho'rolar o'z niyatlarini barcha xalq va elatlarga singdirish borasida bir qancha g'ayriilmiy "qonunlar" yaratganlar. Shulardan biri: **"Sharqiy – G'arbdan sira oldin turishi mumkin emas, jahon sivilizatsiyasi G'arbdan boshlangan, G'arb insoniyat madaniyatining ilk beshigi" dir.** - Bu soxtalikning yana bir isboti shundan iboratki, sho'rolar davrida Markaziy Osiyoning g'ururi va shavkati hisoblanmish Samarqand shahrining yilnomasi maxsus tarzda qisqartirilib ko'rsatilgan. Aslida esa hamisha navqiron **"Samarqand sayqali ruyi zamin ast!"** xitobimizni yangratib aytamiz-ki **"Samarqand 3800 yoshda"** Bu sana buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning **"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"** asarida to'laqonli isbotlangan. Beruniyning yozishicha, Samarqand Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy) Turonga kelishidan 1500 yil avval ham navqiron shahar bo'lgan ekan. Iskandar Turonga mil. av. III-asrda bosqinchilik qilgan. Bu haqda buyuk adibimiz, akademik G'ofur G'ulom ham bir suhbatda: **"Fotixlar anoyi bo'lmaydilar. Ayniqsa muallimni avvalini , piri komil Arastudek ustozining shogirdi bo'lmish Iskandardek podshoh anoyi deb bo'lmaydi. O'sha olis zamonlarda Turon zamin obod, eli farovonu ma'mur bo'lgan, Samarqand Buxoro, Shosh va Xorazmda hayot qaynagan. Bu obodon o'lkaning dovrug'i Eron osha Yunongacha borib yetgan. Iskandarning fotixlik qonini jo'shtirgan, bu yerlarni zabt etishga undagan"**- deb eslaganlar. Buyuk adibimizning bunday fikrlarini izohlashga o'rin bo'lmasa kerak, Bolshovoy siyosati, millatning ma'naviy - madaniy hayotini **"sovetlashtirish, baynalminallashtirish, butun jahon proletarlari, birlashingiz!"** xitobi kabi zo'ravonlik siyosati o'zbek xalqi bilan birgalikda O'rta Osiyodan tashqarida bo'lgan qondosh xalqlar boshiga ham tushgan. Mustaqillik sharofati bilan biz o'zligimizni angladik, dinimiz va millatimizni millat ekanligini tub ma'nolarda tushunib yetdik.

<i>Xulosa</i>	<i>qilib</i>	<i>quydagilarni</i>	<i>aytish</i>	<i>mumkin:</i>
Etnomadaniyat	fani	asoslariga	kirish	jarayonida,
-fanning	tarixiy	- ilmiy	mohiyatini	o'rganish;
-universitetda	o'tiladigan	barcha ijtimoiy	hamda insonshunoslik	fanlarni
o'zlashtirishni				takomillashtirish;
-fanning nazariy	hamda	amaliy bo'limlarini	mukammal	o'rganish;
-bo'lg'usi mutaxassis	kadrlarning	ma'naviy dunyosini	shakllantirish,	ma'naviy –
ma'rifiy faoliyatni	yuzaga chiqarishning	omillarini ilmiy jihatdan	tadqiq etish;	
-yuksak	e'tiqodga	munosib	qilib	tarbiyalash;
-o'tmish ajdodlarimizning	ravnaq togan	tarixiy merosini	mukammal	o'rganishga
qaratilgandir.				

**Etnomadaniyat** fani Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy va madaniy tarixini o'rganishning ba'zi masalalari, qadimiy ma'naviyat va madaniyat

yodgorliklari, Islomiy tafakkur muammolari, temuriylar davrida ma'naviy-madaniy hayot, Markaziy Osiyo xalqlarining birinchi va ikkinchi Uyg'onish davrlariga xos bo'lgan ilmiy-madaniy merosini, o'zbek va o'zbek xalqining kelib chiqishi tub negizlarini, bu xalqning jahon va boshqa xalqlardan farq qiluvchi xususiyatlarini, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarini, oila, mahalla turmush madaniyatini, Turkistonda ma'rifatchilik madaniyati, jadidchilik harakatinig mohiyati va buyuk siymolar ijodi, tarixiy ajdodlarimizning mumtoz merosini o'rganishga sharoit yaratadi. Bu borada biz yana bir bor e'tiborimizni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning quyidagi fikrlariga qaratamiz:

*"Biz istiqlol sharofati bilan ko'p qadriyatlarni - iymonimizni, milliy g'ururimizni, ozodlik, bir so'z bilan aytganda Parvardigorni qaytadan chinakam tanidik. Endigi vazifamiz - bobolarimizning paymol etilgan orzu umidlari haqqi, avlodlarimizga, sizubizning farzandlarimizga butun dunyo bilan teppa-teng bo'ylashadigan buyuk O'zbekistonni meros qilib qoldirmoqdir"*

**(Vatan tuyg'usi. Toshkent O'zbekiston" 1996 yil).**

Bu so'zlardan tegishli saboq olib oldimizda turgan o'ta mas'uliyatli vaziflarni bajarishga qaratilgan ilmiy hamda amaliy ishlar Siz va biz uchun ishonchli va sharaflidir.

#### **Tayanch iboralar:**

Etnolog, Jan Jak Amper, "Etnologiya"

#### **Nazorat savollari:**

**1. «Etnologiya» atamasini fan sohasi sifatida birinchi marta kim ishlatgan?**

\*A)Fransuz olimi Jan Jak Amper. B)Rus olimi A.Tolstov. C)Yunon olimi Gerodot. D)O'zbek olimi T.Qozoqov.

#### **Testlar:**

**1. "Etnos" so'zi qaysi tildan olingan?**

\*A)Yunon. B)Rus. C)Ingliz. D)O'zbek.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: "Ўзбекистон", 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-јилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. "Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади" 3-жилд. - Т.: "Ўзбекистон", 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. "Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари". 4-жилд. - Т.: "Ўзбекистон", 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021.

- 464 б.

7. Aminjonova I E. «Qadimiy yodgorliklar qissasi». T. 1968.
8. Ashirov A. Atadjanov SH. «Etnologiya». T. 2007 y.
9. Ashirov A. «O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari». T. 2007 y.

## **2-Mavzu: Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, etnografiyasi muammolari**

### **Reja:**

1. O'zbekistonda «Etnologiya» fani: yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari.

2. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.

Biz oldingi qismlarda Respublikamizda «Etnologiya» fanining tarixi va mazkur fan sohasida erishilgan ijobiy ishlar borasida fikr yuritgan edik. Endi esa zamonaviy «Etnologiya» fanining yutuqlari, muammolari va mazkur fanning rivojlanish istiqbollari to'xtalib o'tsak. O'zbekiston istiqbolga erishganidan keyin boshqa ijtimoiy fanlarda bo'lgani singari «Etnologiya»da ham katta amaliy ishlar bajarildi.

Mustaqillik yillarida mafkuraviy tazyiqlardan holi bo'lgan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi «Etnologiya» fani sohasida ham garchi ma'lum qiyinchiliklar bilan bo'lsada, bir qator ilmiy-nazariy va metodolik tadqiqotlar amalga oshirildi. Tadqiqotlar nafaqat mazmun va mohiyati bilan balki, ularga nazariy metodologik jihatdan yondashuvlar ham o'zgarganligini ko'rsatmoqda. Tarixan qisqa davr mobaynida erishilgan eng muhim natijalar sifatida tadqiqot mavzularining kengaygani va ilmiy izlanish samaradorligi oshganligini kuzatamiz. Tadqiqot obyekti va predmetiga, balki uning metod va nazariyalariga ham yangicha qarash natijasi o'laroq «etnomadaniy jarayonlar», «etnoslararo jarayonlar», «zamonaviy jamiyatda milliy-etnik jarayonlar», «etnopsixologiya», «etnoslararo kommunikatsiya», «gender muammolari» va «Etnologiya»ning boshqa zamonaviy yo'nalishlarida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. O'tgan qisqa davr mobaynida etnolog tadqiqotchilar «bir xillik» andozasidan ozod bo'ldilar va «madaniyat», «madaniy meros», «mentalitet», «milliy ruh» kabi tushunchalarning sof milliy shakliga va mazmuniga qaytdilar. Qolaversa, fanning asosiy tadqiqot obyekti bo'lgan etnosning nazariyasi jihatlari, etnogenez va etnik tarixga oid yangi nazariy-metodologik konsepsiyalar va qarashlar yaratildi. Shuningdek, mustaqillik yillarida xalqimiz moddiy va ma'naviy madaniyati, oilaviy va jamoaviy hayoti, diniy ehtiyoqlari va marosimlarini tadqiq etish borasida jiddiy tadqiqotlar bilan birga fanda qo'ni - qo'shnicilik an'analari, etnoslararo jarayonlarni tadqiq qilishga qaratilgan yangi yo'nalishlarga asos solindi. Bajarilgan tadqiqotlarning samarasi o'laroq qator monografiyalar va risolalar e'lon qilindi. Bu o'rinda o'zbek elshunos olimlari I.Jabborov, H. Ismoilov, O.Bo'riev, A.Ashirovlarning o'zbeklarning oilaviy turmush an'analari, to'y tantanalari, dafn marosimlari hamda milliy qadriyatlariga oid tadqiqotlari (Jabborov I. «O'zbeklar an'anaviy turmushi



va madaniyati» -T.; 2004. Ismoilov H. «O'zbek to'ylari» - T.; 1994.: Bo'riev O. va boshqalar «O'zbek oilasi tarixi». T., 1995.: Nasriddinov Q. «O'zbek dafn va ta'ziya marosimlari». - T.; 1996.: Ashirov A. «Avesto»dan meros marosimlar» - T.; 2001.) nashr etildi. 1991-2004 yillar mobaynida Respublikamizda «Etnologiya» yo'nalishi bo'yicha 20 dan oshiq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingani ham fan salohiyati oshib borayotganligidan dalolat beradi. Himoya qilingan dissertatsiyalar dolzarb mavzularda hamda respublikamizning turli tarixiy-etnografik mintaqalari misolida bajarilgan. Jumladan, Farg'ona vodiysi, Xorazm, Zarafshon, Nurota, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo vohalarining oila va oilaviy turmush marosimlariga, maishiy turmush, jamoaviy munosabatlar, xonaki hunarmandchilik, shuningdek, qoraqalpoqlar tarixining etnografik jihatlarini yoritilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur dissertatsiyalar milliy qadriyatlar va an'analarni tiklash g'oyasiga asoslanganligi, o'zbek xalqi etnografiyasining muammolariga yangicha ruhda yondoshganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Respublikamizning qator universitetlarida «Etnologiya» bo'yicha ilmiy markaz va kafedralarning ochilishi ham ushbu fanga bo'lgan e'tibor oshganligidan dalolat beradi.

«Etnologiya»ning boshqa fanlar bilan aloqasining samarasi tarzida etnoarxeologiya, etnopsixologiya, etnolingvistika, etnodemografiya, etnofolkloristika kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi va eng muhimi fanning nomi ham «Etnologiya» deb o'zgartirildi. Bu borada birgina O'zR FA Tarix instituti ««Etnologiya» bo'limida O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalar markazining amaliy tadqiqotlar dasturi bo'yicha Respublikamizning ikki tarixiy-etnografik mintaqasi, Farg'ona vodiysi hamda Janubiy O'zbekiston mintaqalaridagi etnoslararo jarayonlarni taqqoslab tadqiq qilinganligi yoki zamonaviy polietnik shahardagi etnomadaniy jarayonlarni tahlil etilayotganligi ham bajarilayotgan ishlarning yorqin ko'zgusi deb aytishimiz mumkin. Umuman, Respublikada etnologik yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy yutuqlari quyidagilarda mujassamlashgan:

- Avvalo keyingi o'n yillikda «Etnologiya»ning nazariy metodologik muammolari borasida dastlabki ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Bunda tadqiqotchilar tomonidan fanning nafaqat nazariy muammolari, balki zamonaviy «Etnologiya» maktablari va atamalariga oid yangi materiallarning e'lon qilinishi o'zbek etnologlarining zamon bilan hamnafas tadqiqotlar olib borayotganliklarini ko'rsatadi.

- Etnogenetik jarayonlar doirasida akademiklar K.Shoniyozov va A.Asqarov tomonidan o'zbek xalqining shakllanish jarayoni va uning nazariy-metodologik muammolariga oid qator fundamental tadqiqotlar e'lon qilindi. Mazkur mavzu doirasida O'zRFA Tarix institutida doimiy ilmiy seminar tashkil etilganligi va bu sohada Respublikamizning ko'zga ko'ringan bir qator olimlarining ilmiy tadqiqotlari e'lon qilinayotganligi ham ushbu yo'nalishning rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

- Mutaxassis olimlar nafaqat tarixiy-etnografik tadqiqotlar mavzularini, balki

dastlabki professional etnograflar kabi «an'anaviy zamonaviylik»ni va bugungi kunda muhim deb ehtirol etilayotgan ijtimoiy madaniy innovatsiyalar, an'anaviy jamiyatning zamonaviy hayotini ham tadqiq qilmoqdalar.

- Hozir etnologik yo'nalishda bajarilayotgan tadqiqotlarda an'anaviy madaniyatni tadqiq qilishgagina emas, balki zamonaviy polietnik jamiyatni o'rganish, ayniqsa an'anaviy mahalla institutini zamonaviy jamiyatda tutgan o'rni, mahalla tizimida zamonaviy etnomadaniy jarayonlarning roliga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda Toshkent mahallalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarini dastlabki yutuqlar sifatida qayd etish mumkin.

- Zamonaviy "Etnologiya"ning tadqiqot mavzusi va o'rganish maydoni ancha keng bo'lib, unga yaqin bo'lgan sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, antropologiya, folklorshunoslik kabi fanlar bilan o'zaro tutashishi natijasida etnopsixologiya, etnomadaniyat, etnofolkloristika, etnosotsiologiya kabi yangi sohalar paydo bo'ldi va ushbu yo'nalishlar Respublikamizning bir qator Oliy o'quv yurtlarida maxsus fan tarzida o'qitilmoqda. Ularning ayrimlari bo'yicha o'quv qo'llanmalari ham yaratildi. Masalan, ("Etnomadaniyat". O'quv qo'llanma. T., Adolat, 2003. Jabborov I. "Jahon xalqlari "Etnologiya"si" T.,2005.).

- Keyingi vaqtlarda yetakchi olimlar yosh tadqiqotchilar bilan birga xorijiy mutaxassislar ishtirokida Respublikamizda "Etnologiya"ning dolzarb mavzulariga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar hamda festivallarni o'tkazish yaxshi bir an'anaga aylanib ulgurdi.

- Bu borada «Akademik Karim Shoniyozov o'qishlari» turkumida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ilmiy anjumanning tashkil etilganligi va mazkur konferensiya materiallarini muntazam nashr etib borilayotganligi ham amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarning natijasi deb aytish mumkin. Lekin sohada qator yutuqlarga erishilganiga qaramay hali hanuz yechilishi lozim bo'lgan muammolar mavjudki, ularni chetlab o'tib ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish mumkin emas.

Zamonaviy o'zbek "Etnologiya"si oldidagi muammolar to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, avvalo shuni ta'kidlash kerakki, hanuz ayrim tadqiqotlar tavsifiy xarakter kasb etmoqda. Etnologik yo'nalishda bajarilgan har qanday tadqiqot ma'lum bir amaliy ahamiyatga ega bo'lishi va uning natijalaridan bugungi va ertangi kun amaliyotida foydalanish lozim.

Yuqoridagi fikr mulohazalarga xulosa tarzda aytish mumkinki, bugungi kunda o'zbek "Etnologiya"si dolzarb va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan quyidagi muammolarni yechishi lozim:

- "Etnologiya" sohasida tadqiqotlar olib borayotgan mutaxassislar o'zaro hamkorlikda fanning kelgusidagi istiqbolli yo'nalishlarini belgilab olishlari zarur. Bunda o'zbek "Etnologiya"si rivojlangan mamlakatlar fani bilan hamohang rivojlanishi va o'z navbatida o'zining maktablari va konsepsiyasiga ega bo'lmog'i kerak. Metodologik muammolarga sifat jihatdan yangicha yondashuvni tashkil etish barobarida an'anaviy usullar bilan birga noan'anaviy usullardan ham foydalanish zarur. Nazariy-metodologik tadqiqotlarga jiddiy e'tibor qaratilmas ekan, bajarilgan har qanday tadqiqot ham amaliy ahamiyat kasb etmaydi va ilmiy

qimmatga ega bo'lmagan tavsifiy tadqiqotdan nariga o'tmaydi. Qolaversa, bugunning zamonaviy muammolarini etnolog tadqiqotchi nigohi bilan tadqiq qilish, olib borilgan har bir tadqiqot jamiyatning ma'lum bir sohasi uchun amaliy natija bermog'i lozim. Shundagina etnologik tadqiqotlarga jamiyatda qiziqish ortadi va uning amaliy qimmatini oshadi.

- Respublikamizda mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mutaxassislar tomonidan etnos nazariyasi, etnogenez va etnik tarixga bag'ishlangan sifat jihatidan yuqori ilmiy xulosalarga asoslangan tadqiqotlarni yaratish zarur. «O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi»ning majmuaviy muammosi mamlakatimiz ilmiy muammolarining markazida turganligiga hamda xalqimiz etnogenezi va etnik tarixining turli jihatlari jiddiy o'rganilayotganiga qaramay, murakkabligi bois uni tugallangan deb bo'lmaydi va u arxeolog, antropolog, etnograf, tarixchi, tilshunos va boshqa soha olimlarining jamoaviy fikr-mulohazalarini kutmoqda. Bu borada birinchi qadam sifatida mamlakatimizda va chet ellarda etnogenez bo'yicha mavjud barcha adabiyotlarni imkon qadar o'rganib chiqish, maxsus tahlil etish va bu tahlilga eng yangi arxeologik, antropologik, tilshunoslik, etnografik va boshqa ma'lumotlarni qo'shish lozim. Tadqiqotchilar tomonidan o'zbek xalqi genezeologiyasi, etnodemografiyasi, etnopsixologiyasi, milliy mentalitetiga va umuman olganda etnos muammosi bilan chambarchas bog'liq tadqiqotlarga shuningdek, etnik jarayonlarning nazariy-metodologik konsepsiyalarini shakllantirish, madaniy antropologiya, etnoekologiya kabi yo'nalishlarga jiddiy e'tiborni qaratish, hamda etnologik terminlar hamda atamalarga oid lug'atlarni nashr etish maqsadga muvofiqdir.

- “Etnologiya”da asosiy tadqiqot obyektlaridan biri bo'lgan moddiy va ma'naviy madaniyat ko'rinishlari, xalqning an'anaviy turmush tarzi bilan bog'liq marosimlar va urf-odatlarini tavsifiy etnografik tarzda yoritishdan chekingan holda ma'lum bir nazariy-metodologik konsepsiyaga asoslangan holda ularning genezisi, o'ziga xos xususiyatlari, tub mohiyatiga e'tibor bergan holda etnologik nuqtai nazardan tadqiq etish zarur.

- Dunyo miqyosida ulkan globalizatsiya jarayoni va yangi texnologik davr bo'lgan bugungi kunda etnosning o'rni va ahamiyati, zamonaviy etnomadaniy jarayonlarni, etnoslararo kommunikatsiyani va globalizatsion jarayonlarda milliy xususiyatlarni saqlanib qolish omillarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

- XX asrda ijtimoiy-siyosiy hayotda bo'lgan o'zgarishlar turli etnik guruhlar va etnoslarni hamda turli-tuman madaniyatlarni o'zaro qorishishiga olib keldi. Natijada etnomadaniy aloqalarning kuchayishi Respublikamiz hududida yashovchi mahalliy subetnoslar va turli tuman diasporalar moddiy va ma'naviy turmush tarzida ulkan o'zarishlarga sabab bo'ldi, deb aytish mumkin. Shu bois bugungi kunda millatlararo, etnosiyosiy, etnoijtimoiy, etnomadaniy munosabatlar jiddiy tadqiqotlar bajarishini tahlil qilmoqda. Hozirda, avvalo, turli etnoslar va diasporalar zich yashayotgan etnoslararo aloqalar, etnomadaniy o'zaro ta'sir va madaniyatlarning bir-biriga kirib borishi; milliy xususiyat va mentalitet; etnoslararo ziddiyatlar va nizolar sabablari va ularning ehtimoli; millatchilik va

milliy separatizm; milliy siyosat va hokazo kabi dolzarb masalalarni ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

- Oliy o'quv yurtlarida "Etnologiya" fanini o'qitilishini sifat jihatdan takomillashtirish va bu sohada tadqiqot olib borayotgan nazariyotchi olimlar bilan amaliyotchi pedagoglar o'zaro hamkorlikda yangicha ruhdagi darsliklar yaratishlari lozim. Bu sohada ayniqsa g'arbda keng rasm bo'lgan madaniy antropologiya yoki ijtimoiy antropologiyaga oid darsliklar va o'quv qo'llanmalaridan ham bevosita foydalanish kerak. Eng muhim ishlardan yana biri mazkur soha uchun universitetlar o'quv dasturlaridagi dars soatlarini ko'paytirish va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan «"Etnologiya» kafedralari yoki ilmiy markazlarini tashkil etish va etnik antropologiya, etnik sotsiologiya, etnodemografiya, etnoiqtisodiyot, etnogeografiya, etnopedagogika, etnopsixologiya, etnolingvistika kabi yo'nalishlarda kurslar tashkil etish zarur.

- Zamonaviy jamiyatda millatlararo munosabatlar eng muhim muammolardan biriga aylanayotgan bir paytda polietnik jamiyatni, milliy-etnik munosabatlarni, uning tarixiy asoslari-yu bugungi holati hamda istiqbollarni etnologik yo'nalishda tadqiq qilish ham muhim ahamiyatga egadir. Qolaversa, O'zbekiston hududidagi nafaqat turli etnik yoki etnografik guruhlarni tadqiq qilish, balki ijtimoiy guruhlarni va turli madaniy muhitlar muloqotining jamiyat hamda xalqlar turmushiga ta'sirini ham tadqiq qilish kerak.

Umuman olganda aytish mumkinki, "Etnologiya" insoniyat va uning faoliyatining turli jihatlarini tadqiq qiluvchi fan bo'lishi bilan birga mazkur fan jamiyat hayotida hech qanday mehyoriy o'lchovlar bilan o'lchab bo'lmaydigan qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. **Birinchi**dan, "Etnologiya" fani insonlarning dunyoda madaniyatlar xilma-xilligini anglashga bo'lgan doimiy ehtiyojini qondirish missiyasini bajaradi. Bu esa insonlarni ma'naviy boy va hayot faoliyatining samarali bo'lishiga olib kelishi shubhasizdir. **Ikkinchi**dan, "Etnologiya" insoniyat faoliyati, jamoat tartibi va ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining tarixiy-madaniy mazmunini tadqiq qilish asosida tarixiy tajriba, madaniy (hamda biologik) munosabatlar (individual yoki jamoaviy) umuman jamiyat hayotiga, shu jumladan, siyosat va boshqaruvga qanday ta'sir etishini tadqiq qiladi. **Uchinchi**dan, "Etnologiya" bilan ko'pincha tadqiqotchilar avvalo o'zlarining shaxsiy qiziqishlari doirasidan kelib chiqib mashg'ul bo'ladilar va bu jarayonda moddiy qiziqish yoki qandaydir ijtimoiy buyurtma birinchi darajali muhim ahamiyat kasb etmaydi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etadi. O'zbeklar nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyodagi eng ko'p sonli xalq bo'lib, Markaziy Osiyo aholisining 35% ni tashkil qiladi. O'zbekistonda (20 mln 800 ming kishi, 2005 yil), Tojikistonda (1.2 mln. ziyod kishi), Qirg'izistonda (550-600 ming kishi), Qozog'istonda (332 ming kishi), Turkmanistonda (320-330 ming kishi) yashaydi. Bundan tashqari, o'zbeklar Afg'onistonda (2,5 mlndan 4 mln gacha), Rossiya (123 ming kishi, 2002y.), Saudiya Arabistonida (550-600 ming kishi), Xitoy Xalq Respublikasining Sintszyan - Uyg'ur avtonom tumanida

(13,7 mingdan ortiq), qolaversa, Turkiya, Germaniya, AQSH kabi uzoq xorij mamlakatlarda ham o'zbeklar yashaydi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra o'zbeklarning umumiy soni 25 mln. dan ortiq (2000 y.). O'zbeklarning yosh tarkibi ancha navqiron bo'lib, 1989 yilgi ma'lumotlarga ko'ra 15 yoshgacha bo'lgan aholi umumiy aholining 44% ni, 15 yoshdan 60 yoshgacha bo'lganlar 51% ni, 60 yosh va undan keksalar atigi 5% ni tashkil qilgan. O'zbeklar *o'zbek tilida* gaplashadilar.

O'zbeklar alohida etnik jamoa (elati) bo'lib, Markaziy Osiyoning markaziy viloyatlari - Movarounnahr, Xorazmda, Yettisuv va qisman Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalari hamda Janubiy Turkistonda shakllangan. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sunhiy sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy so'g'diylar, baxtarlar, xorazmiylar, farg'onaliklar, sak-massagetlar, qang'lar kabi etnik guruhlar tashkil yetgan. Shuningdek, Janubiy Sibirg', Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'ylaridan kelgan etnik komponentlar ham O'zbeklar *etnogenezi*da ishtirok etganligi tarixdan ma'lum. Bu qabila va elatlar, asosan turkiy va sharqiy eroniy tillarda so'zlashganlar.

Keyingi yillarda arxeolog olimlar (*A.A.Asqarov, O'.Islomov, Yu.F.Buryakov, T.Q. Xo'jayov*)ning O'zbekiston hududida olib borgan arxeologik va antropologik tadqiqotlari natijasida Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida so'nggi bronza davridayoq yuqorida nomlari zikr etilgan qabila va elatlarning etnik jihatdan dastlabki aralashuvi sodir bo'lganligi va assimilyatsiya jarayoni natijasida antik davrga kelib, o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon tarkib topganligi hamda o'zbek xalqiga xos antropologik tipning makon va zamoni aniqlangan. Ma'lumki, mil.avvalgi III asrda Sirdaryoning o'rta oqimida turkiy va so'g'diylar ittifoqi asosida Qang' davlati tashkil topgan. Qang' davlati davrida Movarounnahr va unga tutash mintaqalardagi xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalarning tobora rivojlanib borishi natijasida turkiyzabon etnoslar ustuvorlik qilib, yangi turkiy etnoslardan biri - qang'ar elati paydo bo'ldi va o'ziga xos uyg'unlashgan madaniyat shakllandi. Tarixiy va arxeologik asarlarda bu madaniyat «*Qovunchi madaniyati*» nomini olgan. Antropolog olimlarning ta'kidlashlaricha, aynan shu davrlarga kelib, Markaziy Osiyoning vodiylari va vohalarida yashovchi sug'diylar va qang'arlarning tashqi qiyofalarida hozirgi o'zbek va voha tojiklariga xos Pomir-Farg'ona antropologik tipi to'liq shakllangan.

O'zbeklar etnogenezi qatnashgan navbatdagi etnik komponentlar Janubiy Oltoy va Sharqiy Turkistondan ko'chib kelgan yuechji qabilasining bir tarmog'i bo'lib, ular mil.av I - milodiy IV asrlarda Kushon saltanatiga asos solgan kushonlar hamda milodiy III-V asrlarda O'rta Osiyoning markaziy viloyatlariga Janubiy Sibirdan, Jung'oriyadan, Sharqiy Turkistondan siljigan xioniy, kidariy va eftaliylardir.

Shuningdek, o'zbeklar etnogenezi faol ta'sir o'tkazgan turkiy etnik komponentlar asosi *Turk hoqonligi* (VI-VIII asrlar) davrida Markaziy Osiyoning markaziy mintaqalari (Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, Farg'ona vodiysi) va Xorazmga kelib joylashib, ma'lum bir tarixiy davr

mobaynida, bu etnik komponentning aksariyat qismi o'troqlashdi. Turk xoqonligi davrida kirib kelgan turkiy komponentlar va mahalliy aholi o'rtasidagi etnik-madaniy munosabatlarning rivoji hududdagi etnik jarayonlar taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazdi. Ushbu turkiy qatlam madaniy yutuqlarining mahalliy madaniy-xo'jalik an'analar bilan jadal uyg'unlashuvi yuz berdi. Bu davr turkiy va sug'diy simbiozni hal qiluvchi bosqichlaridan biri bo'lgan.

VIII asrdan arab va ajam (arab bo'lmagan yaqin va O'rta Sharqiy) xalqlarining Markaziy Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta'sir yetmagan. Bu davrda aholi etnik tarkibida ma'lum bir o'zgarishlar yuz bergan bo'lsada, Movarounnahrda o'troq va yarimo'troq turkiyzabon aholi, so'g'diylar va Xorazmning tub yerli aholisi o'z hududlarida qolib, arablar (VII-VIII asr), keyinchalik Somoniylar (IX asr) hukmronligi ostida yashaganlar.

Umuman olganda IX asrdan boshlab Movarounnahr mintaqasida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi va o'z navbatida sug'diylar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayoni jadallashgan. Elshunos olim *K. Shoniyozovning* qayd etishicha, IX-X asrlarda tig'iz etnogenetik jarayon natijasida ko'plab turkiy qabila va urug'larning o'troq hayotga o'tishi jadal davom yetgan. Bu asrlarda Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo'lgan. Akademik *A. Asqarovning* ta'kidlashicha, bu kuchli etnik qatlam asosining aksariyat ko'pchiligini o'troqlashgan turg'un turkiy etnoslar tashkil qilgan.

*Qoraxoniylar* davrida (X-XI asrlar) Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan o'zbek xalqi etnogenezining yakuniy bosqichi boshlandi. Forobiy *Qoraxoniylar* davlati doirasida hozirgi o'zbeklarga xos turkiy etnos qaror topdi va aynan mazkur davrda elatni belgilovchi hudud, til, madaniyat, tarixiy qismatining umumiyliigi, etnik o'zlikni anglash, etnosning uyushqoqligi ma'lum bir davlat doirasida bo'lishi, din umumiyliigi va bir qancha shu kabi boshqa etnik alomatlar shakllangan. Bu davrda o'zbeklarning umum elat tili qaror topdi. Movarounnahr va unga tutashgan mintaqalarda yashovchi turkiyzabon aholi; qarluq, chigil, yag'mo, tuxsi, halach, arg'in, o'g'uz, qipchoq, uz, qangli singari urug'lar o'zlarini bir xalq (elat) sifatida anglay boshlaganlar. Umuman olganda, XI-XII asrning birinchi yarmida elat shakllanishidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan aksariyat etnik alomatlar o'z maromiga yetib o'zbeklar xalq sifatida shakllangan.

XIII asr boshlarida Chingizxon istilosi davrida mo'g'ul qo'shinlari tarkibida ko'p sonli turkiy etnoslar ham kirib keldi. XV asrga qadar esa ushbu etnoslarning deyarli ko'p qismida mahalliy aholi bilan aralashuv jarayoni sodir bo'ldi va ular shakllangan o'zbek elatining keyingi taraqqiyotida ma'lum darajada iz qoldirdilar.

*Chig'atoy ulusi* tilining rivojlanishi hamda keyinchalik *Amir Temur va temuriylar* davrida iqtisodiy va madaniy taraqqiyot natijasida Movarounnahrda adabiy til takomillashib, «turkiy» yoki «chig'atoy» tili deb nomlangan. Taraqqiy yetgan o'zbek adabiy tili ayniqsa *Alisher Navoiy* davrida eng yuqori nuqtaga ko'tarildi. Ammo xalqning jonli tili ko'p dialektli bo'lib, adabiy til shakllanishida

uchta asosiy sheva - *qarluq, qipchoq va o'g'uz* dialektlari asos bo'lgan. Ma'lumki, shakllangan o'zbek elatining Amir Temur va temuriylar davridagi etnik tarixi va etnomadaniy taraqqiyotiga barlos, jaloyir, qavchin, arlot, qipchoq kabi etnik guruhlar ham faol ta'sir qilgan.

O'zbeklar etnik tarixida XV asr oxiri - XVI asrlar ham muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda Markaziy Osiyoga mang'it, qo'ng'iroq, nayman, uyg'ur, saroy, qatag'on, qushchi, do'rmon, kenagas, qirq, yuz, ming, bahrin va boshqa Dashti Qipchoq o'zbek etnik guruhlarining navbatdagi to'liqini kirib kelishi kuchaygan. Natijada Movarounnahr aholisining etnik qiyofasida mo'g'uliy irq alomatlari ham faollashgan. Dashti Qipchoqdan ikki daryo (Amudaryo va Sirdaryo) oralig'i va Xorazmga kelib o'rnatilgan etnik guruhlar «o'zbek» nomi ostida mahalliy aholi etnik rang-barangligini birmuncha ko'paytirgan bo'lsalar ham, lekin uning etnik tarkibini tubdan o'zgartirib yubora olmaganlar. Ushbu etnoslar shakllangan o'zbek xalqining tarkibiga kelib qo'shilgan navbatdagi etnik komponent edi, xolos. Ular Movarounnahr va Xorazm aholisining turmush tarziga, an'analarga, madaniyatiga, xo'jalik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan yangi tipdagi madaniy qatlam hosil qilgan. Ayniqsa, Zarafshon vodiysi va O'zbekistonning janubiy mintaqalari aholisi orasida bu nisbat kuchli seziladi. Mahalliy aholiga ular «o'zbek» nomini berishgan va bu nom Movarounnahr va unga qo'shni viloyatlar aholisi uchun rasmiy ravishda umumiy nom bo'lib qolgan. O'z o'rnida aytib o'tish lozimki, o'zbek etnonimining kelib chiqishi bo'yicha fanda hali hanuz yakdil fikr mavjud emas. Ayrim mualliflar (G.Vamberi, G.Xovors, M.P.Pelg'o) Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalarining bir qismi o'zlarini erkin tutganliklari sababli o'zbek, ya'ni «o'z-o'ziga bek» deb atagan desalar, boshqalar (P.P.Ivanov, A.Yu.Yakubovskiy, Xilda Xukem) «o'zbek» etnonimini Oltin O'rda xoni O'zbekxon (XIV asr.) nomi bilan bog'laydi, boshqa yana bir guruh olimlar esa (V.V. Grigorev, A.A. Semyonov va B. Ahmedovlar) o'zbek nomi Oq O'rda (Dashti Qipchoqning sharqiy qismi)da ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalariga taalluqli bo'lgan degan fikrni bildiradilar.

Temuriylar davlati o'rnida dastlab XVI asr boshlarida vujudga kelgan Buxoro va Xiva xonliklari va XVIII asr boshlaridan Qo'qon xonligining vujudga kelishi natijasida yagona tarixiy makonda yashagan xalqlar siyosiy jihatdan turli davlatlar tasarrufiga tushib qolgan bo'lsada, bu holat o'zbek elati birligiga putur yetkaza olmagan. Siyosiy chegaralar bo'lishiga qaramasdan uch davlat tarkibidagi aholi o'zaro doimiy etnik, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelganlar.

Markaziy Osiyo xalqlarining XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi tarixiy taqdiri va taraqqiyot bosqichlari chor Rossiyasining mustamlakachiligi davri bilan bog'liq. Keyinchalik mintaqada Sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan Markaziy Osiyoda *milliy-hududiy chegaralanish* o'tkazilib, beshta milliy respublikalar tashkil etildi. Mahalliy xalqlarning milliy taraqqiyoti davom etayotgan bir pallada 1924 yili milliy chegaralanish o'tkazilgan. Shu bilan shakllangan elatlar taraqqiy etayotgan tarixiy makon sunhiy ravishda bo'lib yuborildi. Mintaqa xalqlarining assimilyatsiya, konsolidatsiya jarayonlariga jiddiy ta'sir o'tkazilishi va keyinchalik

«sovet xalqi nomli yagona etnik birlikni yaratish haqidagi nazariyani amalga oshirilishi borasidagi olib borilgan siyosat ham o'zbeklarning milliy-etnik qiyofasiga, mentalitetiga rahna sola olmadi. Albatta, keyinchalik mintaqada vujudga kelgan barqarorlik nisbatan o'zbeklarning etnik-madaniy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazdi.

O'zbeklarning millat sifatida rivojlanish jarayoni O'zbekiston mustaqillikka erishgan sanadan boshlab yangicha mazmun kasb etdi. Tarixiy tomirlaridan kuch olgan o'zbek xalqi madaniyati, milliy tafakkuri, urf-odatlarini, turmush-tarzida o'ziga xos uyg'onish va yangilanish pallasiga qadam qo'ydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Abdullaev M. Abdullaev A. «Ma'naviyat va madaniyat tarixi». Farg'ona. 1998 y.
8. Imomnazarov M. “Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari”. T. 1996 y.
9. Ashirov A. Atadjanov Sh. «Etnologiya». T. 2007 y.
10. Ashirov A. “O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari”. T. 2007 y.
11. Abdullaev M. “Madaniyatshunoslik”. Farg'ona. 1998 y.
12. Murodov. M. Qorabayev U. Rustamova R. “Etnomadaniyat”. T.: Adolat. 2003 y.
13. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona. 2001 y.

### **3-mavzu: O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar.**

#### **Reja:**

1. Etnogenez va etnik tarix.
2. Etnografiyaning muhim manbalari.
3. O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi tarixiga oid manbalar.

**Etnogenez** (yunoncha ethnos - xalq va genesis - tug'ilishi, kelib chiqish; ingl.- ethnogenesis; nem. - Ethnogenese) — etnosning kelib chiqishidir. Tarix fanidagi



mavjud ilmiy metodologik ishlanmaga ko'ra etnogenez deb ilgari mavjud bo'lgan bir necha etnik komponentlar asosida yangi etnos elatning vujudga kelishiga aytiladi. «Etnogenez» tushunchasini fanga ilk marotaba XX asrning 20-yillarida N.Ya.Marri tomonidan kiritilgan.

Har bir xalqning tarixi uning etnogenez va etnik tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Etnogenez va etnik tarix xalq tarixining ma'lum bosqichlarida vujudga kelib, ma'lum bir etnosning elat, xalq bo'lib shakllanishiga qadar davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayondir. Odatda biror bir xalqning etnogenezini, uning etnik qatlamlari tarkibini aniqlamay turib, u xalq haqida, u tarkib topgan hudud va uning davlatchiligi to'g'risida biror ilmiy tasavvur yaratish mumkin emas.

Akademik olim K.Shoniyozevning mulohazalariga ko'ra, etnogenez jarayonida etnosni belgilovchi *hududiy, til va etnomadaniy birlik, ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik, etnik nom(etnonim) hamda o'zlikni anglash birligi, siyosiy uyushma birligi, din umumiyliigi* va boshqa qator etnik alomatlar muhim ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>. Ushbu etnik alomatlar va belgilarning barchasi sodir bo'lgandagina etnos-xalq shakllanadi, ya'ni etnogenez jarayoni yakunlanadi. Ammo amalda bu etnik alomatlar barchasi etnogenez jarayonida, ya'ni muayyan bir vaqtda hozir bo'lishi yoki bir davrda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lmagan. Jumladan, ma'lum bir xalqning tashkil topishida til birligi bosh rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi bir elatning shakllanish jarayonida xo'jalik, uchinchisida esa moddiy madaniyat yetakchi belgi bo'lgan. Bu borada akademik A.Asqarov etnik alomatlarni etnosga xos etnik belgilar va omillar deb yuritadi va etnosni uyushtiruvchi mazkur zaruriy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar hamda etnik belgilarga *hududiy birlik, ijtimoiy-iqtisodiy xo'jalik birligi, etnomadaniy birlik, til birligi, etnik nom birligi, o'zlikni anglash birligi va nihoyat siyosiy uyushma (politicheskaya kontsolidatsiya)*larni kiritadi. Olim etnik alomatlar alohida olingan qisqa bir davrda yuz bermaydi, balki uzoq davom yetgan etnogenetik jarayon davomida birin-ketin tarkib topib boradi, deb ta'kidlaydi.

Maxsus ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, etnogenez jarayonining ikki usuli mavjud. 1). Tub yerli (avtohton) etnik komponentlarning o'zaro yaqinlashuvi, ularning qo'shilib, birgalikda taraqqiy etib borishi; 2). Shakllangan yoki shakllanayotgan etnik birlikka boshqa hududlardan ko'chib kelgan komponentlarning mahalliy aholiga qo'shilishi. Odatda yangi etnosning shakllanishi jarayonida, ya'ni etnogenez bosqichida va undan keyin ham har xil tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko'ra, uning tarkibiga yangi-yangi etnik qatlamlar qo'shilib boradi. Yangi etnos vujudga kelgach, oldingi etnik komponentlar alohida etnik birlik sifatida asta-sekin yo'qolib tarix maydonidan batamom chiqib ketadilar (masalan, saklar, massagetlar, toharlar, va boshqalar) yoki qisman (etnik tarkibi o'zgargan holda) saqlanib qoladilar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yangi etnik birlikning shakllanish jarayonining oxiriga yetishi bilan ham etnik jarayon to'xtab qolmaydi. Shakllangan etnik birlikka turli

---

<sup>1</sup> Shoniyozev K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T. 2001

davrlarda yangi-yangi komponentlarning koʻshilishi yoki undan ajralib chiqib ketish hollari etnik birlik shakllangandan keyin ham davom etadi. Darhaqiqat, dunyoda hech bir xalq yoʻqki, u oʻz etnogenez jarayonining ilk bosqichlaridan to millat darajasiga koʻtarilgunicha boshqa etnik qoʻshilmalarisiz rivojlangan boʻlsa. Jumladan, oʻzbek xalqining etnogenezi bunga yaqqol misoldir. Oʻzbek xalqi etnogenezining ilk bosqichlaridan to xalq sifatida shakllanib boʻlguniga qadar uning asosiy tarkibini tashkil yetgan avtohton sugʻdiy-xorazmiy va qadimgi turkiy qatlamlardan tashqari oʻziga turli davrlarda har xil miqdorda mahalliy va tevarak atroflardan kelib qoʻshilgan etnik guruhlarni singdirib borgan. Demak, sayyoramizdagi barcha xalqlar kelib chiqishi jihatidan koʻp etnik qatlamlidir.

Etnogenezni tadqiq qilishda (ayniqsa uning dastlabki bosqichlarini) “Etnologiya”, etnik antropologiya, arxeologiya, etnolingvistika, folklor materiallarni jalb qilgan holdagi kompleks yondashuvni talab qiladi.

Etnogenezga oid bugungi kunda turli-tuman qarashlar va konsepsiyalar mavjud. Jumladan, ayrim mutaxassislar (L.N.Gumilyov) etnosni biofizik voqelik deb biladilar va shu bois etnogenez tizimini tabiiy jarayonlar bilan bogʻliq deb hisoblaydilar. Mazkur konsepsiyaga koʻra, etnos biosferaning tarkibiy qismi boʻlgani uchun undagi qonuniyatlarga boʻysunadi, etnogenez esa biosferada sodir boʻladigan jarayonlarning bir qismi deb hisoblanadi<sup>1</sup>.

Akademik A.Asqarovning fikricha, «har bir xalq tarixi uning etnogenezi va etnik tarixi bilan uzviy bogʻliq. Etnogenez va etnik tarix esa tarix fanining bosh masalasidir». Uning yozishicha, xalq tarixining etnogenez qismi uning elat, xalq boʻlib shakllanguniga qadar boʻlgan tarixidan iborat... Qachonki, etnik belgilar va alomatlarining barchasi sodir boʻlganidagina etnos-xalq shakllanishi oʻz nihoyasiga yetadi. Shakllangan etnosning bundan keyingi tarixi fanda etnik tarix nomi bilan yuritiladi<sup>2</sup>. Akademik olimning bunday qarashlari etnogenez va etnik tarix muammosi doirasida “Etnologiya” fanida bildirilgan chuqur mushohadali qarashlardan biri ekanligini ehtirol yetgan holda shuni ham taʼkidlash kerakki, bu borada boshqacha qarashlar ham ilgari surilgan. Jumladan, akademik K.Shoniyozovning fikricha, etnik tarix - oʻrganilayotgan xalqning ibtidoiylikdan boshlab, bir qancha tarixiy bosqichlarni oʻtib to bizgacha davom qilib kelgan katta davrni qamrab oladi. Boshqacha qilib aytganda etnik tarix tushunchasi etnosning qadimda va ilk oʻrta asrlarda mavjud boʻlgan ildizlarini, ularning alohida etnik jamoa (etnik birlik) boʻlib shakllanish davrini hamda etnosning keyingi taraqqiyot tarixini (to millat boʻlib shakllanishiga qadar) oʻtgan davrini oʻz ichiga oladi. Biroq har ikki muallif ham etnos-xalqning shakllanishi millatni shakllanishiga toʻgʻri kelmaydi, degan umumiy xulosaga keladilar. Har ikki muallifning fikricha ham millatning shakllanishi etnogenetik jarayon kabi uzoq davom etadigan tarixiy jarayon boʻlib, millat etnik tarixning eng yuqori choʻqqisi, kamolot bosqichiki, bu

---

<sup>1</sup> Gumilev L.N. Etnogenez i biosfera zemli. -L., 1990.

<sup>2</sup> Asqarov A. Oʻzbek xalqi etnogenez va etnik tarixining baʼzi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari // Oʻzbekiston tarixi 2002. – №4.

bosqichga ko'tarilgan xalqning davlati millat nomi bilan yuritiladi, aniq hududiy chegarada muomalada bo'lgan umumxalq-millat tili davlat tili maqomi darajasiga ko'tariladi, o'zlikni anglash darajasi esa fuqarolarning hayot mazmuniga, kundalik turmush-tarziga aylanadi.

Har bir fan zaruriy bilimlarni jalb yetgan holda aniq tadqiqot obyektni o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Lekin har bir fandagi bilim obyektining o'ziga xosligi tadqiqotchilar oldiga tadqiq qilinayotgan obyektga oid to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish talabini qo'yadi.

Zamonaviy "Etnologiya"da ilmiy tahlil uchun turli-tuman materiallar: tadqiqotlar natijasi va etnograf olimlarning turli dala yozuvlari, sayohatchilarning safarnomalari, kuzatuvlari, folklor namunalari va badiiy matnlar, etnosotsiologik va etnopsixologik materiallar, publitsistik matnlar, rasmiy hujjatlar, tarixiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlardan foydalaniladi. Bulardan tashqari tadqiq etilayotgan etnos vakillari bilan bevosita muloqot jarayonida ularning turli holatlarga bildirgan ta'sirlari, bahs-munozaralar va suhbatlarda bildirgan fikr-mulohazalari va dalillarining mantiqliligi, tevarak - atrofdagi turli ko'rinishlarni izohlash yo'llari va shaxsiy xulq-atvorlarini kuzatuv natijalari ham muhim rol o'ynaydi. Shubhasiz, bunday ma'lumotlarni yig'ish tadqiqotchi uchun ma'lum metodlarni o'zlashtirishni talab qiladi. Bugungi kunda zamonaviy "Etnologiya"da o'ziga xos etnologik tadqiqot metodlari majmui shakllangan bo'lib, ularga dala tadqiqotlari, yozma manbalarni o'rganish, xalq og'zaki ijod namunalari to'plash statistik materiallar (avvalo turli davrlarda bajarilgan aholini ro'yxatga olish materiallari)ni tahlil qilish kiradi.

***Yozma manbalarni o'rganish*** "Etnologiya"ning eng muhim metodlaridan biri bo'lib, uning qimmatini o'rganilayotgan xalq va uning madaniyati to'g'risida aniq va to'laqonli ma'lumotlar berishi bilan ajralib turadi. Yozma manbalar nafaqat "Etnologiya" uchun balki, tarix fani uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma manbalar asosan insonning ijtimoiy faoliyati, aniqrog'i, kishilarning o'zaro munosabatlari natijasi o'laroq yaratilgan va o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, tarixiy voqealarni aks ettirgan manbalardir. Yozma manbalarga odatda ma'lum bir xalq vakillari hisoblangan mualliflar tomonidan o'zlarining yoki boshqa xalqlarning tarixi hamda madaniyati to'g'risida yozib qoldirilgan qo'lyozma asarlar, tarixiy manbalar kiradi. Shuningdek, yozma manbalarga oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar va b.), tarixiy, geokosmografik hamda biografik asarlar ham kiradi. Yozma manbalar doimiy ravishda bir necha avlod tadqiqotchilari uchun qiziqarli manba bo'lib xizmat qilgan.

Odatda biror bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini o'rganishda rasmiy hujjatlar, moliyaviy-hisobot daftarlari va yozishmalarning ahamiyati benihoyat kattadir. Rasmiy hujjatlar ijtimoiy-siyosiy hayotni ma'lum yuridik shaklda bevosita va ko'p hollarda aynan qayd etilganligi bilan ham qimmatlidir. Lekin ayni vaqtda bahzan ularning orasida, ayniqsa, rasmiy yozishmalarda soxtalari ham uchrab turishini unutmaslik lozim. Shuning uchun ham mazkur

manbalardan foydalanilganda o'ziga xos diqqat-e'tibor va zo'r ehtiyotkorlik talab qilinadi. Hujjatlar ustida ish olib borilganda, aniqrog'i undan biror bir ijtimoiy-siyosiy jarayonni talqin etishda foydalanilganda bir hujjat bilan chegaralanmaslik, o'zaro o'xshash hujjatlarni o'zaro qiyosiy tahlil etib o'rganmoq zarur. Qolaversa, hozirgi kunda bunday tarixiy-madaniy yozuvlar etnologlar qiziqadigan yagona manba turi bo'lib hisoblanmaydi. Ayni kunda turli davrlardagi xalqlarning hayoti va madaniyatiga bag'ishlangan har xil yozma manbalar mavjud bo'lib, ularning ko'p qismi hozirgacha batafsil o'rganilmagan. Bunday yozma manbalar jumlasiga, sayyohlar va geograflarning safarlari to'g'risidagi xabarnomalari, o'tkazilgan turli-tuman ekspeditsiyalar hisobotlari, matroslar va askarlarning yozuvlari, elchilarning hisobotlari, savdogarlarning safarnomalari, oddiy xalq vakillarining davlat rahbarlariga yozgan maktublari va shu kabi bir qator yozma materiallar kiradi.

“Etnologiya” uchun xalqning tarixiy tafakkurini aks ettiruvchi ***xalq og'zaki ijodi*** nahmunalari ham muhim manba hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodiyoti madaniyatning eng qadimgi sohalaridan bo'lib, uning ildizi insoniyatning eng qadimgi tarixiga borib taqaladi. Og'zaki adabiyotning ayrim nahmunalari qadimgi yunon tarixchilari va Tabariy, Mahsudiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn al-Asir kabi Sharqiy olimlarining asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Qayumars, Jamshid va Siyovush haqidagi afsonalar, To'maris va Shiroq haqidagi qissalar ham shular jumlasidandir. An'anaviy urug'-jamoaviy munosabatlar, xo'jalik munosabatlarini, umuman olganda, turkiy xalqlarga xos milliy-etnik qadriyatlarni tadqiq qilishda «Go'ro'g'li», «Alpomish» kabi dostonlar, shuningdek, xalq ertaklari, rivoyatlar, marosim qo'shiqlari, matal va topishmoqlarning o'rni benihoyat kattadir. Yozma adabiyotdan avval paydo bo'lgan bu xalq durdonalari turli ijtimoiy qatlam vakillari hisoblangan kishilarning turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi, urf-odatlarini, ayniqsa, uzoq o'tmish davrlardagi ijtimoiy munosabatlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Qolaversa, etnologik tadqiqotlar jarayonida o'tkazilgan tajriba qo'ni-qo'shni bo'lib yashagan xalqlarda ham ayrim hollarda tarixiy tafakkurning shakllanishi tubdan boshqa-boshqa bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. Ajdodlari ko'chmanchi yoki yarimko'chmanchilikda chorvachilik bilan shug'ullangan xalqlar hatto hozirgi kungacha o'zlarining ajdodlari shajarasini yaxshi bilishlari bilan birga ularning qaysi uruqqa va shu urug'ning qaysi shaxobchasiga mansubligi, ajdodlari qayerdan kelganligidan tortib ularning an'anaviy mashg'ulot turlarigacha biladilar. Bunday qimmatli manbalar ko'pincha og'zaki ijod orqali ajdodlardan avlodlarga o'tib saqlanib keladi. Xalq og'zaki ijodiga oid materiallar bugungi ulkan globalashuv va zamonaviy etnik jarayonlar ta'sirida jadal sur'atlar bilan yo'qolib bormoqda. Hatto yaqin kelajakda bunday manbalarning ayrimlari butkul yo'qolib ketish xavfi mavjud.

“Etnologiya”da tarix va etnomadaniyatni tadqiq qilishda ***arxeologik materiallardan*** ham keng foydalaniladi. Arxeologik moddiy (ashyoviy) manbalar deyilganda insoniyatning dastlabki ajdodlari yashagan makonlardan topilgan mehnat va urush qurollari, ular dafn etilgan joylar, keyingi taraqqiyot jarayonida qurilgan bino va inshootlar (qal'a va qasrlar, hammomlar va karvonsaroylar,

hunarmandchilik ustaxonalari hamda suv inshootlari va shu kabilar)ning qoldiqlari, hamda uy-ro'zg'or va zeb-ziynat buyumlari tushuniladi. Yozma va og'zaki manbalarga qaraganda arxeologik moddiy ashyolar birmuncha ishonchliroq hisoblanadi. Ular yordamida ma'lum bir tarixiy voqeaning aniq vaqtini yoki moddiy madaniyat qurolining tarqalish davrini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodning yuqori sifatlilik bugungi kunda arxeologik materiallarni zamonaviy shaklda o'rganish va baholash mezonlariga asoslanadi. Jumladan, hozirda arxeologik materiallarni o'rganishda statistik metodlardan keng tarzda qo'llanilmoqda. Shuningdek, oxirgi yillarda etnoarxeologiya kabi yo'nalish ham jadal rivojlanib bormoqda. Deskriptiv (tavsifiy) statistikani qo'llash arxeologik materiallar zahirasini to'laligicha ochishga ko'maklashsa, analitik statistika esa arxeologik materiallarning tipologiyasi va ilmiy gipotezalarni tekshirish imkonini beradi. O'z navbatida mazkur ma'lumotlarning tahlili va talqini hamda ilmiy qimmatini "Etnologiya"ga oid nazariyalar, g'oyalar, konsepsiyalar va madaniyat modellarini paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Etnologik tadqiqotlardagi muhim metodlardan yana biri **qiyosiy tilshunoslik metodidir**. Bu uslubning mohiyati turli tillardagi ma'lum so'zlarni taqqoslashdan iboratdir. Bu o'z navbatida o'zaro yaqin qarindosh tillarning aloqalari chegarasi va ularning qarindoshlilik va bog'liqlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

"Etnologiya"ning fan sifatida shakllanganiga garchi juda qisqa fursat o'tgan bo'lsada, o'tgan davr mobaynida juda ko'plab statistik materiallar yig'ildi. Ayniqsa, yig'ilgan materiallar ichida eng muhimlaridan biri aholini ro'yxatga olishga oid turli yillardagi ma'lumotlar hisoblanadi. Mazkur materiallardan foydalanish jarayonida tadqiqotchi o'zini qiziqtirgan keng doiradagi savollarga javob topishi mumkin. Shuningdek, bunday materiallarning qimmatini nafaqat ularning turli yillarda bajarilganligi bilan, balki ularning ma'lum bir tizimlashtirilgan tartibda amalga oshirilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Aholini ro'yxatga olish bilan bog'liq hujjatlar ma'lum yo'nalishlarga oid savollar majmui va ularning javoblaridan iboratdir. Bunday turkum materiallar orasida ijtimoiy-demografik savollar majmui: jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, kasbi, uy-joyi turi, mazkur hududda yashash vaqti va shu kabi savollar muhim ahamiyatga ega. Bunday ma'lumotlarni olish – tadqiqotchi uchun umumiy etnik manzarini o'rganishda va bir nechta aholi manzillari ro'yxati materiallarini taqqoslash orqali etnik jarayonlarning dinamikasini ko'rsatib berishida muhim ahamiyatga molik.

"Etnologiya"ning mustaqil fan tarzda shakllanishida bevosita xalqning hayotini o'rganish yoki etnologlar tili bilan aytganda **dala tadqiqotlari** muhim ahamiyat kasb etadi. Dala tadqiqotlari metodining shakllanishi mustamlaka xalqlar, ularning xo'jaligi, ijtimoiy tuzilmalari, ehtiqodi, urf-odatlarini to'g'risida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishga qiziqish tufayli shakllangan bo'lib, bu o'z navbatida o'sha davrdagi mustamlakachilik siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Chunki, mustamlakachilar o'z koloniyalarini va u yerlardagi aholini boshqarishlari uchun doimiy ravishda bunday ma'lumotlarga ehtiyoj sezganlar.

Dala tadqiqotlarining metodi tadqiqotchiga o'rganilayotgan etnik muhitda

uzoq muddat bo'lishlikni va bevosita o'sha muhitga ko'nikishlikni talab qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tadqiqotchi uchun odatda mavjud tadqiqot obyektida statsionar ishlash muddati bir etnik yildan kam bo'lmasligi kerak. Etnolog-tadqiqotchi uchun dastlabki 2-3 oy tanishish va yangi muhitga moslashish davri hisoblanadi. Shundan keyin u etnik jamoaning yoki uning bir qismi hayotini yil mobaynida kuzatadi.

Dala tadqiqotlarining qonuniyligi va samarali bo'lishligi tadqiqotchi tomonidan o'rganilayotgan etnos orasida uzoq muddat yashashni tahlil qiladi. Bunga biz amerikalik olim A.Morgan va rus etnografi Mikluxa Maklaylarning tadqiqotlarini yorqin misol tarzda keltirishimiz mumkin. Morgan Amerikadagi hindularning irokez qabilasi orasida uzoq muddat yashagan bo'lsa, Mikluxa Maklay Yangi Gvineya papuaslari orasida yashab juda boy etnografik materiallar yiqqan olim hisoblanadi. Statsionar tarzda dala tadqiqotlari metodlarining o'ziga xos yutuqi shundaki, etnologlar xalq kundalik turmush tarzining bevosita ishtirokchisi bo'ladi. Hozirgi kunda "Etnologiya"da mazkur metodning mavsumiy yoki shoshilinch tarzda o'tkaziladigan metodlaridan foydalaniladi. Bu metodda tadqiqotchi ma'lum bir tarixiy-etnografik hududda yashovchi aholini oldindan belgilangan reja asosida o'rganadi. Bu metod tadqiqotchi uchun qulay bo'lgan davrda o'tkaziladi. Lekin bunday tarzda tadqiqotlar olib borish etnosning hamma mavsumdagi hayotini o'rganish imkonini bermaydi.

Dala tadqiqotlari metodlari etnolog uchun moddiy va ma'naviy madaniyat to'g'risida ham ma'lumotlar olish imkonini beradi. Foto suratlar, chizmalar, sxemalarda moddiy, ma'naviyat obyektlari: etnosning mehnat qurollari, uy-joylari, uy-ro'zg'or anjomlari, kiyim-kechaklari va shu kabi moddiy madaniyat namunalari aks etadi. Zamonaviy texnika vositasida (raqamli videokamera va raqamli fotoapparat, audio yozuvlar) va an'anaviy dala yozuvlarida xalq ma'naviy hayotining obyektlari va ko'rinishlari (an'analar, marosimlar, urf-odatlar, folklor qo'shiqlar va shu kabilar) aks etadi. Bahzida dala tadqiqotlari jarayonida ayrim moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari muzeylar kolleksiyasi uchun yig'iladi.

**Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi.** Tarixiy manba-deganda biz o'tmishdan qolgan hamda jamiyat hayotining ayrim bosqichi yoki tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni tushunamiz. Tarixiy manbalar qatoriga qadimgi odamlarning manzilgoxlari, qadimgi shaharlar, qal'alar va ularning harobalari, sug'orish inshootlari qoldiqlari, ajdodlarimizning mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, zeb-ziynatlar, tangalar, qoyatosh sur'atlari, petrogliflar, yozma hujjatlar va boshqalar kiradi.

Tarixiy manbalar insonlarning ijtimoiy faoliyati davomida yaratiladi va o'tish hodisalarini o'zida aks ettiradi. Tarixiy manbalarning mavjudligi tarix fani rivojlanishining asosiy shartidir. Tarixiy manbalarsiz tarixni o'rganish mumkin emas.

Hozirgi zamon tarix fanida tarixiy manbalarni shartli ravishda quyidagi 7 asosiy guruhga bo'linadi.

1. **ASHYOVIIY MANBALAR.** Ashyoviy manbalarga qadimgi odamlarning manzilgohlari, binolar, turli inshootlar, mehnat qurollari va turli buyumlar kiradi. Ashyoviy manbalarni qidirib topish va o'rganish bilan asosan arxeologiya fani shug'ullanadi.

2. **ETNOGRAFIK MANBALAR.** Xalqlarning kelib chiqishi, turmush tarzi, ma'naviy hayotini, sodir bo'lgan va bo'layotgan etnik jarayonlarni o'zida aks ettirgan materiallar etnografik manbalar guruhiga kiradi. Bu manbalarni ko'makchi tarix fanlari - "Etnologiya" fani o'rganadi. Etnografik manbalar ayrim hollarda uzoq o'tmishini qayta tiklashda g'oyat muhim rol o'ynaydi. Masalan, XIX asrda amerikalik etnograf olim L. Morgan Shimoliy Amerikada yashagan hindularning irokezlar qabilasi hayotini o'rganib, o'zining "Qadimgi jamiyat" nomli asarini yozdi. Uning bu asarini insoniyat tarixining ilk davri - ibtidoiy jamiyat tarixini tadqiq etishda yaqindan yordam berdi. Hozirgi kunda turli o'zbek urug'lariga mansub bo'lgan aholi guruhlarining jamlovi. Ularning etnik xususiyatlarini o'rganish tariximizning etnik sahifalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. **FOL'KLOR MANBALAR.** Xalq uzoq asrlar davomida o'zi ortirgan tarixiy bilimlarni og'zaki ijod orqali avloddan-avlodga etkazib keldi. Turli rivoyatlar, asotirlar, xalq dostonlari va maqollarda tarixning u yoki bu tomonlari o'z aksini topdi. Taniqli rus tarixchisi B. D. Grekov yozganidek, rivoyat va asotirlar - "bu xalqning o'zi so'zlab bergan tarixidir". O'rta Osiyo eng qadimgi xalqlarining ogzaki ijodiyoti namunalari bizgacha "Avesto" kitobi orqali, shuningdek antik tarixchilar hamda Tabariy, Narshaxiy, Beruniy va boshqalar asarlari orqali etib keldi. O'rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi qabila va elatlarning rivoyatu asotirlarlari ularning turmush tarzi va ma'naviy dunyosi haqida ma'lumot beradi. Qadimgi ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlari to'grisida hikoya qiladi. Bu rivoyat va ertaklarda malika To'maris, cho'pon Shiroq, bahodirlar Rustam va Siyovushlar obrazini yaratdi. Ularning Vatan ozodligi yo'lidagi fidokorona kurashlarini tarannum etdi. Xalq afsonalari Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" asarining syujetini tashkil etdi.

O'rta asrlarda o'zbek xalqi ijod qilgan epik dostonlar, ertaklar va qo'shiqlar, maqol va topishmoqlar xalq tarixini, uning ruhiyati va ma'naviyati tadqiq etishda muhim ahamiyatga egadir. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, folklor manbalari aniq tarixiy manba sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Buning asosiy sababi shuki, rivoyatlarda ko'p xronologik chalkashliklar mavjud hamda tarixiy shaxslarning faoliyat ko'rsatgan davri o'zgarib turadi. Folklor shunday janrki, unda so'zlovchi voqealar syujetini o'zi hohlagan tarzda o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun folklor materiallaridan faqat qo'shimcha tarixiy manba sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4. **LINGVISTIK MANBA.** O'zbek tili va boshqa tillarning leksik tarkibida mavjud bo'lgan va hozir ham mavjud atamalar va toponimlar (joy nomlari)ni tadqiq etish jarayonida qimmatli tarixiy materiallar qo'lga kiritilishi mumkin. Atamalar va topilmalarning kelib chiqishi va mazmunini aniqlash bilan

lingvistika (tilshunoslik) fani shug'ullanadi. Bunday ma'lumotlar lingvistik manbalar deb ataladi. Masalan, "Buxoro" toponimi sanskrit tilidagi "vihara" so'zining o'zgargan varianti bo'lib, "ibodatgoh" degan ma'noni bildirilishi aniqlangan. Qadimda Buxoro shahrida buddaviylarning ibodatxonasi mavjud bo'lganligi sababli keyinchalik bu so'z mazkur shaharga nisbatan ishlatila boshlagan. Shunga o'xshab "vag'nze", "dax'yu", "suyurg'ol", "tanxo" singari yuzlab atamalarning kelib chiqishini o'rganish qiziqarli tarixiy ma'lumotlar beradi.

5. **FOTOKINOHUJJATLAR.** Fotograf hamda kino san'ati paydo bo'lgandan so'ng tarixiy manbalarning yangi bir guruhi vujudga keldi. Bunday manbalar fotohujjatlar deb ataladi. Toshkentdagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy kinofotofonohujjatlar Davlat arxivida XIX asrning oxiridan hozirgi kunga qadar bo'lgan muddatda o'lkamizda sodir bo'lgan voqealarni aks ettiruvchi boy fotohujjatlar kolleksiyasi saqlanadi. Kinohujjatlar esa asosan Oktyabr to'ntarishidan keyingi davrni aks ettiradi. Fotokinohujjatlarning muhim tomoni shundan iboratki, ular tariximizning turli lahzalarini jonli tarzda gavdalantiradi. Hujjatlarning bu guruhini o'rganish va ulardan foydalanish bizning tarixiy tasavvurimizni yana kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

6. **FONOHUJJATLAR.** Fonohujjatlar deganda biz grammafona plastinkalari hamda magnit tasmalarga yozib olingan nutqlar, suhbatlar, adabiyot va san'at asarlarini tushunamiz. O'zbekiston Markaziy kinofotofonohujjatlar Davlat arxivida qator shunday hujjatlar saqlanmoqda. SSSR va O'zbekiston SSR davlat va jamoat arboblari, fan adabiyot va san'at namoyondalari, ishlab chiqarish ijodkorlarining nutq va intervyulari, eski bolsheviklar, grajdanlar urushi va ikkinchi jahon urushi faxriylarining esdaliklari alohida o'rin tutadi. Lekin bu hujjatlarning ko'pchiligi o'sha davrda hukmron bo'lgan kommunistik mafkura ruhi bilan yo'g'irilganligini ta'kidlab o'tish zarur. Arxivda shoir va yozuvchilarning o'z asarlaridan o'qigan parchalari matni, san'at ustalarining kontsertlari ham yozib olingan. Fonohujjatlar ham tarixning jonli manzaralarini yaratishga, adabiyot va san'at tarixini teran o'rganishda muhim o'rin tutadi.

7. **YOZMA MANBALAR.** Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy qismi hisoblanadi. O'rta Osiyoda miloddan avvalgi I mingyillikda dastlab oromiy yozuvlari, so'ngra asoslangan so'g'd, xorazm va baqtriya yozuvlari tarqaldi. Keyinchalik bu mintaqada yunon, kushon, turk va arab yozuvlari yoyildi. Qadimgi Fors, So'g'd, Xorazm, Qadimgi turk, fors-tojik, eski o'zbek, rus va boshqa tillarda bitilgan yozma manbalar ko'p asrlik tariximizni o'rganishda ulkan rol o'ynaydi. Yozma manbalar q'oyalarga, taxta va matolarga, pergament qog'ozlarga yozilgan bitiklardan iborat. Yozma manbalar davrlar bo'yicha nihoyatda notekis bo'lingandir. Eng qadimgi davrlar bo'yicha yozma manbalar nihoyatda oz bo'lib, keyingi asrlarga oid manbalar esa tobora ko'payib boradi. Yozma manbalarning katta qismi son-sanoqsiz jangu jadallar va tabiiy ofatlar natijasida nobud bo'ldi.

Bizgacha etib kelgan tarixiy manbalarning asosiy qismi milodiy X-XX asrlarga mansubdir. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlaridan yozma



manbalarning miqdori keskin oshib bordi. Hozirgi kunga kelib yozma hujjatlar shu darajada ko'payib kyetdiki, ularni unifikatsiya qilish, axborotni kodlashtirish, hujjatlarni saralash va saqlash yo'llarini takomillashtirish extiyoji tug'ildi.

Tarixiy manbalarni 7 ta guruhga bo'lish shartli xarakterga egadir. Masalan, etnografik, folklor va lingvistik manbalar yozma shaklda yoki fotohujjat shaklida bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatib o'tilgan tarixiy manbalar guruhi o'z navbatida yana kichikroq guruhlarga bo'linishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улўф халқнинг иши ҳам улўф, ҳаёти ёруф ва келажакимизни фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Abdullaev M. Abdullaev A. «Ma'naviyat va madaniyat tarixi». Farg'ona. 1998 y.
8. Imomnazarov M. “Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari”. T. 1996 y.
9. Ashirov A. Atadjanov Sh. «Etnologiya». T. 2007 y.
10. Ashirov A. «O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari». T. 2007 y.
11. Abdullaev M. “Madaniyatshunoslik”. Farg'ona. 1998 y.
12. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R . “Etnomadaniyat”.. T.: Adolat. 2003 y.
13. Shoniyozov K. “O'zbek xalqining shakllanish jarayoni”. T.: Sharqiy. 2001y.

#### **4-mavzu: Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni.**

##### **Reja:**

1. O'zbek xalq milliy o'yinlari tarixidan.
2. Milliy bayramlarda milliy o'yinlarning tashkil etilishi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, asrlar bo'yi avloddan avlodga o'tib, kamol topib, bebaho merosga aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlarning ma'lum qismi turli sabablar tufayli yo'qotilgan, ayrim bayramlar esa qarama-qarshiliklarni yengib, ko'pgina fazilatlardan ajralsada, butunlay yo'qolib kyetmagan, yana boshqalari esa xalq hayotida mustahkam o'rin olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan. O'zbek

xalqining bayramlari qon-qardosh xalqlarning tarixiy - madaniy aloqalari jarayonida shakllangan va rivoj topgan, boshqa xalqlar bayramlariga ta'sir yetgan va o'z navbatida qarama-qarshiliklar, to'siqlarni yengib, boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan uzoq tarixga ega.

Arxeologlar, tarixchilar, etnograflar, san'atshunoslar bergan ma'lumotlarga qaraganda, bayramlar eng qadimiy davrlardayoq mavjud bo'lgan va ibtidoiy odamlar hayotida muhim rol o'ynagan. Bayramlarning eng qadimiy davrlarda mavjud bo'lganligi umuman tan olingan. Inson o'z mehnati tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqqach, yashash uchun kurash jarayonida qanchalik ongli mehnat qilsa, u shuncha muvaffaqiyatlarga erishgan. Kurash va mehnatda erishilgan muvaffaqiyatlar esa xursandchilikni vujudga keltirgan. Bu jarayon ibtidoiy odamlar ovchilik bilan kun ko'rayotgan davrlarda yaqqol sodir bo'la boshlagan. Arxeologik qazilmalar va g'orlardan topilgan topilmalar qadimiy odamlarning o'z mehnati (ovi) natijasini tantana qilganliklaridan dalolat beradi. Ovdan o'lja bilan qaytish va o'z mehnatidan manfaatdor bo'lish xursandchilik, shodiyona kayfiyatni yaratgan va bu holatni ovchilar imo-ishora, maxsus harakatlar hamda o'yin shaklida ifodalashga urinishgan. Shu tarzda "o'yin - mehnat farzandi" bo'lib vujudga kelgan .

Ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik o'yinlari muhim o'rin tutgan. Ovchilik o'yinlari ovdan oldin ham, undan so'ng ham o'tkazilgan. Ovdan oldingi o'yinlar - o'voldi mashqi vazifasini o'tagan hamda jiddiy o'ziga xos kichik marosim shaklida uyushtirilgan. o'yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o'rgatishgan. Shu boisdan qam u o'ziga xos maktab vazifasini o'tab, bir tomondan, ovchilar mahoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ularda taqlid sano'atini shakllantirgan va rivojlantirgan. Ovdan so'nggi o'yinlar ov muvaffaqiyatli tugagandagina uyushtirilgan deb taxmin qilish mumkin. Chunki ovdan o'lja bilan qaytish, bu ziyofat, xursandchilik qilishga, butun jamoaning bayram qilishiga imkon yaratgan. Ovchilar o'yinlar yordamida "...kun bo'yi ov qilib, kechqurunlari o'z a'zoi-badanlariga dam berish, bugungi taassurotlarini, kayfiyat va tuyqularini, ovdan mamnunliklarini, to'qchilikni, sho'xliklarini ifodalashardi". Bu jarayonlar, ya'ni qar bir muvaffaqiyatli ovdan keyin o'yinning an'ana bo'lib qolishi bayram kayfiyatida o'tadigan maxsus marosimni shakllantira boshlagan. O'rta Osiyo hududida ibtidoiy odamlar hayotida ham ovchilik o'yinlarini paleolit davri Sherobodagi Zarao't Karamsoyning toshlariga tushirilgan tasvirlarda; miloddan oldingi II-I ming yilliklarda Farg'ona vodiysidagi Saymalitosh qorlarida aks ettirilgan devoriy rasmlarda va boshqa arxeologik topilmalar toshidagi tasvirlarda mavjud. Ularda nafaqat totemlarga sig'inish, balki ov jarayoni, ovdan keyingi shodiyonalik, hayvon niqobi va qiyofasidagi ovchi o'yinlari aks ettirilgan.

Ilk bor maxsus uyushtirila boshlangan bayramlar totemlarga bag'ishlangan. Bu bayramlarda turli joylarda totem hisoblangan turli hayvonlar - ayiq, yovvoyi echki, sigir, bug'u, ot kabilarga sig'inishgan. Totem hayvonlarga bag'ishlangan bayramlarda odamlar unga taqlid qilishgan, ularning terisini kiyib o'yinga

tushishgan. Shuningdek, totem qisoblangan hayvonlarni faqat tantanali marosimlarda o'ldirishgan va yeyishgan .

So'ngi paleolit davrida (taxminan miloddan 40-41 ming yil avval) yer yuzining shimoliy qismida totemga oid "ayiq bayramlari" bo'lgan. O'rta Osiyoda "Ayiq o'yini" (pantomimik raqs sifatida) keyingi vaqtlargacha yetib kelgan. Mexnat taqsimotining vujudga kelishi munosabati bilan qadimgi odamlarning chorvachilik va dehqonchilikka o'tishi (bu jarayon O'rta Osiyoda miloddan oldingi III ming yillik oxiri - II ming yillik boshlariga to'qri keladi) ana shu yangi sohaga oid odat, marosim va bayramlarni vujudga keltira boshlagan. Dehqonlarning hayotida eng quvonchli voqea - bu hosilni yiqish va yangi noz ne'matlarni tatib ko'rish jarayoni bo'lgan yil bo'yi kutilgan bunday jarayon, tabiiyki, dehqonlarda bayram kayfiyatini vujudga keltirgan. Bundan ko'tarinki kayfiyatni harakatlarda aks ettirish maqsadida kishilar o'yinlar va marosimlarni tashkil qilgan. "Mehnat o'yinlari" yaxshi kayfiyat, bayram holatini vujudga keltirgan.

Bronza davrilaridan boshlab o'troq dehqonchilikning vujudga kelishi va uning tez rivojlanishi natijasida bahorda mehnat mavsumiga kirishish, kuzda hosilni yig'ib olish yakuniga bag'ishlangan bayramlar shu tariqa yuzaga kelib, ular yillar o'tishi bilan an'anaga aylana boshlagan. Insonning "birinchi kasbi"-ovchilik asosida-"ovchilik o'yinlari" vujudga kelgan bo'lsa, uning dehqonchilikka o'tishi va u bilan shuqullanishi natijasida "mehnat o'yinlari" shakllanib, yangi mehnat bayramlari uchun zamin yaratgan.

Mehnat - bu bayramning bosh manbai, asl zamiri hamda ilk chashmasi sanalib, bayram (yoki "bayram holati") ibtidoiy davrdan boshlab "yashash uchun kurash"- mehnatning natijasi shaklida vujudga kela boshlagan. Bunday holat bayramning sodda shakli sifatida namoyon bo'lishiga qaramay, keyinchalik u inson madaniyati va san'atini rivojlantirish uchun zamin yaratib bergan. Bunday bayram holati jarayonida turli o'yinlar (teatr va raqs, pantomima sano'atlarining primitiv ko'rinishlari) va maxsus marosimlar rivojlanadi. Ibtidoiy jamiyatda ham jamoa va uning a'zolariga bag'ishlangan tantanalar asta-sekin shakllana borgan. Bu xildagi ilk shakllarga -"Orgaist bayramlari"ni misol qilib olsak bo'ladi. Bu bayram o'tkaziladigan kunda barcha erkak va ayollarga o'zlari uchun juft tanlash erkinligi berilgan.

Qadimiy davrdagi bayram kayfiyatida o'tadigan marosimlardan yana biri - "erkaklikka o'tish" ("erkakka aylanish") edi. O'spirin unga uzoq tayyorgarlik ko'rib, o'zining hayotga tayyorligi va kuchini namoyish qilishga intilgan. Bu marosimda o'spirin qiynalgan, sinalgan, xullas, imtihondan o'tkazilgan.

Ibtidoiy jamiyatda, muste paleolit davridan boshlab, odamlar atrofdagi hodisalarni anglashga intiladilar, lekin ularning tabiat sirlari oldida aqliy jihatdan ojizligi natijasida turli ilohiy kuchlarga sig'inish, jumladan totemistik, animistik, politeistik, magik vujudga kelgan. Tabiiyki, kishilar bunday tushunchalar, qarashlar, orzularni muayyan marosim va bayramlarda aks ettirishga uringanlar. Chunonchi qurqoqchilik davrida "yomqir tilash" ("Sust xotin"), shamol zarar keltirganda-"shamolni to'xtatish" ("Choy momo") va shamol kerak bo'lganda -

"shamol chaqirish", bevaqt sovuq tushganda -"quyoshga sig'inish", omad kelmaganda, ofat bo'lganda qurbonlik qilish va hokazo marosimlar o'tkazilgan. Biroq bunday hodisalarni hali bayram deb bo'lmaydi, albatta, chunki ular asosan tabiat injiqliklaridan odamlarga ortiqcha tashvish kelgandagina o'tkazilgan. Biroq keyinchalik ibtidoiy odamlar bunday marosimlarni tabiiy ofatlarning go'yo oldini olish maqsadida o'tkaza boshlashadi. Bu esa ularning ba'zilarini bayramga aylanib ketishiga sabab bo'ldi, jumladan qurbonlik qilish marosimi asosida-"qurbon xayiti" vujudga keldi. Ilohiy kuchga ishonishga bag'ishlangan marosimlar asosida keyinchalik diniy bayramlar shakllana boshladi .

Marosimlar kishilarning mehnat va kurashda erishgan yutuqi va xursandchiligi, boshqacha qilib aytganda, bayram holati asosida vujudga kelgan. Bunga ovchilik va deqqonchilik marosim - bayramlari misol bo'la oladi. Buning ustiga mehnatga bag'ishlangan tantanalalar faqat marosimdan tashkil topib qolmay, balki unda o'yinlar, musobaqalar uyushtirilib, hatto shu tantana uchun maxsus taomlar tayyorlangan. Shunday qilib, ibtidoiy davrda qadimiy odamlarning o'zlari kabi juda sodda bo'lgan mehnat, hayot va dinga oid turli bayramlar shakllari vujudga kela boshlagan. Ana shu oddiy shakllar keyingi tarixiy davrlardagi bayramlarga asos va zamin bo'la oldi.

Qadimdan birinchi qor yoqqan kun "qor xat" yozish ommaviy tus olgan, dalalarda qor otishlar, o'yin-kulgilar, sovg'a-salomlar va mehmondorchilik ziyofatlaridan tashkil topgan qishki xalq bayrami vujudga kelgan. Ilk bor qor yoqib dalalar, qir-adirlar va daraxtlarning oppoq libosga burkanishi o'ziga xos go'zallik yaratgan. Qor yog'ishi - yerni yaxshi oziqlanib, uning yaxshi hosildor bo'lishidan dalolat bergan. Shu sababli qor yoqishi kishilarda ko'tarinki kayfiyatni yaratgan. Xalqimizda "qor yog'di - don yog'di", "yer to'ysa, el to'yadi" degan maqollar bejiz yaratilgan emas. O'rta asrlardan qish faslining oxiri yoki erta bahorda o'tkazib kelinayotgan "qurultoy" ham o'zbek yiqin-bayramlari qatoridan o'z o'rnini topgan. qurultoy o'rta asrda vujudga kelib, O'rta Osiyo xalqlarining chorvadorlari, dehqonlari orasida muntazam ulkan yiqilish, majlis-sifatida har yili erta bahorda uyushtirilib, eng yirik bayramlardan biriga aylanib ketgan. qurultoyda mavsum kuni, shuningdek, eng dolzarb masalalar va kelajakdagi rejalar haqida maslahatlashib olingan. O'zaro kelishuv va maslaqatlar tugagach, ommaviy xalq tomoshalari, ot o'yinlari - poyga, uloq ("Ko'pkari") xalq ommaviy sayllari uyushtirilgan.

Ana shu ko'rsatmalarga amal qilinib 80-yillar o'rtalarida o'zbek xalqi azaldan sevib, ardoqlab kelgan urf-odatlar va marosimlar, bayramlar cheklab qo'yildi, ba'zilarining o'rniga boshqa bayramlar va marosimlar to'qib chiqarildi. Natijada avvallari nishonlanadigan "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Gul sayli" va boshqa xalq bayramlari unutib qo'yildi. "Navro'z" bayrami esa avval ta'qiqlandi, so'ng sun'iy tarzda "Navbahor" bayramiga aylantirildi Xalq qo'llab-quvvatlamagan bu bayram moddiy zaminga ega bo'lmaganligi sababli uzoq yashay olmadi. Xalq bayramlarini ta'qiqlab qo'yilishi 80-yillarning oxiriga kelib aholining ochiqdan-ochiq va haqqoniy noroziligini uyg'otadi. Buning zaminida milliy an'analar,

marosimlar va bayramlarni xalqqa qaytarish jiddiy masalaga aylandi. Natijada O'zbekiston jumhuriyatida "Xalq bayramlarini tiklash muammolari" yuzasidan ishchi gruppasini tuzilishi hamda bu gruppaga tomonidan har yili 21 martdan 21 aprelgacha "Insoniylikni va tabiatni e'zozlash oyligida "Navro'z", "Xotira kuni", "Birinchn pushta", "Birinchi ekin", "Don, maysa va suv kuni", bolalar "Boychechak" bayrami, "Lola sayli" va boshqa bayram marosimlarini o'tkazish tavsiya qilinishi xayrli ishlarning debochasi bo'ldi. Xalq marosimlari va bayramlarini tiklash juda murakkab jarayon bo'ldi. Chunki xalq bayramlariga xos shakl va elementlar yo'qolib bordi. Xalq bayramlari kuni uyushtirilgan "Katta tomoshalar", masxarabozlar, qiziqchilar, qo'g'irchoqbozlar, dorbozlar, polvonlar ishtirokidagi azaliy xalq tomoshalari, askiyabozliklar, mushoiralar, xalq o'yinlari kabilar noyob hodisaga aylandi. Eng ayanchli hol shu bo'ldiki, shaxsga sig'inish va turqunlik yillarida o'zbek xalq bayramlariga xos yaxshi odatlar (bayram oldidan qariyalar, xastalar va nochorlardan xabar olish, savobli-xayrli ishlar qilish, kabilar) unutila bordi. Bu borada shuni qato'iy ta'kidlash kerakki, bayramlar barcha xalqlarda eng yaxshi insoniy odatlar va an'analarni saqlaydigan muhim shakl bo'lgan. Shu sababli xalq marosimlari va bayramlari bilan birga insoniylik an'analari ham yo'qola bordi.

XX asrda an'anaviy o'zbek xalq bayramlari davr sinoviga bardosh berdi, ba'zi vaqtlarda vujudga kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tdi, ularning safiga yangi bayramlar qo'shildi, boyidi. O'zbekistonda Sovet hokimiyati yillaridagi bayramlar taraqqiyotiga nazar soladigan bo'lsak, bir-biri bilan bog'liq yaqqol ikki yo'nalishning vujudga kelganini sezish mumkin:

1. An'anaviy xalq progressiv bayramlarini (zamonga mos) taraqqiy ettirish;
2. Xalqaro bayramlarni hayotga tadbiiq etish va taraqqiy ettirish.

Birinchi yo'nalishda o'zbek xalqi uchun qadim zamonlardan munosib bo'lgan milliy marosimlar - bayramlar ("Navro'z", "Lola sayli", "Qovun sayli" kabilar)ni yangi mazmun bilan rivojlantirish nazarda tutilsa, ikkinchi yo'nalishda esa butun dunyo xalqlarining kurashi va mehnati jarayonida vujudga kelgan bayramlarni (1 May- Xalqaro birdamlik kuni, 8 Mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni, 1 yanvar - Yangi yil, 9 May – G'alaba kuni, 7 noyabr - Oktyabr revolyusiyasi kuni kabilar)ni o'zbek xalqi hayotida milliy va maqalliy xususiyatlarini qisobga olib tashkil qilish ko'zda tutildi. Undagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarning taraqqiy etishi bayramlar rivojiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, zamon talabiga muvofiq yangi-yangi bayramlar vujudga keldi. Shuningdek, o'zbek xalqi ijtimoiy-madaniy hayotining o'zgarishi va yangi sohalar paydo bo'lishi natijasida mehnat, tabiat, madaniyat, sport, oilaviy-shaxsiy bayramlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Birinchiidan, an'anaviy o'zbek xalq an'analari qatoriga o'lkamiz hayotiga mos, milliy va mahalliy xususiyatga ega bo'lgan yangi bayramlar qo'shilgan. Masalan, bunga "Tabiat bayrami» ("Ona yer sahovati"), "Qishloq bayramlari", "Ko'cha bayramlari", "Mahalla bayramlari", "Qariyalar bayrami", "Palov va obinon bayramlari", "Tabassum sayli", "Do'stlik karnavali", "Sport bayrami"

kabilarni kiritish mumkin. Bu bayramlarning ko'pi O'zbekiston sharoitida vujudga kelib, zamonaviy milliy bayramlar sifatida shakllangan.

Respublika rahbarligiga kelgan I.A.Karimov kishilarning ma'naviy boyishiga, milliy madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashuvi va o'zaro rivojlanishiga yordam beradigan xalq an'analari va bayramlarini tiklashga katta e'tibor berdi. Bu o'rinda xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish "Navro'z" bayramini xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo'ldi. Ma'lumki, O'zbekistonda Prezident tashabbusi bilan "Navro'z" bayramini umumxalq shodiyonasiga aylantirish borasida bir qator tadbirlar ko'rildi. 1991-yildan boshlab mamlakatda Prezident Farmoniga ko'ra, 21 mart - Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

Har bir jamoa, muassasada nishonlanadigan bunday bayramlar, kishilarda xalqimizning qadimiy an'alariga hurmat, mehnatga muhabbat hissini tarbiyalaydi. Bundan tashqari ma'naviy hayotdagi yana bir talay, aniqroqi diniy bayramlar, Xayit kunlarining respublikada umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi uchun keng yo'l ochilgani ham ma'naviy poklanishning muhim ko'rinishidir.

Navro'z eski quyosh kalendari hisobida Farvardin oyining boshlanishiga (hozirgi 22 martga) to'g'ri keladi. Bu kun "Kichik Navro'z" deb atalgan va shu kundan boshlab, tabiatdagi hamma narsa hamalga kiradi, deb hisoblangan. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli kitobida qimmatli ma'lumotlar qoldirib, unda kichik bayram farvardin oyining oltinchi kunigacha davom etganligi ta'kidlanadi. Farvardin oyining oltinchi kundan "Katta Navro'z" boshlangan. Ba'zi tarixiy manbalarda Navro'z bayrami Ahmoniylar davridan (mil. av. 530-330 yillar) boshlab butun O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistonga keng tarqalgan va an'anaga kirgan, degan taxminlar bor. Grek-Makedon va Arab istilosi davrlarida Navro'z nishonlansada, u podsho saroylarida, amaldorlar va din ahli davralarida rasmiy bayram hisoblanmagan.

Arablar VII asrda, mo'g'ullar XIII asrda O'rta Osiyo xalqlariga o'z ideologiyasini singdirish bilan bir qatorda xalq an'analari, jumladan, Navro'zni ham ta'qiqlashga harakat qilib, uni nishonlashga qarshi qattiq kurash olib borishgan. Boy tarixi va xalqda bayramni o'tkazishning o'ziga xos tartib-qoidalariga ega bo'lganligi uchun Navro'zni ta'qiqlash mustabid hukmdorlarning qo'lidan kelmagan. Hovli-joylarni tozalash, ko'kat va gullar ekish, ota-ona, yoru do'stlarni yo'qlash, marhumlarning qabrini ziyorat qilish kabi odatlar Navro'z bayramining tarkibiy qismiga kirgan.

Ma'lumki, o'rta asrlarda O'zbekiston hududining turli joylarida Navro'z har xil tarzda uyushtirilgan. U 3 kundan to 15 kungacha nishonlangan. Navro'z odatda bozorga yaqin joylarda, katta maydonlarda, shahar chekkalaridagi sayilgohlarda uyushtirilgan. Bayramning birinchi kuni quyidagicha bo'lgan: ertalab dorbozlar va polvonlarning chiqishlari, kun o'rtasida - muzikachilar, hofizlar va boshqa san'atkorlarning ijrolari, kechki payt esa sayillar, xalq o'yinlari, bazmlar uyushtirilgan. Navro'z bayrami tarixi qiziqarli o'tadigan xalq tomoshalariga bilan boqliq bo'lgan.

Masharaboz va qiziqchilar tomonidan ijro etiladigan o'zbek milliy o'yinlari orasida minglab kishilarga mo'ljallangan, maydonlarda o'tkaziladigan katta tomoshalar bo'lgan. Bunday tomoshalar Farg'onada - "Katta masharabozlik", Buxoroda - "Chavqi", Xorazmda - "Xatarli o'yin" nomi bilan yuritilgan. Navro'z kunlari katta bozorlarda savdo-sotiqalar tashkil qilingan va eng shirin taomlar tayyorlangan. Navro'z taomlari orasida sumalak alohida o'rin tutadi. Chunki sumalakni tayyorlash sayil sifatida shakllanib, bahor bayramining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanib ketgan.

Sumalak sayli kishilarda qadimdan o'zaro ahillik qissiyotini tarbiyalab kelgan. Chunki sumalak tayyorlanadigan joyga barcha kishilar bir-bir xovuchdan don olib kelishgan, birgalikda taom pishirishgan, bir qozondan tayyorlangan ovqatdan hammalari baham ko'rishgan. Sumalak sayli asosan ikki marosimdan tarkib topadi: 1) sumalakni tayyorlash; 2) sumalakxo'rlik qilish. Sumalak sayli an'anaviy marosim bo'lib, asrlar osha nishonlanib, mazmunan boyitib kelinayotgan xalq bayramlaridan biridir. U hozirgi kunda ham kishilar o'zaro hamkorlik, do'stlik va birodarlikka chorlaydi. Navro'z dalalarda mehnat mavsumining boshlanishiga bag'ishlangan bayram hamdir. Uning oxirgi kuni - dehqonlarning yerga urug' qadashlari munosabati tufayli o'tkaziladigan marosim, tantanalar bilan yakunlangan. Bu marosim turli joylarda turlicha: "Hamal sayli", "Ekin sayli", "Qo'sh oshi" deb nomlangan. O'zbekistonda qadimdan tabiatning uyg'onishi, dalalarda mehnat mavsumining boshlanishidan dalolat beruvchi va xalq tomonidan keng nishonlanuvchi Navro'z sovet hukmroligi davrida ta'qiqlarga uchradi.

80- yillar o'rtalarida Navro'z sun'iy tarzda "Navbahor" bayramiga aylantirildi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan "Navro'z" bayramini umumxalq shodiyonasiga aylantirish borasida bir qator tadbirlar ko'rildi. 1991 yildan boshlab mamlakatda Prezident Farmoniga ko'ra, 21 mart -Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Navro'zning yana bir ajoyib xislati bor: uning ochilish marosimini ko'rish mumkinu, ammo bayramning yopilishini sezish amri mahol, chunki u ko'chalar va uylarda uzoq davom etadi. Navro'z har bir kishining qalbida bir yilga yetadigan yorqin taassurot, tetiklik qoldiradi. Navro'z bayramidan keyin odamlar bardamlashgan va kuch-quvvatga to'lgan qolda ishga kirishadilar.

Dunyodagi barcha xalqlarda ham tabiatning mo'jizasi gul - go'zallik, do'stlik, muhabbat ramzini bildiradi. Insoniyat bayramlarining hech biri gulsiz o'tmaydi va gul bilan boqliq urf-odatlar deyarli barcha xalqlarda bor. Qadimdan respublikamizning turli hududlarida gul sayillarini -"Lola sayli", "Sumbula sayli", "Qizil gul sayli" kabi nomlar bilan nishonlab keladilar.

An'anaviy gul (lola) sayillari va zamonaviy gul bayramlari kelib chiqishi jihatidan ma'lum ma'noda bir-biridan farq qiladi. An'anaviy gul (lola) sayillari bahor faslida tabiat qo'ynida uyushtiriladi, zamonaviy gul bayramlari yozda, shahar va qishloqlar gullarga burkangan bir paytda, madaniyat va istirohat boqlarida o'tkaziladi. Gul sayillari qadimdan an'anaviy tarzda o'tkazilib kelingan.

Qizil gul sayli. Bu asosan mart oyining oxirlarida Xorazm va Buxoro viloyatlarida o'ziga xos qiziqarli shakllarda uyushtiriladi. Sayil o'tkazilayotgan qishloqlar va sayilgoqlarda odamlar ko'tarinki kayfiyatda bo'lib, u yerda kuy va qo'shiqlar yangraydi, raqsga tushishadi. Keng maydonlarda masharabozlar, dorbozlar tomosha ko'rsatishadi, ishqibozlar xo'roz, qo'chqor, tuyalar urishtirishadi, uloq o'yinlari tashkil qilishadi. Buxoro va Xorazmda o'tkaziladigan gul sayillaridan shu narsa yaqqol ma'lum bo'ladiki, ular deyarli diniy elementlardan xoli bo'lib, haqiqiy xalq sayillari sifatida uyushtirilgan. Hozirgi kunda Qizil gul sayli ma'lum ma'noda zamonaviylashib, xalqning dalalarga chiqib mazmunli dam olishi va ma'naviy hordiq chiqarish shakliga aylangan.

Sumbula sayli. Bu bayram ham bahorda, tog' yonbaqirlarida turli gullar, jumladan, sumbullar yashnagan vaqtda o'tkaziladi. Tabiat go'zalliklarining birlashgan joyi: bir tomoni toq, ikkinchi tomoni suv (ko'l, daryo, soy), uchinchi tomoni o'rmondan iborat sayilgoqlar dam olish, tabiat chiroyidan bahramand bo'lish uchun qulay joy hisoblanadi. O'zbekistonda bunday manzilgoqlar kam emas. Masalan, Chust tumanidagi Toshqo'rqon ana shunday tabiiy go'zalliklari tutashgan joy. Baland toqlar, oppoq qorlardan hosil bo'lgan G'ova soyi va uning atrofidagi yovvoyi mevali daraxtlar, turli qushlar va hayvonlar yashaydigan o'rmonzorlar sayil qilish uchun eng qulay joydir. Qadimdan o'tkazib kelinayotgan Sumbula sayli hozirgi kunda yangi, zamonaviy tarzda May bayramlariga bog'lab o'tkazilmoqda.

Lola sayli. Bu qir-adirlarda lola qiyqos ochilgan paytlarda shahar va qishloqlar aqli dalalar va bog'-rog'larga jamoa bo'lib chiqib nishonlaydigan bayram (o'ziga xos "mayovka")dir. Lola sayli gul sayillari orasida keng tarqalgan. Qadimdan mavjud bu bayramlarda progressiv fazilatlar ko'p, diniy elementlar esa kam bo'lganligi bilan xarakterlidir. Etnograflarning ma'lumotlariga qaraganda, "Lola sayli" bayramini xalq tomonidan saylangan "Lolachilar" boshqarganlar. Bu o'ziga xos marosim maxsus aytiladigan qo'shiqlar, tomoshalar, o'yinlarga boy bo'lib, butun aholini sayilgoh tomon yo'llashdan boshlangan. Xalqdan meros bo'lib kelayotgan an'anaviy gul sayillariga munosabat hozirgi kunda yangicha mazmun bilan boyidi.

80 -yillarda "Lola sayli" aprel oyining ikkinchi yarmida O'zbekistonning ko'pgina joylari, jumladan, Toshkent viloyatining Bo'stonliq, Parkent, Keles tumanlarida, shuningdek, Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyatining tog'li tumanlarida shanba va yakshanba kunlari uyushtirilgan. "Yomg'ir chaqirish" marosimida odamlarning hayotiy istaklari aks etsada, kishilarning tabiat injiqliklarining tub sabablarini bilmasliklari, ularning oldini olish choralari topishga ojizliklari tufayli paydo bo'lgan. Suv bilan bog'liq xalq an'alaridan yana biri bahor payti kunlar isib, soylar, daryolar, ariqlar suvga to'lganda ilk bor cho'milish munosabati bilan vujudga keladigan marosim diqqatimizni tortadi. Maxsus adabiyotlarni o'rganish natijasida "Suv sayli"ning ko'pgina Sharqiy xalqlari, jumladan, Kavkaz xalqlari (arman, adjar va boshqalar)da keng tarqalgani ma'lum bo'ldi.



Keyingi vaqtlarda O'zbekiston territoriyasining ba'zi tog'li va suv havzalari bor joylarida qadimdan o'tkaziladigan "Suv sayli" haqidagi qiziqarli ma'lumotlar topilmoqda. Qishloq xo'jalik ishlari bilan mashg'ul barcha kasb egalari - paxtakoru bog'bon, g'allakor, sabzavokoru pillakorlarning hayoti va mehnatiga bag'ishlangan an'analar ichida hosilni yig'ishtirib olish munosabati bilan o'tkaziladigan alohida marosim va bayramlar bo'lgan. O'zbek mirishkor dehqonlarining ma'lum qismi qadimdan poliz ekinlari bilan shug'ullanganligi tufayli, ularning hayoti va mehnati bilan bog'liq, o'ziga an'analari va bayramlari bo'lgan. Xususan, poliz mahsulotlari pishganda yillik hosilni yiqishtirib olish munosabati bilan o'tkaziladigan Qovun sayli bunda alohida o'rin tutadi. Oktyabr inqilobidan keyin, Qovun sayllari yirik umumxalq bayramlari sifatida nishonlandi. 60- yillarda Toshkentda Madaniyat va istiroqat bog'i xodimlarining tashabbusi bilan Qovun saylining zamonaviy an'alariga boy yangi shaklda uyushtirildi va bu tajriba respublikamizning ko'pchilik viloyatlariga keng yoyildi.

Zamonaviy Qovun sayli O'zbekistondagi hosil bayramlarida o'ziga xos o'rin tutib, poliz mahsulotlari pishganda (avgust oyining oxirlarida) keng nishonlana boshlandi. Shuni alohida qayd etish kerakki, agar poliz mahsulotlari - qovun, tarvuzlardan mo'l hosil yetishtiriladigan joylarda qovun sayli o'tkazish an'anasini olgan bo'lsa, asosiy mahsulot sifatida uzum yetishtiriladigan joylarda "Uzum sayli" (masalan, Urgutda), anor yetishtiriladigan territoriyalarda "Anor sayli" (masalan, Quvada), bog'dorchilik, xususan olma yetishtirish bilan mashur bo'lgan tumanlarda "Olma sayli" (masalan, Namanganda) va hokazo bayramlar o'tkazish odat tusiga kirgan. Mirishkorlar hosil yig'im - terimi so'ngida yoki erta kuzda ishni tugatib, o'z bayramlarini o'tkazadilar. Dehqonlarning asosiy qismi - paxtakorlar paxtadan mo'l hosil yig'ib olganlarida tantanavor ziyofatlar va o'yin-kulgilar uyushtirishgan, yaxshi ishlaganlarga sovg'a-salom berishgan va hokazo. Paxta hosili tantanalari har xil regionlarda turlicha: "xirmon to'yi", "hosil to'yi", "paxta sayli" kabi shakllarda nishonlangan. Ilgari mahalliy xarakterga ega bo'lgan bunday tantanalar hozirgi kunda respublika ahamiyatiga molik katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etuvchi paxta bayramiga aylangan. Sovet davriga kelib kommunistik pariya manfaatlari va qarashlariga asosida an'anaviy xalq bayramlari rivojlanib, zamon ruhiga moslashtirildi.

Qish tantanalari. O'rta Osiyoda, shimoliy regionlarga qaraganda qish fasli qisharoq bo'lib, qattiq sovuqsiz o'tadi. Yoz bo'yi qishloq xo'jalik ishlari bilan band bo'lgan o'zbek dehqonlarining qish mavsumida bo'sh vaqtlari ko'p bo'ladi. Shu sababli, mehnatkashlarning bo'sh vaqtini unumli o'tkazish an'analari ular hayotida alohida o'rin tutmoqi lozim. Qish vaqtida gap-gashtaklar avjga chiqqan, doston kechalari, ertak aytishlar, topishmoq aytish o'yinlari va boshqa qishki dam olish shakllari aholining hayotiga o'zgacha mazmun baxsh etishi aniq. Qish faslida odamlarning bo'sh vaqti ko'p bo'lsada, biroq boshqa fasllarga qaraganda, bu mavsumda bayramlar kam bo'ladi.

"Gul bayrami" davr talabiga ko'ra yangi internasional hodisa sifatida 50-yillarning oxirlarida, tabiat go'zalliklarini himoya qilish dolzarb masalalarga

aylangan bir vaqtda shahar va qishloqlarni gulzor bog'-rog'larga aylantirishga ko'mak beruvchi ijtimoiy - madaniy tadbir sifatida tashkil topdi. Gul bayramlari dunyoda keng tarqalgan an'analardan biridir. Barcha joylardagi gul bayramlarini mohiyati va mazmuni bir-biriga yaqin bo'lsada, biroq ular o'ziga xos usul, rang-barang shaklda, milliy va mahalliy xususiyatlar bilan uyushtiriladi. An'anaviy gul sayillari va zamonaviy gul bayramlari kelib chiqishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ba'zi tadqiqotchilar bu ikki o'ziga xos sayil bayramlarni bir-biridan ajratolmay umumiy tarzda izoh beradilar. An'anaviy gul (lola, sunbula, boychechak) sayillari bahor fasli dala gullari ochilganda tabiat qo'yni - saylgohlarida uyushtirilgan bo'lsa, zamonaviy gul bayramlari yoz fasli shahar va qishloqlar gullarga burkangan bir paytda madaniyat va istirohat bog'larida o'tkaziladi. Gul sayllari qadimdan an'anaviy tarzda uyushtirilib kelingan bo'lsa, gul bayramlari keyingi davrlarda (50- yillarda) shakllangan yangi bayramdir. U bizga Yevropadan o'tib, mahalliy va milliy an'analarga bog'lanib ketgan. U qisqa muddat ichida Sobiq ittifoqdagi barcha respublikalarga keng tarqaldi. Bunday "gul bayram"larining mohiyati va mazmuni bir-biriga yaqin bo'lsada, ular har joyda o'ziga xos tartibda, rang-barang shakllarda milliy va mahalliy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. "Gul bayrami" boshqa zamonaviy an'analar singari asta-sekin O'zbekiston bayramlari orasida ham mustahkam o'rin egallay boshladi. hatto, keyingi yillarda u yangi xalq bayramlariga ham aylanib ketdi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bu yangi an'ananing rivojlanishi uchun o'zbek xalqi hayotida uzoq tarixga ega bo'lgan va tabiat qo'ynida o'tkaziladigan "Lola sayli", "Sumbula sayli", "Qizil gul sayli" kabi yuqorida tilga olingan an'analar muhim omil bo'lgan edi. Gul bayramining asosiy maqsadi, shahar, ko'cha, hovli, muassasalar, korxonalar, maktablar, bog'chalar va xiyobonlarni ko'kalamzorlashtirib, manzarali va chiroyli gul navlarini ko'paytirishga yordam berish hisoblanadi.

Namanganda o'tkaziladigan gul bayrami paxta yig'im - terimiga kirishishdan avval - shanba -yakshanba kunlari tashkil qilinadi. U an'anaviy tarzda ertalab, karnay-surnay sadolari bilan boshlanadi. Tabiat bayramlari ichida "Mehrjon" bayramining ham o'z o'rnini bor. Abu Rayhon Beruniy o'zining mashhur "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida "Mehrjon" so'zini "quyosh" va "jon sevgisi" degan ma'nolar bilan bog'lab talqin qilgan. O'rta Osiyoliklarda ham quyoshga sig'inish elementlari mavjud bo'lgan.

Zardushtiylarning muqaddas "Avesto" kitobida Mitra (Quyosh tangrisi) ga bag'ishlangan ajoyib so'zlar bor. Ulardan ma'lum bo'lishicha, zardushtiylar quyosh va uning tangrisi - "Mitra" ni ilohiy darajaga ko'tarishgan. Ajdodlarimiz quyosh -dunyodagi eng buyuk kuch, hayot chashmasi, yoruqlik va issiqlik bunyodkori deb tan olishgan. Ko'pgina qadimiy xalqlarda jumladan turkiy qavmlarda quyoshga sig'inish politeistik qarashlarning muhim va tarkibiy qismiga aylanib ketgan. Miloddan avvagi (1 ming yilliklar boshida) kuzgi bayramlar turli joylarda, masalan, Eronda va boshqa joylarda "Mehrjon" (yoki "Mehrgon"), Ko'hna Xorazmda - "Chiri-ruj", So'g'dda esa "Nim-sarda" nomi bilan mashhur bo'lgan. "Navro'z" bahorgi kunu-tun tengligini qayd qilsa, "Mehrjon" kuzdagi o'sha

holatdan nishona bergan. "Mehrjon" bayrami, bir tomondan, koinot va yerga jon ato etib turgan quyoshni qadrlashga, o'z nuri va qarorati bilan hosil yetkazishga bergan yordami uchun minnatdorchilik bildirishga imkon yaratgan bo'lsa, ikkinchidan barchani qish g'amini yeyishga undagan. Asrlar o'tib, zardushtiylik o'rniga yangi din (Islom) joriy qilingandan so'ng, go'yoki "Mehrjon" endi odamlar qalbiga ko'chib, inson mehriга aylana boradi.

Ajdodlarimiz tarixida asosiy bayramlardan biriga aylangan "Mehrjon" keyingi ming yil ichida alohida bayram sifatida nishonlanmay qo'yilgan bo'lsada, u butunlay yo'qolib kyetmadi. Aniqroqi, u turli - kuz va hosil bayramlariga bo'linib ketgan edi .

Mehnat bayramlari. Dehqonlarning hayotida eng quvonchli voqea - bu hosilni yig'ish va yangi noz ne'matlarni tatib ko'rish jarayoni bo'lgan yil bo'yi kutilgan bunday jarayon, tabiiyki, dehqonlarda bayram kayfiyatini vujudga keltirgan. Bundan ko'tarinki kayfiyatni harakatlarda aks ettirish maqsadida kishilar o'yinlar va marosimlarni tashkil qilgan. "Mehnat o'yinlari" yaxshi kayfiyat, bayram holatini vujudga keltirgan. Bronza davrilaridan boshlab o'troq dehqonchilikning vujudga kelishi va uning tez rivojlanishi natijasida bahorda mehnat mavsumiga kirishish, kuzda hosilni yig'ib olish yakuniga bagishlangan bayramlar shu tariqa yuzaga kelib, ular yillar o'tishi bilan an'anaga aylana boshlagan. Insonning "birinchi kasbi"-ovchilik asosida-"ovchilik o'yinlari" vujudga kelgan bo'lsa, uning dehqonchilikka o'tishi va u bilan shug'ullanishi natijasida "mehnat o'yinlari" shakllanib, yangi mehnat bayramlari uchun zamin yaratgan. Mehnat- bu bayramning bosh manbai, asl zamiri hamda ilk chashmasi sanalib, bayram (yoki "bayram holati") ibtidoiy davrdan boshlab "yashash uchun kurash"- mehnatning natijasi shaklida vujudga kela boshlagan. Bunday holat bayramning sodda shakli sifatida namoyon bo'lishiga qaramay, keyinchalik u inson madaniyati va san'atini rivojlantirish uchun zamin yaratib bergan. Chunonchi, bunday bayram holati jarayonida turli o'yinlar (teatr va raqs, pantomima san'atlarining primitiv ko'rinishlari) va maxsus marosimlar rivojlanadi.

Mehnat tufayli inson hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan va taraqqiy yetgan. Odamzod o'z taraqqiyoti jarayonida erishgan barcha yutuqlar - bu mehnat tufaylidir. Xalqimizda "Mehnatdan kelsa boyluk, turmush bo'lar chiroylik", "Mehnatning tagi rohat", "Mehnat qilgan dur keltirar" kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Kishi o'z mehnatidan hursand bo'la olsa, u boshqalar uchun ham zarracha foyda bera olishni his qilsa, mehnatidan faxrlanish tuyg'usini his qiladi. Aynan qadimgi avlodlarning o'z mehnatidan shodlanish, faxrlanishlari natijasida mehnat bayramlari vujudga kelgan. Mehnatni sevgan, mehnatdan yaxshi natijalarga erishgan xalqlarning aynan mehnat bayrami ko'p bo'lgan va ular yaxshi o'tgan. Azaldan mehnatkash o'zbek xalqi hayotida mehnat bilan boqliq bo'lgan turli marosimlar va bayramlarning mavjudligi tasodifiy emas. Hozirgi davrda ham O'zbekiston bayramlarining asosiy qismini mehnat bilan bevosita boqliq bayramlar tashkil qiladi. Hozirgi kunda mehnat sohalarida kasblarning ko'payishi natijasida mehnat bayramlari va marosimlarining ham turlari ko'payib, mazmunan boyib

bormoqda. Ular ichida ishchilar va qishloq xo'jaligi xodimlarining mehnat bayramlari, jumladan, mehnat jarayonining (yangi mehnat mavsumi yoki yangi mehnat boshichining) boshlanishiga yoki mehnat jarayonining (ma'lum boshichining) yakunlanishiga, reja, majburiyatlarning bajarilishiga bag'ishlangan tantanalar hamda davlat tomonidan joriy etilgan kasbkorlik kunlari alohida o'rin tutadi. Respublika aholisining 60 foiziga yaqinini qishloq mehnatkashlari tashkil qiladi. Shu sababli, qishloq mehnatkashlarining hayoti va mehnati bilan boqliq bo'lgan bayramlar va marosimlarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning asosiy faxri bo'lmish - paxtakorlarning hayotini yanada farovon qilish, yangi mehnat zafarlari sari ruhlantirish, turmushni go'zallashtirish, madaniy dam olishini samarali tashkil qilishda bayram va marosimlarning roli katta. Hozirgi davrda paxtakorlarning hayoti, mehnati va bo'sh vaqti bilan bog'liq bo'lgan ko'plab marosim va bayramlar hayot taqozosi asosida vujudga kelgan. Keyingi davrlarda mehnatkashlarning Sobiq ittifoq va milliy bayramlari taraqqiy etishi bilan birga, har bir ijtimoiy guruhning, ma'lum kasb egalarining, mehnat kollektivlarining o'ziga xos xususiy yangi bayramlari va an'analari ham vujudga kelgan. Taraqqiyot natijasida har bir mehnat kollektivining dam olishini tashkil qilish bilan bir qatorda ularning hayoti, mehnati va bo'sh vaqtlari maroqli, mazmunli o'tishi uchun maxsus tantanalar, marosimlar va bayramlar tashkil qilish zaruriyati vujudga keldi. Sobiq ittifoq davrida muayyan kasb egalarining, mehnat kollektivlarining xususiy marosim va bayram kalendar va ularni tashkil qilish metodikasini yaratish bo'yicha tajribalar vujudga kelgan. Masalan, Rossiya Federasiyasida g'allakorlar, Latviyada baliqchilar, Leningrad Kirov zavodi birlashmasida va boshqa joylarda ishchilar bayram kalendarlari tuzilgan. Respublikamiz aholisining ko'pchilik qismini tashkil qiladigan va uning faxri bo'lgan o'zbek paxtakorlari ham mehnati, dam olishi va turmushi bilan bog'liq bo'lgan, muntazam uyushtirilib turiladigan xususiy bayramlariga ega bo'lishlari tabiiydir. Ayni vaqtda paxtakorlarning bunday bayram va an'analari shakllana boshlagan. Paxtakorlar hayotidagi birinchi katta anjuman, fevral oyining oxirida - mart oylarining boshlarida bo'lib o'tadigan, hosil yilining yakunlari va yangi mehnat mavsumining boshlanishiga bag'ishlangan qishloq xo'jalik xodimlari kengashi bilan boshlanadi. Qurultoyni kalendarga kiritishimizdan maqsad, u qishloq xo'jaligi xodimlari va paxtakorlarning eng yirik va tantanali bayrami bo'lib qolmoqi kerak. Ma'lumki, paxtakorlar hayotida "Navro'z" ("Bahor - bayrami) alohida o'rin tutadi. U paxtakorlarning yangi hosil mavsumiga yaxshi niyat bilan shaylanish bayrami sifatida ham xizmat qiladi.

"Urug' (chigit) qadash", "Birinchi gul", "Qizil karvon" bayramlari ham o'ziga xos muayyan mehnat jarayonlarining boshlanishi, ya'ni chigit ekishning birinchi kuni, ilk bor g'o'za gullashi va yetishtirilgan hosilning birinchi mahsulini davlatga topshirish munosabati bilan uyushtirilgan. Yoz oylari maktabni, hunar-texnika bilim yurtlari va boshqa o'quv dargohlarini tugatgan yoshlar tanlangan kasbi bo'yicha ish boshlaganlar. Yoshlarning paxtakorlar safiga kirib kelishi, muxim hodisa hisoblanib, paxtachilik rivojida yetakchi rol o'ynagan. Paxtakorlar

bayramlari kalendari-dekabr oyining birinchi dekadasi da reja va majburiyatlarni bajarilishi munosabati bilan avval xo'jaliklarda, tumanlarda, so'ng viloyatlarda va oxiri respublika otchoparida uyushtiriladigan "hosil bayrami" bilan yakunlangan.

"Urug' qadash" va "Birinchi gul" tantanalari. Xalqda qadimdan dalalarda ish boshlanishi, ilk bor yerga urug' qadash munosabati bilan maxsus marosimlar uyushtirish odati shakllanib, davrlar o'tishi bilan keng ommalashgan edi. Bizning davrimizga kelib, bu xalq odatlari hayotdagi o'zgarishlar bilan ma'lum ma'noda o'z mavqeini, tantanavorligini yo'qotgan bo'lsada, uning zaminida paxta yetishtiriladigan regionlarning ba'zi joylarida "urug' qadash" nomli zamonaviy marosim vujudga kelgan. Yerga chigit qadash paxtakorlar hayotida eng muhim yumush bo'lib, shu kompaniyadan keyin haqiqiy mehnat mavsumi boshlanadi. Shuning uchun ham, chigit qadash ishlarining boshlanishi paxtakorlarda ko'tarinki ruh, yaxshi kayfiyat va xursandchilikni vujudga keltiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Abdullaev M. Abdullaev A. “Ma’naviyat va madaniyat tarixi”. Farg’ona. 1998 y.
8. Imomnazarov M. “Milliy ma’naviyatimizning takomil boshichlari”. T. 1996 y.
9. Ashirov A. Atadjanov Sh. «Etnologiya». T. 2007 y.
10. Ashirov A. «O’zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari». T. 2007 y.
11. 4. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O’quv qo’llanma.-T.: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.
12. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R . “Etnomadaniyat”.. T.: Adolat. 2003 y.
13. Etnomadaniyat fanidan ma’ruzalar matni. 1-qism. Farg’ona. 2001 y.

#### **5- Mavzu: Qadimgi davr o'zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba**

#### **Reja:**

1. O'zbek folklori tarixini davrlashtirish.
2. Qadimgi davr folklori.
3. Qadimgi mif va afsonalar.
4. Turkiy xalqlarning qadimgi ishonchlari.
5. Qadimgi davr folklorining ahamiyati.

Folklor taraqqiyotining bunday bo'linishi, albatta, shartlidir, chunki folklor asarlari o'z xususiyatidan kelib chiqib barcha davrlar uchun umumiylik kasb etadi. Shuningdek, ma'lum folklor asarining yaratilgan davri aniq bo'lmaydi. Ammo davrlashtirilganda ko'proq umumiylik nazarda tutiladi, ya'ni ayrim yozma manbalar, tarixiy voqealar hisobga olinadi.

Qadimgi davr folklori deganda qadim zamonlardan to X asrga qadar yaratilgan va ijro etilgan folklor asarlarini nazarda tutamiz. Tabiiyki, bu davrda yaratilgan folklor asarlarini qaysi manba orqali o'rganamiz yoki boshqalardan qanday ajratamiz degan savol tug'iladi. Qadimgi davr folklori haqidagi ma'lumotlarni bizga qadar etib kelgan ayrim yozma manbalardan, arxeologik topilmalardan o'rganamiz.

«Folklor» inglizcha «folk» (xalq) va «lore» (donolik) so'zlaridan yasalgan.

Qadim zamonlarda bugungi kunda qozoq, qirg'iz, turkman, tatar, boshqird, ozarbayjon, o'zbek, turk va h.k. deb atalayotgan turkiy xalqlar bir qavm hisoblanganlar. Shuning uchun XVII asrgacha «turkiy» deb nomlangan atama ilmiy adabiyotlarda ko'p uchraydi. «Avesto», «O'g'uznoma», «Kitobi Dadam Qurqut» kabi asarlar qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining yodgorliklaridir. To'g'ri, «Avesto»da forsiy xalqlar hayoti ham o'z ifodasini topgan. Ammo bu kitobda qadimga ajdodlarimiz ijodi ham aks yetgan. «Avesto»ning muallifi esa Xorazmlik yurtdoshimiz Zardusht bo'lganligi diqqatga sazovordir. «Avesto» yubileyining YUNESKO miqyosida nishonlanishi munosabati bilan bu haqdagi bilimlarimizga yanada aniqlik kiritildi va uning o'zbekchaga o'girilishi katta yutuq bo'ladi.

XI asrdan boshlab «Qutadg'u bilig», «Hibat - ul haqoyiq», «Devonu lug'atit-turk» kabi yozma yodgorliklar ham vujudga kela boshladi. Bu asarlarga o'sha davr folklori ta'siri juda kuchli bo'lganligi yaqqol bilinib turadi. Ayniqsa, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asari, qadimgi davr turkiy xalqlar folklorini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan manbalar asosida qadimgi davr folklorida quyidagi janrlar mavjudligi aniqlanadi: mif, afsona, rivoyat, qo'shiq, maqol va marosim qo'shiqlari.

Mif - ibtidoiy jamoa a'zolari tomonidan olam va odamning paydo bo'lishi haqida to'qilgan eng qadimgi hikoyalar hisoblanadi. Islom dinidan avval ajdodlarimiz tasavvurida ezgulik va yovuzlik ruhlari, shuningdek, quyosh, hosil, urush va boshqa narsalarning ma'bud hamda ma'budalari bo'lgan. Natijada miflarda insonning inson sifatida shakllanish jarayoni o'z ifodasini topadi. Sharqiy ilmiy adabiyotlarida miflar arabcha asotir, forsha afsona, turkiy tilda sav atamalari bilan ham yuritiladi. Ammo jahon folklorshunosligida «mif» atamasini qo'llash

an'ana bo'lganligi uchun ham biz qadimgi hikoyalarni ana shu nom bilan ataymiz. Miflar qadimgi ajdodlarimizning quyidagi qarashlari natijasida paydo bo'lgan:

1. Totem.
2. Fetish.
3. Anim.

1. Totem - ajdodlarimiz qadim zamonlardan topinib kelgan hayvonlar, qushlar, o'simliklar.

Totemizm - ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan dinning alohida shakli bo'lib, odamning ko'pincha bir hayvon yoki o'simlik bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch - e'tiqodini anglatadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek urug'larining otabobolari burgut, ilon, ot, tuya, ayiq, bo'ri, yo'lbars, arxar, qaldirg'och, g'oz, chinor, tut kabi jonli va jonsiz predmetlarga e'tiqod qo'yganlar. Ular bo'rini balofatlardan saqlovchi, himoya qiluvchi va ezgulik yaratuvchi jonzod deb bilganlar.

Qadimgi manbalarda keltirilgan turk afsonalarida bo'ri turk urug'ining ajdodi sifatida namoyon bo'ladi. Afsonada tasvirlanishicha, qadimgi turklar ona bo'ridan va dushman tomonidan qirilgan urug' ichida tirik qolgan 10 yoshli o'g'il boladan tarqalgan. Hatto Ashina ismli turk urug'larining birida bo'ri kallasi tasvirlangan bayroq ham bo'lgan.

Bo'ri bilan bog'liq bo'lgan e'tiqodning asosida yangi tug'ilgan bolani salomat saqlash, yaxshi hayot kechirish, chorvani ehtiyotlash, ekinlarni yovuz kuchlar ta'siridan saqlash kabi ishonchlardan iborat bo'lgan. Bo'ri totemiga aloqador «Bo'ri qiz», «Cho'loq bo'ri» kabi ba'zi ertaklar hozirgi kunga qadar xalq orasida aytib kelinadi.

Ot totemi ham qadimgi kishilarning turmushi - tirikchiligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, otlarni xonakilashtirish, ulardan ish hayvoni sifatida foydalanish davomida yuzaga kelgan. Arxeologik qazishmalarda topilgan yarim ot, yarim odam ko'rinishidagi maxluqlar rasmi, hozirgacha ekin maydonlarining chetida otning kalla suyagini qo'riqchi sifatida qo'yilishi va boshqalar ibtidoiy kishilar ongida saqlanib qolgan ot totemi haqidagi e'tiqodning timsolidir. O'zbek xalq dostonlarida G'iro't, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko'k, Ko'kdo'nani kabi epik ot timsollarining g'oyat katta o'rin tutishi ham shundan.

2. Fetish - qadimgi ajdodlarimiz topingan jonsiz narsa - predmetlardan iborat bo'lib, quyosh, oy, tog', suv, non, tandir, supra, o't (olov), yoy, qilich, raqam, rang-tus, so'z, kitob kabilar turkiy xalqlarda fetish hisoblangan. Binobarin, xalq doston va ertaklarida bu narsalarni uchrashi bejiz emas.

Xalqimiz qadimdan o't, suv, tuproqni muqaddas deb bilgan: o't va suvga axlat, umuman, iflos narsalarni tashlamaslik, yerni urmaslik, tepmaslik, mobodo bu narsalarni qilsa yomon bo'lishi haqidagi o'gitlar fikrimizning dalilidir. Insonning tabiatdagi g'ayri tabiiy voqea-hodisalarga ishonch bildirish xususiyati bilan bog'liq e'tiqoddur. Masalan, qadimgi paytlarda safarga chiqqan yo'lovchi oq tuyali karvonga duch kelsa, o'z safarining muvaffaqiyatli tugashiga ishongan bo'lsa, tushida egarlangan oq ot minib sayr qilib yurganini ko'rgan kishi hayot tashvishlaridan ozod bo'lishiga ishongan.

«Oq bilaxxon» ertagida yigitning toshga aylanib qolishi, «Ochil, ochil, qamishlar»da qizning qamish orasiga kirib ketishi, «Yoriltosh»da toshning yorilishi va qizning bag'riga olib yana yopilishi, «Yalmog'iz kampir» ertagida odamlarning toshga aylanib yotishi, «Qilich botir»da qahramonning joni qilichida ekanligi kabilar bevosita animistik tushunchalardir.

«Yoriltosh», «Ochil, ochil qamishlar», «Sim-sim, och eshigingni» kabi iltijoli yolvorishlar o'sha narsada jon bor degan tushunchaning obrazli ifodasidir. Bunday tushunchalar va qarashlar qadimgi dunyodaning boshqa xalqlarida ham mavjud bo'lgan. Masalan, hindlarda va Sharqiyning boshqa xalqlarida hozir ham sigir, ilon, ot kabi hayvonlarga, olov, tog', o'rmon va suvga sig'inish mavjud.

Mifologiyada totem, fetish, anem tushunchalar ko'pincha bir-birini to'ldirgan holda uyg'un ifodalanadi.

Qadimgi kishilar dunyoni ikki qismga: yaxshilik va yomonlik kuchlariga ajratib tasavvur qilganlar.

«Avesto»da ikki yaratuvchi kuch - yaxshilik va yomonlik Axuramazda (Xurmuzd) va Ahriman (Angra Manyu) qiyofasida namoyon bo'ladi. Mazkur kitob g'oyasiga ko'ra, tabiat va jamiyatdagi hodisalar ikki yaratuvchining o'zaro kurashidan kelib chiqqan.

Axuramazda yaxshilik, yorug'lik, obodonchilik va ezgulik kuchlarining ma'budidir. Unga qarashli narsalar inson turmushini yaxshilashga xizmat qiladi. U o'z yordamchilari orqali olov, chorva, metall, er - suv va o'simliklar dunyosini boshqaradi.

Ahriman (Angra Manyu) barcha yozuvlik va yomonlikning rahnamosidir. U Axuramazdaga qarshi kurashadi va o'ziga qarashli devlar yordamida odamlarga azob-uqubat mashaqqat, kulfat keltiradi. Ahriman zo'r kuch va qudratga ega bo'lsada, biroq Axuramazda kabi har narsaga qodir va qobil emas, shu sababli yomonlik kuchlari yaxshilik oldida doim mag'lubiyatga uchraydi.

«Avesto»da yorug'lik manbai quyosh deb ko'rsatiladi. Quyosh nuri insonga hayot bag'ishlaydi. Olov quyoshning bir parchasi bo'lganligi uchun ham inson olovni muqaddas hisoblaydi.

Mitra - quyosh va yorug'lik ma'budi, Noxit (Noxid) obodonchilik va farovonlik ma'budi, Humo - baxt, to'le va davlat ma'budi, Anaxita va Xubbi (Er Xubbi) - suv ma'budi, Mirrix - urush va g'alaba ma'budi, ezgulik esa Qayumars (Gavomard), Yima (Jamshid), Gershasp kabi mirfologik obrazlarda mujassmalashgan.

«Avesto»da Anaxita zabardast, xushqomat, kamarini mahkam bog'lagan, to'g'ri so'z, marhamatli go'zal qiz sifatida tasvirlangan. U - kishilarga kuch-qudrat baxsh etuvchi, suvning mo'l bo'lishini ta'minlovchi ma'buda. Anaxita haqidagi ma'lumotlarni ko'zdan kechirish shuni ko'rsatadiki, u suv va hosildorlik homiysi bo'lib, o'zbeklar orasida Anbar otin shaklida saqlanib qolgan. Farg'ona vodiysidagi xushmanzara joylardan biri Shohimardondagi Qubbon ko'li (ko'li Qubbon) bo'lib, u aslida «Xubbilar ko'li» degan ma'noni anglatadi. Xubbi yoki



erxubbi qadimgi adodlarimizning tushunchalariga ko'ra suv va suv havzalari bilan bog'liq narsalarning homiysi bo'lgan.

Xalqimiz orasida mavjud bo'lgan Kayumars (Gayya Martan, Gavomard), Yima (Jamshid) haqidagi afsonalar ham «Avesto» orqali bizga qadar yetib kelgan.

Turkiy xalqlar folklorida afsona va rivoyatlar juda ko'p. Olimlarning ta'kidlashicha, real hayotda ro'y berishi mumkin bo'lmagan voqealar haqidagi hikoyalar afsonalar deb yuritiladi, lekin hamisha ham bu mezunga amal qilingan emas. Hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan hayratli voqealar rivoyat nomi bilan yuritilgan. Ma'lum bo'ladiki, afsona va rivoyatlar o'rtasida aniq chegarani belgilash mushkuldir.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotelning ta'biri bilan aytganda, «Afsonalar haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalardir».

Xalqimiz orasida bugungi kunda ham fazoviy jismlar, hudud nomlari, rasm - rusumlar, tarixiy voqea - hodisalar bilan bog'liq afsona, rivoyatlar yashab kelmoqda. Hatto ular orasida hajviy ruhdagilari ham uchraydi.

Tariximizda avloddan-avlodga meros bo'lib kelayotgan To'maris, Shiroq, Rustam, Zariadr va Odatida, Guldursun, Dalvarzin, Qonqus, Kuyganyor, Chulichuli kabi afsona va rivoyatlar madaniy merosimizning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimiz tarixi bilan bog'liq qadriyatlarining qayta tiklanishi yo'lida bir qator ezgu ishlar amalga oshirildi.

Navro'z bayramining ommaviy nishonlanishi, O'zbekiston televideniya-sida xalqimiz qadimdan afsona va rivoyatlar to'qib kelayotgan Burgut, Ot, Tuya, Ilon, Qaldirg'och, G'oz, Laylak kabi jonivorlar hamda parrandalar haqida uyushtirilgan bir qator ko'rsatuvlar, vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqolalar fikrimizning dalilidir. Mif va afsonalar mohiyatini his qilish ularni ifodalangan voqea - hodisalarning asosini belgilash imkonini yaratadi.

Qadimgi adabiy merosimiz juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki har bir mif va afsona xalqimiz orzu-armonlarini ifodalash bilan birga biror bir tarbiyaviy g'oyani ham ilgari suradi.

Masalan, «Shiroq», «To'maris», «Rustami Doston» afsonalarida vatanparvarlik, chet ellik boshinchilarga nisbatan nafrat ruhi bo'rtib turadi. «Avesto»dagi miflarda esa ezgulikning jaholat, zulm va zo'rlik ustidan g'alabasi muqarrar ekanligi ta'kidlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.

4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Aminjonova I E. “Qadimiy yodgorliklar qissasi”. Т. 1968.
8. Ashirov A. Atadjanov Sh. “Etnologiya”. Т. 2007 у.
9. Ashirov A. «O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari». Т. 2007 у.
10. Abdullayev M. “Madaniyatshunoslik” Farg'ona. 1998 у.

## **6-Mavzu: O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlari**

### **Reja:**

1. O'zbek xalq og'zaki ijodining turlari.
2. Askiya, xalq qo'shiqlari va xalq dostonlari.

Latifa - og'zaki janrning ma'lum va mashhur janrlaridan biri. U hajman kichik, mazmunni lo'nda ifodalovchi bir yoki ikki epizoddan tashkil topgan bo'lib, asosida o'tkir hajv yoxud yengil yumor yotadi. Tanqid yoki yumor esa so'z o'yini yoki turli xildagi qochirimlar vositasida yuzaga keladi.

Latifa atamasi arabcha «lutf» so'zidan olingan bo'lib, muloyimlik, yaxshi muomala, yaxshilik qilmoq, marhamat ko'rsatmoq, sharaflamoq ma'nolarini anglatadi. Ammo latifa janrining mohiyatida o'rta tashlangan biron fikrning tinglovchi o'ylamagan, o'ziga xos echimini topish ma'nosi kuchliroqdir. Shu o'rinda «Sizni lutfan taklif qilamiz» iborasi noo'rin ekanligini ta'kidlash lozim. Aksincha, lutfan tashrif buyurishingizni so'raymiz bo'lishi kerak. Latifa janrning yuzaga kelgan davri qadim zamonlarga borib taqaladi. Uning alohida janr sifatida shakllanib, gullagan davri taxminan IX-XI asrlarga to'g'ri keladi deb ta'kidlashadi folklorshunos olimlar.

Latifalar satira va yumorga asoslanadi. Bu uning o'ziga xos belgilaridan biri. Darhaqiqat, voqea va hodisalar echimida satira va yumor hal qiluvchi rol o'ynaydi - qahramonning g'alabasini, ayni paytda qarshi tomondagi kulgili holatning mag'lubiyatini ta'minlaydi.

Latifalar asosan kichik maishiy mavzularga bag'ishlangan bo'ladi. Ular ko'pincha maishiy hayotdagi kamchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida yaratiladi. Ularda nutqiy dialog ko'rinishi etakchilik qiladi. Sharqiy xalqlari og'zaki ijodidagi latifalarning o'z qahramonlari mavjuddir. O'zbeklarda Nasriddin Afandi yoki Xo'ja Nasriddin, qozoqlarda Aldarko'sa, tojiklarda Nasriddin Afandi va Jo'xi, turkmanlarda, Mirali ismlari mashhur. Shuni ta'kidlash lozimki, Sharqiy xalqlari yaratgan latifalar mohiyati jihatidan bir-biriga o'xshaydi. Bir latifaning o'zi o'zbeklarda Nasriddin, hindlarda Birbol, qozoqlarda Aldarko'sa nomi bilan yuritiladi. Bunday vaziyatning vujudga kelishi sharqiy xalqlarining tarixan bir-biriga yaqin yashaganliklari izohlanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodida Nasriddin

obrazining vujudga kelishi asosan XIX asrning ikkinchi yarmida matbaaning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Qrimda nashr etilgan «Tarjumon» gazetasida kichik-kichik latifalarning asosiy qahramoni Xo'ja Nasriddin Afandi edi. Turkistonda litografiyaning paydo bo'lishi natijasida xalq kitoblarini nashr etish ham ommaviy tus oladi. Bundan yuz yil muqaddam o'zbek latifalari «Nasriddin Afandi latifalari» nomi ostida kitob holida nashr etiladi. Shundan so'ng bu nom qadimgi latifalardagi qahramonlar ismi -Mashrab, Kal, Aldarko'salarni siqib chiqardi.

O'zbek latifalaridagi Nasriddin obrazini ikki tomonlama talqin qilish mumkin: birinchidan, Nasriddin Afandi har qanday og'ir hayotiy vaziyatlarda aqli, tadbirkorligi, tez fikrlashi natijasida echim topa oladigan dono faylasufdir. U shoh saroyidagi kamchiliklarni tanqid qila oladi, boylarni, amaldorlarni, yomon xulqli odamlarni keskin kulgi ostiga oladi, o'zining haq ekanligini isbotlaydi.

Ikkinchidan, Nasriddin Afandi - o'ta sodda, hayot tajribasiga ega bo'lmagan, landavur inson. Bu Nasriddin o'zining go'lligi bilan tinglovchini lol qoldiradi. Echimini topish talab qilingan vaziyatlarda noo'rin harakat qiladi. O'zining mazkur harakatini beo'xshov mulohazalari bilan asoslaydi. Agar talabchan podsho oldida mantiqiy fikr yuritish bilan uni mot qilgan Afandi birinchi talqinga mos kelsa, ko'cha bolalarini aldamoqchi bo'lib, keyin ularning ketidan o'zi ham chopib, o'zining gapiga o'zi aldangan Afandi ikkinchi talqinni esga soladi.

Latifalar turmushdagi hamma sohalar haqida yaratilishi mumkin. Latifalarning mazmuniga qarab qadimgi latifalar va zamonaviy latifalarga ajratamiz. Shuni ham ta'kidlash joizki, hozirga qadar nashr etilgan «Afandi latifalari», «Latifalar» kitoblariga kiritilgan aksariyat namunalarda zamonasozlik ko'zga tashlanadi, ya'ni Afandi boylarga, qozilarga, domla-imomlarga, podsho-vazirlarga qarshi qo'yiladi.

Latifalar ba'zan anekdot tarzida ham qo'llanadi, bu atama ko'proq so'zlashuv nutqida, asosan, Yevropa hayotiga oid latifalarga nisbatan ishlatiladi.

Latifalar ayni kunlarimizda eng ko'p yaratiladigan folklor janri hisoblanadi. Chunki zamonning kamchiliklarini oshkora aytish, yozish mumkin bo'lmagan bir paytda latifa tarzida tanqid qilish mumkin. Keyingi kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, eng mushkil davrlarda, hatto, repressiya, qatli om davrida ham latifalar to'qish va aytish davom yetgan:

37-yilda qamalgan bir kishidan so'rashdi:

- Senga necha yil berishdi?

- Yigirma yil.

- Nima qiluvding?

- Hech narsa.

- Bekor aytibsan, hech narsa qilmaganlarga 15 yil berishadi.

Lof - o'zbek xalq nasrining mustaqil janrlaridan biri bo'lib, o'zining tuzilishi, hajv va yumorga asoslanishi bilan latifa va askiya janrlariga yaqin turadi. Shuning uchun ham u yoki bu lofbozning so'zga chechanligi, zukkoligi va hozirjavoblik fazilati mazkur janrning tashkil topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Loflar syujeti dialog asosiga qurilgan bo'lib, hajv va yengil yumorga moyilligi, voqea va hodisalar o'ta mubolag'ali tasvirlanishi bilan ajralib turadi.

Lof janri, asosan, qiziqchi va askiyabozlar orasida shakllangan va ijro etilgan. Binobarin, har bir lofda notabiiy voqealar, salbiy belgilar kulgu ostiga olinadi. Lof aytish mubolag'ali epizodga mantiqiy javob qaytarish, so'zga chechanlik musobaqasi shaklida o'tadi. Masalan:

Paxsakash lofchi narvonchi lofchiga:

- Bir joyda shunday paxsa urayapmanki, balandligi ettinchi qavat osmon bilan barobar keladi, - deb maqtanibdi.

- Men ham shunday bir narvon yasayapmanki, u o'n to'rtinchi qavat osmonga etadi, - debdi narvonchi lofchi.

- Qo'ying-e, - debdi paxsakash lofchi.

- Rost, rost, bo'lmasa siz urayotgan paxsa uyning devoriga narvonlarsiz chiqib bo'ladimi, - debdi narvonchi lofchi.

Bu lofda lofboz raqiblar o'zaro bir-birlarini noshudlikda aylab, kamsitish orqali yengil yumor hosil qiladi. Lof kompozitsiyasi nihoyatda sodda bo'lib, bahslashuvchi tomonlarning so'zamollik bobida tortishuvi bevosita asarni yuzaga keltiradi. Syujet ixcham, savol-javob tarzida kechgan, ikki qismning mantiqiy birikuvidan tashkil topadi va hech qanday kirishsiz boshlanadi. Syujet echimi latifalarda bo'lganidek favqulodda yuz beradi.

Syujetning birinchi qismida voqea yoki hodisa boshlovchi lofchi tomonidan bo'rttirilgan holda bayon qilinadi. Ikkinchi qismida esa zukko lofchi o'z javobida aytmoqchi bo'lgan voqea va hodisalarni yanada oshirib-toshiradi. Demak, savol tarzida aytilgan lofga javob so'zga chechanlik, hozirjavoblikni talab etadi. Lof syujetining ikkinchi qismi birinchi qism voqealari bilan birikkan holda o'ziga xos yaxlit kompozitsiya yaratadi. Ko'rinadiki, syujet voqealari savol-javob shaklida kechadi va asarda ilgari surilgan g'oya zukko lofchi javobida oydinlashadi.

Loflarning mavzu doirasi ham rang-barang bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu o'rinda ijobiy fazilat ulug'lansa, ikkinchi o'rinda salbiy belgilar fosh etiladi.

Voqealikni mubolag'alash asosida bayon etish lof janriga xos badiiy -tasviriy usul hisoblanadi. Chunki mubolag'a u yoki bu narsa yoki hodisani oshirib, bo'rttirib tasvirlashning o'ziga xos usulidir.

Loflar tuzilishi yumorga asoslanishi, voqea va hodisalarning favqulodda echilishiga ko'ra latifalarga o'xshab ketadi. Bu o'xshashlik har ikki janrning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan. Lofning belgilari, xususan, mubolag'alash usuli ertak va dostonlarda ham uchrab turadi.

Xulosa qilib aytganimizda, o'zbek latifalari va loflari o'zining uzoq yillik tarixi davomida xalqimiz ma'naviyatining o'sishiga barakali ta'sir qilib keladi. Hayotda uchrab turadigan ayrim nuqson va kamchiliklarni, yomon odatlarni tuzatishda, yosh avlodni umumbashariy qadriyatlar, insoniylik ruhida tarbiyalashda latifa va loflarning, shubhasiz, o'rni beqiyosdir.

Askiya o'zbek xalq og'zaki ijodidagi milliy o'ziga xos janrdir. Janrning atamasi arabcha «zakiy» so'zidan olingan. Ko'plikdagi «azkiyo» so'zi keyinchalik «askiya» shakliga o'tgan. Bu so'z so'zamol, zakovatli, o'tkir zehni degan ma'nolarni anglatadi. Askiya ijrochilari askiyaboz, askiyachi deb yuritiladi.

Askiya - so'z o'yini, ko'chma ma'noli so'z va jummalarni ilg'ab olish, unga javob topa bilish, shama qilish san'atidir. Askiyabozlar tarafma-taraf bo'lib olib, qochirma so'zlar bilan askiya boshlaydilar, tinglovchilar u yoki bu tomonning so'zga chechanligi, hozirjavobligidan mamnun bo'lib kuzatadilar. Tomonlardan biri ustun kelganda, kulgi qahqahaga aylanadi. Tinglovchi ishqibozlar o'sha tomonni ma'qullab, qarsak chalib olqishlaydilar.

Askiya hozirjavoblar musobaqasi ekan, so'zga chechanlik uning mahorat mezoni hisoblanadi. Askiya davomida askiyabozlarning zukkoligi, chandish, badihago'ylik san'atiga moyilligi hal qiluvchi vazifani ado etadi. Askiyabozning mana shu xususiyati tortishuvda zarur va kerakli so'zlarni topa bilish, o'z o'rnida ishlatish mahoratini namoyon qiladi. Demak, askiyachi so'zga chechan, zukko va dunyoqarashi keng, bilimdon bo'lishi shart.

Askiya kompozitsiyasi tugallangan ikki fikrning bir-biriga qarshi qo'shilishdan tashkil topadi. Har bir fikr o'ziga xos tugun va echimga ega. Qarshi qo'yilgan fikrlar o'zaro bir-birini inkor etishi yoki tasdiqlashi, kuchaytirishi lozim. Ana shu fikrlar asosida satira va yumor mavjud. Demak, har bir askiyada ikki xil kulgi ramziy yoki ko'chma ma'noda aytilgan so'z yoki ibora asosida yuzaga keladi. Chunki askiyachilarning biri tomonidan yaramas illatlar ochiladi va zaharxanda kulgi ko'tariladi. Kulgining ikkinchi xilida askiyachilardan biri noqulay holatga tushib qoladi. Bu kulgi-yengil, beg'ubor yumoristik ruhdagi kulgini tashkil etadi.

«Askiyaning paydo bo'lishi va shakllanishida hunarmandchilikning ahamiyati katta». Asosan, to'quvchi-kosiblar o'rtasida (atlas, bo'z va boshqa matolarni to'qish nazarda tutiladi) askiyaga muhabbat tarixan ko'zga tashlanadi. Doimiy ravishda bir xil zerikarli harakat qilish holatini yengillatish uchun bu janrga murojaat qilingan», - deb yozadi folklorshunos olim Omonilla Madayev.

Askiya Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarida keng tarqalgan. Qo'shni Qirg'izistonning O'sh, Jalolobod viloyatlarida ham askiya ko'plab aytiladi. Dastlab hunarmandlar orasida paydo bo'lgan askiya keyinchalik xalqning maishiy hayoti tarkibidan o'rin olib, gap -gashtaklarda aytib kelingan. Asta-sekin turli sayillarda, to'ylarda askiya aytish odat tusiga kirgan va o'ziga xos musobaqa tusini olgan. Katta to'ylarga, bayramlarga mashhur askiyachilar maxsus taklif qilingan.

Askiyaning turlari juda ko'p bo'lib, folklorshunos olimlarimiz «Payrov», «Bo'lasizmi?», «O'xshatdim», «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?», «Tural», «Rabbiya», «Safsata», «Qofiya», «Radif» kabi turlarini aniqlaganlar.

Askiyaning payrov turi muayyan mavzu atrofida ijro etiladi. Payrovda askiyabozning «raqibi»ga aytgan so'z va jumlasini ko'chma ma'no kasb etishi shart. Bundan tashqari, u istiora, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalari,

tanosub, tajnis, mubolag'a, singari ifoda vositalaridan keng foydalangan bo'lishi kerak. Payrovlarda askiyabozdan raqibining ko'rinishi, xarakterli qiliqlariga mos laqabni topa bilish talab etiladi. Payrov davomida so'z yoki jumlar orasiga qistirib yuboriladigan laqab, so'z o'yini, lutf, ihom orqali qarshi taraf-askiyabozning portretiga, kasbiga va laqabiga shama qilinadi. Bunga javob qaytaruvchi undan kuchliroq hajv qilishga urinadi. Hazil-mutoyiba nafosat doirasidan chetga chiqmasligi lozim. Chunki folklorshunoslarning ta'kidlashlaricha, bu janrning pornografiya (uyat so'zlar) bilan bog'liqligi bor. Shuning uchun hamma askiyalarni yozib olishni yoki radio va televideniada namoyish qilishning imkoniyati yo'q.

Odatda, meva, parranda, dehqonchilik, paxta, qo'shiq, kitoblar, kino, dramatik asarlarning nomlari, musiqa asboblari mavzularida payrovlar aytish an'anaga aylangan. Shulardan ashula payrovi shunday boshlanadi:

Mahmudjon:dadajon, otarchiligingiz hech qolmadida! Haridor topilmasa, «Ostonangga nochor o'ldimda-keldim», deb yopishib olasiz. Yo «Gadolardan biri»misiz?

Dadajon:-Sizning ham o'yinchiligingiz hech qolmadida! «Noz etma» desa bo'ldi-yo'rg'alab ketaverasiz. Har narsa evi bilanda, «Kam-kam» bo'lsin.

Mahmudjon: - Sizdaqa bekorchi - «Eshvoy»lardan o'rgildim, yana otingizni «Abdurahmonbegi» qo'yvopsiz-a!

Dadajon:-Sizga birov «Assalom» desa bo'ldi, to'yga borib «Tong otguncha» yalla qilasiz.

Mahmudjon: - Keling endi, Dadajon, «Qachongacha», «Daromadi ushshoq» qilib yurasiz. Tegishli tashkilotlar ham bizga «Nazzora qil»ar!

Dadajon:- «Koshki» edi. Bizga ham g'amxo'rlik qiladiganlar «Bormikin» ?!

Mahmudjon: - «Bu oqshom» filarmoniyaga keling, gaplashdim, «Yaxshiyaxshi» deyishdi.

Dadajon:-Ana endi biz ham «Obod o'lkamdagi» «Mehnat ahli» ning «Rohat»ini ko'rar ekanmiz da.

Mahmudjon: - endi bundan keyin «Oydin ko'chalar»da «Qichqir xo'rozim»ni aytishni bas qilarsiz.

Dadajon:-Siz ham bundan keyin sharmanda bo'ldim «Naylayin» deb yurmassiz!

Ijro etilgan payrovdagi ashula nomlari tanqid qilingan belgi-sayoqlikni fosh etadi. Aniqrog'i, to'y-ma-to'y yuradigan taqlidchi hofizlarni hajviy kulgi ostiga oladi.

Askiyaning «Safsata», «O'xshatdim», «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?», «Bo'lasizmi?», «Qofiya» «Radif» kabi namunalari, asosan, dialog shaklida davom etadi. Savol-javoblarning har biri kichik hajmdagi epizodlardan iborat bo'ladi.

Askiyaning «O'xshatdim» turida tanqidga mo'ljal bo'lgan askiyaboz kulgili narsa yoki jonivorga o'xshatiladi. Unga qarshi tomon ham shu xilda javob qaytaradi.

Askiyaning «Safsata» turi tarafkashlarning piching yo'lida aytgan hazili shaklida kechadi. Askiyaning «Bo'lasizmi?», «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?» turlari shaklan «O'xshatdim»ga yaqin turadi. «O'xshatdim» turida tortishuv-o'xshatish mantiqiy xulosaga etgunga qadar cho'ziladi, keyin o'xshatilgan askiyaboz o'z raqibini o'xshatadi. O'xshatishdan maqsad maishiy-ijtimoiy hayotda g'ov bo'lib kelayotgan kamchiliklarni fosh etishdan iboratdir.

«Tatal», «Rabbiya», «Afsona» kabi askiya turlari ba'zi bir xususiyatlari bilan birinchi va ikkinchi turlarga yaqin. Tatal ko'pincha she'riy usulda aytilishi bilan ajralib turadi.

- Mana shunaqa gaplarni aytib meni dog' qoldirasiz?
- Mo'ylovni olasizu, qulog'ini sog' qoldirasiz.
- Pulini bermay yuravering, bir kuni bog' qoldirasiz.
- Osh yeganda go'shtini tamomlab, tovoq tagida bizga yog' qoldirasiz.
- Bahona bilan kaklik yeb bizga zog' qoldirasiz.

Askiya san'atini o'rganish va namunalarini to'plash natijasida bir qancha mashhur askiyachilarning nomlari aniqlangan. Marg'ilonlik Yusufjon qiziq Shakarjonov (1869-1959), Bachqir qishlog'idan Dehqon yuzboshi Shernazarov, qo'qonlik erka qori Karimov (1880-1956), Mamayunus Tillaboev (1885 yilda tug'ilgan), Mamatxoliq Mamasodiqov, Tursun buva Aminov (Ijroqo'm buva), andijonlik Abdulhay maxsum Qozoqov, Mulla Mamat buva, Jo'raxon Sultonov, G'oyib aka Toshmatov, Akbar Usmonov, Usmon qori Rahimbekov, Toshkentlik G'anijon Toshmatov va boshqalar tajribali, chiniqqan, mohir askiyachilar hisoblanganlar.

Askiya kishilar qalbidagi g'uborlarni quvadi, kishida beg'ubor qahqaha uyg'otadi. Hatto ayrim davlat arboblari ham usta askiyachi bo'lganliklari uchun xalq orasida katta obro'-e'tibor topganlar. Masalan, Yo'ldosh Oxunboboev, Usmon Yusupov ana shunday rahbarlardan bo'lishgan.

Xalqimiz orasida askiyaning vatani Farg'ona vodiysi degan ibora mavjud. Darhaqiqat, «Agar to'rtta vodiqlik askiya aytishayotgan bo'lsa, bilingki, askiyachilarning O'zbekiston bo'yicha birinchiligi bo'lyapti, agar to'rtta qo'qonlik askiyachi askiya aytishayotgan bo'lsa, bilingki, askiya bo'yicha jahon birinchiligi bo'lyapti» degan fikrlar bejiz aytilgan emas. O'zbek xalq askiyalari adabiyotshunos olim Rasul Muhammadiev tomonidan o'rganilgan. Iste'dodli adib Olim Qo'chqorbekov askiyachi va qiziqchilar haqidagi hikoyatlarni yig'ib. «Kulgi darg'alari» kitobini nashr ettirdi. Bu kitobga qirqqa yaqin mashhur askiyachi va qiziqchilar haqidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Askiyaning yozma adabiyotga ta'siri kuchli. Bu narsa Hamza, Abdulla Qodiriy, Komil Yashin, Sobir Abdulla, G'afur G'ulom asarlarida ko'proq seziladi. Sobir Abdullaning «Muqimiy» romanida xarakterli payrovlar keltirilgan. Bu payrovda boyqush orqali zulm va zo'rlik fosh qilinadi.

Askiya qadimdan xalqimiz hozirjavobligini, chechanligini, zukkoligini sinab, takomillashtirib kelgan milliy janr sifatida yashab kelmoqda. Askiyachidan ko'p

kitob o'qish, shuningdek, tinmay o'qib turish, dunyoqarashi keng, o'tkir zehni bo'lishi talab qilinadi.

Bu janrning yana bir talabi «gap kelganda otangni ham ayama» shoriga amal qilishdir. Askiya bahsi tinglovchi va tomoshabinlarga olam-olam quvonch baxsh etadi, ulardagi horg'inlik, va charchoqni chiqarishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Aminjonova I E. “Qadimiy yodgorliklar qissasi”. Т. 1968.
8. Ashirov A. Atadjanov Sh. “Etnologiya”. Т. 2007 у.
9. Ashirov A. “O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari”. Т. 2007 у.
10. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-Т.: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.

## **7- Mavzu: Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rni**

### **Reja:**

1. Teatr san'atining boshqa ijod turlaridan farqi.
2. Teatr san'ati janrlari.
3. O'zbek teatri san'atini tarixiy davrlari.
4. H.H.Niyoziy va o'zbek teatri.
5. Mustaqillik yillarida o'zbek sahna san'ati.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbek Davlat akademik drama teatrining ochilishi marosimida (2002-yilning 30-avgustida) so'zlagan nutqida: Necha yillar davomida o'zining beqiyos san'ati va mahorati, klassik asarlarning betakror ijrosi bilan bu teatr nafaqat milliy san'atimiz muxlislarini, balki dunyodagi manaman degan teatrlarning mashhur rejissor va aktyorlarini, ularning eng nozikta'b teatrshunos va mutaxassislarini ham hayratda qoldirgani ma'lum», — der ekan, mutlaqo haq edi. I. Karimovning bu nutqi o'zbek teatri tarixni anglash va uning keyingi rivojida katta ahamiyatga egadir. «Bugun, Vatanimiz, yurtimiz XXI asrga qadam qo'yib, o'zining buyuk kelajagi sari



intilayotgan, bu yo'ldagi barcha harakatlarimiz imon-e'tiqod tuyg'usi bilan yo'g'rib, kuchayib borayotgan bir paytda, - deb uqtirdi I. Karimov, - o'z tarixiy ildizlarimizni, shu jumladan, san'atimiz, milliy teatrimiz tarixini chuqur anglash, undan saboq olish haqida gapirishimiz har jihatdan o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman». Bu da'vatkorona so'zlar teatr haqidagi ilm-fanni rivojlantirishda ham alohida qimmatga ega.

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti tarixini antik teatrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'lumki, antik teatr mazmunan xalq hayoti, uning taqdiri bilan bog'liq ulug'vor g'oyalar teatri sifatida dunyoga kelgan edi. Qadimgi Yunonistonda Esxil, Sofokl Evripid, Aristofan, Rimda Plavt va Senekalar yangi sahnaviy shakllar, umumlashgan falsafiy, teran badiiy obrazlar orqali el-yurti jo'shqin sevis, qadrlash e'tiqodlarini tarannum etdilar. Antik dunyodan bizga badiiy ijodning tragediya, komeiya janrlariga oid benihoya go'zal, badiiy yuksak adabiy namunalari etib keldi.

XX asr o'zbek teatri madaniyatimiz tarixida ro'y bergan noyob hodisadir. 1914-yili Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» pyesasi bilan o'z pardasini ochgan o'zbek teatri ikki-uch o'n yillik ichida har bir xalq g'ururlansa arzigulik teatr sifatida maydonga chiqdi.

O'zbek teatri jadidchilik harakatining mevasi — ma'rifiy teatr sifatida tug'ilgan edi.

Birinchi o'zbek ijodiy jamoasi bo'lmish «Turon» gruppasining «Nizom»ida teatrning bosh maqsadi a) aholi o'rtasida sahna ishlari va hayriyaga jiddiy munosabatni rivojlantirish, b) xalq uchun spektakl ko'rsatish, unga sog'lom tomosha berish...» deb uqtirilgan edi. Sahna ishini tashkil yetgan va uni xalq orasida keng yoygan Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy singari atoqli ma'rifatparvarning sa'y-harakati bilan bu teatr tez orada xalq madaniy hayotining tarkibiy qismiga aylandi. Sanoqli bir necha yil davomida o'ttizga yaqin pe'sa yaratildi, aktyorlik va rejissorlik san'atining tub tamoyillariga asos solindi.

Jadid teatri va dramaturgiyasining muhim xususiyati — uning oila hayotini tasvirlash bilan inson qalbiga kirib borish, uni ma'rifiy tarbiyalash va shu orqali jamiyat hayotida avj olib borayotgan milliy uyg'onish g'oyalarini tarannum etishda ko'ringan edi.

Jadid ma'rifatparvarlari yoqqan ma'rifat mash'ali qariyb 1930-yillarga qadar yangi g'oya va intilishlar bilan teatr hamda dramaturgiyaga kirib kelgan ahli san'at yo'llarini yoritib turdi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek teatri milliy mahdudlik qobig'ida o'ralashib qolmay, balki o'z taraqqiyoti yo'lida jahon teatri tajribasini o'zlashtirib bordi. «Turon» gruppasida boshlangan o'zga xalqlar dramaturgiyasini sahnalashtirish tajribasi keyinroq, o'zbek sahnasiga Shiller, Gogol, Shekspir singari dramaturglar asarlarining kirib kelishi bilan davom ettirildi. O'zbek aktyorlarini 1924-1927-yillari Boku teatr texnikumi va M.Uyg'ur, Cho'lpon rahbarligida Moskva teatr studiyasida tahsil ko'rganliklari ularning kasbiy darajasini oshirishda muhim

ahamiyat kasb etdi. Moskvadagi ta'lim davri rus teatrida turlicha uslubiy yo'nalishlar, izlanishlar avj olgan davrga to'g'ri kelgan edi. O'zbek aktyorlari bu shov-shuvli teatr hayotini astoydil kuzatadilar, o'rganadilar. Lekin shunisi e'tiborliki, ularga taqlid qilish, uslublarini ko'r-ko'rona qabul qilish yo'lidan bormaydilar. Cho'lpon «Me'rxold teatri» degan maqolasida, masalan, 1920-yillarda Moskva teatri hayotining yalovbardoriga aylangan bu rejissorning shon-shuhrati haqida ilhom bilan qalam tebratgan bo'lsada, lekin biron joyda unga ergashish, undan andoza olish fikrini olg'a surmaydi. «Bu teatrning soddaligi biz uchun kerak. Ko'pchilikka yaqin kelishi biz uchun lozim. Bizning xalq teatri unsurlaridan ba'zilar bu teatrdan bor». Ya'ni ulug' shoir chet ta'sirlarga nisbatan sezgir, hushyor turishga da'vat etib, faqat o'zbek xalq teatriga xos «ba'zi unsurlar», «soddalik», «ko'pchilikka yaqinlik» jihatlarini olish mumkinligi g'oyasini olg'a surgan.

Bu o'zbek teatrining dastlabki davrdanoq o'z milliyligini asrash yo'lida qat'iy turganligidan guvohlik beradi. Bir jihatdan, bu ajablanarli emas. Sababi, taqdirilarini teatr va dramaturgiya bilan bog'lashga ahd qilgan kishilar eski maktab, madrasa ko'rgan, mumtoz adabiyot, musiqa, xalq teatri ta'sirida bu nafosat olamiga chinakam milliy teatr san'atini barpo etish ezgu istagi bilan kirib kelgan zotlar edi. O'zbek teatrining asoschilari, xususan, atoqli rejissor va teatr arbobi Mannon Uyg'ur o'z atrofiga eng iste'dodli dramaturg va san'atkorlarni uyushtirib, ular bilan ilhombaxsh izlanishlar olib borar ekan, xalqimizning boy ma'naviyatiga mushtarak keladigan zamonaviy teatr barpo etish yo'lidan borgan edi.

O'zbek teatrining tug'ilganiga o'n yil bo'lmayoq Abdurauf Fitratning «Chin sevish», «Abulfayzxon», Cho'lponning «Yorqinoy», Hamza Hakimzodaning komediya va dramalarining yaratilishi, eng qimmatlisi, bu asarlarni ovrupacha drama estetikasi talablari darajasida bo'lishi shu izlanishlarning mantiqiy natijalari edi.

Musiqali dramadek murakkab sintetik san'at janrining paydo bo'lishi ham o'zbek xalqining benihoya boy badiiy merosga egaligi va shu merosni zamonaviy teatr tiliga ko'chira oluvchi sohibi talantlar borligi bilan bog'liq edi. Dastlab kichik musiqali sahnalar tarzida ko'ringan bu janr G'ulom Zafariyning «Halima», Xurshidning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» asarlarining yaratilishi bilan o'zbek teatrida alohida san'at yo'nalishi tarzida taraqqiy topdi. Ta'kidlash lozimki, o'tmishda bu «folklor janr, o'tkinchi, opera san'atiga o'tishda ko'prik vositasi xolos» degan fikr-mulohazalar musiqali drama yo'lga qanchalik to'siq bo'lmasin, u rivojlanishda davom etaverdi. Ham sof drama, ham musiqali drama asarlarini sahnalashtirishga qaratilgan «Musiqali drama va komediya teatri» deb atalgan viloyat teatrlari drama borasida hozirgi Milliy akademik drama teatridan, musiqali drama sohasida 1930-yillarda Respublika musiqa teatri, keyin Muqimiy nomidagi musiqa teatri tajribalariga suyandi va har biri san'atimiz xazinasiga ulush bo'lib qo'shilgan badiiy-estetik qadriyatlarni yaratdi.

Chet elliklar Shekspirning «Hamlet», «Otello» kabi asarlarining o'zbek aktyorlari tomonidan yuqori darajada mujassam etilishidan hayratga tushib so'z

ochar ekanlar, buning asosiy sabablaridan biri, bu spektakllarning bilan bir boshqa teatrlar postanovkasiga o'xshamasligi, ya'ni ularda Shekspir g'oyalariga mushtarak tarzda o'zbekona dunyoqarash va badiiy qadriyatlarining ifoda etilishida deb bilish mumkin. Keng ko'lamda avj olgan shunday ijodiy jarayonlardan so'ng Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, Olim Xo'jayev, Sora Eshonto'raeva kabi o'nlab yuqori iqtidorli drama ustalari va Lutfixonim Sarimsoqova, Razzoq Hamroyev, Mahmudjon G'ofurov singari ko'plab musiqali drama ustalarining etishib chiqishi o'zbek teatrining boshdanoq mustahkam zaminga evrilib, so'ng jahon teatri tajribalirini ijodiy o'zlashtirgan holda jadal taraqqiy topishining tabiiy mahsuli ekani o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

O'zbek teatrining rivojlanishi davomida uni o'rganish, tadqiq etishga qaratilgan alohida ilm sohasi — teatr tanqidchiligi va teatrshunoslik fani tarkib topdi. M.Uyg'ur nomidagi San'at institutidan oliy malakali teatrshunos kadrlarning etishib chiqishi bilan, 1950-yillardan e'tiboran o'zbek teatrining o'tmishi va zamonaviy jarayonini ilmiy o'rganishda yangi davr boshlandi. O'zbek teatrining alohida davrlari, aktyorlik, rejissorlik san'ati muammolari, aktyor va rejissorlarning ijodiy yo'llari haqida o'nlab monografiyalar, kitoblar chop etildi. Akademik M. Rahmonovning ikki jilddan iborat «Hamza nomli O'zbek Davlat akademik drama teatri tarixi» (2001-y.), «Istiqlol va milliy teatr» (2001-y.) maqolalar to'plami, M. Qodirovning «Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar» (1993-y.), SH. Rizayevning «Jadid dramasi» (1997-y.), T. Islornovning «Tarix va sahna» (1998-y.), T. Tursunovning «O'zbek teatri tarixi» (2002-y.) dasturiy qo'llanmasi teatrshunoslik ilmining keyingi yillar mahsuli hisoblanadi.

«Milliy teatrimiz tarixini chuqur anglash» haqida so'z borayotgan ekan, teatrshunoslik fani oldida uning ayrim muammolari bo'yicha ilmiy monografiyalar qatori darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Taassufki, hozirga qadar oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlarda talabalari uchun mo'ljallangan qo'llanmalar yaratilganicha yo'q. Qo'lingizdagi qo'llanma shu yo'nalishdagi ilk izlanish hisoblanadi.

O'zbek milliy teatr san'atining yaratilishi va rivojlanishi uzoq asrlarga kelib taqaladi. Akademik Mamajon Rahmonov o'zining ilmiy izlanishlarida O'rta Osiyoda aynan, yurtimizda teatr elementlari eramizdan oldin III-I asrlarda dunyoga kelganligini isbotlab bergan. Topilgan arxeologik ashyolar, xususan, sopol parchalari, ayollarning turli bezaklariga chizib qoldirilgan suratlar ham, Evripid tragediyalarining qahramonlari va voqealari ham tasvirlanganligi isbotlangan. Lekin bu dramaturgning tragik asarlari qayerda o'ynalgan va sahnalashtirilgan? Respublikamizda Yunon amfiteatriga o'xshagan binolar mavjud edimi? Surxondaryo vohasida, Termiz shahri yonida (avvalgi Oy-xonim shahri) eramizdan avvalgi III-I asrlarda bunyod etilgan amfiteatr qoldiqlari topilgach, bu savoollar oydinlashdi. Shu bilan birga, qiziqchi – masharaboz aktyorlarining niqoblari va ularning kichkina-kichkina xaykalchalari (statuetka)ning Samarqandning Afrosiyob tumanida topilganligi mamlakatimiz hududida an'anaviy xalq tomosha san'atiga asoslangan maydon tomoshalari ham mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bu

san'at turi tobora rivojlana borib, asrlar davomida asta sekin o'zbek xalqining urf-odatlarini, rasm-rusumlari bilan bog'lanib ketdi.

Teatr san'atining masharabozlik va qiziqchilik hamda qo'g'irchoq o'yinlaridan iborat turlari Yevropa uslubidagi teatr rivojlanishiga ham katta turtki bergan. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Turkiston hududiga Yevropa shaklidagi teatr kirib kela boshlagan. Ma'rifatchilar Zokirjon Furqat, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Mannon Uyg'ur, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon va Hamza Hakimzoda Niyoziyalar yangi shakldagi teatrning asoschilaridan bo'ldilar.

1911 yili Mahmudxo'ja Behbudiyning (1875-1919) "Padarkush" nomli dramasi dunyoga keldi. 1914 yilning 15 yanvarida Samarqand shahrining «Xalq uyi»da sahna yuzini ko'rdi, so'ngra fevral oyida Toshkentda Abdulla Avloniyning "Turon" truppasida sahnalashtiriladi. Hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatri aynan shu kuni dunyoga keladi.

Ushbu teatr faoliyatini rivojlantirishda va mustahkamlashda Mannon Uyg'ur bilan bir qatorda taniqli aktyorlar Abror Hidoyatov, Ma'suma Qorieva, Sora Eshonto'raeva, Yetim Bobojonov, Zamira Hidoyatova, Mariya Kuznetsova, Sa'dixon Tabibullaev, Sharif Qayumov, Olim Xo'jaev, Shukur Burhonov, Nabi Rahimov va boshqa zabardast san'atkorlarning xizmatlari katta. Ular zamonaviy o'zbek teatr san'atining poydevorini yaratdilar.

Bugungi kunda Toshkent shahri, qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda jami 37 ta davlat teatri mavjud bo'lib, ularda har yili 120-150 tagacha yangi original sahna asarlari yaratiladi.

Shu jumladan, Toshkent shahrida 10 ta teatr va 1 ta "Diydor" teatr-studiyasi mavjud. Shuningdek, Respublikamizda "Ilhom", "Aladin", "Turon", "Muloqot", "Eski machit" singari ko'plab nodavlat teatr-studiyalari hamda havaskorlik jamoalari mavjud bo'lib, ularda teatr san'atining barcha janr va yo'nalishlarida qizg'in ijodiy jarayon davom etmoqda.

Qadimgi o'zbek teatrining repertuari va xarakteri. Tarixiy sharoit va madaniy muhit. Qadimgi o'zbek teatrining repertuari va xarakteri. O'zbek aktyorlik san'atini o'ziga xos xususiyatlari va uning badiiy mahorat darajasi. O'zbek teatrining g'oyaviy estetik asoslari.

O'zbek teatr san'atida o'zbek aktyorlik san'atining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek qo'shiqchilari, yallachilari, sozandalari va o'yinchilari hamda aktyorlari haqida.

Temuriylar davrida o'zbek milliy san'ati. Amir Temur va Temuriy shoxlar davrida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan, ma'rifat gullab yashnagan. O'zbek milliy teatrining negizi qadimiy bayramlar, qiziqchilik, qo'g'irchoqbozlik, teatrlashgan tomoshalar, marosimlar, maydon namoyishlari, an'anaviy teatr raqs san'ati hamda sirk o'yinlari haqida.

O'zbek milliy an'anaviy tomoshalari, namoyishlari, milliy madaniy merosning muhim bir turi sifatida qarab, kelajakda undan unumli foydalanganliklari haqida.

XVII-XIX asr boshlarida o'zbek teatri. Buxoro xonligi teatr san'ati, Xorazm xonligi teatr san'ati, Qo'qon xonligi teatr san'ati, hamda o'sha davrning va xonliklardagi aktyorlik san'ati haqida.

Turkistonda rus teatri faoliyati. Rossiya tomonidan O'rta Osiyoni bosib olinishi, rus va yangi ozarbayjon, yangi tatar teatrlarini Turkistonga kirib kelishi va o'sha erli ziyolilar orasida ushbu san'atga qiziqishning kuchayishi.

Ovro'pa usulidagi teatrning Turkistonga kirib kelishi va uning hozirgi zamon o'zbek milliy teatr shakllanishiga ta'siri. Turkistonda rus, ozarbayjon, tatar, arman teatr aloqalarini boshlanishi va uning yangi o'zbek teatri barpo topishidagi o'rni.

O'zbek teatr va dramaturgiyasining dastlabki qadami. O'zbek teatr sahnasida o'zbek yozma dramaturgiyasining vujudga kelishi va sahna yuzini ko'rishi, hamda dastlabki qadamlari.

Toshkentda «Turon» truppasining ochilishi va uning yangi o'zbek teatrining shakllanishi. Birinchi o'zbek milliy teatr truppasi Turon teatrining tashkil topishi 1913 yilning oxirida. Truppa rahbari Abdulla Avloniy va uning faoliyati. Turon truppasining nizomi va uning davlat adliya idoralari tomonidan tasdiqlanishi hamda uning o'lka teatrchilik harakatlaridagi o'rni. 1914-18 yillarda turon teatrining faoliyati va repertuari. 1916 yildan e'tiboran truppa Mannon Uyg'ur kirib kelishi.

O'zbek teatr tanqidchiligini boshlanishi va yangi o'zbek teatrining shakllanishi. Yangi o'zbek teatri sahnasida 1914 yilning 27 fevralida M.Behbudiyning «Padarkush» asari «Kolizey» teatri binosida qo'yiladi. Spektaklni Ali Asqar Asharov sahnalashtiradi. 1914 yil Nusratilla Quدراتilning «To'y» p'esasini ko'rsatilishi «Istanbul», «Badbaxt kelin», «Baxtsiz kuyov», «Zaharli hayot» va boshqa p'esalarning sahnalashtirilishi. Spektakl rejissyorlari va aktyorlari.

O'zbekistonda jadidlar harakati va o'zbek milliy teatri. Jadidlarning Turkiston matbuoti sahifasida yangi o'zbek teatrini targ'ib etishlari, M.Behbudiy «Padarkush» (1911), Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy «Advokatlik osonmi?» (1914), Nusratilla Quدراتillo «To'y» (1914), Xoji Mu'in Shukrullo «Eski maktab yangi maktab», «Mazluma xotin», «Ko'knori» (1916), Abdullo Qodiriy «Baxtsiz kuyov» (1914), Hamza «Zaharli hayot» (1915) p'esalari.

Mahmudxo'ja Behbudiy Samarqand yaqinidagi Baxshiyona qishlog'ida ruhoniy oilasida tug'ilgan. Avval u eski maktabda, so'ng madrasada tahsil ko'radi va XX asrning boshlaridan jo'shqin ma'rifatparvar sifatida ko'rina boshlaydi. Yangi usuldagi maktablar ochadi, darsliklar yaratadi, gazeta va jurnallar chop ettirib, o'zga xalqlar ilg'or tajribalarini o'zlashtirish, zamonaviy bilimni egallash haqida ko'plab maqolalar e'lon qiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning milliy g'oya, erkinlik ideallarini targ'ib etishda eng ommabop hisoblanmish milliy teatr san'atini barpo etish dasturi bilan maydonga chiqishi ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi. U o'zi noshir va muharrir bo'lgan «Oyna» jurnali orqali teatr san'atini uzluksiz ravishda targ'ib etadi. «Teatr nadur?», «Turkistonda birinchi milliy teatr», «Teatr, musiqa, she'r» kabi

maqolalari bilan O'zbekistonda teatr tanqidchiligini boshlab berganlardan biri bo'ldi. Uning tashabbusi va da'vati bilan Nusratillo Qudratullo, Hoji Muin Shukrullo, Abdulla Badriy kabi yosh adiblar dramaturgiyaga kirib keladilar. Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi esa «Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi» (1911) pyesasini yaratish bilan ko'plab yosh ziyolilarga namuna ko'rsatdi.

U zulm va jaholatga qarshi ayovsiz kurash olib bordi. 1919-yili erkinlik dushmanlari qo'lida vahshiylarcha o'ldirildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy teatr haqida

Teatr — ibratnomadur... Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'zlaguvchi va ochiq haqiqatni bildiruvchidir... Umumiy odatlarni nafi va zararidan paydo bo'laturg'on natijalarni teatrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta'sirlanib, yomon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg'a sabab bo'lur ... teyotr xonalari mazxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur, mushaxxis-aktyor muallimi axloqdurlar.

M.Behbudiyning «Padarkush» birinchi o'zbek yozma asari va uni sahnalashtirish. Birinchi Samarqandda so'ng Toshkentda, Qo'qon, Kattaqo'rg'on, Buxoro, Andijon, Namangan shaharlarida sahnalashtirilgan. «Padarkush» pyesasi avvalo milliy dramaturgiya va yangi teatr san'atining ilk namunasi bo'lsa, ikkinchidan o'sha shaharlarda nisbatan muntazam va muvafaqqat teatr tashkil topishi. O'zbek yozma milliy dramaturgiyaning shitoblanishi. «Padarkush» asari Turkiston voqeligining XX asr 10-yillaridagi buyuk madaniy va ijtimoiy voqealaridan bo'lib qolishi.

O'zbek teatri san'atini ilk davri. Teatr haqida umumiy tushuncha. Teatr san'atining boshqa san'at turlaridan farqi. Teatr janrlari. Teatr san'atining ko'p shaklliligi, uning turlari va janrlarining farq qilishi o'zbek milliy teatri misolida.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning 2001-yil 30-avgustda Toshkent shahrida O'zbek davlat akademik drama teatri yangi binosining ochilishi marosimida so'zlagan nutqi.

Assalomu alaykum, aziz do'stlar!

Muhtaram san'atkorlar!

Qadrli mehmonlar!

Avvalo, barchangizni bugungi unutilmas kun — azim poytaxtimiz Toshkent shahrida ushbu ajoyib san'at saroyi — O'zbek davlat akademik drama teatrimizning yangi binosi ochilishi munosabati bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Hurmatli birodarlar!

Bugun yurtimizdagi eng ulug' va eng aziz bayram arafasida mana shu betakror, muhtasham, zamonaviy teatr koshonasi san'at muxlislari uchun o'z eshiklarini ochayotgani g'oyat quvonchlidir.

«Turon» teatr truppasi – birinchi o'zbek professional teatr jamoyasi va uning nizomi. Birinchi o'zbek milliy teatr truppasi – «Turon» teatri 1913 yilning oxirida Toshkentda Turon oqartuv jamiyati qoshida havaskorlar truppasi tashkil topishi. Truppa rahbari Abdulla Avloniy va uning faoliyati. «Turon» truppasining nizomi

va uning davlat adliya idoralari tomonidan tasdiqlanishi, hamda uning o'lkada teatrlik harakatlaridagi o'rni. 1914-1918 yillar orasida Turon teatri faoliyati va repertuari. Spektakl rejissyorlari va aktyorlar. Turon truppassi 1918 yil 3 noyabrda Davlat teatri sifatida ochilishi. 1918-1920 yillar orasida teatr repertuari. Turon teatr truppassining 1918-1924 yillar orasida havaskorlikdan milliy professional Davlat teatri darajasiga ko'tarilishi, hamda Turkistonda teatr san'atining etakchi kuchiga aylanishi.

Ozərbayjon va tatar teatrlarining Turkistondagi ijodiy safarlari va ularning o'zbek milliy teatrlari shakllanishidagi o'rni. Ozərbayjon, turk, tatar, hamda rus teatri dramaturgiyasi, ijodiy safarlari o'zbek teatrining shakllanishida bosh omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbek teatrining rivojida 1915-1916 yillar sahnalashtirilgan qator tarjima asarlari katta ijobiy ahamiyat kasb yetgan. Ayniqsa, bu masalada ozərbayjon dramaturgiyasi muhim rol o'ynaydi.

H.H.Niyoziy va o'zbek teatri. H.H.Niyoziy va o'zbek milliy teatri. H.H.Niyoziyning ma'rifatchilik borasidagi faoliyati, uning dramaturgiyadagi ijodiy faoliyati va teatr sohasidagi harakatlari. «Boy ila xizmatchi», «Zaharli hayot», «Maysaraning ishi» asarlari.

Mannon Uyg'ur birinchi o'zbek professional rejissyori. Mannon Uyg'ur o'zbek sahna san'atini kamol topishi yo'lida serqirra faoliyati. Mannon Uyg'ur va Turon truppassida professional jarayonining shakllanishi a) milliy repertuari yaratish uchun kurash yo'lida teatrning ijodiy laboratoriyaga aylanishi; Mannon Uyg'ur 20 yildan e'tiboran teatr repertuarida katta hajmdagi tomoshabinni jalb etuvchi spektakllarining ko'payishi; b) Mannon Uyg'ur va truppada zamonaviy rejissurani vujudga kelishi; v) aktyor talqin san'ati; truppada Mannon Uyg'ur boshliq barcha aktyorlarning truppani etakchi ijrochilariga aylanishi.

1917-20 yillar teatr o'lkada musiqali drammatik truppassi Farg'ona vodiysi, Buxoro, Xorazm teatri. Karl Marks nomli teatr. O'lkada «Namuna» teatri. O'zbek I-II teatr studiyalari Moskvada, Bakuda. Turon, Namuna 1924 yildan O'zbek Davlat sayyor truppassi nomi bilan ish yuritgan respublika teatri. Uning sahna ustalari Moskva, Bakudan qaytgan O'zbek Davlat drammatik truppassi nomi bilan qayta tashkil topishi. Qayta tashkil topgan teatr repertuarini Revizor, Xasis, Malikai Turandot, Yorqinoy singari spektakllar bilan boyishi.

O'zbek milliy teatri XX asrning 20-30 yillarida. 20 yillarning oxiri va 30 yillarning boshlaridan e'tiboran adabiyot va san'atda sho'ro voqealigini sinfiy kurash, sinfiy va partiyaviy xushyorlik, mamlakatni sanoatlashtirish va qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish nuqtai nazaridan yoritishni asosiy talab qilib qo'yilishini o'tkirlashuvi. P'esalarda o'tmish va bugungi hayot muammolarining baxsi.

Hamza nomidagi O'zbek Davlat drama teatri, hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri. Hamza nomidagi teatni o'zbek dramaturgiyasi o'zbek jonli adabiy tilining markaziga aylanganligi xususida.

30 yillarning boshlaridan e'tiboran davlat teatr tizimlarining qayta tashkil etilishi. Markaziy davlat teatrlari: Hamza nomidagi o'zbek davlat drama teatri

(1933 yildan e'tiboran akademik drama teatri), O'zbek davlat musiqali teatri (1939 yildan e'tiboran o'zbek davlat opera va balet teatri), M.Gorkiy nomidagi rus davlat drama teatri, respublika yosh tomoshabinlar teatri, respublika o'zbek davlat qo'g'irchoq teatri (1939). Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali drama va komediya teatri (1939-40 yillar).

O'zbekistonda opera va balet teatrlarini shakllanishi va rivojlanishi. Ushbu murakkab san'at turlarini asoslari, ularning ijodiy faoliyatlari, madaniy hayotimizdagi o'rni haqida o'zbek operasi va baleti rivojlanishi haqida. M.Qori Yoqubov, H.Nosirova, S.Yarashov, K.Zokirov, M.Razzoqova, G.Izmailova, B.Qorieva, G.Hamraeva – o'zbek milliy opera va balet san'ati darg'alari.

O'zbekistonda bolalar va yoshlar teatri va boshqa millat teatrlari. Asosan 1 - Turon teatri sahnasida drama, musiqali teatr, bolalar teatri shakllarining shakllanishi va 1928-1930 yillar oralig'ida davlat drama, o'zbek davlat musiqali teatr va o'zbek davlat bolalar teatrga ajralib rivojlanishiga yuz tutishi.

Viloyat teatrlari o'zbek milliy teatrlarining ajralmas qismi. 20 yillarda O'zbekistonda teatr san'atining faol shakllanishi munosabati bilan 30 yillarning boshlaridan e'tiboran viloyat teatrlarini qayta tashkil etish, tur va janrlarini aniqlash jarayoni, Farg'ona vodiysi, Andijon, Farg'ona, Namangan, Qo'qon, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston teatri.

O'zbek teatri ikkinchi jahon urushi yillarida (1945-41 yillar). Ikkinchi jahon urushining boshlanishi, hamma narsa front uchun shiori va Vatan himoyasi muammolarini adabiyot va san'atning bosh mavzusiga aylanishi. Mavzuning ikki jihati: front, front orti hayoti. Har bir xalq tarixining yorqin sahifalari – boshinchilarga qarshi, yurt mustaqilligi, ozodligi kurashda jon fido yetgan yorqin tarixiy siymolarni namunali badiiy obrazini yaratish san'atni, jumladan teatrning etakchi vazifasi qilib belgilanishi.

Hozirgi o'zbek dramaturglari.

Mustaqillikning ilk davridan e'tiboran O'zbekiston dramaturglari va teatrlarini o'tmish qadriyatlarini xususan, o'zbek milliy davlatchiligi va uning buyuk namoyondalari obrazlarini adolat nazari bilan gavdalantirishiga qiziqishlarining kuchayishi. Zamonaviy mavzuni dramaturgiya va sahnada aks ettirishda muxim muammolar, davr qahramonlari qiyofalarini ta'riflash mezonlarini aniqlab olishdagi qiyinchiliklar. Respublika teatrlarida tarixiy va zamonaviy mavzudagi asarlarni istiqloq sharofati bilan qaytadan ijro etish jarayoni. Barcha o'zbek yetuk dramaturglar asarlari bilan tanishish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.



3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Aminjonova I E. “Qadimiy yodgorliklar qissasi”. Т. 1968.
8. Ashirov A. Atadjanov SH. “Etnologiya”. Т. 2007 у.
9. Ashirov A. «O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari». Т. 2007 у.
10. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-Т.: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.

## **8-Mavzu: Etnopedagogika va milliy ma'naviyat**

### **Reja:**

1. Movaraunnahrning arablar tomonidan fath etilishi va ta'lim-tarbiya muhiti.
2. Vatanimizda dunyoviy pedagogika g'oyalari va uning namoyondalari.
3. Vatanimizda diniy pedagogik g'oyalar va ularning namoyondalari.
4. Uyg'onish davri ta'lim tizimi.

Jahon etnologlari, jumladan, bizning olimlarimiz oldida hozirgacha kam o'rganilgan, ammo muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan etnopedagogika (yangi avlodni an'anaviy odatlar va zamonaviy talablar asosida tarbiyalashning xalq tajribasi) masalalari diqqatga sazovordir. Umuman, asrlar davomida to'planib kelgan xalqning ijobiy tajribasini o'rganish eng muhim sof etnologik muammolardandir. Shu nuqtai nazardan, masalan, etnopsixologiya va etnotabobat, ya'ni xalq tabobatini tadqiq qilish katta ahamiyatga ega bo'lib, hozir bu masalada bir oz jonlanish sezilmoqda.

Insoniyatning madaniyati o'ta rang barangdir. Har bir millatning o'ziga xos madaniyati mavjud. Xalqning xulq - atvori, tarbiya, axloq qoidalari milliy madaniyat tomonidan belgilanadi. Inson jamiyat, odamlar orasida yashar ekan, jamiyat, millat va xalq tomonidan belgilangan va odob tusiga kirib qolgan o'ziga xos talab qoidalarga bo'ysunadi. Jamiyatning har bir bo'lagida tarbiya qoidalari ishlab chiqilgan. G'arb madaniyati uchun odatiy ko'ringan tarbiya shakli boshqa jamiyatlar uchun bema'ni tuyulishi mumkin. Tarbiya insonlarning turli madaniyatlar orqali ijtimoiylashuvi oqibatida o'zgarib turadi. Uning shakllanishi oiladan boshlanadi. Oila aynan bolalar tarbiyasi uchun mas'ul qarindoshlar guruhi hisoblanadi. Bolaning odobli, axloqli va mehnatsevar bo'lib o'sishi uchun oilaviy sharoit, oila boshliqlarining namuna bo'lishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ularning yaxshi odatlari, muomala madaniyati, so'zi bilan ishining birligi farzandlar uchun ibrat namunasi. Ayollarning birinchi galdagi vazifasi bola tarbiyasi va uy-ro'zg'or ishlari bilan faol shug'ullanish hisoblanadi. Dunyoda faqat erkaklar bolalar tarbiyasiga to'la javobgar bo'lgan mamlakat yo'q. Nensi

Chodorouning ta'kidlashicha, ayollarning farzandni dunyoga keltirishi ularning tarbiyaviy yaqinligini ta'minlaydi, bu narsa uning keyinchalik ham bolasiga g'amxo'rlik qilishida davom etadi. Onalik ayol uchun asosiy vazifadir. Ayollarning bu vazifasi barcha madaniyatlarga xos bo'lib, uy ishi ayollar uchun asosiy mashg'ulot hisoblanadi. Bolalarni tarbiyalash ota - onaning muqaddas burchidir. Ruslarda farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish, o'z qaramog'ida uni o'stirish ma'lum vaqtdan so'ng chegaralanadi. Bizning millatimizda esa ota - onalar huquqini bekor qilinishi o'ta salbiy holat hisoblanadi. Tarbiya bolaning axloqi, xulq - atvoriga kuchli ta'sir etadi. Bolalarga qanchalik darajada qattiqqo'l bo'lish uning ota - onasidan xayiqishi, nomaqbul harakatlardan saqlanishini ta'minlaydi. Uni qayerga bording? Nima bilan shug'ullanayapsan? - tarzda tergap turish ham lozim. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, otaning tabiatan yumshoq ko'ngilligi, shirin so'zli bo'lishi bolaning tabiatini buzishi mumkin. Uning fikricha, ota bolalar tarbiyasida qattiqqo'llik lozim bo'lganda, jazo berishi ham yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Ota bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi lozim. Bolaga odob ilm o'rgatish dastlab ularga aytish va ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Bolalar bunga quloq solmasa, urish, po'pisa ishlatish ham lozim. Lekin, ayrim psixologlar fikricha, bolani tarbiyalashda yaxshi gap bilan tushuntirish kerak.

Movaraunnahr (ikki daryo oraligi eki daryo orqasidagi joy) VIII asrda arablar tomonidan bosib olingan, xalqimiz ma'naviy hayotida jiddiy uzgarishlar sodir bo'ldi. Islom dini o'lkamiz ijtimoiy ma'naviy hayotida hukmron mafkura rolini o'ynay boshladi.

Islom dinini xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy takomilidagi rolga turli qarashlar mavjud:

1. Islom dini va arablar istilosini xalqimiz ma'naviy hayotidagi ta'sirni ideallashtirish. Bunday qarash "Avesto" va "Avesto" gacha davr tarixini yaxshi bilmagan va Islom ruhoniylarining ayrim vakillari tomonidan e'tirof etiladi. Ularning fikricha: xalqimiz Islomgacha yovvoyillarcha turmush tarziga ega edi, arablar bizga madaniyat, ma'rifat olib kirgan.

2. Tanqidiy asosda endashuv. Ovro'pa, Rossiya olimlari ateistik (xudosizlik) nuqtai nazaridan yondashadi. Ularning fikricha arablar o'lkamizga jaxolat, madaniyatsizlik, xurofatni olib kelganlar, boyliklarni talagan, tinch aholiga tajavvuz qilganlar.

3. Islom dini va arablar iste'losini ta'sirini xolisona baholash, bunday qarash O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng shakllanadi.

Islom dini va arablar ist'ilosini o'lkamiz ta'lim va pedagogik fikrlarni tarqqiyotiga qanday ta'sir etdi?

1. Islom dini Vatanimizga chetdan kirib kelganligi tufayli xalq o'z ixtiyori bilan uni qabul qilmagan. Natijada xalq ma'naviyatining barcha sohalarida birdan hukmronlikka erisha olmagan.

2. O'lkamizda fan va madaniyatning o'sha davrda ilg'or darajada rivojlanganligi Islom g'oyalarini singdirishga to'sqinlik qilgan.

3. Vatanimizda o'ziga xos ta'lim tizimi vujudga keldi.

Masalan: ilm- o'rganish maktab- ta'lim beradigan odam madrasa-muddaris kabilar yuzaga keldi.

Vatanimizda pedagogik g'oyalar ikki yo'nalishda shakllandi va rivojlandi.

**1. Dunyoviy pedagogika** - uni asosida yunon olimlari asos solgan g'oyalar, hind eposlari g'oyalari, o'lkamizning o'ziga xos madaniyati, tajribalar, yutuqlar turardi. Dunyoviy pedagogika insonni tabiatning bir qismi sifatida, ta'lim tarbiya bilan kamolatga erishadi deb hisoblanadi. U yashayotgan muxit, o'z xatti-harakati bilan bog'liq bo'ladi deb asoslanadi. Bolani yoshligidan kasb-hunarga o'rgatish lozim deb, odob-axloqni foydasi to'g'risida g'oyalar olg'a suriladi. Muhammad Muso al Xorazmiy (780-850) Arab halifaligining markazi Bog'dodda ilmlar uyi "Akademiyani" boshqargan. Akademiya qoshidagi madrasada mudarrislik qilgan. Uning "Astronomiyaga kirish ", "O'ttiz fasldan iborat astronomiya kirish" va boshqa ko'plab asarlari mavjud.

Abu Nasr Al Forobiy (873-950)

Abu Rayhon Beruniy (974-1041)

Abu Ali Ibn Sino (978-1060)

Vatanimizda XI asrga kelib yosh avlod ta'lim-tarbiyasi oid juda ko'p asarlar paydo bo'ldi: Nizomul Mulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Xojibning "Qutagu-bilig", Ahmad Yugnakiyning "Haqiqatlar armug'oni" kabilar.

Burxoniddin Zarunjiy (1150-?) Marg'ilon madrasasida katta mudarris bo'lib, uning "O'quvchilarni ta'limga yollashga doir nasixatlar" asarida: fanning mohiyati va uni takomillashtirish; ta'lim jarayonida ongli bilim olish; ta'limda fanni, o'qituvchi sherik va vaziyatni tanlash; fan va olimlarni hurmatlash; ta'limda o'quvchi intilishi, tirishqoqlik, ularni o'stirish; darsni boshlash va uni hajmi, darsni o'tkazish tartibi haqida, mashg'ulot vaqti, ta'limda o'quvchini o'qitish va unga nasixat qilish, bilimlarni egallash haqida; ta'limda o'qituvchi va o'quvchining muvoffaqiyatini umid qilish haqida; ta'limda Xudodan qo'rqish haqida; ta'limda o'quvchi xotirasini tarbiyalash haqida kabi masalalar uziga xos usulda hal etiladi.

Olimning fikricha, ilm egallash avvalo o'qituvchiga, o'qiyotgan kitobiga, bilimga nisbatan tirishqoq va chidamli bo'lishni talab etadi. Bir darsni puxta o'zlashtirmay, bir kitobni tugatmay, bir o'qituvchida saboqni tashlab boshqasiga o'tma. Bilimni faqat oltita shartiga rioya qilsa puxta egallab olasan: ziyraklik, kuchli istak, jidam, o'qituvchi nasixati va yetarli vaqt,- deb ta'kidlaydi.

Mahmud Zamaxshariy (1074-1144). Uning ilm olamidagi mavqeyini olimlar "Xorazm osmonidagi quyosh" deb nisbat berganlar. Arab olimlaridan biri "Agar Xorazmning Zamaxshar qishlog'idan chiqqan olim bo'lmaganida biz arablar o'z ona tilimizni mutloqo bilmasdan o'tib ketar edik"-deb yozgan ekan. Zamaxshariy: tilshunoslik, adabyotshunoslik, tarix, geografiya, hadis ilmlari soxasida asarlar yozgan: "Gramatika xikmatlari ", "Arab tili gramatikasi", "Eng yangi lug'at", "Vatan va tog'larning nomlari" asarlarini yozgan. Bu asarlar boshqa tillarga tarjima qilingan. Zamaxshariyning "Nozik xikmatlar"asari yoshlar tarbiyasi, ustoz-shogirt munosabatlari, oila muammolari to'g'risida.

Demak, uyg'onish davrida dunyoviy pedagogika gullab yashnagan, ta'lim-tarbiya o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilgan

### **Uyg'onish davri diniy pedagogikasi**

Islom dini asosidagi pedagogika:

1. Islom dini g'oyalari, (halifalik) siyosati, ma'daniyati va ma'naviyati ta'lim-tarbiyaning mazmunini belgilab beradi.

2. Arab tili davlat, fan, ta'lim tili edi.

3. Arablar tarixi, adabiyoti, urf-odatlar muqaddas edi. Uni bilish va unga rioya etish har bir musulmonning burchi edi.

Namoyondalar:

Burxoniddin Marg'iloniy ar- Rishtoniy (1121-1195) Mashxur fiqh ilmi olimi, mudarris bo'lgan. Uning "Ilmga kiruvchilar uchun birinchi asos", "Ilmni nixoyasiga etkazuvchining qanoatlanishi", "Xaj marosimi", "Farzlar haqida risola" asarlarida didaktik masalalar talqin etilgan. Uning mashhur asari "Al- Hidoya" bo'lib maktab va madrasalarda iymon, urf-odatlar va marosimlarni o'rgatish to'grisida fikr yuritiladi. Bu asar butun Islom dunyosi madrasalarida darslik bo'lgan. Fors, Ingliz, Turk, Rus tillariga tarjima kilingan. Uning "Fiqh sohalari bo'yicha qo'llanma" risolasida huquq, axloq, nikoh masalalari yoritilgan.

Shayx Aziziddin Nasafiy (XII asr) "Haqiqatlar gulshani", "So'ngi maqsad", "Komil inson", "Usullar va shoxlar" asarlarida inson ma'naviyat bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Uning mashhur asari "Komil inson"da sharoit, tariqat, ma'rifat va haqiqatga erishish yo'llari bayon etilgan.

U "Komil inson-yaxshi so'z, yaxshi amal, yaxshi xulq va ma'rifat egasidir. Uning tili, dili pok, ilm va niyati ham pok bo'ladi"- deb yozadi.

Demak, uyg'onish davrida o'ziga xos diniy pedagogika shakllangan va rivojlangan.

Uyg'onish davri ta'lim tizimi: Bu davrda o'ziga xos ta'lim muassasalari yuzaga kelgan. Uning boshichlari:

1. Boshlangich maktablar. Bunday maktablar qishloq masjidlar qoshida bo'lgan. Uning vazifasi - bolalarga savod o'rgatish, Q'ur'on oyaylarini yod oldirish bo'lgan.

2. Madrasalar. Katta- katta majidlar qoshida bo'lgan. Unda o'qiydigan talabalar: Katta talabalar, o'rta talabalar, kichik talabalarga bo'lingan. Madrasalarda dars tinglash ixtiyoriy bo'lib, mudarrisni talaba tanlagan soboq talabani qoniqtirmasa talaba bu mudarris olidiga bormay qo'ya qolgan. Mustaqil bilim olish, bilimni muddaris oldida namoyish etish ta'limning asosiy usuli hisoblangan.

U yoki bu muammoni sharhlash mudarrisning vazifasi hisoblangan.

3. Qori xonalar.

4. Qizlar (otin bibilar) maktabi.

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bo'lgan. Mashxur yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilim, fikr

doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutafakkir - "Muallimi soniy" - "Ikkinchi muallim" deb ataydilar.

Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlagan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Forobiy o'z ishlarida ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga etkazishda o'z o'rnini va xususiyatini bor ekanligini alohida ta'kidlaydi. Forobiy "Baxt-saodatga erishish to'g'risida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon yetgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmlar. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklning osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman jonli tabiat o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi. Forobiy "Inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi", deb hisoblaydi. Bunga Forobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki, maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy- jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun qoidalarining to'g'ri bo'lib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya etadi.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Forobiy ta'lim tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim - degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya - nazariy fazilatlarini ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim. Abu Nasr Forobiy yana aytadiki: "Ta'lim - degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasida tug'ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir.

Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishdir, - deydi. Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi sharhlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l - ta'lim tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi deydi. Har ikkalasi birlashsa, yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga etkazish maqsadini ko'zlaydi.

Sharqda "Shayx ur-Rais" nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod yetgan va dunyoga mashxur yirik asarlar meros qoldirgan olim. Allomadan biz avlodlarga 250 dan ortiq ilmiy asar boy meros bo'lib qoldi. Abu Ali ibn Sinoning "Al-Qonun", "Donishnoma", "Ash-Shifo", "An-Najot" kabi asarlari shular jumlasidandir. Ma'lumki, Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid sharahlarini ijtimoiy-falsafiy sharahlari bilan bog'liq holda ifodalagani, maxsus risolalar talqin yetgan. Shuningdek fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashsharidagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilish kerakligini o'rgatadi, deydi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rgatuvchi barcha fanlarni kiritadi. Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarini mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi deb ta'kidlaydi.

Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonni shakllantirishda uning atrofini o'rab olgan tashshi muhit va odamlar alohida muhim rol o'ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof dunyoni bilishigagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishida ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odatlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqrosh saqlash zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga yetadi. Olimning buyuk xizmatlaridan biri shundaki u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovotini ulug'laydi, undagi qudratga ishonadi, inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini tinmay targ'ib qildi. Ibn Sinoning inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning ahamiyatiga oid sharaqlarini ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarkibidagina, emas, balki mustaqil risolalarida axloqiy masalalarni chuqur ilmiy-amaliy jihatdan ifodalagan, ilm-fan sohasida tarbiyashunos olim sifatida ham tadqiq etish, o'rganish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa qladigan bo'lsak, ushbu mavzuda Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari, axloq-odob haqidagi fikrlari, g'oyalari, pedagogika sohasidagi, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari. O'zbek xalq pedagogikasining yirik namoyandalari bo'lgan buyuk allomalarning asarlari, yangi usul maktablari jadidlar oqimi, ta'lim sohasidagi qo'shilgan xissalari haqida mulohazalar keltirilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Abdullaev M. Abdullaev A. “Ma’naviyat va madaniyat tarixi”. Farg’ona. 1998 y.
8. Imomnazarov M. “Milliy ma’naviyatimizning takomil boshichlari”. T. 1996 y.
9. Ashirov A. Atadjanov Sh. “Etnologiya”. T. 2007 y.
10. Ashirov A. «O’zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari». T. 2007 y.
11. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O’quv qo’llanma.-T.: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.

### **9-Mavzu: An’anaviy oila turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni**

#### **Reja:**

1. Oila va turmush marosimlarida diniy e’tiqodlar.
2. Farzand tug’ilishi bilan bog’liq marosimlar.
3. Oilada barkamol avlod shaxsini shakllantirish.

O’tgan XX asrning so’nggi choragidan boshlab dunyo miqyosida etnolog va sotsial antropologlar tomonidan marosimlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o’rganishga alohida e’tibor qaratildi va aynan mazkur mavzu doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar fandagi dolzarb mavzulardan biri tarzida e’tirof etila boshlandi. Ayniqsa so’nggi o’n yilliklarda dunyo miqyosida kechayotgan globalizatsion jarayonlar etnik xususiyatlarning saqlab qolish omillarini va milliy marosimlarni tadqiq etish muammosini dolzarb muammolar tarzida kun tartibiga qo’yilishiga sabab bo’lmoqda.

Fanda qabul qilingan o’ziga xos mezonlarga ko’ra insoniyat hayotining muhim burilish nuqtalari bilan bog’liq holda o’tkaziladigan tadbirlar oilaviy marosimlar deb yuritiladi. Oila va oilaviy marosimlar etnosga oid madaniy va maishiy an’analar uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi.

Qadimgi an’analarga ko’ra chaqaloq bilan bog’liq ba’zi urf-odatlar tug’ilajak bolani turli xavf-xatarlardan saqlash maqsadida ayol kishining homiladorlik

davridanoq o'tkazilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, umuman olganda homiladorlik bilan bog'liq turli magik marosimlar va rasm-rusumlar dunyo xalqlari orasida keng tarqalgan bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan ancha yaxshi o'rganilgan.

Kishilarga ism qo'yish tarixi qadimgi e'tiqod va topinishlar hisoblanmish, totemizm, shamanlik, afsungarlik animizm kabilar bilan bog'liq. Ba'zi ismlar bolaga og'irlik qiladi, degan mulohazaga ham borilgan. Hatto bola bu ulug', og'ir nomni ko'tara olmay baxtsizlikka uchrashi mumkin, deya irim qilingan. Umuman bunda mutanosiblik-munosiblik nuqtai nazariga amal qilingan. Shu bilan birga juda qadim zamonlardan bolaning sog' bo'lishi, yashab ketishi, kelgusi baxti unga qo'yiladigan ism bilan bog'liq bo'ladi, deb hisoblashgan. Binobarin, chaqaloqqa muvafaqiyatli tanlab berilgan nom uning taqdirini o'zida mujassam qiladi, kishi o'z ismiga o'xshaydi, deb ishonilgan. Natijada odamlar "xosiyatli" (qutli) va "xosiyatsiz", yaxshi va yomon ismlar bor, deb hisoblaganlar. Shu sababli chaqaloqning turli kasallarga chalinaverishi yoki oilada bolalarning turmasdan nobud bo'laverishi, bola badanida turli nuqsonlarning mavjud bo'lishi, qolaversa farzandning kelgusi baxti uning ismiga bog'liq deb bilganlar. Mana shunday tasavvurlar tufayli zamonlar o'tishi bilan chaqaloqqa beriluvchi ism odamni o'zaro farqlash, atashgina emas, balki uni turli balo-qazolardan asraydigan, muhofaza qiladigan, qutqaradigan vositaga aylana borgan. Shu tufayli Farg'ona vodiysida ham kishilar qadim davrlardan bolaga ism berish ishiga mas'uliyat bilan yondashganlar.

Oilada farzand birin-ketin nobud bo'laversa o'z farzandiga Tursun, To'xtasin, O'lmas, Turdi, Turg'un, Turg'unoy, ergash, Mahkam kabi ismlar qo'yilgan. Qadimiy diniy e'tiqodlarga asoslanib ko'kka (osmonga) -Oy, Kun [Quyosh] va boshqa osmoniy jismlar qudratiga sig'inish asosida Oyxon, Oyqiz, Yulduz, Hulkaroy, Cho'lponoy, Quyoshbek, Tangriberdi kabi ismlar paydo bo'lgan. Ba'zi hollarda qadimda muqaddas deb ulug'langan hamda sig'inilgan ayrim hayvon va qushlarning nomlaridan ham ismlar yasalgan. Bunday ismlar guruhiga Bo'rivoy, Arslon, Lochin, Burgut, Qo'chqor, Sherzod kabi ismlar kiradi.

Ba'zi chaqaloqlar badanidagi biror bir ortiqcha belgilar, masalan, xol, toj, qizil tamg'a, ortiqcha barmoq va boshqa belgilar bilan tug'ilgan. Bu nuqson va belgilar bolalarga ism berishda hisobga olinmasa ular bolaning sog'ligiga, hayotiga, kelajak turmushiga xavf tug'diradi, deb tushunilgan. Bunday norasidalarini o'z nomi bilan tug'ilgan bola, deb hisoblashgan va ularga o'sha ortiqcha belgilar nomidan yasalgan ismlar qo'yilgan. Chunonchi Xolboy, Xolbibibi, Anor, Anorvoy, Anorxon, Toji, Tojixon, Tojigul, Ortiqvoy, Norboy, Norjon, Ochil va boshqalar.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarida ham boshqa mintaqalarda yashovchi o'zbeklar va tojiklarda bo'lgani kabi singari muqadas ziyoratgohlar va qadamjolariga nazr-niyoz qilinishi natijasida tug'ilgan chaqaloqlarga ham maxsus ism qo'yilgan bo'lib, ularga qo'yilgan ism bolani kelgusidagi hayotida turli balo-qazolardan himoya qilar ekan. Bunday tarzda tug'ilgan chaqaloqlarga ko'pincha Hazratqul, Pirimqul, Xo'jamberdi, To'ra qul, Pirniyoz, Ishonberdi, Xo'jamberdi



kabi ismlar qo'yilgan. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, o'zbek tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli ins-jinslardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashgan.

Bu odat yovuz ruhlarni adashtirish maqsadiga qaratilgan, bolani yashirish yoki yovuz ruhlarni aldash afsungarligi bilan bog'liq.

Xalq tassavvurida chaqaloq bilan uning onasini ins-jinslar ta'siridan eson-omon saqlash ularning chilla davri tartib qoidalariga qanchalik rioya qilishlariga bog'liq bo'lgan. Chilla inson hayotidagi xatarli, eng og'ir va eng mas'ulyatli davrni anglatuvchi so'z hisoblanadi. Odatda farzand tug'ilganda va kelin-kuyov turmushining nikohdan, marhumning vafotidan keyingi 40-kunlik davriga nisbatan chilla atamasi qo'llaniladi va bu davrda ma'lum tartib-qoidalar, magik rasm-rusumlar, cheklashlar va tabularga amal qilinadi. Umuman chilla davri va u bilan bog'liq rasm-rusumlar va urf-odatlar ham ba'zi tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilganki, bu to'g'risida batafsil to'xtalmaymiz. Biz bu o'rinda inson hayotining uch davri bilan bog'liq chilla davri urf-odatlaridagi o'xshashliklarga e'tiborni qaratmoqchimiz. Avvalo shuni aytish kerakki, har uch davrdagi chillada ham asosiy maqsad chillali odamni va ushbu uyni yovuz kuchlar, yomon ko'zlar hamda turli ins-jinslar ta'qibidan himoya qilish bo'lgan. An'anaga ko'ra har uch chilla davrida ham chillali xonodonda qirq kun mobaynida ushbu uy chirog'i o'chirilmaydi va chillali odam yolg'iz qoldirilmaydi. Shuningdek har uch chillaning ham aynan bir xil kunlari (ko'pincha uchinchi, ettinchi, yigirmanchi, qirqinchi)ga ko'proq e'tibor berilgan va bu davrda chillali uyga isiriq tutatib turish doimiy shartlardan biri hisoblangan. Qolaversa, aynan chillaa davrida marosimiy cho'miltirish va kiyim kiydirish kabi urf-odatlar bajarilishi ham mazkur jarayonni initsiatsion xarakterga ega bo'lgan deyishimizga asos bo'ladi.

Chillali xonadonlarga kirib-chiqish qat'iy nazorat qilinadi. Begona kishilar ona-bola yotgan xonaga kirgizilmaydi. Ajdodlarimiz chaqaloq organizmining nozikligi va kasalga chalinuvchanligi tufayli chilla davrida ins-jinslar xurujidan kattalar yordamisiz o'zini himoya qila olmaydi, deb o'ylaganlar. Yovuz kuchlar yo'liqishining oldini olish, ularni chaqaloqli uy ostonasiga yaqinlashtirmasdan chalg'itib yuborish maqsadida bir qator afsungarlik harakatlari, irimlar, tabular bajarilgan. Ayniqsa, chillali uyga bolasi chala tug'ilib yoki boshqa sabablarga ko'ra nobud bo'lgan yoxud bepusht ayollar hamda nopok kishilar kiritilmagan. Samarqandda chillali xonadonni yovuz kuchlardan himoya qilish maqsadida bola yotgan uyga mevali daraxt shoxidan qoqib qo'yilgan. Chaqaloqni ko'rgani kirgan har bir kishi ushbu shoxni qo'li bilan ushlab ichkariga kirgan.

Kosonsoy tumani aholisida chaqaloqni ko'rgani kelgan mehmonlar chillali ayol bilan qo'l berib ko'rishmaganlar. Bizningcha, ushbu tabu zaminida qo'l berib so'rashish orqali ona va bolani ko'rgani kelgan odamlarning ziyonidan saqlanish, muloqotli afsungarlik (magiya) g'oyasi mujassamlashgan. Ona-bola yotgan joyga yomon kuchlar, yovuz ko'zlardan himoya vositasi sifatida pichoq, ko'zgu (oyna), qalampir, kulcha turli-tuman diniy kitoblar qo'yilgan. Yag'nob tojiklari esa

chaqaloqni yovuz ruhlar, jumladan, alvasti ziyonidan asrash maqsadida xonadon ostonasiga katta pichoq qo'yishgan.

Chaqaloqning chilla davri ikkiga bo'lingan bo'lib, dastlabki yigirma kun *kichik chilla*, keyingisi esa *katta chilla* deyilgan.

Vodiy xalqlarida chaqaloq yigirma kunlik bo'lgach, uning kichkina chillasi chiqdi, bir xavf-xatardan eson-omon o'tib oldi, xudo xohlasa bundan buyog'iga yashab ketadi deyilgan va kichkina chilla chiqqan kuni ona va bolani yaqin qarindoshlarinikiga "chilla qochdi" qilib mehmondorchilikka olib borganlar.

Namangan aholisi orasida ko'z yorgan ayolning ma'lum paytgacha tevarak atrofdagilar bilan bo'ladigan o'zaro muloqoti cheklangan. Bu davrda tuqqan ayol o'z oila a'zolari bilan bir dasturxonda o'tirmagan, ovqat pishirish, non yopish, hovli supurish, sigir sog'ish kabi ro'zg'or yumushlariga aralashtirilmagan. Bu davr tuqqan ayolning nopoklik muddati deb ham atalgan. Odatda bu davr farzand tug'ilgandan so'ng etti-to'qqiz kun, ba'zan esa kichik chillasi tugaguncha davom etgan.

Bizningcha chilla davrida o'tkaziladigan tabular zaminida quyidagi ikki xil ma'no yotadi:

-birinchidan, bu davrda ayol kishi yomon ruhlar ta'siriga tez chalinadi;

-ikkinchidan, «ko'z yorgan» ayol bu davrda marosimiy jihatdan pokiza bo'lmaganligi sababli suv, non, o'choq olovi, taom va sigir sutini nopoklashi mumkin deyilgan.

Chaqaloq chillasi chiqqunicha qorong'ulikdan qattiq muhofaza qilinadi va bu davrda vodiyda oldinlari xonadon o'chog'idagi olov, hozirda esa elektr chirog'i o'chirilmaydi. Bunday odat Toshkent o'zbeklari va Zarafshon vodiysi tojiklarida ham uchraydi. Nazarimizda bu odat yovuz kuchlarning yorug'likdan qochib qorong'ulikda faollashadi, degan qadimiy e'tiqodga asoslanadi. Chunki, Farg'ona vodiysida olib borilgan shaxsiy kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, chaqaloq chillasi bilan bog'liq rasm-rusumlarda olov, chiroq va yorug'likka e'tiqod qilish, ularni yovuz kuchlarni quvish xususiyatiga ega bo'lgan magik vosita, aniqrog'i himoya vositasi deb tushunish alohida o'rinni egallar ekan. Bu irimlar va e'tiqodlar qoldig'i ajdodlarimizning yorug'lik va olovni muqaddaslashtirish bilan bog'liq mifologik tasavurlari zaminida shakllangan an'analar sirasiga kiradi. Qolaversa, chilla davri bilan bog'liq marosimlardagi turli tabular va cheklashlar ildizlari qadimgi zardushtiylik marosimlariga borib taqalishi mumkin. Zero zardushtiylik e'tiqodiga ko'ra tug'ish, kasalliklar, hattoki inson farzandining tug'ilishi ham organizmning murdor, makruh bo'lishiga, insonning barkamol jismoniy holati buzilishiga olib kelgan. Poklanish marosimlariga oid zardushtiylik yozuvlarida ta'kidlanishicha, hayz ko'rgan, tuqqan va kasal bo'lgan ayollar ma'lum tabularga amal qilganlar. Ya'ni ular tashqariga chiqib oy va quyoshni ko'rishlari, bog'da ishlashlari, o'choq boshiga borib ovqat tayyorlashlari ta'qiqlangan. Zardushtiylikda marosimiy poklanish davri og'ir, mashaqqatli bo'lib, qirq kun davom yetgan.

Demak, bundan kelib chiqib, chilla davridagi ko'plab odatlar va ta'qiqlar qadimgi zardushtiylilik marosimlari bilan bog'liq, deyish mumkin.

Farg'ona vodiysida bolani birinchi marta cho'miltirishda tajribali, ko'p bolali ayollar ishtirok yetganlar. Bu marosimda ona bolasi oldiga bormagan, aksincha bolani onaning oldiga ko'tarib olib kelishgan. Bunda farzand butun umri davomida ota-onasiga xizmat qilsin, degan magik niyat mujassamlashgan. Bolani cho'miltirishda afsungarlik maqsadida suvga ozgina tuz va bir siqim tuproq tashlangan. Xalq ishonchiga ko'ra bu solingan ashyolarning xususiyatlari suv orqali chaqaloqqa o'tib uni yovuz kuchlar ta'siridan himoya qilgan. Shu maqsadda janubiy Xorazm o'zbeklarida tuz, tuproq va tuxum po'chog'i, Toshkentda yigirma tiyinlik kumush tanga, Andijonda esa chaqaloq qiz bo'lsa, onasi va momosining barcha taqinchoqlarini suvga solib cho'miltirilgan. Bu ashyolar ichidagi sho'r suvdan insonlar antik davrdan boshlab foydalanganliklari bizga ma'lum.

Sunnat to'ylari Farg'ona vodiysida ham bolaning toq yoshlarida, ya'ni uch, besh, etti, to'qqiz yoshlarida katta to'y - tomoshalar bilan o'tkazilgan. Buning sababi, xatna juft yoshlarda qilinsa, bolaga baxtsizlik keltirar emish. Sunnat to'ylaridagi yoshning toq bo'lishi, birinchidan, bola umrining uzoq bo'lishini, ikkinchidan, farzandni sunnat qildirishdek baxt ota-ona uchun davomli bo'lishini anglatadi. Chunki toq narsa juftlikka to'lishga intiladi. Juftlikka to'lish esa kamolot va narsaning ma'lum ma'noda intihosini anglatadi.

Sunnat to'ylaridagi afsungarlik usullari boshqa marosim majmualaridan bizga yaxshi ma'lum. Sunnat to'ylarida ham to'yni o'tkazish tayyorgarliklari asosan piru badavlat odamlarga yuklatilgan. Buning sababi ularning yaxshi fazilatlarini marosimiy tarzda bolaga o'tsin deb niyat qilingan.

Sunnat to'yi va u bilan bog'liq marosimlar adabiyotlarda batafsil yoritilgan. Bu mavzu bizning tadqiqotimiz asosini tashkil qilmagaligi uchun unga keng to'xtalmasdan sunnat to'yi munosabati bilan o'tkaziladigan xatna marosimi va u bilan bog'liq bajariladigan afsungarlik usullarigagina qishacha to'xtalib utamiz.

Xatna qilish, ya'ni bola olatining uchidan ma'lum teri qismini kesib olish odatining genezisi juda qadimiy va uzoq tarixga borib takaladi. Bu odat va u bilan bog'liq bajariladigan rasm-rusumlar ibtidoiy-jamoa tuzumi davrida yuzaga kelgan bo'lib, ba'zi xalqlarda sinov tariqasida, boshqa xalqlarda esa bir yosh boskichiga ikkinchi yosh chegarasiga o'tish belgisi sifatida amalga oshirilgan. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, eramizdan ikki, ikki yarim ming yil muaddam Misr koinlarida oddiy odamlardan ajralib turish uchun xatna qilish odati mavjud bo'lgan.

Farg'ona vodiysi aholisida xatna qilish daraxtlar uyg'onmasdan burun maxsus usta-sartarosh tomonidan amalga oshirilgan. Ustalar ustoz-shogird munosabatlari orqali o'z kasblari davom ettirganlar. Ularning ham o'z pirlari bo'lgan bo'lib, vodiydagi sartarosh-ustalarning piri Salmonu pok bo'lgan.

Usta bolaning a'zosi uchiga g'arov (yog'ochdan yasalgan qishich) qistirib, a'zoning chilpinadigan qismini ustara tig'i bilan kesib olgan. Kesish vaqtida bolaga umri uzoq, rizqi butun bo'lsin degan niyatda non tishlatilgan. Bu udumning

o'tkazilishi og'riq paytida bolani chalg'itish uchun ham xizmat qilgan. Xatna jarayonida biz yana ko'plab qadimiy udumlarni uchratamiz. Axborotchilarimizning aytishicha, bolani xatna qilayotgan paytda onasi bolasi moyday yoqimli, dasturxonni to'kin bo'lsin degan niyatda bir barmog'ini unga, ikkinchi barmog'ini yog'ga botirib turgan. Ona bunday afsungarlik amali bilan go'yo farzandi og'rig'ining yengillashishiga yordamlashgan.

Bolaning sunnatisi onasi tomonidan ramziy sotib olingan va juda ehtiyotkorlik bilan yashirin ravishda mevali daraxtning, masalan, tut tagiga ko'mib qo'yilgan. Bunday qilinishiga sabab, yuqorida ta'kidlaganimizdek befarzand ayollarning xurujidan himoyalaniish bo'lgan.

Bola tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar yuzasidagi tadqiqot ishimizni yakunlar ekanmiz, xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, biz ushbu turkum marosimlarda totemizm, animizm, fetishizm, afsungarlik, shomonlik, zardushtiylk kabi ko'plab qadimiy e'tiqodlar izlarini uchratdik.

Ushbu turkum marosimlardagi afsungarliklar avvalo bo'lg'usi avlodni, ya'ni tug'ilgan chaqaloqning sog'ligini saqlashga qaratilganligini kuzatdik. Zarar etkazuvchi afsungarlik to'g'risida gapirganda ko'pincha u yoki bu kishiga yovuz kuchlar ta'siri bilan emas, balki odamning "kasalligi" (masalan, bepushtligi] o'zi xohlamagan holda boshqaga o'tishi mumkin deyilgan. Lekin biz Farg'ona vodiysi bo'yicha to'plagan dala etnografik materiallarimizda zarar keltiruvchi afsungarliklar kuchsiz ko'rinishga ega ekanligini ko'rdik.

Chaqaloqning dunyoga kelishi va undan keyingi chilla davri to'g'risida ayollarning marosimiy "makruh" sanalganligini, ona va bola chilla davrida yomon ruhlar, yomon ko'zli kishilar nigoha vaa yomon niyatli kishilarning zararli afsunlaridan marosimiy tarzda himoya qilinganligini hamda bu davrda ko'plab afsungarlik urf-odati va marosimlariga amal qilinganligini kuzatdik.

O'zbek xalqi oila qurish an'analariga rioya qilishda, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quda bo'lmish tomon xususida ma'lumotga ega bo'lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini, jamoada tutgan o'rnini va obro'-e'tiborini hisobga oladi. Agar kuyov yoki kelin bo'lmish tomonning aqli, odobi, husni-malohati bir hissa bo'lsa, ularning qarindosh-urug'lari, avlodning jamoadagi mavqei va bu xusudagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda hal qiluvchi omil vazifasini o'taydi. Farzandlarni yaxshiga qo'shish, bu borada xato qilib qo'ymaslikda jamoa, jamiyat ra'yi, ko'pchilikning kengashli fikri muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham, jamoatchilik fikrining shaxs turmush tarzi, taqdirini belgilashdagi ustuvorlik mavqei beqiyosdir. Shu o'rinda «G'arb - qonunlar, sharqiy - urf-odatlar bilan boshqariladi», degan iborani eslamoq joiz. Darhaqiqat sharqda, shu jumladan o'zbeklarning turmush tarzida ham ko'plab urf-odatlar qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida yoinki keng jamoatchilik o'rtasida o'tkaziladigan barcha marosimlarimizda mahallaning bosh-qosh bo'lishi, qo'ni-qo'shnichilik an'analarimiz, oila-turmush marosimlarimizdagi ko'plab urf-odatlar qonun darajasida bajariladi.

Jadidlar harakatining yirik nazariyotchisi professor A.Fitrat o'zi yashagan davr hayoti haqida kuyinib xalqning ahvoli ayanchli, yurtning umumjahon jarayonlaridan ancha orqada qolgan, ma'naviy qashshoqlanish yuz bergan deb yozadi. Bu tasodifiy emas edi, negaki, o'tgan asrning boshida, ya'ni A.Fitrat yashagan davrda Sharqiy oilalariga G'arb turmush tarzi singdirila boshlagan edi. U o'zining "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" asarida oila asosini to'g'ri qurishni oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkunligini bayon qilgan. "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qayerda oila munosabatlari kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi"<sup>2</sup>, deb yozadi u mazkur asarda.

Fitrat o'z fikrini davom ettirib, "Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi"<sup>1</sup>, deb yozadi.

Muallif oilaviy hayot o'z qonun va qoidalariga ega ekanligini, bu qonunlarga rioya qilish orqaligina odamlarni jaholatdan qutqarish mumkunligini bayon etadi.

Oila institutining barqarorligi jamiyatning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazadi. G'arb olimlari tadqiqotlarida oilaning inqirozi hususidagi nuqtai nazarlar keng bayon etilmoqda. Xususan, 1859 yilda "Boston Kuaterli Revyu" jurnali shunday deb yozgan edi: "Eski ma'nodagi oila hayotimizdan yo'qolmoqda va bu nafaqat institutlarimizning erkin xarakterini xavf ostida qoldiradi". Bunday fikrlar ko'pgina G'arb mamlakatlari bo'ylab aks-sado berib o'tdi. 1980 yilda Britaniyada konservatorlar partiyasi oila tushunchasini siyosiy jihatdan muhokama qildi. 1986 yilda Angliyada bosh vazir lavozimida ishlagan Margaret Tetcher konservatorlar partiyasi konferensiyasida: "Bizning siyosatimiz oiladan, uning erkinligidan va uning xotirjamligidan boshlanadi"<sup>2</sup> degandi. Boshqa tomondan, oilaning tanqidchilari oila institutining tushkunligini va hatto bora-bora yo'qolib ketishini bashorat qiladilar. Oilaning yo'qolishi to'g'risida hali asoslanmagan holda shunchalik ko'p gapirildiki, bunday umumiy mulohazalarga tanqidiy yondoshish lozim.<sup>3</sup> Tabiiyki, oila instituti bugungi kunda fundamental o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ammo G'arb dunyosida yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni o'z holicha sharqiy olamiga, xususan O'zbekiston turmush tarziga aynan ko'chirib talqin etish to'g'ri emasdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.

---

<sup>1</sup> Abdurauf Fitrat Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. – T.: Ma'naviyat, 1998, 8-bet.

<sup>2</sup> Entoni Guddens. Sosiologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Ilmiy muharirlar: A. Begmatov va M. Bekmurodovlar,- T. Sharq,2002. 459-bet.

<sup>3</sup> Entoni Guddens. Sosiologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Ilmiy muharirlar: A. Begmatov va M. Bekmurodovlar,- T. Sharq,2002. 459-bet.

2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Abdullaev M. Abdullaev A. “Ma’naviyat va madaniyat tarixi”. Farg’ona. 1998 y.
8. Imomnazarov M. “Milliy ma’naviyatimizning takomil boshichlari”. Т. 1996 у.
9. Ashirov A. Atadjanov Sh. “Etnologiya”. Т. 2007 у.
10. Ashirov A. «O’zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari». Т. 2007 у.
11. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O’quv qo’llanma.-Т.: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.

## **10-Mavzu: O’zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari**

### **Reja:**

1. Nikoh to’yi marosimlarida afsungarliklar.
2. Motam marosimlarining oziga xos xususiyatlari.
3. Turar joylar bilan bog’liq urf-odatlar va rasm-rusumlarda qadimiy diniy e’tiqodlar.
4. An’anaviy kiyimlarda qadimiy diniy tasavvurlar va ramziylik.

O’zbek xalqining qadimiy rasm-rusumlari, dunyoqarashi, ishonch-e’tiqodlari, turmush-tarzi va hayot haqidagi falsafiy qarashlari, asrlar bo’yi jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko’nikmalarini o’zida mujassamlashtirgan eng jozibali marosimlarimizdan biri - nikoh to’yidir. Xalqimizning qadimiy e’tiqodlarini, madaniyat tarixi, orzu intilishlari, hayotga munosabatini o’rganishda nikoh to’yi bilan bog’liq marosimlar muhim ahamiyatga egadir.

Dunyodagi ko’plab boshqa xalqlar singari o’zbek to’y marosimlari sirasida nikoh to’ylari o’zining turli xildagi marosimlarga, irim-sirimlarga boyligi, etnografik manbalarining rang-barangligi bilan alohida ajrab turadi.

O’zbek xalqi nikoh to’ylari majmuiga kiruvchi Farg’ona vodiysi o’zbeklari nikoh to’ylari ham oilaviy turmush va ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo’lib, uning ishtirokchilari tomonidan murakkab urf-odatlar va udumlar bajarilgan.

Nikoh to’yi bilan bog’liq marosimlarda ko’plab qadimiy e’tiqod va topinishlarni masalan, fetishizm, totemizm, tabiat e’tiqodi, olov va o’choq ibodati,

ajdodlar e'tiqodiga sig'inish, shomonlik va boshqa bir qancha demonologik ko'rinishlar izlarini uchratish mumkin. Bularning barchasini bir mavzu doirasida yoritish mumkin. Shu bois, ushbu bo'limda nikoh marosimlarida eng ko'p tarqalgan afsungarlik ko'rinishlarigagina batafsil to'xtalishni lozim topdik.

Nikoh to'yi marosimlari bilan bog'liq afsungarlik usullari uning bajarilishi tartibiga ko'ra xilma-xil bo'lib, bundan ko'zlangan bosh maqsad tashkillanayotgan yangi oilaning xotirjamligi va faravonligini ta'minlash, kelin va kuyov, qaynota-qaynona va kelin o'rtasida iliq munosabatni yaratish bilan birga, yana bir maqsad - bo'lg'usi avlodni davom ettirish - zurriyot qoldirish bo'lganligini ko'ramiz. Diniy tusdagi afsungarliklar ham kelin-kuyovning serfarzand bo'lishlarini tilab, ularning turli yovuz kuchlardan va yomon ko'zlardan saqlashga qaratilgan.

Xalqimizning nikoh to'y marosimlar o'zining tashkiliy qismlaridan tortib to nihoyasiga yetgunicha bir qancha boshichdan iboratdir. Shu bois biz ushbu turkum marosimlarda o'tkaziladigan afsungarlik va qadimiy diniy e'tiqodlar izlarini ma'lum boshichlarga bo'lib o'rganamiz:

1. To'ygacha bo'lgan urf-odat, an'ana va marosimlardagi afsungarliklar;
2. To'y vaqti, ya'ni kelinni olib kelish va nikoh marosim bilan bog'liq holda bajariladigan urf-odatlarda diniy e'tiqodlar sinkretlashgan ko'rinishlar;
3. To'ydan keyingi marosimlardagi afsungarliklar va boshqa e'tiqodlar.

O'zbek xalqi nikoh to'y marosimlarini boshlab beruvchi dastlabki marosim sovchilikdir. Farg'ona vodiysi qipchoqlarida oldinlari sovchilikka irim qilib oq va qizil otda borilgan. Lekin sovchilar hech qachon qora otda bormaganlar. Chunki qora otda borishlik ishni bitmasligiga sabab bo'lar ekan. Sovchilar ishni bitirib kelganlarida bo'lg'usi kuyovga "ish bitdi, endi kelinga sirg'a olib kel" - deyishgan. Ayollar qulog'iga taqadigan sirg'alar dastlab afsungarlik ahamiyatiga ega bo'lgan. Shu bois hozir ham ayrim xalqlarda erkaklarning sirg'a taqish odatlarini uchratamiz.

Fotiha to'yi marosimida ham ko'plab afsungarliklarni uchratamiz. Chunonchi, kuyov tarafidan kelinning xonadoniga kelgan mehmonlarga dastlab "shirin suv" olib kelinadi. Bu odat har ikki tomon boshlagan ishning yakuni ham xuddi shirin suv kabi o'tsin, yoshlarning turmushi shirin, totli bo'lsin, degan niyatda qilinadi. Aynan fotiha to'yidan boshlab, bo'lg'usi kelin-kuyovlar bir-birlarining qarindoshlariga uchrashib qolmaslikka harakat qilishib, ulardan o'zlarini tortib yuradilar. Ushbu odat ibtidoiy jamoa davri nikoh munosabatlarning qoldig'idir. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor qishlog'i o'zbeklari orasida fotiha to'yi jarayonidan boshqa joylarda uchramaydigan «*qovurg'a sindirish*» nomi bilan yuritiluvchi o'ziga xos rasm-rusm mavjud. Bunga ko'ra kuyov tomondan uch-to'rt ayol bo'lg'usi kelinning uyiga maxsus «*kelin kuchi*»ni olgani boradilar. Bunda ushbu kun uchun marosimiy tarzda pishirilgan sho'rvada qo'y qovurg'asi solingan bo'ladi va ushbu kun ikki ayol qolishadi va «*kelin kuchi*»ni olib qaytadilar.

To'y marosimlarida keksa yoshli, ko'p farzandli kishilarning ishtiroki zarur va o'ta muhim hisoblangan. Ular to'y marosimining ma'lum boshichlarida o'ziga xos afsungarlik funksiyalarini bajarganlar. Biz buni bo'lg'usi kelinning sepini

tayyorlash jarayonidan boshlab kuzatishimiz mumkin. Odatda bo'lg'usi kelin-kuyovlar uchun ko'rpa-to'shaklarni tikish, ya'ni, "ko'rpa soldi" marosimida tikish-bichish ishlarini keksa yoshli ayollar tomonidan boshlab berilgan. Bunda keksa yoshli, ko'p farzandli ayollarning xususiyatlari bo'lg'usi kelin-kuyovga ham o'tsin degan afsungarlik niyati mujassamlashgan.

"*Ko'rpa soldi*" marosimida biz nafaqat keksa yoshli kishilarning afsungarlik xususiyatlarini, balki narsalarning ham afsungarlik xossalariga bo'lgan ishonchni uchratamiz. Marosim oldidan keksa yoshli onaxonlarimiz kelin-kuyovning dastlabki ko'rpalari orasiga turli-tuman turli-tuman qand qog'ozlarini qo'shib tikkanlar. Bunda bo'lg'usi oilaning hayoti qanday shirin dasturxonni qut-barakali, to'kin-sochin bo'lsin degan niyat mujassamlashgan.

Nikoh kuni kechki payt kuyov o'z yaqin do'stlari bilan yasan-tusan qilib, qutlovlar ostida to'yxonadagi oqsaqollarning duoi-fotihalarini olib, kelinning uyiga "*kuyovnavkar*" ga boradi. Kuyov o'z do'stlari qurshovida, karnay-surnaylar va turli qiyqiriqlar ostida yo'lga tushadi. Ushbu amallar nafaqat to'y shodiyonasinagina anglatadi balki yomon kuchlardan saqlovchi afsungarlik vositasi ham sanalgan.

Kuyovnavkarlar yo'l bo'yi kuyovni eltayotganliklarini bildirish maqsadida jo'shib-jo'shib, ustma-ust hayqirib jar solib borganlar. Ayrim hollarda qadimgi tasavvurlar ta'sirida ko'zikishdan saqlanish maqsadida kuyov boshiga chopon yopganlar. Kuyovnavkarlar kelin xonadoniga yetib kelganlaridan so'ng maxsus tayyorlab kuyilgan uyga kirganlar. Uy ostonasiga poyandoz (oq rangli mato va qizil rangli belbog'ni bir-biriga qo'shib tiqilgan) solingan. Poyandozni kuyov bosib ichkariga kirganidan so'ng, uning do'stlari shunday kuyovlik bizga ham nasib qilsin degan niyatda poyandozni o'zaro tortishadilar. Biz bunda poyandozni o'ziga xos muqaddaslik xossasini ko'ramiz. Kuyovnavkarlar dasturxoniga turli noz-ne'matlar bilan birga bo'lg'usi oila serfarzand bo'lsin deb tuxum ham qo'yiladi. Ular dasturxon atrofida o'tirganlaridan so'ng xonadonning keksasi duoi-fotiha qilgan. Shundan so'ng kuyovga atalgan shirinchoy olib kelingan, shirinchoyni dastlab kuyov, so'ngra uning do'stlari hayotlari shu shirinchoy kabi shirin bo'lsin, degan magik niyatda ichganlar. Kuyovnavkarlar dasturxon atrofida o'tirgan vaqtda mezbonlardan biri kuyovni yomon ko'zdan, yovuz kuchlardan himoya qilish maqsadida isiriq tutatadi. O'z navbatida kuyov va uning sheriklari minatdorchilik ramzi sifatida isiriqchiga pul berganlar. Biz bunda isiriqning o'ziga xos marosimiy afsungarlik xossasini ko'ramiz. Kuyovning do'stlari ziyofatni yeb bo'lganlaridan so'ng kuyovga kuyovlik belbog'larini bog'laganlar.

Vodiy aholisi nikoh to'ylaridagi "yo'l to'sish" udumini ommalashuvi ham ana shu tushunchalar bilan bog'liq bo'lsa kerak. Chunki kuyovnikiga tushirib ketilayotgan kelin ham ramziy ma'noda qizlik olamidan ayollik dunyosiga o'tadi. Ya'ni, nikoh yigit-qizlarni bir pog'onaga ko'tarib, er-xotinlikka o'tkazuvchi ramziy marosim deb sanalgan. Shu bois kuyovning uyiga borayotganda yo'lda duch kelingan ko'prik - majoziy ma'noda ana shu ikki olam chegarasi ham hisoblanadi. Kelin tushgan arava yoki mashina yo'lga arqon tutib yo'l to'sish esa ramziy to'siq, ya'ni sinov elementidir.



Nikoh to'yi kuni kechga yaqin kelinni ayollarning o'ziga xos «karvoni» bilan kuyovning uyiga olib kelinadi. «Kelin karvoni» oldida albatta kichik yoshli o'g'il bolalarning bo'lishi va kelinni butun tana qismi bekitilgan kiyim yoki paranji kiygan kelin kelgan. Kelinni bunday tarzda kiyinib kelishi Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan odat hisoblanadi. Bu odatning tarqalish geografiyasi borasida R. Rahimov o'z asarida ma'lumot bergan. Kelinni olib kelayotganlar kuyovning uyi oldiga yaqinlashgach eshik oldida katta olov yoqiladi va kuyovning yangalari shakar solingan sut yoki qatiq va bir kiyimlik mato olib chiqqanlar. Sutni kelinchakka yaxshi niyatlar bilan ichkizilgan. Kelinga sut berishda sutday yo'li oydin, zurriyotli va zotli bo'lsin, degan magik niyat mujassamlashgan. Qolaversa qadimdan sut va sutli mahsulotlar turkiy xalqlarda eng muqaddas ashyolardan biri va aynan ma'lum bir guruhni ramzi hisoblangan. Shu bois uni begona urug' vakllariga berish qat'iyon ta'qiqlangan. Inchinun vodiya o'zbek-qipchoqlari orasidagi nikoh to'yi tan'tanalarida kelinni sut bilan kutib olish uni, ya'ni bo'lg'usi kelinni kuyov urug'i vakillariga o'z urug'lariga qo'shganliklarini ramziy alomati bo'lsa kerak. Shundan so'ng «kelin karvon»ga qiz tomondan hamrohlik qilib kelgan kelinning kichik yoshli o'g'il ukasi, yoki jiyani tomonidan "pichoq" yoki "pichoq puli" talab qilingan. Bu odat Chortoq tumani Qoromurt qishlog'i o'zbeklarida shop berish deb nomlangan. Kuyov tomonidan tayyorlab qo'yilgan pichoq, agar pichoq tayyorlanmagan bo'lsa pichoq puli berilgan va kelinni qaynonasi ko'tarib tushirgan. So'ngra uni olov atrofida uch marta aylantirilib ichkariga olib kirilgan. Bunday odat nafaqat Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasida balki Respublikamizning boshqa mintaqalarida yashovchi o'zbeklarda, qolaversa tojik, qirg'iz va turkmanlar orasida ham keng tarqalgan.

Kelin kuyovning uyiga olib kirilgach, kelin tomonidan va kuyov tarafidan bittadan yangalar uyning o'ng tarafining yuqori burchagida chimildiq bog'lagan. Chimildiq kelinni yovuz kuchlardan va yomon ko'zlardan saqlovchi o'ziga xos afsungarlik vositasi bo'lgan. Nikoh to'yida kelin uchun maxsus chimildiq tutish odati nafaqat o'zbeklarda balki boshqa xalqlar orasida ham ma'lum bo'lgan. Chimildiq kelinni ramziy himoya qilish funksiyani bajargan. Shu bois Marg'ilonda kelin-kuyov chimildig'iga oshiq (qo'yning oshig'i)ni osib qo'yish odati bo'lgan. Bu o'rinda shuni aytish kerakki oshiq qadimgi turkiylar ilohi Umayning simvol(ramz)laridan biri bo'lgan. Shu bois oltoyliklar qo'yning oshig'ini chaqaloqni yovuz ruhlardan himoya qilsin, deb uning beshigiga kindigi bilan birga osib qo'rganlar. Marg'ilonda nikoh to'yi marosimlarida kelin-kuyov chimildig'iga oshiq osib qo'yish odati zamirida ham yangi kelin-kuyovlarni Umay ona himoya qilsin degan magik niyat mujassamlashgan bo'lsa kerak. Darvoqe, vodiya chimildiqni bog'lagan yangalarning o'zlari ham kelin va kuyovga daxl qilishi mumkin deb tasavvur qilingan yovuz kuchlar va ins-jinslardan himoya qiluvchi ramziy xomiy hisoblangan. Shuning uchun to'yning boshidan oxirigacha yangalarning vazifasi juda ko'p bo'ladi. Farg'ona vodiysida yangalarni yanga, checha, oya, jengacha, kelinoyi deb atalgan. Yangalarni tanlashda ma'lum tartib qoidalarga amal qilingan.

Yangalar odatda bir nikohli, serfarzand bo'lishi bilan birga uddaburon, so'zamol, hayot tajribalariga boy bo'lishlari shart bo'lgan. Nikoh marosimlari boshlanishidan to oxirigacha yangalar bir nechta afsungarlik vazifalarini bajaradilar. Qizni nikohga yangalar tayorlaydi. Kuyov kuyovnavkarlar bilan yangalar muomala qiladi. Kelinni olov atrofida yangalar aylantiradi.

To'y kuni serfarzand bir ayol yoki yangalardan biri kelinchakning sochini ikki o'rim qilib o'rib qo'yadi. Taniqli etnograf olim K.Shoniyozovni yozishicha, o'zbeklarda qizlar an'anaga ko'ra sochlarini maydalab, kelinchaklar va juvonlar esa juft qilib o'raganlar. Farg'ona viloyati Farg'ona tumani Kaptarxona qishlog'i tojiklarida nikoh kechasi kelin sut bilan boshini yuvgan.

Qizig'i shundaki jahonning ko'pgina xalqlarida, shu jumladan Yevropada ham qizlar turmush qurmay, maishiy buzilgan juvonlar ham soch o'rimlaridan farqlanganlar. Bizningcha, bu tarixiy tipologik odat soch magiyasining mohiyatiga ko'ra turkiy xalqlar va qolaversa butun jahondagi soch va jon to'g'risidagi qarashlarning o'zaro uyg'unligi natijasi bo'lsa kerak.

Soch o'rimlarining oilaviy hayot, maishiy turmush bilan bog'liqligi turli ma'nolarni anglatishi bizning kunlarimizda ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Qizlarning ma'lum yosh guruhidan boshqa pog'onalariga o'tishlarida, ya'ni yoshlikdan qizlikka, qizlikdan xotinlikka-juvonlikka o'tish pallasida, so'ng o'rta yoshli davriga va nihoyat qarilikda o'tish pallasida har biriga mos soch o'rimi tartibi saqlangan va shu bilan birga o'zining qaysi yoshda ekanligini ham namoyish etgan. Boshqa ijtimoiy guruhga o'tish g'oyasi kelinning yangi faoliyatiga tayyorlash bilan bog'liq «supra soldi», eshik iluv», «tuynuk ochar» kabi urf odatlarda ham namayon bo'lgan. Bunda kelinning ro'zg'or ishlariga nechog'lik tayyor ekanligi, uning uquvliligi, ishchanligi, epchilligi, ovqat pishirishi kabi fazilatlarini sinovdan o'tkazilganidir. To'yda kelin-kuyovning yangi ijtimoiy statusga (bu mavjud terminlarda aytiladi: Masalan, o'zbeklarda «qiz bola»-«kelin», «xotin», «yigit»-«kuyov») o'tganligidan qadimgi jins jamoalariga tegishli o'tmishdagi yosh initsiatsiya qoldig'ini ko'rish mumkin.

Farg'ona vodiysida yangalar kelin-kuyovlarga nikoh suvidan bir qulmdan ichirgan, qolganini olovga sepib, ularga to'shak solib bergan va ma'lum muddat ularning yonida yotganlar. Ko'rinib turibdiki, biz tilga olgan marosimlar majmuida soch magiyasi, suv kulti, shamanlik va zardushtiylik e'tiqodlari sinkretik tarzda qo'shib ketgan. Yanganing nikoh kechasi kelin-kuyov yonida yotishi odati hozirda ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Bu shubxasiz chillalik kelin-kuyovni yovuz ruhlar, yomon niyatli kishilarning turli afsunlaridan himoya qilishga qaratilgan.

Pichoq yoki yopilgan qulf bilan bog'liq ziyon keltiruvchi afsungarliklar dunyoning ko'plab xalqlarida uchraydi. D.Frezer o'z tadqiqotlarida bu to'g'rida qiziqarli ma'lumotlar keltirgan. Uning yozishicha, XVIII asrgacha Yevropada nikoh marosimi vaqtida qulfni kalit bilan berkitish yoki ipni tugun qilib suvga tashlash orqali yosh kelin-kuyovlarni baxtsiz qilib qo'yish mumkin, deyilgan.

Ularning baxtlari toki qulflar topib ochilmagunicha, ip tugunlari echilmagunicha ochilmas ekan.

Xalqimizda nikoh to'yidan so'ng o'tkaziladigan "bet ochar" marosimida "Supra soldi" odati bajarilgan. Bu odat Farg'ona vodiysining barcha hududlari bo'ylab keng tarqalgan. Bu tadbirda qatnashganlar davrasiga supra yozib bir tovoq un solinadi. Qaynona supradagi undan bir hovuch olib, kelinning qo'lga to'kadi. Kelin esa unni supraga to'kadi. Bu hol uch marta takrorlanadi. Buning sababi o'zbeklarda un oqli, yorug'lik hisoblanadi. Shu sababdan "supra soldi" udumida yaxshi niyat bilan kelin-kuyovning hayoti yorqin bo'lsin, mo'l ko'lchilikda ro'zg'or tutsin degan tilakda o'tkaziladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Farg'ona vodiysi nikoh to'y marosimlari bilan bog'liq afsungarliklarning ko'plari o'xshash afsungarlikdan tashkil topgan bo'lib nikoh to'yi marosimlarida bajariladigan afsungarliklarda asosiy maqsad serfarzand, mustahkam, farovon oilani yaratishga qaratilgan. Vodiyda ham Markaziy Osiyoning boshqa hududlari singari bepushtlik katta baxtsizlik deb qaralgan. Qolaversa xalqda bepushtlik Oллоhning bergan jazosi ham hisoblangan. Shu boisdan nikoh to'yi marosimlarining eng mas'uliyatli vazifalarida serfarzandli ayollar ishtirokining o'zi ham afsungarlik ko'rinishlarining biridir. Umuman olganda nikoh marosimlaridagi afsungarlik usullarini taxlil qilish jarayonida biz shunga amin bo'ldikki nikoh tan'talari bilan bog'liq tarzda o'tkaziluvchi marosimlarda o'tkaziluvchi afsungarliklar xilma-xil bo'lib ularni ikkita katta guruhga: apotropeik afsungarlik, yoki boshqacha tarzda aytadigan bo'lsak himoyalovchi afsungarlikka va progropeik, ya'ni uyg'otuvchi va birlashtiruvchi afsungarlik kabi guruhlarga bo'lish mumkin. Birinchi guruh, ya'ni himoyalovchi afsungarliklarda kelin-kuyov turli yovuz kuchlar va yomon niyatli kishilarning turli ilmiy-amallaridan himoya qilingan va bunga bo'lg'usi oilani himoya qilishga qaratilgan harakatlar va urf-odatlar kirgan.

Ikkinchi guruh afsungarlik usullarida kelin kuyovni o'zaro birlashtirish yo'lida bajariladigan qator urf-odatlardan iborat ekanligini kuzatdik.

Inson hayoti ibtidosidan intihosigacha turli-tuman marosimlar bilan ishtirok kiladi. Uning yoshi, maishiy hayoti va oilaviy holatida biror bir o'zgarish yuz bersa, ana shu o'zgarishlar muayyan marosimlar vositasida rasmiylashtirilgan. Ayniqsa, tug'ilish va o'lim turli tarixiy davrlarda va turli xalqlarning madaniy an'analarda inson hayotining eng muhim boshichi tarzida e'tirof etilgan. Qolaversa, bu jarayonlar bilan bog'liq marosimlar o'tkazilish tartibining qat'iyligi va har bir hududda o'ziga xos konservativ ko'rinishi bilan ajralib turgan. Shu bois bunday marosimlar va an'analarda har doim tadqiqotchilarni o'ziga jalb etib kelgan.

Motam marosimlariga nafaqat marhumni dafn etish bilan bog'liq urf-odatlar, balki motam va u dunyo bilan bog'liq tasavvurlar va magik urf-odatlar, turli-tuman tabular, ehson va qurbonliklar, metempsixoz g'oyalar, marosimiy yig'ilar, qabr toshlar, aza marosimlari va kiyimlari kabilar ham kiradi. Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslanib mazkur turkumga kiruvchi marosimlar nafaqat tavsifiy jihatdan, balki tarixiy va nazariy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega deb aytish

mumkin. Shu bois tadqiqotning ushbu qismida o'zbek xalqining an'anaviy motam marosimlarida odat tarzida bajarilib kelinayotgan turfa xil urf-odatlar va rasm-rusumlarning genezisiga, aniqrog'i, motam marosimlaridagi qadimiy diniy e'tiqodlar bilan bog'liq ko'rinishlarga to'xtalishni va bu an'analarni batafsil taxlil qilishni joiz deb bildik.

Xalqimizda bemorning holati, ayrim harakati yoki shifokorlarning bergan ma'lumotlaridan bemorning non-nasibasi tugaganligi ma'lum bo'lib qolsa, qarindosh-urug'lari va farzandlari odob saqlab buni unga bildirmaslikka harakat qiladilar. Biroq kishi jon berayotganda uning oila a'zolari, uy egalari ma'lum tayyorgarliklar ko'rganlar: uy hovlilarni tartibga solganlar, oyna, rasmlarni berkitganlar. Kishi jon berayotgan uydan oziq-ovqat, idish-tovoq olib chiqilgan yoki ularning usti yopib qo'yilgan. Chunki jon chiqishida go'yoki qon sachrab xonadagi barcha narsalar nopok bo'lar ekan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, har qanday tayyorgarliklar o'ta yashirin tarzda bajarilgan.

Umr lahzalari tugab borgan sari qazo alomatlari sezilib boraveradi: bemorning yuzida ba'zi holatlar paydo bo'ladi: so'zlashga harakat qiladi, tovush chiqarish uchun sarflagan quvvat og'iz bo'shlig'idan chiqmasdan xalqumga kelib qoladi. Bunday holni vodiya "sharsharog" yoki "g'arg'ara" keldi, deb aytiladi. Namangan viloyati Kosonsoy tumani o'zbeklarida kasal jon berayotganida jon chiqishiga halal bermaslik uchun boshi va elkasi pastroq qilib bosib turiladi. Bu holatda jon berayotgan kishi quyosh nuri tushmaydigan uyga yotqiziladi. Jon berayotgan odamni quyosh nuri tushmaydigan xonaga yotqizish - quyoshga sig'inish odatiga asoslangan bo'lib, bunda quyosh nopok bo'lmasin, degan magik ma'no ifodalangan.

Jon berayotgan kishining ko'kragi, boshi yonida uning yaqinlaridan ikki kishi o'tirgan. Avval bemorning o'zi, agar u tildan qolsa, ulardan biri "Kalimai shahodat"\*ni o'qib turgan. Qolgan qarindoshlar esa jon cho'chiydi, deb alohida uyda gapirmasdan o'tirganlar. O'lim to'shagida yotgan odamning oldidan hayz ko'rgan, nifosli ayollar va junubli odamlar chiqarilgan. Bundan tashqari, bolalar va homilador ayollar qo'rqmasin, deb jon berayotgan kishining yoniga kiritilmagan.

Kishi vafoti bilan bog'lik kuplab amallar bo'lib, ular dafn marosimlarida alohida xususiyat bilan ajralib turadi. Ushbu amallarning dastlabki xususiyati shundan iboratki, mazkur amallarni kechiktirilmasdan tez bajarish kerak, chunki, agar kechiktirilsa murda a'zolari qotib qolishi mumkin. Ikkinchi xususiyati shuki, murdani mahtal qilmasdan dafnga tayyorlash kerak. Bunda jon chiqqandan so'ng tezda mayitning engagi (iyagi) bog'lanadi, ko'zi yopib qo'yiladi, qo'llarining panjalari tekislanib, oyog'i uzatiladi va boshmaldoqlari bir-biriga tekizib bog'lab bedaning ustiga yotqizib qo'yiladi. Bu bilan uchinchi, ya'ni mayitdan, o'likdan qo'rqish emas, balki hazar qilishdan kelib chiqadigan xususiyat ko'zga tashlanadi.

Vodiya kasal odam jon bergan zahoti yaqinlari tomondan "mahram" suviga olingan. Ushbu odat nafaqat Farg'ona vodiysida, balki boshqa mintaqalardagi o'zbeklarda va Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida ham uchraydi.

Motam marosimlarida yig'i (bo'zlov, bo'zlash, marsiya aytib) yig'lash alohida o'rin egallaydi. Dafn kunidagi yig'ida erkaklar va ayollar (ayniqsa ayollar) baland ovozda dod solib, marsiya aytib yig'laydilar. Vafot yetgan kishiga marsiya aytib yig'lash dunyoning ko'plab xalqlarida uchraydi. Bu odat ildizlari ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Qadim zamonlarda ibtidoiy odamlar uchun o'lim hayotning yakunlanishi hisoblanmagan. Jonsiz ko'rinishda yotgan o'lik alida fiziologik va ruhiy hayot bo'lib, eshitadi va ko'radi. Shuning uchun yaqinlarining dastlabki qayg'usi tabiiy ravishda marhum bilan ayriliq nolasi, yakkalanishdan hasrat, o'zlik, marhumni mardona xatti-harakatlari va yaxshi amallarini madh qilish ko'rinishidagi baland ovozli bo'zlash shaklini olgan.

Farg'ona vodiysida marhumning yaqin qarindoshlari (erkaklar) dafn marosimi kuni yangi, ohorli to'n, do'ppi kiyib, bellarini belbog' bilan bog'lab, qo'llariga hasa (aso, yangi qirqilgan qora tol novdasidan) olib, unga suyangan holda marhum qo'yilgan xona atrofida aylanib marsiya aytib yig'laganlar. Farg'ona vodiysida bunday maxsus yig'ichilarni-go'yanda deyilgan. Islom dinida yig'lab aytuvchilar-marsiyachilar - noix va noixa deyilib, motam marosimida marhum uchun yig'lash navha solish deyiladi.

Qadimgi an'anaviy dehqonchilik xo'jaligi va u bilan bog'liq marosimlar hamda agrar kultlar tarixchi, arxeolog va etnolog olimlar uchun doimo dolzarb va qiziqarli muammolardan biri bo'lib kelgan va bu borada mutaxassislar olib borgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ma'lum amaliy natijalarga ham erishilgan.

Ayniqsa, O'zbekiston hududidagi dehqonchilik va dehqonchilik madaniyati tarixi, sug'orma dehqonchilikning shakllanishi va rivojlanish boshichlari hamda u bilan bog'liq bo'lgan urbanistik jarayonlar doimo dolzarb muammolardan hisoblangan. Inchunin, Vatanimiz hududidagi eng qadimgi dehqonchilik madaniyati tarixi, dehqonchilik marosimlari va ularning genezisini tadqiq qilish o'tmish ajdodlarimizning turmush-tarzini o'rganishda, tarixiy jarayonlarni rekonstruktsiya qilishda hamda xalqimizning qadimgi davlatchilik an'analari va mintaqadagi qadimgi davrda yashagan xalqlarning xo'jalik yuritish an'analari va diniy e'tiqodlari tizimini ilmiy-asosli tarzda o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari qatori vodiy o'zbeklarining ham an'anaviy dehqonchiligi sharqiy xalqlari taqvimini asosida olib borilgan bo'lib, bahorgi dala ishlari, mahalliy taqvimga ko'ra, yangi yil - quyoshning Baliq (Hut) burjidan Qo'y (Hamal) burjiga o'tgan vaqtdan boshlangan. Hozir amaldagi oy kalendari bo'yicha bu 21 martdan boshlanib 21 aprelgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Boshqacha qilib, aytganda dastlabki dehqonchilik yumushlari Navro'z tantanalari bilan bir vaqtda boshlangan.

Navro'z ayyomi dehqonlar uchun ayniqsa ahamiyatli bo'lgan. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu kunlarda ekin ekish, dala, bog' yumushlari boshlangan. Dehqonlar, bog'bonlar va chorvadorlar ayozli kunlardan omon-eson chiqib, bahorning issiq kunlarini intiqlik bilan kutib, katta dehqonchilik ishlariga jiddiy tayyorgarlik ko'rganlar, omoch-bo'yinturuqlarni, molalarni sozlab, taxt qilganlar, otlar sovutilgan, aravalar tuzatilib ishga yaroqli holga keltirib qo'yilgan.

Asosiy ishchi kuchi bo'lgan ho'kizlarni yaxshi parvarishlab, ularni er haydashga olib chiqqanlar. Shu bois ham o'rta asrlarda Buxoroda bu dehqonchilik bayrami «Navro'zi kishavorzon» - «dehqonlar bayrami» deyilgan. Zahmatkash dehqonlar aynan shu kuni dalaga qo'sh chiqarib dastlabki urug'ni erga qadaganlar. Andijon o'zbeklarida bahorgi er haydashni shanba kuni boshlash lozim deyilgan bo'lsa, Xorazm o'zbeklari orasida hosil barakali bo'lishi uchun dushanba va chorshanba kunlari er haydash ekin ekish xayrli amal hisoblangan. Boshqa kunlarda er haydash xayrsiz deb hisoblangan va shu bois haftaning boshqa kunlari yer haydash taqiqlangan. Agar yer haydash kunduz kuni bo'lsa shimolga, kechasi bo'lsa janubga qarab haydalgan.

XX asrda, an'anaviy dehqonchilik mashg'uloti zamonaviy texnika taraqqiyoti bilan uyg'unlashgan bir davrda ham bahorgi dehqonchilik yumushlarini boshlashdan avval marosimiy qurbonlik qilish odati saqlanib qoldi va hatto bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Jumladan, Namangan viloyati Chust tumani Dam qishlog'ida bahorgi dala ishlarini boshlashdan avval jamoa xo'jaligidagi traktorhilar traktor parkida yig'ilishib Piri Dovudga bag'ishlab xo'roz so'yib qurbonlik qiladilar. Bu, birinchidan, bahorgi dala yumushlaridan boshlashdan avvalgi marosimiy qurbonlik bo'lsa, ikkinchidan, traktorhilar marosimiy qurbonlik qilish orqali temirchilik piri hisoblanuvchi Hazrati Dovudga bo'lgan ehtiromlari ramzidir.

Chorvachilik an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlarining eng qadimiy ko'rinishlaridan va tirikchilik manbaini belgilovchi asosiy mehnat turlaridan biri hisoblangan. Chorvadorlarning turmush tarzi, ushbu mashg'ulot bilan bog'liq qarashlar, urf-odat va marosimlar etnografik materiallar asosida ma'lum darajada o'rganilgan. Biroq, chorvachilik bilan bog'liq qadimiy diniy tasavvurlar va e'tiqodiy qarashlar alohida tadqiqot ob'ekti tarzida xanuz maxsus tadqiq etilmagan. Zero, qadimgi davrlardan, ya'ni jonivorlarni qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish jarayoni boshlangandan e'tiboran chorvachilik bilan bog'liq marosimlar va urf-odatlarda xalqning hayvonot olamiga bo'lgan munosabati aks etishi bilan birga, ularning bir necha ming yillik mehnat faoliyati bilan bog'liq hayot tajribalari, makon va zamonga bo'lgan munosabati, ma'naviy qarashlari va shubhasiz, o'sha davr diniy e'tiqodi aks yetgan. Biz uchun bu o'rinda ahamiyatlisi chorvachilikka oid marosimlardagi diniy qarashlar, aniqrog'i, Islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlar va qarashlar bilan bog'liq urf-odatlar hamda marosimlardir.

Chorvadorlar nazdida haftaning boshqa kunlari, ayniqsa, juma kuni ko'chish uchun xosiyatsiz hisoblangan. Chunki xalqona qarashga ko'ra, ushbu kun barcha musulmonlar kabi barcha jonzotlar uchun dam olish kuni hisoblanadi. Shu bois agarda ushbu kun yo'lga chiqadigan bo'linsa Allohning irodasiga qarshi boriladi va biror bir falokatga yo'liqish mumkin, deyilgan.

Har yili chorvani yaylovga olib chiqib ketishdan avval cho'ponlar piri Cho'pon ota va chorva piri Zangiotaga bag'ishlab qurbonlik qililib, is chiqarganlar. Xalq orasidagi rivoyatlarga ko'ra Zangi ota kulti cho'ponlarning piri hisoblanadi. elshunos K.Shoniyozovning yozishicha, Farg'ona vodiysi

qipchoqlarida yaylovga qo'ylar ketayotganda marosimiy qurbonlik qilingan va qishloq mullasi tomonidan cho'ponlar piri Cho'ponotaga bag'ishlangan risola o'qib berilgan [Shoniyazov K., 1974. S. 200]. Afsuski, biz Farg'ona vodiysida olib borgan dala tadqiqotlarimiz jarayonida va chorvachilik tarixiga oid tarixiy-ilmiy adabiyotlarda cho'ponlar risolasi borasida kengroq ma'lumotlar beruvchi materiallarni uchratmadik. Shu bois ham ishda cho'ponlik risolasining tarixi va uning mazmun-mohiyati borasida batafsil to'xtalmadik. Lekin shu o'rinda ham aytib o'tish kerakki, chorvadorlar orasida har bir hayvonning o'ziga xos piri bo'lgan va yilda bir marta mazkur pirga bag'ishlab qurbonlik qilingan. Jumladan, qo'y piri - Cho'ponota, qoramol piri- Zangiota, otning piri - Qambarota, echking piri - Chig'atota bo'lgan.

Azaliy turmush tarzi chorvachilik bo'lgan Farg'ona vodiysi qipchoqlarida chorvani yozgi yaylovga olib chiqish va yozgi yaylovdan qishlov eriga olib qaytishda qator afsungarlik rasm-rusumlari va urf-odatlarini o'tkazilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, suruvni bir joydan ikkinchi erga ko'chishi eng mas'uliyatli davr hisoblangan. Shu bois ular bu paytda chorvani turli ziyon-zahmatlardan poklab ko'chirishga harakat qilganlar. Bunda toqqa ketayotgan qo'y-qo'zilarni yovuz kuchlardan, yomon ko'zlardan saqlash maqsadida cho'ponlardan biri qo'lida gulxan ushlagan holda suruvni aylanib chiqqan va qo'ylarni olov yordamida poklagan. Chust tumani Ariqbo'yi, Sariqamish, Karkidon qishloqlarida yashovchi qipchoqlar chorvani toqqa haydab ketishda va tog'dan olib tushishda ham qo'y-qo'zilarga oq va qora rangdagi latta kuydirib alas-alas qilib, isiriq solganlar. Alas qilishda ayollar «*yangi yurtda yallo qolsin, eski yurtda balo qolsin*», degan aytimni aytib turganlar. Andijon viloyati Jalolquduq tumani Karmish qishlog'ida yashovchi qirg'iz-qipchoqlarda esa chorvani yaylovga olib ketilayotganda qishloq mullasi tomonidan Qur'on kitobi ochiq holda ushlab turilgan va uning tagidan qo'ylar hamda cho'ponlar o'tkazilgan. Demak, biz bundan ko'ramizki, cho'ponlar uchun qo'y-qo'zilarni yaylovga haydash va yaylovdan qishki qishlov joyiga qaytish paytida cho'ponlar o'zlarining jonivorlarini ziyon-zahmatdan va yomon ko'zli kishilardan olov, isiriq. Qur'on kitobi yordamida poklagan. Olovning marosimiy afsungarlik xususiyatiga egaligi borasida oldingi qismlarda batafsil to'xtalganimiz va ilmiy adabiyotlarda ma'lum darajada yoritilganligi bois bu o'rinda batafsil to'xtalmadik. Shuningdek cho'ponlar piri Cho'ponotaga bag'ishlab is chiqarish va cho'ponlar risolasini o'qish amallarida ham Islomiy qarashlarni Islomgacha bo'lgan e'tiqodiy kultlar bilan sinkretlashgan ko'rinishini ko'ramiz.

Ayrim tadqiqotchilar fikricha, muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolar bilan bog'liq marosimlar va tasavvurlarda totemizmning ayrim xususiyatlari saqlanib qolgan. Mashhur arxeolog olim S.P. Tolstovning fikricha, aynan mana shunday xususiyatlardan biri muqaddas ziyoratgoh va qadamjolarga tog' echkilari va qo'ylar shoxlarini osib qo'yishdir. Darhaqiqat, qo'y turkiylar orasida eng muqaddas jonzotlardan sanalgani bois ziyoratgohlarga qo'y va tog' echkisi shoxlari osib qo'yilgan. Jumladan, Namangan viloyati Kosonsoy tumani Qizilshox

qishlog'idagi «Qirq chilton» ziyoratgohidagi avliyo qabri ustiga, O'shdagi mashhur Taxti Sulaymon ziyoratgohiga qo'chqorning uzun shoxi qo'yib qo'yilgan. Axborotchilaridan nima uchun bu shox qo'yilganligining sababini so'raganimizda aniq bir javobni ola olmadik. Bizningcha, aziz avliyolar qabrlari va muqaddas qadamjolarga osib qo'yilgan hayvon shoxi oddiy bezak vazifasini bajarmagan. Ziyoratga kelgan befarzand ayollar farzandli bo'lish maqsadida ziyoratgohga qo'yilgan hayvon shoxiga ip, latta va boshqa narsalarni bog'laganlar yoki shoxni sekin chertib ko'rganlar. Agar shohdan chumolilar tushsa, demak o'sha ayol farzandli bo'ladi, tushmasa farzandli bo'lmaydi, degan qarash bo'lgan.

Qo'ylarni muqaddaslashtirib uni hunarmandchilik buyumlarida tasvirlash an'anasi hozirga qadar saqlanib qolgan. O.A. Suhareva kashtalardagi qo'chqor shoxiga o'xshash naqshlar xususida shunday fikrlarni bildirgan: «Naqshlarda asosan qo'chqorning bitta belgisi, uning shoxi ifodalangan. Bunday naqshlar Markaziy Osiyoning mahalliy o'troq va ko'chmanchi xalqlarida «qo'chqorak», Farg'ona vodiysida yashovchi qirg'izlarda «qaykalak», Nurota o'zbek turkmanlarida «mo'yiz», turkmanlarda «choch bo'yiz» deb atalgan. Bu naqsh ikki spiralning qayrilgan ko'rinishidan iborat bo'lib, naqsh kompozitsiyasining markaziy qismida tushirilgan. Qo'y shoxi naqshi ham qo'y kultidan kelib chiqqan holda ishlanganligiga shak- shubha yo'qdir». Demak, yosh kelin-kuyovlarning uyiga qo'chqor shoxi naqshi tushirilgan so'zanalar bejiz ilinmagan. Ularni nikoh marosimida ilishdan maqsad kelin-kuyov uyini bezatish emas, balki yoshlarni turli ins-jinslardan asrash bo'lgan.

Etnologik yo'nalishda bajarilgan tadqiqotlarda moddiy madaniyat (turar joylar, kiyimlar, taqinchoqlar, oziq ovqatlar)ni odatda grafik tasvirlar, planlar, chertyojlar, rasmlar, fotosuratlar yordamida batafsil tavsiflash va ilmiy tahlil qilish o'ziga xos an'anaga aylangan. Lekin aslida ushbu ma'lumotlar etnologik tadqiqotlarning bosh maqsadi emas, balki asosiy maqsadni isbotlashga ko'maklashuvchi tavsifiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Moddiy madaniyatning etnologik yo'nalishda tadqiq qilishda ko'zlangan asosiy maqsad o'rganilayotgan ob'ektning xalq ijtimoiy turmush-tarzi bilan aloqadorligini yoritishdan iborat. Chunki an'anaviy moddiy madaniyat namunalari insoniyat mehnati va ehtiyoji asosida yaratilsada, lekin uning ongli tafakkuri natijasi o'laroq u yoki bu ko'rinishni oladi. Shubhasiz, bu o'rinda moddiy madaniyat na'mnularida aks etuvchi ramz, belgi g'oya ko'rinishida ham qiziqarli bo'lib, bu bevosita u bilan bog'liq tasavvurlar, e'tiqodiy qarashlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha tarzda aytadigan bo'lsak, etnologlar uchun moddiy madaniyat namunalarning tavsifi emas, balki ularning inson bilan aloqadorligi qiziqarli hisoblanadi.

Tarixdan ma'lumki, turar-joylar inson uchun makon, boshpana tarzda foydalana boshlangan davrlardan boshlab u bilan bog'liq ilk tassavurlar ham shakllana boshlagan. Qadimgi uy-joylarning eng muhim xususiyatlaridan biri - uning o'ziga xos xavfvsizlik xalqasiga ega ekanligidir. Insoniyatning ilk ajdodlari



uy-joylarni yovuz kuchlar xurujidan muhofaza qiladigan o'ziga xos yopiq makon deb hisoblangan va u bilan bog'liq ilohiy tushunchalar tarqalgan.

Endi esa bevosita tadqiqotimiz hududi hisoblangan Farg'ona vodiysi o'zbeklari an'anaviy turmush-tarzdagi turar-joylar bilan bog'liq qarashlarda hamda uy-joylar bilan bog'liq urf-odatlardagi qadimiy diniy e'tiqodlar bilan bog'liq ko'rinishlarni birmuncha batafsilroq tahlil etishga harakat qilamiz. O'zbeklarda ota makon hisoblangan ota-bobolar joyi muqaddas dargoh hisoblangan va unga mehr qo'yishgan hamda mehr-muruvvat ko'rsatishgan. Qolaversa, ota-bobolar yerining muqaddasligi borasida ko'p maqol va rivoyatlar yaratilgan.

O'zbeklar orasida ham boshqa ko'plab xalqlarda bo'lgani singari uy qurish ishlari dastlab uy poydevorini qurishdan boshlangan. Xalqona tasavvurga ko'ra, poydevorni qurishga haftaning xayrli va omadli kunlarida kirishilgan. Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasida dushanba, chorshanba, payshanba va shanba kunlari uy qurilishidagi dastlabki ishlar boshlangan. Chunki aynan mazkur kunlar xosiyatli kunlar hisoblangan.

Yangi uyni qurish jarayonida uning dastlabki yog'ochlari ko'tarilgandan so'ng uy to'sini yoki harisini ko'tarishda ajoyib bir udum bajarilgan. Odatda, usta sinch uylarning to'sin yoki harisini o'rnatish chog'ida uy egasidan biror bir narsa (odatda ko'ylak, qiyiq va shu kabilar)ni ehson qilishni so'ragan. Bu narsa aholi orasida *keskilik* deb atalgan. Agar ustaga *keskilik* berilmasa, keyinchalik u(usta)ning ishi yurishmay, og'ir kasalga chalinar ekan. Axborotchilarimizning ta'kidlashlaricha, har bir hunarmandchilik sohasining o'z asoschisi (piru murshidi) bo'lgani kabi, ustachilikning ham asoschisi - piri bo'lgan. To'sin (yoki hari) ko'tarish paytida beriladigan keskilik o'sha piring haqqi uchun ustaga berilgan. Usta esa o'zi ishlab pul topayotgan ushbu hunar asoschisining haqqiga duoi fotiha qilib turishi lozim bo'lgan.

Farg'ona vodiysining azaliy o'troq o'zbek va tojik xalqlari orasida uyning ayrim qismlari-to'sin, ustun, eshiklarini qo'yilishida qator ramziy ma'nolarga ega bo'lgan va aynan mazkur qismlar bilan bog'liq qator diniy-semantik urf-odatlarga amal qilingan. Jumladan, vodiy o'zbeklarida ham, respublikamizning boshqa mintaqalarida bo'lgani singari, xona shiftiga qo'yiladigan to'sinlar soni doimo toq, ya'ni 5, 7, 9, 11 tadan bo'lib, xona turi va hajmini belgilovchi o'lchov bo'lib kelgan. Xalqona qarashlarga ko'ra, ayrim joylarda to'sinlardan bittasini, ya'ni juft bo'lmagani Allohga bag'ishlangan deyilsa, boshqa joylarda bitta to'sin vazifasini xonadon erkagi o'tagan, deb tushinishgan. Shu o'rinda uy to'sini bilan bog'liq Xorazmda o'ziga xos ramziy odatga amal qilinganligini ta'kidlab o'tish joiz. Taniqli etnograf olim M.V. Sazonovning yozishicha, Xorazmning ayrim tumanlarida biror xonadonda ketma-ket o'lim bo'lsa, shu oila a'zolaridan qolganlarining umrini saqlab qolish uchun xonaning o'lim sodir bo'lgan qismidagi tomning ikki to'sinini yoki tomning to'g'ri kelgan joyidan ikkita to'sinni, ayrim tumanlarda esa shiftning barcha to'sinlari butunlay almashtirilgan. Yangi qurilayotgan uyning devorini ko'tarish, tom yopish bilan bog'liq ishlar,

shuningdek, ayni vaqtda ko'plab ishchi kuchini talab etadigan ishlarda mahalla erkaklari ishtirokida maxsus hashar uyushtirilgan. Yangi uyni qurilishida hashar tashkillashtirish odati ilmiy etnografik adabiyotlarda birmuncha yaxshi yoritilgan. Shu bois biz bu o'rinda ushbu odat to'g'risida batafsil to'xtalmagan holda hasharning vodiya xos lokal xususiyatlarigagina to'xtalib o'tishga harakat qildik. Namangan viloyati Xo'jamushkent qishlog'ida yashovchi o'zbeklarda bu tadbir «hokondozon» deyilgan. Hokondozon ko'pincha uyning tomini yopish paytida uyushtirilgan bo'lib, mahalla erkaklari va yigitlari uyning tomini yopish jarayonida maxsus belgilangan kunda hashar o'tkaziladigan uyga yig'ilishgan va uyning tomiga qoplarda tuproq olib chiqqanlar. Hashardagi eng katta qop *polvon qop* deyilgan. Mazkur qopni ko'tarib tuproq olib chiqan odamga sovg'a tariqasida uy egasi tomonidan belbog' berilgan.

Uy-joylar bilan bog'liq urf-odat va rasm-rusmlarning talay qismi yangi uy tiklab bo'linganidan so'ng ham o'tkazilgan. Chortoq tumani Qoramurt o'zbeklarida yangi uyga *dushanba va juma* kunlari ko'chib kirish xayrli deyilgan.

Yangi qurilgan uyga ko'chib kirish jarayonida ham ko'plab magik urf-odat va marosimlar bajarilgan. Namangan viloyati Chortoq tumani Oqsuv G'ovozon qishlog'i o'zbeklarida yangi uyga ko'chganda «ushbu uyda yashovchilarning kelgusidagi hayotlari misoli do'lanaday mustahkam bo'lsin», deb uyning to'rt burchagiga do'lana shoxi qoqib qo'yish odati bo'lgan. Shuningdek, ushbu uy doimo rizqli barakali bo'lsin, degan niyatda Yangiqo'rg'on tumani Oqsuv G'ovozon qishlog'ida uyga dastlab tuz olib kirilgan. Andijon viloyati Buloqboshi tumani Shirmonbuloq qishlog'ida yashovchi o'zbek turklarda yangi uyga ko'chib kirishda uyga doimo xizmat qilsin, degan niyatda ushbu uyga birinchi marta kapgir-cho'mich olib kirilgan. Qolaversa, uy egalari o'zlari uydagi dastlabki kechasini yolg'iz o'tkazmagan. Ular bilan birga doimo keksa yoshli qariyalar birga tunaganlar. Ushbu uyda to'kin-sochinchilik bo'lsin, degan niyatda xudoyi sumalak qililib, qo'ni-qo'shnilar va qarindosh-urug'larga tarqatilgan. Umuman olganda, ushbu afsungarlik ko'rinishidagi marosimlardan ko'zlangan asosiy maqsad kelgusida mazkur uyda yashovchi oilaning farovon hayot kechirishidir.

Xullas, yangi uyga ko'chib kelish bilan bog'liq yuqoridagi urf-odatlar magik qarashlar asos bo'lgan. Uyning to'rt burchagiga do'lana qoqib qo'yishda o'xshash afsungarlik, ya'ni do'lanaga xos xususiyatlar magik yo'l bilan ushbu uy a'zolariga o'tishi hamda kapkir-cho'michni uyga birinchi bo'lib olib kirilishida esa ushbu xonadonni rizqli bo'lishiga qaratilgan magiq niyat asos bo'lgan bo'lsa, ikkinchisida o'xshash afsungarlik serpushtlilik afsungarligi bilan o'zaro qorishgan holda uchraydi. Keksalarning serfarzandlilik xususiyati hamda tuz va sumalakning odamlar tasavvuridagi rizq-baraka ramziga oid xususiyatlari kelgusida mazkur oilaga ham doimo hamroh bo'lsin, degan niyat aynan mazkur urfni bajarilishiga sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas.

O'zbeklarda uyning turli joylari, ayniqsa, ostonasi, o'chog'i eng muqaddas joylardan biri hisoblangan va u bilan bog'liq qator diniy-afsungarlik urf-odatlari hamda irimlari bajarilgan. Bu o'rinda, avvalo shuni ham ta'kidlash kerakki,

xalqning kundalik turmush tarzida ostona bilan bog'liq qator naqlar ham mavjud. Chunonchi «*Ostonada turmushga chiqmagan qiz o'tirsa baxtsiz bo'ladi*», «*ostonda turib bo'lmaydi, chunki biror bir kishidan judo bo'lgan odam ostonada turadi*», «*ostonada quloch kerib turib bo'lmaydi, baraka to'siladi*», «*ostonada turgan holda salomlashilsa, o'rtaga sovuqlik tushadi*», degan naqlar bugungi kungacha xalqimizda saqlanib kelmoqda va ular hozirda ham omma orasida o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Qolaversa o'zbek xalqi lirikasida ham ostona obrazi muhim ahamiyat kasb yetgan va hatto bu obraz maxsus tadqiq ham qilingan.

Tarixdan ma'lumki, kiyimlar insoniyat turmush-tarzi taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq tarzda yuzaga kelgan. Qolaversa insoniyat tarixidagi ilk eng muhim ixtirolardan biri aynan kiyimni ixtiro qilinganidir. Chunki insoniyatni hayvonot olamidani uning tafakkur qobilyati ajratib tursa, ushbu taffakkurning bir mevasi libosdir. Qolaversa aynan kiyim insonlarni hayvonot olamidani ajratuvchi muhim tashqi alomatlardan biridir.

An'anaviy milliy kiyimlarning shakllanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz bir necha ming yillar mobaynida uning qator muhim funktsiyalari tarkib topganligini ko'rish mumkin. Kiyimning birinchi va asosiy vazifasi -tanani sovuqdan va tabiatdagi turli boshqa noqulay vaziyatlardan va ta'sirlardan himoyalash bo'lgan bo'lsa kiyimlar taraqqiy etib borishi va unga tashqi (tabiiy) muhit, xo'jalik mashg'uloti, e'tiqodiy qarashlar, ijtimoiy, madaniy yo'nalishlardagi o'zgarishlar, milliy va diniy qarashlarning bevosita ta'siri natijasida ikkinchi muhim vazifasi, ya'ni jinsiy va ijtimoiy bo'luvchi hamda marosimiy - e'tiqodiy vazifasi ham paydo bo'lgan. Qadimgi davrga xos mifologik tasavvurlarga ko'ra har bir soha va predmetni o'ziga xos va mos ma'budasi bo'lgan bo'lib, Shumer-akkadlarning mifologik qarashlariga ko'ra kiyim-kechaklar ma'budasi Uyti nomli iloh bo'lgan Hozirgi kunga qadar "Etnologiya", san'atshunoslik, arxeologiya, madaniyatshunoslik kabi yo'nalishlarda o'zbek milliy kiyimlari tarixi, evolyutsiyasi, transformatsiyasi va mahalliy lokal xususiyatlarni o'rganish borasida ma'lum ijobiy yutuqlarga erishilgan.

Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasida ham asrlar mobaynida o'ziga xos kiyinish madaniyati va an'analari shakllangan bo'lib, bu an'analarda vodiy aholisining bir necha ming yillik milliy va diniy qadriyatlari ham o'z aksini topgan. Kiyimlar va ularning ayrim qismlari bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar hamda urf-odatlarni tahlili qilishdan avval aynan kiyimlarni bichib-tikish bilan bog'liq diniy-afsungarlik ahamiyatiga ega bo'lgan ba'zi rasm-rasumlarga to'xtalib o'tsak.

Vodiy o'zbeklari orasida asrlar davomida saqlanib kelayotgan asriy an'anaga ko'ra kiyimlarni bichib-tikishda bichiqchilar matoni qaychi bilan kesishmagan, balki qo'l bilan yirtib, ayrim qiyiq joylarini pichoq bilan kesishgan. Kiyimlar asosan bo'y, eng va yon qiyiqlardan iborat bo'lib, oldinlari aksariyati qo'lda tiqilgan. Bichiqchi va tikuvchilar u yoki bu kiyimlik uchun olinadigan matodan iloji boricha qiyqim chiqarmaslikka harakat qilishgan. Chunki qadimgi matolarning eni shuni taqoza yetgan. Shu bilan birga, qadimgi urf-odatlariga ko'ra, kiyim bichishda yoki uning qiyqimlariga yomon ko'zli yoki «nazari bor»

kishilarning nigohi tushsa, o'sha kiyimni kiygan kishi kasallanadi, hattoki vafot etishi ham mumkin, degan e'tiqodlar mavjud bo'lgan.

Kiyimlar yuqorida ta'kidlab o'tilgan funktsiyalardan tashqari insonning bir yosh boshichidan ikkinchisiga o'tishini, ya'ni initsion ahamiyat ham kasb yetgan. O'z navbatida bu bilan bog'liq qator urf-odatlar bajarilgan. Jumladan, bola tug'ilganda chaqaloqqa, nikoh marosimida bo'lg'usi kelinga va motamda marxumga maxsus ko'ylak kiydirilgan va bu ko'ylaklar o'ziga xos umumiyliklarga ega bo'lgan. Quyida biz bu o'xshashliklarga birmuncha batafsilroq to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Nikoh marosimida ham kelin maxsus tiqilgan oq rangdagi kelinlik libosini kiygan. Xalqimizda oq rang poklik, pokizalik ramzi hisoblanishi bilan birga ramziy ma'noda bo'lg'usi kelinni qizlik olamidan «ayollar» dunyosiga o'tayotganligini anglatgan.

Markaziy Osiyo xalqlarida bo'lgani singari o'zbeklarda ham marhumga maxsus libos-kafan kiydirilib dorulbaqodan dorulfanoga kuzatiladi. Kafan asosan oq bo'z matodan tayyorlanadi. Kafan o'ralayotganda avval chap, so'ng o'ng tomonidan boshlab o'raladi, o'ng tomon ustida bo'lishiga alohida e'tibor qilinadi. Demak biz ushbu fikr-mulohazalardan shunday xulosoga kelish mumkinki, o'zbeklarda inson hayotining muhim uch boshichida ham maxsus libos kiydirilgan. Ikkinchidan, ushbu har uch libos doimo oq rangda bo'lgan va uning ham pastki qismi umuman qaytarilmagan. Uchinchidan, chaqaloqqa va kelinga hamda mayitga kiydiriladigan birinchi kiyim doimo marosimiy tarzda kiydirilgan. Demak, chaqaloqqa va kelinga hamda mayitga kiydiriladigan ushbu kiyimlarni insonni bir boshichdan ikkichi boshichga o'tayotganini ramziy ifodalovchi kiyim deb aytish mumkin. Darvoqe, bu borada ayollarning ro'mollari ham ranggi, holatiga ko'ra ularning yoshi, oiladagi o'rniga ko'ra ham o'ziga xos tarzda o'zgarib borgan. Qizlar turmush qurganda, juvonlar birinchi farzand ko'rganda, o'g'lini xatna qildirganda va nevaralik bo'lishganda bosh kiyim holati va rangini o'zgartirishgan. O'z navbatida bu jarayon, ya'ni yangi ijtimoiy guruhiga o'tishi bilan bog'liq qator holatlar urf-odatlar tarzida aks yetgan. Qadimgi odatga ko'ra, qizlar turmushga chiqqanlarida nikoh kunlari yoki to'ydan so'ng uchinchi kuni qizlik ko'ylaklarini xotinlik ko'ylaklariga almashtirgan.

Vodiy o'zbeklarining an'anaviy kiyimlarini ilmiy asosda tahlil qilish jarayonida biz milliy kiyimlar va ularning ayrim qismlari, jumladan, ko'ylaklarga tikiladigan turli kashtalar, chirozlar ham kiyim egasini yomon ko'zlardan asraydi degan magik tasavvurlar asosida shakllanganligiga amin bo'ldik. Darhaqiqat, qadimgi odamlar tasavvurida kiyimning va zeb-ziynatning magik qudrati, uni yovuz ruhlardan himoya fazilatlariga ega bo'lib, bu borada ilmiy etnografik adabiyotlarda ham ayrim mulohazalar bildirilgan. Shuningdek marosimiy kiyimlarda raqamlarlar magiyasiga bo'lgan e'tiqod ham yaqqol aks yetgan. Jumladan, nikoh to'yi marosimlari uchun tikib kiyiladigan kiyimlar doimo juft qilingan. O'z navbatida motam uchun qilinadigan kiyimlar toq bo'lgan bo'lib, ushbu amallar raqam magiyasi bilan bog'liqdir.

Vodiy qipchoqlarida yosh bolalarni turli balo – qazolardan yomon niyatli kishilar nigohidan saqlash maqsadida atrofdagi qo'shnilardan yoki uyning o'zidan turli mato bo'laklari yiqqan va matolar qiyqimidan quroqi ko'ylaklar tikib kiydirish rasm bo'lgan. Shuningdek bunday «quroqi»dan yangi kelin-kuyovlar uchun yostiqlar ham tiqilgan. Xalqona qarashga ko'ra «quroq» yomon ko'zlardan saqlovchi himoya vositasi hisoblangan. Qadimgi davrlardan saqlanib kelayotgan tasavvurga ko'ra o'zgalarning muvofaqqiyatini, yaxshi narsalarga xasad bilan qaraydigan shaxslarni ko'zi, ko'rish iqtidori bor deyiladi. Shuning uchun ham xalq tomonidan ularga nisbatan xalq tomonidan ularga nisbatan «ko'zlik» iborasi ishlatiladi.

Endi esa bevosita kiyimlarning ayrim qismlari bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar borasida birmuncha batafsilroq to'xtalib o'tsak. Avalo bu o'rinda Farg'ona vodiysidagi o'zbeklarida ham boshqa mintaqalarda yashovchi o'zbeklar singari an'anaviy milliy kiyim tarzda yozda – do'ppi yaktak, belbog', ishton, chorig', qishda esa – telpak, chopon, belbog', shim, maxsi-kovush kiyganligini ta'kidlab o'tish joiz. erkaklarga xos muhim kiyim-kechak elementlaridan hisoblanadigan belbog' va do'ppilar ham milliy kiyimlar tasnifida o'z o'rniga va marosimiy ma'nosiga ega bo'lgan kiyimlar hisoblangan.

Turkiy xalqlar orasida ham qadimda belbog' an'anaviy milliy kiyimning muxim bir qismini tashkil etish bilan birga belbog' egasining jamiyatda tutgan o'rnini ham anglatib turgan. Kishining belidagi belbog'iga qarab oldingilar uning qancha davlat va mol dunyo egasi ekanligini anglay bilganlar va qancha belbog'ning ko'pligi uning mol dunyosining shunchalik ko'pligidan dalolat bergan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Abdullaev M. Abdullaev A. “Ma'naviyat va madaniyat tarixi”. Farg'ona. 1998 y.
8. Imomnazarov M. “Milliy ma'naviyatimizning takomil boshichlari”. T. 1996 y.
9. Ashirov A. Atadjanov Sh. “Etnologiya”. T. 2007 y.

10. Ashirov A. «O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari». T. 2007 y.  
11. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-T.:  
“INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.

## **11-Mavzu: Milliylik falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida**

### **Reja:**

1. Milliylik, milliy g'urur va milliy ong tushunchalarining mazmun va mohiyati.
2. Milliy xarakter.

Milliylik – o'z millatini ulug'lash va uning manfaatini himoya qilish, milliy g'urur va milliy nafsoniyat tuyg'ulari, o'z tili, adabiyoti, san'ati va madaniyati, dini, tarixi va urf-odatlarini, rasm-rusumlari, bayram-sayillari, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy qadriyatlarini qadrlash, o'zi tug'ilib voyaga yetgan diyorini ardoqlash, uning tabiati, daryolari, ko'llari, musaffo osmoni bilan faxrlanish tuyg'usi. Milliylik bir millatga mansub kishilarning ijtimoiy-etnik barqarorligini ta'minlovchi buyuk qudratdir. (Falsafa: qomusiy lug'at.-Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov.-Toshkent: Sharq, 2004. 267-268-betlar.)

Milliy ong – millatning mavjudligi uning tarixiy taraqqiyoti va istiqboli bilan bog'liq omil. U millatning shakllanishi, taraqqiy etishi va abadiyligini ta'minlaydi. Milliy ong millatning o'zi bilan birga shakllanib boradi. Uning boshqalardan farq qiluvchi, faqat o'ziga taalluqli bo'lgan manfaatlari va maqsadlari shakllanishi milliy ongni vujudga keltiradi. Shuning uchun ham milliy ong millat bilan parallel ravishda uzoq tarixiy davrda, uning turmush tarzi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va keng ma'naviy-ma'rifiy salohiyati ta'sirida rivojlanadi. Shunday qilib, milliy ong deb, millatning tarixi, taqdiri va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar va maqsadlarni ifodalovchi, millat vakillari faoliyatini maqsad, yo'nalishlar tomon boshqarib turadigan g'oyalar, fikrlar tizimiga aytiladi. Milliy ong milliy manfaatlar sifatida, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, o'zga millatlar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida ham shakllanib va rivojlanib boradi. Xuddi shu jarayonda millatga xos bo'lgan xususiyatlar shakllanadi. O'sha xususiyatlar millatni boshqa millatlardan ajratib turadi. Bunday o'ziga xos xususiyatlar, o'z navbatida, milliy manfaat va maqsadlarning shakllanishida yetakchi omil vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham millatning barcha tarixiy davrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy kamoloti milliy ongda o'z ifodasini topadi. Milliy ong rivojining ma'naviy asoslarini milliy til, madaniy meros, tarixiy xotira, urf-odat, an'analar, qadriyatlar, milliy tarbiya, ta'lim tizimi kabilar tashkil qiladi. Mana shu manbadan millat ma'naviy ozuqa oladi, ular orqali o'zini anglaydi.(270-bet)

Milliy g'urur – 1) shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglash asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha. Bu tuyg'u quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari,

qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish. Sog'lom milliy g'urur o'zga millatga mansub kishilarga hurmat-ehtirom ko'rsatishni taqozo qiladi. Bunday tuyg'uga ega ma'naviy yetuk kishi milliylikni millatchilikdan, haqiqiy milliy g'ururni millatparastlikdan farq qila oladi, boshqa millat vakillarining izzat nafsi va g'ururini kamsitmaydi. Mustaqillik kishilar milliy g'ururini oshirib, uni xalq, Vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi mas'uliyatni his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda. Bunday sharoitda Vatanimiz mustaqilligidan faxrlanish, mamlakatimizda ozod, farovon va erkin hayot qurish yo'lida faol mehnat qilish, jahon hamjamiyati yutuqlari, universal texnologiyalardan foydalanish milliy g'ururni oshiradigan omillardir. Bu esa, o'z navbatida, yurtdoshlarimizning kuchi, salohiyati, bunyodkorlik faoliyatini ko'p jihatdan belgilaydi, ularni o'zlarida sog'lom milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish uchun tinmay izlanishga safarbar etadi.

Har bir milliy-etnik madaniyat o'ziga xos xususiyatlari bilan ajrab turadi va o'ziga xoslik turli-tuman narsalarda namoyon bo'lishi mumkin. Har bir etnik madaniyat o'ziga xos mantiqqa ega va aynan mazkur mantiq asosida mazkur madaniyatga xos asosiy o'zgarma va ikkinchi darajali o'zgaruvchan xususiyatlarni izohlash mumkin.

An'anaviy milliy madaniyatni yaxlit va ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganish, uning tuzilishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois biz etnomadaniyat evolyutsiyasi va umumqabul qilingan madaniyat tasnifidan kelib chiqib, xalq madaniyatining asosiy sohalariga to'xtalib o'tamiz. Holbuki, etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy xalq madaniyat tizimining tarkibiy qismida: xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyati kabi ko'plab sohalarini ajratsa bo'ladi.

An'anaviy xalq madaniyatining barcha sohalarida avlodlarning dunyoqarashlari, falsafiy tushunchalari o'z aksini topganligi uchun etnomadaniyat tarkibida xalq donishmandligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning sababi shundaki, xalqning g'oya, fikr, bilim, dunyoqarashini ifoda yetgan etnomadaniyat ko'rinishini xalq falsafiy donishmandligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq madaniyatining falsafiy-g'oyaviy mazmuni qanchalik chuqur bo'lsa, uning shakli ham shuncha baquvvat, ijtimoiy ahamiyati kuchli, umri ham boqiy bo'lar ekan.

Xalq madaniyati deyilganda keng ma'noda etnosning hayotidagi barcha qadriyatlar tushunilsa ham, uning tub ma'nodagi negizini xalq an'analari hosil qiladi.

"Etnologiya" fanida «marosim», «urf-odat», «an'ana», «bayram»lar fanning asosiy tadqiqot obekti tarzida keng qo'llaniladi. Chunki har bir xalqni shakllanish jarayoni bilan birga unga xos va mos milliy-etnik an'analari, urf-odatlar, marosimlar va bayram va sayillar shakllanib taraqqiy etib boradi. Ular kishilar turmush-tarzining muhim bir bo'g'ini tarzida tarkib topib boradi.

“Etnologiya” fani shakllangan davrdan boshlab milliy an’analarni, rasm-rusumlar va urf-odatlarini xalq madaniyatining fenomeni tarzida o’rganishni dolzarb muammolaridan biri sanalib kelgan. Ayniqsa, Respublikamizda milliy qadriyatlarimizga va ma’naviy merosimizga davlat miqyosida e’tibor berilayotgan tarixiy bir jarayonda mutaxassis olimlar tomonidan an’anaviy marosimlarimizni tadqiq qilishda ularning yozma tavsifini berish bilangina cheklanib qolmasdan, balki qadimiy tarixga ega bo’lgan milliy marosimlarimizning xalq turmushi va an’anaviy madaniyatda tutgan o’rni, ularning genezisi va o’ziga xos xususiyatlari hamda saqlanish omillari borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda. Lekin afsuslar bilan aytish joizki hali hanuz “Etnologiya”, madaniyatshunoslik, folklorshunoslik va xalq turmush-tarzi bilan shug’uullanuvchi fanlar doirasida yuqoridagi terminlarning ta’rifi va tavsifi hamda farqli xususiyatlari borasida mukammal nazariy-metodologik qarashlar ishlab chiqilmagan. Shu bois ba’zi hollarda ayrim tadqiqotlar tomonidan «marosim» va «urf-odat», «an’ana» va «bayram» kabi qator terminlarni sinonim tarzda ishlatish yoki izchil farqlanmagan holda qo’llanilish holatlari ham uchramoqda. Shubhasiz bu o’rinda “marosim”, “urf-odat», “an’ana” va “bayram” terminlarning qanday o’xshashliklar va farqli xususiyatlar mavjud? – degan savol tug’ilishi tabiiydir. Bizningcha, ushbu terminlar bir-biri bilan chambarchas bog’liq, ammo bir-biridan keskin farq qiluvchi tushunchalardir.

**“An’ana”** – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros bo’lib o’tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta’sir o’tkazadigan madaniy hodisadir. An’ana o’ziga xos ijtimoiy qoida tarzida kishilar onggiga singan (umum yoki ma’lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi<sup>1</sup>.

Urf-odat tushunchasi esa o’ta keng bo’lib, u o’z ichiga xalq hayotining barcha tomonini-oddiy kundalik udum, rasm-rusum, irim-sirimlar, o’zaro-muomala tarzi hamda barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi. Marosim tushunchasi nisbatan tor tushuncha bo’lib, u shu xalq hayotining ma’lum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko’pincha ramziy xarakterga ega bo’lgan va ma’lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyushtiriladigan namoyishlardan iborat<sup>2</sup>.

Shuningdek marosim – inson hayotining moddiy va ma’naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma’lum bir tarixiy taraqqiyoti boshichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko’rsatuvchi asosiy belgilarni o’zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi.<sup>3</sup> Boshqacha qilib aytganda, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo’lgan hayotiy tadbirdir.

---

<sup>1</sup> Qoraboev U. O’zbek xalqi bayramlari.– T.,Sharq, – 2002. – B.8.

<sup>2</sup> Sarimsoqov B. Marosim folklori. - T.,Fan, 1986. – B.12.

<sup>3</sup>Sarimsoqov B. Marosim folklori // O’zbek folklori, ocherklar T.,1988.– 152.



«Urf-odat» deyilganda kishilarning turmushiga singgib ketgan, ma'lum muddat takrorlanib turuvchi hatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko'nikmasidir. Demak ushbu marosim va urf-odatga berilgan qishacha qaydlardan ham ko'rinib turibdiki, urf-odat tushunchasi xalq hayotining barcha sohasini o'z ichiga qamrab olsa, marosim tushunchasi hayotining muayyan sohalarigagina aloqador, xolos. Urf-odat bir vaqtning o'zida bir shaxs yoki bo'lmasa ko'pchilik tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qoida bo'lsa, marosim belgilangan shaxslar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan xatti-harakatdir<sup>1</sup>. Jumladan, kichikning kattaga birinchi salom berishi yoki ko'pchilikka kamchilikni salom berishi yoinki mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida yaqinlari, keksa qariyalar, qo'ni qo'shnilar holidan xabar olish kabi ko'rinishlar o'zbeklarga xos milliy urf-odatlardir.

I.S.Kon «Milliy xarakter – afsonami yoki haqiqat?», deb nomlangan asarida zamonaviy jamiyatshunoslikning eng dolzarb vazifalaridan biri milliy xarakterning mohiyatini aniqlashdir», deb yozadi. O'z-o'zidan ravshanki milliylik nafaqat madaniyat muammosi shu bilan birga ijtimoiy - iqtisodiy ziddiyatlarni ham aks ettiradi. Masalan, noto'g'ri tushunish bir millatning ustidan ikkinchi millatning ijtimoiy ustunligi, urf - odatlarining ulug'vorligi kabi g'ayriilmiy muammolarni keltirib chiqaradi. Rivojlangan mamlakatlarda bu borada muhim nazariy qarashlar ilgari suriladi. Milliy xarakterni o'rganuvchi manbalarda ikki qutb, ikkita uzviy nuqta mavjud. Bir toifadagilar aytadiki, milliy xarakter hech qanday aniq narsaga tayanmaydi, hech bir millat bir - biridan psixologik jihatdan tubdan farq qilmaydi. Ikkinchi toifadagilar aksincha, millatlar o'rtasida o'tib bo'lmas devor borligini uni uddalash milliy urf - odat omborining to'laligiga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Ya'ni har bir millat a'zosi o'z millatiga bog'liq va uning o'ramidan chiqa olmaydi. Milliy xarakterni aniqlash alohida shaxslarda unchalik yaxshi natija bermaydi. Ammo har bir millat alohida shaxslardan tashkil topishini hisobga olsak, milliy san'at va adabiyotning umumiyliigi kelib chiqadi. Lekin bu narsa har bir shaxsga teng taqsimlanmasligini e'tiborga olish kerak. Milliy xarakterni tushunish uchun avvalo shu millat tarixi, jamiyatning tuzilishini o'rganish kerak. Milliy asosga ko'ra, har bir odam biror-bir millatga tegishli bo'ladi, o'zaro bir - biridan temperamenti, madaniyati, odobi bilan farq qilib turadi. Germaniya, Gollandiyada yashovchi millatlarning o'ziga xosligini tartib-intizom tashkil etsa, ispanlar uchun bu unchalik xarakterli emas. Bu fazilatlar Lotin Amerikasida yashovchi millatlar o'rtasida unchalik ahamiyat kasb yetmaydi. Milliy xarakterga xos bo'lgan belgilar ularning o'zaro muomala madaniyatida, xususan, bir-birlariga bo'lgan munosabatida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, shimoliy amerikaliklar katta - kichikligidan qat'iy nazar, bir-birlariga ismini aytib murojaat qilishadi. Bu ularning bir - biriga do'stligi yoki nihoyatda yaqinligini bildirmaydi. Milliy xususiyatlarni erkin ifodalaydigan omil xalqning badiiy madaniyati hisoblanadi. Masalan; rus musiqasini italyan yoki o'zbek musiqasidan yoki ukrain bezaklarini hind milliy

---

<sup>1</sup> Sarimsoqov B. Marosim folklori.. – 13.

bezaklaridan, ingliz hajvijasini esa fransuzlarnikidan osongina farqlash mumkin. Bir millatga tegishli bo'lgan yaxshi xarakterlar boshqalarga ham xosligi o'z-o'zidan ravshan. Biz xohlaymizmi, yo'qmi boshqa millatning urf - odati madaniyatining ta'sirini madaniy hodisalarimizda ko'rishimiz mumkin. Bir so'z bilan millatning yaxshi va yomon tomonlarini aniqlab bo'lmaydi. Masalan, rus millatiga xos insoflilik, bag'rikenglik, oqko'ngillik, to'g'riso'zlik kabi sifatlar muayyan darajada boshqa millatlarga ham xos bo'lishi mumkin. Hech bir millat yuqorida sanab o'tilgan sifatlar bo'yicha boshqa xalqdan ustunroqmiz, deya olmaydi. Xohlaymizmi-yo'qmi, biz har bir xalqning hayot tarzi xulqi odatlari va an'alariga etnik jihatdan to'g'ri baho berishimiz kerak. Har kim o'zga millatdan o'z odatlarini yuqori qo'ymasligi kerak. Odam eng avvalo ilk bolalik davridanoq ehtiyojlarini qondiradigan narsalarning xususiyatlarini chuqurroq idrok etishga intiladi. Voqelikni idrok etishda uning ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalari, millatiga xos bo'lgan xususiyatlar o'z aksini topadi. Shuning uchun tabiat va jamiyatdagi har bir narsa va hodisa bir millat va elat vakillarida boshqalariga nisbatan boshqacharoq emotsional psixologik reaksiyani vujudga keltirishi mumkin. Masalan, cho'l qozoq xalqi turmush tarzi kechadigan o'ziga xos makon. Shu boisdan ular cho'lga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Aksincha, vodiylar, dengiz sohillari, o'rmonlarda umrguzaronlik qiladigan odamlar uchun cho'l manzarasi hech qanday ijobiy munosabat tug'dirmasligi, yoki uning uchun zerikarli bo'lishi mumkin. Xalqning yashash tarzi, uning kundalik ehtiyojlari (tarixan) go'zallik to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni vujudga keltiradi. Shaxs va jamoa hamda shaxslararo munosabatlar to'g'risida ham shu asosda me'yorlar shakllanadi. Shuning uchun ham muayyan xalq vakillari boshqa xalqlarning munosabatlari, xatti - harakatlari, urf - odatlarini ko'rib taajjublanishi, bu narsalar unga qandaydir g'ayri tabiiy bo'lib ko'rinishi mumkin. Masalan, Quddusni bosib olgan fransuzlar arablarning ko'p xotinlik odatiga nafrat bilan qarashgan, arablar esa fransuz ayollarining ochiq yurishlarini hayosizlik deb hisoblashgan. Qirg'iz va qozoqlarda qiz olib qochish odati ham bunga misol bo'la oladi. Albatta, bunday an'analarga ega bo'lmagan xalqlar uchun bu xatti - harakatlar g'ayri tabiiy ko'rinishni vujudga keltiradi. Lekin har qanday urf - odatning vujudga kelishida ijtimoiy - iqtisodiy omillarning ta'siri belgilovchi rol o'ynaydi. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarda uylanish marosimlarida «qalin» to'langan. Hozirgi ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar natijasida xalqimizda mavjud bo'lgan milliy ta'b keskin o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Ayniqsa, moddiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq ta'b ancha murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Milliy tuyg'u milliy psixologik qiyofani tashkil etuvchi komponentlar ichida nisbatan kam o'rganilgan soha bo'lib, o'zining ijtimoiy kelib chiqishi bilan uzoq o'tmishga borib taqaladi. Shuning uchun ham uni o'rganishda ehtiyotkorlik talab qilinadi. Milliy tuyg'uning ta'sirchanligi ona tiliga bo'lgan munosabatda yorqin namoyon bo'ladi. Zero, har bir xalqning milliy xususiyatlari til orqali o'z ifodasini topadi. Mashhur qirg'iz yozuvchisi Ch.Aytmatov til bu millatning butun tarixi mobaynida to'plangan boyliklarini o'zida jamlab, kelgusi avlodlarga yetkazib beruvchi vosita

ekanligini ko'rsatib bergan. Milliy tuyg'u tug'ma hodisa emas, u tarixiy kategoriyadir. Milliy tuyg'u shu xalq va millat vakillariga tashqi obyektiv omillarning doimiy ta'sir etib turishi natijasida vujudga keladi. Uning asosida milliy manfaat va ehtiyojlar, ayniqsa, uning tinchligi yoki notinchligini ta'minlovchi omillar yotadi. Milliy tuyg'uning namoyon bo'lish kuchi va intensivligi hamma xalq va millatlarda bir xil emas. Kam sonli xalqlarda bu tuyg'u kuchliroq bo'lib, yirik xalqlarda keskin namoyon bo'ladi. Masalan, chechenlar, Farg'ona vodiysidagi turklar, qoraqalpoqlar. Ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi bilan kishilarda o'z xalqi, ona tili, ona tuprog'iga bo'lgan mehr - muhabbat tuyg'ulari yanada chuqurlashishi mumkin. O'z millatini ortiqcha ko'klarga ko'tarish, uning boshqa millatda bo'lmagan fazilatlari to'g'risida gapiraverish, o'z xalqini boshqalarga qarama - qarshi qilib qo'yish, boshqa xalqni mensimaslik ruhini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, nemislarning dunyoda oliy irqi haqidagi aqidalari bunga misol bo'la oladi. Respublikamiz hududida yashovchi har bir millatning o'ziga xos madaniyati mavjud bo'lib, bu madaniyat milliylik xususiyatiga egadir. O'zbek oilalarida milliy o'ziga xoslikni xulq - atvor, shaxsiy sifatlar, hattoki, uy qurilishi, oziq-ovqat va oilaviy munosabatlarda aks etishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Misol uchun nonga munosabatni olib qaraylik. Non bu tirikchilik mazmuni, hayot manbai, shu bilan birga, dasturxonimiz ko'rkidir. Shu bois ajdodlarimiz nonni muqaddas deb bilganlar va u haqda qo'shiqlar, dostonlar to'qiganlar. Yerda yotgan bir burda nonni darhol qo'lga olib, ko'zimizga surtishimiz, ehtiyotlab, pokiza joyga qo'yishimiz nonga bo'lgan buyuk muhabbatimiz va e'tiqodimiz, ongimizga singdirilgan tarbiyaviy ta'sir mahsulidir. Non bilan bog'liq milliy udumlar ham bobolarimizning behad donishmandligidan dalolat beradi. Zero, xalq nazarida nonni e'zozlash or - nomus, vijdon, iymondan boshlanadi. Inson xulqi va xatti - harakatini tartibga solish va boshqarishda ijtimoiy odatlar alohida ahamiyatga molik. Axloq, xulq namunalari muttasil takrorlanishi natijasida odamning sezgi a'zolarida mustahkamlanib odatga aylanib boradi. Milliy urf - odatlar shaxs xulqini tartibga solishga xizmat qiladi va ular ongini ortiqcha zo'riqishlardan xoli etib, insonning istak va maqsadlari mushtarakligini ta'minlaydi. Bola hali milliy urf-odat va an'analarni o'zlashtirmaganiga qaramay, unga ta'sir eta oladi. Inson odatlarni to'liq o'zlashtirib olganidan so'ng uning ichki boshqaruv funksiyasiga aylanadi. Urf - odatlar, an'analar ijtimoiy psixologik holat sifatida inson ideallari, didi, ehtiyojlari va dunyoqarashini, ishonch va e'tiqodini, shaxs faolligini belgilaydi. Masalan, qadimdan uzoq safarga otlanganda «sening sha'ningga gard yuqtirmay qaytayin» degan ma'noda ostonaga o'pilib, uning gardi ko'zga surtilgan. Safardan qaytganda ham ostonaga hurmati bajo keltirilgan. Oilada voyaga yetayotgan farzandlar kattalarning bu xatti-harakatlarini to'liq anglab yyetmasalar ham kuzatib borganlar, asta - sekin uning mohiyatini tushuna boshlagan. Bola ostonaning muqaddasligi, uning sha'ni, oila, mahalla, qarindosh - urug'larning obro'si ekanligi ko'cha - kuyda, do'stlar orasida, xizmatda va mehmonda bo'lganda ham ijtimoiy odatlarga amal qilish kerakligi, shu an'analar ta'sirida uning ba'zi xulqiy xislatlari shakllanib

borayotganligini anglay boradilar. Har bir harakat va faoliyatga undovchi kuch bu-motiv hisoblanadi. Ehtiyoj harakatga undovchi anglangan motiv vazifasini bajarishi mumkin. An'analar tarkibidagi odatni ado etish jarayonida shaxsning ma'naviy ehtiyojini milliy urf-odat va an'analar vujudga keltiradi. U yoki bu urf - odat va an'anani bajarish uchun shaxsda unga nisbatan qiziqish tuyg'usi paydo bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida uning xulqini ma'lum qoidalar asosida tartibga solib turadi. Ehtiyoj bilan uzviy bog'liq bo'lgan motivlar uni harakat qilishga undaydi. Masalan, milliy urf - odat hisoblanmish hasharni olib qaraylik. Ko'pchilik, umumiyat bilan bajarilgan hamkorlikdagi mehnat qatnashchilarda hamisha jo'shqinlik, xush kayfiyat, o'z kuchiga ishonch tuyg'usini uyg'otadi. Bu esa o'z navbatida mehnat mahsulini mukammal, puxta, chidamli bo'lishini ta'minlaydi. Hasharda shaxslararo munosabatning tub mohiyati ifodalanishi tufayli norasmiy liderlar paydo bo'lib, kimdir maslahatchi rolini bajaradi, kimdir uni boshqaradi, yana kimdir o'zining nimaga qodirligini namoyish qilishga intiladi. Umumiyat bilan ijro etilgan faoliyat mahsulining sifati yuksak bo'ladi. Hasharda qatnashish orqali shaxslarning bir - biri bilan muomala va muloqotda bo'lish ehtiyoji qondiriladiki, bunday ruhiy holatlar hazil - mutoyiba, olqish - duo va ma'qullash shaklida amalga oshiriladi. Ularning hayotiyligi, ruhiy taskin bera olishi, ishtirokchiga nisbatan psixologik ta'sir o'tkazishning eng o'tkir, o'zbek milliy urf - odatlarimizda (uyatning sodda ko'rinishlari) dasturxonga kattalardan oldin qo'l uzatish, kattalar yoki mehmonlarning gapini bo'lish, voyaga yetgan qizning o'z otasiga tik boqishi kabi holatlar uyat hisoblanadi. Uyat u yoki bu xatti - harakatni nazorat etib turuvchi yuksak tuyg'udir. Muayyan urf - odat tusini olgan biror qoidadan chetga chiqish odamda ana shu tuyg'uni darhol ishga soladi, natijada regulyativ funktsiya faoliyat ko'rsata boshlaydi. Shunday qilib, uyat o'zining noo'rin xatti-harakatini anglab o'kinish, unga hijolat bo'lish hissi; andisha, nomus, xijolat tortish tuyg'ularini anglatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-јилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Aminjonova I E. “Qadimiy yodgorliklar qissasi”. Т. 1968.

8. Ashirov A. Atadjanov Sh. "Etnologiya". T. 2007 y.
9. Ashirov A. «O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari». T. 2007 y.
10. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-T.: "INNOVATSIYA - ZIYO", 2019 yil.

## **12-mavzu: Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash.**

### **Reja:**

1. Milliy o'zlikni anglash.
2. Millatlararo totuvlik g'oyasi.
3. Milliy o'z -o'zini anglash elementlari

Milliy o'zlikni anglash - har bir millat (elat)ning o'zini real mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchisi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushunib yetishlaridir.

Milliy o'z-o'zini anglash, millat shakllanishi muayyan, ijobiy, yuqori boshichining mezoni hisoblanadi. Millat o'ziga xos bo'lgan urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarni shakllantirishi va davlat atrofiga birlashish mumkin. Ammo uning millat darajasiga ko'tarilishi murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki u millat vakillari muayyan manfaatlaridan umummilliy manfaatlarni ustun qo'ya bilishlari bilan bog'liqdir.

Milliy o'z-o'zini anglash milliy ongdan farq qiladi. Milliy ong har millatning yagona tili, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari va ma'naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezoni hisoblanadi. O'z navbatida milliy ongning rivojlanib borishi har bir millatning o'z-o'zini anglash darajasiga ko'taradi.

Milliy ong millatning o'ziga xosligi asosida rivojlanib borishidagi ko'rsatkich bo'lsa millat manfaatlarini himoya qilishda harakatga keluvchi, ichki ma'naviy-ruhiy salohiyatdir.

Milliy o'z-o'zini anglash real kuch sifatida millat sha'ni, qadr-qimmatini, obro'-e'tibori, or-nomusi poymol etilganda yoki millatning moddiy va ma'naviy manfaatlariga zid, ikkinchi bir tomondan, zo'ravonlik harakatlari yuzaga kelgan hollarda namoyon bo'ladi. Ya'ni qadr-qimmatini, or-nomusi, obro'- e'tibori va manfaatlarini poymol etilgan millat vakillari qaysi lavozimda xizmat qilishi, boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'i nazar, yagona umummilliy kuch bo'lib birlashadilar hamda o'zligini himoya qiladilar. Shunday qilib, milliy o'z-o'zini anglash millat manfaatlarini himoya qiluvchi omil hisoblanadi. Bundan tashqari u faqat millat manfaatlarini himoya qilish bilan cheklanmaydi, shuningdek, millatni «harakatga» keltiradi va uni birlashtirib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda milliy o'z-o'zini anglash omili millatni birlashtiradi va uni umumiy maqsadlar sari harakatga keltiradi. U har qanday millat uchun yetakchi belgi hisoblanadi. U o'zining qudratli salohiyati bilan millat uchun uning zarur, asosiy o'ziga xos belgilari tizimida yetakchi o'rinni egallaydi.

Milliy o'z-o'zini anglash abadiyligini ta'minlashning ham muhim omilidir. Chunki bu salohiyat millatning o'ziga xosligini va manfaatlarini himoya qilib turadi. Milliy o'z-o'zini anglash u yoki bu millatni o'zga millatlardan ajralib ketishiga olib kelmaydi, balki o'zligini anglagan Millatlarning ma'rifatli hamkorligining mustahkamlanib borishiga yordam berib boraveradi.

Milliy o'z-o'zini anglash qanchalik mustahkam bo'lsa, uning o'z muammolarini hal qilish imkoniyati ham shunchalik kengayib boradi. Shuning uchun ham mustaqillik sharoitida o'zbek xalqining o'z-o'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'z-o'zini anglagan millatning milliy birligi ham mustahkam bo'ladi. Milliy birlik, o'z navbatida millat abadiyligining barqaror muhim sharti hisoblanadi.

Milliy o'z-o'zini anglash anglash masalasini sobiq mustabid sho'rolar tuzumi sharoitida o'rganishga yo'l qo'yilmagan. Chunki uni o'rganish millatlararo norozilikni keltirib chiqarishi mumkin edi. Ammo bu millatlarning o'z-o'zini anglash jarayonini to'xtata olmadi. Aksincha, u zimdan shakllanib, rivojlanib boraverdi va oxir-oqibatda tuzumning yemirilishini tezlashtirdi.

Bugungi kunda o'zbek millatining o'z-o'zini anglashi jadal sur'atlarda o'sib bormoqda va buning natijasida milliy tiklanishimiz, millat sifatida jahon sivilizatsiyasida munosib o'rnimizni egallash imkoniyatlarimiz kengaymoqda.

Milliy o'zlikni anglash millat birligining mustahkamligini, millat manfaatlarining, shaxs, mahalliychilik manfaatlaridan ustun turishini anglash darajasi bilan bog'liqdir.

Milliy o'zlikni anglash real hayotda millat sha'ni, qadr- qimmat, obro'-e'tibori poymol etilgan»da yoki millatning manfaatlariga nisbatan ikkinchi bir tomondan zo'ravonlik harakatlari boshlanib ketgan holatlarda yanada kuchli va yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday holatda, millatning barcha vakillari qaysi lavozimda xizmat qilishi, qaysi darajada boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar o'zaro birlashib ketadilar va millatning manfaatlarini himoya qiladilar.

Milliy o'zlikni anglash millatning til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, yagonaligi, ma'naviyatdagi o'ziga xosligidan iborat belgilari kabi millatning mustaqil belgisi hisoblanadi. Milliy o'zlikni anglash millatning mustahkam belgisi ekanligi — milliy manfaatlar, extiyojlar umumiyiligini himoya qilish va milliy taraqqiyotga erishish va uning jahon taraqqiyotidagi o'rnini mustahkamlash zaruriyatini anglash bilan belgilanadi.

Milliy o'zlikni anglash omilining qudrati quyidagi sharoitlarda ko'proq namoyon bo'ladi:

**Birinchi**dan, agar milliy o'zlikni anglash rivojlangan bo'lsa, yuqorida qayd yetganimizdek, millatning manfaatlariga, ayniqsa, qadr qimmat, obro'-e'tibori, g'ururi poymol etilishiga qaratilgan harakatlar yuzaga kelgan sharoitlarda, millatning barcha vakillari birlashib ketadilar, hatto millatning ichida o'zaro muxolifatda bo'lgan tomonlar ham millatning sha'ni, g'ururi, obro'- e'tiborini himoya qilish manfaati yo'lida birlashadilar.

**Ikkinchidan,** milliy o'zlikni anglash ruhiy, his-hayajon, ehtiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Millatning xatti-harakatlarida, intilishlarida va maqsadlarini amalga oshirishlaridagi salohiyati orqali bilib olish mumkin bo'ladi.

Ruhiy xis-hayajon va ehtirolarning «portlashi» millatning xarakteri, xususiyatlari, milliy g'oyalarni yaratuvchi, uning taraqqiyotida oldingi safda turuvchi ziyolilarning salohiyatiga bog'liq.

**Uchinchidan,** milliy o'zlikni anglash omili faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida, uning oldida yuzaga keladigan ichki muammolarni hal qilish hamda millatni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi.

Milliy o'zlikni anglash jarayonida insonlarda milliy g'urur tuyg'usi ham rivojlanib yuksaklikka intiladi. Milliy g'urur— har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyat. Bu tuyg'u o'z ona zamini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy-ma'naviy merosdan o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan xissalaridan o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tibori bilan faxrlanish xissiyotidir.

Milliy g'urur millatining chinakam fidoyisi bo'lgan har bir insonga xos bo'lgan ichki ruhiy tuyg'udir. O'z millatini sevadigan har bir inson, uning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanadi, uning muammolariga befarq qarab tura olmaydi. Milliy g'ururi yuksak inson, o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'ladi, uning muvaffaqiyatlaridan ich-ichidan faxrlanadi, quvonadi. Milliy g'urur har insonda o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini o'zlashtirish, urf-odatlarini, an'analar, qadriyatlarini, tarixini mukammal bilish va uni o'zga millatlar bilan qiyoslash natijasida shakllanadi hamda unda o'z millatiga mehr-muhabbatini oshirib boradi.

O'z millatining ma'naviy merosi, qadriyatlarini, urf-odatlarini, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishdagi yutuqlarining o'zga millat vakillari tomonidan e'tirof etilishi, uning boshqa millatlar tomonidan takrorlanmaydigan o'ziga xos xususiyatlariga yuksak baho berilishi, ana shu millat vakili bo'lgan insonda o'z millatidan faxrlanish tuyg'ulari yuksak darajada namoyon bo'ladi.

**Millatlararo totuvlik g'oyasi** - umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Yer yuzida 6 milliarddan ziyod aholi mavjud. O'zbekiston hududida esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda.

Millatlararo totuvlik tushunchasini to'laroq, kengroq izohlashdan avval "millat" so'zini tushunib olishimiz darkor.

Millat(lotin. *natio* — millat) til, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash ruhiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan, shuningdek, odatda o'z davlatiga ega bo'lgan hamda mustaqil subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi kishilarning ijtimoiy barqaror birligi.

Millat ma'lum hududda turgun yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib, kishilarning ma'naviy-ruhiy salohiyati yagonaligi asosida shakllanadi. U faqatgina «kapitalistik jamiyatning muqarrar mahsuli» emas, balki insoniyat dunyoga kelishi va taraqqiyotining mahsulidir.

Millatning shakllanishi va rivojlanishida moddiy omillar muxim ahamiyatga ega bo'ladi, ammo ular millat abadiyligini ta'minlashning so'nggi imkoniyati emas. Ular millat taraqqiyoti uchun zarur shart hisoblanadi. Millatning abadiyligini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy omili — uning ichki ma'naviy-ruhiy salohiyatidir.

Millat insoniyat mavjudligi sharoitida hech qachon o'lmaydi, o'zga millatlar bilan o'zaro qo'shib ham ketmaydi, balki takomillashib, rivojlanib borish asosida o'zining ichki ruhiy salohiyatida mavjud bo'lgan yangi qirralarni namoyon qilib boradi. Milliy taraqqiyot zaminida uning jahondagi ko'plab millatlar uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan turli sohalardagi o'ziga xoslik asosida umummilliy va umuminsoniy salohiyat shakllanib, rivojlanib boradi.

Millatlarning ichki ruhiy salohiyati, yaratuvchilik qobiliyati, matonati, tinimsiz mexnati, tadbirkorligi va o'ziga xosligini rivojlantirish asosida zamonaviy sivilizatsiya yuzaga kelgan. Mutaxassislarining hisoblashlaricha, Yer yuzida uch mingga yaqin millat mavjud. Ular insoniyatning o'rta hisobda 96 foizini birlashtiradi, qolgan to'rt foizni elat va qabilalar tashkil qiladi. Har bir millatning tarkibiga kiruvchilarning soni bir necha o'n mingdan bir necha milliongacha borib yetadi.

Millatlarni faqat son jihatdan guruhlariga ajratish mumkin. Ammo ularning xususiyatlari, jahonda tutgan o'rinlari jihatidan «buyuk» yoki «kichik» guruhlariga ajratib bo'lmaydi. Chunki son jihatdan eng kichik millatdan jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga ulkan xissa qo'shadigan insonlar chiqib, ular o'z millatini yuksaklik darajasiga olib chiqishi mumkin. Son jihatidan kichik bo'lgan millatning o'z hududlari butunligini, huquqini ta'minlashga yoki ma'naviy boyliklarini himoya qilishga qaratilgan harakatlari butun jahonni larzaga solishi mumkin. Milliy rivojlanishda, tarixiy tajribaning ko'rsatishicha, jahonda va ko'p millatli mamlakatda sodir bo'layotgan juda ko'plab mojarolar, ular oqibatida yuzaga kelayotgan beqarorlik, iqtisodiy va ma'naviy tanazzullar, aynan millatlararo munosabatlarga borib taqalmoqda. Ya'ni qayerda u yoki bu millat huquqlari poymol etilar ekan, albatta, bu mamlakat taraqqiyotini izdan chiqarishi muqarrar. Sobiq Ittifoqning ich-ichidan yemirilishi va oxir-oqibatda yo'q bo'lib ketishini tezlashtirgan eng qudratli omillardan biri ham «mayda» millatlarga nisbatan amalga oshirilgan buyuk millatchilik shovinizmi siyosati edi.

Jahonda va ko'p millatlar yashayotgan mamlakatlarda barqarorlikni ta'minlashni va taraqqiyotga erishishning muhim shartlariga, birinchidan, millatlarning teng huquqliligini amaliy jihatdan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, u yoki bu millat u hatto son jihatdan juda kichik bo'lmasin, ularga «katta» millatlar tomonidan kam sonli millatning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarining hurmat qilish kabilar kiradi.



Millat inson kabi muqaddasdir. Uning ichki ma'naviy ruhiy salohiyati, or-nomus, qadr-qimmat, g'urur va iftixor kabi ulug' tuyg'ularni mustahkamlaydi hamda himoya qiladi.

O'z navbatida millat taraqqiyoti ikki asosga:

**Birinchi**dan, o'z zaminlari, imkoniyatlari va salohiyatlariga;

**Ikkinchi**dan, turli millatlar bilan bo'ladigan o'zaro hamkorlik va o'zaro yordam kabilarga tayanadi.

Har bir millat imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning muqaddasligini e'tirof etish va huquqlarini ta'minlash umummilliy taraqqiyotning asosiy sharti hisoblanadi.

Har bir millat yaratganning mo'jizasidir. Jahon dinlarining muqaddas kitoblarida qayd etilishicha, Olloh asli insonni bir ota, bir onadan yaratgan, lekin ular bir-biri bilan muloqot qilishi, tanishishi uchun millatlarga bo'lib qo'ygan. Davlatlar bu borada ko'pmillatli (polietnik) va birmillatli (monoetnik) tarkibga ega bo'lib, har biri o'ziga xosligi bilan bir-biridan farq qilad. Har bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. Umumiy qadriyat va xususiy manfaatlar bir-biriga zid kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jahonda vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog'liqdir. Xalqimizning «qo'shning tinch - sen tinch» degan maqolida ana shu haqiqat nazarda tutilgan. Bugun dunyoda, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan etnoslar orasida tinchlik osoyishtalik barqarorlik hamkorlik hamjihatlik teng huquqli munosabat bo'lmasa, ulardan hech biri o'zining porloq istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Shu bilan birga, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlash juda murakkab masala ekanini ham anglamog'imiz darkor. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Bu g'oya - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya - har bir millat vakilining istedodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi bilan xalqimizni o'z-o'zini anglashi qonuniy qiyofasiga aylandi. Albatta, bu masala bilan yaqin o'tmishda ham shug'ullanishgan. Bu izohlarni ikkiga ajratish mumkin:

1. Milliy o'z-o'zini anglash bu individning o'z millatini anglashidir. Milliy o'z-o'zini anglash shaxsning o'z millatiga bo'lgan munosabatidir, - deb yozadi

V.I.Kozlov, - milliy o'z - o'zini anglashni o'z millatini anglashga qaratilgan hodisa deb shuning uchun aytish kerakki, milliy o'z - o'zini anglash bu etnik kelib chiqishning uyg'unligi haqidagi tasavvurlar, tug'ilgan ona yeriga, o'z tiliga, madaniyatiga mansubligidir. 2. Ikkinchi xil izohlashlarda birinchi izohga nisbatan o'zgarishlar mavjud, ya'ni milliy o'z - o'zini anglash ikki tomonga ega bo'lgan bir butun jarayon sifatida qaraladi. Ushbu pozitsiyada turgan olimlar quyidagicha fikr bildirishadi. Millat o'z mohiyatini boshqa bir millatning sifat xususiyati bilan taqqoslab o'zligini anglaydi. Milliy o'z o'zini anglash boshqalar bilan bo'ladigan munosabatda taqqoslash natijasida ro'yobga chiqadi. Haqiqatan ham o'z sifat xususiyatlarini taqqoslash, solishtirish natijasida ajrata olish mumkin. Ta'rif: milliy o'z - o'zini anglash individ guruh, jamoani shunday xususiyat yig'indisidirki, bu yig'indi boshqa ijtimoiy etnik guruh, jamoa va ularning vakillari bilan birga muloqot jarayonida taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni idrok qilishga asoslanadi. Milliy o'z o'zini anglash doimo baholi munosabatni nazarda tutadi. Milliy o'z - o'zini anglash jarayonida o'z millatini bilish va xususiyatlarini anglash bilan birgalikda boshqa millatning ham xususiyatlari anglab boriladi. Natijada biz boshqa bir millatni ham anglab boramiz. Ayrim tadqiqotlarda munosabat va muloqotlar taqqoslash natijasida faqat millatlar o'rtasidagi farqlar idrok qilingan, degan fikr bidiriladi. Asosiy e'tibor shunga qaratiladiki, o'xshash tomonlar e'tibordan chetda qoladi, bunday yondashuv oqibatida etnotsentrizm kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, rus olimi Knyazev shunday yozadi: «Milliy o'z - o'zini anglash bu millatni bir butun yagona birikma deb anglash va boshqa bir millatlardan o'z millatini ajrata bilishdir». Hozirgi kunda rus psixologlari tomonidan o'xshashlik va farqlarni idrok qilish muammosi ishlanmoqda. Milliy o'z - o'zini anglash ikki darajada mavjud bo'lishi mumkin: 1) shaxs darajasida; 2)ijtimoiy etnik guruh yoki jamoa darajasida. Shaxs darajasida milliy o'z - o'zini anglash xarakterga ega bo'lsa, jamoa darajasidagi milliy o'z - o'zini anglashlar aynan bir xil narsa deb tushunish xato. Ammo ularni 2 xil hodisa deb tushunish ham to'g'ri emas. Chunki bu ikkinchi darajadagi milliy o'z - o'zini anglashsiz jamoa bo'lmaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy o'z - o'zini anglashga nisbatan mustaqillik, shaxs darajasidagi milliy o'z - o'zini anglashga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Professor E.G'oziev milliy o'z - o'zini anglashga quyidagicha ta'rif beradi: «Milliy o'z - o'zini anglash – muayyan xalqning u yoki bu ijtimoiy guruhga mansubligida, makroiijtimoiy munosabatlarda o'z millati egallagan mavqeini aniq tasavvur qilganligida, milliy manfaatdorligida o'z ifodasini topishdir. Milliy o'z - o'zini anglashda oilaviy ta'sirning (turmush tarzi, ota - ona nufuzi - obro'si, shaxslararo munosabat maromi), milliy til muhiti, milliy madaniyatga qiziqish, turmushdagi qarindosh -urug'chilik rishtasining roli benihoyat kattadir. Milliy o'z - o'zini anglashning obyektiv (tarixiy taraqqiyot, tabiiy omillar) va subyektiv (o'sha millatning ayrim namoyandasining ta'siridagi o'zgarishlar) omillari mavjud. Mazkur omillarning asta - sekin yetilishi o'z - o'zini anglash jarayonini jadallashtiradi». Milliy o'z-o'zini anglashning vujudga kelishi va rivojlanishidagi shart - sharoitlar. Kapitalizm davrida feodal tarqoqlikni

tugatilishi, mamlakat va viloyatlar o'rtasidagi ayriboshlashning kuchayishi, tovar mahsulotlarining o'sishi, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga olib keldi. Iqtisodiy turmush birligi asosida til va udum birligining paydo bo'lishi asosiy belgilardan hisoblanadi. Millatning tarixiy taraqqiyot xususiyatlari uning iqtisodiy tuzilishi, odat va anoanalari, turmush tarzi uning maonaviy qiyofasiga ta'sir etadi. U yoki bu millatga mansub bo'lgan kishilarning o'ziga xos psixologiyasi, milliy tili va madaniyati bilan birgalikda milliy o'z - o'zini anglash ham tarkib topadi. Ayrim hollarda etnik o'z - o'zini anglashga milliy o'z - o'zini anglashni qarama qarshi qo'yish hollari ham uchrab turadi. Natijada milliy o'z - o'zini anglashni etnik o'z - o'zini anglashdan ajratib qoladi. Bu fikr noto'g'ri, albatta. Millat o'zini boshqa millat bilan taqqoslash natijasida o'z mohiyati, milliyligini anglab boradi. Milliy o'z - o'zini anglashning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonida shaxs ma'lum bir darajadagi intellekt va aql zakovatga ega bo'lishi kerak. Aks holda fikrlar mantiqqa zid bo'ladi. Milliy o'z - o'zini anglashni vujudga kelishi uchun millatlar o'rtasidagi farqli va o'xshash belgilarining mavjudligi asos bo'ladi. Shunday qilib, etnopsixologiyaning markaziy tushunchalaridan biri milliy o'z - o'zini anglash bo'lib, hozirgi sharoitda eng ko'p qo'llaniladigan kategoriyalardan hisoblanadi. «Mustaqillik» lug'atida shunday yoziladi: «Har bir millat (elat)ning o'zini haqiqiy mavjud subyekt, muayyan moddiy va maonaviy boyliklari, yagona til, urf-odatlar, anoanalar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushunib yetishi milliy o'z-o'zini anglash deyiladi. Milliy o'z - o'zini anglashni tashkil etuvchi strukturaviy elementlar nimalardan iboratligi, qanday tuzilishga ega ekanligi ilmiy adabiyotlarda yetarli yoritilgan emas. Milliy o'z - o'zini anglash elementlariga adekvat bo'lgan indekatorlarni qidirib topish ancha murakkabdir, bir millatning ichida ham bu ishni bajarish qiyin. Milliy o'z - o'zini anglash elementlarida ro'y beruvchi narsa indekator deyiladi. Shunday bo'lsada, milliy o'z- o'zini anglash elementlarini tahlil qilishga oid izlanishlar Yu.V.Bromley, A.A.Kojanov, N.M.Drobejova kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ularning fikrlariga asoslanib turib, milliy o'z - o'zini anglashning elementini shunday ta'riflash mumkin, bular: Birinchi: milliy identifikatsiya; Ikkinchi: millatning moddiy va maonaviy boyliklar, qadriyatlar, anoanalarga munosabat; Uchinchi: milliy manfaat. Bu elementlarni deyarli hammasi amalda u yoki bu darajada sezgilar, hayo, tuyg'u, kayfiyat, idrok, ustanovkalar bilan bog'liqdir. Milliy identifikatsiya bu o'z millatiga mansublikni anglash, tushunish bo'lib, unga tarixiy o'tmishni etnik kelib chiqishidagi umumiyliklar, davlat va hududiy umumiyliklar haqidagi, ona yer, Vatan, til va milliy madaniyat to'g'risidagi, urf - odatlar, an'ana va marosimlar, ma'naviy boyliklar haqidagi tasavvurlar, tushunchalar, mulohazalar avtosterotiplar kiradi. Milliy identifikatsiya o'z ishi, etnik jamoasining belgi va xususiyat sifatlarini anglash, tushunib yetish, umumlashtirishning mujassamlashgan yig'indisidir. Milliy identifikatsiya turli xalqlarda bir vaqtning o'zida turli xil darajada namoyon bo'ladi. Milliy o'z-o'zini anglashning ijtimoiy psixologik funktsiyalari. Taqqoslash jarayoni milliy o'z - o'zini anglashning eng muhim operatsiyasi hisoblanadi. Taqqoslashda obyektlar

o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar o'zaro solishtiriladi. Taqqoslash o'zaro solishtirilayotgan obyektlarning mohiyat mazmunini anglashga qaratilgan jarayondir. Mashhur rus psixologi I.S.Kon milliy o'z - o'zini anglash ongli yoki ongsiz holda o'z belgi xususiyatlarini birovning belgi xususiyatlari bilan taqqoslashdir, degan fikr bildiradi. Milliy o'z - o'zini anglashning ijtimoiy funksiyalari millat hayoti, milliy munosabatlarda o'ziga xos rol o'ynaydi. Milliy o'z - o'zini anglashning asosan 3ta funksiyasi mavjud:

1. Anglash va moslashish funksiyasi.

2. Himoya funksiyasi.

3. Nazorat funksiyasi. Moslashish funksiyasi shaxs yoki individning milliy o'ziga xos hayot va faoliyatga moslashishida namoyon bo'ladi. Shaxs oiladagi tarbiya, maktabdagi o'quv faoliyati jarayonida nafaqat ta'lim - tarbiyani o'rganadi, shu bilan birgalikda tarixiy o'tmishda yuzaga kelgan qadriyatlarni ham o'rganib, unga moslashib boradi. Individ milliy xususiyatga ega bo'lgan urf odatlar, an'analarni, ma'naviy va madaniy boyliklar, malaka va ko'nikmalar, milliy qadriyatlarni o'z hayoti faoliyati davomida anglab, rivojlanib, ularga moslashib boradi. Ushbu funktsiya millat jipsligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, avlodan-avlodga o'tib keladigan milliy belgi va xususiyatlar, urf - odatlar, ko'nikma va malakalarni kuzatishni ham ta'minlaydi. Himoya funksiyasi: milliy qadriyatlar, ma'naviy va moddiy qadriyatlar, erishilgan madaniy va ilmiy yutuqlar millatning o'tmish davrida vujudga kelgan anoana va marosimlarga, umuman, millatning fan, madaniyat, din, sanoat, odob, axloq sohasidagi yutuqlarga ma'lum darajada zarar yetkazilib, ularning yo'qolib ketish xavfi tug'ilganda ma'lum bir ijtimoiy psixologik qarshiliklar sifatida yuzaga chiqadi. Milliy g'urur kamsitilganda ham milliy rivojlanish ehtiyojlari, manfaatlari milliy qadriyatlar, ma'naviy va madaniy boyliklarning kamsitilishi yoki yo'qolib ketishi natijasida ushbu funktsiya ishga tushadi. Bu himoya asosida demografik o'z - o'zini hurmat qilish sezgisi yotadi. Adolatlilik, teng huquqlilik tamoyillari funktsiya negizini tashkil etadi. Bu funktsiya xavf - xatar vujudga kelganda yuzaga chiqadi. O'z - o'zini anglashning nazorat funksiyasi. Milliy o'z-o'zini anglashning bu funktsiyasi millatparvarlik hodisasi millatchilikka aylanib kyetmasligi, milliy manfaatlar boshqa bir millatning manfaatlarini poymol qilmasligi, jamiyatda millatchilik yuzaga kelmasligini nazorat qiladi. Milliy munosabatlarda janjal va nizolarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik bu funktsiyaning bosh vazifasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.

4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Aminjonova I E. “Qadimiy yodgorliklar qissasi”. Т. 1968.
8. Ashirov A. Atadjanov Sh. “Etnologiya”. Т. 2007 у.
9. Ashirov A. «O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari». Т. 2007 у.
10. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-Т.: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.

### **13-Mavzu: Ekologik ong va etnomadaniyat**

#### **Reja:**

1. Ekologik ong va ekologik madaniyatning asosiy vazifasi.
2. Jamiyatdagi ekologik muammolar.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan insonlarning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri o'sib boradi. Inson tabiat bilan, ya'ni o'simliklar hamda hayvonot dunyosi hamda yer osti va yer usti boyliklari bilan o'zaro muloqotda bo'ladi.

Ekologik muammolar kengayib, ularni hal etish dolzarb vazifa bo'lib qolgan hozirgi davrda bu muammolarni hal qilishda insoniyat uchun asosan ekologik ong va ekologik madaniyatning o'rni beqiyosdir.

Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat ma'lum bir qonunlar orqali boshqariladi, ularga rioya qilmaslik ertami kechmi, albatta ekologik halokatga olib keladi. Bu muammo o'zining insoniyatga keltirayotgan va keltirishi mumkin bo'lgan fojiali oqibatlari jihatidan yadro urushi halokatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Albatta, ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijasida, turli soha ilm va texnologiyalarining taraqqiyoti, yangi energiya manbalari va kimyoviy moddalarning paydo bo'lishi, tabiiy resurslardan yovuzlarcha foydalanish natijasida havo, suv ifloslanadi, insoniyatni boquvchi yer yaroqsiz holga kelib, oqibatda uni yashash muhitidan mahrum etadi.

Hozirgi davrda insoniyat, u qanday xavf qarshisida kelib qolganligini tushunib yetdi, atrof-muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi.

Inson faoliyatining natijasida atrof muhitga ancha sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bular asosan hozirgi kunda mavjud bo'lgan ekologik xavfsizlik klassifikatsiyasida bo'lgan: umumsayyoraviy, mintaqaviy, milliy, lokal ekologik xavfsizliklar mamlakatimiz hududini ham chetlab o'tmadi. Bu xavflardan ozon qatlami muammolari, ya'ni yemirilishi, iqlimning o'zgarishi, cho'llanish, toza ichimlik suvi tanqisligi, Orol dengizi muammosi, hayvonot va o'simlik dunyosi turlarining qisharib borishi, o'simlik dunyosining noqonuniy kesilib borishi, yer degradatsiyasi, suv resurslari tanqisligi, atmosfera ifloslanishi shular jumlasidandir.

Ekologik fojialarning bu darajadagi jadallashib borishida ekologik ong va ekologik madaniyat alohida o'rin tutadi.

Ekologik ong va ekologik madaniyatning asosiy vazifasi xalqimiz ekologik madaniyatini oshirish orqali huquqiy fuqarolik jamiyati tamoyillari asosida tabiatdan foydalanishni yo'lga qo'yish, tabiatni muhofaza qilish sohasida Davlat nazorati bilan bir qatorda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xalqimiz ongi va madaniyatida ona Vatanimiz tabiatiga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish, uni asrab-avaylash va kelgusi avlod uchun zarur hayotiy sharoitlar qoldirishimiz kerakligini ko'rsatishdir.

Davlatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshdan kechirayotgan hozirgi kunda ko'p sarmoya talab qiladigan ekologik tadbirlarni o'tkazish qiyindir. Lekin xalqimiz eng avvalo yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik, ongida millatimiz va davlatimiz rivojiga xavf solib turgan hodisalarga, shu jumladan, ekologik xavfga ham, faqat ularni bilishi va sodiqligi, tadbirkorligi va mas'uliyatligi bilan javob bera olishi hamda xavfni bartaraf etish mumkinligini singdira olishimiz, shu jumladan, ekologik ong va madaniyatni yo'lga qo'yish orqali kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan ko'p ofatlarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Inson tabiatning bir bo'lagi bo'lgan holda u bilan bo'lgan munosabat orqali ekologik madaniyat shakllana borishi tufayli tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishda uni boshqarish uchun tabiat qonunlarini kashf qilib kelgan. Ammo inson o'zining tabiatga ta'siri orqali undagi muvozanatni buzdi va tabiat hodisalarining davriy muvozanatini izdan chiqardi.

Xalqimizda bir maqol bor: «Buloq suvi qurimaguncha inson uning qadriga yetmaydi». Darhaqiqat, necha asrlar davomida inson o'zining taraqqiyoti jarayoni bilan birga ekologiya inqirozi jarayonini tezlashtirdi. Bir so'z bilan aytganda, ekologik muammolar aksariyat hollarda insoniyat ta'siri ostida vujudga kelar ekan. O'zbekistonda hozirgi kunda azaldan yig'ilib kelgan maishiy va ishlab chiqarish chiqindilari 1 milliard 400 million tonnadan oshib ketdi.

Ijtimoiy ongning o'zgarishi, qadriyatlarga nisbatan munosabatlarning ekologik yo'nalishdagi ma'naviy madaniyatning rivojlanishi, sayyoramiz hayotiga yangicha qarashning shakllanishi uzoq yillar davomida va qiyin kechadigan jarayon bo'lib, bu o'rinda ekologik madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda, ekologik ong va dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda bir qator yutuqlarga erishilayotgan bir vaqtda ushbu sohani singdirishda muhim o'rin tutadigan maktab tarbiyasiga, o'rta va oliy ta'lim muassasalariga e'tibor qaratishimiz lozim.

Ekologik bilimlar tashviqoti, aholini ekologik tarbiyalash va ularni o'qitish bo'yicha ishlar avj oldirilganligiga qaramay, Respublikamiz oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida atrof muhit muhofazasi, ya'ni ekologiya sohasida boshqa sohalar kabi Davlat noziri singari mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kunga qadar yo'lga qo'yilmagan. Ushbu soha uchun bu kabi mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun talabidir.

Bundan tashqari, insoniyat tarbiyasi uchun uning mahallasi ham alohida o'rin egallaydi. Mahallalar ham ushbu ishlarga jonbozlik ko'rsatishi lozim, deb o'ylayman.

Shuni tashvish bilan aytish mumkinki, har kuni bitta tur o'simlik yoki bitta hayvon turi yer yuzidan yo'qolib boryapti. 1983 yili hayvonlarning 63 turi va 1984 yil o'simliklarning 163 turi «Qizil kitob»ning birinchi nashriga kiritildi. Mana, oradan vaqt o'tib tabiat muhofazasiga munosabat o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 9 martdagi 190-sonli «Qizil kitobni yuritish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi.

1998 yil O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ning 1-jildi (O'simliklar qismi) nashr qilindi va bunda o'simliklarning 301 turi (163 tadan 301 taga oshgan) kiritilganligi qayd qilingan bo'lsa, 2006 yildagi yangi nashrida esa «Qizil kitob»ga kiritilgan o'simliklar turi 305-turni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich oshib bormoqda.

Inson o'z hayoti va faoliyati, shuningdek, barcha tirik mavjudot dunyosi - biosfera uchun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan miqyosdagi buzuvchanlik qudratiga ega bo'lgan, katta va kutilmagan salbiy o'zgarishlar, atrof-muhitga uzoqni o'ylamay qilingan munosabat, xatolar va yangi ishlarning hosilasi sifatida hozirgi yer yuzidagi vaziyat yuzaga keldi.

O'zbekistonda har bir kishi 1 sutkada 2-3 litr chuchuk suv ichadi. Gidrosferaning faqatgina 2,5 foizini chuchuk suv tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligining ayrim sohalaridagi suv sarfini qiyosiy hisoblab ko'rsak, 1 tonna bug'doy yetishtirish uchun 1,5 tonna, 1 tonna sholi uchun - 4-5 ming tonna, 1 tonna paxta yetishtirish uchun 10 ming tonna suv sarflanadi.

O'simlik dunyosi yer yuzidagi hayot muvozanatini ta'minlash va ijtimoiy hamda iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash uchun hayotiy zarur bo'lgan ekzotizmlar, turlar, genetik tiplar va ekologik jarayonlarning rang-barangligini saqlaydi, insonning hayotiy ehtiyojlari talablariga javob beradigan genetik xilma-xillik va turlarni himoya qiladi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o'rni faqatgina Davlat xizmati bilangina emas, balki jamoatchilik rolini oshirish bugungi demokratik, huquqiy davlat qurish yo'lidagi ekologik bilimlarni targ'ibot qilish, aholining ekologik saviyasini ko'tarish borasida bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay bu sohada bir qator kamchiliklar ham mavjud.

Insoniyat qadimgi zamonlardan oq tabiatning bir qismi ekanligini anglab, u o'zining harakatlari bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ongli ravishda boshqariladiganligini his qilib kelgan. Lekin insoniyat tabiatdan foydalanib uni qayta tiklanishiga e'tibor qaratilishini kech bo'lsada, tushunib yetdi. Insonlar madaniyati shakllanib rivojlana borar ekan, tabiat in'omlari bo'lmish o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini bir qanchasini madaniylashtirib, o'zlari uchun foydalanishni amalga oshirish jarayoni hozirda ham davom etayotgan jarayondir.

Atrof-muhit sofligi, uning rang-barangligi-yu xilma-xilligini saqlash, ekologik madaniyatni rivojlantirish va uni boshqarish asosan tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va uning joylardagi tashkilotlari faoliyatiga bog'liq bo'libgina

qolmay, joylardagi davlat hokimiyati organlarining ham burchidir. Ularning atrof-muhit muhofazasiga oid Qonun va hukumatimiz qarorlarini bajarishda ma'lum bir sustkashliklarga yo'l qo'yilmoqda. Sabab esa, qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qaysidir yillarda eqilgan daraxtlarni parvarishlash, ularning qurigan turlari o'rniga qayta ko'chat ekish yo'li bilan tiklash ishlari qoniqarli darajada emas. Chunki mahsulot hosildorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan ixotazorlarning zarurligini tasavvur etolmagan holda ayrim fermerlar tomonidan ixota daraxtzorlarini kesish hollari davom etmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilishda va tabiat resurslaridan oqilona foydalanishda hozirgi kunda qo'llanilayotgan iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, tabiatdan noto'g'ri foydalanganlarga tabiat solig'ini qo'llash hamda jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishni rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish kerak. Bu bilan respublikamizda ishlab chiqarishni va insonning tabiatga bo'lgan munosabatini tartibga solish imkoniyati tug'iladi.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlarining ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo'lgan farzandlik burchidir.

Amaliy jihatdan qaralganda Inson dialektika qonunlariga ko'ra paydo bo'lganidan boshlab ekologiya bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi va birligini noto'g'ri baholash tuzatib bo'lmas oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu jarayonni aynan keng ma'noda ekologiya o'rganadi. Ingliz olimi Julian Xaksl (1972) fikriga ko'ra bu bog'liqlik yerda hayot paydo bo'lgan - 2700 000 000 yil oldin boshlangan. Insonning tabiatga faol ta'siri esa Kichik Osiyoda 10000 yil oldin boshlangan yoki boshqacha qilib aytganda neolit davrida 375 avlod oldin boshlangan. Chex olimi Ya.Elinek (1982) ma'lumotlari bo'yicha Yaqin Sharqda eramizgacha bo'lgan VIII – VII ming yillarda aholining uyushib yashashi mavjud bo'lib suyakka ishlov berish texnikasi ancha takomillashgan edi. Lekin, V.S.Altunin va A.S.Shulyak (1991), insonning tabiiy muhitga faol ta'siri ancha erta – mezolit (eramizgacha 10-5 ming y.) davridan boshlangan deb qayd etishgan. Yaqin Sharqda ancha rivojlangan mezolit madaniyati 10500 yil oldin paydo bo'lgan.

Akademik B.A.Ribakov tahriri ostidagi arxeologik ma'lumotlar turkiy xalqlar tarixi eramizgacha bo'lgan X-VI ming yillardan boshlanishini ko'rsatadi. Unda mezolit davrida ular joylashgan yyerlarning tabiiy sharoiti xaritasi keltirilgan bo'lib, bugungi respublikamiz hududi sahro va yarim sahro mintaqasiga kiritilgan. E.D.Mamedov va G.N.Trofimov ma'lumotlari (1996 y.)ga ko'ra Lyavlyakonplyuvial (eramizgacha 7-4 ming yillar) davrida hozirgi sahro hududida boshqa iqlim hukmronlik qilgan. Amudaryo va Zarafshon daryolari oqimi hozirgiga nisbatan 2,5 marta ko'p bo'lgan. Keyinchalik antropogen omilning atrof-muhitga ta'siri kuchayib borgan. Eramizgacha bo'lgan VII (Avesto) asrda tabiat o'zgarishi shu darajaga yetganki, uni muhofaza qilish bo'yicha «Inson o'zini doimo ozoda



tutishi, tabiatni asrab avaylashi, havo, suv va zaminning pokligini ta'minlashi lozim» degan chaqiriqlar paydo bo'la boshladi. Tabiatning uch unsuri bo'lmish yer, suv va havo ekologiyada fundamental tushuncha bo'lgan «biogeotsenoz»ning tarkibiy qismlari hisoblanadi. «Ekotop» aynan shu elementlar - «klimatop» (havo), «gidrotop» (suv) va «edafatop» (tuproq) dan tashkil topgan (G.Yu.Valukonis, Sh.O.Muradov, 2001, 21- b.). Shu davrdan boshlab atrof-muhitda salbiy hodisalar kuzatilib, ekologik qonuniyatlarni o'rganish zaruriyati paydo bo'ldi.

Eramizgacha bo'lgan V asrda Suqrot (eramizgacha 469-399 yy.) ishlarida ham atrof-muhit haqidagi fikrlar paydo bo'ldi. Kimlardir unga «Afinaliklar seni o'linga hukm etdi» deyishganda u «Ularni esa tabiat o'linga hukm etgan» deb bemalol javob bergan edi (V.S.Nersenyants, 1996, 203-b.). Keyinchalik Gippokrat (eramizgacha 480-377-yy.) iqlim-milliy xarakter xususiyatlarini belgilaydi, deb ta'kidlagan paytda, qadimgi grek tarixchisi Gerodot jamiyat rivojlanishi tabiatga bog'liq degan fikrni bildirgan.

Fuqidid (eramizgacha 460-400 yy.), Ksenofont (eramizgacha 430-355 yy.) tabiiy omillarni shaharlar va iqtisodga ta'sir etishini aytishgan.

Angliyalik tarixchi va sotsiolog A.Toynbi (1889-1975) qadimgi grek faylasufi Platonning (Aflotun) (er.av. 427-347yy.) Gretsiya hududida insonlarning tajovuzkorona ta'siri ostida tuproqning ifloslanishi hamda qurib ketishi haqidagi fikrlarini aytgan. Platon shuningdek insonlar xarakteri geografik muhitga bog'liq deb ta'kidlaydi. (A.V.Losev, G.G.Provadkin, 1998 y. 40-b.). Aristotel (Arastu) (er.av. 384-322 yy.) ham xuddi shunday fikrda edi. Qadimgi grek olimlari K.Eratosfen (er.av. 276-194 yy.), Galen (er.av. 136-200 yy.), Polibiy (er.av. 200-120 yy.), Strabon (eram. 1 asr), rimlik Tit Lukretsiy Tatsit (er.av. 58-117 yy.) va boshqalar jamiyat rivojlanishida tabiiy omillar ahamiyatiga yuqori baho berishgan.

Markaziy Osiyoning buyuk allomalari Al-Xorazmiy (782-847), Al-Farg'oniy (Al-Fraganus) (IX a. bosh. 861 y.), Al-Forobiy (870-910), AbuRayhon Beruniy (973-1048), Ibn Sino (980-1037), Zahiriddin Bobur (1483-1530), Mirzo Ulug'bek (1394-1449) tabiat haqidagi fanlarga katta hissa qo'shganlar. Ular tabiat qonuniyatlarini, o'simliklar va hayvonot dunyosini har tomonlama o'rganib, atrofimizni o'rab turgan muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga chaqirganlar.

O'rta asrlarda ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626) jamiyatning ta'sir etishidan tabiiy muhitni saqlash vazifalarini qarab chiqqan edi. XVIII asr o'rtalarida taniqli tabiatshunos Karl Linneyning (1707-1778 y.) «Tabiat tizimi» nomli ajoyib asari e'lon qilinib, u o'simliklar va hayvonlarni ilmiy tizimlarga ajratishga asos bo'ldi. Fransuz naturalisti Jan Batist Lamark (1744-1829) organizmlarga muhitning ta'siri masalasini o'rganishni birinchilardan bo'lib o'rtaga tashladi. Shvetsiya olimlari Bengt Xultman va Erik Levli (2000) ingliz yozuvchisi, tabiatshunos Gilbert Uaytni ekologiya fanining asoschisi deb hisoblaydi (1720-1793). Uning «Qadimiy Zelburning tabiat tarixi» asari zamon ekologik harakatining dasturi deb hisoblanadi. Tabiat haqidagi fanlarning keyingi rivojini nemis olimi A.Gumboldt (1769-1859), rus zoologi va naturalist Karl Rule (1814-1858) va N.A.Severtsov ishlarida

kuzatishimiz mumkin. Amerikalik geograf-olim G.Marsh (1801-1882) birinchi bo'lib insonning tabiatga salbiy ta'siri haqida (1864) alohida kitob yozdi (X.T.Tursunov, T.U.Rahimova, 2006, 10-b.). Ch.Darvinning (1809-1882) evolyutsion ta'limoti, «Turlarning tabiiy yo'l bilan tanlanishdan kelib chiqishi» kitobi (1859) ekologiya fanining mustaqil fan sifatida yuzaga kelishiga katta hissa qo'shdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Aminjonova I E. “Qadimiy yodgorliklar qissasi”. Т. 1968.
8. Ashirov A. Atadjanov Sh. “Etnologiya”. Т. 2007 у.
9. Ashirov A. «O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari». Т. 2007 у.
10. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-Т.: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.

## **14-Mavzu: Yangilangan milliy o'z-o'zini anglash strukturasi etnomadaniy jarayonlar**

### **Reja:**

1. Yangilangan milliy o'z-o'zini anglash strukturasi.
2. Jamiyat taraqqiyotida milliy o'zlikni anglashning ahamiyati.

Har bir taraqqiy yetgan, madaniyatli xalqning o'z tili, urf-odati, adabiyoti, asori atiqalari, an'anaviy moddiy va ma'naviy boyliklari bo'ladi. O'zbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniyatga ega bo'lgan xalqlardan biri sifatida o'zining ma'naviy va moddiy hazinasiga ega. O'tmish avlodlarimizdan bizga qadimiy urf-odatlar, tantanalar, xalqona meros bo'lib avloddan-avlodga o'tib kelgan. bu bilan biz haqli ravishda faxrlansak arziydi. Buning uchun o'sha qadimiy madaniyatni, urf-odatni bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodlarga ham yetkazish muqaddas insoniy burchimizdir, shni unutmaslik kerakki, ming-ming yillar davomida shakllangan urf-odat, marosim, adabiyot, san'at muallaq xolda, o'zga xalqlardan bekitikcha paydo bo'lib rivojlanmagan. Aksincha, biz bilan qadimdan yonma-yon jon qo'shni sifatida hayot kechirib kelayotgan qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik va ozarbaydjon xalqlarning bevosita ishtiroki hamro'ligida yaratilgan taraqqiy

topgan. Hatto ja'onning ko'plab boshqa xalqlari vakillarining ham bu qadimiy madaniyatning shakllanishida muayyan xassilari bor. Har bir xalq ana shu udumlar, urf-odat, o'tmishga chuqur tomir otib ketgan o'q ildizlari bilan ja'on madaniyatida o'ziga xos o'rin tutadi.

Jamiyat taraqqiyotida urf-odatlarining o'rni.

Insoniyat jamiyati taraqqiyotida urf-odatlar bilan axloq-odob o'rtasidagi munosabat muxim ahamiyat kasb etadi. Insonning kundalik hayotida an'analar va urf-odatlar, jumladan to'y, aza va sunnat to'yi bilan bo'ladigan tantanalar katta o'rin egallaydi. Shuning uchun har bir kishi ana shu urf-odatlar taraqqiyotga nechog'liq zarurligini bilib olishi, shu urf-odatlar zamonaviy davr talablariga qanchalik mosligini o'qib olish va urf-odatlar boshqa xalqlar udumlaridan nechog'liq farq qilishini, eski udumlarni yashab kelishi sabablarini ilg'ab olish muximdir.

Urf-odatlarining tarkib topishidagi omillar.

Tarixan tarkib topgan milliy an'ana, urf-odat, rasm-rim, taomil, marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator omillar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. shunday omillardan biri turmush tarzidir. U yoki bu xalqning azaliy an'anasiga aylanib qolgan har bir marosim milliylik qobig'idan chiqib, umuminsoniy qadriyatga aylanadi; tili, dini, turmush tarzi bir-biriga yaqin bo'lgan qo'shni xalqlarni birlashtiradi.

Barcha xalqlarning urf-odatlari, an'ana va marosimlari muayyan tarixiy davrning mahsuli bo'lib, u turmush sharoitining ta'siri natijasida paydo bo'lgan; vaqt o'tgan sari ular tobora mustahkamlanib ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelgan. Xalqning "to'y" atamasi bilan yuritiladigan barcha an'analari, urf-odat va udumlari shahar va qishloq aholisining kundalik turmushiga singib ketgan bo'lib, xalqning ezgu istaklari hamda intilishlarini o'zida aks ettiradi.

Urf-odatlar tarixiy taraqqiyot mahsuli.

O'zbeklarning an'ana va marosimlariga jumladan barcha ma'naviyatimiz shaxobchalari ongning boshqa shakllariga qaraganda biroz konservativ ko'rinishga ega bo'lib, uning barcha turdagi yo'sinlari muqaddas sanalgan, shu bois ularning kishilar tomonidan o'zgartirilishi asrlar osha ajdodlardan asosan o'zgarimasdan o'tib kelgan. Shu jihatdan ham alohida ta'kidlamoq joizki, urf-odat, an'ana, marosim va udumlar uzoq vaqt davom yetgan tarixiy taraqqiyotning mahsulidir. Shuning uchun har bir xalqning turmushida uning o'ziga xos belgi va xususiyatlari mavjuddir. Lekin bu narsalar uzoq davr mobaynida vujudga keladi, davr o'tgan sari ularning ayrimlari turmush amaliyotidan tushib qoladi, ularning o'rniga yangilari paydo bo'ladi. Kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishi bilan ularning safi va sifati o'sib o'zgarib boradi.

Qadimgi ota bobolarimiz boshqa odatlar qatori ism qo'yish odatini ham tark etmaganlar. Ota-onalarning xizmati o'z farzandlariga munosib nomni topib qo'yishdan iboratdir. Udumga qo'ra avvallari ism tug'ilgan bolani qaysi urug'dan, qanday sulolaning nechanchi avlodi ekanligi, uning tavallud topgan vaqti, joyi, bola tanasidagi alohida belgilarga qarab kitob ko'rib qo'yilgan qishloq yoki

mahallaning keksa, o'qimishli, kishilari ism qo'yish huquqiga ega bo'lganlar. Avvalo ismlar xudo, payg'ambarlar nomlari asosida Rasul, Akbar, Nabi, Muhammad, singari atalgan. Ajdodlarimiz ismlaridan tashqari tahallus ham tanlashgan. tahallusda ko'proq tug'ilgan joylari aks yetgan. Zamon zayli bilan ismlar ham o'zgarib turadi. masalan so'nggi yillarda Alisher, Bobur, Ulug'bek, Oybek singari nomlar keng tarqaldi. Qizlar orasida esa Nargiza, Nodira, Gulchehra, Maftuna ismlarini uchratish mumkin. Egizaklar albatta Xasan-Xusan, Fotima-Zuhra deb atalishi shart. Er-xotin bir-birini ismini aytib chaqirishmaydi. Zarur bo'lganda biror farzandini ismini aytib chaqirishadi. To'g'ri ism olgan o'g'il-qiz, ota-onaning, avlodning davomchilari bo'lib xizmat qilishlikni talab qilinadi.

Chillak o'yini va mohiyati.

Bu o'yin bolalarning sevimli o'yinidir. Bu o'yinni ikki kishi bo'lib ham, yoki guruh-guruh bo'lib o'ynash mumkin. Bunga uchi eshilgan chillak, uni uchirish uchun dasta bo'lsa kifoya. O'yin boshlovchi tomon jo'raboshisi chillakni maxsus kavlangan chuqurcha ustiga qo'yib, dasta bilan ilib, xavoga ko'tarib, so'ng zarb bilan uni dastadan urib, iloji boricha uzoqqa uchiradi. Maydonning narigi tomonida to'nini teskari kiyib, etagini qulochida yozib turgan raqib guruhi urilgan chillakni tutib olishga harakat qiladi va uchirilgan joyiga chuqurchaga uloqtiradi. O'lchanganda bir dasta yetgulik joyga yetkazilgan bo'lsa raqib guruh chillak otish navbatini qo'lga kiritadi. Bu o'yinini turli viloyat, shahar-qishloqlarda turli ko'rinishi bor. Chillak o'yinining ma'navi, jismoniy ahamiyati kattadir. Ajdodlarimiz bu o'yinni qadimdan sevib ardoqlashgan. Chillak o'ynashgan bolalar jismoniy baquvvatlashgan. Zuvillashi bilan uning nafas yo'llari, ko'krak qafasi a'zolari, ovozi yaxshi rivodjlangan. shu bilan birga sanoq, hisob-kitob, o'lchov bolaning hayotiy bilimlarini oshirgan.

Lapar va dandarak o'yinlari

Lapar o'yinida tekis, yupqa toshcha tanlanib, nishon qilib tiqilgan ikkinchi ana shunday tosh tomon o'n qadam uzoqlikdan uloqtiriladi. Uloqtirishda nishon toshni urib yiqitish ko'zda tutiladi. Tekkiz olmasa o'yin navbati raqib bolaga beriladi. Shu tariqa qaysi bola 100 soqani oldin to'plasa o'sha yutgan hisoblanadi. Lapar bolani aqliy jihatdan hisob-kitobga o'rgatadi, chama, reja, to'g'ri mo'ljal olish qobiliyatini oshiradi. Ko'z, quloq eshitish, ko'rish sezgilarini o'tkirlashtiradi. Dandarak yog'och o'yini bo'lib, ikki o'ynaluvchi buyumdan iborat. Uning birinchisi dandarak, ikkinchisi qamchi. Qalinligi bilakday keladigan ketmondastadan to'rt-besh enlik qismi aralab olinadi. Uning bir uchi yo'nib, qoziqsifat qilinadi, tekis yerda aylantirib yuboriladi. Aylanayotgan dandarakni qamchi bilan urib harakatlantiriladi. Uzoq harakatlantirilgan tomon yutgan hisoblanadi, kimni dandaragi yiqilib, harakatdan to'xtasa o'sha yutqazgan hisoblanadi.

Chavgon va ko'pkari o'yinlari

Chavgon sharqiy xalqlari orasida juda qadimiy o'yinlaridan bo'lib, qoidalari va ko'rinishi jihatidan ko'pkari va xokkey o'yinlariga o'xshash blgan, ot ustida turib o'ynaganlar-chavgonchilar o'rtasida chavgon to'pi talash bo'lgan. Har ikki tomondan 5-6 o'yinchi ishtirok etib, raqib darvozasiga kim qancha to'p kiritsa, o'yin oxirida o'sha tomon g'olib hisoblangan.

Ko'pkari uloq - o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlariga birday qadrdon. Ko'pkari bu chavandozlik baxsi. Musobaqa sharti o'rtaga tashlangan uloq tanasini taqimga bosib maydonni aylantirgancha belgilangan manzilga tashlansa sovrinlar bilan mukofatlanadi. Ko'pkari tinchlik, xotirjamlik o'yini bo'lib, xalq suyangan haqiqiy er-yigitlarni yetishtirishda katta rol o'ynagan. Ko'pkarida minilgan otning ahamiyati katta.

#### Kurash tushish va hashar.

Juda qadimiy o'yin-odatlarimizdan biri kurashdir. Kurash qadimiy va erkin kurash turlariga bo'linadi. Yurtimizda kurash ikki usulda Buxorochocha va Farg'onacha usulda tushiladi. Bu ikki toifa kurash bir-biridan tubdan farq qiladi. Farg'onacha kurashda polvonlar to'n kiyib, belbog' bog'lab bir-birlarini bellarini baravar ushlangancha maydonga tushadilar va dast ko'tarib so'ng yiqitadilar. Buxorochocha kurash esa erkin kurash bo'lib, chalishga va qayirishga, yelkadan oshirishga ruhsat beriladi. Raqibini kuragini bir zumga tekkizib turgan polvon g'olib sanaladi. Hashar-sharqiy xalqlarining orasida keng tarqalgan udumlardan bo'lib, o'zbek xalqi hayotida muxim o'rin tutib kelgan. Hashar bu ko'pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda harakat qilishdir. Devor urish, ariq qazish, xosilni yig'ib olish, tok va anor daraxtlarini qishda ko'mish hashar yo'li bilan bajarilgan. Hashar usuli hozir ham xalqimizning eng yaxshi udumlaridan bo'lib qolmoqda. Bu udumning ma'naviy va moddiy ahamiyati juda kattadir.

#### Salom va alik odob va odatlari.

Salomlashish-qadimiy odat. Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq bo'lgan o'z urf-odatlari bor. Biz o'zbeklar barcha Islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni ko'rganimizda "Assalomu-alaykum" iborasi bilan ko'rishamiz. Bu so'z "sizga tinchlik tilayman" degan ma'noni bildiradi. "Vaalaykum -assalom" esa sizga ham tinchlik tilayman javob salomi sanaladi. Salomlashish odamning yoshi va biron marosim bilan ham bog'liq. Keksa odamlar bir-biri bilan ikki qo'llab ko'rishishadi. Uzoq vaqt ko'rishmagan qaddonlar quchoqlashib, ba'zan o'pishib ko'rishish bilan amalga oshiradilar. O'zbek xalqining o'ziga xos tabiatini, lutfkorligini, urf-odatlarini hammamizga jonday aziz "Salom" so'zisiz tasavvur qilolmaysiz. Shuning uchun ham dono xalqimiz "Avval salom, ba'daz kalom" deb bejiz aytmagan. Salom odobning boshi, odatning debochasi, qolaversa, odamning kimligini uning salomi belgilaydi.

#### Dasturxon. Taom. Fotiha.

Dasturxon odobi, taom yemak qoidalari xalqimizda azaldan mavjud. Dasturxonlar joyi, odami, ma'rakasi, xonasiga qarab katta-kichik, rang-barang bo'lishi mumkin. Dasturxon tahomi bilan ulug'. Dasturxon odobi qadimiy bo'lib

dasturxonga avval keksalar qo'l uzatadilar. Oilada dasturxonga, taomga qarashni ota boshlab beradi. Dasturxonga, taomga tanavvulga kirishishdan oldin albatta, "Bismilloxir rahmonir rahim" deyish shart. Ovqat yeyish odobi ham rasamadi bo'lib, takalluf ko'rsatib, to'kmay sochmay, yaxshi chaynab, xazm qilinadi. Taom iste'mol qilib bo'lingach, oilaboshi albatta fotihaga qo'l ochadi, fотиha namunasi : Bismilloxir rahmonir rahim.

Shirin obod, manzil obod, Payg'ambar xudoga salovat, ko'p bergin, qo'l bergan, keng fe'l, ketmas davlat bergin. Do'stga zor, dushmanga xor, nomardga muxtoj qilmagin, o't balosi, suv balosi, nohaq tuxmatdan o'zing asragin. Ekkanni, tikkanni, yeganni ichganni savobini dargoxingda qabul qilgin omin, Alloxu akbar!

Mehmondorchilik odobi va taomillari.

O'zbek xalqi mehmondorchilik odatini juda qadim zamonlardan ixtiyor qilgan. Bu odat odamiylik, saxovat, madaniy va ma'naviy aloqalar mezoni sifatida qadrlangan. Xalqimiz "mehmon otangdan ulug'" degan maqolga doimo amal qilgan. Ota-bobolarimiz mehmondorchilikda o'zni tutish, qanday qoidalarga rioya qilish haqida maxsus risolalar yozganlar. Mehmon sharafiga, uning qutlug' poyqadamiga atab jonlik so'yilgan, to'kin dasturxon bezatilgan. Tashqi xovliga alohida mehmonxonalar qurishgan. Mehmonxona maxsus jixozlangan bo'lib, unda mehmonlar uchun barcha sharoitlar taxt qilib qo'yilgan. Mehmondorchilik anjumanida yaqin-atrofning ulamoyu fuzalolari, baxshiyu shoirlari, xofizlari taklif qilingan. O'zbek dasturxonida mehmondorchilik eng obro'li miliy taom- palov bilan yakunlanadi. Ana shundan keyin dasturxon haqqiga fотиha o'qilib, izzatli mehmondan ko'ngil xushlik so'raladi. So'ngra sarpolar bilan siylanadi.

Kattaga hurmat, kichikka shavqat

XALQimizning insoniy tuyg'ular bilan bog'liq yaxshilikka undovchi udumlarimizdan biri kattaga hurmat kichikka shavqatdir. bu aqida hech qachon chetda qolmagan.

Donishmand bobolarimiz, keksa, kishilarga, ota-onaga, aka-ukaga, opa-singil, qarindosh-urug'larga, mahalla-guzar axliga nisbatan hurmat, mehr-oqibat to'g'risida maxsus tarbiyaviy risolalar bitganlar. Kattalarning yuziga tik qaramaslik ularning so'zlarini qonun deb bilish aqidasi hamisha ustun turgan. Kichikka shavqat ham bejiz emas, ular hozirgi zamoni ham, o'tmishni ham kelajak avlodlar bilan bog'laydilar, izzat hurmat odatida. Erkak kishining ayol zotiga munosabati alohida o'rin tutadi. Qadimdan xalqimiz inson hayotining sarchashmasi bo'lgan ayol zotiga hurmat saqlab kelganlar. Ona esa tabarruk zot bo'lib, bosgan izlari ko'zga surilgan. Onalardan keyingi opalarga ham hurmat-extirom o'z joyida bo'lgan. Masalan Amir Temur, Bobur Mirzo singari buyuk bobolarimiz opalarini e'zozlab boshga ko'targanlar.

XX asrda Yer shari aholisi jadal sur'atda ko'payib borgan. Ona zaminda istiqomat qilayotgan odamlar soni 3 mlrd.dan oshgan, yoki amalda 3 baravarga

ko'paygan. Bunda Lotin Amerikasi (6,1 marta) va Afrika mamlakatlarida (4,7 marta) ko'paygan bo'lsa, Yevropa aholisi (1,7 marta) va sobiq SSSR aholisi (2,1 marta) nisbatan kam ko'paygan. Bunday nomutanosiblikning asosiy sabablari migratsion jarayonlar (aholining ommaviy ravishda bir hududdan ikkinchisiga ko'chib o'tishi natijasida Shimoliy va Lotin Amerikasi, Avstraliya va Yangi Zelandiya aholisi jiddiy tarzda ko'paygan), XX asrda bo'lib o'tgan jahon urushlari, ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlanayotgan davlatlarda aholi sonining tabiiy tarzda juda tezlik bilan ko'payishi bo'lgan. Yer shari aholisi 1 mlrd. ga taxminan 1820 yilda, 2 mlrd. ga 1927 yilda (oradan 107 yil o'tgandan keyin), 3 mlrd. ga 1959 yilda (32 yildan keyin), 4 mlrd. ga 1974 yil (14 yildan keyin), 5 mlrd. ga 1987 yil (13 yildan keyin), 6 mlrd. ga 1999 yil (12 yildan keyin) yetgan. XX asr oxiriga kelib yer sharidagi ikki mamlakat aholisi Xitoy -1.2 mlrd va Hindiston 1 mlrd. dan ortiqni tashkil etdi. Yettita davlat (AQSH, Indoneziya, Rossiya, Braziliya, Yaponiya, Nigeriya, Pokiston)da 100 mln. odam istiqomat qiladi.

Hozirgi kunda dunyoda o'z suverenitetiga va doimiy aholisiga ega bo'lgan 225 mamlakat mavjud. Barcha mamlakatlarda yashovchi kishilar soni bir xil me'yorda bo'lmagan. Yuqorida nomlari zikr etilgan mamlakatlarda yerdagi jami aholining qariyb 60% yashagan. Shu bilan birga 62 ta yirik mamlakatlarda (aholisi soni 10 mln. dan oshiq bo'lgan) yerdagi aholining qariyb 95 % istiqomat qiladi. Dunyoda aholisi soni juda ham kam bo'lgan 38 ta «mitti» mamlakatlar ham mavjud bo'lib, ularda jami umumiy hisobda qariyb 1 mln. ga yaqin aholi yashaydi.

Etnik jarayonlarga XX asr 30 yillar birinchi yarmida yuz bergan iqtisodiy inqiroz va dunyoning yirik davlatlarining siyosiy o'zgarishlari ham sezilarli darajada ta'sir qilgan. 30 yillarga kelib dunyo bo'yicha aholining yillik o'sish darajasi 1% ga kamayib ketgan. Jumladan, 1935 yilda Frantsiyada tug'ilish o'limdan kamayib ketgan. Shuningdek, AQSH aholisining tabiiy o'sishi ham pasayib ketgan, bu davrda Osiyo aholisining yillik o'sishi esa 30% ga kamayib ketgan. Faqatgina Lotin Amerikasi davlatlarida aholining yillik o'sishi kamaymagan bo'lib, bu hududda aholining yillik o'sishi 1,8% ga ko'paygan.

XX asrdagi etnik jarayonlarga ta'sir qilgan sabablardan eng muhimlaridan biri, shubhasiz ikkinchi jahon urushi bo'lgan. Aynan mazkur urush natijasida qariyb 50 mln. kishi qurbon bo'lgan. Urush yillarida faqat Amerika va Avstraliya aholisigina ko'paygan. Ayniqsa, Lotin Amerikasi mamlakatlariga urushdan so'ng vayron bo'lgan Farbiy Yevropadan ko'chib borgan emigrantlar hisobiga 2,5% ga ko'paygan.

XX asrning 50-yillarida dunyo miqyosidagi etnik jarayonlar oldingi o'n yilliklardan tubdan farq qilgan. Bu davrda sodir bo'lgan eng muhim o'zgarishlardan biri «demografik portlash» bo'lib, oldingi davrlardan umuman farqli bo'lgan. Mazkur yillarda garchi tug'ilish kamaygan bo'lsada aholini o'rtacha yoshining o'sishi va o'limning kamayishi hisobiga aholi soni ortib borgan. Ayniqsa, 60 yillar boshlariga kelib dunyo bo'yicha o'lim 2 %ga, ayrim Janubiy Amerika mamlakatlarida, Afrika va Osiyoda 3% ga kamaygan. Natijada 1950 - 1983 yillar davomida aholi soni deyarli ikki baravarga ko'paygan. Shu bilan birga

ko'plab Yevropa mamlakatlarida aholi soni 25% ga ko'paygan.

Oxirgi o'n yilliklarda Osiyo aholisining o'sishi garchi sekin tarzda bo'lsada kamayib bormoqda (60 yillarda 2,2% bo'lgan bo'lsa, 80 yillar boshiga kelib 1,8% bo'lgan). Arab mamlakatlarida, Pokiston, Malayziya va Filippin kabi mamlakatlarda aholining sonini o'sishi an'anaviy tarzda yuqori bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, mazkur mintaqadagi aholi sonining ko'payishi umumiy aholi o'sishining qariyb 60% iga to'g'ri keladi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida o'lim sur'atining jiddiy tarzda kamayishi mazkur mintaqani ikkinchi jahon urushidan keyin aholi soni ortishi bo'yicha dunyo miqyosida birinchi o'ringa chiqishiga sabab bo'lgan. Biroq mazkur mintaqada 60 - yillardan boshlab tug'ilish sur'ati jiddiy tarzda kamaya boshlagan va bu aholi sonining o'sish darajasiga ta'sir qilgan hamda aholi soni oldingi 20 yil darajada saqlanib qolgan.

Afrika mamlakatlarida etnik jarayonlar birmuncha boshqacha tarzda kechgan bo'lib, bu yerda urushdan keyin eng ko'p tug'ilish va o'lim ko'rsatkichini kuzatish mumkin. Faqatgina 60-yillardan boshlab o'lim sur'ati ma'lum ma'noda kamaya boshlagan. Biroq mazkur mintaqada tug'ilishning ko'pligi bois aholi sonining o'sishi bo'yicha dunyo miqyosida yetakchi o'rinlarda turgan. 60 yillardan boshlab Afrika aholi sonining yillik ko'payishi bo'yicha Lotin Amerikasi mamlakatlaridan o'tib ketgan. Afrika mamlakatlarining oxirgi o'n yilliklardagi aholisining ko'payish sur'ati 15 mln. kishini tashkil etadi.

Ma'lumki, bu dunyoda har qaysi millatning o'z afsonaviy qahramonlari, o'zi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari bo'ladi. Xalqimiz azaldan o'z vujudi, o'z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo'lmoqqa intilib, o'z o'g'lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan.

Shu ma'noda, xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan.

Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi.

Bir paytlar, aniqrog'i, o'tgan asrning 50-yillarida, milliy merosimizning ko'pgina namunalarini kabi, «Alpomish» dostoni ham millatchilik ruhidagi asar sifatida qaralanib, qatag'onga uchragan edi. O'sha og'ir yillarda fidoyi ziyolilarimiz jasorat ko'rsatib, uni saqlab qolishga muvaffaq bo'lganliklarini bugun minnatdorlik bilan eslaymiz.



Bu o'lmis asarni xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o'z iymon-e'tiqodidek asrab-avaylagan, qancha avlod-ajdodlarimiz «Alpomish» dostoni asosida tarbiya topgan, o'zligini anglagan, ma'naviy boylikka ega bo'lgan. Demak xalqimiz bor ekan, Alpomish siymosi ham barhayot. Chunki «Alpomish» dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi bo'lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy-ijtimoiy muhitda shakllanib, rivojlanganini, ajdodlarimizning olis davrlarda ham jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib, o'z boshiga tushgan qiyinchiliklarni birgalikda yengib yashaganini yorqin tasvirlab beradi.

Shu o'rinda asardagi kichik bir misolga murojaat qilaylik. Otabobolarimizning qadimiy tasavvuriga ko'ra, o'q-yoy — hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish yetti yoshida o'n to'rt botmon birinchdan — bronzadan yasalgan yoydan o'q otib, «alp» degan unvonga ega bo'ladi. Alp degani — hokimiyat egasi ekanini inobatga olsak bu doston ko'p asrlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ham ishonch xosil qilamiz.

Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yengilmas bahodiri — Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarimiz — bugungi Alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz.

Ishonamanki, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazadi. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi.

Milliy ma'naviyatimiz azaldan qanday omil va me'zonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram — sharqiyona yangi yil bo'lmish Navro'z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi.

Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik shodiyona bilan o'tkazadigan Navro'z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko'p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo'lib kelmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, yangilanish va ezgulik timsoli bo'lgan Navro'z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mexr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g'oyalardan baxramand bo'lib, ma'naviy kamol topganining yana bir tasdig'idir, desak hech qanday xato bo'lmaydi.

Ko'hna tariximizni shu ma'noda ko'z o'ngimizdan o'tkazib, taxlil qiladigan bo'lsak muhim va ibratli bir fikrni takroran aytishga to'g'ri keladi. Ya'ni, otabobolarimiz ruhiy olamining tomir-ildizlari aynan yuqorida zikr etilgan ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan olijanob fazilatlar asosida shakllangan.

Shu o'rinda ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir mezon — muqaddas dinimiz haqida alohida to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman. Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va

adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam yetgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oyava qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida takidlash joiz. Nega deganda, insoniylik mexr-oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mexr - shavqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Bugungi kunda Islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bilan bog'liq. Ma'lumki, xalqimiz azaldan Islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos xissa qo'shib keladi.

Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi — AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani ham ana shunday yuksak e'tirofning yana bir tasdig'idir.

Buyuk mutafakkir va allomalarimizning Islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror xissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «muxaddislar sultoni» deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo'tabar zot merosining gultoji bo'lmish eng ishonchli xadislari to'plami — «Al-jome as-saxih» kitobi Islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, axli Islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana, o'n ikki asrdiki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda.

Yana bir ulug' vatandoshimiz — Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning ma'naviy merosi, jumladan, «Sunani Termiziy» asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi. Allomaning asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo'lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko'plab axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga molikdir.

Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy vafot yetgan yili, ya'ni milodiy 870 yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo — Imom Moturidiy tavallud topgan ekan. Bu voqea zamirida shaxsan menga iloxiy bir bog'liqlik Olloxning buyuk marhamati bordek bamisoli. Imom Buxoriyning nurli qalamini Imom Moturidiy olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel bog'lagandek tuyuladi. Imom Moturidiy bobomizning o'rta asrlardagi g'oyat xatarli va taxlikali

bir vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatib, Islom olamida «Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafga sazovor bo'lgani bu nodir shaxsning ulkan aql zakovati va matonatidan dalolat beradi.

Ul zot asos solgan Moturidiya maktabi Sharqiy mamlakatlarida bunday katta shuhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g'oyalar Islom dinimizning asosini to'g'rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamoxang edi.

O'zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratib, go'zal Farg'ona diyoriga jahonga tarannum yetgan Islom huquqshunosligining yana bir ulkan namoyandasi Burhoniddin Marg'iloniyning tabarruk nomini bugun musulmon dunyosi yuz yillar davomida e'zozlab keladi. Bu mo'tabar allomaning Sharqiy olamida «Burhoniddin va milla», ya'ni «Din va millatning hujjati» degan yuksak unvonga sazovor bo'lgani ham buni yaqqol isbotlaydi.

Marg'iloniyning o'lmas merosi, xususan, yetti kitobdan iborat «Hidoya» — «To'g'ri yo'l» deb atalgan asari, mana, sakkiz asrdirki, musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal manba sifatida e'tirof etib kelinayotgani albatta bejiz emas. Butun dunyoga ma'lum va mashxur bo'lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Ota-bobolarimiz ulug' avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos quyib, uni «Bahouddini balogardon» deb ta'riflab kelishida teran ma'no bor. Uning «Diling Olloxda, qo'ling mehnatda bo'lsin» degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma'no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi.

Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib bora

di. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot — bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlaribugun ham jahon axlini xayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim.

Masalan, Muhammad Muso Xorazmiyning o'nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo'lib ilm-fan sohasiga joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o'z vaqtida mustahkam asos yaratgani umuminsoniy taraqqiyot rivojida qanday katta ahamiyatga ega bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. Bugungi kunda odamzotning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini ko'z oldimizga keltirar ekanmiz, beixtiyor ana shu buyuk bobomiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda o'zbek xalqining ham munosib xissasi borligidan kalbimiz iftixorga to'ladi.

Yana bir ulug' ajdodimiz — Ahmad Farg'oniy insoniyat tarixidagi ilk uyg'onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandasi, o'z zamonasining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashariyat dunyoqarashi va ma'naviyatining rivojlanishiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Uning bebaho merosi o'z davri olimlari uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilgani tarixiy manbalar orqali yaxshi ma'lum. Allomaning «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomli asari o'n ikkinchi asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgani ham bu fikrning dalilidir.

Yevropada Alfraganus nomi bilan mashxur bo'lgan bu allomaning ilm-fan rivojidadagi nufuzi shu qadar yuksak ediki, uning ismi sharifi yer kurrasidagina emas, balki samoda ham shuhrat topdi. O'n oltinchi asrda Oydagi kratyerlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi. Atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647 yili nashr qilingan «Selenografiya» kitobida Oydagi kratyerlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz — Ahmad Farg'oniy va Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi.

Milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta'riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo'lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos xissasi bilan izohlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqea, hodisalarga, o'z zamondoshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko'p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo'lgan, ammo har qanday og'ir sharoitga qaramasdan, e'tiqodidan qaytmagani uning o'z ma'naviy ideallariga naqadar sodiq bo'lganidan dalolat beradi.

Ana shunday noyob fazilatlar sohibi bo'lmish mashxur alloma Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqyosida «Meditsina», «Sog'lom turmush tarzi» degan tushunchalarning fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni, ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor.

Yoki o'rta asrlarda Xorazm diyoridan olis Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm-fanning ko'plab boshqa sohalarida ham shuhrat qozongan Mahmud Zamahshariy bobomizni esga olaylik. O'zining jismoniy nogironligiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlariga mashaqqatli safarlar qilgan, teran bilimi va ilmiy salohiyati bilan butun Islom olamini lol qoldirgan bu zot, hech shubxasiz, xalqimiz uchun ma'naviy yetuklik timsoli bo'lib qolaveradi.

Agarki mana shu muqaddas zaminimizda tavallud topib, voyaga yetgan, o'z hayoti va faoliyati sharoitga qaramasdan, e'tiqodidan qaytmagani uning o'z ma'naviy ideallariga naqadar sodiq bo'lganidan dalolat beradi.

Ana shunday noyob fazilatlar sohibi bo'lmish mashxur alloma Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari necha asrlar davomida Yevropani eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqyosida «Meditsina», «Sog'lom turmush tarzi» degan tushunchalarning fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni, ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga barch asoslar bor. Yoki o'rta asrlarda Xorazm diyoridan olis Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm fanning ko'plab boshqa sohalarida ham shuhrat qozongan Mahmud Zamahshariy bobomizni esga olaylik. O'zining jismoniy nogironligiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlariga mashaqqatli safarlar qolgan, teran bilimi va ilmiy salohiyati bilan butun Islom olamini lol qoldirgan bu zot, hech shubhasiz, xalqimiz uchun ma'naviy yetuklik timsoli bo'lib qolaveradi.

Agarki mana shu muqaddas zaminimizda tavallud topib, voyaga yetgan, o'z hayoti va faoliyati bilan nafaqat tarixda, ayni vaqtda bashariyatning bugungi taraqqiyot sahifalarida ham o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz-avliyolarimizni ta'riflashda davom etadigan bo'lsak o'ylaymanki, bu borada uzoq gapirish mumkin. Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz esa, bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida marifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarining barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart, deb hisoblayman. Nega deganda, o'zimiz — bugun shu yurtda yashayotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o'z zimmamizga olmasak chetdan kelib hech kim hech qachon bu ishni qilib bermaydi.

Shu o'rinda buyuk bobolarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi.

Shaxsan men «Temur tuzuklari»ni har gal o'qir ekanman, xuddiki o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman. O'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma'naviyati uchun bugun ham oziq bo'ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko'p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, «Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir», degan so'zlar bugungi kunda ham ma'naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon.

Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma'noli xikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo'lgan «Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqitadi» degan ma'noga g'oyat hamohang bo'lib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma'naviyat asosida yashashga da'vat etishi bilan e'tiborlidir. Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug'bekning o'rta asrlar sharoitida namoyon yetgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo'ymaydi. Taqdir bu ulug' zotning zimmasiga bexad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod yetgan saltanatning vorisi

bo'lishdek unga mas'uliyatli vazifa aynan unga nasib etdi. Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movaraunnahr diyoringning donishmand xukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi — tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida ulkan shijoat va matonat ko'rsatdi. Bu benazir alloma o'zida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. Ushbu jadvalda zikr etilgan ilmiy ma'lumotlarning naqadar aniq va to'g'ri ekanini bugungi eng zamonaviy asboblardan ham tasdiqlaydi. Ulug'bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma'naviyatining poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko'rsatadi. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» deb nomlangan Ulug'bek astronomik jadvali o'rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgani fikrimizning yaqqol isbotidir.

Bu haqda so'z yuritar ekanmiz, beixtiyor 1996 yili Parijda YUNESKOning o'sha paytdagi Bosh kotibi Federiko Mayor janoblari bilan bo'lgan bir suhbat yodimga tushadi. O'shanda janob Mayor Ulug'bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib ko'rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib o'tdi. Shunda men unga javoban, yo'q janob Federiko Mayor, Ulug'bek xato qilgan bo'lishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan bo'lishi mumkin, degan edim. Garchi bu gap do'stona lutf tariqasida aytilgan bo'lsada, o'ylaymanki, uning zamirida chuqur haqiqat mujassam.

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri — bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliigi, zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir.

Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda yetgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.

Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz.

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa haqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qizikish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi. Buning tasdig'ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e'lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko'rish mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniylar xotirasiga o'rnatilgan muhtasham haykallarni eslash joiz.

Xalqimizning asl tabiatida mavjud bo'lgan ana shunday ilmiy-ma'naviy salohiyat va fazilatlar haqida gapirar ekanmiz, «Oqqan daryo oqaveradi», degan naql beixtiyor yodimizga tushadi. Chindan ham, tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamaganini, xalqimiz dahosining o'lmas timsoli sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin.

Masalan, chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, xuzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi.

Ana shunday ulug' ajdodlarimizning ilmiy- ijodiy merosi va ibratli faoliyati keyinchalik diyorumizda Qori Niyoziy va Toshmuhammad Sarimsoqov, Xabib Abdullaev va Sa'di Sirojiddinov, Obid Sodiqov va Sobir Yunusov, Yahyo G'ulomov va Bo'riboy Axmedov, Oybek va G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya, Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov, Lutfixonim Sarimsoqova va Halima Nosirova, Olim Xo'jaev, Razzoq Hamroyev va boshqa ko'plab nomlari dunyoga tanilgan mashxur ilm-fan, adabiyot va madaniyat arboblarning yetishib chiqishiga mustahkam zamin bo'lib xizmat qildi.

Yuqorida zikr etilgan misollarni umumlashtirgan xolda, muhim bir fikrni xulosa tariqasida ta'kidlashni zarur, deb bilaman. Gap shundaki, tariximizda bunday benazir siymolarning mavjudligi — takroran aytishga tug'ri keladi — o'ziga xos bir fenomen, ya'ni o'ta noyob hodisadir. Bu esa nafaqat bugungi, ayni paytda ertangi avlodlarimizning ham ma'naviy boyligiga aylanib, xalqimizga hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydigan ruhiy kuch- quvvat va madad berishi muqarrar. Lekin ayni paytda, biz bir haqiqatni ham yaxshi anglaymizki, faqat o'tmishga, ajdodlar merosiga mahliyo bo'lib yurishning o'zi bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Tariximiz sahifalari shundan dalolat beradiki, yurtimiz rivoji hamma zamonlarda ham bir tekis kechmagan. Ayniqsa, temuriylar hukmronligidan so'ng — ya'ni XVII asrdan XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrda Turkiston zamini siyosiy parokandalik jaholat va qaloqlikka yuz tutdi. Uch xonlikka bo'linib ketgan mintaqa uzoq muddat o'zaro ziddiyat va qarama-qirshiliklar, urush-janjallar girdobida qolib ketgani nafaqat iqtisodiy, moliyaviy va harbiy salohiyat nuqtai nazaridan, balki ijtimoiy-ma'naviy fikr rivojida ham ko'p salbiy oqibatlarini keltirib chiqargani barchamizga yaxshi ma'lum.

Tarix g'ildiragining aylanishi bilan, avvalambor, yurt xukmdorlari va amaldorlari xalqning taqdiri va kelajagi haqida qayg'urish o'rniga, o'z shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yib, jaholat va g'afolatga berilib ketishi oqibatida biz bugun yashayotgan mintaqa umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzilib, rivojlanishdan keskin orqada qolib ketdi.

O'zaro nizo va adovatlarining kuchayishi, faqat o'z qobig'iga, umrini o'tab bo'lgan aqidalarga o'ralashib yashash natijasida bir vaqtlar buyuk madaniyat va taraqqiyot davrlarini boshidan kechirgan el-yurtimizning bu paytga kelib qanday og'ir ahvolga tushib qolganini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak o'ylaymanki, ko'p narsa o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Bu hayotning shafqatsiz bir qonuniyati bor. Ya'ni, tarixning murakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat o'z ahilligi va birdamligini saqlab, o'z milliy manfaatlari yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va hushyorligini yo'qotadigan bo'lsa, oxir-oqibatda o'zining eng katta, tengsiz boyligi bo'lmish mustaqilligi va ozodligidan judo bo'lishi shubxasiz.

Ming afsuski, ana shunday mash'um qismat Turkiston xalqlarini ham chetlab o'tmadi: XIX asrdagi chorizm istilosi ko'pgina sabablar bilan bir qatorda avvalambor o'sha paytda mavjud bo'lgan siyosiy boshboshdoqlik hukmron kuchlarning uzoqni ko'rolmasligi, ma'naviy zaifligi oqibatida ro'y berganini tarixiy misollar isbotlab turibdi. Bu achchiq haqiqat barchamizga, ayniqsa, bugun hayotga katta umid va ishonch bilan kirib kelayotgan yoshlarimizga doimo saboq bo'lishi lozim.

Shu nutai nazardan qaraganda, biz o'z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma'naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o'z xissamizni qo'shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilmu fani va madaniyatining yuksak cho'qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo'lishimiz darkor.



Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar — yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mexr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlarini va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi.

Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan. Bolaning ongi asosan 5—7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Xalqimizning «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan dono maqoli, o'ylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi.

Odamzot uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi — bularning barchasi avvalo uning tug'ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi.

Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg'ubor ongi bamisoli bosma qog'oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o'ziga shimib-singdirib oladi. Uning ota-onasiga, bobo xalqimizning asl tabiatida mavjud bo'lgan ana shunday ilmiy-ma'naviy salohiyat va fazilatlar haqida gapirar ekanmiz, «Oqqan daryo oqaveradi», degan nakl beixtiyor yodimizga tushadi. Chindan ham, tariximizning qaysi davrini olmaylik yurtimizda ilmu ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamaganini, xalqimiz dahosining o'lmas timsoli sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Aminjonova I E. “Qadimiy yodgorliklar qissasi”. Т. 1968.
8. Ashirov A. Atadjanov Sh. “Etnologiya”. Т. 2007 у.
9. Ashirov A. «O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari». Т. 2007 у.
10. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-Т.: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.

## **15-Mavzu: Etnomadaniyat va etnopsixologiya**

### **Reja:**

1. Etnomadaniyatning fan sifatida shakllanishi.
2. Etnopsixologiya maktabining shakllanish tarixidan.
3. Lingvistik klassifikatsiyalash.

Etnomadaniyat fan sifatida kishilar psixikasining etnik xususiyatlari, milliy xarakter, milliy o'zlikning shakllanish qonuniyatlari va funksiyalari, etnik stereotiplar va shu kabilarni o'rganadi. Etnomadaniyat ijtimoiy psixologiyaning bir tarmog'i bo'lib, insonlarning xulq - atvori, psixologik qiyofasi, milliy xususiyatlari, milliy hodisalarga bog'liq bo'lgan ashyolar, etnik umumiylikni o'rganish bilan shug'ullanadi. Etnik psixologiyaning ilk ko'rinishlari qadimgi tarix va geografik qo'lyozmalarda o'z ifodasini topgan. Ularning mualliflari ta'rif qilinayotgan xalqlarning o'ziga xos ruhiy tomonlarini tasvirlab berishga harakat qilgan edi. Ammo bu tasvirlarga asoslanib chiqarilgan umumiy hodisalarda mantiqsizliklar mavjud bo'lib, ko'pincha ular ongning doimiy bir xilligi haqidagi tushunchani tartibga solib turishga qaratilgan. XIX asrda bu fan etnik psixologiya muammolarini etnografiya va antropologiyaning tarmog'i sifatida o'rgana boshladi. Ma'lumki, antropologiya insonning kelib chiqishi va evolyutsiyasi to'g'risidagi fandır. Agar tabiiy-ilmiy va tibbiy antropologiya jonli mavjudotlar olamida insonning tutgan o'rni, uning tana tuzilishi, anatomiyasi, fiziologiyasi, irq to'g'risidagi ta'limotlarni o'zida ifoda etsa, falsafiy antropologiya inson to'g'risidagi konsepsiyaning mazmun-mohiyatini yoritib beradi. Shuni ta'kidlash joizki, falsafiy antropologiyaning rivojlanishiga shaxsning psixologik jihatdan o'rganish sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Nemis romantik faylasufi tomonidan targ'ib qilingan alohida «xalq ruhi» borligi haqidagi g'oyaviy tushuncha, tabiiyki bu sohada, keng ko'lamda tadqiqot ishlari olib borishga to'shinlik qildi. To'g'ri etnik psixologiyani o'rganish sohasida V.Vundt ancha oldinga siljishga erishdi. XX asrda ijtimoiy psixologiya va psixologik tadqiqot metodlarini rivojlantirish, etnik psixologiyaning turli jihatlarini belgilab

olishga imkoniyat yaratdi. Afsuski, ko'plab izlanish va tadqiqotlar amalga oshirilishiga qaramay, etnik psixologiya ham hozircha mustaqil fan darajasiga erisha olgan emas. Etnik psixologiyaning asosiy muammosi bir tomondan, faoliyat turlari va madaniyat xarakterining bir - biri bilan o'zaro aloqadorlik qonuniyatlari, ikkinchi tomondan, jamiyat a'zolarining etnik psixikasi, xulq - atvori xususiyatlari, alohida tomonlari bilan tabiat, faoliyat, milliy o'z - o'zini anglash funksiyasi va qonuniyatlari hamda etnik stereotiplarning o'zgarishi bilan uzviy bog'langandir. Bu muammolar xalqaro miqyosda ahamiyatga ega bo'lib, ularni tadqiq etishda sotsiologik, etnografik va psixologik metodlarning yaxlit birligi taqozo qilinadi. Keyingi yillarda semantika (kasallik alomatlarini aniqlash haqidagi fan) ijtimoiy psixologiya va psixolingvistika (til haqidagi fan) keng rivojlanmoqda. Amerika etnopsixologiyasiga freydizm va neofreydizm katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayni paytda ta'kidlash joizki, oxirgi paytlarda uning ta'siri kuchsizlanib borayotganligi kuzatilmoqda. Etnografiya ko'p qirrali ijtimoiy fan bo'lib, u etnik guruhning kelib chiqishi va joylashishi, madaniy - maishiy aloqalari, ijtimoiy va oilaviy turmush tarzi kabi muammolarni o'rganadi. Hech bir inson o'zaro tabiati va xarakteri, xulq - atvori va his - tuyg'ulari bilan ayni o'xshash bo'lmaganidek, etnoslar ham bir - biriga to'la o'xshamaydi. Lekin tarixiy umumiylikka ega bo'lgan etnografik tiplar tabiiy - geografik muhit va ijtimoiy - iqtisodiy sharoit ta'siri ostida yuzaga keladi. Davrning murakkab etnik jarayonlari, xalqlarning maishiy va madaniy hayotidagi muhim o'zgarishlar etnografiyaning diqqat markazida alohida o'rin tutadi. Etnomadaniyat jahondagi barcha xalqlarning katta - kichikligi, irqi, ijtimoiy tuzumi, qoloqligi va rivojlanganligidan qat'iy nazar, teng va barobar o'rganadigan ilm sohasi hisoblanadi. Etnografiya tarixiy taraqqiyot davomida yo'qolib ketgan xalqlar, uzoq o'tmishdagi etnik jarayonlar, maishiy turmush, ma'naviy madaniyat qoldiqlari va xususiyatlarini tadqiq qilsa, etnopsixologiya fani yaratilgan va meros qoldirilgan madaniyatga asoslanib turib, o'sha davr xalqlarining qiziqishlari, milliy xarakteri, ta'bi, hissiyot darajalari, xullas, xalqlarning psixologiyasini o'rganadi. Etnomadaniyat, ayniqsa, etnografiya, antropologiya, lingvistika, sotsiologiya, san'atshunoslik kabi fanlar yutuqlaridan keng va ijodiy foydalanadi. Etnik jarayonlarni tadqiq qilishda turli tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, og'zaki ijod namunalariga suyaniladi. Etnoslarning til birligi, muloqot maromi, so'zlashish jarayonlarini o'rganishda tilshunoslik (lingvistika)ga oid ma'lumotlar yordam beradi. Xalqlarning moddiy madaniy tarixi va xususiyatlarini aniqlashda uning arxeologiya fani bilan hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Aholining joylashishi, o'sishi, atrof-muhitning ta'siri, emigratsiya va migratsiyasi kabi masalalarni o'rganishda esa etnik geografiya va demografiya fanlari yutuqlaridan keng foydalaniladi. Etnoslarning ma'naviy madaniyatining o'ziga xos jihatlarini aniqlab olishda san'atshunoslik, musiqashunoslik, dinshunoslik, folklor va yozma adabiyot yetarlicha manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Antropologiya fani esa xalqlarning o'rtacha umr kechirishi, kelib chiqishi, tarqalish jarayoni, tanasi, bosh suyagi, kabi masalalarni o'rganishda etnopsixologiyaga katta yordam beradi. Yuqorida fanlarning o'zaro aloqadorligi

va tadqiqot predmetlaridagi o'xshashliklar tufayli etnogenez, paleetnografiya, etnolingvistika kabi yangi ilmiy sohalar yuzaga keldi va samarali ish olib bormoqda. Etnik jarayonlarni teran va keng miqyosda tadqiq qilishda hozirgi davrda keng ko'lamda o'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlar natijasi o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Bu yo'nalishda etnosotsiologiyani yangi sohalar yuzaga keldi. Jamiyat hayoti shundan dalolat beradiki, tabiiy - geografik sharoitga qarab ayrim elatlar yovvoyi o'simliklarni ekib o'stirish yoki yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish, ularni qo'lga o'rgatish bilan bog'liq o'ziga xos turmush an'analariga egadir. Xo'jalik yuritishning bunday xususiyatlarini aniqlashda maxsus fanlar bilan bir qatorda etnobotanika va etnozologiya kabi sohalar ham shakllanib bormoqda. Etnoslarning ko'p qirrali hayotini o'rganishda ularning doimiy turmush tarzini bevosita kuzatish asosida joylarning o'zida to'plangan materiallar bosh manba hisoblanadi. Bu borada uzoq davr bir joyda yashab, kuzatishlar olib borgan, etnograf olimlardan L.Morgan, N.N.Mikluxo-Maklay, V.G.Bogorazlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga molik. Afsuski, stasionar uslub deb nomlangan bunday tadqiqot usullaridan hozirgi sharoitda kam foydalaniladi. Xalqlarning psixologiyasini o'rganishning muhim sohasini ular tomonidan yaratilgan madaniyat, ya'ni, inson qo'li va aql - idroki mahsuli sifatida yuzaga kelgan moddiy, ma'naviy boyliklar majmui tashkil etadi. Binobarin, madaniyat so'zining etimologik ma'nosi umumiy tarzda «jamiyat yutuqlari majmui»ni anglatadi. Murakkab etnik jarayonlar, millatlar va elatlar orasidagi munosabatlar, nikoh - oila va maishiy turmush muammolari, bolalar tarbiyasi, axloq-odob masalalarini tadqiq qilish nafaqat etnograf olimlar, balki psixolog va pedagoglarning ham diqqat markazida turibdi. Xalq tabobati, an'anaviy hunarmandchilik va xo'jalik uslublari, tijorat va savdo - sotiq xalqning ijobiy hamda ijodiy tajribasi ifodasidir. Asrlar osha sinovdan o'tgan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan ushbu tajribalar xalqlarning xarakteri hamda psixologik qiyofasini yaqqol namoyon qilishda muhim omil vazifasini o'taydi. Har bir xalq etnik tuzilishi jihatidan nechog'li barqaror bo'lmasin tabiiy-tarixiy taraqqiyot, obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida doimo rivojlanib, o'zgarib turgan. Jahonning ko'plab xalqlari singari Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari uzoq va murakkab, mashaqqatli va ziddiyatga to'la jarayonlarni ham boshdan kechirgan. Aytish mumkinki, ular ma'naviy madaniyat his-tuyg'ulari bilan nihoyatda chirmashib ketgan o'ziga xos etnoslar vatanidir. Uzoq davr mobaynida Markaziy Osiyoga ko'chib kelgan elatlar sak - massaget zaminida o'ziga xos madaniy belgilarni qoldirgan. Birinchi ming yillik o'rtalarida bu yerga ko'chib kela boshlagan xunlar, xionitlar, oq xunlar, eftalitlar, parchanaklar va boshqalar mahalliy xalqlarni turkiylashtirib yuborgan. Ammo tub aholi orasida ham akashak, augasiylar deb nomlangan qadimiy turk elati ham yashaganligi tarixdan ma'lum bo'lgan. Augasiylar keyinchalik «O'g'uz» nomi bilan mashhur bo'lgan turk elati desa bo'ladi. X asrda Janubiy Sibir tomonidan O'rta Osiyoga til jihatdan pachanak va o'g'uzlarga yaqin qipchoqlar bostirib kirib, talon - taroj qilgan. Pachanaklarning bir qismi shimoliy - g'arbiy tomonga, o'g'uzlarning

ancha qismi janubiy - g'arbiy tomonga ko'chib ketishga majbur bo'lganlar. Oqibatda hozirgi Turkmanistonga tarqalgan o'g'uzlar turkman xalqi bilan, ikkinchi qismi Ozarbayjonni bosib olib, ular bilan qo'shilib ketgan, yana bir guruh o'g'uzlar g'arb va janubga, ya'ni Turkiya va Eron tomon o'tib mahalliy elatlar bilan aralashib ketgan. O'zbek xalqi ham O'rta Osiyoning boshqa elatlari bilan qon - qarindosh. Masalan, o'zbeklar bilan qozoqlarning deyarli barcha turkiy ajdodlari umumiy bo'lgan, aytish mumkinki, har bir xalq qonida boshqa elatlarning qoni mavjud. Masalan, qozoqlarning irqiy tuzilishida antropologlar fikricha mo'g'ul istilosida yetti asr muqaddam ham mongoloid belgilar paydo bo'lgan, ya'ni mo'g'ullik ta'siri ilgariroq boshlangan. Qirg'izlarning ham asli qadimiy saklar egallagan Tyan - Shan tog' bag'ridagi Yevropoid aholi bilan aralashib, bu yerga ko'chib kelishdan oldin o'z ona turkiy tillarini shakllantirilganligini tadqiqotchilar qayd qiladilar. O'zaro tarqoq aholi bo'lishiga qaramay, ularning shevalarida uncha farq bo'lmagan. Hozirgi qirg'izlarning eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklardagi qadimgi ajdodlari Yevropoid bo'lishgan, keyinchalik esa kelgindi mongoloid qabilalar ta'sirida o'zgarishga uchragan. Lekin etnik ildizi barqaror, bir bo'lgan etnik xalq til va irq jihatidan turkiylashmagan. Albatta, bu yerga qisman turklar, mo'g'ullar, bir vaqtlar Iskandar va arablar ham kelib, o'z hukmronligini o'rnatgan. Keyinchalik bular tabiiy - geografik jihatdan g'arbiy eroniy tillar oilasiga kirgan o'z ona tillarini saqlab, irqiy jihatdan ancha sof Yevropoidlik xususiyatlarini saqlab qolgan. O'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman va boshqa markaziy osiyolik xalqlarning ajdodlari etnik zamini umumiy bo'lib, mustaqillik sharoitida ham ular o'rtasida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni mustahkamlash, rivojlantirishning obyektiv, tarixan qaror topgan asosi hisoblanadi.

Ma'lumki, XX asrning 30 - yillarigacha Amerikada "Etnologiya" mashhur olim Frants Baos maktabi ta'sirida rivojlangan. Frants Boas (Frenz Boas, 1858–1942 yy) g'oyalari bir necha o'n yillar oldin nafaqat psixologik antropologiya, balki madaniy antropologiyaning qator dastlabki asosiy magistral yo'nalishlari uchun asosiy pillapoya bo'lib xizmat qilgan. Baosni tadqiqotchilar zamonaviy "Etnologiya"ning me'mori deb hisoblaydilar. U avvalo evolyutsionistlarning kishilik jamoasi, ijtimoiy institutlar, madaniy quyidan yuqoriga qarab taraqqiy etib boradi, – degan ta'limotiga keskin qarshi chiqqan. Baos o'zidan oldingi o'tgan tadqiqotchilar mavhum yoki noto'g'ri xulosalarga kelgan va shu bois "Etnologiya"ni yangidan yaratmoq zarur degan xulosaga kelgan. U yangidan etnografik materiallar yig'ish uchun oldingi tadqiqotchilardan ko'proq dala ekspeditsiyalari tashkil etish va ular asosida yangi metodlar va konsepsiyalar yaratish zarur deb hisoblagan. Bu borada Amerika maktabining vakillari o'zlarining dala tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida ko'plab psixologik va psixatrik uslublardan foydalangan. Natijada psixologik antropologiyaga oid ko'plab ma'lumot yig'ishga muvassar bo'lingan. Psixiantropologik nazariyaga bo'lgan ehtiyoj natijasida etnopsixologik maktab taraqqiy etadi.

“Etnologiya”da psixologik yoʻnalish oʻzining taraqqiyoti jarayonida oʻzining kontseptual vorisligini saqlagan holda bir necha marotaba nomini almashtirgan. Mazkur yoʻnalish dastlab Frants Baosning tarixiy maktabi, keyinchalik, Shaxs va Madaniyat maktabi, undan keyin «milliy xarakter»ni tadqiq qilish, XX asrning 60 yillaridan boshlab to hozirgi kungacha esa –psixologik antropologiya, yoki koʻpincha etnopsixologiya nomi bilan yuritiladi.

Etnopsixologiya maktabi namoyandalarining taʼkidlashlaricha, «madaniyat» mavhum tushunchadan koʻra kengroqdir, lekin bu borada birinchi oʻrinda individ, shaxs turadi. Shu bois, ularning fikricha, har bir xalq madaniyatini tadqiq qilishda individ va shaxsni oʻrganishdan boshlamoq joiz.

Dastlabki etnopsixologik konsepsiya etnolog olimlar tomonidan emas, balki psixolog olim, aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, Abram Kardiner (1891-1981 yy) tomonidan yaratilgan. U oʻz qarashlarini «*Individ va uning jamoasi*»(1937) va «*Jamiyatning psixologik chegarasi*» nomli asarlarida etnopsixologiya maktabining asosiy gʻoyalarini bayon qilgan. Uning tasavvuriga koʻra, insonning shaxsiy xususiyatlari u tugʻilgandan keyingi dastlabki paytlardanoq shakllana boshlaydi. Bu shakllanish tashqi taʼsirlar va ayniqsa har bir jamiyatdagi oʻziga xos bola parvarishlash usullari: ovqatlantirish, yoʻrgaklash, koʻtarish, keyinroq esa yurishga, gapirishga va ozodalikka oʻrgatish kabilar orqali amalga oshadi. Shuning uchun ham inson ruhiyatining shakllanishi asosan 4-5 yoshgacha davom etadi va undan keyin mustahkamlanadi va butun umr deyarli oʻzgarishsiz qoladi. Kardinerning bosh gʻoyasida «asosiy shaxslar» tushunchasiga urgʻu beriladi.

Umuman nafaqat Kardiner balki AQSH etnopsixologiya maktabining R. Linton, E.Sepir, R. Benedikt, M. Mid, A. Kardiner kabi asoschilari ham etnik farqlanish va madaniyatlar dinamikasini «muhim shaxslar tarkibi» nazariyasi bilan bogʻlab tushuntirishga harakat qilganlar. Jumladan atoqli etnolog Rut Benidikt oʻzining «Madaniyat naʼmunalari» (1934), «Janubiy Gʻarb madaniyatining psixologik tiplari» (1928), «Shimoliy Amerikadagi madaniyatlarning konfiguratsiyasi» (1932) kabi asarlarida turli madaniyatlarda oʻziga xos maxsus shaxslar jamoasi mavjudligi haqidagi qarashlarini bayon yetgan. Kardiner tasavvuriga koʻra, inson shaxsiy qarashlari u tugʻilgandan keyingi dastlabki kunlardanoq shakllana boshlaydi. Bu bevosita unga tevarak-atrofdagilarning munosabatlari asosida shakllanadi. Bolalik davrida boʻlgan munosabat uning kelgusidagi hayot faoliyatida oʻziga xos iz qoldiradi.

Sobiq sovet tuzumi davrida etnopsixologiya “burjua fani” hisoblanib, mazkur fanni oʻrganishga eʼtibor berilmagan. Mafkuraviy qarama-qarshiliklar mavjud boʻlganligi uchun Yu.V.Bromley, N.D.Jandildin, S.I. Korolyov, S.A. Tokarev kabi taniqli etnograf olimlar ham Gʻarbiy Yevropa va AQSHdagi etnopsixologiya sohasiga doir nazariyalarni faqat bir tomonlama, yaʼni «burjua sotsial psixologlari qarashlarining tanqidi» sifatida oʻrganishga majbur boʻlganlar.

Etnopsixologiya maktabining nazariy-metodologik yoʻnalishi madaniyat va shaxsning oʻzaro taʼsirini aniqlashdan iborat boʻlgan. Ularning nazariyasiga koʻra har bir madaniyat oʻziga xos shaxslar tipining egasidir va bolalar tarbiyasini

o'rganish shaxs va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar orqali shakllanadigan milliy xarakterni ochib berishda muhim vosita hisoblanadi.

XX asrning 30-40 - yillarga kelib shaxs bilan madaniyat munosabati tushunchasi "Etnologiya"ning dolzarb va asosiy muammosiga aylandi hamda tobora ko'proq etnolog olimlarning e'tiborini torta boshlagan edi. Mazkur muammo bo'yicha o'z nazariyalarini ilgari surgan olimlar ikki oqimni tashkil etdi: birinchi oqim vakillari «inson xarakteri faqat tarbiya natijasida shakllanadi» degan nazariyani ilgari suruvchi Boasning madaniy determinizimi tarafdorlaridir (R.Benidikt, M.Mid), ikkinchi oqim tarafdori esa "neofreydizim – (ya'ni turli madaniyat shaxs tiplari) umumlashgan asosdagi cheklangan variatsiyaning natijasidir" – degan g'oya tarafdor (A.Kardiner, R.Linton, I.Xollouel) laridir.

Etnopsixologiya maktabining rivojlanishida, shubhasiz, Boasning shogirdi M.Midning katta xizmatlari bor. U ustozining turli madaniyatlardagi tarbiya usuli shaxslar va ularga xos faoliyatlarni keltirib chiqarishi haqidagi fikrini quvvatlaydi hamda inson xulq-atvori, faoliyati, shaxsiy xususiyatlarini biologik omil (irq) bilan emas madaniyat bilan bog'liqligi haqida ilmiy xulosaga keladi.

M.Mid Samoa (1892-95 yy) va Admiralteystva (1928-1929 yy. va 1965-1967 yy) orollarida, Yangi Gvineya (1930-33yy), Indoneziyaning Bali (1936-1940 yy) orolida va boshqa hududlarda uzoq vaqtlar mobaynida etnografik dala tadqiqotlarini olib bordi. Mazkur dala tadqiqotlari ma'lumotlari asosidagi "Samoadada balog'atga yetish", "Uch ibtidoiy jamoalarda jins va temperament", "Gvineyada voyaga yetish" kabi asarlari bilan M.Mid butun dunyoga tanildi.

Etnopsixologik qiyofa tushunchasiga ham ko'p tadqiqotchilar o'z ta'riflarini berib o'tganlar. Masalan rus tadqiqotchisi S.I.Korolyov shakllangan etnik qiyofa "ma'lum darajada muhofaza qiluvchi mexanizm rolini o'ynaydi. U xuddi elakdek, yot narsalarni ajratib, uni yo qabul qiladi, yoki uni shu xalqda mavjud bo'lgan normalar asosida qayta ishlab beradi yohud inkor qiladi" – deb ta'rif bergan. Bu ta'rifni biroz boshqacharoq talqin etadigan bo'lsak, etnoslarning psixologik qiyofasi-ularning atrofdagi voqelikni, hodisalarni o'ziga xos ravishda idrok, tafakkur, tasavvur qilishi ularga bo'lgan munosabatning urf-odat, an'analar, xarakter tarzida namoyon bo'lishidir.

Har bir xalqning psixologik qiyofasiga mos tarzda madaniyati, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar tizimi, yosh va jinslar o'rtasidagi farqlanish, diniy e'tiqodga nisbatan munosabat va shu bilan bog'liq harakatlar, kayfiyatlar hozirgi davrda esa siyosiy jarayonlarga munosabatlar ham shakllanadi.

Muayyan bir etnik guruhlar ma'lum bir tarixiy rivojlanish boshichida o'ziga xos ruhiy-axloqiy hislatlarga ega bo'lib boradi va bu hol ularning madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, biz ruhiy-axloqiy hislatlarimiz va shunga bog'liq turmush tarzimiz bilan xuddi shu makonda bir asr oldin yashagan o'z ajdodlarimizdan ancha farq qilamiz.

XX asrdagi AQSH etnopsixologiya maktabining asosiy xususiyatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, u quyidagilardan iborat edi: Madaniyatni shaxs orqali tushuntirishga intilish, insonning bolalik davriga, ayniqsa, go'dakning ruhiy-jinsiy

shakllanishiga kuchli qiziqish, jamiyat rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'rniga yetarli baho bermaslik va psixik omillarni mutlaqlashtirish. AQSH etnopsixologiya maktabining fan oldidagi xizmatlari esa avvalo etnografiyani psixologiya va psixiatriya bilan yaqinlashuviga yordam berdi, etnografiyaga loyihalangan testlarni qo'llash orqali bolalik davrini qiyosiy tadqiq qilishni rivojlantirdi.

XX asrning 60-70 - yillariga kelib etnopsixologik tadqiqotlar hududi sifatida «madaniyat va shaxs»ni sotsial-madaniy sistema bilan bog'liq tarzda o'rganish yana dolzarb muammoga aylandi.

Psixologik antropologiya sohasida Germaniyalik olim I.Eybl-Eybesfeldt, italiyalik V.Lantanari, gvatemalalik A.Mendea-Dominige va shu kabi olimlarning faol tadqiqot olib borib, etnopsixologiya rivojlanishiga muhim hissa qo'shishlari etnopsixologiyaning amalda dunyo fanlari tizimida mustahkam o'rin olganligidan dalolat beradi.

Psixologik antropologiya insonni bashariyatning va alohida madaniyatning bir bo'lagi sifatida tadqiq etar ekan turli sotsial va madaniy sistemalarda a'lo darajadagi hamfikrlilik va hamjihatlik vujudga kelishi uchun keng yo'l ochadi. Bu esa davrimizga xos bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, milliy va diniy muammolar globallashayotgan zamonda ko'plab muammolarni hal qilishning samarali vositasidir.

Jahon "Etnologiya" sda etnopsixologiyaning o'rni haqidagi fikrlarimizni yakunlar ekanmiz, ilg'or mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni yechishda etnopsixologik tadqiqotlar natijasidan samarali tarzda foydalanganligini ta'kidlab o'tish joiz. Ularning tajribasidan kelib chiqib, hozirgi davrda jamiyatimizdagi ko'plab iqtisodiy-ijtimoiy muammolar o'z yechimini topmayotganligi yoki amalga oshirilayotgan islohotlar biz uchun kutilgan natijalarni bermayotganligiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning jamiyatdagi etnoslar xulq-atvori va ruhiyati bilan bog'liq ekanligini to'la anglamaganimiz sabab degan fikrga keldik.

Xalqimiz moddiy va ma'naviy madaniyatining ajralmas qismi sanalmish uning e'tiqodi, urf-odatlar, uy-joyi, kiyim-kechagi-yu taomlarini o'rganish bilan bir qatorda ana shu o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyatni shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan xulq - atvori va ruhiyatini tadqiq etish ham muhimdir.

Faqat etnopsixologik tadqiqotlar bilangina biz tariximizning keyingi davrida xalqimiz ruhiyati va xulq atvorida paydo bo'lgan loqaydlik, boqimandalik, ma'suliyatsizlik, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularidan uzoqlashish kayfiyatlari, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning sustligi kabi salbiy hislatlarning vujudga kelganlik sabablarini ochishimiz, jonkuyarlik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik va boshqa shu kabi fazilatlarni rivojlantirishning yo'llarini topishimiz mumkin.

Jahon tarixiga nazar soladigan bo'lsak, inglizlardagi kuchli tadbirkorlik, tashabbuskorlik va tarbiyadagi qattiqqo'llik hislati, nemislardagi o'ta



mas'uliyatlilik va o'ziga ishonch hislari, yaponlarning millatparvarligi va jamoa manfaatini e'zozlashlari, fransuzlardagi doimo yangilikka va erkin fikrlashga intilish bu xalqlar yashayotgan yurtlarni dunyoda eng taraqqiy yetgan mamlakatlarga aylantirdi.

Sayyoramizda yashovchi turli-tuman xalqlarni shakllanishida va ularni farqlashda til ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til birligiga qarab ayrim xalqlar, etnik guruhlar aniqlanibgina qolmay, ko'pincha til asosida nom ham beriladi. Dunyo xalqlarining til boyligi juda boy va o'z navbatida juda ham murakkab hisoblanadi. Biroq lingvistika bir qator kamchiliklardan ham xoli emas. Jumladan, lingvistik tahlil orqali bir necha tillarda so'zlashuvchi xalqlarni (misol uchun yahudiylarni), yoki oldingi tillaridan farqli tilda so'zlashuvchi etnoslar (misol uchun irlandlarni)ni tasniflash me'yorlariga solish qiyindir. Shunga qaramay lingvistik klassifikatsiyalashning ko'plab ijobiy jihatlari mavjud. Avvalo, bunday klassifikatsiyalashni qo'llash natijasida yoki umumiy kelib chiqishiga ega bo'lgan xalqlar yoki uzoq muddat doimiy madaniy-lingvistik aloqada bo'lgan xalqlar bir guruhga kiradi.

Lingvistik tasnif tarixiy-qiyosiy o'rganish orqali aniqlanadi. Qolaversa etnoslarning turli klassifikatsiyalari orasida etnosning tiliga qarab tasniflash muhim tasniflashlardan biri hisoblanadi. Chunki aynan lingvistik tasniflash orqali ma'lum bir xalqlarning etnik yaqinligi, u yoki bu madaniyatning umumiy asosga ega ekanligi borasida birmuncha aniq tasavvurlar beradi.

Dunyo xalqlari til birligiga ko'ra, boyligi va murakkabligiga ko'ra farqlanib turadi. Tadqiqotchi olimlar tomonidan yer sharida turli etnik guruhlar va jamoalar so'zlashuvchi 6 mingdan ortiq tillar mavjudligi aniqlangan.<sup>1</sup> Sayyoramizdagi ayrim davlatlardagina (ko'plab Yevropa mamlakatlarida) bitta tilda gaplashishsa, ayrim mamlakatlarda (Nigeriya va Rossiyada) 100 dan ortiq tillarda so'zlashishadi. Hozirda ayrim tillar kelib chiqqan hududidan tashqaridagi keng hududlar bo'ylab yoyilgan. Bu borada misol uchun arab tilini olib ko'radigan bo'lsak, arab tili paydo bo'lgan vaqtda (VII asrdan oldin) undan faqat Arab yarim orolining janubidagina yashovchi qabilalar foydalangan bo'lsa, hozir bu tilda Shimoliy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyoda joylashgan juda ko'p xalqlar so'zlashadilar. Yoki ingliz tilini olsak, dastlab unda Britaniya orolining aholisi so'zlashgan bo'lsa, hozir Yevropa va Shimoliy Amerika aholisining beshdan bir qismi, Avstraliya va Yangi Zelandiya xalqlari asosan shu tilda so'zlashadilar. Asl vatani Pireniy yarim oroli bo'lgan ispan tili keyinchalik butun Lotin Amerikasiga tarqalgan.

Xalqlarni tilga qarab tasniflash mezonlari asosan ikki kriteriya-til va etnik mansublik prinsplariga asoslanadi. Umuman olganda til insoniyat madaniyatining asosini tashkil etadi. Chunki til aynan insonga xos maxsus ramzlar orqali ma'lumot uzatiladi. Tilning taraqqiyoti madaniyat taraqqiyoti bilan parallel tarzda rivojlanib

---

<sup>1</sup> Sadoxin.A.P. Etnologiya. – M., 2000.– S.104.

borgan va yakunida inson shakllangan.

U yoki bu tillarning qon-qarindoshligi “Etnologiya” uchun ushbu tillarda soʻzlashuvchi madaniyatlarni va xalqlarning yaqinligini namoyon qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Dunyo xalqlari orasidagi turli til oilalari borasida tadqiqotchi olimlar orasida umumiy qarash mavjud emas. Biroq oxirgi yillardagi ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida dunyo xalqlari tillarini quyidagi til oilalariga boʻlish mumkin:

1)Hind-yevropa tillar oilasi – eng koʻp sonli va eng keng tarqalgan til oilasi hisoblanadi. Mazkur oilaga kiruvchi tillarda dunyo aholisining 45% i soʻzlashadi. Hind-yevropa oilasiga kiruvchi xalqlar Yevropaning katta qismida, Tojikistonda, Eronda, Afgʻonistonda, Janubiy Osiyoning shimoliy, janubiy va markaziy hududlarida, Amerika va Avstraliyada yashaydi. Oʻz navbatida hindoyevropa tillar oilasi 10 ta guruhga: slavyan, boltiq, nemis, kelt, roman, grek, alban, eron, hind-oriy va arman tillar guruhiga boʻlinadi.

2)Kartvel til oilasiga mansub kishilar kam sonli boʻlib, faqatgina Guruziya hududidagina yashashadi.

3)Dravidlar oilasi (dunyo aholisining 4% i) ga Hindistonning janubida va Shri-Lankaning sharqiyida yashovchi aholi kiradi. Ushbu til oilasi ham 4 guruhga: markaziy, janubiy, shimoliy-sharqiy va shimoliy-gʻarbiy (darvit tillarining boshqacha klassifikatsiyasi ham bor)ga boʻlinadi.

4)Oltay tillar oilasi (dunyo aholisining 6% i). Mazkur tillarda Yevrooisiyoning bir-biridan uzilgan mintaqalari-Bolqondan tortib Yapon orollarigacha, Shimoliy muz okeani qirgʻoqlaridan tortib Markaziy Osiyo choʻllarigacha boʻlgan hududlarda yashovchi turli xalqlar soʻzlashadilar. Ushbu oila 5 ta guruhga: turkiy, moʻgʻul, tungus-manjur, koreys tillari kiradi.

5)Afraosiy tillari (semito-hamit) oilasi (dunyo aholisining 5% i) Shimoliy va Shimoliy-sharqiy Afrikada, Arabiston yarim orolida va unga tutash boʻlgan shimoliy mamlakatlarda: Suriya, Livan, Iordaniya, Iordan daryosining gʻarbiy qirgʻogʻida, Iroqda hukmron hisoblanadi va 4 ta guruhni: semit, berber, chad va kushit tillarini birlashtiradi.

6)Nigero-kordofan oilasida soʻzlashuvchi xalqlarga (dunyo aholisining 6% i) Farbiy, markaziy, sharqiy va janubiy Afrikada yashovchi aholi kiradi. Ushbu til oilasi –kongo va kordofan tillariga boʻlinadi.

7)Nigero-kordofan tillarida soʻzlashuvchi xalqlar yashaydigan mintaqaning shimoliy hududlarida nil-sahar oilasida gaplashuvchi xalqlar (dunyo aholisining 6% i) yashashadi va ular 9 guruhga: Sharqiy Sudan, Markaziy Sudan, bertlar, kumana, sahar, songai, fur, mabang, komuelarga boʻlinadi.

8)Kamsonli shimoliy Kavkaz oilasi (dunyo aholisining 0,1% i)ga abxazadigeylar va nax-dogʻistonliklar kiradi.

9)Hindoyevropa til oilasidan keyingi aholi soniga koʻra eng koʻp tarqalgan tillar oilasiga sino-tibet tillar oilasi kiradi. Bu tilda dunyo aholisining 23% i soʻzlashadi. Bu til oilasi Sharqiy, Markaziy, Janubiy-Sharqiy Osiyo aholisi va Janubiy Osiyoning shimoliy mintaqalarida yashovchi aholiga mansub. Turli

olimlar xitoy-tibet tillar oilasini turli guruhlariga bo'ladi. Ba'zi bir tasnifiy bo'linishga ko'ra ushbu guruhga 13 ta tillar: xitoy, tibet-birma, kachin, bodo-garo, midju, digaro, miri, djimal, lepcha, shimoliy ximolay, nevari, gurung, sharqiy himolay tillari kiradi.

10) Avstroosiyo tillari oilasi (dunyo aholisining 1,6% i) Janubiy-Sharqiy, Janubiy Osiyoda yashaydi va 5 guruhga: mon-kxmers, asliy, nikobar, kxasi, munda tillariga bo'linadi..

11) Mmyao-yao tillari oilasiga kiruvchi aholining (dunyo aholisining 0,2% i) tarqalish hududi juda ham tor bo'lib, Sharqiy Osiyoning janubiy tumanlari va Janubiy-Sharqiy Osiyoning shimolidagi xalqlar orasida yoyilgan bo'lib, myao va yao degan tillarga bo'linadi.

12) Janubiy-sharqiy Osiyoda paratay tillari oilasiga kiruvchi xalqlar (dunyo aholisining 1,4% i) yashaydi. Ayrim tasniflashlarga ko'ra ushbu oila 6 guruh tillar: tay, kim-suys, ong-be, li, lakk, gelaolardan iborat.

13) Janubiy-Sharqiy Osiyoda, Okeaniyada va Tayvanda avstroneziya tillari oilasiga kiruvchi xalqlar yashaydi (dunyo aholisining 5% i). Dunyo xalqlarini zamonaviy klassifikatsiyasiga ko'ra ushbu oila 6 guruhga: g'arbiy avstroneziy, sharqiy avstroneziy, atayal, tsou, payvan (oxirgi 3 tasi Tayvandagi kamsonli guruh hisoblanadi) tillariga bo'linadi.

14) Avstraliya tillari oilasi Avstraliya qit'asida saqlanib qolgan kamsonli xalqlarni birlashtiradi. Ushbu til oilasi 22 guruhga bo'linadi.

15) And tillar oilasi (dunyo aholisining 0,3% i) – hindularning eng yirik oilasi hisoblanadi. Chunki bu tilda Amerika hindularining eng yirik qabilalaridan biri – kechua qabilasi gaplashadi. Ushbu til oilasi atrofida And tog'i atrofida yashovchi xalqlar kiradi va 6 guruh: urarina-vaorani, kauapana-saparo, shimoliy, kechua, ay-mara, janubiyga bo'linadi.

Jahon xalqlari tillarini klassifikatsiyalash borasida dunyo tilshunoslari tomonidan qator mulohazalar bildirilgan bo'lib, bunday tarzda klassifikatsiyalashni keng ilmiy jamoatchilik tomonidan to'la e'tirof etilgan qarash deb bo'lmaydi. Jumladan, hali hanuz barcha olimlar ham turkiy, mo'g'ul va tungus-manjur tillarini genetik umumiylikni tan olmaydilar. Koreys va yapon tillarini izolyatsiyalashgan tillar deb hisoblovchilar ham bor. Shuningdek Afrika va Amerika xalqlari tillarini tasniflash borasida ham yakuniy umumiy xulosaga kelinmagan.

#### **Nazorat savollari:**

1. Evolyutsionizm va diffuzionizm. Evolyutsion maktabning shakllanish tarixi.
2. Antievolutsionizm: diffuzionizm, sotsial maktab.
3. F.Baosning Amerika tarixiy maktabi va uning "Etnologiya" hamda madaniy antropologiyaning keyingi taraqqiyotiga ta'siri.
4. Etnopsixologiya maktabining shakllanishi.
5. "Etnologiya"dagi yangi zamonaviy konsepsiyalar.
6. "Etnologiya"da ekologik yo'nalish.
7. Zamonaviy "Etnologiya" maktablari va konsepsiyalari.

8. B. Malinovskiyning funksionalizmga oid qarashlari.
9. "Etnologiya" fani kecha, bugun va ertaga.
10. "Etnologiya" da postmodernizm konsepsiyasi.
11. Etnoslarni klassifikatsiyalashga oid asosiy yo'nalishlar.
12. Etnos va irq. Turli xalqlarga xos irqiy alomatlar.
13. "Etnologiya" dagi lingvistik klassifikatsiyalash.
14. Xo'jalik madaniy tiplariga oid tasniflash.
15. Dunyoning zamonaviy etnik xaritasi.
16. XX asrdagi etnosiyosiy jarayonlar va etnoslararo mojarolar.
17. Markaziy Osiyo mintaqasining etnomadaniy tuzilishi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Belik A.A., Rezik Yu.V. Sotsiokulturnaya antropologiya. Istoriko-teoriticheskoe vvedenie. - M., 1998.
2. Kratkiy etnologicheskiy slovar. Moskva: fond "Sotsialniy monitoring", 1995.
3. Kulturnaya antropologiya: Uchebnoe posobie/Pod.red. Yu.N.Emelyanova, N.G. Skvortsova.-SPb., 1996.
4. "Etnologiya". Uchebnik dlya visshix uchebnix zavedeniy. Pod red. A.P Sadoxina. - M., 2000.
5. Sadoxin A.P., Grushevitskaya T.G. "Etnologiya". Uchebnik dlya visshix uchebnix zavedeniy. -M., Academia, 2000.
6. J. B. Cole. Anthropology For the Nineties. N.Y, L.: The Free Press, 1988.
7. George W. Stocking. Polarity and Plurality: Franz Boas as Psychological Anthropologist. In: New direction in Psychological Anthropology. Theodor Schwartz, Geoffry M. White, Satherine A. Lutz (eds.) Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
8. Jabborov I. Jahon xalqlari "Etnologiya" si.T., 2005.
9. Its.R.F. Vvedenie v etnografiyu.-L., Universitet, 1991.
10. Narodi i religii mir: Entsiklopediya.-M., 1998.
11. Yaziki Azii i Afriki. T.1-3. M., 1976-1979.
12. Sadoxin A.P., Grushevitskaya T.G. "Etnologiya". Uchebnik dlya visshix uchebnix zavedeniy. -M., Academia, 2000.
13. Greenberg J.H. Language in the Americas. Stanford, 1987.
14. Ruhlen M. A guide to world' languages. Vol.1: Classification. London, 1987.
15. Swadesh M. The origin and diversificat ion of language/ London, 1972.

### **16-Mavzu: Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi.**

#### **Reja:**

1. Milliy g'oya mustaqilligimizni mustahkamlashning ilmiy-nazariy va g'oyaviy asosi.
2. Millatlararo totuvlik ilmiy va umuminsoniy qadriyat sifatida.

Milliy istiqlol g'oyasi fan sifatida 2001 yil 18 yanvardagi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti farmoni bilan alohida mustaqil fan sifatida O'zbekiston Respublikasining barcha o'quv yurtlariga kiritildi.

Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar nomi bilan kiritilgan o'quv fani mustaqilligimizni g'oyaviy – nazariy va ilmiy- amaliy ifodasi bo'ldi. Bu g'oya dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallab borayotgan mamlakatimiz xalqining mustaqillik yillarida orttirgan tajribalari, bosib o'tgan murakkab va jonli yo'li, milliy tafakkuri va ma'naviyatimizdagi yuksalishlarning mantiqiy natijasi, xalq irodasining mujassam ifodasi sifatida shakllandi. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi O'zbekiston xalqining ezgu g'oya - Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, ulug' maqsad-muddaolarini o'zida aks ettiradi. Bu g'oya xalqni –xalq, millatni-millat etadigan, uning shonli yo'li, sha'ni-sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan g'oyalar tizimidan iborat bo'lib, jamiyatimizni o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlarini ifodalaydi, ularni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, aytish zarurki, milliy g'oya, uning asosiy tamoyillari Prezident Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan vazifani-yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladi gan yaxlit va izchil ta'limotni yoshlarimiz qalbi va ongicha singdirish vazifasini bajaradi. Bu fan milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari, tarixiy negizlari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy ildizlari, o'ziga xos nomoyon bo'lish xususiyatlari va qonuniyatlari to'g'risida bilim beradi. Mamlakatimizni mustaqillik yo'lidan rivojlantirish xususidagi asosiy nazariy va amaliy xulosalar O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining asarlarida o'zining teran ifodasini topgan. Ularda jamiyatimizning pirovard maqsadlariga yetish yo'llarini aniq ifodalaydigan yaxlit ta'limot-milliy istiqlol g'oyasini mohiyati mazmuni, tushunchasi va tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan isbotlab berilgan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti asarlarini o'rganish yurtimizda barpo etilayotgan jamiyatning ijtimoiy – ma'naviy poydevorini mustahkamlash, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, yot mafkuralar tojovuziga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zaruriyati milliy istiqlol g'oyasini taqozo yetganligini yaqqol ko'rsatadi.<sup>1</sup>

Xalqimizni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlari sari birlashtirish, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati va ravnaqi uchun doimo ma'suliyat sezib yashashiga, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni bunyodkorlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas tuproq uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish-milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsadidir.

Milliy istiqlol g'oyasini yaratishi mustaqqilligimizning mustahkamlashning obyektiv zaruriyati va ehtiyoji tarzida yaratildi. Bu g'oya mamlakatimizdagi barcha elatlar, millatlarning, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, siyosiy partiyalar va

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi. Annotatsiyali bibliografiya (1991-2001 y.y.). T-2001, 3-bet.

uyushmalarning, tadbirkorlar, yoshlar, faxriylar, ayollar ehtiyoj va manfaatlarini o'zida uyushtiradi, aks ettiradi. Milliy istiqlol g'oyasining tarixiy va nazariy tahlili shuni ko'rsatadiki, unda g'oya va mafkura tushunchalari, ularning xalqlar va davlatlar tarixiga ta'siri, globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan hozirgi sharoitda g'oya va mafkuraning o'rni kabi dolzab muammolarni terang anglashga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti o'zining qator asarlari, nutq va maqolalarida milliy istiqlol g'oyasida ifodalanadigan ulkan bunyodkorlik, kelajak sari og'ishmay olg'a borish, xalqimizni mustaqillik tomon dadil qadamlar borishi to'g'risidagi g'oyalar muntazam ta'kidlab boriladi. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikli qo'lga kiritishi natijasida o'z taqdirining chinakam egasi, o'z taqdirining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi. Ma'naviyatga yangicha munosabat davlat miqyosida rivojlantirila boshlandi. "Har bir avlod el-yurtining tarixini va obro'yni o'zining farzandlik muhabbati va e'tiqodi, sadoqati va bunyodkorligi, matonati va mardligi bilan barpo etadi", degan tamoyilni oldinga suradi yurtboshimiz milliy g'oya va mafkura jamiyatimiz uchun naqadar zarur ekanligini, mafkuraviy bo'shliq jamiyat taraqqiyotiga to'liq bo'lishini, mafkurasiz odam, jamiyat va davlat o'z yo'lini yo'qotib qo'yishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi. Milliy g'oya va mafkura jamiyatni, xalqni birlashtiruvchi, bunyodkorlik ishlariga safarbar etuvchi kuch bo'lishi, u xalqni-xalq, millatni millat etishi lozimligini, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchli ekanligini, mafkura o'tishi va kelajak o'rtasidan ko'prik vazifasini o'tashi lozimligini uqtiradi. Shu munosabat bilan ba'lim tizimini isloh qilish, uning yangi modelini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish to'g'risida nazariy va amaliy yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib berdi.

Milliy g'oyaning mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashdagi ahamiyatini izohlashda qo'yidagi masalalarga jiddiy e'tibor berish zarur. Mustaqillik bu eng avvalo huquq, deydi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti. Bu lo'nda qilib aytilgan ta'rifda tom-tom ma'no mavjud. Darhaqiqat, mustaqillik sharofati bilan xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga; o'zining milliy davlatchiligini qurish huquqiga; yaxlit va yangi O'zbekiston deb ataluvchi mamlakatni jahon xaritasida tiklash huquqiga; yer osti va yer usti boyliklaridan o'z xalqi, millati manfaatlarini yo'lida foydalanish huquqiga; milliy chegaralarini daxlsizligini ta'minlash huquqiga; xorijiy mamlakatlar bilan o'z milliy manfaatlarini va maqsadlariga asoslangan holda xalqaro teng munosabatlar o'rnatish huquqiga; ona tili- o'zbek tiliga davlat tili berish huquqiga; qadimiy tarixiy yodgorliklarimizni asrab-avaylash va tiklash huquqiga; milliy boy madaniy ma'naviy merosimizni tiklash va unga egalik qilish huquqiga va boshqa ko'plab milliy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy huquqlarni qo'lga kiritdi. "Mustaqillik har bir O'zbekiston fuqarosi va vatan parvari uchun eng katta siyosiy, iqtisodiy hamda ma'naviy boylikdir, deb to'g'ri yozadi M. Abdullaev, - Mustaqillik Respublika xalqi, shu yurtning har bir fuqarosiga tinchlik, barqarorlik, hurriyat va ozodlik keltirdi, istiqlol tufayli o'zbek xalqi tarixiy qadriyatlar, ko'xna madaniyat

va ma'rifat, an'ana va rasm-rusmlarga yana qayta ega bo'ldi, mamlakatimiz osmoni beg'ubor, baxt-saodat quyosh bilan porloq istiqloqlga ega bo'ldi".<sup>1</sup>

Milliy mafkura va milliy g'oyaning mustaqiligimizni mustahkamlashdagi beqiyos ahamiyatini yoritir ekan marhum, akademik H.Po'latov shunday deb yozgan edi. "Men o'zbeklarning milliy mafkurasi deganda milliy voqeligimizning mavjudlik qonuniyatlarimizdan kelib chiqadigan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy ehtiyojlari va manfaatlarini, tub ustuvor va salohiyatli muammolarini ilmiy asosda hal etib, rivojlanishimizning maqsadi va vazifalarini belgilash, ularni ro'yobga chiqarishda insonparvar yo'llar, adolatli usullar hamda vositalarni belgilovchi g'oya va fikrlar majmuni tushunaman"<sup>2</sup>.

Mustaqillik natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda yuzaga chiqan barcha dolzarb muammolarni yangicha tafakkur orqali, falsafiy-nazariy mushohada qilgan va xulosa chiqargan holda mustaqillikni milliy mafkurasini yaratish lozim, zero ilmiy obyektivlik asosida mafkurani yangilash, yangilanish mafkurasini shakllantirish mamlakatimiz siyosiy va ma'naviy hayotini sog'lomlashtirishdir.

Milliy g'oya hamma tarixiy davrlarda, ayniqsa tarixning burilish pallalarida ozodlik va mustaqillik uchun kurashning bayrog'i bo'lganligini, mustaqillikni qo'lga kiritgan millat yagona milliy g'oya bayrog'i ostida jiplashganligini tadqiqotchilar ta'kidlab o'tadilar.

Milliy g'oya millatni yetaklovchi kuch hisoblanadi unda davlatning an'analari, shu zamin xalqlarining urf-odatlarini, tarixi va ma'naviyati mujassamlangan mustaqilligimizni asrashning ma'naviy-ruhiy asosi hisoblanadi. Yurtboshimiz: "Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalikda hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ma'naviy hayotimizning uzviy qismiga aylanib ketgan hashar odati istiqloq davrida yangicha ma'no-mazmunga ega bo'lib, umumilliy an'ana tusini olgan barchamizni mamnun etadi". Bu jarayon milliy g'oyaning o'z-o'zidan davlatimizning kelajagi bo'lmish yoshlar bilan qanchalik chambarchas ravishda to'ldiruvchi butunlik ekanligini isbotlaydi. Milliy g'oyaning amaliyotida qo'llanishi uning taraqqiyotini bildiradi. Bu o'rinda milliy g'oya ikki asosiy vazifani bajarib berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, shu Vatanga muhabbat ruhida, uning oldida doimo ma'suliyatni sezadigan, xalq, davlat manfaatlarini o'zinikidan ustun qo'yishga qodir bo'lgan yangi avlodni tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, milliy g'oya yosh avlodni bugungi kunda "mafkuraviy xavf"larning oldini olish va ayniqsa, hissiyotga beriluvchan, ishonuvchan yosh avlodni o'ziga xos ravishdagi himoyasining ham amaliy-nazariy

---

<sup>1</sup> M.Abdullaev. Madaniyat ma'naviyat, ma'rifat. "Muloqot" jurnali, 1998, 3-son, 11-13- betlar.

<sup>2</sup> H.Po'latov. O'zbek mafkurasi. "Muloqot" jurnali, 1991, 6-son, 12-14- betlar

manba sifatida namoyon bo'ladi. Chunki mamlakatning kelajak poydevorlarining tom ma'nodagi me'morlari bu –yoshlardir.

Mamlakatdagi ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarlardagi yangilanishlar uchun davlatning bosh islohotchi ekanligi muhim. Milliy g'oyani davlat homiyligida va nazoratida avvalo ijtimoiy institutlarda, shuningdek, maktab ta'limi bilan bog'liq ravishda targ'ib qilishga qirishildi. Buning mohiyati yosh avlodni bugun, ayniqsa globallashuv va axborotlar xuruji oshayotgan paytda aniq maqsadga qaratilgan, millatparvar sifatida tarbiyalash, har qanday g'oya va mafkuralarga "ongsizlarcha" taqlidiy ergashish dardidan halos qilishdagi asosiy rolni bajarishi bilan belgilanadi.

XXI asr boshlariga kelib, dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib kyetdiki, bu jarayondan to'la ihtotalanib olgan birorta ham davlat yo'q, to'la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman degan mamlakatlar ham, uning ta'siriga tushib qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir mamlakatlar va xalqlar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviyat salohiyatlari va siyosati bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisani chuqur o'rganmasdan turib, unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini shiddatli selning kuchiga boshqaruvchisiz qayiqni topshirish bilan barobardir. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi bevosita an'anaviy negizlarini asos qilib olgan holda, zamonaviylikni targ'ib qilish va uni qabul qilish uning mohiyatini keng ommaga yetkazib berish bugun globallashuv jarayonlari avjiga mingan zamonda alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, bu jarayonda har bir axborot va ma'lumotlarni yetarli asoslab berishga qaratilishi jarayonni bir yo'nalishda rivojlanishini ta'minlaydi. Turli ta'sirlarga moyil va qiziquvchan xususiyatga ega va hali hayotning "achchiq" tajribalaridan bexabar yoshlarni chidamli, o'z fikriga va dunyoqarashiga ega qilib tarbiyalash milliy g'oya targ'ibotining asosiy vazifalaridan biridir. Aynan yosh avlodimizni milliy g'oyani asrovchilari va keyingi avlodga yetkazuvchi ekanliklari bu jarayonni nechog'lik muhim ekanligini yana bir bor isbotlab beradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tahlili bu sohada ishlar endigina boshlanganidan dalolat beradi. Globallashuv milliy ma'naviyatga ham ta'sirini o'tkazadi. Uning ta'siri kirib kelgan jamiyatning barcha sohalarini tez bo'lmasada, ammo asta sekinlik bilan bo'lsada, o'z "iz"larini



qoldiradi. Bunday turdagi “ta’sirlar”ga eng beriluvchan, uni oldida hali zaifroq bo’lgan kuch bu yoshlar hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan holda, globallashuv jarayonida turli g’oya va mafkuralarni aynan yoshlar orqali “ko’prik” sifatida foydalanishlariga yo’l qo’ymasliklari uchun, millatparvar, xalqchil, umuminsoniy tamoyillarga asoslangan milliy g’oya asosida qurollantirish bugun ushbu masalaning qanchalik muhimlik darajasini belgilab beradi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati qo’proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak va eng avvalo yosh avlodni kelajakda davlatimizni tayanchi sifatida tarbiyalashga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz, globallashuvning mohiyati, yo’nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilish zarur. Aynan shu jarayonni chuqurroq tahlil etish orqali siyosatchilar uchun to’g’ri yo’l tanlashi va qarorlar qabul qilinishi uchun imkoniyat yaratilishi mumkin.

**Millatlararo totuvlik g’oyasi** - umumbashariy qadriyat bo’lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo’lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Yer yuzida 6 milliarddan ziyod aholi mavjud. O’zbekiston hududida esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda.

Millatlararo totuvlik tushunchasini to’laroq, kengroq izohlashdan avval “millat” so’zini tushunib olishimiz darkor.

Millat(lotin. *natio* — millat) til, ma’naviyat, milliy o’zlikni anglash ruhiyati, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bog’langan, shuningdek, odatda o’z davlatiga ega bo’lgan hamda mustaqil subyekt sifatida o’ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni ifodalovchi kishilarning ijtimoiy barqaror birligi.

Millat ma’lum hududda turgun yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib, kishilarning ma’naviy-ruhiy salohiyati yagonaligi asosida shakllanadi. U faqatgina «kapitalistik jamiyatning muqarrar mahsuli» emas, balki insoniyat dunyoga kelishi va taraqqiyotining mahsulidir.

Millatning shakllanishi va rivojlanishida moddiy omillar muxim ahamiyatga ega bo’ladi, ammo ular millat abadiyligini ta’minlashning so’nggi imkoniyati emas. Ular millat taraqqiyoti uchun zarur shart hisoblanadi. millatning abadiyligini, uning barqarorligini ta’minlashning asosiy omili — uning ichki ma’naviy-ruhiy salohiyatidir.

Millat insoniyat mavjudligi sharoitida hech qachon o’lmaydi, o’zga millatlar bilan o’zaro qo’shilib ham kyetmaydi, balki takomillashib, rivojlanib borish asosida o’zining ichki ruhiy salohiyatida mavjud bo’lgan yangi qirralarni namoyon qilib boradi. Milliy taraqqiyot zaminida uning jahondagi ko’plab millatlar uchun xizmat qilishi mumkin bo’lgan turli sohalardagi o’ziga xoslik asosida umummilliy va umuminsoniy salohiyat shakllanib, rivojlanib boradi.

Millatlarning ichki ruhiy salohiyati, yaratuvchilik qobiliyati, matonati, tinimsiz mexnati, tadbirkorligi va o’ziga xosligini rivojlantirish asosida zamonaviy sivilizatsiya yuzaga kelgan. Mutaxassislarning hisoblashlaricha, Yer

yuzida uch mingga yaqin millat mavjud. Ular insoniyatning o'rtta hisobda 96 foizini birlashtiradi, qolgan to'rt foizni elat va qabilalar tashkil qiladi. Har bir millatning tarkibiga kiruvchilarning soni bir necha o'n mingdan bir necha milliongacha borib yetadi.

Millatlarni faqat son jihatdan guruhlariga ajratish mumkin. Ammo ularning xususiyatlari, jahonda tutgan o'rinlari jihatidan «buyuk» yoki «kichik» guruhlariga ajratib bo'lmaydi. Chunki son jihatdan eng kichik millatdan jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga ulkan xissa qo'shadigan insonlar chiqib, ular o'z millatini yuksaklik darajasiga olib chiqishi mumkin. Son jihatidan kichik bo'lgan millatning o'z hududlari butunligini, huquqini ta'minlashga yoki ma'naviy boyliklarini himoya qilishga qaratilgan harakatlari butun jahonni larzaga solishi mumkin. Milliy rivojlanishda, tarixiy tajribaning ko'rsatishicha, jahonda va ko'p millatli mamlakatda sodir bo'layotgan juda ko'plab mojarolar, ular oqibatida yuzaga kelayotgan beqarorlik, iqtisodiy va ma'naviy tanazzullar, aynan millatlararo munosabatlarga borib taqalmoqda. Ya'ni qayerda u yoki bu millat huquqlari poymol etilar ekan, albatta, bu mamlakat taraqqiyotini izdan chiqarishi muqarrar. Sobiq Ittifoqning ich-ichidan yemirilishi va oxir-oqibatda yo'q bo'lib ketishini tezlashtirgan eng qudratli omillardan biri ham «mayda» millatlarga nisbatan amalga oshirilgan buyuk millatchilik shovinizmi siyosati edi.

Jahonda va ko'p millatlar yashayotgan mamlakatlarda barqarorlikni ta'minlashni va taraqqiyotga erishishning muhim shartlariga, birinchidan, millatlarning teng huquqliligini amaliy jihatdan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, u yoki bu millat u hatto son jihatdan juda kichik bo'lmasin, ularga «katta» millatlar tomonidan kam sonli millatning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarining hurmat qilish kabilar kiradi.

Millat inson kabi muqaddasdir. Uning ichki ma'naviy ruhiy salohiyati, or-nomus, qadr-qimmat, g'urur va iftixor kabi ulug' tuyg'ularni mustahkamlaydi hamda himoya qiladi.

O'z navbatida millat taraqqiyoti ikki asosga:

**Birinchidan**, o'z zaminlari, imkoniyatlari va salohiyatlariga;

**Ikkinchidan**, turli millatlar bilan bo'ladigan o'zaro hamkorlik va o'zaro yordam kabilarga tayanadi.

Har bir millat imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning muqaddasligini e'tirof etish va huquqlarini ta'minlash umummilliy taraqqiyotning asosiy sharti hisoblanadi.

Har bir millat yaratganning mo'jizasidir. Jahon dinlarining muqaddas kitoblarida qayd etilishicha, Olloh asli insonni bir ota, bir onadan yaratgan, lekin ular bir-biri bilan muloqot qilishi, tanishishi uchun millatlarga bo'lib qo'ygan. Davlatlar bu borada ko'pmillatli (polietnik) va birmillatli (monoetnik) tarkibga ega bo'lib, har biri o'ziga xosligi bilan bir-biridan farq qilad. Har bir mamlakatda turlimillat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Har bir millatning umumiy manfaatlarini bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. Umumiy qadriyat va xususiy manfaatlar bir-biriga zid

kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jahonda vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog'liqdir. Xalqimizning «qo'shning tinch - sen tinch» degan maqolida ana shu haqiqat nazarda tutilgan. Bugun dunyoda, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan etnoslar orasida tinchlik osoyishtalik barqarorlik hamkorlik hamjihatlik teng huquqli munosabat bo'lmasa, ulardan hech biri o'zining porloq istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Shu bilan birga, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlash juda murakkab masala ekanini ham anglamog'imiz darkor. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Bu g'oya - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya - har bir millat vakilining istedodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Mamlakatimizda ushbu g'oyani amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekistonning bu boradagi o'ziga xos siyosatini bayon etib, quyidagicha takidlagan: «Respublika aholisi o'rtasida ko'pchilikni tashkil qiladigan o'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida masul bo'lishdan ham iboratdir». Bunday muxit millatlararo munosabatlarda turli muammolar tug'ilishiga aslo yo'l qo'ymaydi va Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g'oyalarni hamkor va hamjihat bo'lib amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deb aniq belgilab qo'yilgan. «O'zbekiston xalqi» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Konstitutsiyamizda «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'alarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb ta'kidlangan. Bu borada hayotimizda ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1992 yildayoq milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish

maqsadida O'zbekiston Respublikasi «Baynalminal madaniyat» markazi tashkil etilgani bunga misol bo'ladi. O'shanda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti bugun 100 dan ortiq markazlar ishini muvofiqlashtirib turibdi. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning o'z ona tilida o'qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o'quv yurtlari va maktablarda bunga amal qilinayotgani, ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar olib borilayotgani va boshqa ishlar ham bu boradagi samarali faoliyatning yaqqol dalilidir.

Qayerdagi millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi - ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Respublikamizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda millatlararo omillarning ahamiyati katta. Qadimdan mamlakatimizda turli madaniyat va sivilizatsiyalar vakillari — turli xalqlar, etnik guruhlar aralashib, do'stlik va hamjihatlikda yashab kelgan. Chor Rossiyasi, so'ngra esa sobiq Ittifoqning migratsiya siyosati aholining polietnik tarkibi yanada xilma-xil bo'lishiga olib keldi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgan paytda O'zbekistonda 120 dan ortiq millat va elat vakillari yashar edilar. O'zbekiston barcha millatlar o'rtasida totuvlikni ta'minlash, ko'p millatli jamiyat tizimini saqlab qolish va mustahkamlash yo'lidan bordi.

Millatlararo totuvlikni ta'minlovchi huquqiy zaminlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida „O'zbekiston xalqimillatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkiletadi“, „O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan, qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar“, deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.8, 18- moddalar.

O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari birdek hurmat qilinadi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratildi. Oqilona milliy siyosat tufayli O'zbekistonda yashayotgan barcha millatlarning vakillari orasida etnik-madaniy asoslarda jiplashish jarayoni sodir bo'ldi.

1989- yildayoq O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millat va elatlarning jamoat tashkilotlari — milliy-madaniy markazlari tuzila boshlangan va shu yili ularning soni 12 taga yetgan edi. 1989- yilda Madaniyat vazirligi qoshida Respublika millatlararo madaniyat markazi tuzildi. Mustaqillik yillarida yaratilgan imkoniyatlar tufayli bu jarayon tez rivoj topdi. 2002- yilda respublikamizda 120 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat ko'rsatdi.

Milliy-madaniy markazlar uch asosiy yo'nalishda faoliyat ko'rsatdilar:

— har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan aloqani jonlantirish;

— O‘zbekistonni o‘zining haqiqiy Vatani deb bilish va unga sadoqat bilan xizmat qilish;

— O‘zbekiston davlatiga nom bergan o‘zbek xalqi bilan do‘stlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash, uning tilini, madaniyatini va tarixini bilish.

Milliy-madaniy markazlarning ishi yil sayin boyib, yangilanib bordi. Ularning tashabbusi va rahbarligida turli yo‘nalishdagi to‘garaklar ishlay boshladi. Jumladan:

— o‘z milliy madaniyatini, tilini, urf-odatlari, tarixini o‘rganish to‘garaklari;

— O‘zbekiston tarixini, madaniyatini va tilini o‘rganish to‘garaklari;

— milliy musiqa, raqs va hunar to‘garaklari faoliyat ko‘rsatdilar.

1992-yil yanvarida Millatlararo madaniyat markazi Respublika Baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi. Uning faoliyatida millatlar va elatlarni jipslashtirishga asosiy e‘tibor qaratildi. O‘zbekiston davlati ko‘magida Baynalmilal madaniyat markazi va milliy-madaniy markazlar 1996-yilda „**Bobur**“ ko‘chasidagi muhtasham saroyga ko‘chib o‘tdilar, bu majmua **Millatlar saroyi** degan nom oldi.

O‘zbekiston davlat delegatsiyasining xorijiy mamlakatlarga rasmiy tashrifi chog‘ida tegishli milliy-madaniy markazlarning rahbarlari hukumat delegatsiyasi safida bormoqdalar. Xorijiy mamlakatlardan kelgan davlat delegatsiyalari vakillari esa O‘zbekistondagi o‘z millatiga mansub milliy-madaniy markazlarda bo‘lib, uchrashuvlar, qiziqarli suhbatlar va muloqotlarda bo‘lmoqdalar. Milliy-madaniy markazlarning O‘zbekistondagi elchixonalar va diplomatik korpuslar bilan aloqalari mustahkamlandi, hamkorlikda tadbirlar o‘tkazilmoqda. Barcha millat va elatlarga xos milliy bayram kunlari nishonlanmoqda, festivallar uyushtirilmoqda. Har bir millatning nomdor rassomlari, yozuvchilari, shoirlari, olimlari, madaniyat va san‘at arboblari bag‘ishlangan badiiy ko‘rgazmalar tashkil etilmoqda.

O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat va elat vakillari respublika miqyosidagi bayramlar — Mustaqillik kuni, Navro‘z bayramlarida faol ishtirok etmoqdalar. Bu bayramlarda rus, ukrain, ozarbayjon, qozoq, tatar va boshqa xalqlar badiiy havaskorlarining chiqishlari qiziqish, xursandchilik bilan kutib olinmoqda.

Barcha millat va elat vakillari O‘zbekistonni o‘zining umumiy uyi, Vatani deb bilib, uning ravnaqi yo‘lida sidqidildan xizmat qilmoqda. Bu O‘zbekistonda yuritilayotgan oqilona milliy siyosatning mevasidir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda yashayotgan millatlar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro hamjihatlik rishtalari yangicha mazmun bilan boyib bormoqda, millatlararo totuvlik ta‘minlandi. Bu O‘zbekistonning yanada barqaror o‘sishiga mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Aminjonova I E. “Qadimiy yodgorliklar qissasi”. Т. 1968.
8. Ashirov A. Atadjanov Sh. “Etnologiya”. Т. 2007 у.
9. Ashirov A. «O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari». Т. 2007 у.
10. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-Т.: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.

### **17-Mavzu: Etnik va ijtimoiy xotira.**

#### **Reja:**

1. Xotira haqida tushuncha.

2. Milliy ong, milliy xotira va ijtimoiy xotiralarning o'zaro bog'liqligi.

Garchi sezish va idrok etish insonning barcha bilimlari manbai sanalsada, hissiy bilish ular bilangina kifoyalanmaydi. U yoki bu predmet insonning sezgi a'zolariga ma'lum vaqt mobaynida ta'sir ko'rsatadi. So'ngra bu ta'sir barham topadi. Biroq predmetning obrazi izsiz yo'qolmaydi. U xotirada gavdalanadi va saqlanib qoladi. Binobarin, biron-bir narsa haqida u yo'qolganidan keyin ham fikr yuritish mumkin, chunki u haqda muayyan tasavvur qoladi. Yumiq ko'zlar bilan ham biz nimalarnidir tasavvur qilamiz.

Shunday qilib, biz haqiqatga eltuvchi yo'l naqadar og'ir ekanligini ko'ramiz: u amalda jonning barcha kuchlari – xotira, iroda, tasavvur, intuitsiya va aqlning bor kuchini ishga solishni nazarda tutadi. Masalan, xotirani olaylik. Bilish haqida xotirasiz fikr yuritish mumkinmi? Albatta, yo'q: xotirasiz jon – baliqsiz to'r degan gap. Bu ajoyib hodisasiz bilishni tasavvur qilish mumkin emas.

Sezish va idrok etish jarayonlari o'zidan keyin miyada «iz» qoldiradi. Bu izlarning mohiyati insonga ayni lahzada ta'sir ko'rsatmayotgan narsalarning obrazlarini gavdalantirish qobiliyatidan va iborat.

**Xotira o'tmish va hozirgi zamonnini birlashtiradi, ularning bir-biriga o'tishini ta'minlaydi.** “Tovushlar va so'zlar soni ko'paygandan keyin, odamga uning xotirasi yordamga keladi... Yozuv ham xotira bilan birga inson imkoniyatlarini

osHIRadi”<sup>1</sup>. Agar obrazlar miyada unga predmet ta’sir ko’rsatgan paytda paydo bo’lib, bu ta’sir to’xtaganidan keyin darhol g’oyib bo’lganida, inson narsalarni har safar mutlaqo notanish narsalar sifatida qabul qilgan. U mazkur narsalarni tanimagan, demak, ularni anglamagan bo’lar edi. Biror narsani anglash uchun aqlning ishlashi – hozirgi holatni oldingi holat bilan taqqoslashi talab etiladi. Tashqi ta’sirlarning idrok etilishi va ularning vaqtda saqlanishi natijasida xotirada tasavvurlar uyg’onadi.

«Individning o’z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi **xotira** deb ataladi». Bunda *xotira* – atrof-muhitdagi narsa va hodisani bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va aktiv (faol) holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo’l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qaytadan esga tushirish, unutish hamda tanish, eslashdan iborat psixik jarayon ya’ni taassurotlarni ijodiy qayta ishlashga yo’naltirilgan mnemik (*yunon. «mnema» - xotira*) faoliyat, psixikaning «tanasi» sifatida namoyon bo’ladi.

Xotira obrazli qilib tushuntirilganda, psixikaning «tanasi» sifatida e’tirof etiladi. Chunki insonning psixik taraqqiyoti va ongi uning xotirasidagi ma’lumotlarning hajmi, mohiyati, mazmundorligi, anglanganligi, ularning o’zaro bog’langanligi bilan belgilanadi. Boshqa bilish jarayonlari (diqqat, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol) esa «tananing a’zolari» (xuddi organiemyning harakati uning a’zolari funktsiyasi bilan bog’liq bo’lgani singari) sifatida ma’lumotlarni o’zlashtirishda o’z funktsiyalarini bajarish bilan unga yordam beradilar. Jumladan, avvalo biz ma’lumotlarni o’zlashtirish jarayonida ongimiz yoki his-tuyg’ularimizni muayyan (o’zlashtirilayotgan) obyektga qaratamiz, yo’naltiramiz (diqqat). So’ngra sezgilarimiz o’sha obyektning tashqi xususiyatlarini alohida-alohida, bevosita aks ettirsa, idrokimiz esa ancha murakkab jarayon sifatida hodisalarni yaxlit bir tizimga keltirishimizni amalga oshiradi. Tasavvur idrok qilingan narsa va hodisalarning obrazi miyamizda qayta tiklanishiga yordam berib, u hissiydan aqliy bilishga o’tishga vositachilik rolini o’taydi. Tafakkur o’zlashtirilayotgan obyektning ichki, yashirin tomonlarini umumlashtirib, bilvosita aks ettirib, muayyan fikr, g’oya, mulohaza, faraz, taxminlarni nutq orqali ifoda etishni ta’minlaydi. Xayol idrok qilinmagan narsa va hodisalarning obrazini miyamizda aks etishi orqali xotirani ma’lumotlar bilan boyitadi.

Shuningdek, xotiraning esda olib qolish (fiksatsiya), esda saqlash (retentsiya), esga tushirish (reproduksiya), unutish kabi jarayonlari ham alohida ajratib ko’rsatiladi. Ularning har biri mustaqil holatda namoyon bo’lmaydi, chunki ular muayyan faoliyat davomida, xoh bilish, xoh mnemik faoliyat bo’lishidan qat’iy nazar shakllanadi va o’sha faoliyat tuzilishi, mohiyati va mazmuni bilan belgilanadi. Shu bois inson tomonidan biror bir ma’lumotni esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish uning individual tajriba ko’lami, bilim saviyasi va aql-

---

<sup>1</sup> S.M.Hotamiy. Islom tafakkuri tarixidan.-T.: Minhoj, 2003.- B.74

zakovati darajasiga ham bog'liqdir. Chunki esda olib qolingana narsa va hodisalarni keyinchalik qo'llash uchun esga tushirish taqozo etiladi. Bu o'z navbatida mnemik faoliyatni ishga tushirishni taqozo etadi. Agar o'zlashtirilgan ma'lumotlarning ushbu faoliyatda ishtiroki amalga oshmasa, ular unutilishi mumkin. Ma'lumotlarning esda saqlanishi, uning shaxs faoliyatida qanday aks etishiga bog'liq bo'lib, ular har xil holatlarda odamning bilish faoliyati, xulq-atvori hayotiy tajribasi va madaniy malakasi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, xotira shaxs psixik faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tabiatda va jamiyatda namoyon bo'ladigan har qanday toifadagi psixik hodisa o'zining tarkibiga kiruvchi har bir qismni muayyan tartibda o'zaro bog'langan tarzda saqlab qolinishini talab etadi. Turli ko'rinishga ega bo'lgan «bog'lanish»ga imkoniyat yoki shart-sharoit vujudga kelmasa, u holda rivojlanish ham bo'lmas edi, chunki I.M.Sechenov iborasi bilan aytganda, kishi «chaqaloqlik holatida» mangu qolib ketgan bo'lardi.

Xotira psixologiya fanining chuqur tadqiq qilingan jarayonlaridan biri bo'lib hisoblansada, lekin fan va texnikaning taraqqiyoti ko'p jihatdan xotira muammolarining o'rganilishiga bog'liqdir. Jahon psixologiya fanida assotsiativizm, geshtaltizm, bixeviorizm, freydzizm kabi ko'plab yo'nalishlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, bugun xotiraning yagona va tugallangan nazariyasi ishlab chiqilmagan. Ilmiy-nazariy xususiyatlarga ega bo'lgan, gipotetik faraz tarzidagi nazariyalar va qarashlarning haddan tashqari ko'pligi kibernetika, tajriba va genetik biologiya, biokimyoviy, fiziologiya, tibbiyot nuqtai nazaridan yondashganligi bilan tasniflanadi. Bu narsaning barchasi xotirani o'rganishning *psixologik, fiziologik va biokimyoviy* boshichlari mavjudligidan dalolat beradi.

Mazkur uch yo'nalish ichidan xotiraning psixologik jihatdan tadqiq qilinishi o'zining boy materiallari bilan boshqalaridan sezilarli ustunlikka ega bo'lib, psixologiya fanida xilma-xil nazariyalar ishlab chiqilganligi hamda original, innovatsion g'oyalar ilgari surilganligi ma'lumdur. Bu nazariyalar negizida xotira jarayonlarining shakllanishiga insonning faolligi qanday ahamiyatga egaligi va bunday faollikning mexanizmi qanday yuzaga chiqishi haqidagi muammolarni tasniflash va baholash yotadi.

Milliy ong zaminida, birinchi navbatda, muayyan etnik birlikka mansublikni anglash yotadi. Bu milliy o'zlikni anglashning asosidir. Milliy o'zlikni anglash millatning tarixi, taqdiri, mushtarak manfaatlari, tili, madaniyati, iqtisodiy hayoti, milliy xususiyatlarini yaxlit tushunishdir. Demak, milliy mansublik har bir shaxs zimmasiga muayyan mas'uliyatni ham yuklaydi. Millat vakili uning manfaatlari, maqsadlari bilan bog'liq umummilliy g'oyadan chetda tura olmaydi. Milliy g'oya, milliy mafkura xalqni, millatni muayyan manfaatlar yo'lida birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, uning faoliyatiga maqsad va yo'nalish baxsh etuvchi, shu asosda uning istiqbolini belgilovchi ijtimoiy ruhiy omildir.

“O'zbek” degan so'z biz uchun bir etnik birlikning nomigina emas, balki iftixor, hurmat belgisi, burch va mas'uliyat manbaidir. “O'zbek” degan so'z qulog'imiz ostida shunchaki jaranglamaydi, balki qalbimiz, ruhiyatimizning eng



nozik torlarini tebratadi, ilhom, ishonch, ko'tarinki ruh baxsh etadi. Biz shu millatning farzandi bo'lganimiz bilan, uning tarixi, madaniyati, qadriyatlarini, milliy fazilatlarini bilan, xalqimizning yutuqlari bilan faxrlanamiz, uning oldidagi burch va mas'uliyatimizni to'laroq, chuqurroq anglashga harakat qilamiz. Bu milliy ongning birlamchi va asosiy poydevoridir. O'z xalqini boshqalardan ko'ra ko'proq sevmaydigan inson bo'lmaydi. Qanchalik baynalmilalchi bo'lmaylik, milliy ma'naviyat, his-tuyg'u qalbimizdan chuqurroq o'rin olaveradi. Boshqa millatlar orasida bo'lganimizda o'zbeklar ko'zimizga issiqroq ko'rinadi, tili jarangliroq tuyuladi. Bu ham milliy ong e'tiqod, milliy ruhiyat darajasiga ko'tarilganining belgisidir. Asrlar davomida bunday e'tiqod inson qalbiga, hatto qon-qoniga singib ketadi, millatparvarlik, vatanparvarlik darajasiga ko'tariladi, dunyoqarashiga chuqur ta'sir etadi.

Demak, "yuksak milliy onglilikning yana bir muhim belgisi — vatanparvarlik, millatparvarlik bo'lib, ular tarixiy ong va tarixiy xotira bilan bog'liq"<sup>1</sup>.

Millatparvarlik va vatanparvarlik bir-biri bilan bog'liq, biri ikkinchisini to'ldiruvchi ma'naviy fazilatlaridir. O'z xalqini sevgan inson shu xalq minglab yillar davomida yashab kelgan, kelajak avlodlari ham yashaydigan, rivojlanib, o'z baxt-saodatini topadigan vatanini sevmasligi mumkin emas. Vatan inson uchun ona kabi yagonadir. Dunyoda boy, rivojlangan, go'zal yurtlar ko'p. U yuylarlarda tinch, to'q, farovon yashash ham mumkin. Biroq bu yurtlar haqiqiy e'tiqodli, imonli kishilar uchun haqiqiy Vatan bo'la olmaydi. Xalqimizda, "o'zga yurtga podshoh bo'lgandan ko'ra, o'z yurtida gado bo'lganing yaxshi", degan maqol sababsiz yaratilmagan. O'zbeklar dunyoning qayerida bo'lsalar ham, o'z vatanini unutmaydilar; vatandan qanchalik olisda bo'lsak, uni shunchalik ko'proq sevamiz, qo'msaymiz, qadriga yetamiz. Musofir bo'lmagan — musulmon bo'lmaydi, deganlaridek, uzoq yurtlarga safarga borganimizda Vatan ko'zimizga boshqa mamlakatlardan go'zalroq, afzalroq ko'rinadi. Fitratning "Vatan qiblagohdir", Islom Abdug'anievich Karimovning "Kelajak avlodlar uchun bizdan ozod va obod Vatan qolsin", "Elim deb, yurtim deb yonib yashamoq kerak", degan fikrlarida ham xuddi shu ma'no bor.

O'zbekiston jahondagi barcha o'zbeklarning manfaatini himoya qiladigan, birlashtiradigan, qadr-qimmatini, obro'-e'tiborini ko'taradigan yagona Vatandir. Shu vatanni unutish, uning manfaatlariga xiyonat qilish — vatanfurushlikdir. Bizning milliy e'tiqodimizga ko'ra, vatanfurushlik ma'naviy tubanlikdir.

Vatanparvarlik oddiy his-tuyg'u emas, balki yuksak burch va mas'uliyatdir. Vatanni sevaman, deb ko'p gapiradiganlar emas, balki uning istiqboli, manfaati yo'lida fidoyilarcha xizmat qiladigan kishilar haqiqiy vatanparvar bo'ladilar. Vatanparvarlik, birinchi navbatda, insonning el-yurt manfaati yo'lidagi halol mehnatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekiston jamiyatining eng birinchi vazifasi — "yoshlarning ongiga Vatanni sevish,

---

<sup>1</sup> Raximova D. Istoricheskoe soznanie kak vajneyshiy faktor formirovaniya ideologii nezavisimosti. // Obshchestvennye nauki v Uzbekistane.— Tashkent, 2004. — № 2– 3. — S. 89– 90.

umuminsoniy axloqiy ma'naviy qadriyatlarni singdirish, milliy o'zligini anglatish, mehrshafqatli, vijdonli, andishali qilib tarbiyalash"<sup>1</sup>.

O'zbekiston bizning yakkayu yagona Vatanimiz ekan, uning taqdiri barchamizning ham taqdirimizdir. Shu Vatan tinch bo'lsa, biz ham tinch bo'lamiz, boy bo'lsa — boy bo'lamiz, rivojlansa — barcha orzu-umidlarimiz ushaladi. O'zbekistonni hurmat qiluvchilar ko'p, lekin uni hech kim o'zbeklar singari sevmaydi, hech kim Vatanimizning istiqbolidan, yurtda ahillik, barqarorlik hukm surishidan biz, o'zbeklarchalik manfaatdor emas. Hadislarda ham "Vatanni sevmoq iymondandir", degan tabarruk so'zlar aytilgan. Demak, vatanparvarlik imon, e'tiqod darajasiga ko'tarilgan ma'naviy fazalatlarning biridir. Vatanparvarlik tuyg'usining milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira, dunyoqarash tizimidagi o'rni, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi.

Milliy ongning, tarixiy ongning, tarixiy xotiraning bir-biriga, dunyoqarashga ta'sir etadigan yana bir jihati — milliy birlik, birdamlik, hamjihatlik, hamdardlik, hamkorlik tuyg'usidir. Milliy birlik, birdamlik, hamkorlik, hamdardlik, ahillik ma'lum milliy g'oyaga, mafkuraga tayanib, anglangan mushtarak maqsadlar sari borishdir.

Inson shu tuyg'u asosida o'zining alohida etnik guruhga mansubligini anglaydi, uning tarixi va taqdirini chuqurroq bilishga intiladi, Vatan, xalq manfaatlari yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatadi, o'z xalqiga mansub kishilar bilan birlashib, milliy manfaatlarni himoya etishga harakat qiladi. Milliy birlik tuyg'usi milliy ongi, tarixiy ongi, tarixiy xotirasi va dunyoqarashiga chuqur singib ketgan millatlarga yorqin istiqbolga ega bo'ladi, o'z maqsadlariga erishadi. Ularni itoatli qullarga aylantirish oson bo'lmaydi. Milliy birlik, mas'uliyat tuyg'usi zaiflashishi mamlakat, xalq hayotida sodir bo'ladigan ma'naviy inqirozlarning bosh sabablaridandir. Milliy onglilik, tarixiy ong, tarixiy xotira millat o'zini o'zi mustaqil idora qila olishini ham ifodalaydi. Buning uchun tarixiy ong va tarixiy xotira milliy ong elementlari sifatida kishilarning dunyoqarashi darajasiga ko'tarilishi kerak, chunki "xotirasi bo'lmagan, tarixini unutgan, o'z ajdodlarining qadriga yyetmaydigan millatning istiqboli yo'q. Bu haqiqatni kishilik tarixi isbotlab turibdi". Ayni mahalda "xotira deganda biz bu foniy dunyodan o'tgan ajdodlarimizni eslash, ularning chirog'ini yoqib, ezgu ishlarini davom ettirishni tushunamiz. Bu xalqimizga xos azaliy fazilatdir"<sup>2</sup>. Milliy birlik, birdamlik, hamkorlik, hamdardlik g'oyasi iqtisodiy, siyosiy, ruhiy mustaqillikka erishish masalalarini ham o'z ichiga oladi. Iqtisodiy, siyosiy, ruhiy jihatdan boshqalarga qaram bo'lgan mamlakatda mustaqil milliy davlat barpo etish, milliy manfaatlarni himoya qilish qiyin. Milliy birlik, birdamlik barqaror bo'lgan joydagina milliy davlat, til, madaniyat, qadriyatlar, an'analar yuksalib, milliy maqsadlar va manfaatlar amalga oshishi uchun keng imkoniyatlar yuzaga keladi.

---

<sup>1</sup> G'aybullaev O. Yoshlar ongiga istiqbol g'oyasini singdirishning ijtimoiy mohiyati haqida. //O'zbekistonda ijtimoiy fanlar.— Toshkent, 2005. — № 1– 2. — B.80.

<sup>2</sup> O'sha joyda. — B.407.

Milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira milliy birlik — milliy iroda, milliy vijdonning ham asosidir. Milliy birlik oldin kishilarning qalbida mafkura, e'tiqod, axloq, iroda, burch, vijdon sifatida shakllanadi, shundan keyingina katta tarixiy, ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ahamiyat kasb etadi va dunyoqarashga ta'sir ko'rsatadi. Ayni mahalda tarixni obyektiv, chinakam bilish milliy ongni shakllantiribgina qolmay, yoshlarni separatizm yuzaga kelishidangina emas, balki diniy ekstremizm, millatchilik va shovinizmdan ham himoya qilishda ishonchli qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillikni qo'lga kiritish, uning imkoniyatlaridan samarali foydalana bilish ham milliy iroda, milliy vijdon tuyg'usi qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Mustamlakachilik davrlarini qo'rsash, qanday sharoitda, kimning qo'li ostida yashasak ham qornimiz to'q, ustimiz but bo'lsa, bizga shuning o'zi yetarli, deb o'ylash milliy ong, iroda, e'tiqod zaifligining belgisidir. Milliy iroda milliy manfaatlarni himoya qilishda ma'lum qiyinchiliklarga bardosh bera bilish hamdir. Milliy birlik tariximiz va taqdirimiz birligini ham anglashdir.

Millat vakillari o'rtasida birdamlik, ahillik, hamjihatlik, umumiy maqsadlar yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib, qo'lni qo'lga berib harakat qilish mas'uliyati faqat shu asosdagina shakllanadi. Mahalliychilik, guruhbozlik milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira darajasi pastligidan, kishilar o'zlarining bir etnik guruhga mansub ekanliklarini chuqur anglab yetmaganligidan, dunyoqarashning milliy zamini zaifligidan kelib chiqadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishib, o'z taraqqiyot yo'lini tanlab olgan hozirgi sharoitda mahalliychilikka, guruhbozlikka qarshi kurash olib borish katta amaliy ahamiyatga ega. Yoshlar, qaysi viloyatdan bo'lishidan qat'i nazar, bir millatning vakili ekanliklarini, milliy birlik va birdamlikni ta'minlabgina O'zbekistonni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish mumkinligini chuqur anglab yetmoqlari kerak. Milliy birlik tuyg'usi kishilarning qalbida chuqur tomir otmasa, imon va e'tiqodga aylanmasa, millatning istiqboli porloq bo'lmaydi, milliy ong o'smaydi va mamlakat rivojlanmaydi. Milliy ongda, tarixiy ongda, tarixiy xotirada milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg'unligi aks etishi jahondagi barcha xalqlarning tarixi va taqdiri bir-biri bilan bog'liqligini bilish natijasidir<sup>1</sup>.

Bu bog'liqlik jahon taraqqiyotining hozirgi boshichida yana ham yorqin ko'zga tashlanmoqda. O'zbekistonning istiqboli o'z imkoniyatlarimizgagina emas, balki boshqa xalqlar, mamlakatlar bilan do'stona hamkorlik va aloqalarimiz rivojiga, jahonda tinchlik, barqarorlik mustahkamlanishiga ham bog'liqdir. Qo'shni mamlakatlarda bo'ladigan qonli voqealar faqat qardosh xalqlarning fojiasi emas, yonma-yon yashayotgan xalqlarning ham rivojiga salbiy ta'sir etuvchi bir omildir. "Qo'shning tinch — sen tinch", degan o'zbek maqolining mazmunida ham shu fikr ifoda etilgan. Shu sababdan ham, mustaqil O'zbekistonning istiqboli haqida o'ylar ekanmiz, qo'shni mamlakatlarda bo'layotgan voqealarga befarq qaray olmaymiz, ularning tinch taraqqiyotidan biz ham manfaatdormiz.

---

<sup>1</sup> Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish – davr talabi. – T.:Mehnat, 2000. – B.9– 16.

Milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira rivojlanishi milliy qadriyatlarni tiklash, o'rganish, hayotga keng joriy qilish bilan ham bog'liqdir. Milliy o'zlikni anglash jarayoni chuqurlashishining asosiy shartlaridan biri ham shudir. Biz o'zbeklar insoniyatning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan boy madaniy meros, buyuk qadriyatlarning egasimiz. Ota-bobolarimizdan qolgan ulkan moddiy va madaniy merosni bir daryo deb tasavvur etsak, bu boradagi bilim va tasavvurlarimiz hozircha undan bir tomchi, xolos.

Yaqin – yaqinda o'z madaniy merosidan bexabar bo'lib qolgan millatlar orasidan o'rin olgan edik. Bu bizning milliy loqaydligimiz bilan belgilangan fojia emas, balki 135 yil davomida izchillik bilan amalga oshirib kelingan mustamlakachilik siyosatining natijasidir. Hozirgi kundagi eng muhim vazifalaridan biri ham feodal tarqoqlik, mustamlakachilik va sovet tuzumi davrida kelib chiqqan g'aflat uyqusidan tezroq uyg'onish, millatimizning iste'dodi, qobiliyati, qadru qimmatini jahonga to'laroq namoyon etish, yoshlarni tarixiy meros va qadriyatlarimiz bilan yaxshiroq qurollantirishdir. Toki o'zbeklar kim ekanini ularning o'zigina emas, balki jahondagi boshqa xalqlar ham yaxshi bilsin. Yaqin vaqtga qadar o'tmish ajdodlarimiz jahon fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi o'zimizdan ko'ra, dunyodagi boshqa ko'plab mamlakatlarda ma'lum va mashhur edi<sup>1</sup>.

Tarix o'tmish voqealarning oddiy bayoni emas, balki katta tarbiyaviy omil hamdir. Tarixiy voqealarni bilish asosida kishilarda o'z xalqiga nisbatan hurmat, muhabbat tuyg'ulari shakllanadi, yoshlar ota-bobolarining qilgan ishlari bilan faxrlanishni o'rganadilar, shu asosda milliy iftixor singari yetuk ma'naviy fazilatlar shakllanadi, milliy ong o'sadi, dunyoqarash mustahkamlanadi.

Tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ong milliy burch va mas'uliyatni anglash hamdir. Mas'uliyat har bir fuqaro o'z manfaatlarini millat, milliy davlat manfaatlarini bilan bog'lay olishidir, bu boradagi o'z burchini his qilishidir. Milliy burch va mas'uliyatning muhim jihati milliy manfaatlarini anglashda ko'rinadi. Shaxs va uning manfaatlarini siyosiy aqidalar soyasida qoldirib ketgan, mavhum ijtimoiy manfaatlarining to'la hukmronligini ta'minlashga moslashtirilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar, shunga asoslangan mafkura barham topadi<sup>2</sup>.

Taraqqiyotimizning hozirgi boshichida shaxs, uning faoliyati, qobiliyati va imkoniyatlari, manfaatlarini tobora serqirra bo'lib ko'zga tashlanmoqda. Lekin bu yangi sharoitlar va imkoniyatlar har bir shaxs faqat o'z manfaatlarini doirasida qolib ketib, boshqalar bilan ishi bo'lmasligi kerak, degan ma'noni bildirmaydi. Shaxsiy xudbinlik ham dunyoqarash zaifligining ko'rinishidir. Agar kishilar o'z maqsadlari qobig'iga qolib, ularning har biri alohida dunyo bo'lib qolsa, manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatlar ham kuchayib ketadi. Bunday holda ma'naviy tubanlashish boshlanadi, jamiyatda ijtimoiy falokatlar yuz beradi. Shaxsiy manfaatlar muammosi qanchalik tez va har tomonlama hal etilmasin, baribir, har bir inson mavjud ijtimoiy

---

<sup>1</sup> Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish – davr talabi. – T.:Mehnat, 2000. – B.21– 26.

<sup>2</sup> Tulenov J. Ma'naviyat va ijtimoiy taraqqiyot. – T.:Mehnat, 2000. – B. 15– 21.

munosabatlar majmuasiga kiradi. U qanchalik aqlli, tadbirkor, ishbilarmon bo'lmasin, butun hayotiy faoliyati odamlar jamoasidagi, millat, davlat hayotidagi munosabatlardan tashqarida bo'lmaydi. Bu boradagi bog'liqlik har bir shaxsga muayyan burch va mas'uliyat talablariga rioya qilish majburiyatini ham yuklaydi. Insonlar muayyan jamiyatda birlashib yashashining asosiy shartlaridan biri ham milliy va fuqarolik mas'uliyati birligi hisoblanadi. Mas'uliyatni sezmay, o'z huquqi uchun kurashish ham ma'naviy zaiflikning belgisidir. Burch, mas'uliyat tuyg'usi inson o'z haqqi, huquqini, jamiyat oldidagi burchini anglashiga asos bo'ladigan ma'naviy zamindir. Chunki “bunga tarix guvoh... bizga bergan buyuk ne'mat — ma'naviyatga hech qachon hiyonat qilmaganmiz, qilmaymiz ham”<sup>1</sup>.

O'z huquqini tanigan, talab qilgan inson boshqalarning ham huquqini hurmat qilmog'i zarur. Aks holda shaxsning o'z huquqi uchun kurashishi xudbinlikka aylanadi. Jamiyatda taraqqiyot, tinchlik, totuvlik, osoyishtalik, insonparvarlik, hamkorlik va hamjihatlik qaror topsagina shaxsning orzu-umidlari ushaladi. Har bir shaxs o'zini jamiyatning, xalqning bir bo'lagi deb bilishi, manfaatlar mushtarakligini tushunishi, faoliyatida o'z xalqi, Vatani, boshqa millatlar, mamlakatlar va butun insoniyat manfaatlarini ham e'tiborga olishi unda tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ong birligiga asoslangan dunyoqarashi yetukligining ifodasidir.

Mamlakat, millat manfaatlarini o'ylamaydigan kishi o'z taqdiriga ham befarq qaraydi. Shuning uchun insonning yashashi va mehnat qilishi millat va mamlakat manfaatlarini chuqur anglashi bilan ham bog'liq. Mustaqil taraqqiyotimizning hozirgi boshichida inson ma'naviy mas'uliyatining tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ong o'sishi bilan bog'liq bo'lgan fuqarolik ma'suliyati bilan aloqador tomonlariga ham jiddiy e'tibor berish zaruriyati kuchaymoqda. Shuning uchun ayrim vaqtda “arzimagan hayotiy masalalarni ham o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab, janjal va sud orqali hal qilish, ortiqcha mojarolarga borish, o'ylaymanki, bunday yo'l xalqimizga ma'qul bo'lmaydi”.

Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini to'la o'rganish, rivojlantirish, hayotga tezda va samarali tadbiriq etish ham milliy ong o'sishining, shu asosda yoshlar faolligi kuchayishining yo'llaridandir.

Biz O'zbekistonning buyuk kelajagiga hashamatli bozorlar, masjidlar orqali emas, balki zamonaviy fan va texnika yutuqlarini to'la egallab, shular asosida xalq ma'naviyatini shakllantirib, o'quv yurtlari, ilmiy tashkilotlarning eshiklari orqali kirib boramiz. Shu sababli ham xalq ta'limi tizimini isloh qilish, zamonaviy fan, texnika, madaniyat asoslarini chuqur egallagan kadrlarni tarbiyalash davlatimiz siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu ham milliy ong davr talablari, imkoniyatlari va ehtiyojlari asosida o'sishining asosiy shartlaridandir.

Yetuk milliy ong boshqa xalqlarning tarixi, madaniyati, qadr-qimmatini hurmat qilishni ham o'z ichiga oladi.

---

<sup>1</sup> Normatov I. Ma'naviyat – bebaho boylik. //Erkin va farovon hayotini yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. – T.:O'zbekiston, 2006. – B. 70.

O'zbekiston hududi hamma vaqt ko'p millatli bo'lgan. Bu o'lkada ming yillar ilgari ham, o'zbeklardan tashqari, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, uyg'urlar va boshqalarning ota-bobolari yashaganlar. Milliy munosabatlarni ijtimoiy adolat mezonlari asosida rivojlantirish, barcha xalqlarning tili, madaniyati, urf-odatlariga hurmat bilan qarash, ularni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, hamma sohada do'stlik, ahillik, hamjihatlik, hamkorlikni ta'minlash mustaqil o'zbek xalqi milliy ongi, dunyoqarashi o'sishi darajasining ko'rsatkichidir.

O'zbek xalqi hamma vaqt musofirparvar, mehmondo'st bo'lgan. Bu bizning oddiy odatimiz emas, balki mustahkam milliy e'tiqodimizdir. Hadislarda ham shunday ma'nodagi tabarruk so'zlar bor: kimki musulmon mamlakatida yashovchi, boshqa dinga mansub kishini haqorat qilsa, qiyomat kuni o'tdan yasalgan qamchi bilan savalanadi. Yana kimki sulh bitimi bilan yashayotgan g'ayridinni o'ldirsa, u jannatning hidini ham hidlamaydi. Bu fikrlar turli millatlarga mansub bo'lgan kishilar o'rtasidagi munosabatlar madaniyatiga oiddir.

Milliy ongning, tarixiy ongning, tarixiy xotiraning yetukligi milliy tilga munosabatda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tilga e'tibor — elga e'tibor ekanini ko'rsatib o'tgan edi. Har bir xalqning o'z tiliga e'tibori ham milliy o'zligini anglashi darajasining ifodasidir.

Tarixiy ong, tarixiy xotira, milliy ong millatning obro'si, qadr-qimmatini ham himoya qila bilishdir. O'zbeklar, qars ikki qo'ldan chiqadi, deb bekorga aytmaydilar. Boshqa xalqlarning milliy xususiyatini, madaniyati, tilini, manfaatlarini hurmat qilar ekanmiz, o'z millatimizga ham shunday adolatli munosabatda bo'lishni talab qilishga haqqimiz bor. Aholining ayrim vakillari orasida o'zbek tilini mensimaslik kayfiyati hozir ham uchrab turadi. Ayrim kishilar ingliz, fransuz, arab, xitoy tillarini o'rganayotgan bo'lsa ham, o'zbek tilini bilishga ikkinchi darajali vazifa deb qaramoqdalar. Boshqa tillarni o'rganish ma'naviy kamolot omili ekan, nima uchun o'zbek tili shu tushuncha doirasiga sig'may qoldi?

Tarixiy ongi, tarixiy xotirasi va milliy ongi yetuk millat boshqa xalqlarning tarixi, madaniyati, qadriyatlariga qanchalik ko'p hurmat bilan qaramasin, birinchi navbatda o'z milliy ruhi, milliy ma'naviyati barqaror rivojlanishiga katta e'tibor beradi<sup>1</sup>. Bu aslo inkor etib bo'lmaydigan ma'naviy ehtiyojdir. Hozir O'zbekistonda xalqimizning madaniy-ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy merosi, milliy davlatchilikni tashkil etish va mustahkamlash, axloq, odob borasidagi qadriyatlarni o'rganish, o'zlashtirish, rivojlantirish uchun qat'iy harakat boshlandi.

Milliy ongning hamda uning tarkibida bo'lgan tarixiy ong va tarixiy xotiraning yoshlar dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir etuvchi ayrim tomonlarini ko'rib chiqdik, binobarin, yuqoridagilar buyicha ayrim xulosalar chiqarish mumkin:

---

<sup>1</sup> Saidov M. Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. //Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. – T.:O'zbekiston, 2006. – B.23– 35.

— milliy ong – ijtimoiy ongning bir shakli. Bu — kishilar o'zining ma'lum etnik guruhga mansubligini, vatan tarixining ajdodlar qoldirgan an'analar, marosimlar, meros va amaliy tajribani, milliy manfaatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq ravishda chuqur anglash, muayyan mushtarak g'oya va mafkuraga tayanib, o'z xalqi va vatanining istiqloli hamda istiqboli yo'lida fidokorona xizmat qilish, boshqa millatlarga ham adolatli munosabatda bo'lib, ularning o'ziga xosligi va manfaatlarini hurmat qilishdir;

— milliy ong mohiyati jihatidan keng tushunchadir: uning tarkibida ko'p elementlar bo'lib, tarixiy ong bilan tarixiy xotira ham shu elementlar qatorida muhim o'rni tutadi. Shu sababli milliy ongning yoshlar dunyoqarashiga ta'sir etish imkoniyati katta. Milliy ong o'z tarkibidagi tarixiy ong va tarixiy xotira yordamida yoshlar dunyoqarashiga milliy tarix, milliy ruhiyat, milliy ma'naviyat, milliy manfaatlarni anglash, ularni qadrlash, himoya qilish, boshqa millatlarga, ularning madaniyatiga, tarixiga xolisona yondashish orqali o'zi bilan bog'liq fazilatlarni kiritadi. Yoshlar dunyoqarashi mustahkamlanishi ham, o'z navbatida, milliy ongning yanada o'sishiga ta'sir etadi;

— hozirgi kunda yoshlarda umuman dunyoqarashni shakllantirish emas, balki uni milliy manfaatlarni tarixiy ong bilan, tarixiy xotira bilan, milliy ong vositasida anglash bilan chuqurroq bog'lash zaruriyati kuchayib bormoqda. Mustaqil davlatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, g'oyaviymafkuraviy asoslari mustahkamlanib borayotgan hozirgi sharoitda bu ishning ahamiyati kattadir. Har bir fuqaroga barcha masalalarga mamlakat, millat manfaatlari nuqtai nazaridan yondashishni ham o'rgatmoq kerak. Bu ishlar o'quv yurtlarida, umuman barcha yoshlar o'rtasida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari tizimida katta o'rin olmog'i lozim. Zero, mustaqillik sharoitida tarbiya va ta'lim o'zining milliy jihatlarini yanada kengroq namoyon etmoqda.

Tadqiqotchilar kishi madaniy ko'nikmalarni go'dakligida va ilk bolaligida faol o'zlashtiradi, degan fikrda yakdildirlar. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O'zbekiston yoshlarining uzluksiz ta'limi tizimini rivojlantirishda maktablar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarigagina emas, balki maktabgacha tarbiyaga ham katta ahamiyat berilayotgani tasodifiy hol emas. Madaniyatni o'zlashtirish olti-etti yoshgacha davlat va nodavlat maktabgacha bolalar muassasalarida hamda oilada amalga oshiriladi.

Hozirgi adabiyotlarda insonning shaxs sifatida rivojlanishining turli boshichlari hamda dinamikasi ajratib ko'rsatiladi. Masalan, go'daklik yoshi – 0 dan 2 yoshgacha, ilk bolalik – 2 yoshdan 4 yoshgacha, bolalikning o'rtasi 5-7 yosh; bolalikning oxiri – 8-12 yosh; o'smirlik davri – 13-17 yosh; yoshlik – 18-22 yosh; ulg'ayish – 23-30 yosh; o'tish davri – 30-35 yosh; yetuklik – 35-50 yosh; keksalik – 51-65 yosh; qarilik – 65 yoshdan yuqori<sup>1</sup>. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi jarayonini nisbatan umumlashtirib, quyidagi boshichlarga bo'lish mumkin: bolalik, o'smirlik, yoshlik, yetuklik, keksalik davrlari.

---

<sup>1</sup> Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. – M.: AP, 2001. – S. 356-622.

Maktabgacha yosh – kishini shaxs sifatida shakllantirishning muhim davri. Kishilar bilan aloqada bo'lmasdan o'sgan bolalarda onda-sonda bo'lsada uchraydigan holatlar ko'rsatishicha, ijtimoiy jihatdan normal bo'lmagan muhitda individni bir oz bo'lsada muvaffaqiyatli shakllantirib bo'lmaydi. Bu yoshda muvaffaqiyat bilan shakllantirish mumkin bo'lgan fazilatlarni esa rivojlanishning nisbatan kech keladigan boshichlarida hosil qilib bo'lmaydi<sup>1</sup>.

Maktabgacha yoshda ma'naviy ko'nikmalarni o'zlashtirish oddiy jismoniy odatlarni ost ong darajasida o'zlashtirish bilan uzluksiz bog'liq ravishda kechadi. Aftidan, bola bu yoshda hali Vatan, o'z xalqiga mansublikdan faxrlanish singari tushunchalarni anglamasa kerak, madaniyatni o'zlashtirish esa uni atrofdagilar va, birinchi navbatda, ota-onasi qanchalik egallaganiga bog'liq bo'ladi. Yirik olim U.Jems bolalikda xotira kuchli darajada faol va harakatchan bo'lishini ta'kidlaydi: "Bu davrda (qarilik davrida – F.F.) bolalikda hosil qilingan yo'llarning ajoyib tarzda barqaror ekanligi ayon bo'ladi: yoshi ulug' keksa kishi boshqa hamma narsani unutsa ham, ilk yoshligidagi xotiralarini saqlab qoladi"<sup>2</sup>.

Hozir bolalarning rivojlanishiga taalluqli bir qancha asosiy nazariyalar mavjud. Ayni mahalda, o'zligini anglashning hosil bo'lishi favqulodda bahsli masala bo'lib qolayotgani ta'kidlandi<sup>3</sup>.

Z.Freyd (1856—1939) konsepsiyasi asosiy nazariyalardan biri bo'lib qolmoqda<sup>4</sup>. Unda ijtimoiylashuvning emotsional tarkibiy qismlariga, bola o'z mayllarini qay tarzda nazorat qilishiga katta e'tibor qaratilgan. Bu – kishi uchun eng muhim boshich. Insonning o'zligini anglashi hamda yoshi katta, shakllanib bo'lgan shaxsning xulq-atvori ilk bolalikdagi taassurotlarga asoslanadi. Freyd o'zligini anglash ost ong shiddatini bosish vositasida rivojlanadi va ijtimoiy normalar bilan o'zining ongsizligi o'rtasidagi mutanosiblikka rioya etishga bog'liq bo'ladi<sup>5</sup>, deb hisoblaydi.

Amerikalik sotsiolog va faylasuf J.G.Mid (1863-1931) bolada uning o'z Meni hissini shakllantirishni muhim deb hisoblagandi. Bolaning ijtimoiylashuvi o'yin shaklida, kattalarning xatti-harakatiga taqlid tarzida yuz beradi, deb hisoblagandi. Bular rolli o'yinlar bo'lib, insonning o'zligini anglashi shu orqali sodir bo'ladi. Ya'ni ijtimoiylashuv jarayoni bolaning ixtiyorsiz istaklaridan o'ziga chetdan turib qarashga qodir ijtimoiy shaxsga qarab yurish orqali yuz beradi. Bu besh yoshga borib shakllanadi. Navbatdagi boshich bola tomonidan umumiy qadriyatlar va axloqiy yo'l-yo'riqlarni, madaniy an'analarni bilishdir. Bu davr sakkiz-to'qqiz yoshdan boshlanadi. Ya'ni, bu davrda faol va anglagan holda shakllanish, shu jumladan tarixiy ong va tarixiy xotiraning shakllanishi sodir bo'ladi. Mazkur jarayonlarda bola ongingning rivojlanishida uning yangidan-yangi so'zlarni o'zlashtirishi muhim rol o'ynaydi, chunki "quyosh tomchi suvda aks yetganidek,

---

<sup>1</sup> Giddens E. Sotsiologiya. – M.: Editorial URSS, 1999. – S. 68-71.

<sup>2</sup> Djems U. Psixologiya. – M.: Pedagogika, 1991. – S.193.

<sup>3</sup> Giddens E. Sotsiologiya. – M.: Editorial URSS, 1999. – S. 76.

<sup>4</sup> Freyd Z. Vvedenie v psixoanaliz. Lektzii. – M.: 1989. – S. 11– 12.

<sup>5</sup> Freyd Z. Vvedenie v psixoanaliz. Lektzii. – M.: 1989. – S.344-349.



ong o'zini so'zda aks ettiradi. Kichik olam katta olamga, jonli hujayra organizmga, atom kosmosga kirganidek, so'z onga taalluqlidir. U onging kichik olamining aynan o'zidir. Tushunib olingan (anglangan) so'z inson onging mikroko'inotidir"<sup>1</sup>.

Shveysariyalik olim J. Piaje (1896-1980) konsepsiyasi eng ko'p yoyilgan nazariyalar jumlasiga kiradi; unda asosiy e'tibor kognitiv rivojlanishga qaratildi<sup>2</sup>. Kognitiv rivojlanish o'zi haqida hamda atrofida haqida o'ylash qobiliyatini anglatadi. U bolaning sodir bo'layotgan hodisalar ma'nosini anglashga faol urinishini, ayniqsa, muhim, deb hisoblagandi. Bola axborotni o'ziga shunchaki singdirmaydi, u faol bo'lib, undan tanlab oladi va o'zicha talqin qiladi.

Bizning zaminda mustaqil davlat so'nggi o'n olti yil ichidagina mavjud bo'lmay, deyarli uch ming yillik tarixga egaligini bolaning ongiga yetkazish darkor. Kelajagi buyuk davlat qurishni maqsad qilib olgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Amir Temur singari ajdodlarimiz ishini davom ettirmoqda. Vatanimiz tarixida ozodlik hamda mustaqillik uchun kurash olib borgan Shiroq va Spitamen singari ko'plab qahramonlar o'tgan. Markaziy Osiyoda davlatchilik mavjud bo'lgan butun davr mobaynida o'z mamlakatining ravnaqi uchun jon kuydirgan ko'plab buyuk hukmdorlar o'tgan. Ular orasida Amir Temur va Temuriylar alohida o'rin egallashadi. Madaniyatimiz Imom Buxoriy, Termiziy, Marg'inoniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Yusuf Hamadoni, Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Ulug'bek, Navoiy, Bobur singari diniy va dunyoviy olimlar hamda ijodkorlar tufayli umuminsoniy tsivilizatsiya yutuqlarida ko'zga ko'rinarli o'rinni egallaydi<sup>3</sup>.

Milliy istiqlol g'oyalarining muhim qoidalari, shu jumladan buyuk o'tmishimizdan o'z-o'zidan kelib chiqadigan maqsad – buyuk davlat barpo etish mazkur bag'oyat boy meros asosida tabiiy ravishda idrok etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажакимиз фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.

---

<sup>1</sup> Vigotskiy L.S. Sobr. Sochinenie v 6ti t. – M.: Pedagogika, 1983. T.3. – S. 301.

<sup>2</sup> Qarang: Piaje J. Izbrannye psixologicheskie trudy. – M., 1994. – S. 17-49.

<sup>3</sup> Qarang: Abdunabiev A. Vklad v mirovuyu tsivilizatsiyu. – T.: O'zbekiston, 1998. – S. 5– 94; Saifnazarov I., Nuritdinov Yo. Velikie uchenye mysliteli TSentralnoy Azii perioda Vostochnogo Rennsansa. – T.: TGEU, 2005. – S. 4-49; Sangilov M. Korifei filosofii Drevnego Vostoka. – T.: TAI, 2006. – S. 105.

5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. Aminjonova I E. “Qadimiy yodgorliklar qissasi”. Т. 1968.
8. Ashirov A. Atadjanov Sh. “Etnologiya”. Т. 2007 у.
9. Ashirov A. «O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari». Т. 2007 у.
10. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-Т.: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.

## **18-Mavzu: Toponimika – etnos ongning tarkibiy qismi (4-soat).**

### **Reja:**

1. Toponimika tushunchasi va uning mohiyati haqida.
2. O'zbekiston toponimikasi va etnografiyasining bog'liqlik jihatlari.

Dastlab, toponimika mustaqil fan sifatida o'rganilmay, uning vazifasini tarixiy geografiya fani bajarib kelardi.

Toponimika geografik nomlar, kishi ismlarini o'rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimikani «zamin tili», ya'ni er tili deb ham atashadi. Toponimika atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, «topos» — joy, «onom» yoki «onima» — nom, umuman joy nomini o'rganadigan fan degan ma'noni bildiradi. Geografik nomlar va zamin qa'rda o'rganilmayotgan nomlar, insonlarga qo'yilgan ismlar toponimikaning o'rganish manbai hisoblanadi. Toponimika ikki ob'ektdan: mikro va makro toponimlardan iborat bo'lib, mikrotoponimika — grammatik jihatdan mayda ob'ektlarni, ya'ni «turdosh otlarni», mikroob'ektlarning nomlarini, makrotoponimika esa atoqli otlar, ya'n yirik ob'ektlarning nomlarini tadqiq qiladi.

Hozirgi vaqtda toponimika faqat katta va yirik ob'ektlarning: tog'lar, o'rmonlar, vodiylar, vohalar, shaharlarning nomlarinigina emas, balki kichik ob'ektlarning — mahallalar, daralar; jarliklar, anhorlar, daryo irmoqlari, ariqlar va ko'llarning nomlarini Geografiyaga oid atamalar turdosh otlar toponimika tarkibiga to'lig'icha kirmaydi, ammo ular toponimikani o'rganishda katta ahamiyatga egadir. Nomsiz «ob'ekt» — toponim emas. Toponimika geografiyaga oid joylarni emas, balki ularning nomlarini o'rganadi.

Toponimikaning tilshunoslik, tarix geografiya, arxeologiya va boshqa fanlarga aloqadorligi uning muhim xususiyatlaridandir. Toponimikaga oid ma'lumotlar tadqiq qilinayotganda tarixiy ma'lumotlarga, ayniqsa arxeologiyaga oid tekshirish natijalariga suyangan holda ish ko'rish zarur. Chunki toponimika ko'pincha tarixiy dalillarga va isbotlarga muhtoj. Masalan, biror yodgorlikning nomini o'rganish uchun, albatta, uning qaysi davrda yaratilganligini va nima sababdan shu nom berilganligini tarixiy davr sharoiti muhiti nuqtai nazaridan tadqiq qilish talab etiladi. Tadqiqotning yozma manbalarga ko'pincha arxeologiyaga oid ma'lumotlarga suyangan holda ish ko'rish usuli nomlarning qo'yilgan davrini

aniqlashga va nomlarning paydo bo'lishini o'rganishga qo'l keladi. Bir nomning o'zgarishini kuzatmoq uchun birmuncha vaqt ketadi.

Shuni unutmash kerakki, geografik nomlar ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyoti bilan mustahkam bog'liqdir. Ma'lum bo'lishicha, har bir tuman toponimikasi murakkab tarixiy jarayon bilan bog'liq bo'lib, er ostida ko'plab madaniy qatlamlar mavjudligi uni siichiklab tadqiq qilishni talab etadi. Toponimika metodologiyasiga muvofiq uni fan sifatida o'rganish uchun toponimlarning paydo bo'lishiga doir ma'lumotlardan foydalanish, nomlarning mavjud bo'lgan barcha formalarini aniqlash, nom va atamalarni o'sha joy bilan bog'liq holda tanlash va eng muhimlarini o'rganish zarur.

Toponimik asoslarga vaqt, manbalar va yo'nalishlar bo'yicha joylarga aholining ko'chishi, o'rnashishi kiradi. Toponimlar aniq tarixiy jarayon bo'lib, u aholining ko'chishi, madaniy, iqtisodiy vati munosabatlari bilan vujudga keldi, so'ng tarqala boshlaydi. Toponimika jamiyatning muomala vositasi bo'lgan tilni, uning iqtisodiyotini, madaniyatini va tarixiy taraqqiyotini o'rganish jarayonida o'sib, rivojlanib boradi. Toponimik nomlar manbai va ularni o'rganishda qo'llanilgan uslub va usullarning to'g'riligini aniqlash maqsadida yozma va boshqa manbalar qo'lyozmalar, akt materiallari, aholi joylashgan chegaralarni aks ettiruvchi bosh (asosiy) va maxsus xaritalar hamda ilmiy safar xaritalari bilan solishtirib chiqiladi. Toponimikada ham, moddiy va madaniy yodgorliklar o'rganilganidek, oddiydan murakkabga, ya'ni bugungi kundan asrlar ichkarisiga kirib borish zarur. Bilish murakkab dialektik jarayondir, chunki bu usul bilan madaniy qatlamlarning eng qadimiysidan boshlab, to navqironigacha nomlarning manbai asta-sekinlik bilan ochiladi nomlarning «yoshi» aniqlanadi. O'z navbatida toponimik nomlar tarix uchun ham bebaho manbadir. Geografik nomlar uzoq muddatli bo'lib, ma'lum hududdagi u yoki bu xalqning tili haqida guvohlik beradi. Nomlar ma'lum bir aholining hamjihatligi yoki tarqoqligiga ham bog'liqdir.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida nomlar juda kam bo'lgan, keyinchalik aholi paydo bo'lib, qo'yilgan nomlar ham ko'p vaqtlar o'tishi bilan boshqa nomlarga o'zgartirilib yuborilgan yoki butunlay yo'q bo'lib qyetgan. Ezma manbalardagi toponimikaga oid ma'lumotlar tahlil qilinganda buni yaqqol ko'rish mumkin. Bu noqeani hozirgi vaqtda ham aniq ko'rishimiz mumkin. Ayrim shahar va qishloqlarning eski nomlari o'rniga yangi nomlar qo'yiladi, bu eski nom nima uchun yo'qotildi-yu, nima uchun yangi nom qo'yildi, buning sabablarini ham aniqlash mumkin.

O'tmishda esa yangi zamindor (yer egasi) paydo bo'lishi bilan ko'pincha aholi eski geografik nomlar o'rniga shu zamindorning nomini qo'yishgan. Dialektologiyadan farqli o'laroq toponimikaga oid ma'lumot to'plashda, joylarning nomlarini o'rganishda aholidan yoppasiga so'rash uslubi qo'llaniladi. Faqat shunday uslub bilangina turli daralar, kichik soy va anhorlar, jarliklar, ko'llar va boshqa shunga aloqador bo'lgan nomlarning miqdorini aniqlash mumkin, xolos. Shunday joylarning hammasi aholi yashaydigan joylarning kartasiga yoki aholi joylari ro'yxatiga kiritilmagan, ehtimol kiritilmasa ham kerak. Toponimikaning

eng katta xizmati shundaki, u hujjatxona hujjatlarini sinchiklab o'rganish, xalq og'zaki ijodi asosidagi ayrim tomonlar va nihoyat hech qanday manbalarda aks ettirilgan noma'lum joylarni bizga ma'lum qiladi. Toponimikaga oid ma'lumotlar yig'ishda va joy nomlarining kelib chiqishini o'rganishda etnografiya ham katta rol o'ynaydi.

Toponimikaning ayrim toifalari va tizimlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish yo'li bilan toponimlarni tavsiflash toponimik tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Ko'pgina mutaxassis toponimistlar mahalliy toponimlarni har tomonlama regional tadqiq qilishga katta e'tibor beradilar. Bunda, albatta, mikro va makro toponimikani o'zaro taqqoslash zarur. Toponimika vazifalarini aniqlar ekanmiz, ma'lum joyning geografik nomi tarixi to'laroq, shu o'lkada yashagan xalqlar tarixi bilan bog'liq xolda aniqlanishini uning asosiy maqsadi qilib olishimiz zarur. Bundan tashqari, toponimikaga oid tadqiqog ma'lumotlaridan foydalanilayotganda o'sha o'lka xalqlarining tilini o'rganish, arxeologiya va etnografiyaga oid ma'lumotlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Toponimikaga oid tadqiqot olib borilayotgan tumanning tabiiy geografiyasini, o'tmish tarixini, til tarixini yaxshi bilish shart. Toponimikani o'rganishda yuqoridagilarga amal qilingan taqdirdagina tadqiqotchi o'z maqsadiga erishishi mumkin. Tadqiqotni toponimikaga oid ma'lumotning yaratilgan davri va tarixini aniqlashdan boshlash kerak.

Hozirgi vaqtda toponimistlar joy nomlarini faqat etimologik va semantik jihatdangina emas, balki so'z yasalishi jihatidan ham tahlil qilmoqdalar. Antrotoponim kishining ismi, familiyasi, laqabini (masalan, Mahmud Koshg'ariy, Munis Xorazmiy), antrotoponimika kishi ismi, shahar, qishloq, ovul va shu kabi joylarning nomidan olingan toponimlarni (masalan, Toshkentboy, Qo'qonboy, Xo'jaqul, etnotoponim esa qabila, urug'-aymoq nomiga qo'yilgan nomlarni (masalan, Qozoqboy, Qirg'izboy, o'zbek) o'rganadi.

Dalvarzin, Qo'ng'iroq, Nukus, Mitan va hokazolarni istisno qilganda, barcha toponimlar ikki va undan ortiq tarkibiy qismdan (komponentdan) iborat. Bunday qaraganda hech qanday qo'shimchasiz faqat bir so'zdan iboratday tuyuladigan Jizzah Qo'qon, Yozyovon, G'alcha kabi toponimlar aslida ikki komponentdan tuzilgan.

Biroq, Qarshi (saroy, qasr), Hisor (qo'rg'on), Buxero (bihara — ibodatxona), chim (qo'rg'on), yon (bekat), yop (kanal) kabi nomlar mustaqil toponimlar shaklida uchraydi. Ba'zan esa qum, zah supa kabi geografik atamalar ham hech qanday qo'shimchasiz toponimlar hosyl qilgan. Biroq ana shunday birgina geografik atamadan tuzilgan nomlar ko'pincha shu toponimlarning xalq og'zida qishartirilgan shakli bo'lib chiqadi. Masalan, Qumqishloq deyish o'rniga Qum; Zahariq deyish o'rniga Zah Supatepa deyish o'rniga Supa deb qo'ya qodishadi. Biroq hech qanday qo'shimchasiz Tol, Pidana (yalpiz), YAntoq, Tulki kabi nomlar ma'naviy jihatdan aslida bu o'simlik va hayvonlarga hech qanday aloqasi bo'lmasligi, ko'pincha tamomila boshqa so'zlarning fonetik jihatdai o'zgarishi natijasida shu shaklni olgan bo'lishi mumkip.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkin: toponimika uch prinspga asoslanadi: 1) toponimlarning paydo bo'lish tarixini o'rganish; 2) toponimlarning geografiyaga oid ma'lumotlarini aniqlash; 3) asosiy qidirilayotgan toponimlarning barcha nomdagilarini ilmiy asosda alohida-alohida o'rganib, ulardan xulosa chiqarishdir. Bu prinsplar qo'llanmaning muqaddimasidan to xotimasigacha yoritib borilgan.

Toponimlardan nom olgan buyumlar, o'simlik, hayvonlar shu qadar ko'pki, ba'zan hatto ularning etimologiyasi to'g'risida o'ylab ham o'tirmaymiz. Qo'qon arava, buxoro qovuni, chust pichog'i kabi so'zlarda o'sha joy nomlari hamon esga kelishi mumkin. Biroq akademiya (Afina yaqinidagi changalzor), vulkan (Tirren dengizidagi Vulkano oroli nomidan), jersi (Normandiyadagi shahar), kofe (Afrikadagi Kaffa o'lkasi nomidan), olimpiada (Gretsiyadagi eng baland Olimp tog'i nomidan), roman (Rim shahri nomidan olingan) kabi so'zlarning ham aslida toponimlar ekanini ko'pincha xayolimizga ham keltirmaymiz. quyida toponim nomlarga bir qancha maqollar keltiramiz.

Kimyoviy elementlar. Ko'pgina kimyoviy elementlar joy nomlari bilan atalgan: ameritsiy (Amerika), galliy (Frantsiyaning lotincha nomi — Galliya), germaniy (Germaniya), golmiy (Shvetsiyaning poytaxti Stokgolmning lotincha nomi — Golmiya), yevropiy (Yevropa), indiy (Hindiston), lyutetsiy (Parijning lotincha nomi — Lyutetsiya), poloniy (Polsha), ruteniy (Rossiya), itriy (Shvetsiyadagi Itterbo qishlog'i) va hokazolar.

Qit'alar (materiklar) va dengizlar nomlaridan hosil bo'lgan toponimlar. Avstraliya — grekcha «Janubiya quruqlik» degan so'z. Antik dunyo olimlarining faraz qilishicha, janubiy yarim sharda noma'lum quruqlik Terra australis inkognito bo'lishi kerak edi. XVII asr o'rtalarida bu quruqlik kashf etilgach, inkognito (noma'lum) so'zi tushib qoladi va janubiy yerni Terra Australis deya boshlaydilar. Bir vaqtlar uni «Yangi Gollandiya» deb ham ataganlar. XIX asrdan e'tiboran qishacha Avstraliya (Janubiya) shakli qaror topdi.

Yevropa — osuri tilida erab — «kun botish», «qorong'ulik», «g'arb» demakdir.

Osiyo — ruscha Aziya, xitoycha Yasiya, yaponcha Adziya. Bu nom dastlab Gomer dostonlarida tilga olingan. Miloddan oldingi V asrda Gerodot asarlarida Osiyo deb hozirgi Turkiyaning g'arbiy qismi anglashilgan. Xullas, Osiyo nomi o'rta dengiz sohillariga xos atoqli otdir. Bora-bora bu nom sharqiy yerlarga ham yoyilib, umumlashib ketadi va avvali quyi Osiyo, so'ngra Buyuk Osiyo nomlari, XVIII — XIX asrlarda Kichik Osiyo, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo singari ayrim qismlarni anglatuvchi nomlar paydo bo'ladi. Osiyo nomining ma'nosi turlicha manba va adabiyotlarda turlicha izohlangan: Aziya shahri nomidan, filosof Aziya ismidan, Aziya vodiysi nomidan kelib chiqqan deb faraz qilinadi, osuri tilida asu «kun chiqish tomon». «Sharqiy» ma'nosida qo'llanilgan.

Qora dengiz — janubiy xalqlar tomonidan berilgan nom qora so'zining «shimol», «salqin» degan ma'nosi ham bor. Uning suvi qoramtir bo'lgani uchungina qora dengiz deyiladi deb izohlash noto'g'ri. Milodimizdan avvalgi IX

— VII asrlarda yunonlar qora dengizni yoki mamlakatimizning janubiga joylashgan bu dengizni «uzoq shimol» deb ham ataganlar.

Qizil dengiz — arabcha «Bahri axmar, grekcha eritreya. Afsonaga ko'ra, eron shohi eritr (qizil qalpoq) bosib olgan va Nil tomon kanal qazitgan ekan. Boshqacha izohi ham bor: qirg'oqlarida qizg'ish suv o'tlari va chig'anoqlar ko'p bo'lganidan shunday nom olgan.

O'rta dengiz — Yevropa, Afrika va Osiyo o'rtalarida joylashgan dengiz. Grekcha Mediterraneo — «O'rta yer» so'zlaridan ruschaga aynan tarjima qilingan, o'zbekcha shakli shundan qishartirib olingan. Tarixiy sharqiy manbalarida ko'pincha Rum dengizi, Shom dengizi nomlari bilan ham mashhur bo'lgan.

O'lik dengiz — g'arbiy Osiyodagi ko'l. Suvi juda sho'r va unda hayot yo'qligidan «hayotsiz», «jonivorsiz», «o'lik dengiz» deb atalgan.

Lotin Amerikasi — Markaziy va Janubiy Amerikada ispan va portugal tillari tarqalgan. Bu tillar lotin yoki roman tillar guruhiga kiradi. Bu yerda yashovchi xalqlarning asosiy qismi lotin tilida so'zlashganligi uchun shunday nomni olgan.

Bolqon — Yevropadagi yarim orol. Turkiy tillarda balqon, balxan «tog'», «tog'li yer» degan ma'noni anglatadi. Turkmanistondagi Balxan nomini turklar Yevropaga ko'chirgan bo'lishi ham mumkin (V. F. Minorskiy).

Bosfor — Qora dengizdan O'rta dengizga o'tadigan terda joylashgan bo'g'oz. Turkiyada ko'pincha Bo'g'oz, Istanbul bo'g'ozi, Qora dengiz bo'g'ozi deb ataladi. Bosfor xonancha «buqa» degan so'z. Afsonaga ko'ra, go'yo bu bo'g'ozdan buqalar sakrab o'tgan emish. Ammo yana boshqa haqiqatga yaqinroq izoh ham bor. Qadimda bu bo'g'ozdan suzib o'tadigan kema egalari boj haqini qoramol bilan to'laganlar, shu-shu «buqa to'lanadigan bo'g'oz» nomini olgan.

Arabiston — G'arbiy Osiyodagi yarim orol. «Arab» aslida «cho'l» degan so'z, shundan «cho'lliklar», «ko'chmanchilar» arablar so'zi hosil bo'lgan, so'ngra «arablar yeri» Arabiston paydo bo'lgan.

Avstriya — aslida nemischa Osterreyx: ost — «sharqiy», reyx «o'lka», ya'ni «sharqiy o'lka» degan ma'noni bildiradi.

Angliya — G'arbiy Yevropadagi Buyuk Britaniya davlatining nomi; V — VI asrlarda kontinental Yevropadan shu yerga suzib o'tgan angl qabilalari nomidan olingan.

O'simlik va xayvonlardan olingan nomlar.

Apelsin — gollandcha «xitoy olmasi» demakdir.

Yorkshir — cho'chqa zoti (Angliyadagi Yorkshir grafligi nomidan).

Kashtan — bukklar oilasidan bo'lgan daraxt, Kichik Osiyodagi Kastan shahri nomidan olingan.

Maxorka — Gollandiyadagi Amesofront shahri nomidan olingan bo'lib, dastlab amerfor, keyinchaliq amerforqa, keyin maforqa va nihoyat, maxorqa deb atala boshlangan. Yevropada maxorqa chekish ayrim kishilarga zararli deb tushuntirilgach, kashandalar chekishini tashlay olmay burunlariga hidlay boshlaganlar va uni nosovoy tabak (burnaki) deb ataganlar. O'rta Osiyo xalqlari esa bu tamakini ishlash texnologiyasini ancha murakkablashtirib, uni endilikda

burunga hidlab emas, balki til ostiga tashlaydigan bo'lganlar. Uning nomi tobora o'zgarib, hozirgi nos formasini olgan.

Simmental — qoramol zoti (Germaniyadagi vodiylar nomi).

Sardina, «sardinka» — baliq (Sardiniya oroli nomidan olingan).

Geologiya va geografiya atamalaridan olingan toponimlar. Toponimlar minerallar orasida ayniqsa ko'p uchraydi. Buni quyidagi misollardan ko'rish mumkin: avstolitmineral (Avstraliya), agat (o'zbek tilida aqiq deyiladi) — qimmatbaho tosh (Sitsiliyadagi Akaita daryosi nomidan), adulyar — mineral (Alp tog'larining Adul tizmasi nomidan), alebastr — oq gips (Misrdagi alebastr shahri va tog'i nomidan), almandin — qimmatbaho tosh (Kichik Osiyodagi Albanda shahri), alyaskit — granitga o'xshash qattiq tosh (Alyaska), aragonit (Ispaniyadagi Aragoniya pasttekisligi nomidan), baykalit (Baykal ko'lidan), birmit — kahraboning bir turi (Birja nomidan), inderit — mineral (qozog'is-tondagi Inder tog'lari nomidan), muskovit mineral (Moskva davlatining qadimgi nomidan, Moskoviya), surik bo'yoq (Suriya nomidan), tuyamuyunit — mineral (Farg'ona vodiysidagi Tuyamo'yin koni nomidan), ferganit (Farg'ona) va hokazolar. Xazorasp — ming ot, Sariosiyo — bosh tegirmon, Go'rlan — ko'r va lang so'zlarining birikuvidan tashkil topgan. Hindikush — hind, kush — o'lim, degan ma'noni bildiradi.

Gazlamalar. Boston — AQSHdagi shaharning nomidan, Jersi — Normandiya-Fransiya qirg'og'i yaqinidagi orol nomidan, Sarpinka — Saratov viloyatidagi Saropta degan nomdan kelib chiqqan.

Antrotoponimika — Turkiy «Axmet», arabcha «Ahmad — maqtoqli, maqtovg'a sazovor» degan ma'noni anglatadi, undan Ahmetov degan familiya vujudga kelgan; Baxmet — turkiy «boy» yoki Axmet arabcha Ahmad so'zlarining qo'shilishidan Baxmetov familiyasi vujudga kelgan. Sabur (Saburov) — turkiy «sabr», arabcha «sobir» (chidamli) so'zlaridan olingan. Mamon — turkiy mo'min (qobil, beozor, yuvvosh ma'nolarida) so'zidan olingan Mamonov familiyasi shundan kelib chiqqan. Polvonov — turkiy tillarda «polvon», forsha — «pahlavon» (botir, qahramon ma'nosida) so'zlaridan olingan, keyinchalik ruscha «ov» qo'shimchasi qo'shib Polvonov familiyasi kelib chiqqan. Saymon turkiy «saymon» (abjir, chaqqon, dadil ma'nolarida) — Saymonov familiyasi shundan olingan. Dashikturkiy «dashuk» — «tashuk» (dimog'dor, kekkaygan ma'nolarida) so'zlaridan «Dashkov» familiyasi, kurdyuk — turkiy «kuduruk» — «kuzuruk» — «quyruq» so'zlaridan ruscha «Kurdyukov» familiyasi kelib chiqqan va hokazo.

Oziq-ovqat nomlari. Lag'mon (xitoycha) — «lag'» — uzun, «man» — hamir, «uzun hamir» degan ma'nolarni bildiradi. Buterbrod (nemischa) — go'sht va non yoki non va yog' degan ma'nolarni bildiradi. Pirog — qoraqalpoqlarda «burek», tatarlarda esa «chiyburek», har ikkisida ham go'shtli pirog degan ma'no bor. Bu so'zning o'zagi «bur» o'ramoq, chulg'amoq ma'nolarini bildiruvchi fe'ldan yasalgan, ruscha «pirog» so'zi shundan kelib chiqqan.

Ichimliklar nomlari. Toponimlarda ichimliklar nomlari ham ma'lum darajada o'z aksini topgan, masalan: borjomi — mineral suv (Gruziyadagi kurort

shaharning nomi), esentuki — mineral suv (Shimoliy Kavkazdagi kurort shaharning nomi), Toshkent mineral suvi (Toshkent shaharining nomidan olingan) va hokazo.

Bulardan tashqari, respublikamizning barcha ovul, qishloq, posyolka, vodiylari va vohalari hamda viloyatlari nomlari ham toponimlar bo'lib, ularning ko'pchiligi hali to'la o'rganilmagan. O'rganilganlaridan VII — X sinflarda O'zbekiston xalqlari tarixi darsida foydalanish katta ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bu usulda toponimikaga oid ma'lumotlardan foydalanish yoshlarni tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan estetik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning negizi bo'lib xizmat qiladi. Biz quyida O'zbekiston xalqlari tarixi kursini o'qitishda Toshkent vohasi toponimikasi va ulardan darsda foydalanish namunasini keltiramiz.

Toshkent vohasi toponimikasi va ulardan darsda foydalanish

Toponimikaga oid ma'lumotlardan foydalanib o'tiladigan bir soatlik aralash dars reja — konspekti.

Darsni tashkil qilish: a) o'quvchilar bilan salomlashish va sinfning darsga hozirligini kuzatish; b) o'quvchilar diqqatini darsga jalb etish.

O'tgan mavzu: «Reaksiya yillarida O'zbekiston» mavzusi yuzasidan o'quvchilarga beriladigan savollar:

- 1) qaysi yillar reaksiya yillari deyiladi?
- 2) Yangicha yuksalishga nima sabab bo'ladi?
- 3) O'zbekistonning qaysi joylarida xalq harakatlari bo'lib o'tdi?

Bu savollarga o'qituvchi o'quvchilardan javob olgach, o'zi qishacha mavzuga yakun yasaydi va uni yangi mavzuga bog'laydi.

Yangi mavzu: «Birinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston».

Darsning maqsadi: o'quvchilarni O'zbekiston mehnatkashlarining 1916 yildagi milliy ozodlik harakati bilan tanishtirish, bu harakat Rossiyada etilgan tanglikning natijasi ekanligini tushuntirishdan iborat.

Dars o'tish uslubi: o'qituvchi suhbat usulidan foydalangan holda materialni bayon qiladi: o'quvchilar mustaqil ish bajaradilar.

Ko'rgazmali qurollar. «Birinchi jahon urushi», «O'zbekistonda 1916 yil qo'zg'oloni» va O'zbekistonning siyosiy xaritalaridan foydalaniladi.

Rossiya davlati tarixi kursini bu mavzu bilan bog'lab olib borish uchun darsni quyidagi savollar asosida suhbat o'tkazishdan boshlash maqsadga muvofiqdir: 1. Chor Rossiyasining urushga tayyor emasligi nimada ko'rindi? 2. Urush Rossiyaning iqtisodiyotiga qanday ta'sir qildi? 3. Birinchi jahon urushi qanday oqibatlarga olib keldi? 4. Rossiya davlat to'ntarishi uchun vaziyat vujudga kelganligini dalillar bilan isbotlab bering.

O'qituvchi suhbatning oxirida darsga xulosa qilib, 1917 yilning boshlariga kelganda Rossiyaning iqtisodiy ahvoli keskin og'irlashganligi, uzoqqa cho'zilib ketgan urush chor Rossiyasining iqtisodiyotini ancha izdan chiqarganligi, bu hol xalq ommasining ahvolini mushkullashtirib yuborganligi, Rossiyada tanglikning etilishini tezlashtirganligi, birinchi jahon urushi davrida O'zbekistonda keng



quloch yoygan milliy ozodlik harakati ana shu tanglikning ko'rinishlaridan biri bo'lganligini darsni umumlashtirish jarayonida o'quvchilarga tushuntiradi.

Birinchi jahon urushi va tanglikning etilishi. Bu mavzuni o'rganish vaqtida darslikdagi matn ustida o'quvchilarning mustaqil ishlashini uyushtirish zarur. O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi: 1. Birinchi jahon urushi O'zbekiston mehnatkashlar ommasining ahvoriga qanday ta'sir qildi? 2. Birinchi jahon urushi davrida O'zbekistondagi tanglikning etilishi nimalarda ko'rindi? 3. O'zbekistonda 1916 yildagi xalq qo'zg'olonining boshlanishiga nima sabab bo'ldi?

O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini eshitib bo'lgach, birinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda ijtimoiy va milliy zulm ancha kuchayganligini tushuntiradi. O'sha davrda O'zbekistonning eng muhim sanoat xom ashyosi - paxta etkazib beruvchi o'lka sifatidagi o'rni yana ham o'sdi. Rus kapitalistlarining manfaatlarini ko'zlab, paxtaga bozor narxidan 20 foiz kam majburiy narx belgilandi, vaholanki, sanoat mollarining, galla va boshqa oziq-ovqat maxsulotlarining narxi haddan tashqari ortib bormoqda edi. Bu hol mehnatkashlarning ahvolini yanada mushkullashtirib yubordi. 1916 yilda qaxatchilik bo'ldi.

Birinchi jahon urushi yillarida avj olib ketgan feodal, kapitalistik va mustamlakachilik zulmi sinfiy ziddiyatlarni g'oyat keskinlashtirib yubordi. Ishchi va dehqonlar orasida chorizmning siyosatidan norozilik benihoya kuchaydi. 1915 yilning oxiri — 1916 yilning boshlarida mamlakatda vaziyat juda keskinlashdi.

O'zbekistonda 1916 yilgi xalq qo'zg'oloni va uning ahamiyati. Bu masala darslikdagi doimiy ma'lumot asosida to'liq ochib beriladi. Qo'zg'olonning qanday davom yetganligi «O'zbekistonda 1916 yil qo'zg'oloni» xaritasidan kuzatib boriladi.

Materialni tushuntirish jarayonida o'quvchilarning e'tiborini quyidagi muhim holatlarga jalb etish kerak.

O'rta Osiyo tarixida xalq harakati hali hech qachon 1916 yil qo'zg'oloni davridagidek keng quloch yoymagan edi.

Qo'zg'olon chorizmning milliy-mustamlakachilik zulmiga qarshi qaratilgan bo'lib, fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlarni qo'lga kiritish uchun boshlangan harakat edi. Bu qo'zg'olon O'zbekiston xalqlari tarixidagi muhim voqealardan biri hisoblanadi

Mustamlakachilikka qarshi, imperializmga qarshi harakat bo'lib boshlangan 1916 yil qo'zg'oloni ayni vaqtda antifeodal xarakterga ham ega edi; bu hol qo'zg'olonchilarning boylarning er-mulkiga, sudxo'rlar va savdogarlarning uylariga qilgan hujumlarida o'z ifodasini topdi.

1916 yilgi qo'zg'olon xalq qo'zg'oloni edi. Bu harakatda keng xalq ommasi, avvalo, dehqonlar va shahar kambag'allari qatnashdi. Shahar va shahar atroflarida mahalliy hunarmandlar va ishchilar, qishloq joylarda esa kambag'allar va batraklar qo'zg'olonga boshchilik qildilar. Asrlar bo'yi asoratda yashagan ayollarning qo'zg'olonda ishtirok etishi — bu harakatning muhim xususiyatlaridan biri edi.

Qo'zg'olon, umuman olganda, progressiv milliy ozod-lik harakati tusini oldi. Ayrim tumanlarda (masalan, Jizzax uezdida firibgar unsurlar bu qo'zg'olonning xarakterini o'zgartirishga va undan o'zlarining sinfiy manfaatlari yo'lida foydalanishga urindilar, ammo ular bunga muvaffaq bo'la olmadilar. Ularning milliy adovatni avj oldirish va umuman ruslarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish yo'lidagi urinishlari ham tamomila barbod bo'ldi.

Qo'zg'olonga qarshi chiqqan mahalliy feodallar va burjuaziyaning xalqqa qarshi qaratilgan firibgarona yo'li qo'zg'olon vaqtida batamom ayon bo'ldi. Qo'zg'olon kunlarida mahalliy aholi mehnatkashlarining milliy burjuaziya dan yuz o'girishi haqiqatda nihoyasiga etdi. Bu jarayon 1905 —1907 yillardagi to'ntarish davridayoq boshlangan edi.

Qo'zg'olon Rossiyada etilib kelayotgan tanglikning natijasi bo'ldi va, o'z navbatida, ana shu tanglikning yanada chuqurlashib ketishiga yordam berdi. Bu qo'zg'olon chorizmning O'rta Osiyo va Qozog'istondagi mustamlakachilik siyosatiga qattiq zarba berdi. Qo'zg'olon Ettisuv va Zakaspiy viloyatlariga hamda Qozog'istonning dasht viloyatlari — Akmolinsk, Semipalatinsk, Uralsk va To'rg'ay viloyatlariga ham yoyildi. Bu viloyatlarda qo'zg'olonchilar soni necha o'n minglab kishiga etdi.

Xalq ommasining tazyiqi natijasida chor hukumati 1916 yil 30 iyulda farmon chiqarib, mardikorlikka safarbarlik muddatini 15 sentyabrgacha kechiktirishga majbur bo'ldi. Bu — chorizmning qisman yon berganligidan dalolat berar edi. Hukmron doiralar Kavkazdagi safarbarlikni bekor qilganidek, Turkistonda ham bunday safarbarlikni bekor qilmoqchi edilar. Ammo chor ma'murlari mahalliy aholi chiqishidan, xususan qurolli qo'zg'olondan keyin bu yon berishni Rossiya hukumatining zaifligidan boshqa bir narsa emas, deb talqin etishdan qo'r qar edilar. Chor hukumati mardikorlikka odam olish ishlarini to'la miqdorda amalga oshira olmadi. 1917 yil 1 martgacha Turkistondan jami 123 ming kishi, ya'ni mo'ljallangan miqdordagi kishilarning yarmidan kamrog'i mardikorlikka olindi.

Shu munosabat bilan boshlangan qo'zg'olon milliy ozodlik harakatining rivojlanishida, Turkiston xalqlarining sinfiy ongini uyg'otishda muhim bir boshich bo'ldi. O'qituvchi buning oqibatida Turkistonda ijtimoiy va milliy zulmning tobora zo'rayib borayotganligi, imperialistik urush yillarida kuchayib ketgan feodal, kapitalistik va mustamlakachilik zulmi xalq ommasining ahvolini toqat qilib bo'lmas darajada og'irlashtirganini, xalq ommasining ezuvchilarga qarshi kurashga otlantirganligini uqtirishi bilan birga joylarda ko'tarilgan milliy ozodlik harakatlari va g'alayonlar bo'lgan joylar haqida tushuncha bera boshlaydi. Bu qo'zg'olon va g'alayonlar milliy ozodlik harakatlaridan biri ekanligi ko'rsatiladi. Qo'zg'olon ko'tarilgan joylar va bu mavzuda uchraydigan nomlarning toponimikasi o'rganib boriladi.

Demak, bu sohada uchraydigan nomlarning kelib chiqishi, ma'nosi shu sohada ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarning asarlaridan foydalanilgan holda o'rganiladi.

O'qituvchi «Birinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston» mavzusini bayon qilish jarayonida ijtimoiy va milliy zulmga, kapitalistik va mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik uchun kurash olib borgan shahar va vohalar nomlarining kelib chiqish tarixi haqida qishacha to'xtab o'tadi. Asosiy e'tiborni har bir joyning nomi va uning ma'nosi, o'z tarixi borligiga, birinchi eshitganda ma'nosizday tuyulgan nomlar chuqurroq qaralsa ko'pincha kutilmagan mazmun berishiga qaratadi. Shuni aytish kerakki, mazkur joyga nomi berilgan o'simlik yoki hayvon yo'q bo'lib ketgan, bu joylarda yashaydigan xalqlar esa boshqa bir yerlarga ko'chib ketgan bo'lishi ham mumkin, biroq joy nomi deyarli o'z holicha qolaveradi. Boshqacha qilib aytganda, geografik nomlarning ma'nosiga qarab bu yerlarda qadimda qanday hayvonlar yashagani yoki qanday o'simliklar o'sganini aytib berish mumkin. Mana sizga bir misol. Bir vaqtlar O'rta Osiyoda qulon deb atalgan yovvoyi otlar uyur-uyur bo'lib yurishgan. Qulonni ovlay berib, qirib yuborishgan. Hozirgi vaqtda qulon Turkmanistondagi Bodxiz qo'riqxonasida qolgan, xolos. Lekin Qulonsoy, Qulonboshi, Qulontepa kabi joy nomlari ana shu qimmatli jonivorning bir zamonlar ko'p bo'lganligidan dalolat beradi. Bulon degan ham hayvon bo'lgan. Qulon va bulon to'g'risida xalq og'zida mana shunday she'r bor:

Qulon yurmas yerlardan.  
Quvib o'tib boradi,  
Bulon yurmas yerlardan  
Qalqib o'tib boradi.

Bulonni bundan 9 asr oldin Mahmud Koshg'ariy «Qipchiqlar mamlakatda bo'ladigan katta gavdali hayvon» deb ta'riflagan. Aslida bulon ruscha «los» deb ataladigan katta bug'udir. Bulon, Bulonti kabi joy nomlari ana shu xayvonlardan qolgan esdalikdir.

Boshqa bir misol. So'kso'k — saksovul. Munis Xorazmiy Xorazmda to'xtovsiz urushlar natijasida el-yurt harob bo'lganini tasvirlab, bunday deb yozgan edi: «Bu jihatdan Xorazm diyorida kaxat va gilo shoing' bo'ldi... Xivakning (ya'ni Xivaning) oliy imoratlari munhadim (vayron) bo'lib, o'rniga so'kso'k va yulg'un ko'kardi». Demak, bu o'simlik nomi Buxoro viloyatning Qorako'l tumanidagi So'kso'k degan qishloq nomiga ko'chgan.

Respublikamizda o'zbekcha nomlardan tashqari arabcha, tojikcha, Mo'g'ulcha nomlar ham ko'p uchraydi. Qashqadaryo viloyatida Maymanak degan qishloq bor. Maymanak arabcha so'z bo'lib, «O'ng» tomon, «O'ng qo'l» degan ma'noni bildiradi. Farg'ona vodiysidagi Pochchaota soyidan chiqarilgan bir ariq Barangar deyiladi, bu nom esa Mo'g'ul tilida (barangdor) «O'ng qo'l, o'ng tomon» degan ma'noni bildiradi. Samarqand viloyatidagi Bulung'ur tumani va kanalining nomi Mo'g'ulcha «loyqa suv» degan ma'noni anglatadi. Reg, Reginav, Registon, Regzor degan joylar nomi fors-tojik tilidagi reg, ya'ni «qum» so'zidan olingan. Registon shaharning qum to'shab qilingan markaziy maydoni bo'lgan. Shuning uchun ham nomlarni er tili deyishadi. Joy nomlari yuzlab, hatto minglab yillar yashaydi. Bu nomlarning juda ko'pi hali o'rganilmagan. O'qituvchi o'quvchilarga

siz bu joylarni nima uchun shunday atalar ekan deb o'ylab ko'rganmisiz? o'zingiz yashab turgan qishloq, shahar, kolxoz-sovxoq, yo bo'lmasa yonginangizda oqib o'tadigan ariq, anhor nomining ma'nosini bilasizmi? degan savollarni o'rtaqa tashlaydi. Mana shunday savollarga javob toptirish yo'llari bilan ular toponimik materiallarni to'plash yo'lida mustaqil tadqiqot olib borish ishlariga jalb qilinadi.

O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilish jarayonida uchragan barcha joylarning nomlari qanday kelib chiqqanligi va ularning ma'nolari ustida to'xtab o'tishi mumkin emas, shuning uchun u har bir yangi mavzuni o'tayotganda katta-katta masalalar ustida batafsil to'xtalib, mikrotoponimlar bilan mustaqil ishlashni o'quvchilarning o'zlariga topshirsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, Toshkent shahrining nomi haqida o'qituvchi dars jarayonida batafsil tushuntirib beradi, lekin Toshkent shahrini, uning tarixiy joylari, tuman, ko'cha va mahallalari, dahalari, undan oqib o'tadigan anhor va ariqlari, xiyobonlari kabilarning nomlari haqida o'quvchilarga mustaqil o'rganib kelishlarini topshirishi ham mumkin. Bundan tashqari, toponimlarning talay qismi turli xalqlar, qabilalar, o'zbek urug'lari va ularning mayda shoxobchalarining nomlari bilan atalgan. Nukus, Qo'ng'iroq, Kenagas, Metan kabi urug' nomlari bilan birga Asaka, Boyto'pi, Kal, Qul kabi mayda shoxobchalarning nomlari ham toponimlarda o'z aksini topgan. Bunday toponimlarni ilmiy asosda o'qituvchining o'zi aytib bergani ma'qul.

O'zingiz bir o'ylab ko'ring, respublikamizda 17000 dan ortiq qishloq va aholi yashaydigan punktlar, 500 taga yaqin quduq borligi ma'lum. Odatda, O'rta Osiyoda suv havzalari, jumladan ko'llar kam deb kelinardi, holbuki birgina Tyanshan tog'larida 12000 soy va jilg'alar oqib tushishi, Sirdaryo yoqasida 2118 ko'l borligi hisobga olingan.

Har bir qishloq atrofida yuzlab jarlar, tepaliklar, qirlar, buloqlar, quduqlar borki, ularni har qanday mukammal xaritadan ham topib bo'lmaydi. Masalan, Zomin tumanidagi birgina Tomtum qishlog'i atrofidan 300 dan ortiq mayda joy nomlari yozib olingan bo'lsa, Toshkentdek azim shahar va uning vohasidan qancha joylarning nomini yozib olish mumkin.

Ana shu aytilganlarni nazarga olib, bu paragrafda Toshkent shahri tarixi va Toshkent vohasidagi joylar nomlarining kelib chiqish tarixi haqida (albatta o'rganilganlarinigina) manbalarga asoslangan holda izohlab o'tamiz.

Toshkent — qadimiy va navqiron Toshkent shahri Chirchiq daryosining sohilida bundan 2000 yil muqaddam vujudga kelgan. Akademik Ya. G'. G'ulomov rahbarligida Arxeologiya institutining bir guruh yirik ilmiy xodimlari Toshkent vohasida olib borgan arxeologik tekshirishlar natijasida Toshkent shahrining «yoshi» ni aniqlash mumkin bo'ladi.

Toshkent — O'zbekiston jumhuriyatining poytaxti va Toshkent viloyatining markazi bo'lib, o'lkamizning eng yirik shaharlaridan biri. U aholi soni jihatidan Moskva, Sankt-Peterburg va Kiyevdan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. Toshkent — sanoati yuksak rivojlangan, fan va madaniyati ilg'or, juda ko'p xalqaro uchrashuvlar, konferensiyalar, festivallar o'tkaziladigan joy, O'rta Osiyoning o'ziga xos janubiy darvozasi. U respublikaning shimoli-sharqiy qismida, Tyanshan

tog'larida etaklarida, dengiz sathidan 440 — 480 metr balandlikda, Chirchiq daryosi vodiysida joylashgan. Chirchiq daryosidan bosh olgan va butun shahardan o'tadigan Bo'zsuv, Solor, Anhor, Qorasuv, Kaykovus, Bo'rjar, Oqtepa, Qoraqamish va boshqa kanallar uning mikroiklimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iqlimi kontinental, yillik o'rtacha temperaturasi 13,3°; yanvarning o'rtacha temperaturasi —1,1°; iyulning o'rtacha temperaturasi +27,5°. Yiliga 360 — 390 mm yog'in yog'adi. Maydoni **250** km<sup>2</sup>. Shaharda 11 ta tuman: Ulug'bek, Shayxontohur, Mirobod, Yunusobod, Yakkasaroy, Bektemir, Sobir Raximov, Sirg'ali, Hamza, Chilonzor, Akmal Ikromov tumanlari bor.

Qadimgi manbalarda hozirgi Toshkent o'rnida 2000 yil ilgari yirik obod shahar bo'lganligi qayd qilingan. Arxeologik qazish natijasida Toshkent hududidan 2000 yil ilgari yasalgan sopol idishlar, bronza, oyna va turli mamlakatlarning tangalari topilgan. Biroq hozirgacha Toshkentning o'sha davrdagi nomi aniqlanmagan. Toshkent **V** — **VIII** asrlarda Choch, Shosh, Shoshkent, Binkent deb atalib kelgan va ayni vaqtda shu nomdagi feodal davlatning poytaxti bo'lgan. Buyuk ipak yo'lida joylashgan Toshkent Yevropa mamlakatlarining Hindiston va Xitoy bilan olib borgan turli aloqalarida muhim rol o'ynagan.

VI asrda turk xoqonligi tarkibiga qo'shib olingan. Turklar shaharni zabt etgach, uning atrofini kuchli mudofaa devorlari bilan o'rab olganlar. Arxeologik qazish vaqtida topilgan ishlab chiqarish qurollari va ro'zg'or buyumlari bu erda yuksak madaniyat bo'lganligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari Toshkent hududida VI — VIII asrlarga oid bir qancha qasrlar harobasi (masalan, Toshkentning shimoli-sharqiyidagi Oqtepa tepaligida) saqlanib qolgan.

VIII asr boshlarida Toshkent arablar bosib oladilar: shahar aholisi arablarga qattiq qarshilik ko'rsatganlar.

Toshkent o'zaro urushlar, qo'zg'olonlar, ko'chmanchi qabilalar hujumlari natijasida bir necha marta vayron qilingan. IX asrda shahar oldingi o'rnidan shimoli-sharqiy tomonda — Bo'zsuv kanali etagida barpo bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg'ariy ma'lumotlariga ko'ra, shahar XI asrdan Toshkent deb atala boshlagan.

IX — X asrlarda Toshkent Somoniylar davlati, X asr oxirlaridan XIII asr boshigacha Qoraxoniylar va Qoraxitoylar davlatlari tarkibida bo'lgan. Qadimiy manbalardan bayon qilinishicha, Toshkent bu davrda qal'a, ichki va tashqi shahardan iborat bo'lib, atrofi bir necha qator mudofaa devori bilan o'ralgan. Shaharda kulolchilik, o'q-yoy, gazlama, gilam, chodir hamda charm mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlangan.

**XIII** asr boshida Toshkentni Muhammad Xorazmshoh bosib oladi va 1214 yili Mo'g'ul qo'shinlari yo'lini to'sish maqsadida aholini ko'chirib, shaharga o't qo'ydiradi. Shahar bir necha vaqtgacha tiklanmaydi. Faqat Temuriylar davlati tarkibiga qo'shib olingandan keyingina qayta quriladi, 1404 yilda Ulug'bek ixtiyoriga mulk tarzida beriladi. Keyinchalik Temuriylar o'rtasida boshlangan taxt

uchun kurashdan foydalangan Mo'g'ul xoni Yunusxon Toshkentni o'z qarorgohiga aylantiradi.

1501 yilda Shayboniyxon Mo'g'ullarni tor-mor etib Toshkentni idora qilishni o'z amakilari — Suyunchxo'jaxon va Ko'chkinjixonga topshiradi. Ularning davrida Toshkent O'rta Osiyoning hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayot markazlaridan biriga aylanadi.

XVI asrning birinchi yarmida Toshkentda katta qurilish ishlari olib boriladi. Bir qancha saroy va madrasalar quriladi. Masalan, Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari Shayboniyxonlar davrida qurilgan ko'rkam va hashamatli binolardandir. Hunarmandchilikning rivojlanishi savdo-sotiq aloqalarining kengayishiga olib keladi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Qozon va Astraxan' xonliklarining bosib olinishi va Rus davlatiga qo'shib olinishi natijasida Toshkent bilan Moskva o'rtasida savdo aloqalari rivojlanadi, har ikki tomon bir-biriga elchilar yuboradilar. 1576 yilda Toshkent Shayboniyxonlardan Abdullaxon qo'l ostiga o'tadi. Uning o'limidan keyin esa Toshkentni Qozon xoni Tavakkal bosib oladi (1599). 1613 yili Ashtarxoniylardan Imomqulixon qozoqlarni tor-mor keltirib, Toshkentni qaytarib oladi va Toshkentga o'z o'g'li Iskandarni noib qilib tayinlaydi.

Biroq Iskandarni tez orada qo'zg'olon ko'targan toshkentliklar o'ldiradilar. Bundan g'azablangan Imomqulixon Toshkent aholisini qirg'in qiladi. XVIII asr boshida Toshkent uchun Jung'oriya xonligi bilan Qozoq xonligi o'rtasida ko'p urushlar bo'ladi. 1723 yilda qozoqlar yengilib, Toshkent Jung'or xoni Galdan-TSiren qo'lga o'tadi. Bu davrda Toshkent aholisi uzumchilik hamda poliz ekinlari, bug'doy, tariq, arpa, sulii, zig'ir, kunjut etishtirish bilan shug'ullangan.

Shahar rastalarida ipak mato ip-gazlama, zarbof kiyimlar ko'p bo'lgan. Rus savdogarlari Toshkentga movut, qunduz terisi va turli bo'yoqlar keltirishgan. Toshkent bilan Balh Xiva, Buxoro, Samarqand, Qulob, Shahrisabz va boshqa shaharlar o'rtasida savdo-sotiq rivojlangan. Pul muomalasi u davrda hali yaxshi rivojlanmagan edi. Toshkent aholisiga xonlik g'alla va qoramol bilan to'lanadigan maxsus soliq (hosilning o'ndan bir qismi miqdorida) solgan. Jung'oriya xonligi barham topgandan keyin (1758 yil) Katta o'rda hujumlari natijasida Toshkent ko'p zarar ko'radi.

XVIII asr o'rtalarida Toshkent to'rt daha (Sebzor, Ko'kcha, Beshyog'och, Shayxontahur) ga bo'lingan bo'lib, ularning har birini mustaqil hokim boshqargan. Bu davr tarixda «Chor hokim» (to'rt hokim) nomi bilan mashhur. Shaharning devori (uzunligi 14 km) va Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samar-qand, Kamolon, Beshyog'och, Qo'qon, Qashqar, Qo'yimas degan 12 ta darvozasi bo'lgan.

XVIII asrning oxirlarida Shayxontahur dahasining hokimi Yunusxo'ja qolgan uch daha hokimligini ham o'z tasarrufiga olib, Toshkentda feodal tarqoqlikka chek qo'yadi. Bir necha harbiy yurishdan so'ng u Katta o'rdadan Toshkent atrofidagi qishloqlarni qaytarib olishga, Toshkent aholisiga tinchlik bermayotgan ko'chmanchi qozoqlarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ladi.

1799 yili Qo'qon qo'shinlari Toshkentni qamal qildi, ammo toshkentliklarning kuchli zarbasiga uchrab, orqaga qaytadi. 1800 yili Yunusxo'ja Qo'qon xonligiga qarashli Quramani bosib oladi. Biroq 1807 yili Qo'qon qo'shinlari bilan bo'lgan jangda Yunusxo'ja yengilib, Quramani qaytarib beradi. Yunusxo'ja vafot etgach (1810 yili), Toshkentga uning o'g'li Sultonxo'ja hokim bo'ladi. Yunusxo'janing o'limidan foydalangan Qo'qon xoni Olimxon o'z ukasi Umarxon qo'mondonligida qo'shin yuborib, Toshkentni egallaydi va unga Sultonxo'janing ukasi Hamidxo'jani hokim qilib tayinlaydi. Hamidxo'ja Qo'qonga bo'ysunmay qo'yadi. Natijada Olimxon shaxsan o'zi qo'shin tortib, Toshkentni Qo'qon xonligiga uzil-kesil qo'shib oladi. Shundan boshlab Toshkent hokimi faqat Qo'qon xoni tomonidan tayinlanadigan bo'ldi.

XIX asr o'rtalarida Toshkent O'rta Osiyoning Rossiya bilan savdo-sotiq qiluvchi eng yirik markaziga aylanadi.

Rossiya bilan O'rta Osiyo shaharlari olib borayotgan savdo-sotiqning 40%i birgina Toshkentga to'g'ri kelar edi. Har yili Orenburg va Semipalatinsk shaharlariga Toshkentdan paxta, paxta mahsulotlari, ipak, guruch, quruq mevalar, jun va boshqa mahsulotlar ortilgan tuya karvonlari jo'natilar edi. U erdan esa Toshkentga ip-gazlamalar, temir metall buyumlar, mo'yna va boshqalar keltirilardi.

1865 yili Toshkent chor qo'shinlari tarafidan bosib olindi. 1867 yildan Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo viloyatining markaziga aylandi. Toshkent aholisi ikki yoqlama — podsho mustamlakachilar hamda mahalliy ekspluatatorlar zulmi ostida qoldi. Ijtimoiy va milliy mustamlaka zulmining avjga chiqishi natijasida Toshkent mehnatkash ommasini 1892 yilda qo'zg'olon ko'tardi.

1899 yili Zakaspiy temir yo'li bu ergacha etib keldi. 1905 yili esa Toshkentni markaziy Rossiya bilan bog'lovchi eng yaqin yo'l — Orenburg — Toshkent temir yo'li qurildi. Toshkent asosiy temir yo'l uzeli, savdo va tranzit punktiga, ko'p millatli Turkiston o'lkasining ma'muriy-siyosiy markaziga aylandi. Shaharda yangi sanoat korxonalarini hamda savdo muassasalari vujudga keldi.

1813 yili Toshkentda III sanoat korxonasi, jumladan 15 ta paxta tozalash zavodi, 3,5 mingdan ortiq hunarmandchilik ustaxonasi, 22 rus va chet el savdo firmalarining bo'limlari, 186 ta katta-kichik magazin bor edi. Toshkent aholisi, asosan, xunarmandchilik, dehqonchilik, bog'dorchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanar edi. eski shaharning sharqiy tarafida yangi shahar barpo qilinib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar asosan Toshkentning shu qismida ro'y bergan. Toshkentda sanoat korxonalarini rivojlanishi tufayli mahalliy kapitalistlar sinfi bilan bir qatorda mahalliy ishchilar sinfi ham etishib chiqa boshladi. Mahalliy ishchilar sinfi, asosan, paxta tozalash, yog'moy, vino-arog, g'isht, pillakashlik korxonalarini va boshqa korxonalar ishchilaridan, temir yo'l, tramvay ishchilaridan shuningdek, hunarmandchilik ustaxonalaridan yollanib ishlayotgan ishchilardan iborat edi. Toshkentdagi Bosh temir yo'l ustaxonasi (hozirgi Toshkent teplovoz vagon remonti zavodi)ning 800 ishchisidan 120 tasi mahalliy millat vakili bo'lgan. Turkiston proletariyatining ko'pchilik va ilg'or qismini tashkil yetgan. Toshkent

ishchilari Rossiyada sinfiy kurash maktabini o'tgan rus ishchilari ta'sirida asta-sekin siyosiy qurashga jalb etila boshlaydilar. 1903 yili Toshkentda sotsial-demokratik to'garak tuziladi. 1904 yili esa dastlabki mayovkalar o'tkaziladi, yashirin bosmaxonalar tashkil qilinadi va «Iskra» gazetasi tarqatila boshlaydi.

Toshkent mehnatkashlari ham 1905—1907 yillardagi Turkiston mehnatkashlarining g'alayonlarida ishtirok etdilar. Butun Rossiya Oktyabr' ish tashlashi podsho hukumatining eng «mustahkam» va so'nggi tayanchi bo'lgan armiyani ham qo'zg'atdi. Turkiston armiyasida g'alayon o'sib bordi. Natijada Toshkent Tuproq qo'rg'oni soldatlarining qurolli qo'zg'oloni bo'ldi. 1912 yili Lena oltin konlari ishchilarining otilishiga javoban Toshkent yaqinida joylashgan Troitskiy harbiy lager' sapyorlari qo'zg'olon ko'tardilar.

1916 yil 25 iyunda podsho Nikolay II «imperiyadagi begona aholi erkaklarini» mardikorlikka safarbar qilish to'g'risida farmon berdi. Turkistonning tub aholisi safarbarlikka qarshi norozilik namoyishlari o'tkazdi. Joylarda bu harakat qo'zg'olonga aylandi. Jumladan, Toshkent mehnatkash ommasini 4 iyulda qo'zg'olon ko'tardi.

1917 yil 25 oktyabrga o'tar kechasi Petrograd qo'zg'olon boshlanib, muvaqqat hukumat ag'darib tashlandi, hokimiyat ishchi va soldat deputatlari Petrograd Soveti qo'liga o'tdi.

G'alayonda qatnashgan ishchilarning g'alabalari to'g'risidagi xabar 27 oktyabrda Toshkentga ham etib keldi. Bu xabardan ruhlangan ishchilar burjua hokimiyatiga qarshi qurolli qo'zg'olon ko'tardilar. 28 oktyabrda qo'zg'olonchilar qo'mitasi tuzildi. Qo'mita Toshkent ishchilar va soldatlarining- qo'zg'olondan norozi bo'lgan kuchlarga qarshi kurashiga boshchilik qildi. O'sha kuni soat 6 da temir yo'l ustaxonasi gudok chalib, qurolli qo'zg'olon boshlashga signal berdi. Qo'zg'olon 31 oktyabrgacha davom etdi. Qo'zg'olon natijasida 1 noyabrda Toshkentda yangi hokimiyat o'rnatildi. Lekin bu hokimiyat Turkiston xalqlariga ozodlik keltirmadi.

2- jahon urushigacha besh yilliklar davrida Toshkentda bir qancha sanoat korxonalari — «Qizil tong» tikuvchilik fabrikasi, «O'rtoq» tamaki fabrikasi, poyabzal fabrikasi, mashinasozlik zavodi, Toshkent to'qimachilik kombinati, metallsozlik zavodi va boshqalar qurildi. O'zbekiston bo'yicha Toshkentda birinchi bo'lib GOELRO rejasini amalga oshirishga kirishildi. Bo'zsuv, Qodiriya va Bo'rjar GESlari bunyod qilindi. 2- jahon urushi yillarida ko'pgina g'arbiy tumanlardan sanoat korxonalari, oliy o'quv yurtlari, madaniy-maishiy muassasalar Toshkentga ko'chirildi. Toshkent mamlakatning eng yirik sanoat markazlaridan biriga aylanib qoldi. Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston Qizil Armiyaning qudratli arsenaliga aylanib qoldi.

Sovet hukumati nemis boshinchilariga qarshi umumiy harbiy safarbarlik o'tkazdi. O'zbekistonning harbiy xizmat yoshidagi minglarcha aholisi, shu jumladan o'zbek yoshlari ham Vatanni yovuz boshinchilardan himoya qilish uchun urush maydonlariga jo'nab ketdilar. O'zbek jangchilari Vatan urush frontlarining hammasida kurash olib bordilar. Minglab jangchilarimiz Sankt-Peterburg, Moskva



mudofaalarida ishtirok etdilar. O'zbek jangchilari Ukraina, Belorussiya, Qrim, Boltiq bo'yi respublikalarini ozod qilishda qatnashdilar. Urush davrida 118 ming o'zbek jangchilari har xil davlat orden va medallari bilan mukofotlandi va 65 kishi «Qahramon» unvoniga sazovor bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi maydonlarida minglarcha o'zbek yoshlari qo'rqmas razvedkachi, mohir snayper, dovyurak tankchi, to'pchi, ziyrak partizanlar sifatida dong chiqardilar.

Urush yillarida o'zbek xalqi frontni qurol, oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlashda katta xizmat ko'rsatdilar.

O'zbek xalqi O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan korxonalarni joylashtirish, front talabini qondirish uchun bir qancha yangi korxonalar, zavod-fabrikalarni ishga tushirdi. Bu korxonalar, zavod-fabrikalarni ishga solish uchun energetika bazasini kengaytirish uchun Toshkent vohasida 6 GES, Farg'ona vodiysida issiqlik elektrostansiyasini qurish, Chirchiq va Bo'zsuvda 5 GES, Sirdaryoni bo'g'ib Farhod GES lari qurildi. Shunday qilib, urush yillarida O'zbekiston sanoatining barcha tarmoqlari kengaydi.

Qishloq xo'jaligida ham xalqimiz fidokorlik namunalarini ko'rsatdi. Jamoa xo'jaligi mehnatkashlari tashabbusi bilan 40 — 42-yillarda Shimoliy Toshkent kanali «hashar» yo'li bilan qurilib, Moskva, Sankt-Peterburg va Toshkent aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minladilar.

Urush o'zbek xalqini og'ir sinovdan o'tkazib, yuqori darajada chiniqtirdi. Toshkent sanoati 1943 yilda 1940 yildagiga nisbatan 3 baravar ko'p mahsulot berdi. Ukraina, Belarussiyaning g'arbiy tumanlaridan Toshkentga vaqtincha ko'chirilgan aholi boshpana va ish bilan ta'minlandi.

Ko'chirib keltirilgan bolalarga alohida g'amxo'rlik qilindi. Bir qancha bolalar uylari ochildi. Minglab Toshkentliklar bolalarni o'z qaramog'iga oldilar. Toshkentlik Shoahmad va Bahri Shomahmudovlar oyiasi 15 ta turli millat bolalarini, Bahrixon Ashurxodieva 8 bolani olib parvarish qildilar.

Urushdan keyingi yillarda Toshkendagi og'ir sanoat tarmoqlari tez sur'atlar bilan rivojlandi. Yirik sanoat korxonalari — «O'zbekselmash», «Ekskavator zavodi», «Tashtekstil mash», «Tashxlopkomash», «Tashkentkabel'», Toshkent yog'-moy kombinati, Toshkent karborund zavodi, mashinasozlik, elektrolampa va elektromexanika zavodlari, yirik panelli uysozlik kombinati va boshqalar qurildi. eski sanoat korxonalari ta'mirlanib yangi asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Yalpi sanoat mahsuloti 1917 yilga qadar ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan 150 marta o'sdi.

1966 yilgi zilziladan keyin Toshkent qardosh respublikalar yordamida, yangi bosh reja asosida qurildi. Toshkent birodarlashgan shaharlar jahon federatsiyasining a'zosi, birodarlashgan shaharlar birinchi konferensiyasining qatnashchisidir. 8 ta chet el shahri — Qarochi (Pokiston), Patiala (Hindiston), Tunis, Tripoli (Liviya), Marokash, Bamako (Mali), Skople (Yugoslaviya) va Sietl (AQSH) bilan birodarlashdi.

Hozirgi kunda Toshkent tanib bo'lmas darajada o'zgarib bormoqda. Shahar loyixasi me'morlar tomonidan qayta ishlanib, milliy uslubdagi turar joy dahalari qad ko'tarmoqda. Uning keng asfal'tlangan ko'chalari, osmono'par uylari, o'nlab madaniyat va istirohat bog'lari, yuzlab kinoteatrlari shahar mehnatkash ommasiga xizmat qilmoqda.

Toshkent shahri va uning vohasi iqlimi mo'tadil, daryolari sersuv, tuprog'i kimyoviy elementlarga boy bo'lishi, bu vohada sug'orma dehqonchilikning qadimdan rivojlanishiga qulay sharoit yaratgan.

Toshkent vohasi, shu jumladan shaharni Chirchiq daryosi ob-hayot bilan ta'minlaydi. Chirchiq daryosining o'ng sohilini 120 ta, chap sohilini esa katta-kichik 41 ta kanal va ariqlar o'z suvlari bilan ta'minlaydi. Demak, bu ariq va kanallarning gidrotoponimikasini batafsil bayon qilish, bu toponim, gidronim va etnonimlarni ilmiy jixddan tahlil qilish kitob hajmini yanada kengaytirib yuboradi. Shuning uchun biz Toshkent shahrining asosiy suv arteriyasi bo'lgan, Chirchiq daryosidan bosh oladigan: Iskandar, Zahariq, Bo'zsuv, Anhor, Kaykovus, Solar, Qorasuv kabi kanallar, shahardagi ayrim nomlarning toponimikasi haqida fikr yuritimiz, xolos.

Bo'zsuv — Toshkent shahrini oralab o'tadigan kanal nomi. N. G. Mallitskiy Bo'zsuvni «buzoq suvi» deb izohlaydi. Orenburg viloyatidagi Buzuluk daryosining nomini ham ba'zilar Buzoq suv deb atashadi. Aslida esa Bo'zsuv suv rangiga ko'ra shunday nom olgan. Shunisi qiziqki, Chirchiqning bosh irmoqlaridan biri Ko'ksuv deb ataladi, haqiqatan ham bu suv shishaday ko'm-ko'k.

**Solor** so'zining kelib chiqishini ham xdr kim har xil taxlil qiladi. Ayrimlar sipoh, solor, ya'ni «bosh qo'mondon» nomi bilan atalgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilishsa, yana birlari solor ariqbosh ariq, davrlar o'tishi bilan ayrim so'zlari qisharib solor bo'lib ketgan, deydilar. Shuni aytish kerakki, Solor arig'i vaqf hujjatlarida Rudak shaklida ham qayd qilingan fors-tojik tilida ariq, «ak» kichraytirish affiksi bo'lib, «cha» qo'shimchasiga to'g'ri keladi. Akademik Ya. G'. G'ulomov bu ariq milodimizning boshlarida qazilgan. ammo Solor, Kaykovus nomlari haliga qadar ma'lum emasligi, Afrosiyob, Zolariq nomlari ham keyingi asrlarda «Shohnoma» kitobi ta'siri ostida maydonga kelgan bo'lsa kerak, degan fikrni aytadi.

**Qorasuv** — Toshkent vohasini suv bilan ta'minlaydigan va Chirchiq daryosidan bosh oluvchi ikkita kanal — o'ng qirg'oq Qorasuv va chap qirg'oq Qorasuv kanallari. Bu so'z fors-tojik tilida siob yoki siyohob ham deyiladi. Bu nom bilan yuritiluvchi otlar respublikamizda juda ko'p uchraydi. Samarqand viloyatida bunday ariqlarni Siob deb yuritishadi. Siob so'zini xdm ba'zi olimlar o'zlaricha har xil tahlil qiladilar. Afrosiyob jarliklaridan oqib o'tadigan Qorasuv - Siobning nomini si — ob, ya'ni «O'ttiz suv» ham deyishadi. V. L. Vyatkin so'zi bilan aytganda, Oqsuv atamasi tog' daryolariga taalluqli bo'lib, Qorasuv esa fors-tojikcha Siob yoki siyohobqora suv degan ma'nolarni anglatadi.

Haqiqatan ham chashma suvlari turkiy tillarda Qorasuv deb yuritiladi. V. V. Bartol'dning ta'rificha, Siob turkcha qora suv demakdir. Bobur esa bu ariqni

Obirahmat deb atagan. Hozirgi davrda ham Siobning boshlanishi Qorasuv deb yuritiladi. Ayrim vaqtlarda Qoradaryoni ham tojikchasiga Siobi kalon deb, ya'ni katta Qorasuv deb atashadi.

**Xadra** — Toshkentdagi hozirgi Xadra maydoni. Ya. G'. G'ulomov, H. T. Zaripov, H. Hasanovlarning fikricha, xadra — xaddi rox «chegara, chekka» degan ma'noda bo'lib xon o'rdasining chegarasi hisoblangan. F. Abdullaev esa xadra past-baland, tashlandiq, yaroqsiz, yer ma'nosidagi adrang so'zini asta-sekin buzib talaffuz qilinishi natijasida xadra bo'lib qolgan, deydi. Fikrimizcha, oldingi olimlarning so'zi haqiqatga ancha yaqin. Xadra chegara ma'nosini anglatadi.

**Beshyog'och** so'zi masofani o'lchash uchun ishlatilgan tosh, farsang ma'nosini bildiradi. Bu o'lchov (bir yog'och 7 — 8 kilometrga teng bo'lgan) yog'och o'lchov so'zidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin.

**Bo'rjar.** Ilgarilari bu erda bo'ri yoki chiyabo'ri ko'p bo'lganligi uchun shu nom berilgan deyiladi. Ayrimlar esa bu er jarliklardan iborat bo'lib, unda faqat bo'rilar yashagan desalar, ba'zi birovlar bu nom «bo'z — oqish va jar» so'zlarining o'zgarishidan kelib chiqqan, deydilar.

**Jangob** — Toshkent shahridagi hozirgi A. Qodiriy nomli madaniyat va istirohat bog'ining o'rni. To'g'risi, janggoh — «goh» toponim yasovchi affiks bo'lib, asl ma'nosi joy, o'rin, maydon demakdir; poytaxtimizdagi nomozgoh guzari — juma kunlari va hayitlarda jamoat bo'lib namoz o'qiladigan joy bo'lgan. Toshkent dahalari ana shu erda jang qilishgan, degan fikrlar mavjud, ammo bu joy faqat jang emas, xo'roz, qo'chqor urishtirib, hordiq chiqaradigan joy degan ta'riflar ham mavjud.

**Darxonariq** — Mo'g'ulcha «darhon» so'zidan tarkib topgan bo'lib, ma'nosi «majburiyatlardan to'la ozod qilingan» demakdir. Bunday nomlar ko'p uchraydi. Masalan, Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida Boshdarxon, Jo'raboydarxon, Ozoddarxon, Naymandarxon, Po'latdarxon, Qirqdarxon degan qishloqlar bor. Bu so'z o'zbek tilida «tarxon» shaklida ishlatiladi. Tarxon — xohlagan narsasini qila oladigan; harbiy xizmatdan butunlay ozod kishidir. Tarxonlar har qanday jinoyat qilsalar ham, to'qqiz nafargacha afv etilgan. Tarxonlik XV asrda ayniqsa avj olgan va feodallarga keng imtiyoz berishning bir vositasi hisoblangan. Temuriylar davlatida tarxonlar qo'lida yirik yerlar va katta hokimiyat bo'lgan. Tarxonlik O'rta Osiyoda xdm saqlanib qolgan. Ba'zan ayrim kishilargina emas, balki butun bir shaxdr aholisiga tarxonlik huquqi berilgan.

**Arpapoya** so'zi aslida arpaning poyasi yoki arpa ekiladigan joy bo'lmasa kerak. H. Hasanov ma'lumotiga ko'ra, Aropa deganda o'rda chetidagi xandaq tushunilgan. Aropa asta-sekin Arpapoya bo'lib o'zgarib ketgan bo'lishi mumkin. Aropa (Arofa) «balandlik» ma'nosidagi «arfa» so'zining ko'pligi bo'lishi ham mumkin.

**Anhor** atamasi arabcha nahr (daryo, kanal) so'zining ko'pligi. Akademik Ya. G'. G'ulomovning fikricha, Bo'zsuv kanali shahar ichkarisiga kirgan hozirgi Semashko nomli shifoxona yonida g'arbga — Kaykovus nomi bilan, janubga —

Anhor nomi bilan ikkiga bo'linib ketgan. Har ikkala kanal milodning V — VI asrlari mobaynida qazilgan.

**Eski jo'va** — Toshkentdagi xon arkining chekkasida, eski harbiy aslahdlar saqlanadigan omborxonona — jevaxona bo'lgan. Haqiqatan ham jeba (jiba) deganda sovut yoki umuman harbiy qurol-aslaha tushunilgan. Bu o'rinda yana shuni ham aytish kerakki, tarixiy manbalarda, xususan vaqf hujjatlarida jo'ba «bozor» ma'nosida uchraydi. Chunonchi, X asr yodgorligi Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida Buxoro bozorlaridan biri Jubai baqqolon, ya'ni Baqqollar bozori deb atalganligi qayd qilingan.

**Chaqar** deb shahar devorining tashqarisidagi qal'a istehkomga aytilgan. Yana shuni aytish kerakki, chahar degan Mo'g'ul urug'i bo'lgan, Mo'g'ulistonda chahar degan joy ham bor. Filologiya fanlari doktori S. D. Nominxonov O'zbekistonda Chaqar deb nomlangan qishloqlardan ettitasini sanab o'tadi va bu qishloqlar Chaqar degan urug' nomi bilan atalgan, deydi.

Sag'bon atamasining ma'nosi «itboqar» demakdir. Ba'zi birovlar Toshkentning shimoliy chekkasida Xasti Imom (hazrat imom) atrofida non bozori bo'lgan, ana shu yerlarda chorva mahsulotlarini qayta ishlaydigan ko'nchilik kabi bar qancha hunarmandchilik korxonalari vujudga kelgan. Shu bilan bir qatorda, mol olib sotadigan jaloblarga xizmat qiladigan itboqarlar (sakbon) ham bo'lgan. Ko'cha va ariq nomi ana shundan kelib chiqqan, deyishadi. Sog'bon, Sohibon, ya'ni «Sohib»lar so'zidan kelib chiqqan degan fikr ham bor. Boshqa bir tarixchilarning fikricha, Sog'bon qadimgi otashparastlik e'tiqodi bilan bog'liqdir. Otashparastlar marhumni yerga ko'mishmagan, chunki murda yerni iflos qiladi, deb hisoblaganlar. Shuning uchun ular o'likni qush-quzg'unlar eb ketsin, deb uzoqroq joyga o'lib borib tashlaganlar, shahar ichida maxsus joylarda it boqilib, o'liklarni ana shu itlarga edirganlar, murda suyaklarini esa maxsus idishlarda — ossuari yoki ostadonlarga solib, ko'mishgan. Sog'bon mahallasida ana shu maqsadda it boqilgan. XVI asrning boshida Qumloq atrofida shayboniylardan Suyunchoxaxonning chorbog'i bo'lib, uni bog'i Kaykovus (Orig' nomi bilan) deb atashgan. Sog'bon ko'chasida uning itxonasi (ov itlari) bo'lgan. Itboqarlar ham o'sha yerda turganlar, Sag'bon so'zi shundan kelib chiqqan degan rivoyat ham bor,— deydi B. A. Ahmedov.

**Qorasaroy** — Toshkent shahar darvozalari ichida Qorasaroy darvozasi ham bo'lgan. Bu darvoza dastlab qopqa deb atalgan (darvoza so'zi forscha qopqa demakdir). Ana shu yo'lda zakotxonona, zakot saroyi qurilganidan keyin darvoza Qorasaroy deb atalgan.

**Taxtapul** — bu so'zning etimologiyasi taxta — yog'och, pul — fors tilida ko'prik, ya'ni taxta ko'prik degan ma'noni bildiradi. Bu ariq qazilgach undan o'tish uchun yog'och va taxtadan ko'prik qurilgan. Shundan so'ng ariqning va o'sha joyning nomi ham Taxtapul bo'lib qolgan.

**Damachchi** — Toshkent shahridagi Taxtapul arig'idan va Bo'zsuvdan suv oluvchi ariqning nomi Dchchi ham deyiladi. Mahalliy xalq ariqning suvi sho'r bo'lganidan shu nomni berishgan. Xdqiqatan ham «j» lovchi o'zbek shevalarida

«achchiq»ni «achchiy» deyishadi. Bu ariq suvni pastlikdan olganligi sababli dambalar yordamida dimlanib chiqadi. Keksa otaxonlarning soʻzlariga qaraganda, bu ariqni Damariq deb xdm yuritishar ekanlar. Bu ariq suvini Damachchi kanaliga va Achchisoyga qoʻyadi. Achchisoyning suvi hdm shoʻr boʻlganligidan shu nomni olganligi shubhasizdir.

**Chinoz** — Chinoz tarixiy asarlarda ilk bor Chingizxon davrida, yaʼni Oʻrta Osiyoga Moʻgʻul-tatarlar bostirib kirgan yili tilga olingan. Baʼzi bir tarixiy maʼlumotlarga qaraganda, Sirdaryo etaklaridagi chin xalqi boyonining bir goʻzal qizi boʻlgan va bu goʻzal qizga juda koʻp kishilar odam qoʻytan, lekin qiz ularni yoqtirmagan. Bir boyning oʻgʻli bu qizning xusnini koʻrib hushini yoʻqotgan va bu qiz haqiqatan ham Chin nozlik qiz ekan deydi. Balki shu tufayli Chinoz deb atalgan boʻlsa kerak. Bundan tashqari, yana bir afsonada aytilishicha, Chingiz Sirdaryo etaklaridagi xalqlar bilan boshinchilik urushi olib borayotganda bu yerdagi chin qabilasidagi kishilar oz boʻlsa ham botir va qoʻrqmas ekanligini aytgan. Shu tufayli Chinoz deb atalgandir. Rashididdinning «Jomiʼ ut-tavorix» asarida chinos degan Moʻgʻul qabilasi boʻlganligi eslatiladi, ehtimol Moʻgʻul-tatarlar bostirib kirib, shu yerda chinos qabilasidan tarqagan qabila bu joyda yashab qolgandir. Lekin bu hozircha aniqlangan emas, baʼzi bir maʼlumotda chimi oz, dehqonchilik qilsa boʻladi, yaʼni chim oz soʻzidan olingan deyishadi.

**Chirchiq** — Sirdaryoning oʻng irmogʻi, Toshkent vohasini deyarli shu daryo sugʻoradi. Park yoki Parak deb ham atalgan. Obi turk varianti ham bor. V. V. Bartold maʼlumotlariga koʻra, Chir nomi birinchi marta Temur tarixida tilga olindi. «Boburnoma» da «Chir siyi» deyilgan. «Abdullanomada» esa «Chir daryosi Chirchiq nomi bilan koʻproq mashhur» deyiladi. e. Mirzaev (SMGT, 257- bet), H. Hasanov (UOJNT, 56-bet) «tezoqar», «shovullagan» deb izohlaydilar. Chirchiq vodiysida Chirchiqning Qolgan oʻzani bor. «Qolgan» soʻzi gidronimlar tarkibida (Masalan, Sirdaryo Sirdaryo viloyatida, Qolgandaryo Fargʻona viloyatida, Chirchiq shahri esa Toshkent viloyatida) koʻp uchraydi.

**Piskent** — Toshkent vohasining qadimiy shaharlaridan biri. X asr geograflarining maʼlumotlariga qaraganda, Iloq davlati tarkibiga kirgan. Pushti Mahmud tepaligi Piskentning dastlabki qismi boʻlib, u VI-VII asrlarda shahar qiyofasini ola boshlagan. Shosh (Toshkent) dan Fargʻonaga oʻtgan savdo yoʻlining qulay joylashganligi tufayli IX — X asrlarda bu yerda qadimiy tarixchilar tomonidan «Biskent» deb atalgan shaharcha paydo boʻlgan, u «Yigirma xonadonli shahar» maʼnosini bildiradi. Piskent oʻz nomini oʻrta asrlarda olgan boʻlib, oʻsha vaqtda shaharda yigirmata karvonsaroy boʻlgan va ular orqali Toshkentdan Qoʻqon, Xoʻjand kabi bir qancha shaharlarga savdo yoʻli oʻtgan.

Parkent — bu qishloq Toshkentdan 50 — 60 kilometr uzoqlikda joylashgan. Qishloqning Parkent deb nomlanishi haqida xalq orasida turli fikrlar va afsonalar mavjud. Ayrim kishilar bu qishloq oldin bir necha qishloqlardan iborat boʻlib, Parkent ularning birlashishidan tashkil topgan, desalar, boshqalar qishloqning qoq oʻrtasidan kesib oʻtgan Parkent soyi sababli qishloq teng ikkiga boʻlingan va

shuning uchun uning nomi Parkent, ya'ni juft deydilar. Lekin qishloq nomining asl ma'nosi haqida aniq ma'lumotlar yo'q.

**Iskandar** — bu Chirchiqdan birinchi suv oluvchi kanalning nomi. 1889 yili bu kanal o'rnida kichik bir «sart» arig'i bo'lgan, bu ariqni podsho Aleksandrning qarindoshi Konstantin Romanov qayta qurdirib, unga «Oq podsho» Aleksandr nomini qo'ydiradi. U joy obo donlashtirilib, aholi yashaydigan joyga aylantiriladi va yerli xalq odatiga ko'ra Aleksandrni Iskandar deb yurita boshlaydilar. Hozirgi kunga qadar ham shu nom bilan yuritilib kelinmoqda.

**Betagali** — Toshkent viloyatida Betagalisoy, Betaga-li degan joylar mavjud. Betaga so'zi mayda o't demakdir. Bu o't buta-buta, ya'ni to'p-to'p bo'lib o'sadi. ehtimol, butaka so'zi vaqtlar o'tishi bilan «betaga» bo'lib ketgandir. Bobur aytgandek, betagani ayniqsa yilqi yaxshi ko'radi. Betaga egan yilqi yaxshi semiradi. Betagali yaylovda yurgan biyalarning qimizi yog'li va yoqimli bo'ladi. Betagalisoy va Betagali — Qo'ytosh degan joylarda hali ham yilqilar boqiladi. Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida ham Betagali — Qo'ytosh degan yaylov va yassi tog' bor.

**Bog'iston** — Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi qishloq Hoja Ubaydulloh, Ahrorning qishlog'i, u shu qishloqda tavallud topgan (1404—1490) H. Hasanov Bug'uston, ya'ni «Bug'uli yer» deb izohlaydi. V. V. Bartol'd «Eronning tarixiy-geografik ocherki» asarida Bog'iston degan joyi «Xudo vatani» deb tarjima qilgan. (Islom dinidan oldin bog' so'zi eron tillarida «xudo» ma'nosini anglatgan, bu so'zning fog' (fug') variantlari ham bo'lgan.) Bu toponim «bog'lar o'lkasi» degan ma'noda ham bo'lishi mumkin. Profes-sor I. P. Petrushevskiy bog'iston so'zini ana shunday izohlagan. Bog'iston qishlog'ida tashkil topgan birinchi jamoa xo'jaligiga rais bo'lgan hurmatli Sotiboldieva Zinnat opaning fikricha, Bog'iston «Bog'i bo'ston» degan so'zdan kelib chiqqan bo'lishi kerak.

**Burchmulla** — Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi qishloq. Ba'zi birovlar Ko'ksuv bilan Chotqol suvlari qo'shilgan burchakda bir mulla o'tirgan ekan, shuning uchun ham Burchmulla, ya'ni mullaning burchi (burchagi) deb atalgan, deyishadi. Aslida bu nomning «mulla» so'ziga hech qanday aloqasi yo'q. Ikkala so'z —mulla, burch (burj) so'zlari ham minora degan ma'noni anglatadi.

**Gazarma** — Toshkent viloyat Burchmulla yaqinidagi qishloq (joy). XX asr boshlarida bu yerda mis koni ishga tushirilib, konda ishlaydigan rus soldatlari uchun Piskom tizmasi yonbag'irlarida Ko'ksuvdan ancha balandlikda kazarmalar qurilgan. Keyinchalik kon ishlatilmay qoladi, lekin kazarma so'zi Gazarma shaklida joy nomi sifatida saqlanib qolgan.

**Degrezlik** — Toshkentning qadimgi mahallalaridan biri. Bozorga yaqin, Xadra maydonida joylashgan. Toshkent qayta qurilgandan keyin Degrez mahallasining ko'p qismi buzilib ketdi. Bu yerda hozir fontan, tsirk va bir qancha imoratlar qurilib ketgan. Deg(dek) qozon, degrez — qozon quyuvchilar, cho'yan quyuvchi degan so'z. Mahalla aholisining asosiy kasbi cho'yan, jez, abjush — etti qotishma quyish bo'lgan.

Oqtepa — bu soʻz «dehqon» soʻzi bilan bevosita aloqador. Dehqon atamasi V — VI asrlarda paydo boʻlgan. Dehqon ilk oʻrta asrlarda yirik yer egasi boʻlgan. Bu tabaqa to XI — XII asrlargacha mamlakatda hukmron sinf boʻlib kelgan. XII asrdan soʻng dehqon atamasi oddiy qishloq mehnatkashlari, degan maʼnoni oladi. Odatda feodal dehqonlar toʻgʻon boshida, atrofi devor va handaqlar bilan toʻsilgan mustahkam qoʻrgʻonlarda yashaganlar. Bunday qoʻrgʻonlar davrlar oʻtishi bilan vayron boʻlib, harobalarga aylanib qolgan. Bu harobalar hozirgi vaqtda «oqtepalar» deb yuritiladi. Masalan, Toshkent shaharida mana shunday 8 ta Oqtepa mavjud.

**Doʻrmon** — Doʻrmon, Doʻrmoncha, Yuqori Doʻrmon degan nomlar Toshkent voxasida juda koʻp uchraydi. Bu soʻz Moʻgʻul urugʻlaridan birining nomi boʻlib, maʼnosi Moʻgʻul tilida «toʻrt» demakdir. Bu soʻzni baʼzi kishilarning, olimlarning afsonaviy qahramon Durmon bahodir nomidan olingan deyishlari toʻgʻri emasdir.

Jahonobod — Toshkent viloyati Qibray tumanidagi bir qishloq. Ilgarigi nomi Nanay. 1966 yilda Oʻzbekistonda yangi hokimiyatni oʻrnatish va mustahkamlash uchun kurashda faol ishtirok yetgan Jahon Obidova nomiga qoʻyilgan.

**Noʻgʻayqoʻrgʻon** — Toshkent shahridan oqib oʻtgan Solorning Joʻn ariqqa quyiladigan joy atrofida oʻrnashgan qishloq. Hozir shahar hududiga qoʻshilib ketgan. Bu yerda dastlab noʻgʻaylar kelib oʻrnashgani uchun shunday nom olgan. Oʻtgan asrning boshlarida Toshkent Qoʻqon xonligi tarafidan bosib olingandan keyin Toshkentga koʻchib kelgan tatarlarga joy beriladi. Qoʻqon xoni Madalixon yoki Muhammadalixon (1822 — 1842 yy.), gʻarbda Joʻyi tarxon (hozirgi Darhon) arigʻidan sharqda to Qorasuv gacha, undan janubda Sovuq-buloqqacha, shimolda Solor arigʻigacha boʻlgan yerlarni tatarlarga inʼom etib, oliq-soliqlardan ozod qiladi.

**Obdon** — Toshkent viloyati Pskent hududidagi togʻ. Tojikcha — ob va don soʻzlaridan olingan boʻlib, «suvxona», suv koʻp joy maʼnosini bildiradi. Suv inshooti, sardobaning kichikroq turi ham obdon (ovdan) deyiladi. Oʻrta Osiyo va Ozarbayjonda obdon inshootlari koʻp boʻlgan.

**Pasra** — (fasra). Toshkentning Shayxontahur dahasidagi mahallalardan birining nomi (shahar tashqarisidagi ekin joyi). Solor arigʻining chap sohilida Chirchiqqa ketadigan temir yoʻl yonida boʻlgan kichik ekin maydoni. Ozroq ekin ekib olish pasra deyilgan. Baʼzan tomorqani ham pasra deyishadi. Qashqadaryo viloyati, YAkkabogʻ tumanida hdm Pasra nomli qishloq bor.

**Rudak** — Toshkent shahrining oltin kamari, deyarli shaharni oralab oʻtuvchi Solor arigʻining eski nomi. Rud — fors-tojik tilida «katta ariq» degan soʻz. Baʼzan daryo ham rud deyiladi. Bu atama eski asarlarda, jumladan «Boburnoma»da uchraydi. Rudxona soʻzlari ham shu atamadan olingan. Rudxona — daryo oʻzani. YA. Gʻ. Gʻulomovning maʼlumotlariga qaraganda, Xorazmda rudxona atamasi ishlatilgan. Shunday qilib, Rudak nomining birinchi qismi, yaʼni Rud «ariq» suv degan soʻz, «ak» esa toponim yasovchi affiksdir. Buyuk tojik shoiri Rudakiy tugʻilgan qishloq ham shu nom bilan ataladi.

**Sarog'och** — (Sariog'och) — Toshkent yaqinidagi qishloq. Qozoqlar Sarmagash, ya'ni «sariq daraxt» ham deyishadi. Sariog'och toponimi qurib, sarg'ayib borayotgan daraxt (O'simlik) nomidan kelib chiqqan.

**Teyit** — Yuqori Chirchiq tumanidagi qishloq. Teyit so'zi qirg'iz — qipchoqlar urug'ining nomi. Andijon viloyati Xo'jaobod tumanidagi Qorateyit, Teyit, Sariteyit qishloqlarining nomi ham ana shu etnonimlar bilan bog'liqdir.

**Turkman** — Toshkentdagi sobiq «turkman bozori». O'zbekistonda joy nomi bilan uchraydigan etnonim. Ba'zi birovlar (V. G. Mogakova) Samarqand va Buxoro viloyatidagi turkmanlarni turkman millatiga mansub etnik guruh deb hisoblaydilar. K. Shoniyozov esa bu turkmanlar o'zlaricha mustaqil etnik guruh bo'lib, o'zbek millati tarkibiga kiradi, deb hisoblaydi.

**Xonariq** — Toshkent yaqinidagi To'ytepadan boshlanadigan ariq (kanal). Bu ariq o'tgan asrning 40- yillarida Qo'qon xoni Madalixon (Muhammadalixon) davrida qazilgan va xon sharafiga shunday nom berilgan.

**Chotqol** — Chirchiq daryosining bosh irmoqlaridan biri. Talas Olatovlaridan boshlanadi. Chotqol qadimgi fors-tojik tilida «qayin» demakdir. Chotqol daryosi bo'yida tojiklar yashaydi, shuning uchun shu nom bilan ataladi. O'simlik va hayvonlarning eski nomlari hech qanday qo'shimchasiz ham toponim shaklida uchraydi (So'kso'k, Do'lta, Qo'lon va hokazolar).

**Paxta mahallasi** — Toshkent shahridagi mahallaning nomi. Paxta mahallasi deyilishiga sabab, hozirgi mahalla o'rnida paxta zavodi bo'lgan. Bu joylar allaqachon Toshkent shahriga qo'shilib ketgan va yangi imoratlar qurilib, katta bir mahalla tashkil topgan. Mahalla hozir ham Paxta mahallasi deb yuritiladi.

**Qashqar** — Toshkent shahar mahallalaridan biri. Bu joyni o'tgan asrning 40- yillarida Sharqiy Turkistondan qochib kelgan qashqarliklar obod qilgan. Manjurlardan yengilib qaytgan Qo'qon xoni Madalixon bilan birga kelishgan. Ular Qo'qon xonligining Toshkentdagi tayanchi hisoblangan. Keyinchalik Oqqo'rg'on darvozasi ham Qashqar darvozasi nomini olgan. Qashqar mahallasi 1966 yilgi Toshkent zilzilasidan eng ko'p zarar ko'rgan joylardan biri bo'ldi. Hozir bu yerda ko'p qavatli zamonaviy binolar qad ko'targan.

**Qurama** — Toshkent viloyatidagi tog' va qishloqning nomi. Qurama so'zi va quramalarning kelib chiqishi masalasini professor V. V. Reshetov ancha batafsil yoritib bergan. Qurama haqiqatan ham «aralash — quralash» degan so'zdir. V. V. Reshetov bir qancha lingvistik, tarixiy dalillardan, vaqf hujjatlaridan foydalanadi. Xo'ja Ahrorning vaqf hujjatlarida (hijriy 860 y.) qurama degan joy nomlari tilga olinadi. Demak, qurama degan so'z va qurama xalqi XV asrdayoq mavjud bo'lgan. V. V. Reshetov quramalar Ohangaroi vohasiga kelib o'rnashgan davrda tarkib topgan, ular turkiy, Mo'g'ul va boshqa elatlarning chatishib ketishidan vujudga kelgan, XV — XVI asrlarda esa quramalarga so'nggi marta ko'chmanchi o'zbeklar, undan keyin esa qozoqlar kelib qo'shilgan, degan xulosa chiqaradi. Ohangaron vohasidan boshqa yerlarda ham quramalar bo'lgan. V. V. Reshetovning yozishicha, Toshkent bilan Xo'jand orasidagi xalqlar qurama deb atalgan. Karki shahri xalqi ham qurama deyilgan. Arkin urug'ining ma'nosi ham aslida qurama



degan soʻzni anglatadi. Samarqand viloyatining Xatirchi tumanida, Andijon viloyatining Jalolquduq tumanida Qurama degan qishloqlar bor.

**Qurbaqaobod** - Toshkentning shimoli-gʻarbidagi guzar-mahalla. N. G. Mallitskiyning maʼlumotlariga koʻra, bu joy zah sizot boʻlganligidan qurbaqalar koʻp boʻlib, Qurbaqaobod degan kulgili nom olgan. Hozir bu joyga eng zamonaviy binolar qurilib, Birlik dahasi deb nom berilgan.

**Baytqoʻrgʻon** — Qibray tumanidagi qishloq. Chirchiq daryosining oʻng qirgʻogʻiga joylashgan. Keksalarning soʻzlariga qaraganda, qishloq atrofi qamishzor va toʻqayzorlardan iborat boʻlib, faqat bu yerda Baytiboy degan bir qozoq boyning qoʻrgʻoni boʻlgan. Keyinchalik Qibray va Toshkentdan dehqonlar koʻchib kelishib, uylar solishib, u yerni obod qilishgan va Baytiboy nomi bilan Baytqoʻrgʻon boʻlib qolgan deyishadi. Ayrimlari Baytqoʻrgʻonga shahardan olimlar kelib, gʻazalxonlik, yaʼni baytxonlik qilishgan, shuning uchun shunday nom berishgan deyishadi.

**Yunusobod** — Toshkent shahrining yangi dahalaridan biri. Bu joy 1917 yildan keyin tashkil topgan. Usha qishloqni barpo qilishda ishtirok yetgan keksa kosib Abdulla ota Nuʼmonov va oʻtkir ota Hoshimovlar 1919 yilda taxtapullik kosib Yunus ismli kishi oʻsha joyda chayla qurib, atrofidagi boʻsh yotgan yerlarni oʻzlashtirib olgan. Keyinchalik koʻpgina taxtapullik kishilar qatori biz ham koʻchib kelganmiz va yangi yer ochib dehqonchilik qilganmiz, deydilar. Oʻshalarning aytishlaricha, birinchi boʻlib qoʻriq yer ochgan Yunus akaning nomi bilan Yunusobod boʻlib qolgan. B. A. Ahmedovning fikricha 1784 yili Toshkent hokimi Yunusxoʻja bu joylarni obod qilganligi sababli, uning nomi bilan Yunus obod deb atalgan.

**Yalangʻoch** — Toshkent shahridagi qishloqlardan biri. Hozir bu yerlar Toshkent agrar dorilfununi va bir qator zamonaviy binolar qurilgan obod joylardan biri. Bu nomning kelib chiqishi haqida keksalar shunday deydilar: «Ilgarilari bu yerda na daraxt, na bir odam yashagan, shuning uchun bu yerni yalangʻoch, yaʼni hech narsa yoʻq» maʼnosida ishlatganlar, baʼzilari bu yerda bir odam yashagan, u kiyimsiz, yalangʻoch yurgan, hatto yoz oylarida ham oʻt (olov) yoqib isinib oʻtirgan, uni odamlar yalangʻoch devona yoki yalangʻoch eshon ham deyishar edilar, asta-sekin devona soʻzi tushirib qoldirilib, yalangʻoch boʻlib qolgan deyishadi.

**Qonqus** — Toshkent shahrini oralab oʻtuvchi Anhor oʻz suvini hozirgi kunda ham ikkiga, yaʼni «Qonqus» va «Chala» ariqlariga boʻlib beradi. Qonqus arigʻining nomi bilan ataluvchi qishloq hozirgi Zangiota tumanidagi kolxozning idorasi joylashgan hududni oʻz ichiga oladi. Qishloq tarixi shunday hikoya bilan boshlanadi: «Qadim zamonlarda shu qishloqda yalang oyoq, yozin-qishin bir xil qiyinchilikda yashaydigan bir kambagʻal birovlarining yerida ketmon chopib, tirikchilik qilgan. Kunlardan bir kuni qishloq oqsoqollari kel, shu bechora kambagʻal ham bir parcha yeriga ega boʻlsin, umid bilan oramizda katta boʻldiku deydilar, qishloqning bir chetidan qoʻriq yer beradilar. Bundan yigitning boshi osmonga etadi. Biroq yerni ishlashga hech narsasi yoʻq, hamyoni quruq bu yigit

shaharga tushib ikki yil mardikorlik qiladi, choyxonada choy tashiydi, Nihoyat, 5 — 10 tanga pul topib beliga tugib, ikki qop qattiq nonni elkasiga ortib, qishlog'iga keladi va yerga mehr bilan qaraydi, qish va yoz demay ishlaydi, ariq qaziydi, lekin yigitning yeriga suv bermaydilar, har kim kambag'alning suvini yo'ldan to'sib, o'z yerlarini sug'oraveradi. Bahor o'tib yoz keladi, hamma yerlar ko'm-ko'k, lekin yigitning yeri qaqrab yotadi. Yigit yeriga zo'rg'a suv olib keladi, yil bo'yi ariq qazib, bir ho'plam suv uchun yurak bag'ri ezilgan yigitning yeriga tasodifan silqindi paynak suv yetib borib qoladi. Fig'oni falakka ko'tarilgan yigit: «xudoga shukur, yerimga suv keldi, mehnat suvimdan bir ho'play» deb qorni bilan yerga yotadi. Issiq kunda entikib, lablari qaqragan yigitning chanqoqligidan lablari loy suvga tegadi-yu, yigit og'zidan laxta-laxta qon ketib, shu ondayoq jon beradi». Shu suv uchun qon qusib, jon bergan yigitning voqeasidan so'ng bu qishloqning nomi Qonqus bo'lib qolgan ham deyishadi. Faqat bugina emas butun Qonqus arig'idan suv ichuvchi mehnatkashlarning 1917 yilga qadar umumiy suv va sug'orish uchun tortgan azob-uqubatlari yigit tortgan azob-uqubatlardan qolishmas edi. Qonqus qishlog'ida istiqomat qiluvchi 1903 yilda tug'ilgan Xolmat ota Rahimovning hikoyasi ham diqqatga sazovor. «Rahmatli otam vafot yetganda men 12 yoshli bola edim. Bu voqea 1915 yilning ko'klamida sodir bo'ldi. Otam Rahim Cho'ng'ae degan boyning yerida korandachilik qilib, tirikchilik o'tkazar edi. Otam ekin ekadigan boyning yeri ham shu Qonqus arig'idan suv ichar edi. Yerni sug'orish maqsadida otam uydin ertalab chiqib ketadilar. U endigina Qonqus arig'idan o'z ekiniga suv ochadigan ariq boshiga borib, suvga tushib ariqqa suv ochayotganida Zangi ota volostining mingboshisi Burxonboy kelib qolib, ha nega so'roqsiz suv ochding yalangoyoq, deb haqorat qila boshlaydi. Otam indamaydi. Nega indamaysan, karquloq, deb otdan tushib, otamni qamchi bilan qattiq savalaydi. Mingboshi qo'lidan otamni ajratib ololmaydilar, mingboshi ketgach, otam kaltak zarbidan bir necha kun o'tgach vafot etadi» deydi. Xulosa qilib aytganda, bu ariqdan yerlarni sug'orish shunchalik qiyin bo'lganki, undan suv olib kelib mehnatkash dehqonlar o'z ekinlarini sug'orguncha qon qusib yuborganlar. Shu boisdan ham mehnat ahli bu ariqqa Qonqus deb nom berganlar. Aslida qonqus so'zi qishloq arig'i degan ma'noni bildiradi. Masalan: Ugom, Chotqol, Pskom so'zlaridagi gom, qol, kom — qo'shimchasi suv degan ma'noni ifodalaydi. Demak, Qonqusdagi qon so'zi — suv, qus — so'zi esa qishloq degan ma'noni bildiradi.

**Chalaariq** — bu ariq ham Anhordan suv oladi. Chalaariq tarixi ham Qonqus tarixiga o'xshaydi. Bu ariqdan suv ichuvchi dehqonlar to 1917 yilgacha o'z ekinlarini to'liq sug'organlarini bilmaydilar. Chunki ariq boshi shaharga yaqin edi. Ariq boshida boylar va amaldorlarning yeri bor edi. Ular o'zlari turgan joyning atrofidagi qo'riq yerlarni ham o'zlashtirib olganlarida ariqdagi barcha suvni o'zlariniki qilib olganlar va ariq oxiridagilar bilan hisoblashmaganlar. Natijada bu ariqdan suv ichuvchi boshqa dehqonlarga suv yetmas edi. Suv boshida Do'simboy hoji degan boyning yeri bo'lib, hamma suvni o'z yeriga ochib oladi. Natijada bu

ariqdan suv ichuvchilarning yeri chala sug'orilar edi. Shuning uchun bu ariqqa Chalaariq deb nom berilgan.

**Qoraqalpoq arig'i** — Yollanma qishlog'i va Chinoz hududlarini suv bilan ta'minlovchi ariqning nomi. Bu nomning kelib chiqishi haqida qiziq rivoyatlar bor. Biz ulardan eng e'tiborlisini keltiramiz. Shu qishloqda o'sib ulg'aygan 1880 yilda tug'ilgan Muhammad ota Xidirov shunday hikoya qiladi: «Utmishda deyarli Chinoz, YOllanma qishloq hududida Bo'zsuvning o'ng va chap sohillariga suv chiqarish juda qiyin bo'lgan. Shu sababdan qishloq ahli ariq qazib suv chiqarishni orzu qilib yurgan. Bo'zsuv arig'i yer sathidan ancha pastda bo'lganligi sababli yerli xalq qancha urinsa ham Bo'zsuvdan yuqoriga suv chiqara olmaganlar. Yurt kattalari endi qanday qilib suv chiqaramiz, deb o'ylanib turganlarida oralarida paydo bo'lib qolgan bir cho'qqi qora telpak kiygan qoraqalpoq yigit ot minib olib, qalin yoqqan qor tepasidan iz solib beribdi. Ariq qazishga kelgan dehqonlar uning oti izidan ariq qaziy boshlabdilar. Nihoyat, suv ariq bo'ylab oqibdi va ariqqa iz solib bergan yigit qoraqalpoq bo'lganligi uchun shu yigitning millatini ulug'lab, ariqqa Qoraqalpoq deb nom qo'yishgan deyishadi. Boshqa birovlar bu ariqni qazishda juda ko'p qoraqalpoqliklar qatnashgan, ariq qazib tugatilgach, ularni qaygadir olib ketishgan, shu sababli ariqni qoraqalpoqliklar qazigan deb shu nom berilgan deyishadi. B. A. Ahmedovning ta'kidlashicha XVI asrda Sirdaryoda istiqomat qilayotgan Qoraqalpoqlarga ma'lum miqdorda taalluqli bo'lganligi sababli Qoraqalpoq nomini olgan bo'lsa kerak.

**Qo'riq** — Yangiyo'l tumanidagi Tursunqulov nomli kolxoz hududida joylashgan qishloqning eski nomi. U qishloqda qozoqlar yashagan. Ularning yerlari juda hosildor bo'lgan. «Tosh eksang qo'karaman, deydi, biroq euv yo'q. Suv bo'lsa, qishloqlar guliston bo'ladi». el urug'lari shu haqda o'ylab, Bo'zsuvdan suv olib chiqish fikriga tushadilar. Ular to'planishib pul yig'adilar va 1904 yilda Toshkent general-gubernatori nomiga ariza yozadilar: «Podsholiq shu ishga 2000 so'mlik qarz bersin, ikki yilda to'laymiz» — deydilar. Arizadan darak bo'lmaydi, 1905 yilda yana katta pul to'lab Oqpodsho Nikolay nomiga ariza yozadilar. Oylar, yillar o'tadi, undan ham javob kelmaydi. Shundan so'ng qishloq yigitlari to'planishib, «ko'kragimizda yolimiz, bilagimizda kuchimiz bor. Ularning yordamisiz ham o'zimiz ariqni qaziyimiz» — deydilar. YUrt boshliqlari bu tashabbusni olqishlaydilar. Pastdan yuqoriga suv chiqarmoqchi bo'ladilar. Oqsoqollar maslaxati bilan yer ostidan suv olib kelmoqchi bo'lib, har 15 — 20 metr joydan quduq qaziydilar. yer ostida bu quduqlarni bir-biriga bog'laydilar. Oylar, yillar va og'ir azobli kunlar birin-ketin o'tadi, azamatlar o'z ishlarida oxiriga qadar izchil turadilar. Biroq ochlik kuchayadi, qishloq xalqi bor bisotini, ko'rpa-to'shagini, hatto bo'yrasigacha sotadilar. Ketmon chopgan azamatlar, yer bag'rini tilib turgan qahramon yigitlarning ancha qismi ochlikdan qirilib keta boshlaydi, qolganlarini esa quduq bosib o'ldiradi. Xay attang mehnatimiz shamolga sovirildi, bir tomchi suv deb, ming qatra qonimiz qurbon bo'ldi, azamat yigitlardan ayrildik, deb nadomat chekishadi chollar. Qo'riq qishlog'i suvsizlikdan

harob bo'ladi, xalqi bitadi, lekin ular qazigan quduqlari o'tmishdan alamli bir yodgorlik bo'lib, ayrimlarining izi hozirgacha saqlanib kelmoqda.

**Bo'stonliq** — Toshkent viloyatidagi qishloq. Bo'stonliq «bog'-rog'» ma'nosidagi bo'ston so'zidan ko'ra bo'ston (bo'zto'nli) degan urug' nomi bilan atalgan deyish to'g'riroqdir. Shu tumanda Chimboylik degan qishloq ham bor (Chimboy — urug' nomi) — lik, — lig affiksi kishilarning qaysi qabila-urug'dan ekanini ham ko'rsatadi: masalan, ming qabilasidan bo'lgan kishilar minglik deb atalgan.

**Zarkent** — Toshkent viloyatidagi qishloqlardan biri. V. V. Bartol'd arab geograflaridan Muqaddasiy asarlarida Shosh viloyatida qayd qilingan Zarankatu qishlog'ini hozirgi Zarkent bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi. Zar «oltin» bo'lsa, zer, zerin «quyi», «etak» demakdir. Zerinkat bo'lganda «Pastdagi qishloq», «Tog' etagidagi qishloq» deyish mumkin edi.

**Qo'yliq** — Toshkent shahrining chekkasidagi joy. Professor H. H. Hasanov Qo'yliqni «Quyilik», «pastlik» deb izohlaydi. Yana shuni aytish kerakki, Do'rmon urug'ining bir shoxobchasi «qo'yli» deb atalgan Qo'yli Qo'yliq bo'lib ketgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, Mo'g'ul sarkardalaridan birining ismi Qo'yliq bo'lgan. Mo'g'ul sarkardalarining nomlari O'rta Osiyo toponimiyasida anchagina saqlanib qolgan. Bundan tashqari, o'sha sarkarda Qo'yliq Toshkentga ham kelgan.

**Ohangaron** daryosi — Sirdaryoning o'ng irmog'i. Mo'g'ullar kelmasdan oldingi manbalarda Iloq daryosi deb atalgan. Daryo vodiysida temirchilik rivojlangani uchun daryoni Ohangaron, ya'ni «Temirchylar daryosi» deb ataganlar.

**To'ytepa** — bu nomning negizida to'y ma'nosi yotishi munozara qilinishi mumkin. Turgan gapki, bu nomning to'y (svadba), to'yko'l so'zlariga dahli yo'q Dori o't va kulollar ishlatadigan sopol idishlar yasash uchun ishlatadigan loy ham to'y deyiladi. Sopol yasaydigan tuproqni «gil» deb izohlashga bir qadar asos bor. Ammo Mahmud Koshg'ariyning asarida boshqacha izoh beriladi:

«To'y — askarlarning turar joyi. Xon to'yixon askargohi». Shunga asoslanib, To'ytepa — «qal'atepa», «qo'rg'ontepa», «lashkartepa» ma'nosida bo'lishi ham ehtimol.

Toshkent shahrida bir qator qadimgi me'morchilik obidalari mavjud. Bulardan biri — Abdulqosim shayx madrasasidir. Bu madrasa Abdulqosim eshon, Qoraxon eshon, Ma'dixon qozi madrasasi ham deb atalgan.. O'rta Osiyo me'morchiligi asosida XIX asrda o'sha davr an'analari bilan qurilgan tarixiy yodgorlikdir. O'ziga tutashgan masjid va hammom bilan birga qadimgi Beshyog'och dahasidagi mahalla guzarini tashkil qilgan. Dastlab madrasa bir qavatli bo'lgan. 1864 yili hovli qismida ikkinchi qavati qurilgan. Binoni bezashda asosiy e'tibor bosh fasadga qaratilgan. U chorsi pishiqlik g'ishtidan ikki qavatli qilib, sharqiyqa qaratib qurilgan. Bosh fasadni bezash maqsadida uning ikki yoniga bir xil ravoqlar ishlangan. Bosh fasadning o'rta qismida madrasa devori sirtidan 1,82 m. bo'rttirib chiqarib, balandligi 16 m. li peshtoq ishlangan. Uning ikki yonida guldasta minora qad ko'tarib, ularning tepa qismida XVI — XVII asrga xos mezana bor. Peshtoqning old va yon tomonlari to daxana asosigacha va devorning kungurador

qismi chorsi pishiq g'ishtdan tekis qilib ishlab chiqilgan, uning yuqori qismi esa sharafa hamda kitoba bilan bezatilgan. Ko'kaldosh madrasasi singari bunda ham darvozadan kiraverishdagi chap tomonda darsxona, o'ngda masjid, to'rida xonaqoh «Mo'yi muborak» — deb ataladi. Bu bino madrasadan ilgari 1820 yili qurilgan. Darsxona va masjid tomlari o'zaro kesishadigan ravoqlar ustiga gumbaz qilib qurilgan. Hovlining tarxi — chorsi 28X22 m. Kompleksga kirgan masjid keyinchalik buzilib ketgan. Madrasa 1983 yili ta'mir qilingan. Uning binosidan qadimgi yodgorliklarni targ'ib qilish uyi sifatida foydalaniladi.

### **Anbar bibi maqbarasi**

Bu maqbara Zangiota qabristonida joylashgan bo'lib XIV asr oxiri — XV asr boshlarida qurilgan noyob me'morchilik yodgorligidir. Rivoyatlarga qaraganda Zangiota taning xotini Anbar bibi (Qambar ona) qabri ustiga qurilgan. Zangiota maqbarasining janubi-g'arbida joylashgan. Anbar bibi maqbarasi peshtoq, ziyoratxona hamda go'rxonadan iborat. Ziyoratxona va Go'rxonaning usti qo'sh gumbazli. Go'rxonaga oq marmardan qabr toshi qo'yilgan. Uning tevarak sirtiga arabiy xatlar va nafis girix naqshlar o'yilgan. Maqbara dastlab 2 xonali bo'lgan, keyinchalik uning oldiga peshtoq qurilib, koshinlar bilan bezatilgan.

### **Baroqxon madrasasi (XVI asr)**

Bu yodgorlik Zarqaynar ko'chasida qurilgan bo'lib, bir necha imoratlardan iborat. Dastlab binoning sharqiy burchagidagi mo''jaz maqbara (kimga mansub ekanligi noma'lum) qurilgan. SO'ng 1530 yili shayboniylar sulolasining Toshkentdagi hokimi Suyunchxo'jaxon (1525 yili vafet yetgan) maqbarasi qad ko'targan. Bu maqbara hovli to'ridagi peshtoqli xonaqoxdan iborat. Qo'shqavat gumbazi bo'lgan. Tashqi — ko'k gumbaz (moviy rang koshin bilan qoplanganligi uchun shunday atalgan) 1868 yilgi zilzila natijasida buzilib ketgan. Baroqxon madrasasi memorial kompleksining 3- boshichini **XVI** asr o'rtalarida Baroqxon qurdirgan.

### **Jome' masjidi**

Bu bino Uyg'ur ko'chasi Haqiqat tor ko'chasi 22- uyda joylashgan. Bu arxitektura yodgorligi **XV** — **XIX** asrlarda bunyod etilgan. Jome masjidini 1451 yilda Xo'ja Axror Vale qurdirgan. Chorsuda shakllashgan Registon ansambli tarkibiga kirgan. Unda juma va hayit nomozlari, hutbalar o'qilgan. Sharqiy tomonidagi bezaksiz darvozadan kirilgan. Hovlining ikki yoni bir qavatli, old tomoni rovoqsimon ayvonlardan iborat, **XVIII** asrda hovli atrofidagi ayvonlar buzilib ketgan, keyin hujralarga aylantirilib, qayta tiklangan, 1886 — 88 yillarda asosiy bino (xonakoh) ham qayta tiklangan.

### **Zangiota kompleksi**

Toshkentdan 16 km janubda **XIV** asr oxiri va **XX** asr boshlarigacha qurilgan bu noyob kompleks o'z nomi bilan mashhur. So'fiylik targ'ibotchisi shayx Oyxo'ja ibn Tojxo'ja sharafiga shunday atalgan. Bu maqbarani Amir Temur qurdirganligi haqida bir qator rivoyat va afsonalar bor.

**XVI** asrning 60- yillarida qurilgan yodgorlikdir. Shaharning eng yirik qadimiy inshootlaridan biri bo'lib, uni Toshkent xonlaridan birining vaziri Ko'kaldosh

qurdirgan. Madrasa o'rta asr shahristonining janubiy chekkasida qurilgan. Hozirgi ko'cha o'rni esa xandak bo'lgan. Binoni qurishda an'anaviy kompozitsiyaga rioya qilingan: chorsi hovlisi keng, xujralar va ochiq ayvonlar bilan o'ralgan. Hovlining P — simon yo'llari hujra (darsxona) larni masjid bilan ulaydi. Hujralar soni 38 ta bo'lgan. Madrasa dastlab uch qavatli bo'lgan. Bosh fasadi janubga qaragan. Darvozadan kiraverishda chapda masjid, o'ngda darsxonalar joylashgan. Masjid va darsxonalarning usti o'zaro kesishgan ravoqlar ustiga o'rnatilgan gumbazlardan iborat. Miyonsaroy (vestibyl') etti gumbazli. Me'morlar madrasani bezashda asosan binoning old tomoniga e'tibor berishgan. Sirkor parchin va girix naqshlar bilan bezatilgan hashamatli peshtoqning ikki yoniga ikki qavatli ravoq ishlangan. Ikkinchi qavatdagi hujralar faqat peshtoq ikki yonidagina saqlangan. Old tomonining chekka burchaklari baland guldastalar bilan tugallangan. Guldastalar ustida minorachalar bo'lgan. **XVIII** asr oxirida madrasa qarovsiz holga kelib qolgan va karvonsaroy sifatida foydalanilgan. Ko'kaldosh madrasasining 1866 va 1886 yilgi zilzilalardan zararlangan peshtog'i qayta tiklangan. 1946 yilgi zilziladan ham qattiq shikastlangan. Madrasa so'nggi marta 1930—1960 yillarda butunlay qayta ta'mirlangan. Minoralarning balandligi 2- qavat bilan deyarli baravarlashtirilgan. Zamonlar o'tib bir necha bor ta'mirlanishi natijasida madrasaning tashqi ko'rinishi o'zgarib ketgan. Madrasaning old tomoniga an'anaviy usulda, zinapoya ishlangan. Ko'kaldosh madrasasi 1991 yildan Movarounnahr musulmonlari Diniy idorasi tasarrufida bo'lib ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

### **Shayx Zayniddin bobo maqbarasi**

**1214** yili Shayx Zayniddinga atab solingan yodgorlik Arxeologik tekshirishlarga ko'ra, yodgorlik yonida joy-lashgan chillaxona **XII** — **XIII** asrlarga, maqbara o'rnida bo'lgan xonakoh, **XIV** asrga oid. Maqbara devorlari asosi **XVI** asrda qurilgan, tepasi va peshtoqi **XIX** asr oxiri va **XX** asr boshlaridata'mir qilingan. Yodgorlik peshtoq — gumbazli cho'zinchoq maqbara — xonakohlar tipiga mansub. Chortoq xonakohning to'rt tomonida eshiklar ochilgan. Tashqi gumbaz baland asosga o'rnatilgan. Yog'och darvozaga ustaning nomi — «Mirshaxob Abdumo'min o'gli» o'yib yozilgan. Darvoza tepasidagi deraza o'rnida yog'och panjara saqlanib qolgan. **XIII** — **XIV** asrlarda maqbara atrofida qabriston vujudga kelgan.

### **Shayx Xovand Tohur maqbarasi**

Bu nodir maqbara Navoiy shoh ko'chasida joylashgan me'moriy yodgorliklardan biri. Maqbara shayx Umar Bog'istoniyning o'g'li — Shayx Xovand Taxurga atab solingan. **XV** asrda yashagan nufuzli ruhoniylar Xoja Axror Shayx Xovond Tahurning avlodi bo'lgan. Mavjud yodgorlik **XV** asrga oid ko'hna maqbara poydevori ustiga **XVIII** — **XIX** asrlarda qurilgan; bunda Movarounnahrda **XIV** asr oxiridan rivojlangan ikki xonali bo'ylama maqbara — kompleks tarxlari saqlab qolingan. G'arbdan sharqiyqa yo'nalgan o'q bo'ylab bino yuzasidan sal chiqib turuvchi kichik peshtoq, ziyoratxona, so'ng go'rxona joylashgan. Xonalar gumbazlar bilan yopilgan; go'rxona gumbazi qo'shqavat

bo'lib, 12 qirrali asosga o'rnatilgan; ziyoratxona me'morchiligi o'ziga xos xonakoh bo'lib, sakkiz ravoqdan iborat. Darchalardagi koshinkor panjaralar saqlanib qolgan. Maqbara yupqa chorsi pishiq g'ishtdan terilgan.

### **Qaldirg'ochbiy maqbarasi**

BO' maqbara XV asrning 1- yarmida qurilgan me'morchilik yodgorligi bo'lib, Shayx Xovandi Taxur maqbarasidan shimolroqda. Maqbarani kim qurganligi va unga kim dafn qilinganligi noma'lum. Rivoyatga ko'ra, bu yerga Qaldirg'ochbiy ismli nufuzli a'yon, boshqa bir rivoyatda Qaldirg'ochbibi ismli kifchoq malikasi dafn etilgan. Maqbaraga janubiy tomondagi peshtoqsiz taxmonsimon ravoqdan kiriladi. Xona chortoq bo'lib, to'rt tomonidagi taxmonlar orasida kichik hujralar va g'ishtdan ishlangan aylanma zina joylashgan. Beshta ravoq gajaklari pastak, bu uslub Toshkent maqbaralariga xos. Maqbara devorlari to'rtburchak pishiq g'ishtdan terilgan. Maqbaraning 12 qirrali tashqi gumbazi 1970 yil ta'mirlangan.

### **Kaffoli Shoshiy maqbarasi**

Bu me'moriy obyekt Zarqaynar ko'chasida Hazrati Imom (Xastimom) nomi bilan mashhur bo'lgan imom Abu Bakir Muxdmmad ibn Ali ibn Ismoil al-Kaffol ash-Shoshiyga atab qurilgan. Dastlabki maqbara saqlanmagan. Kaffol Shoshiy maqbarasi me'mor G'ulom Husayn tomonidan 1541 — 1542 yillarda qurilgan. Eshik tepasidagi kitoba va gumbazning pastki qismidagi yozuvlar saqlangan. Maqbara tarxi chortoq bo'lib, o'rtadagi katta xona qo'sh qavat gumbaz bilan yopilgan. Maqbara burchaklarida ikki va uch qavatli sakkiz yoqli va to'rtburchak hujralar bor. Katta xonaning uch tomoni peshtoqli Maqbaraning janubiy tomonidan qadimgi qabri hovliga chiqiladi. Maqbaraning tashqi tomonlari bezaksiz. Maqbara 1960 yilda ta'mirlangan.

### ***Hazrat imom kompleksi***

O'z davrining o'qimishli kishilaridan biri bo'lgan imom, Abu Bakr Muhdmmad ibn Ali ibn Ismoil al-Kaffol al-Shoshiy (904 — 976)ning qabri asos qilinib bunyod etilgan obida. Qabr va uning atrofida vujudga kelgan qabriston hamda me'morchilik yodgorliklari kompleksi (Kaykovus bog'i bilan birga) Hazrati imom nomi bilan ataladi. Dastlab, XVI asrning 30h yillarida ikkita maqbara qurilgan, kattasi Toshkentning shayboniylar sulolasidan bo'lgan Xoni Suyunchxo'jaxon maqbarasi, deb taxmin qilinadi. XVI asrning 50- yillarida bu binolar Barakxon madrasasi me'morchilik yodgorliklari tarkibiga qo'shilgan. O'sha davrda Hazrati imom qabri ustida Kaffol Shoshiy maqbarasi buntyod etilgan. XVI asr oxirlarida uning qarshisida «Qo'sh» uslubida Kaffol Shoshiyning avlodi, Boboxoji maqbarasi qurilgan (bu bino 1939 yili buzib tashlangan). XVI asrda Xastimom kompleksida sayrg'oh bog' bo'lgan (asriy chynorlar, qayrag'och va boshqa daraxtlar, hovuz va ayvonlar mavjud edi), xalq sayillari o'tkazilgan. **XIX** asr o'rtalarida Barakxon madrasasi ro'parasida Namozgoh, (tillashayx), Mo'yi muborak madrasasi, Jome masjidi (saqlanmagan) qurilgan. **XX** asr boshlarida 6 ustunli 12 gumbazli Tillashayx masjidi qayta qurilgan. Hazrati imom kompleksida Movarounnahr musulmonlari idorasi joylashgan.

Shunday qilib, biz Toshkent shahri va vohasidagi toponimlarni ilmiy asosda, tarixiy hujjatlar, manbalarga suyanib, turli-tuman nomlarning bir guruhininggina tarixini o'rganib chiqishga muvaffaq bo'ldik. Agar sizlar ham o'z jonajon maktabingiz, kolxoz, sovxozingiz, qishloq va tumaningiz hududidagi nomlarning kelib chiqishi bilan qiziqsangiz mana shunday toponimik ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bu esa jonajon o'lka tarixini o'rganishda, uni sevishda, olgan bilimlaringizni chuqurlashtirish va rivojlantirishda, ijodiy izlanishingizda sizga yaqindan yordam beradi.

3. Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari toponimikasini o'rganish

**Darsning** maqsadi: o'quvchilarga arablar hukmronligining oxiri va **IX** asrda Somoniylar davlatining tashkil topishi va bu davlatni boshqarish hamda xo'jaligining yuksalishi, feodal shaharlarning ravnaqi, savdo aloqalarining kengayishi haqida tushuncha beriladi.

**Ko'rgazmali qurollar:** «IX — XI asrlarda O'rta Osiyo kartasi»dan, Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari hamda «Buxoro shahri arxitektura yodgorliklari» ni namoyish qiluvchi rangli rasmlardan foydalaniladi.

Yangi mavzuning rejasi:

- a) arablar hukmronligining ag'darib tashlanishi;
- b) somoniylar davlatining tashkil topishi;
- v) qishloq xo'jaligining yuksalishi;
- g) feodal shaharlarning ravnaq topishi;
- d) savdo aloqalarining kengayishi.

**Dars o'tish uslubi:** o'qituvchi materialni bayon qilishda suhbat usulidan foydalanadi, o'quvchilarni ijodiy izlanishga undaydi, toponimik materallarni topib, ularning ma'nosini mustaqil echishga o'rgatadi.

**Suhbat uchun savollar:** 1. Arablar hukmronligining qulashiga asosiy sabab nima? 2. Somoniylar davlati qachon tashkil topdi va unga kim asos soldi? 3. Xo'jalikning yuksalishiga nima sabab bo'ldi? Qanday feodal shaharlarni bilasiz?

**Yangi mavzuning konspekti.** VIII asr oxiri — IX asr boshlarida halifalik og'ir siyosiy tanglikka uchradi. Bo'ysundirilgan xalqlarni itoatda tutish arab halifalari uchun tobora qiyin bo'lib qoldi. O'rta Osiyo xalqlarining tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turishi, halfalikning o'z ichidagi feodal urushlar arab halifaligini zaiflashtirib qo'ydi va mustaqil mahalliy davlatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Halifaning Xurosondagi noibi Tohir ibn Husayn (u mahalliy oqsuyak yer egalari orasidan chiqqan) 821 yilda o'zini mustaqil hokim deb e'lon qildi. Shu tariqa Tohiriylar sulolasi (821 —873) ga asos solindi va bu sulola Xurosonda yarim asrdan ko'proq hukm surdi. Tohiriylar davrida O'rta Osiyoning ayrim viloyatlarini 819 yildan boshlab Somon xonadonining avlodlari — Somoniylar idora qila boshladi. Bir vaqtlar Somoniylar halifalikka qarshi ko'tarilgan xavfli qo'zg'olonni bartaraf etishda halifaga yordam bergan edilar, o'sha qo'zg'olon Samarqandda boshlanib, butun O'rta Osiyoga yoyilgan edi.

Tohiriylar sulolasining xalqqa qilgan jabr-zulmi mehnatkashlarni qo'zg'olon ko'tarishga majbur etdi. Qo'zg'olonga shahar hunarmandlaridan misgarlar



(safforiylar) boshchilik qildi. 837 yilda Tohiriylar ag'darilib, Xurosonda Safforiylar davlati barpo qilindi. Buxoro Safforiylarga tobe bo'lishni istamadi. U somoniylarga murojaat etib, Buxoroni o'z qo'l ostiga olishni iltimos qildi. Nasr Somoniy 875 yilda ukasi Ismoilni Buxoroga hokim qilib yubordi.

«Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni o'z qo'l ostida kuchli davlat qilib birlashtirdi. Xurosondagi Safforiylar davlatiga barham berdi va bu o'lkani o'z davlatiga qo'shib oldi. Ismoil Somoniy zamonida bu davlat har tomonlama kuchaydi. Shunday qilib, IX asr oxirlarida O'rta Osiyo arablar istibdodidan tamoman halos bo'ldi. Poytaxti Buxoro bo'lgan mustaqil feodal davlat tashkil topdi va bu davlatni Somoniylar sulolasidan bo'lgan amirlar X asrning oxirlariga qadar idora qilib keldi.

Arablar hukmronligi davrida mehnatkash kadovarlarni arablar va mahalliy feodallar talab keldilar. Aholidan turli soliq va jarimalar undirib olish uchun xalq ommasi xonavayron qilindi. Shahdrlar vayron bo'lib, huvillab qoldi. Mamlakat xo'jaligi orqaga ketdi. Xonavayron bo'lgan ming-minglab kadovarlarni shaharlarda ish qidirib yurardilar. Lekin mamlakat arab istilochilari hukmronligidan halos bo'lgandan keyin har holda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi uchun imkon tug'ildi. Yangi-yangi kanallar, to'g'onlar, suv omborlari qurilib, minglab gektar yerlar o'zlashtirildi, mamlakat chegaralari mustahkamlandi, dehqonchilik va hunarmandchilik: degrezlik, miskarlik, temirchilik, kulolchilik, to'qimachilik, shuningdek, konchilik ancha rivojlandi. Yaqin Sharqiy mamlakatlari, Rus davlati, xazarlar, Volgabo'yi bulg'orlari hamda Xitoy bilan savdo-sotiq ishlari olib borildi.

Bu davrda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Urganch, Kesh (Shahrisabz), Marv va boshqa shaharlar xo'jalik va madaniyatning yirik markazlariga aylandi. Shahar mahdallalarining markaziy qismida hukmdorlar xonadoni a'zolari hamda boy savdogarlar, ruhoniylar va boshqa oqsuyaklar xashamatli hovli-joylar qurdilar, podsholikning qurol-yarog', asbob, egar-jabduq ishlab chiqaradigan maxsus ustaxonalari tashkil topdi. Shaharlarning qiyofasi o'zgarib bordi: yangi imoratlar, hukumat idoralari, katta ustaxonalar, karvonsaroylar, machit, madrasa va boshqa binolar qurildi. Hunarmandchilik do'konlari, savdo rastalari ko'paya boshladi. Shaharlarga atrof qishloqlardan kosiblar, savdogarlar va boshqalar kelib joylashdi.

O'rta asr shaharlari uch qismdan iborat edi: shahar markazidagi o'rda (ark), uning tevaragini o'rab olgan ichki shahar (shahriston) hamda tashqi shahar (rabotlar)dan tashkil topgan edi. Bir qancha rabotlar tez orada kattalashib, obod joyga aylandi. Rabotlarda katta-katta imoratlar qad ko'tardi, bozorlar va hunarmand-kosiblar mahallalari paydo bo'ldi. Bu erda zargarlar, sarroflar, to'quvchilar, kulollar, shishagarlar va boshqa shu singari kosib-hunarmandlarning uylari va do'konlari joylashgan edi.

Shaharlar bilan bir qatorda qishloqlar ham mamlakatning iqtisodiy hayotida katta rol o'ynaydigan bo'lib qoldi. Movarounnahr va Xorazm vohalaridagi ko'pgina qishloqlar to'qimachilik, kulolchilik, miskarlik, duradgorlik va boshqa xil hunarmandchilikda muhim o'rin egalladilar. Chunonchi, Buxoro viloyatidagi hozirgi Zandona qishlog'i Somoniylar zamonida «zandonacha» deb atalgan ip

gazlamasi bilan O'rta Osiyoda va ko'pgina xorijiy mamlakatlarda nom chiqargan edi. Har ikki o'lkaning, ya'ni Movarounnahr bilan Xorazmning qishloq va shaharlarida sirlangan sopol idishlar, chiroyli va nozik qilib ishlangan shisha idishlar yasaldi.

Mamlakatning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi ichki va tashqi savdoning kengayishiga olib keldi. Paxtadan yigirilgan ip va to'qilgan gazlamalar, kunjut va chigit moyi, mayiz, o'rik va boshqa quruq mevalar uzoq mamlakatlarga olib ketilar edi. Dashti qipchoq, Janubiy Sibir' va Mo'g'ulistondagi ko'chmanchi chorvadorlarga egar-jabduq, kiyim-kechak, o'q-yoy, qilich, bo'yoq zargarlik buyumlari, doridarmon, idish-asbob va boshqa narsalarni etkazib berishda Movarounnahr asosiy rol o'ynaydigan bo'ldi.

Farg'onaning hunarmandchilik mahsulotlari — egar-jabduq, kiyim-kechak, shisha va sopoldan yasalgan nozik buyumlar, mevalar va G'arb mamlakatlaridan keltiriladigan zeb-ziynat buyumlari, qurol-yarog'lar o'sh va o'zgan shaharlari va tog' dovonlari orqali Koshg'arga, undan Xitoyga olib borilardi. Movarounnahr bozorlari orqali Yaqin va o'rta mamlakatlariga ipak, kumush, teri, jun, qo'y, qoramol, tuya kigiz, asal, turli xil mo'ynalar olib borilardi.

Xorazmdan Ustyurt va Dashti qipchoqning g'arbiy tumanlari orqali Volga bo'yiga, undan Novgorodga boriladigan karvon yo'lida quduqlar qazilib, har bir bekatda rabotlar bino qilingan edi. Volganing yuqori oqimidagi Bulg'or va quyi oqimidagi Hazar davlatlariga hamda Rusga Xorazm orqali O'rta Osiyodan guruch, quruq meva, paxta va jundan to'qilgan kiyimlar, shirinliklar, gilam va shu kabi narsalar, Xitoy, Hindiston, eron, Turkiya, Iroq, Afg'oniston va boshqa mamlakatlardan olib kelinadigan mollar chiqarilar edi. Bulg'or va Xozar davlatlaridan esa O'rta Osiyoga po'stinbop qimmatbaho terilar, mum, o'q-yoy, baliq elimi, kastorqa moyi, bulg'ori charm, qarchig'ay, qo'y, sigir, asal, baliq va boshqa mollar olib kelinar edi. O'rta Osiyoda ishlangan va chet davlatlardan keltirilgan hunarmandchilik mollarining ko'p qismi O'rta Osiyo shaharlaridagi bozorlarda sotilardi. Savdo muomalasida Tohiriylar va Somoniylarning kumush dirhamlari yuritilar edi.

Somoniylar davrida ariq ochish, suv omborlari va to'g'onlar qurish, qal'alar va mudofaa inshootlari qurish kabi katta qurilishlar avj oldirilishi munosabati bilan mexnatkash aholining ahvoli yanada og'irlashdi. Bunday qurilishlarda har xonadondan bir kishi yiliga bir necha oy hasharchi sifatida safarbar etilib, tekinga ishlab berishga majbur edi. Masalan, Buxoro vohasini ko'chmanchi qabilalarning talonchilik xurujlaridan mudofaa etish uchun shu voha atrofi 783 — 831 yillarda baland devor bilan o'rab olindi. Bu inshoot «Devori kampirak» nomi bilan mashhur bo'lib, qariyb 400 km uzunlikda bo'lgan va uni qurishda ko'p ming hasharchi 49 yil mehnat qilgan. Uning qoldiqlari hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Shunga o'xshash uzun mudofaa devorlari VIII asrda Samarqand va Toshkent vohalarining atrofida ham bino qilingan.

Mehnatkash xalqni shafqatsiz ezish va jabr-zulm o'tkazish pirovardida xalqning sabr kosasini to'ldirgan. Xalq milliy zulmga chiday olmay g'alayon

ko'tara boshlagan. Masalan, 961 yilda Buxoroda novvoy Abubakir rahbarligida xalq qo'zg'oloni bo'ladi. Bu qo'zg'olonda shahar kambag'allari bilan birga dehqonlar ham ishtirok etadi. Qo'zg'olonchilar Somoniylar hukmdori amir Abdulmalikning saroyini talab, unga o't qo'yib ketadilar.

Xalq qo'zg'olonlari garchi yengilgan bo'lsa ham, lekin mazlum xalqning mustabidlarga qarshi kurashida muhim o'rin tutdi. Bu qo'zg'olonlar feodal tuzum negiziga bolta urdi.

Feodal zulmning kuchayishi, shahar va qishloqlardagi mehnatkash omma turmushining nihoyatda yomonlashuvi mamlakatning iqtisodiy va siyosiy qudratiga putur etkazdi. Davlatning mustahkam emasligi, feodallarning markaziy hokimiyatga qarshi kurash olib borishi natijasida Somoniylar davlati ancha zaiflashdi. Bu davlat Qoraxoniylar qo'li ostida birlashgan ko'chmanchi turkiy qabilalarning zarbasiga bardosh bera olmadi.

Mavzu batafsil bayon qilingach, yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning javoblari umumlashtirilgandan so'ng o'qituvchi ularning diqqatini feodal shaharlar va ular nomlarining kelib chiqish tarixiga jalb etadi. Masalan, «Buxoro shahrining arxitektura yodgorliklari» tarixini quyidagicha bayon etish mumkin:

**Buxoro** — qadimiy, tarixiy, yodgorliklarga boy shahar. Narshaxiy Buxoroning Numijkat, Bumiskat, Madinat us — Sufriya, ya'ni «Mis shahar», Madinat o't — tujjor, ya'ni «Savdogarlar shahri» degan nomlari borligini aytadi: «Buxoro, — deb davom etadi tarixchi,— degan nom u nomlarning hdmmasidan ma'qulroqdir. Xuroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko'p nomga ega emas. Bir xddisda Buxoro nomi Foxira bo'lib qolgan. Chunki «Qiyomat» kuni Buxoro shahri o'zida shahidlarning ko'pligi bilan faxr qiladi» (BT, 28-bet). Buxoroning Foxira deyilishi dinga qorilgan afsona, albatta, ikkinchidan, arab grafikasi oqibatidir. Buxoro nomi «Abdullanoma» va boshqa bir qator asarlarda «Vihara» tarzida keltirilib, otashparastlar ibodat qiladigan joy ta'riflanadi. Uning etimologiyasi ham bor.

Xalqda Buxoro — Bog'ora degan rivoyat ham bor. Buxoro so'zining etimologiyasi aniq emas.

Buxoro — sanskritcha vihara so'zidan olingan bo'lib, «ibodatxona» ma'nosini bildiradi, degan fikr bor. V. A. Livshitsning fikricha, vihara so'zi so'g'd tilida parhar shaklida kirgan. Hofizi Tanish Buxoriyning yozishicha, «Buxoro» so'zi buxor so'zidan kelib chiqqan bo'lib, O'tparastlar tilida «ilm makoni» demakdir. Bu talaffuz uyg'ur va xitoy butparastlarining tiliga yaqindir, chunki (ularda) sig'inish joylari bo'lgan ma'budalarni «buxor» deb ataydilar. Buxoro shahrining nomi aslida Lumijkat bo'lgan (Hofizi Tanish Buxoriy, «Abdullanoma», 1-jild. T., 1966, 273-bet).

Buxoro toponimi yolg'iz emas. XI — XII asrlarda Balx shahri atrofida Navbahor ibodatxonasi bo'lgan. Navbahor «erta bahor» emas, balki «Yangi ibodatxona» demakdir. Buxoro shahri etimologiyasi bilan Hindistondagi Bihar shtatining etimologiyasi birdir (V. A. Nikonov). V. V. Shostakovich Sibirdagi Buxoro nomli daryoni tilga oladi.

Buxoro yaqinida dul Buxoro (Jul Buxoro) nomli qishloq bo'lgan. Buxoro viloyatlaridan biri Buxorxitfar (Najar — xatfar) deb atalgan. (Buxoro hokimlari «buxorxudot» deyilar edi.) Bekobod yaqinida Buxorolik, Janubiy Uralda Buxorocha degan soy, Qashqadaryo viloyatida (Kitob, G'uzor) Buxor —go'por, Buxori, Xo'jaburxori nomli mahalla, joylar bor. Shunday qilib, Buxoro komponentli toponimlar bir qanchadir. Qadimgi turkiy runik yozuvida (Kulteginga bag'ishlangan yodgorlikda) Vuqarak degan joy nomi uchraydi (Buqaraq so'zi ulis — Buxoro edi). Bu joy nomiga S. E. Malov bemalol Buxoro deb izoh bergan. Akademik B. YA. Vladimirtsov o'sha yodgorlikda So'g'd nomi ham uchrashini aytadi va Buqaraq haqiqatan Buxoro degan so'z bo'lsa, o'yrat (oltoy) qahramonlik eposlarida buharin cherik, ya'ni «Buxoro qo'shinlari» degan so'zlar uchraydi, deb yozadi (B. YA. Vladimirtsov, «Geograficheskie imena orxonskix nadpisey, soxranivshiesya v mongol'skom», Dokladn Akademii Nauk SSSR, Leningrad, 1929, Dokladn AN SSSR, № 10, 171-bet). Ba'zi bir tadqiqotchilar Buxoro so'zi sanskritcha emas, balki eftalitcha bo'lsa kerak, deb hisoblaydilar. Bunda ular so'g'diy yozma hujjatida Buxoro so'zining bosh harfi «P» bilan yozilganini dalil qilib keltiradilar (V. A. Livshits, K. V. Kaufman, I. M. D'yakonov. «O drevney sogdiyskoy pis'mennosti Buharn». Vestnik drevney istorii, §- 1, 1954, 150-163-betlar).

Buxoro o'zining ko'p asrlik tarixi mobaynida bir necha bor yuksalish va inqiroz davrlarini boshidan kechirdi, chet el istilochilarining qurboni bo'ldi.

Moddiy madaniyat va san'atning shunchalik xilma-xil va turli davrga oid yodgorliklari to'plangan bunday shaharlar juda oz. Shahar Sharqiy me'morlari yaratgan nodir arxitektura yodgorliklari bilan butun dunyoga ma'lumdir.

Buxoroning birinchi tarixchilari yozib qoldirgan afsonalardan birida Buxoro qal'asi Siyovush tomonidan qurilgan deb aytiladi. Siyovush qadim zamonlarda ilohiy shaxs sifatida hurmatlangan, keyingi davrlarda yaratilgan she'riy afsonaga ko'ra, eron shohi va turk malikasining farzandi bo'lgan Siyovush Turon shohi Afrosiyob tomonidan o'ldirilgan.

VI asrda shahar, yuqorida ta'kidlanganidek, so'g'dcha nom bilan Numijkat deb atalgan bo'lsa, VII — VIII asrlarda Puxo, Buxo, Buge deb ham nomlangan. VII asrning ikkinchi yarmida arab istilochilari O'rta Osiyoga, shu jumladan, Buxoroga bostirib kira boshlaydilar. Amudaryoni birinchi bo'lib kechib o'tgan Ubaydulla ibn Ziyod 674 yilda Toshkentni egallab, Buxoroga bostirib kiradi. 709 yilda Qutayba ibn Muslimning katta lashkari boy va yaxshi mustahkamlangan Buxoroni egallaydi. O'sha paytgacha shaharning to'rt, keyinchalik ettita darvozasi bo'lgan.

VIII — IX asrlarda Buxoroda katta o'zgarishlar yuz berdi. 849 — 850 yillarda shahar atrofi II darvozali devor bilan o'raldi. IX asrda mahalliy Buxoro boyonlari Ismoil Somoniy (892 — 907) boshchiligida tashabbusni o'z qo'llariga oldilar. Ular nisbatan markazlashgan, amalda halifalikdan mustaqil bo'lgan feodal davlat tuzdilar. IX — X asrlarda u iqtisodiy va madaniy jihatdan o'rta va Yaqin Sharqiyning asosiy shaharlaridan biriga aylandi.

Bu davrlarda ijod qilgan 30 ga yaqin shoirning nomi tarixda saqlanib qolgan. Abu Abdullo Rudakiy o'sha davrning eng ulug' shoiri bo'lgan. Rudakiyning bizga ma'lum bo'lgan eng ajoyib asarlaridan «Sharob onasi», «Qarilikka qasida» larni tilga olish, qayd etish lozim. O'rta asrning buyuk entsiklopedist olimlaridan biri buxorolik Abu Ali ibn Sino (980—1037 yillar) edi. Ibn Sinoning asosiy asarlari bo'lgan «Tib qonunlari», «Shifo kitobi», «Donishnoma» va b. q. asarlarida uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari ifoda etilgan.

1220 yilning fevralida Buxoro Chingizxon qo'shinlari tomonidan zabt etildi. 1370 yilda esa Temur imperiyasi tarkibiga kirdi. XIV — XV asrlar mobaynida Buxoro diniy markaz vazifasini bajardi. Ulug'bek tomonidan Buxoroda (1417 yil) va G'ijduvonda (1433 yil) qurilgan madrasalar feodal hukmdorning ruhoniylarga e'tiqodi bilangina emas, balki uning olim sifatida madaniy-ma'rifiy faoliyati bilan ham bog'liqdir.

XVI — XVII asrlarda Buxoro sezilarli darajada gullab-yashnadi. Shahar tubdan qayta qurildi, me'morchilik ansambllari paydo bo'ldi. Bu inshootlarning ko'plari bizning zamonimizgacha saqlanib qolgan. Noyob inshootlar shaharda o'ziga xos me'morchilik maktabi vujudga kelganligidan dalolat beradi. Qoraxoniylar davrida qurilgan Jome' masjidi harobalari o'rnida Kalon masjidi (1514), uning qarshisida esa Mir Arab madrasasi (1530—1536 yillar). Baland Masjidi va Xo'ja Zayniddin masjidlari barpo etildi. KO'hna Buxoroning eskirib qolgan ko'plab monumental binolari qayta tiklandi va qisman ta'mirlandi. CHShahar chekkalarida ulkan Chor Bakr ansambli, xovuzlar, sardobalar, ko'priklar, karvonsaroylar va Bahovuddin qishlog'ida maqbaralar qurildi. Qad'a devoridan tashqaridagi Fayzobodda ajoyib xonaqoh (1598—1599 yillar) qurildi. U chiroyli gumbazga, ichki tomoni esa ikki qavat, ganchga o'yilgan go'zal naqshlar bilan bezatilgan.

Buxoro jahondagi eng ko'hna shaharlardan biri. Olimlar taxminida, ayrim yozma manbalarda shaharning «yoshi» har xil ko'rsatilgan edi, ammo O'zbekiston Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti tomonidan tarix fanlari doktori A. R. Muhdmmadjonov boshchiligida olib borilgan arxeologik tekshirishlar natijasida Buxoroning «yoshi» 2300 yil ekanligi aniqlanmoqda.

**Buxoro** arki — hukumat markazi bo'lib, uning hokimi buxor-xudot deb atalar edi. Narshaxiy o'zidan ancha oldinroq yozilgan manbaga, ya'ni Abdulhasan Nishopuriyning «Xazoyin ul-ulum» («Ilmlar xazinasini») degan asariga asoslanib yozishicha, Buxoro qal'asi juda qadimiy bo'lgan va u tillarda doston bo'lib qolgan Siyovush hamda Afrosiyob zamonlarida qurilgan. Narshaxiy Siyovush hamda Afrosiyob zamonlarida qurilgan. Narshaxiy Siyovush qo'handizning ichida, uning sharqiyidagi darvoza yonida ko'milgan, degan afsonani keltiradi. Qo'handiz (qal'a) ning ikkita darvozasi bo'lgan. Sharqdagi darvoza G'o'ryon darvozasi deb, g'arbdagi darvoza Registon maydoniga ochilganligi sababli Registon darvozasi deb atalgan.

Buxoroning rejasiga qaraganda, bizning zamonamizgacha etib kelgan maydoni 34675 kv. metr, aylanasi 780 metr bo'lgan. U 20 metr baland tepalik

ustiga qurilgan. Hozir Ark maydoni 4,2 gektar keladi. Uning tik devori pishiq g'isht bilan qoplangan. Ark hamma tomondan qo'rg'on devor bilan gir aylantirib o'rab olingan. Bu devor so'nggi II — III asrda qurilgan. Arablar istilosiga qadar arkda shahar hokimlari — buxor-xudotlar yashaganlar. Somoniylar davrida (IX — X asrlar) Ark qaytadan qurildi hamda devor va mezonlar bilan mustahkamlandi. Shimoli-g'arbiy tomondagi mezonining o'rni hozirgacha saqlangan.

Qoraxoniylar davrida (XI — XII asrlar) va Mo'g'ullar boshinchiligi vaqtida (XIII asr) Ark bir necha bor vayron qilingan. Arkning hozirgi qiyofasi XVI asrda Shayboniylar sulolasi davrida shakllangan. Hozir Ark viloyat o'lkashunoslik muzeyidir.

Arkka kiraverishdagi yo'l asta-sekin ko'tarila borib, uzun yo'lakdan Jome' masjidiga olib chiqadi. Arkdagi binolar XVII — XX asrlarga, ya'ni Ashtarxoniylar va

Mang'itlar sulolalari davriga doirdir. O'sha vaqtlarda Ark shahar hokimlari, keyinchalik xonlar, amirlar mansabdorlar va harbiy boshliqlar yashaydigan joy bo'lgan. XX asr boshlarida Ark aholisi taxminan 3000 kishiga yetgan. Arkdan shaxdr va uning tevarak-atrof manzaralari va tepaliklar ko'rinib turadi.

**Ismoil Somoniy maqbarasi** (IX — X asrlar) — O'rta Osiyo me'morchiligining o'ziga xos aniq va muayyan xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu me'morchilik o'z xalqi va uning g'oyasi, did-farosati bilan ifodalangan xalq ustalarining ijodidan iborat.

Birinchidan, IX — X asrlarda qurilgan Somoniylar maqbarasi o'sha davrdagi binokorlarning mahorati va yuksak badiiy dididan dalolat beradi. Bu yodgorlik 892 — 907 yillarda qurilgan, deb taxmin qilinadi. Maqbara shahardagi madaniyat va istirohat bog'i ichida joylashgan. U kub shaklida bo'lib, yarimsharsimon qubba bilan yopilgan. Unga xusn bo'lsin uchun burchaklariga to'rtta kichkina qubba o'rnatilgan. Devori qalin (1,8 metrgacha) bo'lganligi tufayli bu yodgorlik 1000 yildan beri yaxshi saqlanib turibdi.

Maqbaraning fasadi yo'q, to'rt tomoni ham bir xil. Bunday inshootlar tsentrik kompozitsiya deb ataladi. Maqbara kvadrat shaklida bo'lib, pishiq g'ishtdan qurilgan. Rivoyatlarga ko'ra, bu maqbara Ismoil Somoniy tomonidan otasi Ahmad ibn Asad uchun qurilgan. Keyinroq bu maqbara Somoniylar xonadonining daxdsi bo'lib qoldi. Unga 907 yilda vafot yetgan Ismoil, keyinroq maqbaraga kiraverishdagi yozuvga ko'ra, Ismoilning nabirasi — 914 yildan 943 yilgacha hukmron bo'lgan Nasr II ibn Ahmad dafn qilingan. Bino hozirga qadar saqlanib turibdi. Bu yodgorlikni xorijiy davlatlar ham yaxshi biladilar.

Somoniylar maqbarasi sodda, ajoyib ziynati va asrlar davomida sinovdan o'tgan murakkab gumbaz tomli konstruktsiyani qo'llagan binokorlarning muhdndislik mahorati jihatidan jahon me'morchiligining eng mukammal asarlaridan biri hisoblanadi.

**Chashmai Ayyub mozori** (XII asr). Shahardagi madaniyat va istiroxat bog'i shu mozor o'rnida joylashgan. Bu yodgorlik g'arbdan sharqiy tomon yonma-yon joylashgan to'rtburchakli murakkab to'rtta binodan iborat. Bu binolar turli

davrlarda qurilgan. Ulardan eng qadimiysi konussimon baland gumbaz bilan qoplangandir.

Rivoyatlarga qaraganda, imoratning bu qismini Qoraxoniylardan Arslonxon Vobkentdagi Minorai Kalon bilan bir vaqtda qurdirgan. Mozor ichidagi sovuq suvli chashma hozirgacha bor. Yodgorlik chuqur soylikda bo'lib, yaqin vaqtgacha unda katta buloq suvi oqib turar edi. Bu buloq mozordagi quduq bilan birlashtirilgan.

Qadimgi g'arbiy bino yoniga XVI asrda yana ikkita bino qurilgan. Qadimii binoning eshigi tepasiga osib qo'yilgan guldor koshinga «bu binoni Temurning shaxsan o'zi qurdirdi», deb yozilgan. XVI asrning ikkinchi yarmida binoning pastak peshtoedan iborat ikki qubbali so'nggi to'rtinchi qismi qurilgan.

To'rt binoning har qaysisida bir-biriga o'xshamagan qubbalar bor. Ular tashqi ko'rinishlari yoki janub tomondan qaraganda original va o'ziga xosdir.

**Mag'oki Attori masjidi (XII — XVI asrlar).** Bu masjid shahar markazida joylashgan bo'lib, ilgari attorlar rastasi o'rniga qurilganligi tufayli Mag'oki Attori deb atalgan. Masjid qariyb 6 metr yerga kirib turadi, aslida ko'p asrlar davomida asta-sekin tuproq qatlamlari uyulib, u ko'milib qolgan. Mag'oki Attori masjidi yopiq tipdagi masjidlardan bo'lib, tomini 6 tosh ustun ko'tarib turadi.

Masjidning xiyobon tomondagi janubiy peshtoqi arxitekturaning noyob asari hisoblanadi. Peshtoq va uning ravog'i har xil, chunonchi, o'ymakor ganch, sayqal berilgan g'isht, koshin o'yib naqshlangan sopol g'ishtchalar bilan bezatilgan. Binoning sharqiy tomonidan ko'tariladigan qismida keng tosh zina bor. Zina janubiy peshtoq, qurilgandan keyin qurilgan. Bu zina uchungina emas, balki namoz o'qiladigan joy, ham bo'lgan.

Namozgoh masjidi (XII, XIV, XVI asrlar). Buxoroning janub tomonida, shahar tashqarisidadir. Bunday masjidlar hayit kunlari shahar masjidlari namoz o'quvchilarni sig'dira olmaganligidan shahar tashqarisiga qurilgan. Namozgoh masjidi ana shunday masjidlardan hisoblanadi.

Namozgohning peshayvon, galereya shaklida gumbazli binosi bo'lgan (XVI asr), unga nafis qoplama bezakli pevdtoq qurilgan. G'arb tomondan binoning monumental qismi mehrobli qadimiy devorga taqalgan. Masjid nozik o'yima gulli sopol g'ishtlar va mayda g'isht parchalar bilan bezatilgan. Hozirgi namozgoh masjidi o'rnida bir vaqtlar ajoyib bog' va hayvonotxona bo'lgan. Bu yer Shamsiobod deb atalgan. Bu joyni tarixchi Narshaxiy o'z asarida to'la tasvirlab o'tgan.

**Poi kalon ansambli** — Minorai kalon (1127) yoki Katta Buxoro minorasi. Qoraxoniylardan Arslonxon hukmronlik qilgan davrda qurilgan. Bu minora shahardagi eng baland inshootdir. Uning balandligi 46,5 metr, uning qurilgan vaqtini (1127 yil) ko'rsatadigan yozuv korpusning o'rta belidagi koshinlardan birida qisman saqlanib qolgan. Minora baland, dumaloq ustunsimon bo'lib, tepasida ravoqli «fonusiy» tomi bor. Uning ichida 104 pillapoyali aylanma zinasi bor. Minoraning yuqori tomoni bir oz ingichkaroq bo'lib, tsilindr shaklli gumbazida 16 ta darcha bor.

Minoradan azon aytilgan. Minorada dushman paydo bo'lishini kuzatadigan maxsus punkt ham bo'lgan. Minoraning qorovulxonasi hali ham bor, uning sirti jimjimador qilib terilgan pishiq g'isht bilan qoplangan. Buxoro shahrining tashqi ko'rinishida bu minora badiiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Gumbazning zangori belbog'i XVI asrda ishlangan koshinlardan iborat. Naqsh bilan yozilgan eeki qismi **XII** asrda yasalgan och moviy tusdagi koshinlardan iborat bo'lib, Buxoro muzeyining Sitorai — Mohi xosa filialida saqlanmoqda. Minora korpusining pastki qismi ta'mirlandi. U o'nburchak shaklida bo'lib, ustiga minora qurilgan.

**Masjidi kalon** (Katta masjid) — juma namozi o'qiladigan bu masjid 1514 yilda qurilgan bo'lib, kattaligi jihatdan Samarqanddagi Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o'rinda turadi. U **XII** asrdagi eski masjid o'rniga qurilgan. Masjid XV asrda qurila boshlanib, XVI asr boshlarida (1514 yilda) bitgan. Masjid to'g'ri to'rtburchak shaklida hovlisi bo'lgan ochiq masjidlar turkumiga kiradi. Masjidi kalonning ettita eshigi bor. Asosiy sharqiy eshigi oldida va ichida keng ayvonlar bor.

Masjidning umumiy maydoni bir gektar keladi (127X78). Hovli galereyasi 288 qubba bilan qoplangan, ularni 200 ta ustun ko'tarib turadi. Bu ham noyob me'morchilik yodgorliklaridan biridir.

**Mir Arab madrasasi** — shaxdrning markaziy qismida ikkita gumbaz atrofidagi imoratlardan ajralib turadi (1530 yil). Ulardan biri — Shimoliy gumbaz tiklanib, unga yarim moviy koshin bilan qoplangan bezak berilgan, Janubiy gumbaz esa bezatilmay qolib ketgan.

Madrasaga hashamatli baland peshtoqdan kiriladi. Madrasadagi binolar xuddi Ulug'bek madrasasidek joylashtirilgan. Faqat darsxona o'rnida go'rxona bor. Bu yerda yamanlik shayx Abdulla (Mir Arab) va uning qarindoshlari dafn qilingan. Yodgorlik shuning uchun hdm Mir Arab nomi bilan atalgan.

Madrasa hovlisining chor atrofini ikki qavatli hujralar o'rab turadi. Hujralar qatorini to'rtta peshtoq ajratib turibdi. Bir vaqtlar peshtoqlar juda baland bo'lgan.

**Ulug'bek madrasasi** (1417 yil). Bu madrasa Temurning nabirasi: buyuk astronom Ulug'bek qurdirgan uch madrasa-ning eng avvalgisidir. To'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bu binoning hovlisi va bezatilgan baland peshtoqi bor. Madrasaning old tomoni ikki qavat qilib qurilgan, kiraverishdagi miyonxonaning bir tomonida darsxona, ikkinchi tomonida masjid, ikkinchi qavatida kutubxona bo'lgan.

Madrasaning ustki qismini Ismoil ibn Tohir Isfahoniy qurgan. 1585 yilda bu bino qayta tiklangan. Keyingi yillarda ham u tez-tez ta'mir qylinib turgan. Naqshlarning tarkibida yulduzsimon elementlar ko'pchilikni tashkil etadi. Buni astronom Ulug'bekning kasbi-koriga bog'lash mumkin.

Ulug'bek madrasasi darvoza tavaqalariga «**Bilim olish har bir muslim va musulmaning burchidir**» degan ibora o'yib yozilgan. MadrasaO'z chiroyi va naqshlarining juda go'zalligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Bu bino O'rta Osiyo me'morchiligining ravnaq topganligini ko'rsatadigan yodgorlikdir.



**Abdulazizxon** madrasasi (1652 yil). Bu madrasa badiiy bezalarga juda boy bo'lib, o'z ahamiyati jihatidan O'rta Osiyo me'morchiligida alohida o'rin tutadi. Bu bino Ulug'bek madrasasi ro'parasida qurilgan bo'lib, nafis me'morchiligi va bezatilishi jihatidan go'yo Ulug'bek madrasasi bilan raqobat qilayotgandek tuyuladi. Holbuki, har ikki yodgorlik qurilishi o'rtasida ikki asrdan ortiq vaqt o'tgan.

Abdulazizxon madrasasi oddiy geometrik, yulduzsimon va o'simliklarni tasvirlaydigan bezaklar o'rniga ancha murakkab va xilma-xil naqshlar bilan ishlangan. Bu yerda ajdar va semurg' qushning surati bor. Madrasada ikki masjid bor, yozgisi hovlida; darvoza yo'lagining g'arbiy burchagida esa qishki masjid bor. Ikkala masjidning ham devor va shiplari juda serhasham qilib bezatilgan.

Madrasa xalq me'mori usta Shirin Murodov ishtirokida ta'mirlangan (1930 yil).

**Bolohovuz masjidi** ,(1712 yil). U Ark qarshisida qurilgan. Masjidning hujralari va 20 ta baland yog'och ustunli ayvoni bor. U bir vaqtlar shaharning juma namozi o'qiladigan masjidi bo'lgan va amir Buxoroga kelgan paytlarida shu masjidda namoz o'qigan. Amir kelganda Arkdan masjidgacha gilamlar to'shalgan. Bolohovuz masjidiga Registon maydoni tomonidan qaralsa, uning peshayvoni, maydon yon boshidagi minorasi va o'rtasidagi chuqur hovuz kishida ajoyib taassurot qoldiradi.

**Chor Minor.** Uni halifa Niyozqul madrasasi deb ham atashadi. Bu yodgorlik so'nggi vaqtlarda qurilgan obidalar qatoriga kiradi. U XIX asr boshlari (1807) da qurilgan va shaharning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan. Yodgorlik murakkab me'morchilik namunasi bo'lib, peshayvon turidagi masjid, bir qavatli madrasa, hovuz va ajoyib peshtoqdan iborat. To'rtta baland mezanasi bor. Ular minoraga o'xshaydi, shuning uchun ham Chor Minor madrasasi deb ataladi. Aslida esa bular shunchaki mezanalar bo'lmay, faqat binoning badiiy bezagidir. Ular Hindiston masjidleri me'morchiligining ta'siri borligini ko'rsatib turibdi.

Labihovuz (XVII asr). Qadimgi Buxoroda savdo maydonlari ko'p bo'lgan. Ulardan biri Labihovuz hozirgacha saqlanib qolgan. Bu maydon shu yerdagi katta (uzunligi 42 metr, eni 36 metr, chuqurligi 5 metr chamasi) hovuz tufayli Labihovuz deb atalgan. Bu hovuz katta maydonning o'rtasidadir. U 1620 yili qazilgan. Hozirgi vaqtda hovuz ta'mirlangan. Maydonning to'rt tomoni hashamatli me'morchilik inshootlari bilan o'rab olingan, uni g'arbiy tomondan Devonbegi xonaqasi, Labihovuz masjidi, sharqiy tomondan Devonbegi madrasasi o'rab turibdi. Shimoliy tomonda esa 1578 yilda qurilgan Ko'kaldosh madrasasi bor. XVII asrning yigirmanchi yillarida qurilgan dastlabki ikki yodgorlik ayniqsa sernaqsh va serhashamdir. Bu yerda shahardagi toqilarning hammasini bir-biri bilan bog'lovchi savdo ko'chasi boshlanadi.

**Tim va toqlar** (XVI asr). Buxoroda eng yirik savdo inshootlaridan to'rttasi: Toqi zargaron, Toqi telpakfurushon, Toqi sarrofon va Abdullaxon timi saqlanib qolgan. Toqlar shahristonning Labihovuz maydonidan Registon maydonigacha boradigan asosiy savdo ko'chasidagi chorrahalarda qurilgan. Muntazam sakkiz

burchakli ichki xonaga mahobatli gumbaz yopilgan. 16 darchali bu gumbazning meridional qovurg'alari bor. Toqi zargaronda o'ttizdan ortiq zargarlik do'koni va ustaxonalar bo'lgan. Bu yerda har xil zeb-ziyat buyumlari yasab sotilgan. Toqi telpakfurushon ko'chalar chorrahasiga qurilgan. U oltiburchak shaklida bo'lib, markaziy gumbazda darchalari bor. Toqi telpakfurushon ilgari Toqi kitobfurushon deb atalgan, chunki bu yerda kitoblar sotilgan. Toqi sarrofon ikki ko'cha chorrahasida bo'lib, ulardan biri Registon tomonga qarab ketgan. U shuning uchun Toqi sarrofon deb atalganki, unda ko'pincha sarroflar o'tirib, chet el pullarini almashtirganlar va pul maydalaganlar. Buxoroning Abdullaxon timi va toqlari qadimiy shahar qurilishining obod, yirik ko'chalarida saqlanib qolgan elementlarigina, xolos. O'rta Osiyo va Sharqiy mamlakatlaridagi birorta shaharda bunchalik mahobatli (ulug'vor) me'morchilik inshootlari yo'q, desa bo'ladi.

Devonbegi xonaqosining old tomoni Labihoiul suvida oynadek aks etib turadi. Shuning uchun **bu** yodgorlikni Labihovuz deb ham ataydilar.

Sharqiy tomonda, masjid ro'parasida Nodir **devonbegi** madrasasi (1622 yil) qad ko'targan. U karvonsaroy sifatida qurila boshlagan bo'lsada, keyin qurilish davomida madrasaga aylantirilgan. Shuning uchun uning rejasi oddiy va madrasalar rejasiga o'xshamaydi.

Ko'kaldosh madrasasi (1578 yil) — Labihovuz maydonida joylashgan binolar jumlasiga kiradi. Bu yodgorlik Abdullaxon hukmronlik qilgan davrda (1557-1558) qurilgan bo'lib, O'rta Osiyodagi eng katta madrasalardan biri hisoblanadi. Madrasaning 160 xujrasi bor. Madrasaning eshigi alohida e'tiborga sazovordir. Eshik tabaqalari yog'och pilakchalardan yig'ilib, elim va mixsiz cho'p pona bilan birlashtirilgan, taxta pilakchalarga nozik va mayda o'ymakor gul solingan. Madrasalarning devori odatda yaxlit bo'ladi. Bu madrasaning esa ochiq ayvonchali boloxonalari bo'lgan va ular durustgina bezatilgan. Hozir bu yerda viloyat davlat arxivi joylashgan.

Shaharning g'arbiy qismida, shahar madaniyat va istirohat bog'i darvozasining chap tomonida bir-biriga ro'para turgan ikkita katta madrasa bor. Ular Qo'sh madrasa nomi bilan mashhur Qo'sh madrasa Buxorodagi xudshamatli me'morchilik komplekslaridan biridir. Sharqiy tomondagi Madori xon madrasasi (1566) g'arbiy tomondagi Abdullaxon madrasasidan 22 yil ilgari qurilgan. Madori xon madrasasining hajmi kichikroq, bezaklari soddaroqdir. Abdullaxon madrasasi kattaroq, ayniqsa uning sal qiyshaygan baland old peshtoqi serhashamdir. Hovli to'rt peshtoqdan iborat. Uning eshik tabaqalari Ko'kaldosh madrasasining eshigiga o'xshatib taxta pilakchalaridan yasalgan. Shaharning sharqiy qismida, vokzalga yaqin joyda ikki maqbara: Sayfuddin Boharziy va Buyonqulixon maqbalari bor.

Sayfuddin Boharziy maqbarasi din aqidalari to'g'risida asarlar yozgan va 1262 yilda vafot yetgan shayxning nomi bilan bog'liqdir. Bu yodgorlik ikki binodan, ya'ni ziyoratxona va go'rxonadan iborat. Ilgari ikkinchi xonada badiiy o'ymakorlik va sirli bezaklarning noyob namunasi bo'lgan yog'och sag'ana bo'lgan (XIV asr). Maqbaraning ichiga baland minoralar gumbazidagi darchalardan yorug'lik tushib turadi.

**Buyonqulixon maqbarasi** (XIV asr). Bu maqbara 1358 yilda Samarqandda o'ldirilgan Mo'g'ul xoni chingiziy Buyonqulixon qabri ustiga qurilgan. Maqbara katta va kichik xonaga bo'lingan. Maqbaraning to'rt tomonida naqshinkor ustunlar bor. Devor ichidan qorong'i va tor yo'lak o'tadi. Maqbaraning ichki va tashqi tomoni rang-barang bo'yoq bilan bezatilgan. Bu yerda zangori, ko'k, binafsha rang va oq bo'yoqlargina ishlatilgan. Bo'yoqlar g'oyat toza va tiniq. O'sha zamonda peshtoq ham qurilgan. Faqat u binodan alohida qurilgan. Maqbara peshtoqi ham koshin bilan bezatilgan.

1926 yilda maqbara ta'mir etildi. Uning baland supa ustiga qurilganligi yaqinda aniqlandi.

**Zindon** — XVII asr oxirlarida Shahristonning shimoli-g'arbiy burchagidagi tepalikda (hozirgi kolxoz o'rnida) qurilgan. Bino ko'rimsiz bo'lib, baland g'isht devor bilan gir aylantirib o'rab olingan. Zindonga janubiy devordagi pastak peshtoqdan kirilgan. Kichkina hovli ikki qanotli tosh binoga olib boradi. O'ng qanotning boshidagi xonaga qarzini uzolmagan kishilar qamalgan. Binoning chap qanotidagi to'rtinchi xona kishida og'ir taassurot qoldiradi. U qorovulxona orqasidagi 5 metrli chuqur yerto'ladir. yer ustidagi qismi darchali qubba, yerto'laga katta teshikdan tushiladi.

Zindon hovlisidan mahbuslar «pirining» qabri hamda zindonning sharqiy va shimoliy tomonlaridan o'tadigan baland tor yo'lak bor. Hozirgi vaqtda zindonga Buxoro o'lkashunoslik muzeyining eksponatlari qo'yilgan.

**Sitorai mohi xosa saroylari** — shahardan 4 kilometr narida, shaharning shimol tomonida ikki saroy bor. Ulardan biri Buxoroning eng oxirgi amiri Said Olimxonning saroyidir. Bu saroy bir qavatli bo'lib «G» harfi shaklida qurilgan. Bunda garchi xalq ustalari o'yma ganchkorlikda va devorlarga surat solishda ajoyib mahorat namunalarini ko'rsatgan bo'lsalarda, amirlarning meshchanlik did-farosatlari, ularning bir-biriga zid dabdabali, hashamatli suratlarga o'chligi o'z aksini topgan. Amir saroyini bezatirishda Yevropa me'morchiligiga taqlid qilgan. Butun shu dabdaba-yu hashamatlarga taqlid qilib ishlangan surat va naqshlar orasida Sitorai mohi xosadagi «Oq saroy» («Oq zal») ga berilgan pardoqlar xalq san'atkorlari hunarini ko'z-ko'z qilib turadi. Bu zalni iste'dodli san'atkor usta Shirin Murodov bir guruh Buxoro ustalari bilan qurgan. Hozirgi vaqtda Sitorai mohi xosaga Buxoro viloyati o'lkashunoslik muzeyi bo'limining ekspozitsiyalari joylashtirilgan. Saroy hududida sanatoriy ochilgan.

Sitorai mohi xosada amirning otasi Ahmad qurdirgan ikkinchi saroy ham bor. Bu bino saroy hayotining yodgorligi bo'lib, tamoman boshqacha rejalashtirilgan va bezatilgan. Hozir bu ikkinchi saroyga bolalar sanatoriysi joylashgan.

Qo'sh madrasadan janubda, zamonaviy binolar qurilishi olib borilayotgan joyda unchalik katta bo'lmagan Baland masjid (XVI asr) qad ko'tarib turibdi. Masjidning qishki binosi bilan yog'och ustunli ayvoni joylashgan poydevori baland bo'lganligi uchun Baland masjid deb nom olgan.

Imoratning barcha me'morchilik boyligi hozirgi paytda uning ichki tomoni hisoblanadi. Oltin suv yugurtirilgan nafis gulli yaltiroq katakcha tosh

taxtachalardan iborat baland och-yashil panel' kishini zavqlantiradi. Peshtoqchalardagi serhasham o'simlik suratidagi bezak IV asrning «guldor» gilamlariga juda o'xshaydi.

**Xoja Zaynuddin masjidi.** Xoja Zaynuddin masjidi 1555 yilda qurilgan. Biz bu yerda birinchi bo'lib masjid qurilishi bilan shahar qurilishi o'rtasidagi hamkorlikni ko'ramiz. Masjid asosiy fasadining ikki tomoni uning oldidan o'tadigan, tor yo'lakni hisobga. olib qurilgan, ikki tomoni esa turar joy uylari bilan bir qatorda turibdi. Ikki old tomoni ayvonli, uning oldida esa katta tosh plitalari terilgan katta hovuz bor. Masjidning ichi juda chiroyli qilib bezatilgan. Uning peshtoqlari shunday mahorat bilan bezatilganki, u o'sha paytdagi odamlarning shunday yuksak didi bo'lganligidan dalolat beradi va uni ko'rgan kishi hayratda qoladi.

Buxoroda katta qiziqish tug'diradigan yana bir qancha yodgorliklar bo'lib, biz eng asosiylarinigina ko'rsatib o'tdik.

O'qituvchi Buxoro shahridagi qadimii edgorliklarni tushuntirib, shaharda katta qiziqish tug'diradigan yana bir qancha me'morchilik yodgorliklari borligini, bu yerda eng asosiylarinigina ko'rsatib o'tilganligini qayd qilib, suhbatni yakunlagach, «mana endi biz Buxoro viloyatidagi qishloq va tumanlar toponimikasi ustida to'xtalamiz», deb o'quvchilar diqqatini quyidagilarga tortadi:

**Askarcha** — Buxoro viloyatidagi qishloq. Askarcha — «qo'shin — lashkar qishlog'i» ma'nosini bildiradi. Shu tumandagi Dovud qishlog'ida qurol-aslaha tayyorlangan.

**Band** — Navoiy tumanidagi qishloq. Bu so'z — to'g'on, suv ombori degan ma'noni bildiradi.

**Yangi bozor** — Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi qishloq. Bu nomni o'rganishda o'sha joyda yashab xizmat qilayotgan o'qituvchilarta, keksalarga va arxiv hujjatlariga murojaat qilindi. Qishloqni nima uchun Yangi bozor deb atashgan? Bunga sabab, Yangi bozor qishlog'idan bir oz naridagi qishloqda boshqa kichik bir bozor bo'lgan, bu bozorga turli tomondan kishilar kelib savdo sotiq qilganlar. Bozor kengayib borgan, eski bozor bilan birgalikda yangi bozor ham rivojlangan. Shundan boshlab qishloq Yangi bozor deb atala boshlagan.

**Sari kunda** — Romiton tumanidan 15 kilometr naridagi qishloq. Urganch cho'li etaklarida joylashgan. Keksalarning aytishlaricha, o'rta asrlarda qishloq nihoyatda obod bo'lgan. Maydoni keng, bog'-chorbog'i ko'p bo'lgan. Shu yerda kunda boshi, ya'ni suv boshi bo'lgani uchun ham qishloqning nomini shunday deb ataganlar. «Sari» — tojikcha (bosh), «kunda» — suv, suv taqsimlanadigan to'g'on boshi demakdir. Vaqt o'tishi bilan xususiy boylik uchun olib borilgan kurashlar natijasida qishloq harobaga aylangan. 1920 yilda qishloqda jami 6 xo'jalik istiqomat qilgan. Qishloq aholisining ko'pchiligi tojiklar. Keyingi yillarda qishloq tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Dastlab 10 gektar maydonda omoch bilan dehqonchilik qilgan sarikundaliklar bugungi kunda 300 gektardan ortiq yerga ekin ekib, farovon hayot kechirmokdalar.

**Chor rabot** — Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi qishloqning nomi. Chor rabot, ya'ni to'rtta rabotdan iborat degan ma'noni anglatadi. Hozir ham qishloq to'rt qismdan iborat bo'lib, ular xalq shevasi bilan quyidagicha nomlar bilan ataladi: Sho'ro xo'rxo (sho'r ovqat iste'mol qiladiganlar) — yoki tuzlik ovqat eydiganlar mahallasi; «Markaziy ko'cha» yoki mahalla; Poy luchho (oyoq yalanglar), yoki kambag'allar mahallasi; Oshpazho (oshpazlar mahallasi).

Hozir ham Chor rabot qishlog'i va uning 4 mahallasi yuqoridagi nom bilan atalib kelinadi. Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi kolxozda quyidagi qishloqlar bo'lib, ular **Chor rabot** (to'rt rabot), **Qo'rg'on** (qal'a), **Arrabon** (suvi ravon ketadigan ariq; suvi tez oqadigan ariq) deb nomlangan (arablar yashaydigan qishloq bo'lishi ham mumkin).

**Keskin terak** — Karmananing nomi, hozir Navoiy deb ataladi. Bu qishloqning ham o'ziga xos tarixi bor. Uning Keskin terak deb atalishi to'g'risida shunday rivoyat bor: bu yerda juda ko'p terak o'sgan. Teraklarni bir kishi kelib kesib olib ketgan. Shundan beri bu joy Kesgan terak deb atalib kelar ekan. yerli xalq tilida «Keskin terak» deyiladi.

**Dabboki** — Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Tojikcha dabbog — teri ishlovchi, charmgar, dabbogi — terini oshlovchi kosib.

**Etimak** — Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi qishloq. Etimak (YAtimak) — «etimcha», «etim bola»; «Etimak» (yatimak) degan og'irlik o'lchovi bo'lgan; etim (yatim) so'zining «qashshoq», «batrak» ma'nosi ham bor.

**YObi ariq** — Buxoro viloyati Konimex tumanidagi qishloq. YObi (yobu) o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qadimiy elat, qabila. YObilarning ko'pchiligi asosan Zarafshon vodiysida istiqomat qilgan. YObi qabilasi tomonidan qazilgan ariq YObi arig'i bo'lgan, so'ng qishloqqa ham «YObi ariq» nomi berilgan. Hozirda shu nom bilan ataladi.

**Obduzd** — Buxoro viloyatidagi ariq. Obduzd — «suv o'g'risi» yoki «O'g'irlangan suv» demakdir. Navbatini kutmasdan o'g'rincha suv oladigan kishi obduzd deyilgan. Ba'zan biron yoriqqa yoki o'pponga kirib ketib, yana yer yuziga chiqadigan jilg'a suvi ham obduzd deb atalgan.

**Oxshix** — Buxoro viloyatidagi qishloq nomi. To'g'risi, Oqshix bo'lsa kerak. Turkman urug'laridan biri shix (shiyx) deb atalgan. Bir qancha urug'lar qora, oq, ba'zan ko'k, sariq kabi turlarga bo'linadi. Buxoro viloyatida turkmanlar ko'p. Bu urug' ba'zan o'zbeklar orasida ham uchraydi. Oqshix so'zi buzilib, Oxshix bo'lib qolgan.

**Oqtaqir** — Buxoro viloyati Tomdi tumanidagi ovul. Taqir cho'lda qishbahorda suv to'lib, yozda qaqrab yotadigan, yorilib-yorilib yotadigan yaydoq maydonga aytiladi.

Peshku — Buxoro viloyati Romiton tumanidagi qishloq nomi. Pesh «old», «old tomon», kuy — «ko'cha», «guzar», ya'ni ko'cha tomon degan ma'noni anglatadi. Hozir shu nomli tuman markazi.

**Pozagari** — Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi qishloq. Poza tojikcha omochning uchiga kiydiriladigan cho'yan tish, pozagar (pozarez) omoch tishi quyuvchi usta degan ma'noni bildiradi.

**Pattachi** — ma'nosi ma'lum emas, lekin patta degan o'simlik (buta) bor. Termiz shahri yaqinida (Amudaryo bo'yida) Pattakesar qishlog'i ham bor. Bu qishloq ham ana shu o'simlik nomi bilan atalgan. Sepatta — «uch patta», ayrim mutaxassislarning izohiga ko'ra, «Patta» so'zi ayrim kishilarga beriladigan hujjatlarni ham bildiradi. Shuning uchun bozorda va guzarlarda boj oluvchi odamni «pattachi» deyishgan.

**Tallicha** — Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Tall arabcha so'z bo'lib, «tepalik» degan ma'noni bildiradi. Buxoro viloyatining ko'p joylarida tepalikni tall deyishadi. Tallicha «kichkina tepalik» degan ma'noni bildiradi.

**Tarob** — Buxoro viloyati hududida joylashgan. Tarixiy manbalarda Torob qishlog'i Buxorodan ham oldin paydo bo'lgan deyiladi. Bu qishloq dastlab Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da tilgan olingan. Bu qishloq ahli 1238 yilda Mo'g'ullarga, keyinroq esa mahalliy boylarga, ruhoniylarga qarshi ko'targan qo'zg'olonlari bilan mashhurdir. Torob so'zining etimologiyasi ma'lum emas. , Mahmud Torobiy ham shu qishloqdan chiqqan.

**Toshkent** — Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Qishloqqa toshkentliklar ko'chib kelib o'rtnashgandan shunday nom olgan.

**Toqi sarrofon** — Buxoro shahridagi bozor. Toq so'zi qadimiy me'morchilik atamalaridan biri bo'lib, «arkli bino» ma'nosini anglatadi. Buxoro xonligida usti yopilgan bozor toq deyilgan. Masalan, Toqi telpakfurushon Telpak sotuvchilar toqi, Toqi sarrofon ham shunday bozor (rasta)lardan biridir. Sarrof — «pul maydalovchi» demakdir. O'rta asrlarda Buxoroning Kesh (Shahrisabz) darvozasi yaqinidagi bir mahalla Rasattoq (arabcha «ark boshi») deb atalgan. Bu maxdlla qadimda ana shu yerda bo'lgan gumbazli bozor nrimi bilan atalgan bo'lsa kerak, deydi tarixchi O. I. Smirnova.

**Xumdonak** — Buxoro viloyatidagi qishloq nomi. G'isht, sopol buyumlar pishiriladigan xumdon so'ziga kichraytirish affiksi «ak» qo'shilib yasalgan toponim. Xumdonak «xumdoncha qishloq» ma'nosini bildiradi.

**Xoja Tabband** — Buxoro guzarlaridan biri. Ma'nosi bezgakni bog'lovchi, yo'q qilib tashlovchi (davolovchi) demakdir. Jonli tilda Tabbat bo'lib ketgan. Guzarda xoja Tabband mozori bor. Rivoyatlarga ko'ra, xoja Tabband bezgakni davolagan. Guzar ana shu xoja Tabband nomi bilan atalib kelinmoqda.

**Shoxrud** — shahar arig'i, Buxoro shahrini suv bilan ta'minlaydigan ariq. Dastlab Rudi zar deb atalgan: Arab geograflari asarlarida Nauri zar shaklida qayd qilingan. Shayx Boharziyning vaqf hujjatlarida (XIV asr) Rudi shaO'ri Buxoro deb atalgan. Keyingi asarlarda Shohrud bo'lib ketgan. eronda hdm Shohrud degan ariq bor.

**Sho'riston** — Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi Qishloqning nomi. Sho'riston — «sho'r bosgan joy», «sho'rxok» ma'nolarini bildiradi.

**Qulonxona** — Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi qishloq. Bir zamonlar qulon ko'p bo'lganligidan shunday nom olgan bo'lishi mumkin. Lekin qulon (qulontik) urug'i vakillari yashaydigan qishloq ham Qulonxona deb atalgan bo'lsa ajab emas.

**Qo'tir buloq** — Vobkent tumanidagi qishloq. Qishloq qo'tir kasalligiga davo bo'ladigan buloq yonida joylashganligidan shunday nom olgan.

**G'ijduvon** — Buxoro viloyatidagi shaxdr. Dastlab Narshaxiy asarida tilga olingan. Boshqa tarixiy manbalarda G'ijduvon shaklida ham qayd qilingan. Xalq og'zida Gijduvon so'zini G'uji devon — devlar, ins-jinslar ko'p ma'nosida deyilsa, ayrimlar G'uji dekon — «Bir to'p qishloq» demakdir, deb taxmin qiladilar. To'p qishloq degani to'g'ri bo'lsa kerak. Har holda etimologiyasi aniq emas. Bahovuddin Naqshbandning ustози Abdulxoliq G'ijduvoniy nomiga qo'yilgan degan fikrlar ham bor.

**Havzak dorisoqlar** — Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi qishloq. Bu toponim tojikcha va o'zbekcha til qoidalari asosida yasalgan; hovuzni tojiklar havz deyishadi («ak» esa kichraytiruvchi affiks), doridarmon tayyorlab kun ko'rgan kishi dorisoq deyilgan. Hdvak dorisoqlar «dorisoqlar hovuzchasi» demakdir, ikki so'z orasidagi izafet esa tushib qolgan, tojikcha Havzaki dorusozon bo'lishi kerak.

O'qituvchi o'quvchilarni Buxoro viloyatining qishloq va tumanlar tarixi toponimikasi bilan tanishtirib chiqqach, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining qishloq, tumanlari tarixi etimologiyasini o'rganishga kirishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu o'rinda o'qituvchi Qashqadaryo viloyatidagi Gubalak, Qarshi, Kitob, Yakkabog', Oraqarg'a, Varg'anza, Chimqo'rg'on kabi qishdoq, shahar nomining kelib chiqish tarixini o'sha joylarda yashab, ijod yetgan atoqli olimlar shoirlar, mashhur kishilar, Mehnat Qahramonlari, urush faxriylari, shuningdek tariximizda muhim rol o'ynagan kishilar nomlari bilan bog'lab o'rganishi kerak.

Shuningdek, o'qituvchining nima uchun bu viloyat Qashqadaryo deb nomlangan va bu so'zning ma'nosini bilasizmi? kabi savollariga o'quvchilar ilmiy ijodiy javob topishda ota-onalari, mahalliy qariyalar, shu sohaga qiziquvchilar bilan hamkorlikda ish olib borishi zarur.

Masalan, Qashqadaryo so'zi qanday ma'noga ega? degan savolga quyidagicha javob olish mumkin;

**Qashqadaryo** — daryoning nomidan olingan. U Qarshi vohasini suv bilan ta'minlaydi. Daryo qadimgi vaqtda Koshkirud deb atalgan. Ayrim tadqiqotchilarning (masalan, V. V. Bartol'dning) fikricha, Qashqadaryo Keshkirudning fonetik o'zgargan variantidir.

Ba'zi olimlar toponimning asosini «qashqa» so'zi tashkil etadi, qashqa «qashmoq, qurib qolmoq» degan ma'noni bildirishini aytadi (A. Ishaev). H. Hasanov daryoning tabiiy xususiyatida ham qashqalik bor, Qarshidan keyin daryoning suvi kamayib o'zani olachalpoq «qashqa holiga keladi», deb yozadi. S. Qoraev «qashqa» so'zining bir necha ma'nosini keltiradi. etnik nom: tiniq, tez oqar, yoqasida o'simlik o'smaydigan yalang, yolg'iz tepa va hokazo.

Daryo nomidan viloyat nomi vujudga kelgan, hozir ham shu nom bilan yuritiladi.

**Qarshi** — shahar nomi. Qashqadaryo viloyatining ma'muriy markazi. Qarshi O'zbekistonning eng ko'hna shaharlaridan biri. U Grek — Baqtriya davlati davridan beri mavjud. Shahar XIV asrgacha Naxshab deb atalgan. Arablar bu maxdliiy nomni buzib Nasaf deb ishlatgan bo'lsa kerak. Hozirgi Qarshi XIV asrning birinchi yarmida voha o'rtasida Samarqand, Buxoro, Afg'oniston, Hindiston va Sharqdagi boshqa qo'shni mamlakatlardan keladigan yo'llar ustida qurilgan. Chig'atoy naslidan bo'lgan Kepakxon (1309 —1326) Qashqadaryo vodiysiga o'rnashgan eski Naxshabdan ikki farsax narida o'ziga saroy qurgan. Saroy Mo'g'ul tilida Qarshi deb ataladi. **Qarshi** «Shoh qal'asi» degan ma'noni ham bildiradi, deyishadi.

**Gubalak** — bu qishloq Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi kolxoz hududida joylashgan. Qishloq viloyat markazi Qarshi shahridan 18 km shimoli-g'arbda, tuman markazidan esa 10 km janubi-sharqiy tomonda joylashgan. Qishloqda 200 dan ko'proq xo'jalik istiqomat qiladi. Aholining milliy tarkibi ham xilma-xil bo'lib, uning asosiy qismini o'zbeklar tashkil etadi. Aytishlaricha, qishloqning o'rni bundan bir necha yil muqaddam cho'l bo'lgan. Ko'chmanchilik bilan shug'ullangan odamlar asta-sekinlik bilan shu yerga kelib o'troqlashib qola boshlaganlar. Qishloq yonida ko'chmanchi «arab» qabilalari kelib o'rnashgan. Ular avvallari kapa va yerto'lalarda yashaganlar, so'ng guvala quyib, undan uy qurib olganlar. Shundan keyin bu qishloq nomi «Guvalak» bo'lib qolgan, keyinchalik Guvalak so'zi «Gubalak» bo'lib ketgan. Bu nom O'zbekistonning boshqa viloyatlarida ham uchraydi. Masalan, Farg'ona vodiysida guvalak nomli bir necha joylar bor.

**Mahmud tepa** — Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi qishloq. Qishloqning oldingi nomi «Qoratelpak» bo'lgan. Qishloq axlining aksariyati qoratelpak kiyib yurganidan shunday nom olgan, deyishadi. Keyinchalik odamlar chakalakzor va tepalarni o'zlashtirib, yangi qishloq barpo qilganlar. Ishboshi Mahmud ismli oqsoqol bo'lgan ekan. O'sha vaqtdan boshlab Mahmud ota o'zlashtirgan tepa, keyinchalik Mahmud tepa deb atala boshlagan, qishloq nomi esa o'z holicha qolavergan.

**Kitob** — Qashqadaryo viloyatidagi shahar. Shaxdrni uch tomondan tog'lar, ya'ni Ziyovuddin tog'ining davomi, Qo'rg'on tog', orqa tarafidan esa Taxta qoracha tog'i va shu tog'ning davomi o'rab olgan. Kitob nomining kelib chiqishi o'qiydigan «kitob» so'zidan emas, balki tojik tilidan olingan «kift» — elka, «ob» — suv, ya'ni «elkadagi suv» degan ma'noni bildiruvchi «kiftob» so'zidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Haqiqatan ham bu nom to'g'ri qo'yilgan, chunki Kitob tumanining ikki tomonidan ikkita daryo — Qashqadaryo va Oqdaryo oqib o'tadi. Kitob tumani janubdan Shahrisabz tumani, shimol va g'arbdan Samarqand viloyatiga qarashli Jom deb atalgan qishloq bilan, sharqdan esa Tojikiston tog'lari bilan chegaralangan. Kitob tumani kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Kitob posyolkasida qurilgan to'rt qavatli ma'muriy binolar va qishloq xo'jalik idorasi,



zamonaviy oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyabzal, bosh kiyimlar, atir-upa, uy-anjomlar, attorlik, «Bolalar dunyosi» do'konlari binolari shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Shuningdek, 500 o'rinli «O'zbekiston 50 yilligi» kinoteatri, mehmonxona binolari, «Paxtakor» sport jamiyati va shu kabilar kitobliklar xizmatida. Kitob tumanida sakkizta kolxoz, to'rtta sovxoz bor. Bularning hammasi don etishtirish, chorvachilik bilan shug'ullanadi. Ikki sovxoz, ya'ni «Qishlik» hamda «Palandara» sovxozlari uzumchilik, chorvachilik, sabzavot va poliz ekinlari, tamaki xom ashyosi etishtiradi.

«Qishlik» sovxozni Kitob tumanining shimol tomonidan joylashgan. Sovxozni «Qaynar» deb ham atashadi. Bunday atalishining boisi shuki, qishloqda katta chashma joylashgan. Bu chashma «Qaynar buloq» deb ataladi. Qaynar buloq sovxozning eng yuqorisida joylashgan. Chashmadan butun sovxoz suv ichadi. Qishloq qariyalari chashma haqida ko'pgina rivoyatlar to'qishgan. Chashmaning o'rtasida ikki tup daraxt o'sadi. Qariyalarning aytishicha, agar shu daraxtni birov sindirsa yoki uning yonida biron nojo'ya ish qilib qo'ysa, uning ko'zi ko'r, qo'li yoki oyog'i shol, ya'ni jonsiz bo'lib qolar ekan. Shuning uchun ham bu joyda hech kim nojo'ya ish qilmaydi. Faqatgina sovxoz ishchilari buloq suvi toza bo'lishi uchun gir atrofini betondan devor qilib ustini yopib qo'yishgan. Sovxoz hududida bir necha sayrgoh joylar bor. Shulardan biri «Etti qiz g'ori», «Ahmad g'ori», «Qirgiz qiz» degan joylar bo'lib, bu joylar ayniqsa bahorda kishining bahri-dilini ochadi.

**Varg'anza** — Kitob tumanidagi qishloq nomi. Mahalliy aholining ko'pchiligi anorchilik bilan shug'ullanadi. Aytishlaricha, bu yerga boshqa yerlardan kelishib anor o'g'irlab ketishgan. Bu voqea muntazam takrorlanib turgan. Shuning uchun bu qishloqqa «varg'anza», ya'ni anor o'g'irlanadigan joy, deb nom bergan ekanlar. B. Ahmedov ta'rificha «var» so'zi so'g'diycha bo'lib, «shamol», «g'anza» — koni, ya'ni shamol koni degan ma'noni bildiradi. Hozir hdm bu qishloq shu nom bilan ataladi.

**Shahrisabz** — Qashqadaryo viloyatiga qarashli shahar. Bu nom XVI asrda tilga olinadi. Shaharning qadimgi nomi Kesh. XV — XVI asrlardagi tarixiy manbalarda, chunonchi, xoja Axrorning vaqf hujjatlarida va «Boburnoma» da Kesh va Shahrisabz nomlari parallel' ishlatiladi. Shahrisabz — «Ko'kalamzor shaxdr», ya'ni «YAshil shahar» demakdir. XIV — XV asrlarda Amir Temur va Ulug'bek davrlarida Shahrisabzda qator monumental binolar — sarof, masjidlar, maqbara va boshqalar qurildi. Bu inshootlarning harobalari hozirgi vaqtda noyob me'morchilik yodgorligi sifatida saqlanib qolgan.

**Yakkabog'** — Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi shu nomdagi aholi yashaydigan joy nomi. Aytishlaricha, dastlabki vaqtlarda hozirgi Yakkabog' tumani o'rnida aholi kam bo'lgan. Bularning ham ko'pchiligi ko'chmanchi xalq bo'lib, chorvachilik bilan shug'ullangan. Yakkabog' hududi ekin ekishga qulay bo'lgan. U Hisor tog'iga yaqin bo'lib, chashma va mayda soy suvlari Yakkabog'dan o'tadi. Suvning bu jixtdan qulayligi bog'-rog' barpo etishga olib kelgan. Bu joyda oldyn yakka bog' barpo qilingan. Yakkabog' tumani hududida bir necha qishloq mavjud.

Bulardan biri No'g'aylidir. No'g'aylar haqida aytilgan ayrim gaplar hozir ham xalq o'rtasida mavjud. Ikkinchi qishloq — Qatag'on (quvilganlar), uchinchi qishloq — Uchtepa.

**Chimqo'rg'on** — Qashqadaryo viloyatidagi qishloq. Chimqo'rg'on — chim devor bilan o'rab olingan joy demakdir. Bu qishloq aholisi talonchilardan saqlanish maqsadida o'z qishloqlarini atrofni devor bilan o'rab olishgan. Bu devor atrofida chuqur xndnaqlar qazib, suv bilan to'latib qo'yishgan. Qo'rg'onga kirib chiqadigan to'rta darvoza bo'lib, ularga ko'tarma ko'priklar orqaligina kirilgan. Aholisi qo'rg'on tashqarisida dehqonchilik qilgan. Ular o'zlariga to'q va mard kishilar bo'lgan. Qo'rg'onni yov olish mushkul bo'lgan. Qishloq aholisi qo'rg'onga suvni tog'dan sopoldan yasalgan quvurlar orqali keltirishgan. Bunaqa quvur yot kishilar uchun sir saqlangan, Quvur yerga ko'milib, bir uchi tog'dagi buloqlarga bog'langan. Rivoyatda aytilishicha, bu qishloqqa yov bostirib keladi, lekin qo'rg'onga bostirib kirish imkoniyatini topolmay to'xtab qolishadi. Shu vaqtda Chimqo'rg'on hokimining chiroyli qizi boshinchilarning lashkarboshisiga xufiyona oshiq bo'lib qoladi. U muhabbat deb dushman tomonga qochib o'tadi va sir saqlangan suv yo'lini aytib beradi. Bu yovga qo'l kelib, buloq og'zini bekitishadi. Suvsiz qolgan xalq sotqinlik natijasida yengiladi. Chimqo'rg'on bosib olinib, devorlari buzib tashlanadi. Sopol quvurlar esa yer tagida qolaveradi. Ularning qoldiqlari hozir ham o'sha ko'milgan yerdan topilmoqda. Chimqo'rg'on qishlog'i devorlari buzilib ketsa ham o'z nomini saqlab qolgan.

**Olaqarg'a** — shu nomli qishloqning kelib chiqish tarixini bevosita shayx Aqliqiron ota nomi bilan bog'lashadi. Aslida qishloq nomi Olaqarg'a emas, Aqliqiron otadir. Uning tarixi XVIII asrdan boshlangan. Qishloqning ikki tomonidan ikkita ariq oqib o'tadi. Bularning birini — Past ariq, ikkinchisini — Katta ariq deyishadi. Ariqlarning bo'yida 2 ta tepalik bor. Bu tepaliklardan biri yassi, ikkinchisi baland. Ikkala tepalik hozir ham bor. YAssi tepalik katta ariq bilan birlashgan. Aslida avvallari bu tepalik o'rnida odamlar uy qurib yashaganlar. Shu tepalikdan 1961 yili katta xum topildi. Xumning ichida eski tangalar, kamon o'qining uchlari topildi. Aqliqiron ota vafotidan keyin qishloq shu shayx nomi bilan Aqliqiron ota deb atala boshlagan. XVIII asrda shayxga atab masjid qurilgan. Qishloq nomi oldin Aqliqiron, so'ng Alaqar, keyinchalik Olaqarg'a bo'lib, o'zgarib ketgan. Masjid esa Aqliqiron otaligicha qolavergan. Bu masjid hozir ham bor. Hozirgi vaqtda ham qishloq Olaqarg'a nomi bilan atalib kelinmoqda.

**Boybichakon** — Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi osh tuzi koni. Boybicha — boyning katta xotini, ba'zan boy xotin degan ma'noni ham anglatadi. Boybichakon nomi bilan atalgan qishloq yonidagi tuz koniga ham shu nom berilgan.

**Shagarak** — Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi qishloq. Qashqadaryo viloyatida istiqomat qilib turgan saroy qabilasi tarkibiga kiradigan qipchoq saroy urug'ining bir qismini shagarak deyishadi. Zarafshon vodiysida ham bu urug' shagarak deb atalgan.

Uqituvchi Surxondaryo viloyati hududidagi toponimlar tarixini o'rganishdan avval Surxondaryo so'zining etimologiyasiga ham qishacha to'xtalib o'tishi lozim. Viloyat nomining kelib chiqish tarixi haqida tushuncha berilgandan so'ng o'quvchilar diqqati uning tumanlari, qishloq, ovullari nomlari tarixiga jalb qilinadi.

**Surxondaryo** — tojik tilidan olingan bo'lib, «surx» — qizil, ya'ni Qizil daryo demakdir. Surxondaryo bosh oladigan tog' tizmalari, daralar, tog' jinslarida qizil ranglar mavjud. Suv bu jinslarni o'zi bilan oqizib kelganligi sababli qizil tusli tuyuladi. Shuning uchun yerli xalq — qizil daryoni tojik tilida «Surxondaryo» deb atashgan.

**Termiz** — Grek — Baqtriya davlati davrida Termiz «Tarimita» nomi bilan, Makedonskiyning istilochilik davrida «Aleksandriya» deb atalgan. Somoniylar davrida «Shahri somoniy» deb ham atalgan. X asrning oxirida shahar yana Termiz deb ataladi. Termiz nomi «Avesto» yozuvlarida tilga olinadi. Termiz shahri tarixi haqida ayrim afsonalar mavjud. Aytishlariga qaraganda, grek askarlari shaharni bir necha kun qamal qilib turgan. Shahar mustahkam baland devor bilan o'ralganligi tufayli shaharni ololmay, oxiri hiyla ishlatganlar — shahar boshliqlarini qo'lga olib, qarshilik ko'rsatganlarni esa katta bir masjidga qamab, o't qo'yib yuborganlar. Shahar dushmanlar qo'lga o'tgach, aholi masjiddagilarga achinishib, biror kishi yoki tirik jon qoldimi? — deb chaqirganlar. Shunda masjid ichidan «biz tirikmiz», degan sado chiqqan. «Biz tirikmiz» degan so'z bora-bora «termiz» bo'lib ketgan deyishadi. Albatta, bu afsona haqiqatdan uzoq. Shahar dastlab Tarmita, Tarmeta deb talaffuz etilgan.

Shunday qilib, Termiz Balx shahrining yarmi, daryoning narigi tomonidagi qismi, deb hisoblangan. Termiz tumanidagi Namuna kolxozi hududida milodimizning VI — VII asrlarida g'ishtdan qurilgan juda katta Qariqiz binosining harobalari bor. Shahar Mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan bir qancha vaqt o'tgandan keyin qaytadan qurilgan.

**Hakim at-Termiziy dahmasi** — o'rta asrda Termiz atrofi mustahkam devor bilan o'ralgan bo'lib, saroylar va masjidlar qurilgan. Hunarmandlar va savdogarlar guzarlari barpo etilib, obodonlashtirilgan. Qal'aning etak tomonida Hakim at-Termiziy ansambli bunyod etilgan. XIII asrda Chingizxon qo'shinlari bostirib kirib, shaharni vayron yetganda shu ansambl' omon qolgan.

Shayx Abu Abdulloh ibn Ali ibn Muhammad Hakim at-Termiziy IX asrning oxirida Termizda yashagan. U bir qancha ilmiy asarlar yaratgan (lekin ular bizgacha etib kelmagan). Arab tarixchilari va geograflarining ba'zi asarlarini ham tarjima qilgan. Hakim at-Termiziy 869 yilda vafot yetgan. X — XI asrlarga kelib uning qabri ustiga uncha katta bo'lmagan dahma qurilgan. Dahmaga turli xil rangda jilo berilgan. XII asrda dahma tamoman qaytadan qurilib, murakkab bezaklar bilan bezatilgan. Qabr ustiga oq marmartosh yotqizilib unga Qur'on oyatlari va biografik ma'lumotlar yozib qo'yilgan.

**Sulton Saodat ansambli** — o'rta asr me'moriy yodgorliklaridan biri, Surxon daryosiga yaqin yerda qad ko'tarib turibdi. X asrdan boshlab bu ansambl' sayidlar qabristoniga aylanib qolgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Termiz

sayidlarining boshlig'i amir Husayn shu yerda dafn etilgan. Ma'lumki, sayidlar o'zlarini Muhammad payg'ambarning bevosita avlodlari deb hisoblab, Sharqiy mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'ynaganlar. Temur ham sayidlarni o'ziga yaqin tutgan. **XVI** asrda Abdullaxon Pularni o'zi tarafiga og'dirib olish maqsadida sayidlar avlodlarining maqbaralarini ziyorat qilgan va ayrimlarini qayta tiklatgan.

Sayidlarni dastlabki vaqtlarda ochiq yerlarga dafn yetganlar. X asr oxirlaridan boshlab mozar tepasida maqbara qura boshlaganlar. Maqbaralar har xil katta-kichiklikdagi pishiq g'ishtdan ishlangan bo'lib, ularni ishlagan ustalarning xdr biri o'ziga xos yangi elementlar bilan boyitishga harakat qilganlar. Maqbaralarning old tomoni sharqiyqa qaratilgan bo'lib, turli shakldagi g'ishtlar bilan chiroyli qilib ishlangan. Amir Husayn maqbarasi bu jihatdan boshqalardan ajralib turadi. Umuman, Sulton Saodat ansambli Sharqiy me'morchiligi taraqqiyotining 700 yillik davrini o'z ichiga oladi.

**Zurmala minorasi** Hozirgi Termiz shahridan 10 kilometr chamasi narida, Amudaryo shimolga tomon keskin buriladigan yerda eski Termiz harobasi saqlanib qolgan. Ana shu yerda Zup<sup>^</sup>ala nomi bilan ataladigan 12 metrli minora qad ko'tarib turibdi. Garchi minora harob bo'lib ketgan bo'lsada, u mahobatlidir. A'lo sifatli g'ishtdan tiklangan minoraning poydevori nihoyatda mustahkam ishlangan.

Minoraning tashqi tomoniga aylanma zinapoya ishlangan bo'lib, ichki tomonida qop-qorong'i yo'lak bor. Zurmala minorasi eski Termiz bilan deyarli tengdosh milodimizning dastlabki asrlarida bunyod etilgan. Zurmala minorasi budda diniga topinganlar tomonidan qurilgan bo'lib, uni balog'at uyi deb atashgan.

Termiz milodimizning dastlabki asrlarida asosiy yadrosi Baqtriya hisoblangan Kushon podsholigi tarkibiga kirgan. Ana shu vaqtda shahar obod bo'lgan. Kushon davridan boshlab Surxondaryoning hozirgi hududiga buddizm kirib kela boshlagan. Bu yerga buddiy missionerlari kelib saroylar, butxonalar qurganlar.

**Qirqqiz qasri** Termiz shahridan olti kilometr naridagi «Namuna» kolxozi hududida joylashgan qadi-miy Qirqqiz qasri harobalari haybatli ko'rinishi bilan kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Bu yodgorlik **XVIII** asr o'zbek xalq eposi bilan bog'langan. «Qirqqiz» — bu podshoh Guloyim va uning qirqta kanizagi haqidagi ertakdir. Qirqqiz qasri qal'ani eslatsada, lekin aslida yirik feodalning qasri bo'lgan. Ikki qavatli qasr **IX** asrda bunyod etilgan bo'lib, karvonlar o'ta turib, bu yerda dam olganlar, yozning jazirama issig'ida shu joyda jon saqlaganlar. Qasr an'anaviy Sharqiy me'morchiligi uslubida qurilgan. Bu yodgorlikda arablargacha bo'lgan o'rta Osiyoga xos me'morchilik maktabining uslubi ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Kasr dushmanning har qanday hujumidan, ayniqsa feodallarning o'zaro urushlaridan himoya qilishga moslab qurilgan.

Qirqqiz qasri inson hunarmandchiligi san'ati namunasi bo'lib, oddiy tuproq — loydan yaratilgan bu koshona ijodkorlarining, me'morlarining nomi ma'lum emas. Oradan ko'p yillar o'tdi. Qasr harobaga aylandi. Ammo Qirqqiz qasri IX asrning noyob inshooti sifatida savlat to'kib turibdi.

**Jarqo'rg'on minorasi** — hozirgi Jarqo'rg'on tumani markaziga yaqin yerda bundan 860 yil burun bunyod etilgan ajoyib minora qad ko'tarib turibdi. Bir vaqtlar bu minora masjid bo'lib xizmat qilgan. Bizgacha minoraning harobasigina etib kelgan. Hozir minora ta'mirlanib asl holiga keltirildi. Minora o'rta asrga xos Sharqiy me'morchiligida munosib o'rin egallaydi. Baland minoraning qubbasi shaxdrga fayz baxsh etadi. O'sha vaqtlarda so'filar shu minora tepasidan turib azon aytganlar. Minoradan atrofga har xil voqealar to'g'risida darak berishda ham foydalanganlar. Minora **XII** asrda qayta tiklangan. Minora bezaklari g'ishtdan ishlangan. U pastdan yuqoriga tomon ingichkalantirib qurilganki, bu osmono'par minorani tomosha qilish kishiga zavq baxsh etadi. Minora ichiga sakkiz qirrali qilib supacha o'rnatilgan. Minora tashqarisiga ishlangan o'n olti dumaloq kolonna esa xuddi minoraga o'ralgan lentaga o'xshab turibdi. Minoraning pastki qismidagi ettita qirrasiga g'ishtni o'yib yozuv yozilgan bo'lib, sakkizinchi qirra bilan to'qqizinchi qirra oralig'idagi yo'l orqali minoraning ichidagi aylanma zinapoyalariga chiqiladi. Minoraning saqlanib qolgan yozuvlaridan birida shu minorani yaratgan me'morning ismi va bunyod etilgan yo'li ko'rsatilgan. Me'morning ismi Ali bo'lib, hozirgi Turkmanistonning Seraxs shahrida istiqomat qilgan Muhammadning o'g'li ekan. Minora hijriy 502 yilda, ya'ni 1108—1109 yillarda bunyod etilgan. Minoraning yuqori qismi vayron bo'lib ketgan. Qolgan qismining balandligi 30 metr chamasi keladi. Tadqiqotchilarning taxminiga qaraganda, minoraning balandligi 40 metrdan ortiq bo'lgan. Uning aylanasi 17 metrcha keladi.

**Zarautsoy qo'riqxonasi** — Termizdan yuz kilometr narida KO'hitog' oralig'ida Zarautsoy nomli manzarali joy bor. yer osti suvlari, yomg'ir va shamol natijasida qoyalarda juda ko'p shalolalar, g'orlar paydo bo'lgan. 1932 yilda ovchi va o'lkashunos I. F. Lomaev tog'li qishloq aholisidan zaraut — kamar nomi bilan mashhur bo'lgan «Qizil suratli g'orlar» to'g'risidagi afsonani eshitib qoladi va bu sirli rasmlar hiqidagi ma'lumotni Surxondaryo viloyati o'lkashunoslik muzeyiga ma'lum qiladi. Toshlarga tushirilgan rasmlar olimlar e'tiborini o'ziga tortadi. Arxeologlar va rassomlar barcha g'orlarni o'rganishadi. Tekshirishlar natijasida toshlarga solingan 200 dan ortiq rasm aniqlandi. Lekin ulardan faqat o'ttiztasigina yaxshi saqlanib qolgan bo'lib, ibtidoiy jamiyat kishilari ovchilik bilan shug'ullanganliklaridan dalolat beradi.

Zarautsoy toshlaridagi rasmlarning nusxasi olingan bo'lib, ular viloyat o'lkashunoslik muzeyi fondida saqlanmoqda. Zarautsoydagi rasmlar tosh davriga, ya'ni paleolit, mezolit, neolit davrlariga mansubdir. Ba'zi rasmlar mezolit davrining oxirlarida yaratilgan bo'lsa, ba'zilari milodimizdan oldingi **III** — **II** asrlarda kashf etilgan, ayrimlari milodimizning boshlanishiga yaqin bunyod etilgan bo'lsa ajab emas. Ming yillar o'tishi bilan rasmlar o'z rangi va sayqalini yo'qotgan bo'lsada, uzoq o'tmishdan saqlanib qolgan yodgorlik sifatida qimmatlidir.

**Sariosiyo** — bunday deb atalishiga sabab, kishilarning aytishlariga qaraganda, bir vaqtlar shu yerda bir kishi tegirmon qurgan va uning atrofiga kelib, uy-joy qurib, o'rnasha boshlaganlar. Asta-sekin bu yer qishloqqa aylangan,

aholisining ko'pchiligi tojiklardan iborat bo'lganligi sababli ular o'z qishloqlarini «Tegirmon boshi», ya'ni tojikcha «Sariosiyo» deb ataganlar. Sariosiyo keyingi davrda o'sib rivojlandi. Qishloq shaharga — tuman markaziga aylanib qoldi. Hozir ham Sariosiyo tuman markazidir.

**Qarsagan** — Sho'rchi tumanidagi qishloq nomi. Aslida Qarsakgan yoki Qarsakkon bo'lishi kerak. Mahalliy xalq tulkining bir turini qarsak deb atagan. Qadimgi turkiy tilda Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida ham qarsak tulkilar jinsidan bo'lgan bir hayvon, uning oq o'siq terisidan po'stin qilinadi, deb aytilgan. Agar bu so'zni «qarasagan» tarzida oladigan bo'lsak, «qarsak» tulkining bir turi, «gan» tojikcha ko'plik affiksidadir.

**YUrchi** — Denov tumanidagi qishloq. Aslida «yurtchi» bo'lishi kerak. «YUrtchi» so'zining o'zini esa quyidagicha izohlash mumkin: a) ko'chib qo'nadigan joy; b) ko'chmanchilar yashaydigan joy; v) yaylov. Bu qadimgi turkiy so'z bo'lib, chorvadorlar va ko'chmanchilar yashaydigan joyga nisbatan ishlatilib kelingan. Fikrimizcha, yurchi «yurtjo», ya'ni yurtjoy o'rin demakdir. «YUrtjoy», «yurtchi» shaklida qo'llanib kelinmoqda. YUrchi so'zining kelib chiqish tarixini B. A. Ahmedov o'zining «Istoriya Balxa» kitobida ilmiy ravishda isbotlab bergan.

**Boldir** — Surxondaryo viloyatidagi qishloq nomy. etimologik jihatdan bu so'z qadimgi turkiy so'z bo'lib, asl ma'nosi tog' burniga o'xshagan ko'tarilib chiqqan narsa, demakdir. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida boldir — tog' burni tarzida uchraydi. Shuningdek, devonda «boldir» boshqa komponentlar bilan qo'shilib, boldir o'g'il, qiz (O'gay o'g'il, o'gay qiz) ma'nosida ham qo'llanilgan.

**Dehbolo** — Boysun tumanidagi qishloq. yerli xalq «diybola», «dibolo» tarzida talaffuz qiladi. Bu so'z tojikcha deh, (qishloq), bolo (baland yuqori) komponentlaridan tashkil topgan, dehbolo — «yuqori qishloq» demakdir. Dehbolo nomi bilan ataladigan qishloqlar respublikamizning Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida ham uchraydi.

**Pulxokin** — Boysun tumanidagi qishloq. Qishloqning shimoliy qismida yer osti sizot suvlarining qo'shilishi natijasida katta ariq paydo bo'lgan va tabiiy holda yer qatlami tagidan oqib o'tib ko'prik shakliga kelib qolgan. Pulxokin fors-tojikcha pul (ko'prik), xok (tuproq) komponentlaridan tashkil topgan, «kin» esa tojikcha sifat yasovchi qo'shimchadir. Shunga ko'ra Pulxokin — tuproqli ko'prik, degan ma'no ni bildiradi. Qishloqqa ham «tuproq ko'prik» nomi berilgan.

**Egarchi** — Boysun tumanidagi qishloq. Mahalliy xalq «iyarchi» deb ataydi. Aytishlaricha, bu qishloq joylashgan yer otning egariga o'xshagan bo'lganligi uchun «iyarchi» deb atalgan. Fikrimizcha, bu qishloqda qachonlardir egar yasovchi kosiblar bo'lgan va shuning uchun «egarchilar» yashaydigan joy deb nomlangan bo'lsa kerak.

**8 mart qishlog'ining tarixi.** Bu qishloq Sariosiyo tumanida joylashgan. Oktyabr to'ntarishidan oldin u qishloq o'rnini to'qay va mayda ko'llar qoplab yotar edi. U yerda har xil vahshiy hayvonlar ko'p bo'lgan. Keyinchalik bu yerlar asta-sekin o'zlashtirilib, yangi yerlar ochildi, yangi uylar qurildi va odamlar yashay

boshladilar. Qishloqda avval juda ko'p ko'l bo'lganligi sababli «Ko'l qishlog'i» deb ham atalib kelgan. 2-jahon urushi yillarida qishloq xo'jalik ishlarini boshqarish xotin-qizlar zimmasiga tushganligi, hamma ishlarni xotin-qizlar bajarganligi uchun «Ko'l» qishlog'iga 1946 yili Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami «8 mart qishlog'i» deb nom berilgan.

**Sho'rchi** — Surxondaryo viloyatining tumanlaridan biri, u 1935 yilda tashkil topgan. Sho'rchi deb nomlanishiga asosiy sabab tuman hududidagi yerlar hech narsa ekib bo'lmaydigan darajada sho'r bo'lgan. Shuning uchun ham Sho'rchi nomini olgan. Hozirga qadar ekin ekishdan avval sho'ri yuvilib, so'ng ekin ekiladi.

**Boysun** — Surxondaryo viloyatining tumanlaridan biri. Uning nomi haqida har xil fikrlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, Boysun toponimi kishi nomi bilan, ya'ni tarixiy shaxs bo'lgan Amir Temurning nevarasi Boysunqur nomi bilan aloqador deb hisoblaydilar. Boysunqur — Shohruhning uchinchi o'g'li. Onasi Gavharshodbegim. Astrobod va Jurjon viloyatlarining hokimi bo'lgan. Boysunqur so'zining qur affiksi tushib qolib Boysun bo'lib qolgan, degan fikrlar ham mavjud.

Bu tuman hududida toponimikasi qiziq bo'lgan qishloqlar ko'p uchraydi. Masalan:

**Ajrim** — 6u qishloq nomining ma'nosi ajratilgan bo'lib, berilgan degan ma'noni anglatuvchi o'zbekcha nomdir. Qishloq geografik joylashishiga ko'ra markazdan juda chekkada, aholi soni kam. To'ntarishdan oldin boy-imomlar yerlarni dehqonlarga chorikor sifatida bo'lib-bo'lib, ajratib, chegaralarini ajrim qilib bergan. yerdan olingan hosilning to'rtidan birini o'sha boylarga berishgan. Chorikorlar o'z yerlarini aniq ajratib olganlar, shuning uchun bu qishloq nomi Ajrim bo'lib qolgan deyishadi.

**Dashtig'oz** — bu qishloq nomining ma'nosi ikki tarkibiy qismdan: «dasht» va «g'oz» so'zidan iborat. Bu yerdan soy o'tgan, soy yer sathidan juda chuqur bo'lib, o'z sohillariga suv bermagan. Suvdan dasht tomonlardan uchib kelgan o'rdak va g'ozlarga naflanganlar, xolos. Shuning uchun bu joyni dashtdan kelgan g'ozlar yashaydigan joy, deb ataganlar. Mahalliy xalq (tojiklar) bu so'zlarni birga qo'shib Dashtig'oz deb yuritganlar. Hozir ham shu nom bilan ataladi.

**DUGOBA** — (duoba) — tog' qishlog'i bo'lib, ikki soy qo'shilishi joyida joylashganligi uchun shu nom berilgan. Haqiqatan ham qishloq Qayroq va Xo'janpok daryosi qo'shilgan joyda joylashgan. Tojikcha Dugoba bo'lib o'zlashtirilgan.

**Jarqishloq** — o'zbekcha nom bo'lib, jar bo'yidagi qishloq ma'nosini bildiradi va hozir ham shu nomda ataladi.

**Jo'ja buloq** — tog' oldi yaylovi. Sero't, sersuv yerda joylashgan. Bu yerga berilgan nom o'zbekcha bo'lib, ma'nosi joy sharoitiga qarab berilgandir. Chunki bu yer ovloq joy bo'lib, yozda qushlar bemalol bola ochishgan. YOz mobaynida jo'jalarning chiy-chiyi tinmagan, jo'ja — kichik ma'nosida qo'llanilgan. Bu kichik buloq degan ma'noni ham bildiradi.

**Zarang buloq.** Afsonalarga ko'ra, bu yerda chorvadorlarning homiysi halok bo'lgan emish. Uning qabri buloq boshida bo'lib, buloq ustidan zarang daraxti o'sib chiqqan. Zarang tagida buloq bo'lgani uchun bu joyni Zarang buloq deyishgan. Haqiqatan ham buloq atrofida odam quchog'iga sig'maydigan zarang daraxti hozir ham qad ko'tarib turibdi.

**Omonxona.** Afsonada aytilishicha hazrati Ali Boysun tog'larini tomosha qilib yurib, shu qishloqda dam olgan va yotishda doimo: «omon bo'l», «dushman tegmasin», deb yotar erkan. Qishloq chuqur darada joylashganki, hozirda ham bu yerni topish ancha qiyin. Qishloq janjal-to'polonlardan xoli bo'lgani uchun ham shunday atalgan bo'lishi mumkin. Qishloqning shimol tarafida shifobaxsh suv chiqadigan joy va tabiiy muzxona bor. Bu shifobaxshlik xususiyatidan din arboblari ustalik bilan foydalanganlar va o'sha yerni boylik to'plash manbaiga aylantirganlar. Yuqoridagi afsonalar haqiqatga juda yaqin. Qishloq hamma tomondan tog' bilan o'ralgan, xotirjam yashash mumkin bo'lgani uchun ham unga Tinxona, Omonxona deb nom bergan bo'lishlari mumkin.

**Sariqamish** — qishloq ikki xil nomlanishiga sabab eskidan hunarmandchilik rivojlanib, bo'yra to'quvchilar (bo'yra esa qurigan qamishdan to'qilgan) markazi bo'lganligidir. Qishloqning shimolidagi changalzorlarda o'sadigan qamishzorga nisbatan — qamish, changalzor qurigach bu yerdagi qamishlar uzoq vaqt sarg'ayib yotishiga nisbatan sariq, ya'ni Sariqamish bo'lib qolgan.

**Qizil to'lqin** — 40-yillarda qurilgan qishloq. Dastlab bu yer «Qizil to'lqin» kolxozi hududi bo'lgan va aholi kelib joylashgan. Kollektivlashtirish to'lqini ommaviy tus olganligi uchun shunday nom olgan.

**Qayroq** — tog'liq qishloq. Tog'ning etagida joylashganligi uchun bu yerda tabiiy sharoit natijasida toshlar silliqlashib, mehnat qurollarining tig'ini o'tkirlash uchun ishlatilgan. Shuning uchun bu yerdan qayroq toshlar ko'plab olib ketilgan. Balkim qayroq tosh ko'p uchraganligi uchun shu nomni olgan bo'lishi mumkin. Natijada qishloq shu nomni olgan.

**Qo'rg'oncha** — uzoq tog'liq qishloq bo'lib, kichik qo'rg'on degan ma'noni beradi. Aytishlaricha, bu atrofda ikkita qo'rg'on bo'lgan. Bittasi mustahkam katta qo'rg'on bo'lgan, ikkinchisi kichkina. Bir kuni tabiiy ofat natijasida qattiq sel kelib, katta qo'rg'onni olib ketgan. Kichik qo'rg'on esa chetroqda bo'lgani uchun omon qolgan.

**Qilichbot** — bu joy shu yerning ko'rinishiga qarab berilgan. Agarda biron balandlik joydan qishloqqa nazar solinsa, uy va bog'lar cho'zilib qilichga o'xshab ketadi.

**Qo'shbuloq** — ikki buloq suvining qo'shilishiga qarab nomlangan. Zarang buloq bilan Ko'kbuloq o'rtasida joylashgan. Buloq o'rtasi sero't, ajoyib yaylov. Bu yer yashash uchun qulay bo'lganligi sababli qadimdan aholi istiqomat qilgan. Demak, qo'shbuloq nomi bilan Yangiobod qishlog'i vujudga kelgan. Hozir ham shu nom bilan ataladi.

**Morbuloq** — ajoyib, manzarali yaylov markazidagi buloq nomi. Aytishlaricha, shu buloqdan kechaning ma'lum paytida katta bir ilon chiqib turar



ekan. Tasodifan uni bir kishi ko'rib qolib, yuragi yorilib o'lganmish. Shundan so'ng, bu buloq morbuloq, ya'ni ilonbuloq deb atala boshlagan. Shu nom hozir ham saqlanib qolgan.

**O'rtabo'z** — markazdagi qo'riq degan ma'noni bildiradi. Chunki qishloq atrofi katta suvsiz tekislikdan iborat. O'sha qishloq joylashgan hududgina o'zlashtirilgan bo'lib, o'rtabo'z, ya'ni markaziy bo'z yer deb atalgan. Keyinchalik boshqa yerlar ham o'zlashtirilgan, ammo qishloqning nomi o'rtabo'z bo'lib qolgan.

**Selga** — Surxondaryo viloyatidagi Bobotog' etagidagi dara va qishloq nomi. Ko'klam paytida sel keladigan soylik va shuningdek dara og'zida sel kelgan loyqa chirindi qumlardan hosil bo'lgan unumdor yerlar «selga» yoki «selcha» yerlar deyiladi.

**Gilambop** — Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi qishloq nomi. Tojikcha gilambop — gilam to'quvchi demakdir. Gilambopli degan urug' ham bo'lgan.

**Guliob** — Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi qishloq nomi. Guliob, gulob — atirgul suvi. Ilgari atirgul bargini qaynatib, bug'latib tayyorlangan xushbo'y suv gulob deyilgan. Ko'chma ma'nodagi toponim, ammo hozir qishloqda «gulob» tayyorlanmasa ham atirgul ko'p o'sadi.

#### **4. Samarqand viloyati toponimikasi va uni o'rganish**

O'zbekiston tarixi kursidagi «Temur davlatining tashkil topishi» deb nomlangan mavzuni o'tish jarayonida Samarqand viloyati kolxoz, sovxoz, qishloq tumanlari toponimikasini o'rganish va undan darsda foydalanishga bag'ishlangan namunaviy dars rejasi.

Darsni tashkil qilish: a) sinfnig darsga hozirligini kuzatish: b) o'quvchilar diqqatini darsga jalb qilish.

O'tilgan mavzu: «XVI asrda madaniyatning rivojlanishi» mavzusi yuzasidan o'qituvchi o'quvchilardan so'raydi, o'tilgan mavzuga qishacha yakun yasab, yangi mavzuni boshlaydi.

**Jom qishlog'i** — Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qishloqning nomi. Bu so'z fors tilidan olingan bo'lib, qadah, metallardan yoki sopolidan yasalgan idish demakdir. Chunki qishloqning hamma tomoni tog' bilan o'ralgan bo'lib, xuddi jomga, ya'ni kosaga o'xshaydi. Jom deyilishining boisi ham ana shu o'xshashlikdan kelib chiqqan.

**Kattaqo'rg'on** — Samarqand viloyatiga qarashli shahar. Zarafshon vodiysining tekislik qismida, Narpay arig'ining chap sohilida, dengiz sathidan 485 metr balandlikda joylashgan. Ko'pgina arxeologiyaga oid qazishma ishlari olib borilganligi natijasida Kattaqo'rg'onida ko'pgina ossuariy, ya'ni ostadonlar (sopol tobutlar) topilgan. Tobutda suyaklar, dafn marosimining urf-odatlarini tasvirlovchi rasmlar saqlanib qolgan. Kattaqo'rg'on yaqinida qadimgi Rabinjon shahri qoldiqlari topildi. Rabinjon shahrini XII asrda Xorazm xoni talab, vayron qilgan. Kattaqo'rg'onning eski shahar qismi XVII asrning so'ngida vujudga kelgan. XVIII asrda katta shaharlar qatorida hisoblangan. Shahar qalin paxsa devor bilan o'rab

olingan, uning to'rtta darvozasi bo'lgan. Shahar katta bo'lganligi uchun ham Kattaqo'rg'on deb nom olgan.

**Nurota** — Samarqand viloyatiga qarashli tumanlardan biri bo'lib, shu nom bilan ataluvchi tuman markazidir. Tuman tog' bilan o'ralgan, xushtabiat, go'zal manzarali joydir. Nurota tumanining tashkil topish tarixi haqida ba'zi bir afsonalar saqlanib qolgan. Shu afsonalarga qaraganda, dastlab uning hududida hech kimsa yashamagan. To'rt tomoni tog' bilan o'ralgan, suvsiz bir sahro ekan. Savdogarlarning karvon yo'li shu yerdan o'tar ekan. Kunlardan bir kuni karvondan bir chol adashib, qolib ketibdi. CHO'ning jazirama issig'iga dosh berolmay suv izlab ko'p yo'l bosibdi. Oxiri bir baland qirga etib kelibdi. Chol qirning tepasiga chiqib atrofni kuzatibdi. Shunda uning ko'ziga qirning yonida ko'karib turgan bir tutamgina o't ko'rinibdi. Chol oldin shunday yozning jazirama kunida ko'karib o'sib turgan o'tni ko'rib hayron bo'libdi. Qirdan tushib, o'tga yaqinlashib kelgan sari u namlikni sezibdi. Keyin o't atrofini qo'li bilan kovlab ko'rgan ekan, ozgina kovlagandan keyin loy chiqibdi. Chol charchashni ham bilmay kovlayveribdi. Shunda kovlagan yeridan jimirlab suv chiqibdi. Chol bundan juda ham xursand bo'lib ketibdi. U kovlab suv chiqargan joyning atrofini tosh bilan o'rab, shu yerda yashay boshlabdi. Bu yerdan o'tayotgan savdogarlar shu qir atrofida to'xtab, bir-ikki kun dam olib suv ichib, keyin ketishadigan bo'libdi. Cholning oti Nur bo'lgan ekan. Undan minnatdor bo'lgan odamlar uni hurmat qilishib Nurota deb murojaat qilishar ekan. Shu-shu suv chiqqan joyga «Nurota bulog'i» deb nom bilibdi. Vaqt o'tishi bilan bu joyga odamlar kelib yashay boshlabdi. Hudud kengayibdi. Bu yerga buloq nomi bilan Nurota deb nom berilibdi.

**Narpay** — Samarqand viloyatiga qarashli tuman. 1926 yili tashkil topgan. Markazi Mirbozor bo'lgan. 1939 yili markaz Oqtosh posyolkasiga ko'chirilgan. Tuman o'rtasidan Narpay arig'i oqib o'tadi. Tuman nomi shu ariq nomi bilan ataladi. Ariq Kattaqo'rg'on suv omboridan boshlanib, Navoiy tumanigacha oqib boradi. Bu ariq dasht joylarni sug'orish uchun qazilgan; chuqurligi 20 metrcha, eni esa 25 metr. Vaqf hujjatlarida ta'kidlanishicha, Narpay so'zi fors tilidan olingan bo'lib, nor-tuya, poy-qadam degan ma'noni anglatadi. YAna bir joyda nor — erkak tuya, demak, poy — katta qadam, ya'ni Katta tuya nomiga qo'yilgan, deyishadi. YAna bir hujjatda shunday deyiladi: ko'chmanchi qabilalarning nor tuyasi yo'qolgan, tuyani shu dashtda o'tlab yurganda topishgan. Bu dasht boshqa dashtlarga qaraganda sero't, chorva mollarining yashashi uchun qulay bo'lganligi tufayli bu yerlarda xalq chorvachilik bilan shug'ullangan. Keyinchalik esa odamlar bu yerlarda o'troq holda yashab hayot kechira boshlaganlar.

Narpay tarixiy hujjatlarda va arab geografi ibn Havqal asarlarida Nahri pay shaklida tilga olingan. V. L. Vyatkin vaqf hujjatlarini o'rganib, Sug'dning eng obod qismini sug'orib kelgan bu ariqning nomi aslida Nahri pay ekanligini isbot qildi. Nahri pay (naxr — arabcha «ariq-kanal») — bora-bora Narpay (mahalliy talaffuzda Norpoy) bo'lib ketgan. Sal yuqoridagi Zarafshondan boshlanadigan Payariq arig'i Narpay nomining turkiycha shaklidir.

**Beshqozoq** — Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloq. Qishloqning kelib chiqish tarixini tuman arxividagi manbalardan ham bilish mumkin. Qishloq 500 yil ilgari paydo bo'lgan. Bu qishloqning o'rnini bundan 500 yil ilgari cho'l bo'lgan. CHO'lga ko'chmanchilar va chorvador qabilalardan beshta tuyachi qozoq kelib, o'zining qora chodirini qurib, yashay boshlagan. Bu yerlar yashash uchun qulay, suv manbai quduq bo'lgan. Suv 11 —12 metr chuqurlikdan chiqadi. Keyinchalik har yerdan odamlar kelib o'rnasha boshlaganlar va bu joy qishloqqa aylangan. Qishloqning nomi qadimdan joylashib qolgan «beshta qozoq» so'zidan olingan. O'shandan beri «Beshqozoq» deb ataladi.

**Urgut** — Samarqand viloyatidagi tuman nomi. Urgut tarixi tosh asrlardan boshlanadi. Urgut toponimikasi etimologiyasiga olimlarimiz ko'p yillardan buyon qiziqib keladilar. Mashhur rus sharqiyshunos olimi V. L. Vyatkin mang'itlar hukmronligi davridan boshlab tarixiy hujjatlarda uchraydigan Arkut qishlog'i Urgut deb atala boshlaganini aytadi. Ikkinchi toponimist S. Qoraev o'zining «Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?» asarida bu nomning ma'nosi aniqlanmaganini qayd etadi. Ayrim kishilar esa Urgut nemis tilida yaxshi soat, yaxshi havo degan ma'noni anglatadi, deyishadi va o'z fikrlarining isboti sifatida rivoyatlar aytishadi. Ba'zilar Urkentni ur — o'rta, kent — shahar, qishloq so'zining buzilishidan kelib chiqqan, deyishadi. Biz esa Vyatkinning Urgut so'zi mang'itlarning davrida paydo bo'lgan degan fikrlarini, o'sha davr tarixchisi Muhammad Yoqubning «Gulshan ul-mulk» asarida Urgut to'g'risidagi so'zlarini, geograf olim N. G. Mallitskiyning Farg'ona vodiysidagi Mang'it g'ori to'g'risidagi ma'lumotlarini hisobga olib, Urgut toponimi mang'itlarning hukmronligi davrida paydo bo'lgan, degan so'zlarini e'tirof yetgan holda, V arabcha Urgut — ofat, falokat, ya'ni yalang'och, ochiq, ship-shiydon bo'lgan joy, degan ma'noni bildirishini aytmoqchimiz. Lekin Urgut toponimi etimologiya-sini aniqlashga hali nuqta qo'yilgan emas. Urgut tuman 1926 yilda tashkil topgan. Urgutliklar hozirgacha o'z tamakisi bilan mamlakatimizda mashhur.

**Jumabozor** — Samarqand viloyati Urgut tumanidagi qishloq nomi. Urgutdan 4 kilometr pastroqda joy-lashgan. Rivoyatlarga qaraganda, qadim zamonlarda Juma-bozorda odam yashamagan. U yerlar qamishzor bo'lgan. Keyinchalik Jumabozorga ikkita odam kelib qamishdan o'zlariga uy yasab olishgan. Mol boqib tirikchilik qilishgan, chunki bu yer chorvachilik uchun qulay bo'lgan. Shuning uchun bu erga asta-sekin odamlar yoz vaqtlarida kelib turadigan bo'lishgan. Bora-bora odamlar ko'payib, dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshlaganlar. Suv kam bo'lganligi sababli Uramas qishlog'idan o'tadigan ka-naldan Jumabozorga suv olib kelishgan. endi bu yerda odamlar dehqonchilik qila boshlaganlar. Lekin bu yerda hali bozor yo'q edi. Haftaning har yakshanba kuni Bog'izog'on qishlog'ida bozor bo'lgan. Bu bozorga borib kelish Uramas, Jumabozor, Uroqbayjar qishlog'ida istiqomat qiluvchi odamlarga uzoqlik qilgan. Shuning uchun odamlar xdr jumada bozor qilishga ruhsat olishgan, Shu bilan qishloqning nomi xdm Jumabozor bo'lib ketgan. Hozir xdm bu qishloqning nomi Jumabozor,

**Sultonobod** — Samarqand viloyatidagi qishloq nomi. Qishloqning Sultonobod deb atalishiga sabab, ba'zi bir keksa otaxonlarimizning so'zlariga qaraganda bu yerda Sulton degan kishi o'tgan. Usha vaqtlarda bu yerlar cho'libiyobon bo'lib yotgan. Sulton bu yerga ko'pgina kishilarni to'plab, suv chiqargan hamda serhovuzlar qazishgan, imoratlar qurishgan. Shu tariqa qishloqni obodonlashtirishgan. Ana shuning uchun bu qishloq shu kishining nomi bilan Sultonobod bo'lib qolgan.

Ba'zi bir kishilarning aytishicha, Sultonobod Buxoro amirining sayohatga o'tadigan yo'lida bo'lgan. Buxoro amiri ovga ketayotganda shu yerga tushgan. Bu yerda Sulton degan kishining saroyi bo'lgan. Shunda amir boboni chaqirib, unga «bu erni rabod qiling» deb aytgan. Rabod so'zi tojikcha so'z bo'lib, obod degan ma'noni bildiradi. Shundan so'ng, shu kishining nomi bilan Sulton rabod bo'lib ketgan. Ko'p vaqtlar o'tishi bilan qishloq tobora obodonlashtirilgandan so'ng Sultonobod deb atala boshlangan.

**Qorakissa** — Samarqand viloyatidagi qishloqlardan biri. Qishloqning o'tmishiga to'xtaladigan bo'lsak, uning tarixi mashhur. Qo'rg'on qishlog'i tarixi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham avvalo Qo'rg'on qishlog'i tarixi ustida to'xtalamiz. Qadim davrlarda yashagan qabilalar bu yerda Qurg'on barpo qilishib, yov bosib kelganda unda jon saqlashgan. Bora-bora Qo'rg'onga kishilar ko'plab o'rnasha boshlaganlar. Shunday qilib, Qo'rg'on qishlog'i bunyodga kelgan. Bu qishloq Nurotadan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Uning aholi yashaydigan yirik manzil bo'lganligini quyidagi taxminlar bilan tasdiqlash mumkin. Birinchidan, hozirgi Qo'rg'on qishlog'idan ikki kilometr g'arbroqda kichik Rabod degan qishloq bo'lgan. Ma'lumki, o'rta asrlarda shaharning tashqarisi rabod deb aytilgan. Balki Qo'rg'onning chetki qismi hozirgi Rabod hududigacha yetgan bo'lishi mumkin.

Qorakissa qishlog'ining bunyodga kelishi shunday bo'lganki, taxminan XVI asrning oxiri — XVII asrning boshlariga kelib Qo'rg'on qishlog'i atrofidagi aholi tarqalib keta boshlagan. Bunga qurg'oqchilik sabab bo'lgan bo'lsa kerak. Shulardan bir guruhi janubroqqa Oqtog' tomonga siljigan. Chunki suv tog'dan kelgan. Suv kamaygach, aholi suvning boshlanishi tomonga siljigan. Bu toifadagi kishilar oq bo'z ko'ylakka qilinadigan cho'ntak og'zini qora mato bilan aylantirib, tikib chiqishgan. Ana shu sabab bo'lib Qorakissa qishlog'i qora kistaliklar (qora cho'ntakliklar) nomi bilan atala boshlagan. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

**Abdal** — Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Abdal — o'zbeklar tarkibiga kirgan etnik guruh.

**Adas** — Samarqand viloyati Urgut tumanidagi qishloq. Kenagas urug'ining bir qismi andas, yana bir qismi kalpis deyilgan. Andas bora-bora adas bo'lib ketgan bo'lsa kerak.

**Achamayli** — Samarqand viloyati Bulung'ur, Urgut tumanlaridagb qishloqlar nomi. Ba'zan Ochamayli, Achamoyli shakllarida talaffuz qilinadi. Qo'ng'iro't qabilasining vaxtamg'ali qismi, kenagas, yuz do'rman, nayman,

qurama, marqa qabilalarining bir urug'i achamayli deb atalgan. Achamayli boshqa «j» lovchi turkiy shevalarda, jumladan, qoraqalpoq tilida, ashamayli shaklida uchraydi. YOsh bolalar minishi uchun ho'kiz yoki qo'tosga uriladigan egar achamay deyilgan. Achamayli (ochamayli) «egarli», «tamg'asi egar shaklidagi urug'» demakdir. etnograf N. A. Aristovning fikricha, achamayli etnonimi ach degan qadimgi qabila nomi bilan aloqador bo'lsa kerak.

**Ayuchi** — Samarqand viloyati Poyariq tumanidagi qishloq nomi. Dashti qipchoq urug'laridan biri parchalanib o'zbek va qirg'izlarning tarkibiga kirgan. Zarafshon qipchoqlarning bir urug'i ayuvchi (ayuchi) deb atalgan. Shundan qishloq nomi olingan, hozir ham shu nom bilan ataladi.

**Badal** — Samarqand viloyati Samarqand tumanida joylashgan qishloq. Badal «chakalakzor», «butazor» degan so'z. Laqay qabilasining kichik bir tarmog'i ham badal deb atalgan. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

**Barlos** — Samarqand viloyat Bulung'ur, Ishtixon tumanlaridagi qishloqlar nomi, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida ham barlos qishlog'i bor. Barlos O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelgan va o'zbeklarning tarkibiga kirgan qabila. Hozirgi vaqtda barloslarning avlodlari Ozbekistonning Chiroqchi, Koson, Shahrisabz, Boysun, Denov, Sariosiyo, Forish, Jizzah Zomin, Marhamat, Xo'jaobod, Ishtixon, Navoiy, Nurota, Urgut, G'allaorol tumanlarida istiqomat qiladilar. «Badoi al-lug'at» asarida barlos so'zi «mard, botir, qo'mondon» deb izohlangan.

**Batal** — Samarqand viloyati Pstdarg'om tumanidagi qishloq. Zarafshon vodiysidagi qoraqipchoqlarning kichikrok urug'i batal deb atalgan Qishloq shu nomdan kelib chiqqan.

**Boyqut** — Samarqand viloyati Narpay tumanida boyqut degan urug' bor. Qishloq o'z nomini shu urug' nomidan olgan.

**Boldir** — Samarqand viloyati Pstdarg'om tumanidagi qishloq, Surxondaryo viloyati Muzrabod tumanida ham shunday qishloq bor. Boldirdo'ng, tumshuq. Boldir degan etnonim ham bo'lsa kerak. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

**Bolg'ali** — Samarqand viloyati Bulung'ur, Narpay, Oqdaryo, Pstdarg'om, Paxtakor, Xatirchi tumanlaridagi qishloqlarning nomi. Sirdaryo viloyati Zomin, Forish, G'allaorol tumanlarida ham shu nom bilan ataluvchi qishloqlar mavjud. Qo'ng'irot, qoraxitoy, yuz qabilalari tarkibidagi urug'lardan biri tamg'asi bolg'a shaklida bo'lganidan bolg'ali deb atalgan. Bolg'a, bolg'ali urug'i boshqird, qozoq va boshqa turkiy xalqlar tarkibida ham tilga olinadi.

**Chelak** — Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan qishloq. Toshkent viloyati Bekobod tumanida ham shunday qishloq bor. Chelak, to'g'risi, chelakli urug'i bo'lgan. Masalan, do'rman qabilasining bir shoxobchasi ko'kchelak deb atalgan. Payariq tumanida Oqchelak degan qishloq bor. Urgut nomlari ko'pincha juft-juft bo'lgan: oq mang'it, qora mang'it, oq qo'yli, qora qo'yli, oq nayman, qora nayman va hokazo. Demak chelak urug'i oq chelak, ko'k chelakka bo'lingan. Ko'rinib turibdiki, mazkur qishloqning nomi urug' nomidan olingan. Hozir ham shu nom bilan yuritiladi.

**Ulus** — Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi qishloq. Ulus so'zining xalq, yurt ma'nolari ham bor: har ulus necha ela va har el necha uymog'a va har uymo haymoq (necha bo'ya) bo'y va urug'ga taqsim qilinur, deb ta'kidlanadi Muhammad an-Narshaxiy asarida. Bu so'zlarning ma'nosidan qat'i nazar, qanjig'ali va qo'shtang'ali urug'larning bir qismi, dahasi ulus deb atalgan, qishloq shu nomdan olingan.

**Xilboshi** — Samarqand viloyati Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. «Xil» so'zining bir necha ma'nosi bor: nav, tur, zot va hokazo. Bu so'z avlod, toifa, urug', irsiyat ma'nolarida ham qo'llaniladi. Masalan, qabristonda bir ajdoddan tarqalgan kishilar dafn qilinadigan joy xilxona deyiladi. Tojik, fors, pushtu (afg'on) tillaridan xil so'zi xel shaklida talaffuz qilinadi. Xilboshi yoki Xeylboshi bo'lishi ham mumkin, chunki Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarida ham bu so'z Xeylboshi sifatida yozilgan bo'lib, avlodning boshi, urug' boshlig'i demakdir. Qishloq nomi shu so'zdan kelib chiqqan.

**Xoncharvoq** — Pastdarg'om tumanidagi qishloq. Xoncharvoq — «Xonning chorbog'i» degan ma'noni bildiradi. Qishloq hozir shu nom bilan ataladi.

**Qoraguzar** — Samarqand viloyatidagi dovon. Suvdan o'tiladigan joy — kechik, guzar deyiladi, tog'dan oshib o'tiladigan joy — dovon ham ba'zi joylarda guzar deb ataladi. Aniqrog'i tog'dan oshib o'tiladigan joy dovon deyiladi. Qorong'i joydan, tog' darasidan o'tilgan joyni Qoraguzar deb ataganlar.

**Talli Barzu** — Samarqand yaqinidagi tepalik: «baland tepalik» (tall — arabcha «tepalik»), bara — so'g'dcha «baland» yoki «Barzu tepaligi») demakdir. Barzu — Firdavsiyning «Shohnoma» dostoni qahramonlaridan biri — afsonaviy pahlavonning nabirasi (Barzu degan ism uzun bo'lyi yoki martabali demakdir).

**Tallak** — Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Tall — tepalik, do'nglik, ak — kichraytirish affiksi, kichik tepalik degan ma'noni bildiradi. Mazkur qishloq nomi shundan kelib chiqqan.

**Taxdso'h** — Samarqand viloyati Nurota tumanidagi tog'. Tahko'h taxt, ya'ni «baland», «yuksak» hamda ko'h — «tog'» so'zlaridan olingan bo'lib, baland tog' degan ma'noni bildiradi.

**Temirqopuq** — Samarqand viloyati Nurota tumanidagi qishloq nomi. Temirqopuq qadimgi so'z bo'lib, «temir darboza» demakdir. Tor daradan o'tgan tog' yo'li turkiycha Temirqopuq, tojikcha Darbandi ohanin, arabcha Bobili hadid deb atalgan va bu tillarning hammasida «Temir darvoza» degan ma'no yotadi. Surxondaryo viloyatidagi Bo'zg'olaxona (Koxlug) darasi, Jizzax yaqinidagi Ilono'tdi darasi ham ilgarilari Temirqopuq deb atalar edi. Demak, Temirqopuq juda qadimiy nomlardandir.

**Tim** — Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloq. Tim juda qadimiy so'z bo'lib, usti yopiq bozor yoki rasta degan ma'noni anglatgan. Arablar kelmasdan oldin O'rta Osiyoda tim deganda har qanday bozor tushunilgan va bu so'zning «bozor» ma'nosi so'nggi vaqtlargacha saqlanib qolgan. Tim so'zi Tojikistondagi Mug' tepaligidan topilgan qadimgi (VIII asr) sug'd yozuvlarida va

arab tilida yozilgan manbalarda uchraydi. Sug'd tilida ham tim «do'kon», «savdo binosi» ma'nosini bildiradi.

Arab sayyohi Equtning (taxm. 1179—1229) yozishicha, Xurosonda tim karvonsaroy ma'nosini anglatgan. Fors lug'atlarida ham tim so'ziga «karvonsaroy» deb izoh berilgan. Mazkur qishloq nomi shundan olingan.

**Toshqoq** — Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloq nomi. Tog'lardagi toshlar orasida yig'ilgan ko'lmak suv toshqoq deyiladi. Qishloq nomi ana shu so'zdan olingan.

**Suluk** — Samarqand viloyati Nurota tumanidagi qishloq nomi. Farg'ona viloyati Oxunboboev tumanida, Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida suvda yashaydigan jonivor — zulukni shevalarda suluk deyishadi. Agar shunday bo'lganda, bu so'z qandaydir boshqa komponent bilan birga qo'shilgan bo'lar edi (Sulukli, Zulukli va hokazo). So'g'd, So'g'diyona o'lkasining dialektal shakli Sulik bo'lgan va mazkur toponimlar shaklida bizgacha etib kelgan bo'lishi mumkin, chunki bu toponimlar aslida So'g'd hududida qayd qilingan.

**So'g'd, So'g'diyona** — Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o'z ichiga olgan tarixiy o'lka. Dastlab eron shahanshoi Doriyning mixxatida (miloddan oldingi VI asr) tilga olingan.

Arab geograflari asarlarida, shu jumladan, Istaxriy asarining AGK, 1, 286, 288, 289, 295 va boshqa betlarida hamda O. I. Smirnova va nemis sharqiyshunosi I. Markvartlarning yozishicha, «so'g'd» so'zi umumeron tillariga xos «sux» so'zidan olingan bo'lib, «yaltiramoq», «yonmoq», «nur sochmoq» degan ma'noni bildiradi. «Giyos al-lug'at» va boshqa qadimiy lug'atlarda suv to'planib qoladigan pasttekislik «so'g'd» deyiladi. Sharqiyshunos V. L. Vyatkin keltirgan ma'lumotlarga qaraganda mahalliy xalq sug'oriladigan, unumdor pastlik yerlarni «sug'ud» deb atagan. Tarixchi olim O. I. Smirnova «Katalog monet s gorodisha Pendjikent» degan asarida sug'ud so'zi tojikcha «so'g'ud», ya'ni «sersuv obod joy» ma'nosini bildiradi, deydi.

**Po'latchi** — Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Po'latchi degan urug' bo'lgan, qishloq o'sha nomdan kelib chiqqan.

**Sanguzar** — Samarqand viloyati Nurota tumanida joylashgan qishloq «Toshloq kechik» ma'nosidagi Sanguzar yoki «toshloq ma'nosidagi Sangzor (qishloq) bo'lsa kerak.

**Sanjarfag'on** — Urta asrlarda Samarqand yaqinida qurilgan qishloq. O. I. Smirnovning fikriga qaraganda, bu nom ikki qismdan iborat: sangarama — «monastir» va fag'an «ibodatxona» (O. I. Smirnova, «Mesta domusul'manskix kultov», 94-bet).

**Saronan** — Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloq nomi. Tojikcha saronan jon boshidan olinadigan soliq. Saronon (saronagan) soliqlar, saron so'zining «harbiylar», «sarkardalar» degan ma'nosi ham bor. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

**Sebiston** — Samarqand viloyati Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. Tojikcha seb — olma, Sebiston — olmazor. Toshkent shahrida Sebzor toponimi ham bor.

**Sinchi** — Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Otni yaxshi biladigan kishi sinchi deb atalgan. Hozir ham shu nom saqlangan.

**Suluvqo'rg'on** — Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloq. «Suluv» so'zi toponimlar tarkibida ko'proq uchraydi. Masalan, Jizzax viloyati Zomin tumanida Suluvjo'na degan joy bor (jo'na — uzunasiga cho'zilgan tepalik), chiroyli tepalik degan ma'noni anglatadi. Qadimgi chiroyli qilib qurilgan qo'rg'onni suluvqo'rg'on deb atashgan. Shu qishloq o'rnida VI asrda qurilgan qo'rg'on qoldiqlari topilgan.

**Nog'oraxona** — Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloq. Saroylarda musiqa asboblari (nog'ora, karnay, surnay) saqlanadigan va shu asboblarning ijrochilariga mo'ljallangan maxsus joy nog'oraxona (nakkoraxona) deyilgan. Saxnaga o'xshagan bir tomoni ochiq xonada maqomlar, har xil kuylar ijro etilgan. Qishloqdan nog'orachilar ko'p chiqqanligidan qishloq shu nomni olgan bo'lishi mumkin.

**Ovxona** — Samarqand viloyat Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. «Ov» qilinadigan joy yoki «suv ombori» (obxonona) ma'nosida bo'lsa kerak. Obxonona — ovxonona bo'lib buzilib ketgan bo'lishi mumkin. Aslida suv ombori ma'nosi haqiqatga yaqin.

**Orlot** — Samarqand viloyat Ishtixon, Nurota tumanlaridagi qishloqlar nomi. Orlot — Chingizxon o'z o'g'li Chig'atoyga taqdim yetgan to'rtta Mo'g'ul qabilasidan biridir. Bu qabila hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismiga o'rinish qolgan. Movarounnahrda orlotlar kam bo'lsa ham nufuzli qabilalardan hisoblangan, deb ta'kidlaydi o'zining «Ocherklari»da B. X. Karmisheva. Orlot qabilasi 92 bo'li o'zbek «qavmlari» qatorida ko'plab tarixiy manbalarda tilga olingan. Qabila pilot, olot shakllarda ham talaffuz qilingan. Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi Olot qishlog'i ham o'sha etnonimdan olingan.

**Oytamg'ali** — Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloq. Oqdaryo, Payariq tumanlarida, Jizzax viloyatining Forish tumanida Oytamg'ali, do'rmon, qipchoq, kurma, qo'ng'iroq kabi o'zbek qabilalari tarkibiga kirgan urug'lar bor. Ulug' tamg'asi yangi oy (taqa) shaklida bo'lgan uchun Oytamg'ali deb atalgan. Qishloq ham shu nom bilan atalgan.

**Oqqo'yli** — Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Oqqo'yli — urug' nomi. Qoraqo'yli nomlar ham mavjud.

**Og'aliq** — Samarqand viloyati Samarqand tumanidagi qishloq va tog' nomlari. To'g'risi, Ohaklik bo'lgan. Chunki, bu tog'dan XIV — XV asrlarda Samarqandda jome' masjid qurish uchun ohaktosh qazib olingan. Shu bilan birga og'alik degan ijtimoiy atama bo'lgan. Farg'ona vodiysida esa og'alik degan urug' (etnonim) qayd qilingan.

**Mavlush** — Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi qishloq nomi. Qo'ng'iroq qabilasining bir urug'i mavlish deb atalgan (I. Magidovich). Qishloq nomi mana shu so'zdan kelib chiqqan.

**Mojor** — Samarqand viloyati Narpay va Paxtachi tumanlaridagi qishloqlarning nomlari mojar (mojar) — o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan



biri. Ular XIX asr boshlarida Samarqand atrofida tog' yonbag'irlarida, Narpay arig'i bo'ylarida, Shahrisabz vohasida yashaganlar. Ba'zi bir olimlar mojarlar Vengriyaning asosiy aholisi mad'yarlar bilan qon-qarindosh deb hisoblaydilar.

**Minglar** — Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi Kattaming, Kattaqo'rg'on tumanidagi Mingqishloq, Sirdaryo viloyati G'allaorol tumanidagi ming urug'i yashaydigan qishloq nomlari. Ming (mingli) o'zbek xalq tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biridir. 1917 yilgacha minglarning ko'pchilik qismi Farg'ona vodiysi hamda Buxoro vohasida, tarqoq holda Surxondaryo viloyati Boysun, SHerobod tumanlarida, Xorazmda va Tojikistonning Xisor tumanida yashagan. Minglarni ba'zan tumon yoki tumonming deb ham ataganlar.

**Misr** — Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloq nomi. Amir Temur Samarqand atrofida bir necha shaharlar qurib, ularni chet mamlakatlarning bosh shaharlari nomi bilan Bag'dod, Dimishq (Damashq), Misr (Qohira), SHeroz va Sultoniya deb atagan.

**Kamongaron** — Samarqand viloyati Urgut tumanidagi qishloq nomi. «Kamon ustalari» demakdir. Ohangaron — «temirchilar», «So'zangaron» — «nina ustalari» ana shu turdagi toponimlardir. (3. Dusimov kamongaron toponimlarni kom (katta ariq) — ango (angiz) so'zlaridan va-on affiksidan iborat deb izohlaydi).

**Kasovli** — Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Qo'ng'iroq qabilasining bir shoxobchasi kesavli deb atalgan (tamg'asy kosov shaklida bo'lgan), qishloq nomi shu so'zdan olingan.

**Kovon** — Samarqand viloyati Pstdarg'om tumanidagi qishloq nomi. etimologiyasi noma'lum. Zarafshon vodiysida yashaydigan qoraqipchoqlarning bir urug'i kovon deb atalgan.

**Koreys** — Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq. Koreys qishloq Poyariq tumanida ham bor. O'zbekistonga koreyslar 1920 yildan ko'chib kela boshlagan. Ular yashagan joylarni koreys qishlog'i deb ataganlar.

**Ko'kqarg'a** — Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloq. Qarg'a urug'i ko'k qarg'a, qora qarg'a kabi tarmoqlarga bo'lingan bo'lsa kerak.

**Ko'kqovg'a** — Samarqand viloyati Nurota tumanidagi qishloq. Qo'ng'iroq qabilasining bir urug'i qavqa deb atalgan. To'g'risi qovg'a bo'lsa kerak. Qovg'a — quruqdan suv tortadigan charm idish. Osmondagi 12 burjdan biri — dalv yulduzlar turkumi ham qovg'a deyilgan. Idish-tovoq, uy-ro'zg'or asboblari nomlari bilan atalgan urug'lar kam emas. Masalan, boltali, bolg'ali, cho'michli, kosovli va hokazo. Ko'kqarg'a — qovg'a (to'g'risi qovg'ali) urug'ining bir tarmog'i.

**Og'aliq** — Samarqand shahridan 20—22 km masofada joylashgan oromgoh. Hozirgi kunda u yerda turistik baza joylashgan. Bu yerdan to 1920 yillarga qadar samarqandliklar ohak olib ketishgan, shu sababdan bu joyni ohakli deb atashgan. Keyinchalik ohakli so'zi buzilib, joy ma'nosiga mos kelmaydigan nom — Og'aliq deb atala boshlagan. Hozir xdm shu nom bilan yuritiladi.

**Loyqa** — Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tog'lardan sel olib kelgan jinslardan xosil bo'lgan maydon loyqa deyiladi. Lekin bu qishloq Bulungur arig'i yoqasida joylashgan. Bulung'ur Mo'g'ul tilida «loyqa suv»

demakdir. Demak, loyiqa bilan Bulung'ur «adash» nomlardir.

**Zambar** — Samarqand viloyati Nurota tumanidagi tog. Biron narsaning o'rta qismi chuqur, ikki chekkasi baland bo'lsa zambar (zanbar, zambil) deyiladi. Masalan, zambarbel (zambilbel) ot.

**Zanjirbog'** — Samarqand yaqinidagi qishloq. Arab jug'rofiy olimlarining asarlarida Samarqand viloyatining 12 rustaqlaridan biri Sanjarfag'n deb atalgan. Sanjarfag'n toponimi Yangiariq arig'ining o'ng tomonidagi Zanjirbog' qishlog'i nomida saqlanib qolgan vaqf hujjatlarida «Sanjarfag'n degan joy Zanjirbog' nomi bilan mashxurdir», deyiladi. Sanjarfag'n nomi qomponentdan iborat, sangarma — sanskritcha «budda monastiri» va fag'n (vag'i) «ibodatxona» so'zlaridan tashkil topgan.

**Ishtixon** — Samarqand viloyati Ishtixon tumanining markazi. Rivoyatga ko'ra, Samarqanddan Ishtixongacha maxsus quvurda oqizilgan qimizdan podsho totib ko'rgan emish, xalq o'shanda «Qimizni ichdi xon, xon ichdi» degan emish. Shundan buyon qishloq Ichta xon, keyinchalik Ishtixon bo'lib qolgan emish. Ishtixon O'rta Osiyodagi eng qadimiy toponimlardan biri. X asrdayoq Ishtixon kattagina shahar bo'lgan. O. I. Smirnovaning fikricha, Ishtixon so'zi sug'dcha «Sakkiz ariqli», «Sakkiz kanalli» ma'nosini bildiradi. Isht — xasht — sakkiz, xon — ariq, demak sakkiz ariq degan ma'noni bildiradi. Qishloq shu so'zdan olingan.

**Yo'g'otepa** — Samarqand viloyat Ishtixon tumanidagi qishloq. Toshkent yaqinida ham Yo'g'ontepa degan joy bor (yo'g'on — katta, semiz, ulkan demakdir; ingichka nomli joylar ham bor). Yo'g'ontepa — katta tepa degan ma'noni anglatadi.

**Kavsar** — Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Aslida biron-bir suv — buloq yoki ko'l nomi bo'lsa kerak. Qishloq suvi shirin bo'lganligi sababli «jannat suvi» — «jannat bulog'i» degan nom olgan.

**Gumbaz** — Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Qubbali bino gumbaz deyilgan, shu bilan birga toza suv saqlanadigan sardobalar ham usti pishgan g'ishtdan gumbazli qilib ishlanganligi sababli qishagina gumbaz deb atalgan. Qishloq nomi ham o'sha so'zdan olingan. Zarafshon vohasida yashaydigan qora qipchoqlarning bir urug'i gumbaz deb yuritilgan va qadimdan Pastdarg'om tumanida yashab kelgan.

**Go'rxokasoy** — Samarqand viloyati Nurota tumanidagi soy. Go'rxona mozor, qabriston degan ma'noni anglatadi; qabristonga o'xshagan joydan o'tganligi sababli soyga ham Go'rxonasoy deb nom berilgan.

**Davlatobod** — Samarqand viloyati Samarqand tumanidagi qishloq nomi. Temurning Samarqand shahridagi bog'laridan biri Davlatobod nomi bilan atalgan. Buning o'rnida tashkil topgan qishloq ham o'sha Temur bog'ining nomi bilan Davlatobod deb nomlangan.

**Dahbed** — Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi qishloq. Tojikcha — dah — o'n, bed — tol, ya'ni o'ntol degan ma'noni anglatadi. Qishloq ham shu nom bilan yuritiladi.

**Deybaland** — Samarqand viloyati Nurota tumanidagi qishloq nomi. Tojikcha Dehibaland baland joydagi qishloq, ya'ni baland qishloq degan ma'noni bildiradi. Qishloq shu nom bilan ataladi.

**Dukchilik** — Samarqand tumanidagi qishloq. Bu yerda dukchilik (yikchilik), bo'z to'qish uchun duk (yik) yasash kasbi bilan shug'ullanishgan. Shu sababdan kishlok shu nomni olgan.

**Jaylov** — Samarqand viloyati Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. Jaylov — yaylov so'zining shevada talaffuz etilishi. YAylov asli yozda mol-qo'y boqiladigan joy demakdir. Qishloq nomi o'sha so'zdan olingan.

**Jalpaqteva** — Samarqand viloyati Urgut tumanidagi qishloq. Ba'zilar yalpoqtepa deb to'g'ri talaffuz qiladilar. O'zbek-qipchoqlar tepa deyish o'rniga «teva» deb talaffuz qiladilar. Qishloqda jarat urug'i yashagani uchun uni Jarat ham deyishadi. Yalpoq tepani yerli xalq shevasida Jalpoqtepa deyishadi.

**Jo'gi** - Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloq nomi. Jo'gi — O'rta Osiyo lo'lilarining bir qavmi. Jo'gi so'zining «qashshoq», «kambag'al» ma'nosi ham bor.

**Dapsan** — tog' yonbag'ridagi tekis maydoncha, supa degan ma'noni anglatadi. Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanida Dapsan degan qishloq bor. Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumanida Jo'gidapsan degan tepalik ham bor.

**Qo'shxavut** — Samarqand viloyati Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. Shu qishloqliklar va Nurota tumanining qo'shni qishloqlarida yashaydiganlar hovuzni «hovut» deyishadi. Hovuz so'zi o'zbek tilining barcha shevalarida arabchaga aslida yaqin shakllarda («ovuz», «avuz» deb) talaffuz etiladi. Qishloqda ikkita hovuz bo'lganligi sababli yerli xalq Qo'shhovuz — Qo'shhavut deb atay boshlaganlar.

**Gonchi** — Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi ariq va Tojikiston Jumhuriyati Xo'jand tumanidagi qishloq nomi. Gon (gonchi) so'zi tarixiy manbalarda, jumladan Alisher Navoiy asarlarida ko'p uchraydi. Gonchi — it g'ajib uzmasin uchun o'ning arqoniga bog'lanadigan yog'och, jun to'qimini tishlab iflos qilmasin uchun otning bo'yniga bog'lanadigan tayoq ham gonchi deyiladi.

**Afrosiyob** — Samarqand shahrining dastlabki nomi. Hozir arxeologiyaga oid kurikxona shu tepalikdan topilgan arxeologiyaga oid topilmalar Samarqandning yoshini aniqlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Sug'dcha par siyov (par siyoh ob) — qora suv tepaligi degan ma'noni bildiradi. YA. G'. G'ulomovning fikricha, Solor, Kaykovus, Zolariq va Afrosiyob nomlari «Shohnoma» kitobi ta'siri ostida maydonga kelgan bo'lsa kerak.

**Varaksar** — Samarqand yaqinidagi Robotxoja qish-log'ining oldingi nomi. Bu so'z «varg», «bandivarg» shaklida Rudakiy asarlarida ham tilga olingan, Varaksar «to'g'on boshi» demakdir. Haqiqatan ham o'rta asrlardayoq bu qishloq yonida Zarafshonga to'g'on qurilib, daryo suvi uch tarmoqqa bo'lingan. Bu ariqlar keyinchalik Darg'om, Abbas va Qoraunus deb atalgan. Yaqin vaqtlargacha Zarafshon vodiysidagi Barkbon shahri yaqinidagi Varakdex — To'g'on qishlog'i bo'lgan. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

Shunday qilib o'qituvchi keltirilgan tarixiy-geografik joylarning nomlari va toponimlaryga asoslanib, mazkur darsda Samarqand va uning vohasida juda ajoyib va turli-tuman nomlarning bir guruhinigina ko'rib chiqishga muvaffaq bo'linganini, o'quvchilar ham o'z jonajon maktabi, jamoa va davlat xo'jaligi, qishloq va tuman hududidagi nomlarning kelib chiqishi bilan qiziqishi hamda mana shunday toponimik ma'lumotlar yig'ishi zarurligi, bu esa ularga jonajon o'lka tarixini o'rganishda, mustaqil ijod qilishda olgan bilimlarini chuqurlashtirishda yaqindan yordam berishini ta'kidlaydi.

## **5. Xorazm viloyati toponimikasidan darsda foydalanish**

Xorazm O'rta Osiyodagi eng qadimgi madaniyat markazi serunum vohalardan biri. U hozir paxtachilik sohasidagi erishgan yutuqlari tufayli mash'al viloyatga aylandi. Uning tarixi zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da miloddan avvalgi IX — X asrlarda qayd etilgan.

Bu viloyat tarixi va uning toponimikasi haqida fikr yuritilganda o'quvchilarga, avvalo, «Xorazm» so'zining etimologiyasi haqida batafsil ma'lumot berish zarur.

O'qituvchi bir qator viloyatlar tarixi va uning tuman, qishloq va ovullari nomlarining kelib chiqish manbalari ustida to'xtalar ekan, Xorazm viloyati tumanlari, qishloq va ovullarining nomlari toponimikasiga ham batafsil to'xtalishi lozim. Masalan «**XII — XIII** asrlarda Xorazm davlatining kuchayishi» mavzusi quyidagi mavzuchalarga bo'lib o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Mavzu quyidagi reja asosida bayon etiladi:

a) Xorazmning kuchayishi;

b) Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy va xo'jalik hayoti;

v) Buxoro va Samarqanddagi qo'zg'olonlar. Shundan so'ng o'qituvchi Xorazm viloyati tashkil topgandan to hozirgi kunga qadar bosib o'tilgan tarixiy jarayon va uning kelajagi haqida qishacha ma'lumotlar keltirib, viloyat va uning hududidagi jamoa xo'jaliklari, ovul, qishloq, tuman, shaharlar nomlarining kelib chiqishi haqidagi masalalarga batafsil to'xtalishi lozim.

Biz quyida O'zbekiston tarixi kursini o'qitish jarayonida Xorazm vohasi bo'yicha toponimikaga oid ma'lumotlardan qanday foydalanish mumkin? degan savolga javob berishni maqsad qilib qo'ydik. Toponimikaga oid ma'lumotlardan foydalanib o'tkaziladigan bir soatlik tarix darsining taxminiy rejasi keltiriladi.

Darsni tashkil qilish: a) sinfnig darsga hozirligini kuzatish; b) o'quvchilar diqqatini darsga jalb qilish.

**O'tgan mavzu:** «Turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning shakllanishi» degan mavzu yuzasidan o'quvchilarga beriladigan savollar: a) Xaritadan turkiy tilda so'zlashuvchi o'zbek xalqlarining dastlabki ajdodlari yashagan joylarni ko'rsating; b) Turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar ajdodlari shakllanishini necha boshichga bo'lish mumkin? Har bir boshichga ta'rif bering; v) o'zbek tilining dastlabki shakllanishi qaysi lahja va tillardan kelib chiqqan edi? g) **IX — XII** asrlarda

o'zbek xalqi va uning tilining shakllanish jarayoni xususiyatlarini aniqlang; d) Tilning aniq shakllanishi qaysi tuman, shahar, voha va vodiylarda aniq sezilgan?

O'quvchilar yuqoridagi savollarga javob berganlaridan so'ng o'qituvchi ulardan Xorazmning qaysi hududlarida hozirgacha o'sha turkiy til elementlari saqlanib kelayotganligi va Xiva, Xo'jayli shaharlarining hamda Xorazm so'zi qanday ma'noni anglatishini so'raydi.

Shu savollarga olingan javoblar o'quvchilarning shahar tarixini va uning nomini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Demak, o'qituvchi o'quvchi to'g'ri yoritma Olmagan savollarni to'ldirib, o'tilgan mavzuni yangi mavzuga bog'laydi.

**Yangi mavzu.** «XII — XIII asrlarda Xorazm davlatining kuchayishi».

**Mavzuning maqsadi:** o'quvchilarga Xorazmning qadim-qadimdan ma'lum va mashhur bo'lganligi, Somoniylar davrida yarim mustaqil davlat sifatida uning tarkibiga kirganligi, uning Ma'mun ibn Muhammad davrida qudratli davlatga aylangani, ayniqsa Ma'mun ibn Ma'mun davrida fan va madaniyat g'oyat rivojlanib Xorazm akademiyasi tashkil topganligi tushuntiriladi.

**Darsning tarbiyaviy vazifasi:** Bunda o'quvchilarga Xorazm yuksalgan davrda fan va madaniyatning nihoyatda rivojlanganligi, XI asrning eng mashhur qomusiy olimlari bu yerga jalb etilganligi, bu yerda Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Masihiy, mashhur tabib Abulxayr Hammor, yirik riyoziyun Abu Nosir A'rrak va boshqa atoqli olimlarning Ma'mun ibn Ma'mun akademiyasini yaratganligi so'zlanib, o'quvchilarni o'z avlod-ajdodlariga mehr-muhabbat va ona diyoriga sadoqatli inson bo'lib etishish ruhida tarbiyalashdan iborat.

**Dars o'tish uslubi:** dars og'zaki bayon qilish uslubi bilan olib boriladi.

**Darsni jihozlash:** O'zbekiston xalqlar tarixining IV jildligi A. Asharov tahriri ostida chop etilgan 3 jildlik O'zbekiston xalqlari tarixining 1-jildi, uning 5-sinf uchun yozgan O'zbekiston tarixi, SH. Karimov rahbarligida chop etilgan «O'zbekiston tarixi va madaniyati» (ma'ruzalar to'plami) ko'rsatiladi. O'zbekiston xaritasi atlas va al'bomlardan foydalaniladi.

**Yangi mavzuni o'tish rejasi**

1. Xorazm davlatining kuchayishi.
2. Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy-siyosiy va xo'jalik hayoti.
3. Buxoro va Samarqand shaharlarida bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar.
4. Xorazm hududidagi jamo xo'jaliklari, qishloq va tumanlar nomlarining kelib chiqish tarixi.
5. o'tgan mavzuni zamonga bog'lash.

**Yangi mavzuning konspekti**

Xorazm X asrda Somoniylar davlati tarkibiga kirardi. Somoniylar davlati bo'linib ketgan vaqtda u o'z mustaqilligini saqlab qolishga va Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlatlari tarkibiga kirmay qolishga muvaffaq bo'ldi. Bu davrda Xorazm xo'jalik va madaniy hayotda katta yutuqlarga erishdi. Biroq 1017 yilda Mahmud G'aznaviy qo'shinlarini tor-mor keltirib, uni o'z davlatiga qo'shib oldi. 1240 yilda g'aznaviylar Xurosonni qo'ldan boy bergach, Xorazm Saljuqiylar

davlati tarkibiga kiradi. Saljuqiylar bilan qoraxoniylar o'rtasidagi o'zaro urushlar bu davlatlarning kuchsizlanishiga olib keladi va **XII** asr boshlaridan Xorazm mustaqil davlat sifatida yana taraqqiy eta boshlaydi. Uning hududi unchalik katta bo'lmasada, iqtisodiy jixtdan kuchli va boy edi. Ko'chmanchi turkmanlar, eron, Volgabo'yi va Uzoq Sharqiy bilan olib borilgan savdo-sotiq aloqalarining qizg'in rivojlanishi shunga imkoniyat tug'dirgan edi.

Hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi Xorazmda yuqori darajaga ko'tariladi. Bularning barchasi mustaqillik uchun kurashda qulay shart-sharoitlar yaratdi. 1141 yilda Samarqand yaqinida qoraxoniylar qo'shini bilan ko'chmanchi qoraxitoylar o'rtasida jang bo'ladi. Jangda qoraxitoylarning qo'li baland kelib, g'alaba qozonadilar. Bundan foydalangan Xorazm sultoni Otsiz Marvni bosib oladi. Takesh (1172 —1200) hukmronligi davrida Xorazm kuch-qudratga to'lgan davlat edi. Bu vaqtda davlat hududi eron sharqiy qismining bosib olinishi evaziga ikki marta kengaygan edi.

**Gurlan** — Gurlan so'zining asl ma'nosi hali ma'lum emas. Bu so'zning kelib chiqishi haqida bir rivoyatda shunday deyiladi: bir vaqtlar bu hududga ko'r chol bilan cho'loq kampir ko'chib kelishibdi. Ular juda mohir hunarmand ekanlar. Ular tuzatgan narsalarini bozorga olib chiqib sotar ekanlar. Bozorda hech kimning narsasi o'tmasa ham ularniki bemalol sotilaverarkan. Shunda odamlar ikkalalarida biron sir bor, deb ularning atrofiga kelib joylasha boshlabdilar. O'sha hududni esa «ko'r va lang» deb atay boshlabdilar. Vaqtlar o'tishi bilan bu so'z o'zlashtirilib «Gurlan» bo'lib ketibdi. Xorazm lahjasida k — tovushi ko'pincha «g» shaklida ishlatiladi. Shuning uchun «ko'r» so'zi «gur» shaklida ishlatilib «gurlan» bo'lib ishlatilib kelinmoqda Hozir ham shu nom bilan yuritiladi. YAna bir manbada — «Qadimgi mualliflar O'rta Osiyo haqida» degan kitobda aytishlaricha, qadimgi yunon tarixchisi Gerodot Xorazm haqida ko'p ma'lumotlar yozib qoldirgan. Gerodotning yozishicha, xorazmliklar, girkaniyaliklar, parfiyaliklar bilan bir-biriga yaqin joyda istiqomat qilganlar. Yunon tarixchisi tilga olgan «girkaniya» so'zi qadimgi turkiy yozuvlaridagi «Kurikan» qabilasining nomi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning asrlar davomida fonetik o'zgarishidan «Gurlan» varianti kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin. Ammo bundan Gurlandagi aholining nomi girkanlardan kelib chiqqan ekan, degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Kichik bir ovulning nomi ham yoki oila boshlig'i yoki uning bir a'zosi nomi toponimikada asos bo'lib ketaverishi mumkin.

**Hazorasp** — shu nomli tuman markazi. Hazorasp so'zining ma'nosi quyidagicha: Hazor degani fors-tojik tilida «ming», asp degani “ot” ya'ni ming ot degan ma'noni bildiradi. Hazorasp Xorazmning janubiy chegara qal'asi bo'lib, unda ming otliq saqlangan. Dushman hujum qiladigan bo'lsa, Hazorasp qal'asi zarbani birinchi bo'lib o'ziga olgan. Xivadan madad kelgunga qadar dushman bilan kurashgan. Asta-sekinlik bilan qal'a ichida aholi ko'payib, qal'adan tashqarida o'rnasha boshlagan. Qal'adan bir necha kilometr beriroqda ham qishloq qurila boshlagan.

**Yangibozor** — aholining savdo-sotiq ishlari faqat qal'a bozorida bo'lgan, so'ngra u chekka qishloqlarning birida to'planib, savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Qal'a bozori bilan bu bozorni bir-biridan farq qilish uchun qishloq bozoriga «Yangi bozor» deb nom qo'yishgan. Shu-shu bo'lib qishloqning nomi Yangibozor bo'lib qolgan.

**Qo'shko'pir** — tumani Xorazm viloyatining yirik tumanlaridan biri. Hozirgi kunda tumanda 9 ta qishloq bo'lib, bu qishloqlar nomlarining kelib chiqishi juda qiziq. Quyida biz bu haqda fikr yuritamiz:

**Kenagas** — bu qishloq mahalliy xalq orasida Kanayas deb yuritiladi, chunki hududdan Kanayas arig'i oqib o'tadi. Qishloqning markaziy qismiga Karaman qal'asi deyishadi. Karaman — Xorazmda o'suvchi ulkan daraxt. Qariyalarning so'zlariga qaraganda, bu erda Xiva xonligi davrida mudofaa vazifasini bajaruvchi kichik, o'ziga xos qal'acha bo'lgan. Kenagas degan qabila ham bo'lgan.

**Xadra** — Qo'shKo'pir tumanidagi ikkinchi qishloqning nomi. Xadra so'zining ma'nosi qal'a yoki shaharning cheti demakdir. Xadra qishlog'i Xiva qal'asining shimol tomonida joylashgani uchun ham Xadra nomini olgan bo'lishi mumkin.

**O'zbekyop** — shu tumandagi uchinchi qishloq bo'lib, uning ma'nosini shunday tushuntirish mumkin. O'zbek — shu qishloqda yashovchi xalqning millati. «yop» so'zi xorazmcha bo'lib, ariq yoki kanal ma'nosini bildiradi. Bu qishloq qo'shni Turkmaniston yerlariga yaqin bo'lgani uchun ular bu ariqni o'zbekning yopi, ya'ni arig'i deyishgan. O'zbekyop qishlog'ining markazi Qorovul deb ataladi. Bu so'zni mahalliy sheva tili ma'nosida qora va ovul deb tushunish mumkin, u bora-bora Qoravul bo'lib qolgan.

**Hayrovot** — tumandagi beshinchi qishloq bo'lib, Xiva qal'asining shimoli-g'arbiy tomonida joylashgan. Ma'lumki, rovot — bu darvoza degani. Demak, qishloq Xiva xonligining shimoli-g'arbiy tomondagi darvozasi bo'lgan. Hayrovot balki, odamlar aytganlariday, xayrli darvoza, fayzli darvoza, yaxshi darvoza ma'nolarini bildirishi ham mumkin.

**O'rtayop** — tumandagi oltinchi qishloq, o'rtayop cho'zilib ketgan ariqning o'rta markaziy qismida joylashgan qishloq ma'nosini ham bildiradi. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

**Qatag'on** — tumandagi ettinchi qishloqning nomi. Shevada qatag'on so'zi yo'q. Bu so'z fors tilida — yo'qolgan, qurilgan va topib bo'lmaydi, degan ma'noni bildiradi. Urganch, Shovot va Qo'shKo'pir tumanlari hududiga o'xshash qumlik sahrolar shu qishloqning yo'q bo'lib ketishiga, nomi esa Qatag'on bo'lib ketishiga sababchi bo'lishi mumkin. Suv chiqarish qiyin bo'lgan paytlarda qum barxanlari qishloq yerlarini ko'mib yuborgan, natijada qurg'oqchilik bo'lib turgan. Qatag'on nom albatta bejiz berilmagan. Mahalliy aholi orasida bu qishloq to'g'risida ma'lumotlar deyarli saqlanmagan.

**Qo'shKo'pir** — tumandagi sakkizinchi qishloq bo'lib, hozirgi kunda tuman markazidir. Nomining o'zidan ko'rinib turibdi, qo'sh — juft, ko'pir — ko'prik ma'nosini, ya'ni qo'shma ko'prikli, degan ma'noni bildiradi. Marhum akademik

Muhammadjon Yo'ldoshevning «Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi» degan kitobida bu haqda ancha ma'lumotlar bor. eng avval Qo'shKo'pir qo'sh ko'prik deb nomlangan. U yerda katta G'azovon arig'i bor. Bu ariqning u tomoni bilan bu tomoniga o'tish uchun ikki joyiga katta ko'prik kurilgan. Qo'shKo'pir degan so'z shundan olingan.

**G'azovot** — tumandagi to'qqizinchi qishloq nomi. O'rta Osiyoda suv masalasi og'ir bo'lgani uchun Xiva xonlari ming-minglab odamlarni ariq qazishga safarbar qilganlar. Xon amaldorlari mehnatkash xalq ommasini ayamasdan ishlatganlar. Ariq qazish oddiy xalqqa ko'p mashaqqatlar keltirgan. Bu qishloq esa o'sha G'azovot arig'i bo'yida joylashgan bo'lgani uchun ham G'azovot nomini olgan, degan fikrlar bor.

**Bog'ot** — Xorazm viloyatidagi tuman markazi. Bog'ot etimologiyasini bog'zor, bog'lar, bog' va arabcha ot ko'plik affiksi «arz so'raydigan bog'» so'zi bilan bog'laydilar. Mahalliy xalqning aytishicha «bog'ot» poliz, polizchi degan ma'noni bildiradi.

**Amudaryo** — uni yunonlar hamda rimliklar Oksus yoki Oqsus, arablar esa «Jayhun» (telba) deb ataganlar. Daryoning hozirgi nomi esa Amuya shahri (XVI asr) nomidan olingan; bu shahar keyinchalik Amudaryo deb atala boshlagan.

**Xo'jayli** — XII — XIII asrlarda barpo qilingan. Xo'jayli so'zining leksik mazmuni xo'jarlar, ya'ni katta yer egasi bo'lgan kishilar ma'nosidadir. Xo'jayli so'zini xo'ja eli degan xalq nomidan olingan, deb ta'riflaydi sharqiyshunos olim B. A. Ahmedov.

**Mo'ynoq** — Orol dengizi janubidagi yarim orol, shahar. Mo'yin (bo'yin), oq aslida — ak — «kichik» so'zlaridan yasilib, «kichik bo'yin», «bo'yincha», «yarim orol» ma'nosida.

**Tuyamo'yin** — Amudaryo quyi oqimidagi joy. Sirtidan qaraganda «tuya bo'yini» dek tuyuladi. Aslida tog', daryo va qumlik joylarning tor qismini — yo'lagini «Tuyamo'yin» deb atashgan. Tuyaning qing'ir va tor bo'yniga o'xshatilgan bo'lsa ajab emas.

**To'rtko'l** — Qoraqalpog'iston jumhuriyatining janubidagi shahar. Shaharning yaqin yillarga qadar to'rt tomoni ko'l bo'lgan. Shuning uchun ham shunday nom berilgan. Hozir ham To'rtko'lligicha saqlanib kelmoqda.

Farg'ona vodiysida eng katta, serxosil, qadimdan paxta etishtirib kelayotgan, O'zbekistonning gullagan viloyatlaridan uchitasi, ya'ni Andijon, Farg'ona va Namangan.

**Andijon** — O'zbekistonning xushmanzara va qo'hna shaharlaridan biri. U Farg'ona vodiysining janubi-sharqiyida joylashgan.

Shahar nomining kelib chiqishi to'g'risida bir qancha fikrlar bor. Bir afsonada aytilishicha, shaharning nomi Afrosiyob noibining qizi Andijon nomidan kelib chiqqan deyiladi. Boshqa bir rivoyatda bu so'zning birinchi qismi «Andi» — shaharga asos solgan kishining nomi, ikkinchi — «jon» qismi esa jon degan ma'noni anglatadi, deyiladi. Birovlar qachonlardir bu yerlarni «andi — hind» lar ish'ol qilganlar, bu hindlar makoni deydilar. Yana bir guruh kishilar esa «Andi»



shaharga asos soluvchi, «jon» esa baxsh etmoq demakdir, deyishadi. Yana bir guruh kishilar karvon yo'lida ketayotganda qaroqchilar xujum qilib «O'nta jonni» o'ldirganlar. Andijon so'zi o'nta jon so'zining buzilganligidan kelib chiqqan, deb ta'kidlaydilar. X asrda yashagan arab geografi va sayyohi Ibn Havkal Andijon shahri to'g'risida «Dehqonchiligi rivojlangan shahar, iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham rivojlangan, katta hunarmandlar shahri» deb yozgan.

Andijon shahrining paydo bo'lishi va nomi haqida tarixchilarimiz quyidagicha fikr yuritadilar. Masalan, mashhur tarixchi V. Nalivkin o'zining «Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva» degan kitobida «Andijon» so'zi hozirgi shahar hududida yashagan «andi» qabilasi nomidan olingan, deb ko'rsatadi. «Andi» so'ziga «gan» qo'shimchasini qo'shish bilan «Andigan» yasalgan va keyinchalik bu Andijonga aylanib ketgan, deb yozadi. Shahar IV asrdan V asrgacha Andukon, XII asrdan to XIX asrgacha Andijon deb yuritiladi.

Andijon shahri toponimikasi haqida ba'zi bir tarixchi olimlar, jumladan, S. Jalilovning shu sohadagi fikri ham haqiqatga yaqindir. Yaqin yillarga qadar, hatto hozir ham ayrim kishilar bu shaharni Anjon deb keladilar. Ayrim kishilarning aytishlari bo'yicha O'rta Osiyo chorizm tarafidan bosib olingandan so'ng ruslar «j» tovushi oldiga «d» qo'shib aytishlari natijasida «Anjon» Andijon bo'lib qolgan. Xullas, Andijon shahar tarixi qadimiy yozma manbalarda aniq ta'riflangan bo'lsada, Andijon so'zining etimologiyasi haliga qadar ilmiy ravishda isbotlangan emas.

**Qo'qonboy** — Qo'qonboy qishlog'ining tashkil topish davri qariyalarning va qishloq ziyolilarining shoxidligi bo'yicha, Qo'qon xonligi davriga to'g'ri keladi. Qishloq Toshkent — Andijon temir yo'li va Xo'jand — Qo'qon karvon yo'llari yoqasiga joylashgan. Qishloqdagi katta-katta, eng hosildor yerlar Qo'qonlik boylardan Po'stin-purushboy, Tovoqchiboy, Pichaqchiboy, Olloboy va shu kabilarga qarashli bo'lib, yaqin kunlarga o'sha boylarning nomi bilan atalib kelar edi. Qariya otaxonlarning aytishicha, qishloq yerlari suv boshida bo'lib, yeri juda unumli bo'lgan. Shu sababli bu yerlarni Qo'qonlik boylar egallab olib, chorikorlarga bo'lib bergan va bu yerda asta-sekin aholi to'planib, qishloq paydo bo'lgan. Qishloq asosan Qo'qonlik boylarning yeridan iborat bo'lgani uchun Qo'qonboy deb atala boshlagan degan fikr bor.

**Savay** — 1930 yili tashkil topgan sovxoz nomi. U Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiyidagi Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanida joylashgan bo'lib, Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradoshdir. Bu yer nomining kelib chiqishi quyidagicha bo'lgan. Sovxoz tashkil topmay turib, shu yerga yaqin joyda Isavay degan odam yashagan ekan. U o'z tomorqasiga Qoradaryodan bosh oladigan ariqdan suv ochgan. Keyinchalik mana shu joyda davlat xo'jaligi tashkil topgan, xuddi shu ariq o'rnida kanal qazilgan. Odamlar bu kanalni haligi ariq o'rnidan ochilgani uchun «Isavoy ariq» deb, keyinchalik bu so'z buzilib Savay ariq deb atay boshlangan. «Savay ariq» atrofida tashkil topgan davlat xo'jaligi nomi ham «Savay» bo'lib qolgan. Hozir ham shu nom bilan mashhur. Mo'g'ul urug'laridan biri ham Savay deb yuritilgan deydi B. Ahmedov.

**Xo'jand** — Tojikiston respublikasidagi shahar. 1936 yilga qadar shu nom bilan atalib kelingan. Nima uchun Xo'jand deb atalganligi to'g'risida bir qancha rivoyatlar mavjud.

Bir vaqt Sirdaryo toshib, kechasi bu shaharni suv olib ketgan emish. Podsho Nushirvon mamlakatdagi eng yaxshi odamlarni yig'ib, eski shahar o'rnidan sal naribroqda yangi shahar barpo qilishga buyruq bergan ekan. Shunda oldingi shaharning nomi unutilib, Xo'bchand (tojik tilida bir so'zi chand, yaxshi so'zi — xo'b) deyilgan, ya'ni bir qancha odam kelib o'rnatilgan shahar degan ma'noni bildiradi. Bora-bora, vaqt o'tishi bilan, Xo'bchand so'zi Xo'jand bo'lib ketgan, deyishadi. Yana boshqa bir rivoyatda Xo'jand so'zi bu shaharda «oq suyaklar» ko'p bo'lganligi sababli «Xo'jalar shahri» so'zidan olingan, deyiladi.

Shunday qilib, shaharning nima uchun Xo'jand deb atalganligi to'g'risida ishonchli bir fikr yo'q.

**Namangan** — Farg'ona vodiysining go'zal shaharlaridan biri. Namangan soy, Yangiariq va Shimoliy Farg'ona kanalidan suv ichadi. Namangan haqidagi dastlabki ma'lumotlar Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» kitobida tilga olinadi. Namangan qishlog'i tuz koniga yaqinligidan «Namak kon» deb atalgan. Keyinchalik bu nom o'zgarib Namangan bo'lib ketgan. Novmakon (yangi joy) degan rivoyat ham bor. Shaharning vujudga kelishiga qadimgi Axsikent shahridan ko'chib kelgan aholi ham ta'sir qilgan bo'lsa kerak. Axsikent shahri Namangan yaqinida Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida bo'lgan. U 1620 yilgi zilziladan yakson bo'lib ketgan. Namangan shahrining rivojlanishida Norin daryosidan 1818—1822 yillarda o'tkazilgan Yangiariq kanali katta rol o'ynadi. Bu yerda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanadi. Farg'ona viloyati tuzilgach, Namangan uning uezd shaharlaridan biri bo'lib qoldi. 1877 yili yangi shahar qurilishi boshlanadi. Bu yerda dastlab Andijon va Farg'ona shaharlaridagi singari qo'rg'on qurilgan. Yangi shahar uchastkasida harbiy mashqlar o'tkaziladigan maydon, shahar bog'i va bozor uchun joy ajratilgan. 1894—1895 yillarda shahar aholisi 60 ming kishidan ko'proq bo'lgan. XX asrning boshlarida Namangan temir yo'l orqali Qo'qon bilan bog'lanadi. Shundan keyin paxta va yog' zavodlari paydo bo'ladi. 60- yillarga kelib Namangan juda katta shaharlardan biriga aylandi. Hozir shahar Farg'ona vodiysidagi yirik shaharlardan biri, Namangan viloyatining markazi.

**Haqqulobod** — Norin tumanidagi qishloq. Arxeologlarning va yerli keksalarning so'zlariga qaraganda, bu qishloq XVIII asrning oxirida tashkil topgan. O'sha vaqtda bu joylarning o'zni botqoqlik va balchiq bo'lgan. Shuning uchun bu yerda odamlar yashamagan. Tuman markazidan 6 km naribroqda «Eski Haqqulobod» degan qishloq bor. XVIII asrning oxirida bu yerda juda boy va johil Haqqulibek degan kishi yashagan. U yer mulkini ko'paytirish uchun o'z odamlarini to'qayzor va balchiq yerlarni o'zlashtirishga majbur qilgan: Uning buyrug'i bilan odamlar botqoqlarni quritib, ekin ekanlar. Bu qishloq uning xo'jayini Haqqulibek nomi bilan Haqqulobod deb atalgan. 20 -30- yillarda undan keyingi davrlarda bu yerda ijtimoiy o'zgarishlar yuz berdi. Hozir Haqqulobod

Namangan viloyatining eng go'zal qishloqlaridan biri bo'lib, Norin tumanining markazi va shahar tipidagi aholi yashaydigan manzilga aylantirildi.

**Qo'qon.** Bu so'zning etimologiyasi haqida ham turli-tuman ma'lumotlar bor. Aytishlaricha, shahar joylashgan hudud botqoqlik, qamishzorlardan iborat bo'lgan va u yerlarda ho'k (yovvoyi cho'chqa) lar juda ko'p bo'lgan. Shuning uchun u yerni cho'chqalar, ya'ni to'ng'izlar makoni — ho'kkon deb ataganlar. Keyinchalik bu so'z Qo'qon bo'lib qolgan, degan fikr soxtadir. Akademik A. N. Kononov: Xo' so'zi «shamod» ma'nosida keladi va Qo'qon (HO'qand) «Shamol shahri», «sershamol shaxdr» ma'nosida bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi.

Dastlab «Hudud al-olam» da Xo'kand, Xuvakand — xalq zich yashaydigan shaharcha deyilgan. Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Xo'kand (Xuvokand) va Xo'qand (Xuvoqand) shakllarida qayd qilingan. «Boburnoma» da Xo'qon viloyati deb tilga olingan. Hozirgi Qo'qon shahri tarixiy Xo'qand o'rnida XVIII asrda o'zbeklarning ming urug'i boshlig'i Shohruhbiy tomonidan barpo etilgan. V. V. Bartol'd shaxdr nomining adabiy jihatdan to'g'ri shakli Xo'kand bo'lib, Qo'qon jonli tilda talaffuz etilishidir, deb hisoblaydi.

Yuqoridagi olimlarning turli izohlaridan qat'i nazar, hozirgi kunda qadar Qo'qon so'zining etimologiyasi ilmiy asosda o'rganilgan emas.

**Farg'ona** — antik davr yunon olimlari bu viloyatdan deyarli bexabar qolganlar. Makadoniyalik Iskandarning Xo'jandgacha kelgani aniq. Ammo undan sharqiyqa, Farg'onaning ichiga o'ta olmagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, yunoncha kitoblarda qadimiy Farg'onaning tavsifi yo'q. U tomonda «YAKsart orqasida» allaqanday o'troq aholi borligigina qayd etilgan, xolos. Faqat ilk o'rta asr adabiyotidagina Farg'ona nomi qayd etilgan.

Farg'ona nomining ma'nosi shu choqqacha aniqlangan emas. Lekin bu haqda bir qancha izoh, taxmin va mulohdzalar bor: Gerodotning yozishicha, qadim zamonlarda O'rta Osiyoda Parikan nomli qabila bo'lgan; sanskrit tilida parkana deb kichik viloyatga aytiladi; pari xona, ya'ni «go'zallar yurti» degan ma'nosi ham bor; forscha parand (arabcha farand) — «shoyi», «ipak» so'zlaridan kelib chiqqan (farandxona — ipakxona degani); qadimiy fors-tojikchada pargona — «tog' oralig'idagi vodiy» demakdir. Bu so'zni mahalliy qabilalar o'rganib olib, o'z yurtlarini Farg'ona deb atay boshlaganlar; Farg'ona «har xona» so'zlaridan olingan ham deyiladi. Bu yerning yaxshiligini bilib, har joydan turli qavmlar ko'chib kelgan, ekinzor barpo qilib, turg'un bo'lib qolgan. Xonadonlari har joy-har joyda, tillari ham har xil bo'lgan. Ularni «har xona» deganlar. Bu so'zlar iste'molda Farg'ona bo'lib ketgan, deydi Najib Bakron (XIII asr boshlari) o'zining «Jahonno-ma» kitobida. Buni Yoqut Hamaviy boshqacharoq izohlaydi: har xonadan bittadan kishi ko'chirilib keltirilgan, shundan «az har xona» (har xonadan) deyilgan, keyinchalik bu so'z Farg'ona bo'lib qolgan, deydi u; Tojikiston tog'lari (Turkiston, Zarafshon tizmalari) Falg'ar deb atalgan. Bu so'zning «tog' etagi» degan ma'nosi ham bor. Shundan Farg'ona nomi yasalgan deydi N. G. Mallitskiy; parkana — qadimgi tojik tilida «berk vodiy» degan so'z. Pomirdagi rushon shevasida parkana

deb «har tarafi tog', bir yonigina ochiq bo'lgan vodiya aytiladi» deydi prof. M. S. Andreev.

Zahiriddin Muhammad Bobur Farg'ona viloyatini tasvirlar ekan, M. S. Andreev aytgan ruzhoncha iborani o'zbekcha bayon yetgan: «Girdogirdi tog' voqe' bo'libtur. G'arbiy tarafidan. . . tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish yog'i kelaolmas» (Boburnoma). Bir mulohaza. Antik dunyo tarixchilarining ma'lumotiga ko'ra, «parfiyaliklar» (Janubiy Turkmaniston) bir zamonlar skiflar orasidan quvilgan qabila edilar, parf so'zi skifcha «quvilgan kishilar» demakdir ... ularning kiyimi tiniq (ipak) va burmalidir. .. Ko'pincha ot minib yuradilar ... Parfiyaliklarning biridan-biri ko'chili — otliq askarlardir. . . Davan' (Farg'ona) bilan An'si (Parfiya) shevalari o'rtasida ancha farq bo'lmasada, ularning tili xiyla o'xshash va ular gaplashganda bir-birini tushunadilar». Parf qabilasining ko'p xususiyatlari Farg'onada ham bor: yaxshi otlar, ipak kiyim, til o'xshashligi. «Farg'ona» nomi Parfiyona — Parfona — Farg'ona transformatsiyasi bo'lmaganmikan, degan fikr ham xayolga keladi.

Ammo yuqoridagi 10 ta izohning birortasini ham qat'iy deb aytolmaymiz. Faqat shunisi aniqki, bu viloyatning eng dastlabki nomi Farg'ona yoki Parfona bo'lganligini yirik sharqiyshunos V. A. Livshits isbotlab bergan.

**Damariq** — Andijon viloyati Xo'jaobod tumanidagi Xo'jaobod qishlog'iga qarashli «O'zbekiston» nomli jamoa xo'jaligi hududida joylashgan. Avvallari bu ariqni «Yomonyor» deb atashardi. Bu ariq asli o'sh soyidan bosh olardi, deb hikoya qiladi shu qishloqlik Turdiboy ota Usmonov. Biz bolalik davrimizda Xo'jaobod qishlog'ini va uning yerlarini shu ariq sug'orardi. Bahor oyi yoki olma gullagan paytda bu qishloq ahlini vahima bosardi, chunki o'sh soyi toshib ariq boshini oqizib ketardi yoki Shahrixon soyiga qo'shib yuborardi. Natijada Xo'jaobod, Buloqboshi, Qoratayit qishloqlari suvsiz qolardi, hatto ichishga suv topilmas edi.

Suvsizlik azobidan qutulish maqsadida shu qishloq oqsoqollari Abdusamad ota Boymatov, mulla Sobirjon Yusupov, Mavlon ota, Mamaroziq otalar boshchiligida to'g'onni qayta qurish uchun hashar uyushtirilar edi. Hashar boshlashdan avval bu ishga kimlarni jalb qilish, qaysi xonandondan nechta odam ishtirok etishi mumkinligi belgilab olinardi. So'ng Xo'jaobod volost' boshlig'iga xabar qilinardi. Hasharda deyarli kambag'al dehqonlar ishtirok etardilar, ammo suvning ko'pidan boylar foydalanardilar. To'g'onni bir yil ichida bir necha marta suv buzib ketardi. Har safar to'g'onni qayta tiklash uchun kambag'al dehqonlar o'z-o'zlaridan to'g'on qurish uchun asosiy material hisoblangan shox-shabba, yog'och, xashak pichan, poxol kabi qurilish materiallari olib borishar edi. Volost' rahbarlari quruvchilarga hech qanday yordam bermas edilar. To'g'on qurilishiga yordam bera olmagan, ilojisiz kambag'al dehqonlarni urishar edilar. Asrimizning 20- yillariga qadar bu «Yomon yor» deb nom olgan joydan suv olish juda ham yomon, og'ir edi. Shuning uchun odamlar bu joyni Yomon yor, suv soydan juda damlanib chiqqanligi sababli ariqqa Dam arig'i deb nom bergan, deb hikoya qilishadi keksa otaxonlarimiz.

**Xo'jaobod** — Andijon viloyatiga qarashli shu nomdagi tuman markazi. 1981 yildan boshlab shahar nomini oldi. «Boburnoma» muallifi o'sh bilan Andijon o'rtasida bir obod joy bo'lganligini eslatadi. Shu yerlik 7 marta haj qilgan Abdunabi Sayfuddin hoji o'g'lining hikoyasiga qaraganda, qadimgi O'rta Osiyo shaharlarini Xitoy bilan bog'laydigan savdo yo'li shu Xo'jaobod orqali o'tgan. Buning guvohi sifatida to hozirgi kungacha saqlanib qolgan Andijon shahridagi, shu Xo'jaoboddan boradigan yo'l boshiga qurilgan Xitoy konsulining binosini ko'rsatadilar.

Xo'jaobod so'zining kelib chiqish tarixi haqida aniq fikr va dalil bo'lmasada, ayrim taxminlar bor. Yuqorida ta'kidlanganicha, Xitoyga boradigan savdo yo'lida joylashganligi tufayli bu joyga bir guruh xo'jalar kelib joylashib qolishgan. Shundan so'ng qishloq kengayib xo'jalar obod qilgan deyshy, nomini Xo'jaobod qo'yishgan desalar, ayrim kishilar, bu yerdan xajga borganlar ko'p bo'lganligi tufayli hojilar obod qilgan, deydilar. Xullas, Xo'jaobod shahri tarixi hali ilmiy asosda tadqiq qilinmagan. Xo'jaobod deyish haqiqatga ancha yaqindir. 1993 yili «Mehnat» nashriyatida chop etilgan A. Nabievning «Bobur tavof aylagan diyor» nomli risolasida (10 bosmataboq) Xo'jaobod tarixi, eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan tarixi mukammal yoritilgan. Xo'jaobod nomining kelib chiqish tarixi haqida jumladan shunday deyilgan: «Boburnoma» ning 50—51-betlarida Bobur Mirzoning ustoz va piri Xo'ja Abdullo Mavlonai qozi nomi bir necha bor tilga olingan. endilikda shunday tarixiy ma'lumotlar aniqlanmoqdaki, hatto Xo'jaobod vohasining nomi ham ayni shu tarixiy shaxs — Xoja Abdullo Mavlonai qozi nomi bilan bog'liq bo'lib chiqdi. Binobarin, Bobur ta'riflaganidek, voha nomi uni bog'-rog'larga aylantirgan tarixiy bir shaxsning nomi bilan bog'liq ekan. Bu fikrni yozuvchi Qo'ldosh Mirzoning 1990 yili «Sharqiy YUlduzi» da bosilgan «Bobur Mirzoning toylog'i» nomli qissasi voqealari yana bir karra tasdiqladi. Qissa muallifi o'z asarida Xo'jaobod Oqbo'ra daryosidan suv ichganligini, undan yangi-yangi ariqlar chiqarilganligini aytadi. Yana ta'riflaydiki, shu ariqlar suvidan bahra olgan bog'-rog'larni ko'rgan, shirin-shaqar mevalaru qovun-tarvuzlaridan totib ko'rgan Zahiriddin Muhammad Bobur nihoyatda ilhomlanib ketadi va bu jannatmakon yurt boshlig'ini chaqirib: «Siz yurt aylagan ushbu navohi Xoja Abdullo Mavlonai qozi ruhi pokining hurmati vajidin Xojaobod bo'lsun. Bu tilagi ixlosmandlaru hukmi podshohdur. Ongladingizmu, sardor», — deydi. Shundan so'ng sardor axli yurtni to'plab, podsho hukmini e'lon qiladi: «Shu bugundan boshlab, bu yurt Xojaobod deb nomlansin»,— deydi. Shu tariqa qadimdan obod maskanlardan biri bo'lgan bu yurt Xojaobod deb yuritiladi.

**Chortoq** — Namangan yonidagi qishloq. Buni «to'rt tog'» deb izohlaydilar, ammo shunday emas. To'rt gumbazli (to'rt toqisi bo'lgan) inshoot, ark, qo'rg'on, qorovulxona chortoq deyilgan. Ba'zan to'rt tomonidan ko'rinib turadigan qorovulxonalar, baland minoralar ham chortoq deb atalgan. Demak, chortoq deb shu qishloq o'rtasida joylashgan baland ark, qorovulxona tufayli atalgan.

**Uchqo'rg'on** — Namangan viloyati Norin daryosi bo'yida joylashgan. Uchqo'rg'on deb nom olishiga asosiy sabab ilgari Uchqo'rg'onida uchta katta

qo'rg'on bo'lib, uni qurgan egalari bo'lgan ekan. Bu qo'rg'on egalari XIX asrlarda hozirgi Uchqo'rg'on hududiga hukmronlik qilishgan. Asrimizning 20- yillaridan so'ng bu qo'rg'onlar yo'q bo'lib ketgan. Ammo qo'rg'on bo'lganligi sababli uning nomi Uchqo'rg'on nomi bilan saqlanib qolgan.

**Sulduz** — Andijon tumanidagi qishloq; sulduz qabilalaridan birining nomi. Sulduzlar Chingizxon davrida o'rmonda yashagan ko'chmanchilar bo'lishgan; sulduz aslida suldez bo'lgan. «Sulde» mongolcha «bayroq», «s» esa ko'plik qo'shimchasi, demak «suldes» — bayroqlar demakdir.

**Qaqir** — Andijon viloyati Xo'jaobod tumanida hamda Farg'ona viloyati Quva tumanidagi qishloqlar nomi. Qaqir suv etib bormaydigan, qaqrab yotgan yer degan ma'noni bildiradi.

**Chualachi** — Farg'ona viloyati Bag'dod tumanidagi qishloq. Toshkent shahridagi ko'cha nomi. Tojikcha «katta qop» ma'nosidagi juvol so'zidan kelib chiqqan, degan fikr bor.

**Dilkushod** — Andijon viloyati Xo'jaobod tumanidagi qishloq. Hozirgi Dilkushod davlat xo'jaligi hududida joylashgan Dilkushod qishlog'ining o'ri avval, ya'ni XVI — XVII asrlarda katta karvonsaroy bo'lgan ekan. Xitoyga Arabistondan ketayotgan savdogarlar shu karvonsaroyda tunab o'tar ekanlar. Xullas, Dilkushod katta savdo yo'lida joylashgan ekan. Dilkushod nomi qayerdan kelib chiqqanligi haqida rivoyatlardan birida shunday deyiladi: Andijon hokimi Zahiriddin Muhammad Bobur tez-tez Ush shahriga borib turar ekan. Doim yo'lda shu Dilkushod qishlog'ida to'xtab dam olar ekan. Bobur Dilkushodda qo'nganda qishloqni tomosha qilar, undagi go'zal tabiat manzarasidan ilhomlanib she'r yozar ekan. Dillarni shod etuvchi so'lim dam olish joyi ekanligidan mamnun bo'lib, qishloq nomini «Dilkushod» bo'lsin degan ekan. Dilkushod qishlog'ining qadimiyligi yana shundaki, u yerda yer haydayotgan paytda bir xumcha chiqqan. Xumchani ichidan XVI — XVII asrga oid taygalar, oltin buyumlar topilgan. Shu narsalar bu qishloqning qadimiy ekanligini isbot qiladi. Qishloq tog' bag'rida bo'lganligi, manzarasi, iqlimi va bahavoligi bilan darhaqiqat dilni shod etadi.

**Bag'dod** — Farg'ona viloyatidagi tumanlardan biri. Viloyat markazidan 10 kilometr narida joylashgan. Bag'dod nomining etimologiyasi qadimiy tarixga ega. Ma'lumki, Iroq davlatining markazi hisoblangan Bag'dod XII asrdayoq madaniyati gullagan shahar bo'lgan. Bag'dod — xudo bergan joy ma'nosidadir deb ta'kidlaydi filologiya fanlari nomzodi Haydarali Uzoqov.

#### **Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:**

Toponomika	Mikro toponomika
Mikrobika	Ob'ekt
Nom	Eksplikatsiya
Etnografiya	Etimologik
Semantik	

**Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

1. Toponomik tushunchasi va uni mohiyati nimadan iborat?
2. Etnomadaniyatda toponomikaning roli qanday?
3. Hozirgi vaqtda toponomikaning yutuqlari nimalardan iborat?
4. Nomsiz ob'ekt toponim bo'la oladimi?
5. Toponomikani o'rganish qanday ahamiyatga ega.
6. Yashash joylarini toponim joylarning nomini ma'nosini bilasizmi?
7. Toponomik materiallar yigishda qaysi fanlar muhim rol o'ynaydi?
8. O'rta Osiyo toponimlarini o'rganilishi tarixi haqida ma'lumot bering.
9. Toponomikani o'rganish qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?
10. Tarix va geografiya o'qituvchilari toponomikani o'rganishda nimalarga e'tibor berishlari kerak?
11. Marg'ilon shahri toponimikasi haqida nimalarni bilasiz?
12. Farg'ona shahri toponimikasi haqida nimalarni bilasiz?
13. Qo'qon shahri toponimikasi haqida nimalarni bilasiz?
14. O'zbek urug'lari nomlari bilan ataladigan joylarni aniqlang.
15. Oqtepa termini qaysi so'z bilan bevosita aloqador?
16. O'ingiz yashayotgan qishloq yoki tuman hududidagi toponimik nomlar haqidama'lumot bering.
17. Farg'ona vodiysidagi joy nomlari bilan bog'liq bo'lgan aholi punktlariga misollar keltirin.
18. Mikrotoponimika deganda nimani tushunasiz?

### **Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Murodov M., Qorabaev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma,-  
T.: Adolat, 2003 yil.
2. Ashirov A., Atadjanov SH. Etnologiya. - T.: TDPU, 2007 yil.
3. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. - T.:TDPU, 2007 yil.
4. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-T.:  
"INNOVATSIYA - ZIYO", 2019 yil.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. 488 б.

2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida” gi PQ-4307-son qarori. // (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son.
8. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008 yil.
9. Jabbarov I.M. O'zbek xalqi etnografiyasi -T.: O'qituvchi, 1994 yil. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. Fan, 1996 yil.
10. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti -T.: YAngi asr avlodi, 2004 yil. Mamanazarov N. Mustaqillik va milliy etnik jarayonlar - T.: Fan, 2004 yil.
11. Qoraboev U., Soatov F. O'zbekistan madaniyati - T.: Tafakkur - bo'stoni, 2007 yil.
12. Mustaqillik. Izohli-ilmiy ommabop lug'at. - T.: SHarq, 2009 yil. Falsafa ensiklopedik lug'at. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010 yil.

#### **Axborot manbalari:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
5. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz).
6. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**


**Namangan davlat universiteti**

**Fuqarilik jamiyati va huquq ta‘limi kafedrasida**

**“Etnomadaniyat”**

**modulidan**

**amaliy mashg‘ulotlar ishlanmasi**



**NAMANGAN**

Mazkur amaliy dars ishlanma Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularga "Etnomadaniyat" fanidan tizimli bilimlar berish, jumladan ushbu fan jamiyatimiz taraqqiyoti negizi tamoyillarini ifoda etadi va dastlabki bilimlar, ko'nikma va malakalar berishni belgilab beradi.

Tuzuvchi: PhD E. G'apparov

Taqrizchi: f.f.d. T. Ismoilov

Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi NamDUning «Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi» kafedrasining yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya qilingan.

202\_\_ yil \_\_\_\_\_

Kafedra mudiri:

PhD E. O. G'apparov

## **O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni**

“**Etnomadaniyat**” – “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq” bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan ixtisoslik fanlaridan biri bo'lib, o'quv mashg'ulotlari davomida talabalar xalqimizning kelib chiqishi, uning etnik rivojlanishiga doir bilim, ko'nikma va tushunchalarni shakllantirish orqali keyinchalik boshqa ijtimoiy-gumanitar sohalarni o'zlashtirishga zamin yaratadi. Ushbu xususiyat orqali o'quv moduli ham milliy, ham xorijiy talabalar uchun foydali bo'ladi.

## **O'quv fanining maqsadi va vazifasi**

**Fanning maqsadi** - Talabalarga **Etnomadaniyatga oid tushuncha va tamoyillar** haqida muayyan bilim va tushunchalar berish, bu boradagi ilmiy qarashlarning shakllanishi, rivojlanishini zamonaviy o'zgarishlar, interfaol texnologiyalar bilan bog'lab o'rgatishdan iborat.

**Fanning vazifasi:** “**Etnomadaniyat**” moduli orqali xalqimizning tarixiy shakllanish bosqichlari, uning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti, milliy madaniyatimizning o'tmishda qo'lga kiritgan yutuqlari, elat, qavm, millat tushunchalarining mazmun va mohiyatini tushuntirish, o'tmishda va hozirgi kunda muayyan darajada shakllanib, taraqqiy etib kelayotgan milliy madaniyatimizning tadrijiy rivojlanish jarayonlarini o'rgatishdan iborat.

“Etnomadaniyat” modulini o'rganish orqali egallangan bilimlar yoshlarning mafkuraviy immunitetini, siyosiy madaniyati, ogohliligini oshirishga, ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishga o'rgatadi.

etnomadaniyat tushunchasining mazmun va mohiyati, fanning predmeti, maqsad va vazifalari, o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar, etnomadaniyatning shakllanishi, etnomadaniyatning shakllanish omillari, etnopedagogika va milliy ma'naviyat uyg'unligi, xalq madaniyatining rivojlanishida an'anaviy oila-turmush marosimlarining o'rni, o'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari, etnomadaniyat va o'z-o'zini anglashning mohiyati, etnomadaniy jarayonlar, toponomikaga oid **bilimga ega bo'lishi**;

- o'zbek xalqi etnomadaniyati tarixi, shakllanish jarayoni, etnomadaniyatning shakllanishda xalq og'zaki ijodi, xalq teatri va boshqa omillarning o'rni borasidagi bilimlarni amaliyotda qo'llash **ko'nikmalariga**;

- yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda o'zbek xalq og'zaki ijodidan foydalana olish, ta'lim tarbiya tizimida xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlarini o'rinli qo'llasli olish, madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'mini o'quvchi yoshlarga tushunlira olish, o'quvchilarda an'anaviy oila-turmush marosimlari haqida tasavvurlarni shakllantira olish **malakasiga ega bo'lishi kerak**.

**“Etnomadaniyat” fanidan mashg’ulotlarning mavzular va soatlar bo’yicha taqsimlanishi**

2-bosqich III semestrda jami 146 soat; bundan 36 soat ma’ruza, 40 soat seminar mashg’uloti va 70 soat mustaqil ta’limga ajratilgan.

Kurs	Semestr	Yuklama	Auditoriya mashg'ulotlari turi bo'yicha o'quv yuklamasi taqsimoti(soat)				Mustaqil ta'lim
			Jami	Ma'ruza	Seminar mashg'ulot	Laboratoriya mashg'uloti	
2	III	180	90	40	50		90

**1-mavzu: Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari (2 s)  
Reja:**

1. Etnomadaniyat atamasining kelib chiqishi, fan sifatida shakllanishi
2. Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari
3. Etnomadaniyat fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi
4. O‘tmish milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirishda etnomadaniyat fanining ahamiyati

**Asosiy tushunchalar:** Qadriyatlar, iymon, ma’naviyat, Etnomadaniyat, Madaniyat, antik madaniyat, Etnonim, Etnonimka, Etnograf, folklor.

**Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim.*

**Amaliy mashg’ulotning o’tkazilishi**

1. Mavzuga oid bilimlarni faollashtiruvchi savollar beriladi.
2. Ixtiyoriy belgi bo’yicha talabalarni 4 kichik guruhlariga bo‘linadilar.
3. Har bir guruh mavzuning bir savol bo’yicha ishlaydi.
4. Guruhlarda ishlash qoidasi tushuntiriladi.

Natija	Maks. ball	Gurux ishi natijalarining bahosi			
		1	2	3	4
Ma’lumotning to‘liqligi	1,25				
Taqdimot (ma’lumotning chizmalı tarzda taqdim etilishi)	1,25				
Guruhning faollik darajasi (qo’shimchalar kiritish, savollar berish)	1,25				

Manbalar bilan ishlash	1,25				
Adabiyotlar tahlili	1,25				
<b>Ballarning maksimal hajmi</b>	<b>5</b>				

## **2-Mavzu: Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, etnografiyasi muammolari (4 s)**

### **Reja:**

- 1 Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimgi markazlaridan biri
- 2 Ajdodlarimiz madaniyatining rivojlanish bosqichlari
- 3 Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi tarixi
- 4 Vatanimiz hududlaridan topilgan asori atiqalar, qazilmalar
5. Bugungi kunda o‘tmish ajdodlarimiz hayoti, madaniyati, rasm-rusm hamda urf-odatlarini o‘rganish uchun yaratilayotgan sharoitlar

**Asosiy tushunchalar:** Markaziy Osiyo, kishilik jamiyatining eng qadimiy markazi, Zardo’sht, “Avesto”, Yasna, Videvdat, Visparat, Yashta, marosimlar, “Hosil bayrami”, “Mehnat bayrami”, madaniyat, ma’naviyat, Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy-madaniy hayoti.

### **Mazkur amaliy mashg‘ulot “Insert strategiyasi” asosida tashkil etiladi**

Strategiya o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan yangi mavzu bo‘yicha tahsil oluvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategiyani qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi;
- har bir guruhdan o‘zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid ikkita fikr bildirish so‘raladi;
- guruhlar navbatmanavbat mulohazalarni bayon etadilar;
- bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;
- so‘ngra o‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matni guruhlariga tarqatadi;
- guruhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o‘zlari bildirgan fikrlarning bir- biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar (o‘xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi);
- guruh a‘zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi;
- guruh a‘zolari orasidan liderlar belgilanadi;
- liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradilar;
- guruhlarining yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.

**Qo‘llaniladigan qo‘shumcha ta‘lim texnologiyalari:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta‘lim.*

### **3-Mavzu: O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar (4 s)**

#### **Reja:**

1. Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi.
2. Tarixni o‘rganishda tarixiy manbalarning beqiyos ahamiyati.
3. Hozirgi zamon tarix fanida tarixiy manbalarning asosiy guruhlari.
4. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalarni o‘rganishning ahamiyati

**Asosiy tushunchalar:** Tarixiy manba, ashyoviy manbalar, etnografik manbalar, fol’klor manbalar, lingvistik manba, fotokinoxujjatlar.

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim.*

#### **Mazkur amaliy mashg‘ulotda “Qora quti” metodidan foydalanish mumkin**

Ta’lim jarayonida mazkur metodni qo‘llashdan maqsad - tahsil oluvchilar tomonidan mavzuni puxta o‘zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma’lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- tahsil oluvchilar juftlikka biriktiriladilar;
- juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so‘zlar, sanalar, raqamlar, belgilar va h.k.)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;
- o‘qituvchi tahsil oluvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;
- topshiriqni to‘g‘ri bajargan guruhning bir a‘zosi o‘qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning echimini yozuv taxtasiga yozadi;
- sinf tahsil oluvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so‘zlar, sanalar, raqamlar, belgilar qanday ma‘noni anglatishini aytadilar);
- to‘g‘ri javob bergan tahsil oluvchi o‘qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o‘qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

### **4-mavzu: Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o‘yinlarining o‘rni (2 s)**

#### **Reja**

1. Xalqimiz hayotida marosim-bayramlarning kirib kelishi.
2. Marosim, san‘at, ijod kabi madaniyat turlarining vujudga kelishi va rivojlanishida o‘yinlarni o‘rni.
3. Xalq o‘yinlari-etnomadaniyatning tarkibiy qismi.
4. Sho‘rolar davrida xalq o‘yinlariga bo‘lgan munosabat.

5. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda milliy o'yinlarning tiklanishi va rivojlanishi.

**Asosiy tushunchalar:** Urf odatlar, an'analar, marosimlar, milliy qadriyatlarimiz, dehqonlar bayrami, xalq o'yinlari, dor o'yini, g'ozlar, xo'rozlar jangi, to'siqlar orasidan tez o'tish, kurash, chillik o'yini, oq terakmi - ko'k terak, quvlashmachoq, «olomon» o'yini.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.*

#### **Mazkur amaliy mashg'ulotda "Rolli o'yin" metodidan foydalanish mumkin**

"Rolli o'yin" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin stsenariysini ishlab chiqadi.
2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi

#### **5- Mavzu: Qadimgi davr folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba (2 s)**

##### **Reja:**

1. Folklorshunoslik yoki folkloristika.
2. Folklorshunoslik asoslarining yuzaga kelishi.
3. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" asridagi folklor namunulari.
4. Qadimgi davr folklori.
5. Etnomadaniy jarayonning shakllanishida qadimgi davr folklorining o'rni va ahamiyati.

**Asosiy tushunchalar:** O'zbek folklori, o'zbek folklori tarixi, qadimgi davr folklori, xalq og'zaki badiiy ijodi, mif, afsona, rivotlar, xalqimiz og'zaki ijodining tarixiy ildizlari, mifologik dunyoqarash, totem, fetish, anim, Ahriman (Angra Manyu), Mitra, Qayumars (Gavomard), Yima (Jamshid), og'zakilik va badihago'ylik, jamoaviylik va ommaviylik, an'anaviylik, ko'p nusxalilik va tarmoqlilik, anonimlik.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.*

#### **Mazkur amaliy mashg'ulot "Muammoli topshiriq" metodi asosida tashkil etiladi**

1- muammoli topshiriq. Mamlakatimiz tarixiga oid folklor manbalarni rivojlanish davriga qarab shartli ravishda uch guruhga: Arxaik va o'rta, va yangi davrlarga bo'lish lozim. Bu jarayonda o'rganilayotgan davrga tegishli



tushunchalar, ma'lumotlarni taxlil qilish, solishtirish va taqqoslash orqali ularga umumiy xarakteriska yozish lozim.

2- muammoli topshiriq. Qadimgi davr folklor manbalarini turkumlash orqali ularni diniy, falsafiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy turlarini o'rganish hamda ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni tahlil qilinadi.

### **6-Mavzu: O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlari (4 s)**

#### **Reja:**

1. O'zbek xalq og'zaki ijodi.
2. Maqollar va ularning yuzaga kelishi.
3. Topishmoqlar xalq zukkoligi va topqirligi mahsuloti.
4. Xalq qo'shiqlarining paydo bo'lishi.
5. Doston-o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlardan biri.

**Asosiy tushunchalar:** Xalq og'zaki ijodi, xalq maqollari, xalq topishmoqlari, folklor, xalq qo'shiqlari, xalq dostonlari, eposlar..

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.*

#### **Mazkur amaliy mashg'ulot "Beshinchisi (oltinchisi, ettinchisi, ...) ortiqcha" metodi asosida tashkil etiladi**

Tahsil oluvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ... ) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;

- tahsil oluvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

- tahsil oluvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida tahsil oluvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

### **7-Mavzu: Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rni (2 s)**

#### **Reja:**

1. Insoniyatning madaniy taraqqiyoti tarixida antik teatrning o'rni.
2. Qadimgi Yunonistonda teatr rivoji.
3. Raqs san'ati madaniyatining o'ziga xos, eng go'zal turi sifatida.
4. Xalq madaniyatining takomillashib borishida teatr va raqs san'atining o'rni.

**Asosiy tushunchalar:** Teatr, raqs san'ati, tragediya, komediya janrlari, yunon teatri, antik teatr, qo'shiq, raqs, musiqa, akrobatika, masxarabozlik va nayrangbozlik, ko'g'irchoq teatri, drama, ma'rifiy teatr, jadid teatri va

dramaturgiyasi, musiqali drama, nafosat tarbiyasi, xalq va bazm raqslari, sahna raqslari, vaznli, imo-ishorali raqslar.

### **Mazkur amaliy mashg'ulot "Insert strategiyasi" asosida tashkil etiladi**

Strategiya o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan yangi mavzu bo'yicha tahsil oluvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategiyani qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi;
- har bir guruhdan o'zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid ikkita fikr bildirish so'raladi;
- guruhlar navbatmanavbat mulohazalarni bayon etadilar;
- bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;
- so'ngra o'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matni guruhlariga tarqatadi;
- guruhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o'zlari bildirgan fikrlarning bir- biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar (o'xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi);
- guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi;
- guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi;
- liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradilar;
- guruhlarining yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.*

### **8 - Mavzu: Etnopedagogika va milliy ma'naviyat (2 s)**

#### **Reja:**

1. Millatning shakllanishida milliy tarbiyaning o'rni.
2. Xalq pedagogikasi va xalq ijodi.
3. Bayramlar inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismi.
4. O'zbek xalqining bayramlari.

**Asosiy tushunchalar:** Etnopedagogika, milliy tarbiya, milliy tarbiya tizimlari, elshunoslik, qadrshunoslik, udumshunoslik, matallar, xikmatlar, qiziq gaplar, qayroqi so'zlar, aforizmlar, topishmoqlar, tez aytishlar, bolalar o'yinlari, allalar, to'y va aza qo'shiqlari-marsiya, sadr aytimlar, olqish va qarg'ishlar, o'zbek xalq bayramlari.

### **Mazkur amaliy mashg'ulot "Tanqidiy fikrlash" metodi asosida tashkil etiladi**

Bu metoddan bahs-munozara hususiyatiga ega bo'lgan masalalar muhokamasida foydalaniladi.

1. Bahs-munozara hususiyatiga ega bo'lgan muammo yoki topshiriq qo'shib savollar o'rtaga tashlanadi.
2. O'quvchi talabaga o'z nuqtai nazarini aniqlash, fikrlash bir joyga tuplash uchun vaqt beriladi.

3. O'quvchi talaba o'z nuqtai-nazarini asoslaydi, dalillar keltiradi.
4. Muhokama qiliniyotgan masala yuzasidan o'z fikrlarini erkin bildirishlari uchun o'quvchi-talabalarga imkon yaratiladi.
5. Bildirilgan fikrlar, nuqtai-nazarlar o'quvchi-talabalar hamkorligida muhokama qilinadi.
6. O'zaro fikr olishish o'quvchi-talabalardan hamsuhbatini diqqat bilan tinglash, uning so'zini bo'lmaslik, so'z qo'shmaslik talab etiladi.
7. Muhokama qilingan ahborotni tahlil qilish, izohlash, g'oyalardan yakuniy hulosa chiqarish bilan yakunlanadi.

**Qo'llaniladigan qo'shimcha ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

### **9 - Mavzu: An'anaviy oila – turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni (2 s)**

#### **Reja:**

1. Marosimlar- xalq madaniyatining fenomeni.
2. Etnik xususiyatlarni saqlab qolish omillari va milliy marosimlarni tadqiq etish muammosi.
3. Oila va oilaviy marosimlar.
4. Xalqimizning qadimiy e'tiqodlarini, madaniy tarixi, orzu intilishlari, hayotga munosabatini o'rganishda nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlarning ahamiyati.

**Asosiy tushunchalar:** Marosimlar – xalq madaniyatining fenomeni, milliy marosimlarni tadqiq etish, oilaviy marosimlar, xalqimizning qadimiy e'tiqodlari, Sust xotin, CHoy momo, sovchilik bilan bog'liq marosimlar, mavsumiy marosimlar, bayram marosimlari, nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlar, yor-yor, aytishuvlar, beshikka belash, beshik to'yi.

#### **Mazkur amaliy mashg'ulot "Muammoli vaziyat" metodi asosida tashkil etiladi**

Bunda o'qituvchi:

1. Texnologiyani o'tkazish yo'llarini tushuntiradi va tarqatma materiallar tarqatadi.
  2. Muammoli vaziyatning foydali va muammoli tomonlari ko'rib chiqiladi.
  3. Haqiqiy muammo tanlab olinib va o'qituvchi ko'rsatmasi bilan kichik guruhlariga bo'linishlari iltimos qilinadi.
  4. Har bir guruhga ma'lum bir muammoni belgilab beradi.
  5. Guruhlar o'z fikrlarini yozma ravishda bayon etishlari uqtiriladi, himoyaga chiqishlari tashkillashtiriladi.
  6. O'qituvchi fikr mulohazalarni taxlil etadi, natijani belgilaydi.
- Talaba:
1. Texnologiyani o'tkazish yo'llarini tushunib oladi.
  2. Muammoli vaziyatning foydali va muammoli tomonlarini tahlil etadi.
  3. Haqiqiy muammo tanlab olinib va o'qituvchi ko'rsatmasi bilan kichik guruhlariga bo'linadilar.
  4. Har bir guruhga ma'lum bir muammoni tanlab oladi.

5. Guruhlar o'z fikrlarini yozma ravishda bayon etadilar va himoyaga chiqadilar.

6. Fikr mulohazalarni tahlil etadilar va natijani qo'lga kiritadilar. Kutiladigan natija: Talabalar texnologiyani amaliyotga tadbir etishni o'rganadilar

**Qo'llaniladigan qo'shimcha ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

## **10 - Mavzu: O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari (4 s)**

### **Reja:**

1. Moddiy madaniyatning etnologik yo'nalishda tadqiq etilishi.
2. Moddiy madaniyat namunalarida aks etuvchi ramz, belgilar va ular bilan bog'liq tasavvurlar, e'tiqodiy qarashlar.
3. Moddiy madaniyat namunalarining inson bilan aloqadorligi.
4. Etnologiya sohasini rivojlantirish muammolari.

**Asosiy tushunchalar:** moddiy madaniyatning etnologik yo'nalishda tadqiq etilishi, qadimiy diniy tasavvurlar va e'tiqodiy qarashlarning arxaik izlari xalq ijtimoiy turmush-tarzi, an'anaviy moddiy madaniyat namunalari, moddiy madaniyat namunalarida aks etuvchi ramz, belgilar, xalqona tasavvur, uy-joylar bilan bog'liq urf-odat va rasm-rusmlar, muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolar bilan bog'liq marosimlar va tasavvurlar.

### **Mazkur amaliy mashg'ulot "Munozara" metodi asosida tashkil etiladi**

1. O'qituvchi munozara mavzusini tanlaydi va talabalarni taklif qiladi.
2. O'qituvchi talabalarga «Aqliy hujum» masalasini beradi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi, talabalar guruhlariga bo'linadi.
3. «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g'oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlanadi. Bu bosqichda guruh a'zolarining har biri o'z fikrini bildirishlariga sharoit yaratiladi.
4. Talaba (etakchi) ikkinchi bosqichga o'tishdan avval qisqa tanaffus e'lon qiladi. Ikkinchi bosqichda bildirilgan fikr va g'oyalarni umumlashtirib, ularni tahlil qilishga o'tiladi.
5. Tahlil orqali qo'yilgan vazifani eng maqbul echimini topishga harkat qilinadi.

**Qo'llaniladigan qo'shimcha ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

## **11-Mavzu: Milliylik falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida (2 s)**

### **Reja:**

1. Badiiy madaniyatda xalq milliy xarakterining ifodalanishi.
2. Etnik birliklar shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar.
3. Etnosentrizm ommaviy ong va alohida shaxsning o'z-o'zini anglash darajasidagi psixologik mo'ljallar yig'indisi.

4. Millatchilikda milliy egoizm. Milliy fobizm, milliy antipatiyaning namoyon bo'lishi.

**Asosiy tushunchalar:** Badiiy madaniyat, xalq milliy xarakteri, milliy mushtaraklik, milliy manfaatlar, qahramon xarakterining milliyligi, etnik birlik, etnotsentrizm, ommaviy ong, millatchilik, millatparastlik, milliy egoizm, milliy fobizm, milliy antipatiya, millatlararo munosabatlar.

**Mazkur amaliy mashg'ulot "Bumerang" metodi asosida tashkil etiladi**

### **Bumerang -1**

**Texnologiyaning qo'llanishi.** Amaliy mashg'ulotlar, seminar yoki laboratoriya mashg'ulotlari hamda suhbat-munozara shaklidagi darslarda yakka tartibda, kichik guruh va jamoa shaklida foydalanilishi mumkin.

**Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar.** O'quvchi dars jarayonida mustaqil o'qishlari, o'rganishlari va o'zlashtirib olishlari uchun mo'ljallangan tarqatma materiallar (o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha qisqa matnlar, su'ratlar, ma'lumotlar).

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

- o'quv material mavzusini nechta qisqa matnlarga bo'linishiga qarab o'quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi (guruxlar soni tarqatiladigan matnlar soniga teng bo'lishi kerak);

- o'quvchilar darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;

- o'quvchilarga o'rganiladigan mavzu mazmuniga tegishli kinolavha ko'rsatiladi: o'quvchilarda shu kinolavha asosida mashg'ulotning mavzusi va mazmunini keltirib chiqarishlari so'raladi;

- so'ngra o'quvchilarning har biriga mustaqil o'rganishlari uchun mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi;

- berilgan matnlar o'quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o'rganiladi;

**Qo'llaniladigan qo'shimcha ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

## **12-Mavzu : Etnomadaniyat va milliy o`z-o`zini anglash (2 s)**

### **Reja**

1. Etnomadaniyat va milliy o`z-o`zini anglash uyg'unligi.
2. Milliy o`z-o`zini anglash ijtimoiy ong fenomeni sifatida.
3. Umuinsoniy madaniy qadriyatlarining etnik madaniyat va milliy o`z-o`zini anglash bilan uyg'unligi.
4. Milliy o`z-o`zini anglashning genezisi va funksiyasini o'rganishda etnopsixologiya va etnopedagogika usullaridan foydalanish.
5. Xalq etnopsixologik xususiyatlarining madaniyat va tarix bilan bog'liqligi.

**Asosiy tushunchalar:** Milliy o'z-o'zini anglash, fenomen, ijtimoiy ong fenomeni, umuminsoniy madaniy qadriyatlar, etnik madaniyat, etnik madaniyat va

milliy o'z-o'zini anglash uyg'unligi, o'z-o'zini anglash genezisi, etnopsixologiya, xalq etnopsixologik xususiyatlari.

### **Mazkur amaliy mashg'ulot "FSMU" metodi asosida tashkil etiladi**

*Bunda:*

• o'qituvchi xar bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bu yerda:

**F** - fikringizni bayon eting;

**S** - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;

**M** - ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

**U** - fikringizni umumlashtiring.

➤ o'qituvchi o'quvchilar bilan baxs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;

➤ yakka tartibdagi ish tugagach, o'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi va o'qituvchi kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

➤ kichik guruhlarning har bir a'zosi berilgan tarqatma materiallarda yakka tartibda yozilgan fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;

➤ o'qituvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi;

➤ Mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

**Qo'llaniladigan qo'shimcha ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

### **13-Mavzu: Ekologik ong va etnomadaniyat (2 s)**

#### **Reja:**

1. Ekologik ongning etnomadaniyat bilan uyg'unligi.
2. Ekologik madaniyat va etnoekologik an'analar haqidagi tarixiy falsafiy manbalar.
3. Ijtimoiy ekologiya jamiyat va tabiat o'zaro ta'sirini o'rganuvchi fan.
4. Xalq ahloqida tabiatni asrash haqidagi tasavvurlarning shakllanishi.
5. Zamonaviy global ekologik ziddiyatlarni yechishda davlat tashkilotlarining roli.

**Asosiy tushunchalar:** Ekologik ong, Ekologik ong va etnomadaniyat uyg'unligi, ekologik madaniyat, etnoekologik an'analar, xalq axloqida tabiatni asrash haqidagi tasavvurlar, zamonaviy global ekologik ziddiyatlar, jonli tabiat, jonsiz tabiat, inson salomatligini ta'minlash va umrini uzuytirish, zamonaviy global ekologik ziddiyatlar, ekologik xavfsizlik, atrof – muhitni muhofaza qilish muammosi.

### **Mazkur amaliy mashg'ulot "Baholash" metodi asosida tashkil etiladi**

**Usulning qo'llanishi:** o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron-bir bo'limi tugallanganida) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin tinglovchilarning bilimlarini tekshirib olish, malaka oshirishga kelgan tinglovchilarning dastlabki bilimlari, ko'nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo'ljallangan. Ushbu usulni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka tartibda tashkil etish mumkin. Ushbu usuldan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

**Mashg'ulot uchun kerakli vositalar:** tarqatma materiallar (imkoni bo'lsa, bo'lmasa tinglovchilar o'z daftarlariga jadvalni chizib olishlari, berilgan vazifa va topshirilarni o'qituvchi tomonidan eshitib javoblarini jadvalning kataklariga to'latishlari shart); jadval uchun topshiriqlar; qalam (yoki ruchka); taqdimot - slaydlar va b.

### **Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

- tinglovchilar ish tartibi, belgilangan maqsad, unga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar tarqatiladi yoki o'qituvchi tomonidan aytib turiladi, tinglovchilar daftarlariga belgilab olishadi;
- tinglovchilar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialdagi kataklarda berilgan vazifa, topshiriqlar bilan tanishadilar (vazifa va topshiriqlar ekranda slayd orkali ko'rsatilishi, tinglovchilar esa tarqatma materialga yoki daftarlariga faqat javoblarini yozishlari mumkin yoki bo'lmasa tarqatma materialning bir tomonida topshiriqlar berilishi orqa tomoniga esa javoblar yozilishi mumkin, o'qituvchi sharoit va vaziyatdan kelib chikib uzi va tinglovchilar uchun kulay xolatda ish tutadi);
- tinglovchilar tarkatma materialda mavzu buyicha berilgan vazifa, topshiriqlarni (ular o'tilgan mavzu, bo'lim yoki o'quv predmeti asosida tuzilishi mumkin) o'zlarining bilimlari asosida yakka tartibda bajaradilar;
- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan topshiriklar, vazifalarni, imkoni bo'lsa, ekran orqali yoki o'zi og'zaki aytishi orqali to'g'ri javoblarni beradi hamda har bir katakda berilgan javoblarni baho mezoni bilan tanishtiradi;
- Har bir tinglovchi to'g'ri javob bilan o'zlari belgilagan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar. shuningdek, bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar;
- o'qituvchi tinglovchilar tomonidan bajarilgan ishlarni yig'ib oladi va ularning to'plagan ballari yoki baholarini guruh jurnaliga qayd etadi, o'tkazilgan ishga yakun yasaydi.

**Qo'llaniladigan qo'shimcha ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

## 14 - Mavzu : Milliy o'zlikni anglash jarayonida etnomadaniyatning o'rni (2 s)

### Reja:


1. Etnoijtimoiy va etnomadaniy jarayonlarning milliy o'z-o'zini anglashning yangilanishidagi ahamiyati.
2. Milliy o'z-o'zini anglashdagi plyuralizmning milliy tiklanish bilan bog'liqligi.
3. Madaniyatning etnos va tabiat bilan o'zaro aloqasidagi roli.
4. Demokratik islohotlar xalqlar etnik ongidagi o'zgarishlar omili.
5. Etnik ongdagi ijobiy va salbiy omillar.

**Asosiy tushunchalar:** Etnoijtimoiy va etnomadaniy jarayonlar, milliy o'z-o'zini anglashning yangilanishi, plyuralizm, "fazilat" va "qadriyatlar", emokratiya, demokratik islohotlar, xalqlarning etnik ongi, etnik ongdagi ijobiy va salbiy omillar, ijtimoiy psixologiya, iqtisodiy ijtimoiylashuv, ijtimoiy omillar, megaomillar:

### Mazkur amaliy mashg'ulot "Venn diagrammasi GO" metodi asosida tashkil etiladi


GO talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o'zaro teng to'rt bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka quyidagi sxema chiziladi:



GO talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:





GOni qo'llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. Talabalarning e'tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

Qo'llaniladigan qo'shimcha ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

### **15- mavzu: Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi. (2 s)**

#### **Reja**


1. Xalqlar etnopsixologiyasining o'ziga xos jihatlari.
2. Etnopsixologiyaning muayyan xalqning bioetnogenetik xususiyatlar bilan bog'liqligi.
3. Etnomadaniyatda milliy g'urur va milliy o'z-o'zini anglashning ifodasi.
4. Dunyoviy sivilizatsiya tizimida etnomadaniy fenomen.
5. Etnomadaniyat va tarixiy ong. Tarixiy ongning badiiy adabiyotda ifodasi.

**Asosiy tushunchalar:** milliy g'oya, milliy va umumbashariy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, manqurtlik, mafkuraviy muammo, profi-laktika, poligon, plyuralizm, axborotlashgan jamiyat.

#### **Mazkur amaliy mashg'ulot "Swot-tahlil" metodi asosida tashkil etiladi**

Strategiya muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to‘rt jihatli tahlil qilinadi:



**Qo‘llaniladigan qo‘shimcha ta‘lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta‘lim.

## **16- mavzu: Etnomadaniyat va etnopsixologiya. (2 s)**

### **Reja**

1. Milliy g‘oyada ma‘naviy qadriyatlarga ega bo‘lgan etnos borlig‘i mohiyatining ifodalanishi.
2. Sotsializm davri xalqlari ongida milliy g‘oyaga munosabat.
3. Millatlararo munosabatlarda mayda millat va elatlar manfaatlarini himoya qilishning ahamiyati.
4. Departatsiya qilingan xalqlar ongida etnomadaniyatga munosabat.
5. Madaniyatlararo muloqot mintaqaviy konfliktlarni yechish omili.

**Asosiy tushunchalar:** Etnos, etnopsixologiya, etnik birlik, urf – odat, an‘ana, milliy ong, milliy did, qadriyat, milliy goya, millat ruxi, etnik xususiyat, etnik psixologiya, etnik ong, milliy xarakter, milliy urf - odat, milliylik, millat tuygusi.

Mazkur amaliy mashg‘ulotda “Qora quti” metodidan foydalanish mumkin

Ta‘lim jarayonida mazkur metodni qo‘llashdan maqsad - tahsil oluvchilar tomonidan mavzuni puxta o‘zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma‘lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- tahsil oluvchilar juftlikka biriktiriladilar;
- juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar va h.k.)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;
- o'qituvchi tahsil oluvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;
- topshiriqni to'g'ri bajargan guruhning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning echimini yozuv taxtasiga yozadi;
- sinf tahsil oluvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar qanday ma'noni anglatishini aytadilar);
- to'g'ri javob bergan tahsil oluvchi o'qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

Qo'llaniladigan qo'shimcha ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

## **17- mavzu: Etnik va ijtimoiy xotira. (2 s)**

### **Reja**

1. Tarixiy va etnik xotira.
2. Ijtimoiy xotirada xususiy etnik voqyelik.
3. Ijtimoiy ongda onomistika.
4. Ijodiy ongda ijtimoiy xotira.
5. Etnoijtimoiy xotira va etnotarixiy bilim.

**Asosiy tushunchalar:** Tarixiy ong, etnik ong, ijtimoiy ong, tarixiy xotira, etnik xotira, tarixiy xotira darajalari, tarixiy xotiraning selektiv xususiyati, tarixiy ongni ilmiy asosda shakllantirish, tarixiy xotirada san'at, urf-odat, marosimlarning ifoda etilishi.

### **Mazkur amaliy mashg'ulot "Baholash" metodi asosida tashkil etiladi**

**Usulning qo'llanishi:** o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron-bir bo'limi tugallanganida) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin tinglovchilarning bilimlarini tekshirib olish, malaka oshirishga kelgan tinglovchilarning dastlabki bilimlari, ko'nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo'ljallangan. Ushbu usulni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka tartibda tashkil etish mumkin. Ushbu usuldan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

**Mashg'ulot uchun kerakli vositalar:** tarqatma materiallar (imkoni bo'lsa, bo'lmasa tinglovchilar o'z daftarlariga jadvalni chizib olishlari, berilgan vazifa va topshirilarni o'qituvchi tomonidan eshitib javoblarini jadvalning kataklariga

to'latishlari shart); jadval uchun topshiriqlar; qalam (yoki ruchka); taqdimot - slaydlar va b.

### **Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

- tinglovchilar ish tartibi, belgilangan maqsad, unga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
  - tarqatma materiallar tarqatiladi yoki o'qituvchi tomonidan aytib turiladi, tinglovchilar daftarlariga belgilab olishadi;
  - tinglovchilar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialdagi kataklarda berilgan vazifa, topshiriqlar bilan tanishadilar (vazifa va topshiriqlar ekranda slayd orkali ko'rsatilishi, tinglovchilar esa tarqatma materialga yoki daftarlariga faqat javoblarini yozishlari mumkin yoki bo'lmasa tarqatma materialning bir tomonida topshiriqlar berilishi orqa tomoniga esa javoblar yozilishi mumkin, o'qituvchi sharoit va vaziyatdan kelib chikib uzi va tinglovchilar uchun kulay xolatda ish tutadi);
  - tinglovchilar tarkatma materialda mavzu buyicha berilgan vazifa, topshiriqlarni (ular o'tilgan mavzu, bo'lim yoki o'quv predmeti asosida tuzilishi mumkin) o'zlarining bilimlari asosida yakka tartibda bajaradilar;
  - o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan topshiriklar, vazifalarni, imkoni bo'lsa, ekran orqali yoki o'zi og'zaki aytishi orqali to'g'ri javoblarni beradi hamda har bir katakda berilgan javoblarni baho mezoni bilan tanishtiradi;
  - Har bir tinglovchi to'g'ri javob bilan o'zlari belgilagan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar. shuningdek, bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar;
  - o'qituvchi tinglovchilar tomonidan bajarilgan ishlarni yig'ib oladi va ularning to'plagan ballari yoki baholarini guruh jurnaliga qayd etadi, o'tkazilgan ishga yakun yasaydi.
- Qo'llaniladigan qo'shimcha ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

## **18- mavzu: Toponimika – etnos ongning tarkibiy qismi. (2 s)**

### **Reja**


1. Toponimika milliy o'z-o'zini anglash, etnik xotira va etnik ongning tarkibiy qismi.
2. Repressiya qilingan xalqlarning ijtimoiy ongida toponomik nomlarning ifodasi.
3. Qatag'on qilingan xalqlarning etnik ongidan ular yashagan hududning geografik nomining yo'qotilishi.
4. Etnos ongidan geografik nomlar yo'qotilishining qatag'on qilingan xalq madaniyatiga ta'siri.
5. Etnos xotirasidan milliy toponomlarning yo'qotilishi ma'naviy tiklanishning buzilishiga yo'naltirilgan harakat.

**Asosiy tushunchalar:** toponomika, joy nomlari, joy nomlarini guruhlarga bo'lish, joy nomlarining vazifasi, qatag'on qilingan xalqlarning etnik ongi, toponomika va o'z-o'zini anglash, mahallalarning nomlanishi, svoyet davrida joy nomlariga munosabat.

**Mazkur amaliy mashg'ulot "Swot-tahlil" metodi asosida tashkil etiladi**

Strategiya muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to'rt jhati tahlil qilinadi:



## **Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Murodov M., Qorabaev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma, - T.: Adolat, 2003 yil.
2. Ashirov A., Atadjanov SH. Etnologiya. - T.: TDPU, 2007 yil.
3. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. - T.:TDPU, 2007 yil.
4. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-T.: "INNOVATSIYA - ZIYO", 2019 yil.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 104 b.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 491 b.
3. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1- jild. – Toshkent:"O'zbekiston", 2017.–592 b.
4. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018. 508 b.
5. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekistan respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekistan Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
6. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" gi PQ-4307-son qarori. // (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008 yil.

8. Jabbarov I.M. O'zbek xalqi etnografiyasi -T.: O'qituvchi, 1994 yil.  
Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari.  
Fan, 1996 yil.
9. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti -T.: YAngi asr avlodi, 2004 yil.  
Mamanazarov N. Mustaqillik va milliy etnik jarayonlar - T.: Fan,  
2004 yil.
10. Qoraboev U., Soatov F. O'zbekistan madaniyati - T.: Tafakkur -  
bo'stoni, 2007 yil.
11. Mustaqillik. Izohli-ilmiy ommabop lug'at. - T.: SHarq, 2009 yil.  
Falsafa ensiklopedik lug'at. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat  
ilmiy nashriyoti, 2010 yil.

**Axborot manbalari:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
5. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi kafedrası**

**“ETNOMADANIYAT”**

**modulidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va  
baholash to'g'risida**

**USLUBIY KO'RSATMA**

**Namangan - 2023**

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**  
**Namangan Davlat Universiteti**

“Tasdiqlayman”  
Fuqarolik jamiyati va huquq  
ta'limi kafedrasini mudiri  
\_\_\_\_\_ PhD E. G'apparov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023-yil

Uslubiy ko'rsatma NamDU ning “Milliy g'oya va huquq ta'limi” kafedrasining yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

2023 yil \_\_\_\_\_

Kafedra mudiri:

PhD E. G'apparov

Uslubiy ko'rsatma NamDU ning Yuridik fakulteti ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

2023 yil \_\_\_\_\_

Fakultet dekani:

t.f.n., dotsent B. Talapov

Tuzuvchi:

PhD E. G'apparov

## I. Umumiy qoidalar

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

O'qishning boshlang'ich qismida talabaning mustaqil ishini tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq. Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma- bosqich mustaqil bilim olishini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nikma boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

### Mustaqil ta'limning maqsad va vazifalari

#### Maqsadi:

Mustaqil ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiya va ular asosida yaratilgan interfaol usullardan foydalanishi; mustaqil ta'limning barcha shakllarini yangi texnika va texnologiya yutuqlarini xisobga olgan xolda zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va amalga oshirish;

**Mustaqil ta'lim** oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat hamda kasbiy maxoratlarini zamon talabi darajasida shakllantirish;

**Mustaqil ta'limning** noan'anaviy o'qish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzviy hamda uzluksiz aloqasini yaratish;

**Mustaqil ta'lim** imkoniyatlarini kengaytirish; ta'lim oluvchilarga

Mustaqil ta'lim jarayoniga nisbatan kasbiy, iqtisodiy, tafakkur etish, ma'naviy va boshqa qiziqishlarini uygotish; mustaqil tarzda kerakli ma'lumotlarni yig'ish, muammoni aniqlash, echimlarini qidirish; olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni tanqidiy taxlil etish va ularni yangi vazifalarni hal etishda qo'llash;

Mustaqil ta'limda mustaqil ishlash bilan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash; tashkiliy, psixologik-pedagogik, o'quv-uslubiy, axborot, moddiy-texnik ta'minotni o'z ichiga oluvchi mustaqil ish infrakturasini yaratish;

Mustaqil ta'lim-natijalarini baholash tizimini yaratish.

#### Vazifalari:

- Bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usul va vositalarini aniqlash;
- Axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- Elektron darslik ma'lumotlar bankini yaratish;
- Berilgan topshiriqning muhim echimini belgilash;
- Ma'lumotlar bazasini tahlil etish;

- Ish natijalari xulosasini tayyorlash va qayta ishlash;
- Topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;
- Ishlab chiqilgan echim, loyihani asoslash va mutaxassislar ishtirokida himoya qilish;
- Pedagogik texnologiyalarni nazariy va amaliy egallash hamda sharoitlarini aniqlash;
- Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkorligidagi faoliyatning aniqligi va oshkoraligi.
- fan, texnika va texnologiya taraqqiyotining bugungi darajasi bilan o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini ta'minlash jarayoni orasidagi nomuvofiqlikni tizimga keltirish;
- ta'lim jarayonini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish bo'yicha vaqt resursining cheklanganligi;
- ta'lim oluvchilar mustaqil bilim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o'quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalarning etarli emasligi va talaba darajasida ishlanganligini yoritish.

### **Talaba mustaqil ishini nazorat qilish tartibi**

Talabalar mustaqil ishini nazorat qilib borish kafedrada tuzilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishi uchun o'quv rejada ajratilgan vaqtga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriq variantlari ishlab chiqiladi va kafedra majlisida tasdiqlanadi.

Mustaqil ishini bajarish uchun har bir fan bo'yicha talabalarga ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda tarqatma material sifatida fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga etkaziladi.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim:

- o'qish bosqichi, ya'ni talaba qaysi kursda o'qiydi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi;
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi oddiydan murakkabga qarab o'zgarib borishi lozim. Ya'ni talabalar mustaqil ishini bajarishdagi mustaqilligi darajasi asta-sekin oshib borishi lozim.

Etnomadaniyat moduli bo'yicha talabalar mustaqil ishi soati o'quv rejada ko'rsatilgan bo'lib, bu soatlar ishchi o'quv dasturida mavzular bo'yicha taqsimlangan. 2022 yil tasdiqlangan ishchi o'quv rejaga ko'ra mazkur modul

ikkinchi bosqich talabalari uchun to'rtinchi semestrda o'tiladi. Modul besh kreditdan iborat bo'lib, umumiy 150 soatni o'z ichiga oladi. Shundan 74 soati auditoriya, 76 soat esa mustaqil ta'limga ajratilgan. Mustaqil ta'lim auditoriya soatiga proporsional ravishda quyidagicha taqsimlanadi:

Semestr	Yuklama	Auditoriya mashg'ulotlari					Mustaqil ta'lim
		Jami	Ma'ruza	Amaliy	Laboratoriya	Kurs ishi	
III	180	90	40	50	-	-	90
Jami	180	90	40	50	-	-	90

### **Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari**

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rish;
- hisob-grafik ishlarini bajarish;
- kurs ishi loyihasini bajarish;
- malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- berilgan mavzu bo'yicha elektron variantlarni tayyorlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

O'qitilayotgan fanning xususiyatidan kelib chikib, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan, ilmiy adabiyotlardan va internet ma'lumotlaridan foydalanib ushbu mavzuga tayorlanib keladilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat oladilar. Talabalarning tayyorlab kelgan mavzulari bo'yicha fan o'qituvchisi savol-javob tarzida og'zaki, yozma va boshqa usullardan foydalangan holda talabalarning bilimni baholaydi.

### **Talabalar mustaqil ishini baholash**

Talaba mustaqil ish natijalari 2023-2024 o'quv yilida 1-3-bosqich talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 15-yanvardagi 30-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga taalluqli hujjatlar namunalari tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iga asosan baholab boriladi.

Talabalarning mustaqil ishi har bir fakultet va kafedra oynasida yoritib boriladi. Talabalarning mustaqil ishi har bir kafedrada 6 oy mobaynida saqlanadi.

Yuqori darajada baholangan talabalarning mustaqil ishlari institut Web sahifalarida e'lon qilinib boriladi.

Mustaqil ta'limni amalga oshirish bo'yicha fan o'qituvchisining vazifalari

Talaba tomonidan mustaqil ta'limni belgilangan reja asosida bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

Darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy risolalar, ilmiy maqolalar bilan tanishib chiqish bo'yicha topshiriqlar berish;

Asosiy adabiyotlar, ma'lumotlar va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etish;

Mustaqil ishiga o'zi rahbarlik qilayotgan talabalar bilan jadval asosida maslahatlar o'tkazish;

Mustaqil ta'limning bajarilish jarayonin natijalari to'g'risida kafedra yig'ilishlarida muntazam axborot berib borish;

### **Seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish**

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha amaliy yoki seminar mashg'ulotlariga tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan va internet ma'lumotlaridan foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi.

### **Hisob-grafik ishlarini bajarish**

Talabaga shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda hisob-grafik ishlari beriladi. Bunda talaba shu mavzu bo'yicha mustaqil ravishda mavzuni chuqur o'rganadi, material yig'adi, tahlil qiladi, kerak bo'lganda internet ma'lumotlaridan foydalanadi va bu hisoblash, so'ngra grafik ishlarini bajaradi. Bunda talab imkoniyatidan kelib chiqib hisob-grafik ishlarini elektron varianti ham qilinishi mumkin. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat oladi.

### **Ko'rgazmali vositalar tayyorlash**

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirishi uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar va h.k) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l- yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning mikdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish mumkin.

Mavzu buyicha testlar, munozarali savollar va topshiriklar tayyorlash

Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun- qoidalari, qanday maqsad kuzda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riqlar beriladi. Maslahat paytida bajarilgan ishlarni talabga javob berish darajasi nazorat qilib boriladi.

### **Ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash**

Talabaga biron mavzu bo'yicha ilmiy (referativ) xarakterdagi maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tatqiqot ishlari, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi va o'z fikrlarini bayon qiladi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

### **Amaliyotdagi mavjud muammolar echimini topish**

Talabaga bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha noan'anaviylikni tahlil qiladigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliyotdagi mavjud muammolar, ijodiy yondashish talab qiladigan ilmiy- ijodiy vazifalar topshiriladi. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal usulini izlashga va topishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunda o'qituvchi talaba bilan hamkorlikda ishlaydi.

### **Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish.**

- talabalar mustaqil ishini tashkil qilishga tizimli yondashish;
- talabalar mustaqil ishini barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- talabalar mustaqil ishini bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish.

Talabalar mustaqil ishini muvaffaqiyatli yakunlashi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- Maqsad bilimning (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va x.k.), aniq asoslanishi;
- vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- topshiriqlarni bajarish algoritmi va uslublaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo'lishi, maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi;
- hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish.

O'quv fanlari bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etadi.

Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqiladi va fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishini bajarish uchun fanlar bo'yicha talabalarga zaruriy uslubiy qo'llanma, ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### **Talaba mustaqil ishini nazorat qilish**

Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedrada tuziladigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos ravishda baholanadi. Har bir fan bo'yicha mustaqil ishning shakllari kafedra majlislarida muhokama etiladi va tasdiqlanadi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari har bir kafedrada muhokama etiladi va fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan metodik materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yig'ilishlarida muhokama qilib boriladi.

#### **“Etnomadaniyat” fanidan II-bosqich talabalari uchun mustaqil ish mavzulari**

№	Mavzular	Adabiyotlar bilan ishlash	Internet materiallari	Ko'rgazmali qurol	Referat	Yakuniy ball	Jami	Soati
		Max-1 ball	Max-2 ball	Max-2 ball	Max-4 ball	Max-1 ball	Max-10 ball	
1.	O'tmish milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirishda Etnomadaniyat fanining ahamiyati.							6
2.	Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri.							6
3.	Ajdodlarimiz madaniyatining rivojlanish bosqichlari.							6
4.	Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi tarixi.							6
5.	Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi.							5



6.	Tarixni o'rganishda tarixiy manbalarni beqiyos ahamiyati.							5
7.	Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni.							5
8.	Xalqimiz hayotiga marosim-bayramlarning kirib kelishi.							5
9.	Xalq o'yinlari - Etnomadaniyatning tarkibiy qismi.							5
10.	Qadimgi davr o'zbek folklori - etnomadaniyat tarixida muhim manba							5
11.	An'anaviy oila - turmush marosimlari - xalq madaniyatining fenomeni.							5
12.	O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari.							5
13.	Milliylik falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida.							5
14.	Etnik va ijtimoiy xotira.							5
15.	Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash.							6
16.	Etnomadaniyat va etnopsixologiya.							5
17.	Toponomika maishiy o'z-o'zini anglash, etnik xotira va etnik ongning tarkibiy qismi.							5
<b>Jami</b>								<b>90</b>

Bunda talabanning mustaqil ishlarini baholash asosan 5 ta ko'rsatkich bo'yicha amalga oshiriladi:

### I. Adabiyotlar bilan ishlash darajasi -1 ball

1. Talabanning viloyat va universitet kutubxonalariga a'zoligi - 0,3 ball
2. Talabanning kartotekalardan foydalana olish darajasi - 0,3 ball
3. Adabiyotlar bilan ishlash holati - 0,4 ball

## **II. Internet materiallaridan foydalana olish darajasi - 2 ball**

1. Kompyuter savodxonligi - 0,5 ball
2. Internet saytlarining ro'yxati - 0,5 ball
3. Tanlangan materiallarning mavzuga mos kelishi – 0,5 ball
4. Materialni tarjima qilish imkoniyati – 0,5 ball

## **III. Ko'rgazmali qurollar tayyorlash - 2 ball**

1. Ko'rgazmali kurolning standart talabiga mos kelishi 0,5 -ball
2. Ko'rgazmali qurolning originalligi (o'ziga xosligi) 0,5 -ball
3. Ko'rgazmali qurolning mavzuga mosligi -1 ball

## **IV. Referatning ilmiy jihatdan yoritilishi - 4 ball**

1. Referatda ijtimoiy-siyosiy voqyelikning aks ettirishi 1-ball
2. Referatda ilmiy nazariy manbalarning yoritilishi - 1 ball
3. Referatda ilmiy amaliy manbaalarning yoritilishi - 1 ball
4. Xulosa va tavsiyalarning mavjudligi - 1 ball

## **V. Yakuniy nazorat (referat himoyasi) - 1 ball**

1. Talabanning o'z mavzusini chuqur egallaganligi 1- ball
2. Talabanning erkin va mustaqil fikrlay olishi 1- ball

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.**

### **Rahbariyat adabiyotlari**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2022. - 464 б.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. <https://president.uz/uz/>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr " O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son Farmoni.
10. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. 2019 yil 31 dekabr. O'zbekiston Respublikasi VM Qarori №1059, Toshkent sh.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Murodov M., Qorabaev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma,- T.: Adolat, 2003 yil.
2. Ashirov A., Atadjanov SH. Etnologiya. - T.: TDPU, 2007 yil.
3. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. - T.:TDPU, 2007 yil.
4. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-T.: "INNOVATSIYA - ZIYO", 2019 yil.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" gi PQ-4307-son qarori. // (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008 yil.
4. Jabbarov I.M. O'zbek xalqi etnografiyasi -T.: O'qituvchi, 1994 yil. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. Fan, 1996 yil.
5. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti -T.: Yangi asr avlodi, 2004 yil. Mamanazarov N. Mustaqillik va milliy etnik jarayonlar - T.: Fan, 2004 yil.
6. Qoraboiev U., Soatov F. O'zbekiston madaniyati - T.: Tafakkur - bo'stoni, 2007 yil.
7. Mustaqillik. Izohli-ilmiy ommabop lug'at. - T.: SHarq, 2009 yil.
8. Falsafa ensiklopedik lug'at. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010 yil.

#### **Axborot manbalari:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

2. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. [www. edu. uz](http://www. edu. uz)
4. [www. ma'naviyat. uz](http://www. ma'naviyat. uz)
5. [www.bilim.uz.](http://www.bilim.uz)
6. [www. tdpu. uz](http://www. tdpu. uz)



# Glossariy

## “Etnomadaniyat” fanidan

### Glossariy

**Anhor** atamasi arabcha nahr (daryo, kanal) soʻzining koʻpligi. Akademik YA. Gʻ. Gʻulomovning fikricha, Boʻzsuv kanali shahar ichkarisiga kirgan hozirgi Semashko nomli shifoxona yonida gʻarbga — Kaykovus nomi bilan, janubga — Anhor nomi bilan ikkiga boʻlinib ketgan. Har ikkala kanal milodning V — VI asrlari mobaynida qazilgan.

**Anʼana** – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros boʻlib oʻtadigan, kishilar madaniy hayotiga taʼsir oʻtkazadigan madaniy xodisadir. Anʼana oʻziga xos ijtimoiy qoida tarzida kishilar onggiga singan (umum yoki maʼlum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi.

**Arpapoya** soʻzi aslida arpaning poyasi yoki arpa ekiladigan joy boʻlmasa kerak. H. Hasanov maʼlumotiga koʻra, Aropa deganda oʻrda chetidagi xandaq tushunilgan. Aropa asta-sekin Arpapoya boʻlib oʻzgarib ketgan boʻlishi mumkin. Aropa (Arofa) «balandlik» maʼnosidagi «arfa» soʻzining koʻpligi boʻlishi ham mumkin.

**ASHYOVIY MANBALAR.** Ashyoviy manbalarga qadimgi odamlarning manzilgohlari, binolar, turli inshootlar, mehnat qurollari va turli buyumlar kiradi. Ashyoviy manbalarni qidirib topish va oʻrganish bilan asosan arxeologiya fani shugʻullanadi.

**Chaqar** deb shahar devorining tashqarisidagi qalʼa istehkomga aytilgan.

YAna shuni aytish kerakki, chahar degan Moʻgʻul urugʻi boʻlgan, Moʻgʻulistonda chahar degan joy ham bor. Filologiya fanlari doktori S. D. Nominxonov Oʻzbekistonda CHaqar deb nomlangan qishloqlardan ettitasini sanab oʻtadi va bu qishloqlar CHaqar degan urugʻ nomi bilan atalgan, deydi.

**Darxonariq** — Moʻgʻulcha «darhon» soʻzidan tarkib topgan boʻlib, maʼnosi «majburiyatlardan toʻla ozod qilingan» demakdir. Bunday nomlar koʻp uchraydi. Masalan, Samarqand viloyatining Ishtixon rayonida Boshdarxon, Joʻraboydarxon, Ozoddarxon, Naymandar-xon, Poʻlatdarxon, Qirqdarxon degan qishloqlar bor. Bu soʻz oʻzbek tilida «tarxon» shaklida ishlatiladi. Tarxon — xohlagan narsasini qila oladigan; harbiy xizmatdan butunlay ozod kishidir. Tarxonlar har qanday jinoyat qilsalar ham, toʻqqiz nafargacha afv etilgan. Tarxonlik XV asrda ayniqsa avj olgan va feodallarga keng imtiyoz berishning bir vositasi hisoblangan. Temuriylar davlatida tarxonlar qoʻlida yirik erlar va katta hokimiyat boʻlgan. Tarxonlik Oʻrta Osiyoda xdm saqlanib qolgan. Baʼzan ayrim kishilargina emas, balki butun bir shaxdr aholisiga tarxonlik huquqi berilgan.

**Eski jo`va** — Toshkentdagi xon arkining chekkasida, eski harbiy aslahdlar saqlanadigan omborxonona — jevaxona bo`lgan. Haqiqatan ham jeba (jiba) deganda sovut yoki umuman harbiy qurol-aslah tushunilgan. Bu o`rinda yana shuni ham aytish kerakki, tarixiy manbalarda, xususan vaqf hujjatlarida jo`ba «bozor» ma`nosida uchraydi. CHunonchi, X asr yodgorligi Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida Buxoro bozorlaridan biri Jubai baqqolon, ya`ni Baqqollar bozori deb atalganligi qayd qilingan.

**Etnograf** iborasini ham biz kundalik o`quv jarayonida qo`llaymiz va bu iborada biz etnografiya fani bo`yicha faoliyat ko`rsatadigan mutaxassisni tushunamiz.

**Etnografik manbalar.** Xalqlarning kelib chiqishi, turmush tarzi, ma`naviy xayotini, sodir bo`lgan va bo`layotgan etnik jarayonlarni o`zida aks ettirgan materiallar etnografik manbalar guruhiga kiradi. Bu manbalarni ko`makchi tarix fanlari - etnologiya fani o`rganadi. Etnografik manbalar ayrim xollarda uzoq o`tmishini qayta tiklashda g`oyat muhim rol` o`ynaydi. Masalan, XIX asrda amerikalik etnograf olim L. Morgan SHimoliy Amerikada yashagan xindularning irokezlar qaiblasini xayotini o`rganib, o`zining "Qadimgi jamiyat" nomli asarini yozdi. Uning bu asarini insoniyat tarixining ilk davri - ibtidoiy jamiyat tarixini tadqiq etishda yaqindan yordam berdi. Xozirgi kunda turli o`zbek urug`lariga mansub bo`lgan axoli guruhlarining jamlovi. Ularning etnik xususiyatlarini o`rganish tariximizning etnik saxifalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Etnologiya** atamasi, yuqorida qayd qilinganidek, qadimgi yunoncha «etnos» (xalq, elat) va «logos» (so`z, ma`no) so`zlaridan tashkil topgan. Uning asl ma`nosi «xalqshunoslik» deb tarjima qili-nadi. Qadimgi davrlarda greklar «etnos» so`zini boshqa g`ayri xalq (elatlar)ga nisbatan ishlatganlar. Ayrim mamlakatlarda hozirgacha etnologiya atamasi bilan birga etnografiya, madaniy yoki sotsial antropologiya, xalqshunoslik nomlari ishlatiladi.

**Etnomadaniyat** atamasi ikki iboradan tashkil bo`lib: etno va madaniyat so`zlari qo`shilmasidir. **Etno** -yunon so`zi-elat, xalq demakdir va shu bilan birga, ma`lum bir elat yoki xalqqa bo`lgan ishora, ko`rsatuv. Bu ibora biror xalqning kelib chiqishi (etnogenezi)ni ifodalaydi. Bunday tarzda biz o`zbek xalqining kelib chiqishi, uning etnogenezi (urug`chilik, nasl) ni tushunishimiz kerak.

**Etnonimka** iborasi ham ishlatilib leksikologiyaning xalq, qabila hamda urug`chilik nomlarini o`rganishga qaratilgan bo`limiga aytiladi.

**Fol`Klor Manbalar.** Xalq uzoq asrlar davomida o`zi ortirgan tarixiy bilimlarni og`zaki ijod orqali avlodan-avlodga etkazib keldi. Turli rivoyatlar, asotirlar, xalq dostonlari va maqollarda tarixning u yoki bu tomonlari o`z aksini topdi. Taniqli rus tarixchisi B. D. Grekov yozganidek, rivoyat va asotirlar - "Bu



xalqning o`zi so`zlab bergan tarixidir". O`rta Osiyo eng qadimgi xalqlarining ogzaki ijodiyoti namunalari bizgacha "Avesto" kitobi orqali, shuningdek antik tarixchilar xamda Tabariy, Narshaxiy, Beruniy va boshqalar asarlari orqali etib keldi. O`rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi qabila va elatlarning rivoyatu asotirlarlari ularning turmush tarzi va ma`naviy dunyosi xaqida ma`lumot beradi. Qadimgi ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlari to`grisida hikoya qiladi. Bu rivoyat va ertaklarda malika To`maris, cho`pon SHiroq, baxodirlar Rustam va Siyovushlar obrazini yaratdi. Ularning Vatan ozodligi yo`lidagi fidokorona kurashlarini tarannum etdi. Xalq afsonalari Abulqosim Firdavsiyning mashhur "SHoxnoma" asarining syujetini tashkil etdi.

**Fonoxujjatlar.** Fonoxujjatlar deganda biz grammafon plastinkalari hamda magnit tasmalarga yozib olingan nutqlar, suxbatlar, adabiyot va san`at asarlarini tushunamiz. O`zbekiston Markaziy kinofotofonoxujjatlar Davlat arxivida qator shunday xujjatlar saqlanmoqda. SSSR va O`zbekiston SSR davlat va jamoat arboblari, fan adabiyot va san`at namoyondalari, ishlab chiqarish ijodkorlarining nutq va interv'yulari, eski bol'sheviklar, grajdanlar urushi va ikkinchi jahon urushi faxriylarining esdaliklari alohida o`rin tutadi. Lekin bu xujjatlarning ko`pchiligi o`sha davrda hukmron bo`lgan kommunistik mafkura ruxi bilan yo`g`irilganligini ta`kidlab o`tish zarur. Arxivda shoir va yozuvchilarning o`z asarlaridan o`qigan parchalari matni, san`at ustalarining kontsertlari ham yozib olingan. Fonoxujjatlar xam tarixning jonli manzaralarini yaratishga, adabiyot va san`at tarixini teran o`rganishda muhim o`rin tutadi.

**Fotokinoxujjatlar.** Fotograf hamda kino san`ati paydo bo`lgandan so`ng tarixiy manbalarning yangi bir guruhi vujudga keldi. Bunday manbalar fotoxujjatlar deb ataladi. Toshkentdagi O`zbekiston Respublikasi Markaziy kinofotofonoxujjatlar Davlat arxivida XIX asrning oxiridan hozirgi kunga qadar bo`lgan muddatda o`lkamizda sodir bo`lgan voqealarni aks ettiruvchi boy fotoxujjatlar kolleksiyasi saqlanadi. Kinoxujjatlar esa asosan Oktyabr' to`ntarishidan keyingi davrni aks ettiradi. Fotokinoxujjatlarning muhim tomoni shundan iboratki, ular tariximizning turli laxzalarini jonli tarzda gavdalantiradi. Xujjatlarning bu guruhini o`rganish va ulardan foydalanish bizning tarixiy tasavvurimizni yana kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

**Jangob** — Toshkent shahridagi hozirgi A. Qodiriy nomli madaniyat va istirohat bog`ining o`rni. To`g`risi, janggoh — «goh» toponim yasovchi affiks bo`lib, asl ma`nosi joy, o`rin, maydon demakdir; poytaxtimizdagi nomozgoh guzari — juma kunlari va hayitlarda jamoat bo`lib namoz o`qiladigan joy bo`lgan. Toshkent dahalari ana shu erda jang qilishgan, degan fikrlar mavjud, ammo bu joy

faqat jang emas, xo`roz, qo`chqor urishtirib, hordiq chiqaradigan joy degan ta`riflar ham mavjud.

**Lingvistik Manba.** O`zbek tili va boshqa tillarning leksik tarkibida mavjud bo`lgan va hozir xam mavjud atamalar va toponimlar (joy nomlari)ni tadqiq etish jarayonida qimmatli tarixiy materiallar qo`lga kiritilishi mumkin. Atamalar va topilmalarning kelib chiqishi va mazmunini aniqlash bilan lingvistika (tilshunoslik) fani shug`ullanadi. Bunday ma`lumotlar lingvistik manbalar deb ataladi. Masalan, "Buxoro" toponimi sanskrit tilidagi "vixara" so`zining o`zgargan varianti bo`lib, "ibodatgoh" degan ma`noni bildirilishi aniqlangan. Qadimda Buxoro shahrida buddaviylarning ibodatxonasi mavjud bo`lganligi sababli keyinchalik bu so`z mazkur shaharga nisbatan ishlatila boshlagan. Shunga o`xshab "vag`nze", "dax'yu", "suyurg`ol", "tanxo" singari yuzlab atamalarning kelib chiqishini o`rganish qiziqarli tarixiy ma`lumotlar beradi.

**Millatlararo totuvlik g`oyasi** - umumbashariy qadriyat bo`lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo`lib xizmat qiladi. Millat(lotin. *natio* — millat) til, ma`naviyat, milliy o`zlikni anglash ruxiyati, urf-odatlar, an`analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan xududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bog`langan, shuningdek, odatda o`z davlatiga ega bo`lgan hamda mustaqil subyekt sifatida o`ziga xos moddiy va ma`naviy boyliklarni ifodalovchi kishilarning ijtimoiy barqaror birligi.

**Milliy g`urur** – 1)shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o`z-o`zini anglash asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma`naviy merosdan, o`z xalqining jahon tsivilizatsiyasiga qo`shgan hissasi, o`zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro`-e`tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

**Milliy ong** – millatning mavjudligi uning tarixiy taraqqiyoti va istiqboli bilan bog`liq omil.U millatning shakllanishi, taraqqiy etishi va abadiyligini ta`minlaydi. Milliy ong millatning o`zi bilan birga shakllanib boradi. Uning boshqalardan farq qiluvchi, faqat o`ziga taalluqli bo`lgan manfaatlari va maqsadlari shakllanishi milliy ongni vujudga keltiradi.

**Yozma Manbalar.** Yozma manbalar tarixiy manbalarining muhim va asosiy qismi hisoblanadi. O`rta Osiyoda miloddan avvalgi 1 mingyillikda dastlab oromiy yozuvlari, so`ngra asoslangan so`g`d, xorazm va baqtriya yozuvlari tarq`aldi. Keyinchalik bu mintaqada yunon, kushon, turk va arab yozuvlari yoyildi. Qadimgi Fors, So`g`d, Xorazm, Qadimgi turk, fors-tojik, eski o`zbek, rus va boshqa tillarda bitilgan yozma manbalar ko`p asrlik tariximizni o`rganishda ulkan rol` o`ynaydi. Yozma manbalar q`oyalarga, taxta va matolarga, pergament qog`ozlarga yozilgan bitiklardan iborat. Yozma manbalar davrlar bo`yicha nixoyatda notekis

bo`lingandir. Eng qadimgi davrlar bo`yicha yozma manbalar nixoyatda oz bo`lib, keyingi asrlarga oid manbalar esa tobora ko`payib boradi. Yozma manbalarning katta qismi son-sanoq'siz jangu jadallar va tabiiy ofatlar natijasida nobud bo`ldi.

# Illovalar



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**

\_\_\_\_\_ **D. Xolmatov**

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ **2023 yil**

**“ETNOMADANIYAT”**

**Moduli dasturi (sillabus)**

**6 KREDIT (ECTS)**

Bilim sohalari:	<b>100000</b>	–	<b>Gumanitar soha</b>
Ta'lim sohalari:	<b>110000</b>	–	<b>Pedagogika</b>
Ta'lim yo'nalishlari:	<b>60112100</b>	–	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

**Modulga oid ma'lumotlar**

*Modul kodi:* \_\_\_\_\_

*Modul nomi:* Etnomadaniyat

*Semestr / O'quv yili:* 3 / 2023-2024

*Kafedra nomi:* Milliy g'oya va huquq ta'limi

*Soatlar / kreditlar soni:* 6 kredit (180 soat)

*Modul muallifi / Professor-o'qituvchi:* Gapparov Elyorjon Otabekovich –dotsent v.b.,

[el\\_gapparov@mail.ru](mailto:el_gapparov@mail.ru)

*Qabul soatlari:* tasdiqlangan reja-grafik asosida

**Tasdiqlangan:** NamDU Kengashining 20\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dag

\_\_\_\_\_ - son qarori

NAMANGAN – 2022

## I. MODULNING TAVSIFI

Ushbu modul o'zida 18 ta mavzuni jamlagan bo'lib, talabalarga xalqimizning tarixiy shakllanishi, uning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot bosqichlari, milliy madaniyatimizning o'tmishda qo'lga kiritgan yutuqlari, elat, qavm, millat tushunchalarining mazmun va mohiyatini tushuntirish, o'tmishda va hozirgi kunda muayyan darajada shakllanib, taraqqiy etib kelayotgan milliy madaniyatimizning tadrijiy – tarixiy jarayonini o'rgatishdan iborat.

Mavzularda asosan “Etnomadaniyat” fanining predmeti, maqsad va vazifalari, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, etnografiyasi muammolari, O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar, Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni, Qadimgi davr o'zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba, O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlari, Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rni, Etnopedagogika va milliy ma'naviyat, An'anaviy oila – turmush marosimlari - xalq madaniyatining fenomeni, O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari, Milliylik falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida, Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash, Ekologik ong va etnomadaniyat, Milliy o'zlikni anglash jarayonida etnomadaniyatning o'rni, Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi, Etnomadaniyat va etnopsixologiya, Etnik va ijtimoiy xotira, Toponimika – etnos ongning tarkibiy qismi kabi masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi.

Modul o'zbek tilida olib boriladi.

## II. MODULNING ASOSIY TALABLARI

Modul 2-kurs talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ulardan “**Etnomadaniyat**” fanidan bazaviy bilim va ko'nikmalarga hamda jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar haqida tasavvurlarga ega bo'lish, shuningdek og'zaki va yozma o'zbek tilini puxta bilish talab etiladi.

## III. ANNOTATSIYA

*5 ECTS – 150 auditoriya soati.*

<b>Modul kodi</b> <b>EtnoM2005</b>	<b>O'quv yili</b> <b>2021-2022</b>	<b>Semestr</b> <b>3</b>	<b>ECTS-kreditlar</b> <b>6</b>	
<b>Modul turi -</b> <b>majburiy</b>	<b>Ta'lim turi –</b> <b>O'zbek</b>			
<b>Fanning nomi –</b> <b>Etnomadaniyat</b>	<b>Maruza</b>	<b>Amaliy</b>	<b>Mustaqil</b> <b>ta'lim</b>	<b>Jami</b>

	<b>40</b>	<b>50</b>	<b>90</b>	<b>180</b>
--	-----------	-----------	-----------	------------

Modul nazariy va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan hamda individual va jamoaviy ishlash asosida tashkil etiladi. O'quv mashg'ulotlari davomida talabalar ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilishlari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishlari nazarda tutilgan. Modul **“Etnomadaniyat”** ni chuqur o'zlashtirish bilan xalqimizning kelib chiqishi, uning etnik rivojlanishiga doir bilim, ko'nikma va tushunchalarni shakllantirish orqali keyinchalik boshqa ijtimoiy-gumanitar sohalarni o'zlashtirishga zamin yaratadi. Ushbu xususiyat orqali o'quv moduli ham milliy, ham xorijiy talabalar uchun foydali bo'ladi.

#### **IV. MODULDAN KO'ZLANGAN MAQSADLAR**

Talabalarga **Etnomadaniyatga oid tushuncha va tamoyillar** haqida muayyan bilim va tushunchalar berish, bu boradagi ilmiy qarashlarning shakllanishi, rivojlanishini zamonaviy o'zgarishlar, interfaol texnologiyalar bilan bog'lab o'rgatishdan iborat.

**“Etnomadaniyat”** moduli orqali xalqimizning tarixiy shakllanish bosqichlari, uning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti, milliy madaniyatimizning o'tmishda qo'lga kiritgan yutuqlari, elat, qavm, millat tushunchalarining mazmun va mohiyatini tushuntirish, o'tmishda va hozirgi kunda muayyan darajada shakllanib, taraqqiy etib kelayotgan milliy madaniyatimizning tadrijiy rivojlanish jarayonlarini o'rgatishdan iborat.

“Etnomadaniyat” modulini o'rganish orqali egallangan bilimlar yoshlarning mafkuraviy immunitetini, siyosiy madaniyati, ogohligini oshirishga, ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishga o'rgatadi.

#### **V. MODULDAN KUTILGAN NATIJALAR**

**Modulni yakunlagandan so'ng talabalar quyidagilarda namoyon bo'ladigan bilimlarga ega bo'ladilar:**

- etnomadaniyat tushunchasining mazmun va mohiyati, fanning predmeti, maqsad va vazifalari, o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar, etnomadaniyatning shakllanishi, etnomadaniyatning shakllanish omillari, etnopedagogika va milliy ma'naviyat uyg'unligi, xalq madaniyatining rivojlanishida an'anaviy oila-turmush marosimlarining o'rni, o'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari, etnomadaniyat va o'z-o'zini anglashning mohiyati, etnomadaniy jarayonlar, toponomikaga oid **bilimga;**

- o'zbek xalqi etnomadaniyati tarixi, shakllanish jarayoni, etnomadaniyatning shakllanishda xalq og'zaki ijodi, xalq teatri va boshqa omillarning o'rni borasidagi bilimlarni amaliyotda qo'llash **ko'nikmalariga**;

- yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda o'zbek xalq og'zaki ijodidan foydalana olish, ta'lim tarbiya tizimida xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlarini o'rinli qo'llasli olish, madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'mini o'quvchi yoshlarga tushunlira olish, o'quvchilarda an'anaviy oila-turmush marosimlari haqida tasavvurlarni shakllantira olish **malakasiga ega bo'lishi kerak.**

## VI. MODUL REJASI

### 1. Jadval: Mavzular bo'yicha jami soatlar

T/r	Mavzular sarlavhalari	Jami soat	Auditoriya soati		Mustaqil ta'lim soatlari
			Ma'ruza	Seminar	
<b>4-semestr</b>					
1.	Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari	9	2	2	5
2.	<b>Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, etnografiyasi muammolari.</b>	11	2	4	5
3.	O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar.	11	2	4	5
4.	Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni.	9	2	2	5
5.	Qadimgi davr o'zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba.	9	2	2	5
6.	O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlari.	11	2	4	5
7.	Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rni.	9	2	2	5



8.	Etnopedagogika va milliy ma'naviyat.	13	4	4	5
9.	An'anaviy oila – turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni.	9	2	2	5
10.	O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari.	11	2	4	5
11.	Milliylik falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida.	9	2	2	5
12.	Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash.	9	2	2	5
13.	Ekologik ong va etnomadaniyat	9	2	2	5
14.	Milliy o'zlikni anglash jarayonida etnomadaniyatning o'ri	9	2	2	5
15.	Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi.	13	4	4	5
16.	Etnomadaniyat va etnopsixologiya.	9	2	2	5
17.	Etnik va ijtimoiy xotira.	9	2	2	5
18.	Toponimika - etnos ongning tarkibiy qismi.	11	2	4	5
<b>Semestr bo'yicha jami</b>		<b>180</b>	<b>40</b>	<b>50</b>	<b>90</b>

## 2. O'QUV KURSI TARKIBI

<b>№</b>	<b>Nazariy mashg'ulotlar mavzulari mazmuni</b>	<b>Soat</b>
<b>1</b>	<p><b>Mavzu: "Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari</b></p> <p>Etnomadaniyat atamasining etno va madaniyat so'zlari qo'shilmasidan tarkib topgan bo'lib, fan sifatida biror xalqning kelib chiqishi (bu borada o'zbek xalqi), Uning madaniyati, turmush tarzi, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarini tarixiy jarayon (davr)larda ravnaq topib hozirgi kunimizgacha rivojlanib kelayotgan ma'naviy hamda madaniy merosini o'rganishga qaratilganligi.</p>	<b>2</b>

	<p>O'zbekiston Resublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi huzuridagi "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-qo'ltiqlash to'g'risida" gi Qarorida o'tmish milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirish, buyuk ajdodlarimizning asrlar davontida yaratgan bebaho madaniy-ma'rifiy merosini ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yodgorlik qilib qoldirish, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga qo'shgan ulkan hissasini butun dunvoga qavla tanitish, uni keng targ'ib etisli, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga milliy g'urur, milliy iftixor, Vatanga muhabbat va istiqlol g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini singdirib borish kerakligi xaqida aniq ko'rsatmalar berilganligi.</p>	
2	<p><b>Mavzu: Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, etnografiyasi muammolari</b></p> <p>Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri bo'lib kelganligi. Bunday baholanish mezoni, albatta tarixiy arxeologik, poleontologik hamda antropologik tekshiruvlar natijalariga tayanishi. Ko'plab qazilma hamda tekshiruvlar Markaziy Osiyo zaminining barcha hududlarida olib borilganligi. Eramizdan million yillar burun bu zaminda kishilar yashab kelganligi ham isbotlanganligi.</p> <p>O'tmishdagi ajdodlarimiz madaniyatining rivojlanish kurtaklari eng qadimiy poleolit davriga, ya'ni O'rta Osiyoda odam zoti paydo bo'la bosh lagan - 500 ming yil avvalgi davrlarga borib taqalishi. Shu bilan bir qatorda bu yarim million yil doirasidagi inson hayoti, madaniyati, rasm-rusm hamda urf-odatlarini o'rganish uchun bugungi kunda yetarlicha sharoitlar mavjudligi.</p> <p>Farg'ona vodiysining So'x tumanida topilgan Sulung'ur g'oridagi asori - atiqalar, Anov va Namozgoh, Sopollitepa qazilmalarining namunalari ajdodlarimizning qadimgi makonlari qanday bo'lganligi, hayot va turmush tarzi, ma'naviy-madaniy xususiyatlari to'g'risida ma'lum tasavvurlar hosil qilishga imkon berishi.</p>	2
3	<p><b>Mavzu: O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar</b></p> <p>Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi. Tarixiy manbalar qatoriga qadimgi odamlarning manzilgohlari, qadimgi shaharlar, qal'alar va ularning xarobalari, sug'orish inshootlari qoldiqlari, ajdodlarimizning mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, zeb-ziynatlar, tangalar,</p>	2

	<p>qoyatosh sur'atlari, petroglillar, yozma hujjatlar va boshqalar kirishi.</p> <p>Tarixiy manbalar insonlarning ijtimoiy faoliyati davomida yaratilishi va o'tmish liodisalarini o'zida aks ettiradi. Tarixiy manbalarsiz tarixni o'rganish mumkin emasligi.</p> <p>Hozirgi zamon tarix fanida tarixiy manbalarning shartli ravishda 7 asosiy guruhga bo'linishi.</p> <p>Ashyoviy manbalar. Etnografik manbalar. Fol'klor manbalar. Rivoyat va asotirlar – “Bu xalqning o'zi so'zlab bergan tarixi” ekanligi. Lingvistik manbalar. Fotokinohujjatlar. Fonohujjatlar. Yozma manbalar.</p>	
4	<p>Mavzu: <b>Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni</b></p> <p>Dehqonchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi ikki an'ana: ya'ni bahorda mehnat mavsumiga kirish va kuzda hosilni yig'ish yakuniga bag'ishlangan marosim-bayramlarni yuzaga keltirganligi. Eng qadimiy davrdan boshlab inson hayotida termachilik, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilikka oid mehnat tajribalari bilan birga o'yin-raqs shakllana boshlaganligi. Marosim, san'at, ijod kabi madaniyat turlarining vujudga kelishida va rivojlanishida o'yinlar o'ta muhim rol o'ynaganligi.</p> <p>Xalq o'yinlari - Etnomadaniyatning tarkibiy qismi ekanligi. Xalq o'yinlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Chorvachilik bilan bog'liq xalq o'yinlari. Yil fasllari, shahar va qishloqlarga xos o'yinlar tizini. Boshqotirma, so'z, qo'shiq, raqs-o'yinlar, voqeband, harakatli o'yin turlarining vujudga kelishi.</p> <p>Sho'rolar davrida xalq o'yinlarining hayotdan siqib chiqarila boshlanishi. Barcha uchun umumiy bo'lgan ong, til, odatlar, o'yinlar joriy qilina boshlanishi.</p> <p>Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda Milliy o'yinlarning tiklanishi va rivojlanishi.</p>	2
5	<p>Mavzu: <b>Qadimgi davr o'zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba</b></p> <p>Xalq og'zaki badiiy ijodini o'rganuvchi fan folklorshunoslik yoki folkloristika deb yuritilishi.</p> <p>Folklorshunoslik asoslarining qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqalishi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi ilk fikrlari folklorshunoslik uchun muhim ekanligi. Folklor namunalari yozib olishdagi birinchi tajribalar. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asaridagi folklor namunalari.</p> <p>Qadimgi davr folklori deganda qadim zamonlardan to X asrga qadar yaratilgan va ijro etilgan folklor asarlari nazarda tutilishi. Qadimgi davr</p>	2

	folklori haqidagi ma'lumotlarni bizga qadar etib kelgan ayrim yozma manbalardan, arxeologik topilmalardan o'rganishimiz. Etnomadaniy jarayonning shakllanishida qadimgi davr folklorining o'rni va ahamiyati.	
6	<p><b>Mavzu: O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlari</b></p> <p>O'zbek xalq og'zaki ijodi. Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasi. Har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqeaning ahamiyati katta ekanligi. Topishmoqlar xalq zukkoligi va topqirligi mahsuli ekanligi. Chistonlar. Xalq qo'shiqlarining paydo bo'lishi. Qo'shiqlarda xalq orzu armonlarining ifoda etilishi. Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biri ekanligi. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi g'oyalari bilan chambarchas bog'liqligi. Dostonlarning sinkretik - omuxta janr hisoblanishi. Xalq dostonlarining ijrochilari O'zbekistonning turli hududlarida turli nomlar bilan yuritilishi.</p>	2
7	<p><b>Mavzu: Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rni</b></p> <p>Insoniyatning madaniy taraqqiyoti tarixini anlik teatrsiz tasavvur qilib bo'lmasligi. Antik teatr mazmunan xalq hayoti, uning taqdiri bilan bog'liq ulug'vor g'oyalar teatri sifatida dunyoga kelganligi. Qadimgi Yunonistonda Esxil, Sofokl Evripid, Aristofan, Rimda Plavt va Senekalar yangi sahnaviy shakllar, umumlashgan falsafiy, teran badiiy obrazlar orqali el-yurtni jo'shqin sevishtirish, qadrlash e'tiqodlarini tarannum etganliklari. Antik dunyodan bizga badiiy ijodning tragediya, komediya janrlariga oid benihoya go'zal, badiiy yuksak adabiy namunalari etib kelganligi. Raqs san'ati madaniyatning o'ziga xos, eng go'zal turi sifatida. Raqs san'atining estetik jihatlari. Raqslarga ko'chgan orzu armonlar va umidlar. Xalq madaniyatining takomillashib borishida teatr va raqs san'atining beqiyos ulushi va ahamiyati.</p>	2
8	<p><b>Mavzu: Etnopedagogika va milliy ma'naviyat</b></p> <p>Millatni milliy tarbiya shakllantirishi. Milliy tarbiya xalq pedagogikasining muhim yo'nalishi, xalq pedagogikasi esa, xalq ijodining tayanchlaridan biri ekanligi. Xalq ijodi bitmas-tuganmas xazina ekanligi. Xalq ijodini chuqur va ko'p o'rganilsa, u shunchalik ko'p yangi qirralarni namoyon etishi.</p>	4

	<p>Millatni millai sifatida, xalqni xalq sifatida saqlab turish - xalq pedagogikasining muhim xususiyatlaridan biri ekanligi.</p> <p>Bayramlar eng qadimiy davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylanganligi. Har bir millat va elat, xalqning o'z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan bayramlari mavjudligi. O'zbek xalqining bayramlari qon-qardosh xalqlarning tarixiy-madaniy aloqalari jarayonida shakllangan va rivoj topgan, boshqa xalqlar bayramlariga la'sir etgan va o'z navbatida qarama-qarshiliklar, to'siqlarni yengib, boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan uzoq tarixga ega ekanligi.</p>	
9	<p style="text-align: center;"><b>Mavzu: An'anaviy oila – turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni</b></p> <p>XX asr so'nggi choragidan boshlab dunyo miqyosida etnolog va sotsial antropologlar tomonidan marosimlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o'rganishga alohida e'tibor qaratilganligi. So'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida kechayotgan globalizatsion jarayonlar etnik xususiyatlarning saqlab qolish omillarini va milliy marosimlarni tadqiq etish muammosini dolzarb muammolar tarzida kun tartibiga qo'yilishiga sabab bo'lishi.</p> <p>Oila va oilaviy marosimlar etnosga oid madaniy va maishiy an'analar uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanishi.</p> <p>Xalqimizning qadimiy e'tiqodlarini, madaniyat tarixi, orzu intilishlari, hayolga munosabatini o'rganishda nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlar muhim ahamiyatga egaligi.</p> <p><b>Dunyodagi ko'plab boshqa xalqlar singari o'zbek to'y marosimlari sirasida nikoh to'ylari o'zining turli xildagi marosimlarga, irim-sirimlarga boyligi, etnografik manbalarning rang-barangligi bilan alohida ajrab turishi.</b></p>	2
10	<p style="text-align: center;"><b>Mavzu: O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari</b></p> <p>Etnologik yo'nalishda bajarilgan tadqiqotlarda moddiy madaniyat (turar joylar, kiyimlar, taqinchoqlar, oziq ovqatlarjni odatda grafik tasvirlar, planlar, chertyojlar, rasmlar, fotosuratlar yordamida batafsil tavsiflash va ilmiy tahlil qilish o'ziga xos an'anaga aylanganligi. Lekin ushbu malumotlar etnologik tadqiqotlarning asosiy maqsadini isbotlashga ko'maklashuvchi tavsifiy vosita bo'lib xizmat qilishi. Moddiy madaniyatning etnologik yo'nalishda tadqiq etilishida ko'zlangan asosiy maqsad o'rganilayotgan ob'ektning xalq ijtimoiy turmush-tarzi bilan aloqadorligini yoritishdan iboratligi. Moddiy madaniyat namunalarida aks etuvchi ramz, belgi g'oya ko'rihida ham qiziqarli bo'lib, bu bevosita u bilan bog'liq tasavvurlar, e'tiqodiy qarashlarni talil qilishda</p>	2

	<p>muhim ahamiyat kasb etishi. Etnologlar uchun moddiy madaniyat namunalarining lavsifi etnas, balki ularning inson bilan aloqadorligi qiziqarli hisoblanishi.</p>	
11	<p><b>Mavzu: Milliylik falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida</b></p> <p>Ong sohasidagi millivlik badiiy madaniyatda xalq milliy xarakterining ifodalanishi. Etnik birliklar shakllanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy omillar.</p> <p>Etnotsentrizm ommaviy ong va alohida shaxsning o'z-o'zini anglash darajasidagi psixologik mo'ljallar yig'indisi.</p> <p><b>Etnotsentrik stereotiplarni bartaraf qilishning zaruriyati. Millatchilikda milliy egoizm, milliy fobizm, milliy antipatiyaning namoyon bo'lishi.</b></p>	2
12	<p><b>Mavzu: Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash</b></p> <p>Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash uyg'unligi. Milliy o'z-o'zini anglashning asosiy omillari. Milliy o'z-o'zini anglash ijtimoiy ong fenomeni sifatida.</p> <p>Umuminsoniy madaniy qadriyatlaming etnik madaniyat va milliy o'z-o'zini anglash bilan uyg'unligi.</p> <p>Milliy o'z-o'zini anglashning genezisi va funksiyasini o'rganishda etnopsixologiya va etnopedagogika usullaridan foydalanishning ahamiyati.</p> <p>Xalq etnopsixologik xususiyatlarining madaniyat va tarix bilan bog'liqligi.</p> <p>Milliy psixologiya milliy o'z-o'zini anglashning komponenti.</p>	2
13	<p><b>Mavzu: Ekologik ong va etnomadaniyat</b></p> <p>Ekologik ongning etnomadaniyat bilan uyg'unligi. Tabiat xalqlaming etnik beshigi.</p> <p>Ekologik madaniyat va etnoekologik an'analarda haqidagi tarixiy falsafiy manbalar. Fan, madaniyat, ijtimoiy ong va milliy o'z-o'zini anglashning ekologizatsiyasi.</p> <p>Ijtimoiy ekologiya jamiyat va tabiat o'zaro ta'sirini o'rganuvchi fan.</p> <p>Ekologik an'analarda kattalarning yosh avlod ongida moddiy va ma'naviy ne'matlarni asrash madanivati shakllantirish zaruriyatining namoyon bo'lishi Xalq axloqida tabiatni asrash haqidagi tasavvurlarning shakllanishi. Zamonaviy global ekologik ziddiyatlarni yechishda davlat tashkilotlarining roli.</p>	2

14	<p><b>Mavzu: Milliy o'zlikni anglash jarayonida etnomadaniyatning o'rni</b></p> <p>Etnoijtimoiy - etnomadaniy jarayonlar, milliy o'zlikni anglash, milliy tiklanish mentalitet tushunchalarining mazmun-mohiyati va ularning o'zaro uyg'unligi. Etnoijtimoiy va etnomadaniy jarayonlarning milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati. Milliy o'zlikni anglashning milliy tiklanish bilan bog'liqligi. Madaniyatning etnos va tabiat bilan o'zaro aloqasidagi roli. Etnos biosfera va sotsiosfera o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida. Millatga xos bo'lgan "fazilat" va "qadriyatlar"ning etnomadaniyatda aks etishi.</p> <p>Demokratik islohotlar xalklar etnik ongidagi o'zgarishlar omili.</p> <p>Etnik ongdagi ijobiy va salbiy omillar.</p>	2
15	<p><b>Mavzu: Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi</b></p> <p>Milliy g'oyada ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lgan etnos borlig'i mohiyatining ifodalanishi. Sotsializm davri xalqlari ongida milliy g'oyaga munosabat.</p> <p>Millatlararo munosabatlarda mayda millat va elatlar manfaatlarini himoya qilishning ahamiyati. Departatsiya qilingan xalqlar ongida etnomadaniyatga munosabat.</p> <p>Etnos milliylikining umuminsoniylik bilan niutanosibligi. Millatlararo munosabatlarda barqarorlik taraqqiyot omili. Etnomadaniy jarayonlarda tolerantlikning ifodasi. Madaniyatlararo muloqot mintaqaviy konfliktlarni yechish omili. Etnoetiketda axloqiy tasavvurlarning ifodalanishi.</p>	4
16	<p><b>Mavzu: Etnomadaniyat va etnopsixologiya</b></p> <p>Xalqlar etnopsixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Etnopsixologiyaning muayyan xalqning bioetnogenetik xususiyatlar bilan bog'liqligi. Xalqlar etnopsixologiya va madaniyatida qadimiy donishmandlikning namoyon bo'lishi. Etnomadaniyatda milliy g'urur va milliy o'z-o'zini anglashning ifodasi. Milliy tiklanishning axloqiy jihatlari. Milliy tiklanish va etnomadaniyat rivojlanishining tendentsiyalari. Dunyoviy sivilizatsiya tizimida etnomadaniy fenomen.</p> <p>Milliy madaniyat insoniyal rivojining mahsuli. Dunyoviy madaniyat milliy madaniyatlarning yig'indisi. Milliy ong va milliy optimizm.</p> <p>Milliy optimizm, milliy ong va etnomadaniyat uyg'unligini bilish tabiatni bilish. Etnomadaniyat va tarixiy ong. Tarixiy ongning badiiy adabiyotda ifodasi.</p>	2
17	<p><b>Mavzu: Etnik va ijtimoiy xotira</b></p> <p>Tarixiy va etnik xotira. XX asrdagi jahon urushi etnik birliklar xotirasida urush qatnashchilarining jasorati, burchining ifodasi.</p> <p>Ijtimoiy xotirada xususiy etnik voqelik. Yangi avlod ongida axloqiy qadriyatlarning deformatsivasi.</p>	2

	<p>Ijtimoiy ongda onomistika. Onomistika tilni o'rganish haqidagi fan. Ijodiy ongda ijtimoiy xotira.</p> <p>Skul'ptorlar ijodida tarixiylik va tarixiy xotira. Badiiy adabiyot, san'at asarlarida tarixiylik va tarixiy xotira. Memorial yodgorliklarda tarixiy xotira, etnoxotira va etnomadaniyatning ifodasi. Etnoijtimoiy xotira va etnotarixiy bilim.</p>	
18	<p><b>Mavzu: Toponimika - etnos ongning tarkibiy qismi</b></p> <p>Toponomika milliy o'z-o'zini anglash, etnik xotira va etnik ongning tarkibiy qismi.</p> <p>Repressiya qilingan xalqlarning ijtimoiy ongida toponomik nomlarning ifodasi. Repressiya qilingan xalqlarda etnohududning yo'qligi.</p> <p>Qatag'on qilingan xalqlarning etnik ongidan ular yashagan hududning geografik nomining yo'qotilishi.</p> <p>Etnos ongidan geografik nomlar yo'qotilishining qatag'on qilingan xalq madaniyatiga ta'siri. Etnos xotirasidan milliy toponomlarning yo'qotilishi ma'naviy tiklanishning buzilishiga yo'naltirilgan harakat.</p>	2
	<b>Jami:</b>	<b>40</b>

## VII. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

### **Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. **Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari.**
2. **Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, Etnografiyasi muammolari.**
3. **O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar.**
4. **Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni.**
5. **Qadimgi davr o'zbek folklori - etnomadaniyat tarixida muhim manba.**
6. **O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlari.**
7. **Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rni.**
8. **Etnopedagogika va milliy ma'naviyat.**
9. **An'anaviy oila - turmush marosimlari - xalq madaniyatining fenomeni.**
10. **O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari.**
11. **Milliylik falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida.**
12. **Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash.**
13. **Ekologik ong va etnomadaniyat.**
14. **Milliy o'zlikni anglash jarayonida etnomadaniyatning o'rni.**



**15. Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi.**

**16. Etnomadaniyat va etnopsixologiya.**

**17. Etnik va ijtimoiy xotira.**

18. Toponomika - etnos ongning tarkibiy qismi.

### **VIII. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-mahsus ta'lim vazirligining 2009 yil 22 may 286-sonli "Talaba Mustaqil ishini tashkil etish" to'g'risidagi buyrug'iga ko'ra oliy ta'lim muassasalari talabalarida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish, kerakli ma'lumotlarni izlab topish va taqlil qilishga o'rgatish hamda shu asosda mas'uliyatli echimlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan talaba mustaqil ishi uchun belgilangan o'quvyuklamani to'liq bajarish va ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash vazifasi amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil yetishda ushbu fanning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan qolda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

- seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

- malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;

- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, dars ishlanmalarini tayyorlash;

- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;

- ilmiy mahola, anjumanlarga ma'ruza tezislarini tayyorlash va x.k.

Mustaqil ishga mo'ljallangan topshiriqlar (mavzular), ma'ruzalar mavzulari, seminar mashg'ulotlari mavzulari va kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarni bajarishga haratilishi tavsiya yetiladi.

Fan xususiyatidan kelib chiqqan qolda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi.

Topshiriqlar puxta o'ylab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarining auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

### Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Xajmi soatda
<b>4-semestr</b>				
1	O'tmish milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirishda Etnomadaniyat fanining ahamiyati.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1 – hafta	6
2	Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2 – hafta	6
3	<b>Ajdodlarimiz madaniyatining rivojlanish bosqichlari.</b>	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	3 – hafta	6
4	Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi tarixi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4 – hafta	6
5	<b>Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi.</b>	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	5 – hafta	5
6	<b>Tarixni o'rganishda tarixiy manbalarni beqiyos ahamiyati.</b>	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	6 – hafta	5
7	<b>Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni.</b>	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	7 – hafta	5
8	<b>Xalqimiz hayotiga marosim-bayramlarning kirib kelishi.</b>	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	8 – hafta	5
9	<b>Xalq o'yinlari - Etnomadaniyatning tarkibiy qismi.</b>	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	9- hafta	5
10	<b>Qadimgi davr o'zbek folklori - etnomadaniyat tarixida muhim manba</b>	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	10-hafta	5

1	An'anaviy oila - turmush marosimlari - xalq madaniyatining fenomeni.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	11-hafta	5
2	O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	12-hafta	5
3	Milliylik falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	13-hafta	5
4	Etnik va ijtimoiy xotira.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish		5
5	Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	14-hafta	6
6	Etnomadaniyat va etnopsixologiya.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	15-hafta	5
7	Toponomika maishiy o'z-o'zini anglash, etnik xotira va etnik ongning tarkibiy qismi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish		5
<b>Jami:</b>				<b>90</b>

### **Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan:

- zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi;
- amaliy mashg'ulotlarda aqliy xujum, guruhli fikrlash, "ish o'yini" va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi;
- amaliy mashg'ulotlarida kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

**“Etnomadaniyat” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi**

## **asosida baholash mezonlari**

Ushbu talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i hamda shu buyruqqa asosan ishlab chiqilgan, Namangan davlat universitetining 2018 yil 10-oktyabrdagi 3-sonli Kengashida muhokama qilingan va ma'qullangan Namangan davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi bo'yicha YO'RIQNOMA asosida ishlab chiqildi.

Fan o'qituvchisi tomonidan birinchi mashg'ulotda Yo'riqnoma talablari hamda nazorat turlari, soni, shakli va talabalar bilimini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.

### **Nazorat turlari:**

Talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida hamda mashg'ulotlardan keyin o'tkaziladi.

Talabalar mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar ishchi fan dasturida belgilangan mavzularning kamida 50 foizini o'zlashtirishlari va baholanishlari shart. Talabalarning mashg'ulotlarda olgan baholari barchasi qo'shiladi va olinishi shart bo'lgan baholar soniga bo'lgan holda o'rtacha baho keltirib chiqariladi.

Mashg'ulotlar jarayonida talabalar mustaqil ta'limiga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda talaba belgilangan TBBM asosida baholab boriladi.

**Oraliq nazorat** fan o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan test shaklida semestr davomida bir marta o'tkaziladi. Test TBBM asosida baholanadi.

Talabani yakuniy nazoratga kiritilishi o'quv mashg'ulotlari (seminar mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, ma'ruza mashg'ulotlari yakunida olinadigan oraliq nazoratning test shakli)da olgan ballari asosida amalga oshiriladi. Bunda talabaning olgan barcha baholari umumlashtiriladi va o'rtacha baho keltirib chiqariladi.

Talabaning yakuniy nazorat turigacha bo'lgan o'rtacha bahosi quyidagicha aniqlanadi:

**MM** \_\_\_\_\_

**O'B =**

bu yerda: O'B- semestrda talabalarning olgan o'rtacha bahosi;  
MO'B – mashg'ulotlarda to'plagan o'rtacha bahosi;  
MTB – mustaqil ta'limdan olgan bahosi;  
ONB – oraliq nazorat turining test shaklida olgan bahosi.

3 – mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va oraliq nazorat shakllari

Agar talabaning o'rtacha bahosi 3 bahoga yetmasa yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi kafedrası tomonidan belgilanadi va ishlab chiqish uchun fakul'tet dekaniga taqdim etiladi.

Nazorat turlari bo'yicha materiallar 6 oy mobaynida saqlanadi.

**Talabalar bilimni baholash mezonı (TBBM):**

<b>Baho</b>	<b>Talabalarning bilim darajasi</b>
5 – “A’lo”	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilgandayu
4 – “Yaxshi”	Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.
3 – “Qoniqarli”	Talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.
2 – “Qoniqarsiz”	Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

**Talabala bilimni baholash:**

Talabalar bilimni baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi. Bunda 5, 4 va 3 baholar nazorat turlariga kirish yoki talabalaga stipendiya tayinlash va kursdan-kursga ko'chirish uchun asos bo'lsa, 0, 1 va 2 baholar nazorat turlariga

kirish uchun yetarli bo'lmaydi va belgilangan muddatlarda talaba fandan qayta topshira olmasa akademik qarzdor hisoblanadi.

Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Oraliq nazorat ballari yakuniy nazorat o'tkaziladigan muddatdan kamida bir hafta muddatda umumlashtirilishi va talabalarga fan o'qituvchisi tomonidan yetkazilishi shart.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan yoki markazlashgan holda axborot kommunikasiya texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Kafedra mudiri yillik yuklamadagi fanlar bo'yicha yakuniy nazoratlarni o'tkazadigan professor-o'qituvchilar ro'yxatini shakllantiradi va ro'yxatni fakultet dekaniga tasdiqlatadi. Agar belgilangan fan bo'yicha mashg'ulot o'tgan professor-o'qituvchi(lar)dan boshqa fan bo'yicha mutaxassis bo'lmagan hollarda, tegishli kafedra mudiri o'quv yilining boshida fakultet dekaniga mutaxassis bilan ta'minlash yuzasidan yozma murojaat qiladi. Ushbu holatlarda fakultet dekani mutaxassis yetishmaydigan fan(lar) bo'yicha mutaxassis topish uchun bevosita mas'ul hisoblanadi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etmaydi.

Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2 martadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasidan norozi bo'lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyasiya komissiyasiga apellyasiya berish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to'rt nafar a'zo kiritiladi.

Talaba baholash natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyasiya Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmaganini ko'rsatiladi. Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.

#### **Baholash natijalarini qayd etish:**

Talabalar bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan Talabalarining fanlarni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida qayd etib boriladi.

Professor-o'qituvchi qo'shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yiladi. Agar talaba sababsiz yoki uzrli sabab bilan mashg'ulotlarga qatnashmasa, unga yo'q (y yoki nb) qo'yiladi. Uzrli sabablarga kasallik, uylanish va turmushga chiqish, yaqinlarini olamdan o'tishi, boshqa joylarga rejalashtirilgan safar va shunga o'xshash omillar kiritiladi.

Yakuniy nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabaning baholash daftariga yozilmaydi.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

### **Asosiy adabiyotlar:**

5. Murodov M., Qorabaev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma,-  
T.: Adolat, 2003 yil.
6. Ashirov A., Atadjanov SH. Etnologiya. - T.: TDPU, 2007 yil.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. -  
T.:TDPU, 2007 yil.
8. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.-T.:  
“INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019 yil.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

13. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. 488 б.
14. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. 592 б.
15. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
16. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
17. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
18. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
19. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida” gi PQ-4307-son qarori. // (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son.
20. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008 yil.
21. Jabbarov I.M. O'zbek xalqi etnografiyasi -T.: O'qituvchi, 1994 yil. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. Fan, 1996 yil.
22. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti -T.: YAngi asr avlodi, 2004 yil. Mamanazarov N. Mustaqillik va milliy etnik jarayonlar - T.: Fan, 2004 yil.
23. Qoraboev U., Soatov F. O'zbekistan madaniyati - T.: Tafakkur - bo'stoni, 2007 yil.
24. Mustaqillik. Izohli-ilmiy ommabop lug'at. - T.: SHarq, 2009 yil. Falsafa ensiklopedik lug'at. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010 yil.



### **Axborot manbalari:**

7. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
8. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
9. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
10. [www. ma'naviyat. uz](http://www.ma'naviyat.uz)
11. [www. bilim. uz.](http://www.bilim.uz)
12. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)

## «Etnomadaniyat» fanidan tarqatma materiallar:

«Etnologiya» atamasi, yuqorida qayd qilinganidek, qadimgi yunoncha «etnos» (xalq, elat) va «logos» (soʻz, maʼno) soʻzlaridan tashkil topgan. Uning asl maʼnosi «xalqshunoslik» deb tarjima qili-nadi. Qadimgi davrlarda greklar «etnos» soʻzini boshqa gʻayri xalq (elatlar)ga nisbatan ishlatganlar. Ayrim mamlakatlarda hozirgacha etnologiya atamasi bilan birga etnografiya, madaniy yoki sotsial antropologiya, xalqshunoslik nomlari ishlatiladi.

*Etnomadaniyat* atamasi ikki iboradan tashkil boʻlib: etno va madaniyat soʻzlari qoʻshilmasidir. *Etno* -yunon soʻzi-elat, xalq demakdir va shu bilan birga, maʼlum bir elat yoki xalqqa boʻlgan ishora, koʻrsatuv. Bu ibora biror xalqning kelib chiqishi (etnogenezi)ni ifodalaydi. Bunday tarzda biz oʻzbek xalqining kelib chiqishi, uning etnogenezi (urugʻchilik, nasl) ni tushunishimiz kerak.

*Etnonimka* iborasi ham ishlatilib leksikologiyaning xalq, qabila hamda urugʻchilik nomlarini oʻrganishga qaratilgan boʻlimiga aytiladi.

*Etnograf* iborasini ham biz kundalik oʻquv jarayonida qoʻllaymiz va bu iborada biz etnografiya fani boʻyicha faoliyat koʻrsatadigan mutaxassisni tushunamiz.

**ASHYOVIIY MANBALAR.** Ashyoviy manbalarga qadimgi odamlarning manzilgohlari, binolar, turli inshootlar, mehnat qurollari va turli buyumlar kiradi. Ashyoviy manbalarni qidirib topish va oʻrganish bilan asosan arxeologiya fani shugʻullanadi.

**ETNOGRAFIK MANBALAR.** Xalqlarning kelib chiqishi, turmush tarzi, maʼnaviy xayotini, sodir boʻlgan va boʻlayotgan etnik jarayonlarni oʻzida aks ettirgan materiallar etnografik manbalar guruhiga kiradi. Bu manbalarni koʻmakchi tarix fanlari - etnologiya fani oʻrganadi. Etnografik manbalar ayrim xollarda uzoq oʻtmishini qayta tiklashda gʻoyat muhim rol' oʻynaydi. Masalan, XIX asrda amerikalik etnograf olim L. Morgan SHimoliy Amerikada yashagan xindularning irokezlar qaiblasini xayotini oʻrganib, oʻzining "Qadimgi jamiyat" nomli asarini yozdi. Uning bu asarini insoniyat tarixining ilk davri - ibtidoiy jamiyat tarixini tadqiq etishda yaqindan yordam berdi. Xozirgi kunda turli oʻzbek urugʻlariga mansub boʻlgan axoli guruhlarining jamlovi. Ularning etnik xususiyatlarini oʻrganish tariximizning etnik saxifalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOL`KLOR MANBALAR.** Xalq uzoq asrlar davomida oʻzi ortirgan tarixiy bilimlarni ogʻzaki ijod orqali avlod-dan-avlodga etkazib keldi. Turli rivoyatlar, asotirlar, xalq dostonlari va maqollarda tarixning u yoki bu tomonlari oʻz aksini topdi. Taniqli rus tarixchisi B. D. Grekov yozganidek, rivoyat va asotirlar - "Bu xalqning oʻzi soʻzlab bergan tarixidir". Oʻrta Osiyo eng qadimgi xalqlarining

ogzaki ijodiyoti namunalari bizgacha "Avesto" kitobi orqali, shuningdek antik tarixchilar xamda Tabariy, Narshaxiy, Beruniy va boshqalar asarlari orqali etib keldi. O`rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi qabila va elatlarning rivoyatu asotirlarlari ularning turmush tarzi va ma`naviy dunyosi xaqida ma`lumot beradi. Qadimgi ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlari to`grisida hikoya qiladi. Bu rivoyat va ertaklarda malika To`maris, cho`pon SHiroq, baxodirlar Rustam va Siyovushlar obrazini yaratdi. Ularning Vatan ozodligi yo`lidagi fidokorona kurashlarini tarannum etdi. Xalq afsonalari Abulqosim Firdavsiyning mashhur "SHoxnoma" asarining syujetini tashkil etdi.

**LINGVISTIK MANBA.** O`zbek tili va boshqa tillarning leksik tarkibida mavjud bo`lgan va xozir xam mavjud atamalar va toponimlar (joy nomlari)ni tadqiq etish jarayonida qimmatli tarixiy materiallar qo`lga kiritilishi mumkin. Atamalar va topilmalarning kelib chiqishi va mazmunini aniqlash bilan lingvistika (tilshunoslik) fani shug`ullanadi. Bunday ma`lumotlar lingvistik manbalar deb ataladi. Masalan, "Buxoro" toponimi sanskrit tilidagi "vixara" so`zining o`zgargan varianti bo`lib, "ibodatgoh" degan ma`noni bildirilishi aniqlangan. Qadimda Buxoro shahrida buddaviylarning ibodatxonasi mavjud bo`lganligi sababli keyinchalik bu so`z mazkur shaharga nisbatan ishlatila boshlagan. Shunga o`xshab "vag`nze", "dax'yu", "suyurg`ol", "tanxo" singari yuzlab atamalarning kelib chiqishini o`rganish qiziqarli tarixiy ma`lumotlar beradi.

**FOTOKINOXUJJATLAR.** Fotograf hamda kino san`ati paydo bo`lgandan so`ng tarixiy manbalarning yangi bir guruhi vujudga keldi. Bunday manbalar fotoxujjatlar deb ataladi. Toshkentdagi O`zbekiston Respublikasi Markaziy kinofotofonoxujjatlar Davlat arxivida XIX asrning oxiridan xozirgi kunga qadar bo`lgan muddatda o`lkamizda sodir bo`lgan voqealarni aks ettiruvchi boy fotoxujjatlar kolleksiyasi saqlanadi. Kinoxujjatlar esa asosan Oktyabr' to`ntarishidan keyingi davrni aks ettiradi. Fotokinoxujjatlarning muhim tomoni shundan iboratki, ular tariximizning turli laxzalarini jonli tarzda gavdalantiradi. Xujjatlarning bu guruhini o`rganish va ulardan foydalanish bizning tarixiy tasavvurimizni yana kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

**FONOXUJJATLAR.** Fonoxujjatlar deganda biz grammafona plastinkalari hamda magnit tasmalarga yozib olingan nutqlar, suxbatlar, adabiyot va san`at asarlarini tushunamiz. O`zbekiston Markaziy kinofotofonoxujjatlar Davlat arxivida qator shunday xujjatlar saqlanmoqda. SSSR va O`zbekiston SSR davlat va jamoat arboblari, fan adabiyot va san`at namoyondalari, ishlab chiqarish ijodkorlarining nutq va interv'yulari, eski bol'sheviklar, grajdanlar urushi va ikkinchi jahon urushi faxriylarining esdaliklari alohida o`rin tutadi. Lekin bu xujjatlarning ko`pchiligi o`sha davrda hukmron bo`lgan komunistik mafkura ruxi bilan yo`g`irilganligini ta`kidlab o`tish zarur. Arxivda shoir va yozuvchilarning o`z asarlaridan o`qigan parchalari matni, san`at ustalarining kontsertlari ham yozib olingan. Fonoxujjatlar

xam tarixning jonli manzaralarini yaratishga, adabiyot va san`at tarixini teran o`rganishda muhim o`rin tutadi.

**YOZMA MANBALAR.** Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy qismi hisoblanadi. O`rta Osiyoda miloddan avvalgi 1 mingyillikda dastlab oromiy yozuvlari, so`ngra asoslangan so`g`d, xorazm va baqtriya yozuvlari tarq`aldi. Keyinchalik bu mintaqada yunon, kushon, turk va arab yozuvlari yoyildi. Qadimgi Fors, So`g`d, Xorazm, Qadimgi turk, fors-tojik, eski o`zbek, rus va boshqa tillarda bitilgan yozma manbalar ko`p asrlik tariximizni o`rganishda ulkan rol o`ynaydi. Yozma manbalar q`oyalarga, taxta va matolarga, pergament qog`ozlarga yozilgan bitiklardan iborat. Yozma manbalar davrlar bo`yicha nixoyatda notekis bo`lingandir. Eng qadimgi davrlar bo`yicha yozma manbalar nixoyatda oz bo`lib, keyingi asrlarga oid manbalar esa tobora ko`payib boradi. Yozma manbalarning katta qismi son-sanoq`siz jangu jadallar va tabiiy ofatlar natijasida nobud bo`ldi.

**Milliy ong** – millatning mavjudligi uning tarixiy taraqqiyoti va istiqboli bilan bog`liq omil. U millatning shakllanishi, taraqqiy etishi va abadiyligini ta`minlaydi. Milliy ong millatning o`zi bilan birga shakllanib boradi. Uning boshqalardan farq qiluvchi, faqat o`ziga taalluqli bo`lgan manfaatlari va maqsadlari shakllanishi milliy ongni vujudga keltiradi.

**Milliy g`urur** – 1) shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o`z-o`zini anglash asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma`naviy merosdan, o`z xalqining jahon tsivilizatsiyasiga qo`shgan hissasi, o`zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro`-e`tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha. **“An`ana”** – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros bo`lib o`tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta`sir o`tkazadigan madaniy xodisadir. An`ana o`ziga xos ijtimoiy qoida tarzida kishilar ongiga singan (umum yoki ma`lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi.

**Millatlararo totuvlik g`oyasi** - umumbashariy qadriyat bo`lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo`lib xizmat qiladi. Millat(lotin. *natio* — millat) til, ma`naviyat, milliy o`zlikni anglash ruxiyati, urf-odatlar, an`analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan xududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bog`langan, shuningdek, odatda o`z davlatiga ega bo`lgan hamda mustaqil subyekt sifatida o`ziga xos moddiy va ma`naviy boyliklarni ifodalovchi kishilarning ijtimoiy barqaror birligi.

**Jangob** — Toshkent shahridagi hozirgi A. Qodiriy nomli madaniyat va istirohat bog`ining o`rni. To`g`risi, janggoh — «goh» toponim yasovchi affiks

bo`lib, asl ma`nosi joy, o`rin, maydon demakdir; poytaxtimizdagi nomozgoh guzari — juma kunlari va hayitlarda jamoat bo`lib namoz o`qiladigan joy bo`lgan. Toshkent dahalari ana shu erda jang qilishgan, degan fikrlar mavjud, ammo bu joy faqat jang emas, xo`roz, qo`chqor urishtirib, hordiq chiqaradigan joy degan ta`riflar ham mavjud.

**Darxonariq** — Mo`g`ulcha «darhon» so`zidan tarkib topgan bo`lib, ma`nosi «majburiyatlardan to`la ozod qilingan» demakdir. Bunday nomlar ko`p uchraydi. Masalan, Samarqand viloyatining Ishtixon rayonida Boshdarxon, Jo`raboydarxon, Ozoddarxon, Naymandar-xon, Po`latdarxon, Qirqdarxon degan qishloqlar bor. Bu so`z o`zbek tilida «tarxon» shaklida ishlatiladi. Tarxon — xohlagan narsasini qila oladigan; harbiy xizmatdan butunlay ozod kishidir. Tarxonlar har qanday jinoyat qilsalar ham, to`qqiz nafargacha afv etilgan. Tarxonlik XV asrda ayniqsa avj olgan va feodallarga keng imtiyoz berishning bir vositasi hisoblangan. Temuriylar davlatida tarxonlar qo`lida yirik erlar va katta hokimiyat bo`lgan. Tarxonlik O`rta Osiyoda xdm saqlanib qolgan. Ba`zan ayrim kishilargina emas, balki butun bir shaxdr aholisiga tarxonlik huquqi berilgan.

**Arpapoya** so`zi aslida arpaning poyasi yoki arpa ekiladigan joy bo`lmasa kerak. H. Hasanov ma`lumotiga ko`ra, Aropa deganda o`rda chetidagi xandaq tushunilgan. Aropa asta-sekin Arpapoya bo`lib o`zgarib ketgan bo`lishi mumkin. Aropa (Arofa) «balandlik» ma`nosidagi «arfa» so`zining ko`pligi bo`lishi ham mumkin.

**Anhor** atamasi arabcha nahr (daryo, kanal) so`zining ko`pligi. Akademik YA. G`. G`ulomovning fikricha, Bo`zsuvi kanali shahar ichkarisiga kirgan hozirgi Semashko nomli shifoxona yonida g`arbga — Kaykovus nomi bilan, janubga — Anhor nomi bilan ikkiga bo`linib ketgan. Har ikkala kanal milodning V — VI asrlari mobaynida qazilgan.

**Eski jo`va** — Toshkentdagi xon arkingning chekkasida, eski harbiy aslahdlar saqlanadigan omborxonona — jevaxona bo`lgan. Haqiqatan ham jeba (jiba) deganda sovut yoki umuman harbiy qurol-aslahat tushunilgan. Bu o`rinda yana shuni ham aytish kerakki, tarixiy manbalarda, xususan vaqf hujjatlarida jo`ba «bozor» ma`nosida uchraydi. CHunonchi, X asr yodgorligi Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida Buxoro bozorlaridan biri Jubai baqqolon, ya`ni Baqqollar bozori deb atalganligi qayd qilingan.

**Chaqar** deb shahar devorining tashqarisidagi qal`a istehkomga aytilgan. YAna shuni aytish kerakki, chahar degan Mo`g`ul urug`i bo`lgan, Mo`g`ulistonda chahar degan joy ham bor. Filologya fanlari doktori S. D. Nominxonov O`zbekistonda CHaqar deb nomlangan qishloqlardan ettitasini sanab o`tadi va bu qishloqlar CHaqar degan urug` nomi bilan atalgan, deydi.

### Etnomadaniyat fani bo'yicha test savollari.

Savol	A	B	C	D
O'zbek xalqining madaniyati jamiyatimizning qaysi jabhalarida namoyon bo'ladi?	moddiy sohada	Faqat madaniy va ma'naviy sohada	moddiy, ma'naviy va siyosiy sohada	*Jamiyatdagi barcha jabhalarida
.Etnomadaniyat fani nimani o'rganadi?	*xalqning boy madaniyati tarixi, san'ati, adabiyoti, dini, yozuvi, turmush tarzi, udumlari, marosimlari	o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyati	o'zbek xalqining urf-odatlarini	xalqimizning diniy E'tiqodi
.Etnoges deganda nimani tushunamiz?	*xalqning kelib chiqish tarixi	xalqning nomini kelib chiqishi	«o'zbek» atamasini kelib chiqishi	O'zbeklarni millat sifatida shakllanishi
Jamiyatning shakllari deganda nimani tushunasiz?	*jamiyatning moddiy va ma'naviy sohada namoyon bo'ladi	xalqning turar joylarida namoyon bo'ladi.	xalqning bayramlari, an'analari, urf-odatlarida namoyon bo'ladi	o'zbeklarning milliy ruhida namoyon bo'ladi
Milliy xalq o'yinlarimiz deganda nimani tushunasiz?	millat kurashi, futbol, xokke, tennis o'yinlari	*ajdodlarimiz paydo bo'lgandan buyon kattalar va yoshlar tomonidan o'ynalib kelayotgan turli xalq o'yinlari	bolalar o'yinlari	xalqaro miqyosiga ko'tarilgan o'yinlar
Mustaqillik yillarida qayta tiklangan qanday bayramlarini bilasiz?	Mustaqillik kuni, konstitutsiya kuni, o'zbek tiliga davlat til maqomi berilgan kun	Qurbo va Ro'za hayiti	Navro'z bayrami, 8-mart, 9-may g'alaba kuni	*Navro'z, Ro'za va Qurbon hayiti, hosil bayrami
Har qanday milliy qadriyatlar darajasiga milliy ko'tarila oladimi?	Ha, barcha urf-odatlarimiz milliy qadriyatlarimizdir	Yo'q faqat mustaqillik yillaridagina barcha urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz darajasiga ko'tarildi	*Ajdodlarimizdan avlodlarimizga o'tib kelgan xalqimiz madaniyat mos kelgan urf-odatlarimizgina milliy qadriyat darajasiga ko'tarila olgan	To'g'ri javob yo'q
Movaraunnahr	M.Behbudiy	O'z. Res. prezidenti	A.Avloniyga	Turkiston General

sarhadlariga uzoq tariximizga ne-ne bosqinchilar kirib kelib, hukmronlik qilgan lekin xalq qoldiku, o`troq yashagani, ilma`rifatga intilgan buyuk madaniyatga intilgani ega bo`lgani o`z urfodatlarini muqaddas bilganini uchun emasmi degan so`zlar kimga tegishli?		I.Karimovga		gubernatori Kaufman
Navro`z bayramining kelib chiqishi bilan bog`liq to`g`ri javobni toping?	Zardo`shtiyar ta`limotiga ko`ra yaxshilik xudosi Axuramazdani, yomonlik xudosi Axriman ustidan g`olib chiqqan kun	Qadimiy afsonalarga ko`ra Odam Ato Momo Havoni uchratgan kun	Firdavsiyning SHohnomasida SHoh Jamshid nomi bilan bog`liq	*Javoblarning barchasi to`g`ri
Quyoshning hamal burjiga kirishi kecha va kunduzning vaqt jihatidan barobar bo`lishi kunning uzaya boshlashi tabiatda jonlanishning boshlanishi nimani anglatadi?	*Navro`z kuni bilan bog`liq tabiat qonuniyatlari	Beruniyning qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik asarining mazmun mohiyati	A.Navoiyning «Tarixi mulk ajam» asarining mazmun mohiyati	To`g`ri javob B va C bandlari
O`timshda hattotlar Deb kimlar atalganlar?	*husni xat bilan shug`ullanuvchi xat yozuvchi Mirzolari	Xon saroyida yozuv chizuv shikoyat xatlari bilan shug`ullanuvchilarni	Xon saroyida shikoyat xatlarini tekshiruvchilarni	Xorijiy davlatlar bilan xat yozishuvchi Mirzolari
O`tmihda saxxoflar kim bo`lgan?	kitob do`konida kitobfurushlik bilan shug`ullanuvchilar	*varaqlarni muqovalab kitob shakliga keltiruvchilarni	xalqni savodxonligi uchun mas`uliyatli shaxslarni	To`g`ri javob A va B

O'lkamizda tasviriy san`at qaysi davrdan boshlab vujudga kelgan?	qadimdan	*ibtidoiy jamoa tuzumidan	ilk temir davridan	milodiy VII-VIII asr
Ma`luki arxitektura san`ati ham tasviriy sang`atning bir turi, ammo	asosan geometrik shakllar aniq o`lchovlar simmetrik ko`rinishlarga asoslanadi	Badiiylik erkinlikni talab etmaydi	Doimo o`zgarib bormaydi	to`g`ri javob yo`q
Sulton Xusayn Bayqaro Alisher Navoiyni saroyga taklif qilib, zo`r tantana bilan kutib oladi, taqdirlaydi. Oq arg`umoqqa mingazib, o`zi bobomiz mingan otni jilovini tutganicha Xirotda shaxri ko`chalarini aylantirib chiqadi. Xaloyiq ularni bab-abaravr olqishlaydi. Nima uchun?	Alisher Navoiyning vazirlik mansabiga tayinlanganligi uchun.	Uzoq ayriliqdan so`ng Navoiy Xirotda qaytganligi uchun	Do`stlikning mustaxkamligini ko`rsatish uchun	* Biri buyuk asar yaratgani, ikkinchisi bunday iste`dod sohibini kadriga etgani uchun
so`g`d yozuvi qachon paydo bo`lgan?	Mil.avv. XV-XII asrlarda	* Mil.avv. III-II asrlarda	Mil.avv. XI-X asrlarda	Mil.avv. VI-VII asrlarda
Buyuk ipak yo`li to`g`risida yozma manbalar guvohligi nechanchi asarlarga taalluqli?	* Mil.avv. II asrlarga	Mil.avv. II ming yilliklarga	Mil.avv. VI asrlarga	Mil.avv. XVI asrlarga
Joytun madaniyatining mazmun-mohiyati nimada?	* Kopetdog` etaklarida, Qoraqum cho`lida, neolit davrida ilk	Amudaryo quyi xavzasida Neolit davrida ovchilik va baliqchilik bilan shug`ullangan	Paleolit davriga oid arxeologik topilma	To`g`ri javoob A va B bandlar



	dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalar madaniyati	qabilalar madaniyati		
Sarazm madaniyati nima?	* Bundan 6 ming yil burun zarafshon vohasining toponomikasiga tegishli Sarazm qishlog'idan topib o'rganilgan eneolit davri qabilalarining dehqonchilik madaniyati	Bundan 3,5-4 ming yil burun Janubiy O'zbekistonda yashagan bobodehqonlarning makoni	Surxondaryo viloyatida yashagan ajdodlarimizning chorvachilik madaniyati	To'g'ri javob yo'q
Tozabog'yob madaniyatining mazmun-mohiyati?	Surxondaryo viloyati. Dalvarzintepa madaniyati	* Mil.avv. II ming yillikning o'rtalarila Amudaryoning quyi xavzasida yashagan chorvador qabilalar madaniyati	Qozog'iston cho'llarida yashagan ajdodlarimiz madaniyati	To'g'ri javob yo'q
etnografiya fani nima? o'rganadi?	* Xalqimizning kelib chiqishi, tarkibi, turmushi, urf-odatlarini, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganadi	Qadimiy o'tmishdagi moddiy-madaniy turmushni va yodgorliklarni o'rganadi	Qadimiy yozuvlar, bitiklar, kitoblar, qo'l yozmalarni o'rganuvchi fan	Tarixiy manbalar va xujjatlarni o'rganadi
Arxeologik fani nima? o'rganadi?	Xalqimizning o'tmishdagi moddiy madaniyatini o'rganuvchi fan	* Ilk etnomadaniyat, ya'ni moddiy va ma'naviy madaniyat, tarixni o'rganadi	Xalqimizning ma'naviy madaniyatini o'rguvchi fan	Xalqimizning diniy tasavvurlarini o'rganuvchi fan
Har qandan moddiy va ma'naviy madaniyatning asosi nima bilan belgilanadi?	Ishlab chiqarish bilan	Dehqonchilik bilan	* Mehnat bilan	Aql-farosat bilan
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ro'za xaytiini dam olish kuni»	1991 yil 27 martda	* 1992 yil 27 martda	1993 yil 27 martda	1994 yil 27 martda

deb e`lon qilish to`g`risida»gi farmon qachon qabul qilingan?				
Har qanday urf-odatlar qadriyatlar hisoblanadimi?	Ha	Yo`q	* Ajdodlarimizdan avlodlarimizga o`tib kelayotgan, davr sinovidan o`tgan, umumxalq manfaatlariga mos keladigan urf-odatlarigina qadriyatlar darajasiga ko`tarila oladi	To`g`ri javob B band
O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Muslmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to`g`risida»gi farmoni qachon e`lon qilingan?	1992 yil 2 iyunda	1993 yil 2 iyunda	1994 yil 2 iyunda	* 1990 yil 2 iyunda

## **“Etnomadaniyat” fanidan talabalar bilimini baholash mezonlari**

Ushbu talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-sonli “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug'i hamda shu buyruqqa asosan ishlab chiqilgan, Namangan davlat universitetining 2018 yil 10-oktyabrdagi 3-sonli Kengashida muhokama qilingan va ma'qullangan Namangan davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi bo'yicha YO'RIQNOMA asosida ishlab chiqildi.

Fan o'qituvchisi tomonidan birinchi mashg'ulotda Yo'riqnoma talablari hamda nazorat turlari, soni, shakli va talabalar bilimini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.

### **Nazorat turlari:**

Talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida hamda mashg'ulotlardan keyin o'tkaziladi.

Talabalar mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar ishchi fan dasturida belgilangan mavzularning kamida 50 foizini o'zlashtirishlari va baholanishlari shart. Talabalarning mashg'ulotlarda olgan baholari barchasi qo'shiladi va olinishi shart bo'lgan baholar soniga bo'lgan holda o'rtacha baho keltirib chiqariladi.

Mashg'ulotlar jarayonida talabalar mustaqil ta'limiga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda talaba belgilangan TBBM asosida baholab boriladi.

**Oraliq nazorat** fan o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan test shaklida semestr davomida bir marta o'tkaziladi. Test TBBM asosida baholanadi.

Talabani yakuniy nazoratga kiritilishi o'quv mashg'ulotlari (seminar mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, ma'ruza mashg'ulotlari yakunida olinadigan oraliq nazoratning test shakli)da olgan ballari asosida amalga oshiriladi. Bunda talabaning olgan barcha baholari umumlashtiriladi va o'rtacha baho keltirib chiqariladi.

Talabaning yakuniy nazorat turigacha bo'lgan o'rtacha bahosi quyidagicha aniqlanadi:

$$O'B = \frac{MO'B + MTB + ONB}{3}$$

bu yerda: O'B- semestrda talabalarning olgan o'rtacha bahosi;  
MO'B – mashg'ulotlarda to'plagan o'rtacha bahosi;

MTB – mustaqil ta’limdan olgan bahosi;

ONB – oraliq nazorat turining test shaklida olgan bahosi.

3 – mashg’ulotlar, mustaqil ta’lim va oraliq nazorat shakllari

Agar talabaning o’rtacha bahosi 3 bahoga yetmasa yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida talabaning nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarini o’zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o’tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o’tkazish shakli Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi kafedrasidan belgilanadi va ishlab chiqish uchun fakul’tet dekaniga taqdim etiladi.

Nazorat turlari bo’yicha materiallar 6 oy mobaynida saqlanadi.

#### **Talabalar bilimni baholash mezonlari (TBBM):**

<b>Baho</b>	<b>Talabalarning bilim darajasi</b>
5 – “A’lo”	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilgandayu
4 – “Yaxshi”	Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda.
3 – “Qoniqarli”	Talaba olgan bilimni amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda.
2 – “Qoniqarsiz”	Talaba fan dasturini o’zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

#### **Talabalar bilimni baholash:**

Talabalar bilimni baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi. Bunda 5, 4 va 3 baholar nazorat turlariga kirish yoki talabalarga stipendiya tayinlash va kursdan-kursga ko’chirish uchun asos bo’lsa, 0, 1 va 2 baholar nazorat turlariga kirish uchun yetarli bo’lmaydi va belgilangan muddatlarda talaba fandan qayta topshira olmasa akademik qarzdor hisoblanadi.

Oraliq nazorat turini o’tkazish va mazkur nazorat turi bo’yicha talabaning bilimni baholash tegishli fan bo’yicha o’quv mashg’ulotlarini olib borgan professor-o’qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Oraliq nazorat ballari yakuniy nazorat o’tkaziladigan muddatdan kamida bir hafta muddatda umumlashtirilishi va talabalarga fan o’qituvchisi tomonidan yetkazilishi shart.

Yakuniy nazorat turini o’tkazish va mazkur nazorat turi bo’yicha talabaning bilimni baholash o’quv mashg’ulotlarini olib bormagan professor-o’qituvchi tomonidan yoki markazlashgan holda axborot kommunikasiya texnologiyalarini

qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Kafedra mudiri yillik yuklamadagi fanlar bo'yicha yukuniy nazoratlarni o'tkazadigan professor-o'qituvchilar ro'yxatini shakllantiradi va ro'yxatni fakultet dekaniga tasdiqlatadi. Agar belgilangan fan bo'yicha mashg'ulot o'tgan professor-o'qituvchi(lar)dan boshqa fan bo'yicha mutaxassis bo'lmagan hollarda, tegishli kafedra mudiri o'quv yilining boshida fakultet dekaniga mutaxassis bilan ta'minlash yuzasidan yozma murojaat qiladi. Ushbu holatlarda fakultet dekani mutaxassis yetishmaydigan fan(lar) bo'yicha mutaxassis topish uchun bevosita mas'ul hisoblanadi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etmaydi.

Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2 martadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasidan norozi bo'lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyasiya komissiyasiga apellyasiya berish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to'rt nafar a'zo kiritiladi.

Talaba baholash natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyasiya Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni

o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmaganini ko'rsatiladi. Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.

**Baholash natijalarini qayd etish:**

Talabalar bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida qayd etib boriladi.

Professor-o'qituvchi qo'shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Nazorat turi bo'yicha talabani baho "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoki "5" (a'lo) baho bilan baholanganida, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yiladi. Agar talaba sababsiz yoki uzrli sabab bilan mashg'ulotlarga qatnashmasa, unga yo'q (y yoki nb) qo'yiladi. Uzrli sabablarga kasallik, uylanish va turmushga chiqish, yaqinlarini olamdan o'tishi, boshqa joylarga rejalashtirilgan safar va shunga o'xshash omillar kiritiladi.

Yakuniy nazorat turi bo'yicha talabani baho "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabani baholash daftariga yozilmaydi.